

63
2-96

M. IS'HOQOV, I. XUDAYNAZAROV

YORDAMCHI TARIXIY FANLAR

Tarixiy onomastika
Tarixiy informatika
Tarixiy toponimika
Uniformologiya
Nekropolistika
Arxontologiya
Stavrografiya
Numizmatika
Kodikologiya
Psixoistoriya
Kliometrika
Filumeniya
Epigrafika
Bonistika
Geraldika
Faleristika
Filokartiya
Sfragistika
Medalerika
Paleografiya
Emblematika
Berestologiya
Veksillologiya
Prosopografiya...



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**M. Is‘hoqov,
I. Xudaynazarov**

**YORDAMCHI
TARIXIY FANLAR**

O‘QUV QO‘LLANMA

TOSHKENT
«NOSHIR»
2019

UO'K 94(075.8)

KBK 63.3ya73

I-96

Mas'ul muharrir:

R.H. Sulaymonov tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

X.T. Fayziyev O'zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi direktori, tarix fanlari nomzodi

O. Rahmatullayeva O'zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi, Nizomiy nomidagi Pedagogika universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Is'hoqov, Mirsodiq.

I-96 Yordamchi tarixiy fanlar [Matn]: o'quv qo'llanma / M. Is'hoqov, I. Xudaynazarov. –Toshkent : Noshir nashriyoti, 2019. 288-b.

ISBN 978-9943-5485-9-6

Tarix fanining yuzaga kelishida «Yordamchi tarixiy fanlar»ning o'zmi beqiyos darajada muhim. «Yordamchi tarixiy fanlar» deganda, paleografiya, epigrafika, numizmatika, tarixiy toponimika, sfragistika, geraldika, tarixiy toponimika, tarixiy atamashunoslik kabi bir qator ilmiy yo'nalishlar tushuniladi. Bu sohalarining beradigan ma'lumotlari tarix tadqiqotlarining asosiy material zamini hisoblanadi. Bugungi kunda «Yordamchi tarix fanlari» ko'lami kengayib, kodikologiya, berestologiya, bonistika, faleristika, veksillologiya, emblematika, filokartiya, filumeniya, uniformologiya, arxontologiya, nekropolistika, stavrografiya, medalerika, kliometrika, prosopografiya, psixoistoriya, tarixiy informatika kabi fan tarmoqlari tarix fanining sohasi sifatida Yevropa mamlakatlari oliy ta'lim tizimida mutaxassis tayyorlash jarayonida o'qitilmoqda. Ushbu tajribadan kelib chiqib tayyorlangan o'quv qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy-gumanitar, xususan tarix yo'nalishlari bakalavriatura bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan.

UO'K 94(075.8)

KBK 63.3ya73

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi muvoqiflashtiruvchi kengashning 2018 yil 14-iyundagi 531-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-5485-9-6



M.M. Is'hoqov, I.B. Xudaynazarov, 2019

© «NOSHIR» nashriyoti, 2019

SO‘Z BOSHI

Yordamchi tarixiy fanlar nomi ostida birlashtiriladigan ilmiy va amaliy sohalarning tarix fani uchun muhim ahamiyati ma'lum. Tarixiy voqelik ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, ilmiy, texnik taraqqiyot masalalarini qamrab olar ekan, bular bilan bog'liq aniq ma'lumotlar zahirasi, ya'ni tarixning faktologik bazasi yordamchi tarix ilmiy sohalar bo'yicha birlamchi tadqiqotlar hosilasidir. Masalan, tarixiy voqelik makon bilan bog'liqligi qonuniyat. Shunday ekan, bu masala tarixiy geografiya ma'lumotlariga tayanadi. O'z navbatida tarixiy geografiya manbahunoslik bilan uzviy bog'liq ish ko'radi. Yoki, tarixiy voqea vaqt chizig'ining muayan nuqtasiga joylashadi. Buni aniqlash uchun tarixchi vaqt hisobi, uning turli usullari, hisob uchun qabul qilingan shartlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Zero, vaqt hisobi masalasida jahon xalqlari turli davrlarda turlicha yo'l tutganlar. Oy va quyoshning yillik harakati zaminida paydo bo'lgan vaqt hisoblari o'zaro yaqin tuyulgani bilan astronomik vaqtga nisbatan hisoblar xilma-xilligi, kabisa yilni belgilash tartibi va boshqalarda o'zaro farqli jihatlari mavjud. Bu hol har bir sanani aniqlashda hisob usuli shartlaridan kelib chiqishni taqozo etadi.

Tarix manbahunoslikka tayanadi. Manbalar esa, moddiy-ashyoviy hamda yozma turlarga bo'linadi. Moddiy manbalar inson faoliyati mahsuloti sifatida qaraladi va tarixchi-arxeologlarning talqinlari orqali tarix faktlariga aylanadi. Yozma yodgorliklar esa, ular tadqiqotchiga yetkazgan ma'lumotlari bilan qadrlil. Biroq yozma yodgorliklardan ular qanday yozuvda bitilgani, yozuvining uslubi, qanday materialda ekani, unda ishlatilgan rang-bo'yog'i, saqlanish holati, yozuv ashyolari kabi masalalar bilan bog'liq paleografik ma'lumotlarsiz o'z mazmunini to'la ochib bermaydi. Bulardan tashqari «Yordamchi tarixiy fanlar» tushunchasi numiz-

matika, metrologiya, tarixiy toponimika, sfragistika, geraldika, tarixiy onomastika kabi bir qator ilmiy yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liq. Bu sohalarning beradigan ma‘lumotlari tarix tadqiqotlarining asosiy material zaminini hisoblanadi. Jumladan, «Paleografiya» yozma yodgorliklarni matnshunos va manbashunoslar tomonidan tadqiq etishga tayyorlab beradi. Matnshunoslik esa, saqlanib qolgan nusxalarni qiyosiy o‘rganib, tayanch nusxa asosida yodgorlikning mukammal tanqidiy matnini yaratadi. Bu matn tadqiqochi manbashunos uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. «Numizmatika» sohasi esa, tarixiy davrlarning siyosiy, iqtisodiy munosabatlari haqida hamda ma‘naviy hayoti to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Shu bilan birga numizmatik material metalga ishlov berish, metall quyish, tangalar yuzidagi tasvirlar asosida san‘atshunoslik kabilarga qaratilgan tadqiqotlar uchun zamin yaratadi. «Xronologiya» sohasi bergan ma‘lumotlarsiz tarixiy jarayonlarni tasavvur qilib bo‘lmaydi. «Xronologiya» turli usulda vaqt hisoblarini o‘zaro muvofiqlashtirib, ularning hisobini biridan-birini chiqarish usullarini o‘rganadi. Shu bilan birga voqealar tadqiqotlarining asosiy material zaminini hisoblanadi. «Tarixiy metrologiya» insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida amal qilgan o‘lchov birliklarini, ularning me‘yoriy huquqiy tizimin sistemali tarzda o‘rganadi. Bulardan tashqari yordamchi tarix sohalari yana bir qator ilmiy-amaliy tarmoq sohalari bilan kengayib bormoqda. Jumladan, kodikologiya, berestologiya, bonistika, faleristika, veksillologiya, emblematika, filokartiya, filumeniya, uniformologiya, arxontologiya, nekropolistika, stavrografiya, medalerika, kliometrika, prosopografiya, psixistoriya, tarixiy informatika kabilar XX asr davomida shakllanib ilmiy amaliyotga joriy etilgan. Ushbu o‘quv qo‘llanma ta‘lim to‘g‘risidagi nizom va Davlat ta‘lim standarti talablariga muvofiq yaratildi. Unda Yordamchi tarix fanlarining maqsad va vazifalari, mazmuni to‘g‘risida bakalavriat talabalariga ma‘lumot beriladi. Uni yaratishda mavjud ilmiy adabiyotlar, qo‘llanmalar, internet materiallari hamda 2013 yilda chop etilgan Z.Rahmonqulovning «Xronologiya», 2015 yil nashr etilgan O.Bozorov, R.Ahmedov va boshqalar muallifligidagi «Yordamchi tarix fanlari» qo‘llanmalari, 2013 yil nashr qilingan «Tarix atamalari lug‘ati» va Sh.Ziyodovning muhrshunoslikka bag‘ishlangan maqolasidan foydalanildi.

I-BO'LIM. «YORDAMCHI TARIX FANLARI»NING UMUMIY ASOSLARI

I.1. Yordamchi tarix fanlarining maqsadi, vazifasi va metodologik asoslari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Yordamchi tarix fanlari to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish, bu fan sohalarining tasnifi, yo'nalishlari va ish usullari hamda tarix fani uchun zarurligini, metodologik asoslarini tushuntirish.

Tayanch so'z va iboralar: *paleografiya, numizmatika, xronologiya, tarixiy metrologiya, tarixiy toponimika, sfragistika, geral'dika, kodikologiya, berestologiya, bonistika, faleristika, veksillologiya, emblematika, filokartiya, filumeniya, uniformologiya, arxontologiya, nekropolistika, stavrografiya, medalerika, kliometrika, prosopografiya, psixoistoriya, tarixiy imformatika.*

Tarixiy tadqiqot bilan shug'ullanayotgan har bir olim yoki ilmiy izlanuvchi yordamchi tarix fanlarini chetlab o'ta olmaydi. Yordamchi tarix fanlari tadqiqot metodikasi va texnologiyasiga doir umumiy va xususiy masalalarni o'rganish, tahlil qilish, ishlab chiqish bilan chegaralanadi. Yordamchi tarix fanlarining har biri mustaqil tarix fani bo'lib, o'zining o'z tarixi va metod va uslublari mavjud. Har biri mustaqil fan sifatida shakllanish va rivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda. Har bir yordamchi tarix fani umumiy va maxsus tarix fanlarini chuqur va keng hamda mufassal o'rganishga yordam beradi. Mustaqil fanlardan asosiy farqi shuki, yordamchi tarix fanlari nisbatan tor doiradagi maqsad va vazifalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Yordamchi tarix fanlarining har bir bo'limi alohida bir tarmoq bo'lib tarix fani oldidagi muammolarni, kamchiliklarni to'ldirish bilan birga o'zining alohida tadqiqot usuli va tadqiq ob'ekti,

o‘z yo‘nalishlariga egadir. Masalan, yordamchi tarix fani bo‘limlaridan «xronologiya»– vaqtni, tarixiy voqealarni, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini davrlarga bo‘lishini umumiy qoidalari va xususiyatlarini o‘rganadi. Numizmatika – qadimgi tangalar orqali o‘sha davrning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va diniy tasavvurlarni o‘rganishga yordam beradi. Tarixiy geografiya– eng qadimgi viloyatlar hududiy joylashishi, davlatlarning hududlarini o‘rganadi. Tarixiy metrologiya – uzunlik, vazn, maydon, hajm o‘lchovlarini davlatlararo savdo-sotiq, mol ayirboshlash jarayonlarini o‘rganadi. Bundan tashqari, epigrafika, diplomatika, genealogiya, tarixiy geografiya, onomastika, arxeografiya kabi bir necha yordamchi tarix sohaları mavjud. Lekin, shuni alohida ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda numizmatika, paleografiya, tarixiy geografiya, genealogiya singari yordamchi fan tarmoqlari jadal rivojlanmoqda, ammo geraldika, sfragistika, onomastika, arxeografiya kabi tarmoqlar bo‘yicha alohida bir ilmiy tadqiqot yoki mashhur biror olim nomini eslab o‘tish mushkul.

Yordamchi tarix fanlari tadqiqot doirasi va usuli qanday bo‘lishidan qat’iy nazar birinchi navbatda manbashunoslik fani bilan uzviy va chambarchas bog‘liqdir. Chunki, yordamchi sohalarining hammasi manbadagi ma’lumotlarni har tomonlama o‘rganish va mazmunini ochib berish bilan shug‘ullanadi. Manba qo‘lyozma, tanga, arxeologik topilma va boshqa ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari geografiya, psixologiya, tibbiyot, ekologiya, O‘zbekiston tarixi, jahon tarixi, arxeologiya va boshqa fanlar bilan bog‘liq. Turli xil fan olimlari orasida yordamchi tarix sohalarining ayrimlarini tarixiy deb atash to‘g‘risida bahs-munozaralar mavjud. Masalan, onomastika atoqli shaxs otlarini aniqlash bilan shug‘ullanadi, ammo tilshunoslik fanining usul va uslubiyatlaridan foydalanadi va tilshunoslik fanining bo‘limlaridan biri bo‘lib hisoblanadi deb hisoblaguvchi olimlar bor. Yoki, tarixiy geografiyani-geografiya fanining tarkibiy qismi deb hisoblashadi. Shuni e’tibordan qochirmaslik kerakki, onomastika tilshunoslikning tadqiqot usullaridan foydalanib tarixiy voqealarning mohiyatini tushunishda yordam bera oladigan tarixiy shaxsning ismini aniqlab beradi. Tarixiy geografiya kerak bo‘lsa, geografiya fanining usullaridan foydalanib tarixiy chegara masalalariga aniqlik kirita oladi. Tarix fani hatto polebotanika fani usullaridan ham qo‘llashi mumkin. Tibbiyot xodimlari qadimiy ma’lumotlar va dori-darmonlar haqida ularning tarixiy

ildizlari haqida tarix ma'lumotlaridan foydalanishlari mumkin. Masalan, mashhur Gippokrat qasamining zardushtiylikning «Avesto» kitobidan olinganligi, Ibn Sinoning «Tib qonunlari»ning o'qilishi va fanga kiritilishi bu manbashunos tarixchi olimlarning ishi bo'lganidek, ushbu sohalar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birining tadqiqot usullaridan va to'plagan ma'lumotlar bazasidan foydalanishi mumkin. Ushbu o'quv qo'llanmada bo'lajak tarixchi olimlar uchun eng kerakli bo'lgan paleografiya, epigrafika, numizmatika, tarixiy toponomika, tarixiy onomastika, xronologiya, tarixiy metrologiya, sfragistika, geraldika kabi an'anaviy yordamchi tarix fan tarmoqlari bilan birga yangi paydo bo'lgan sohalar yoritib berildi. Bu fan sohalarini o'rganishda alohida ijobiy xususiyat shuki, biz Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiga jiddiy e'tibor qaratish va bu sohadagi yutuq va kamchiliklarni ham ko'rsatib o'tishga intildik. G'arb olimlarining yordamchi tarix sohalariga doir tadqiqotlarini ko'rib chiqib shunday xulosa qilish mumkin; ular Markaziy Osiyo tarixini umuman o'rganishni yoki, bu hudud haqidagi ma'lumotlarni ilmiy adabiyot, tadqiqot mavzusiga kiritishni rejalashtirmagan. Yoki, bu mintqa tarixini umuman o'rganishni xohlama-gan va bilmaydi.

Yordamchi tarix fanini o'qitishda qadimgi qo'lyozmalar, tangalar, arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan ashyolardan, muzey eksponatlaridan, hujjatlarning asl nusxalaridan, tarjimalaridan va imkon qadar zamonaviy texnik vositalardan foydalanish zarur. Tarixni muayyan ijtimoiy, siyosiy manfaatlar talablariga bo'ysindirishga qaratilgan har qanday urinish bu fan oldidagi ob'ektivlik talabiga ziddir. Chunki, o'tmish tarixchi ixtiyoridan tashqaridagi, biroq, to'g'ri tushunilishi va tushuntirilishi lozim bo'lgan ob'ektivlikdir. Bu o'rinda tarixchi o'tmish voqealar karvonining oxirida borayotgan sayyohdek. Karvon boshidagi, o'rtasidagi voqealar uning uchun ko'rish imkoniyatidan tashqari va mutlaqo xolis haqiqatdir. Voqealarning kelib chiqish shart-sharoitlarini, sabablarini, ularning kechish jarayonlarini, oqibatlarini, keyingi voqealarga ta'sirini, bu tizimni bog'lab turuvchi qonuniyatlarni ochib berish tarixchidan chuqur va atrof-licha bilim, manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini talab qiladi. Tarixchi, ayniqsa manbashunos, uzoq va yaqin o'tmishni undan qolgan moddiy, yozma va og'zaki manbalar asosida haqqoniy tavsif, tahlil va talqin qilish-ga mas'uldir. Shu bilan barobar tarixchi o'zi foydalanayotgan manbaning

voqelikka munosabatini ham to'g'ri baholashi lozim. Chunki, turli davr manbalarida manfaatlar ziddiyati, mualliflarining o'zlari xabar berayotgan voqea-hodisaga munosabati tabiiy holdir. Tarixiy jarayon esa, unga munosabatlar sub'ektivligidan ustun, barqaror va o'zgarasdir. Tarix fanining bosh maqsadi jamiyat bosib o'tgan taraqqiyot va tanazzullar, yangidan jonlanishlar, sifat va miqdor o'zgarishlarining sabablari, jarayonlarning kechishini, oqibatlarini, ichki qonuniyatlarini, tashqi omillarini, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy shart-sharoitlarini tushuntirishdan iborat.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni tarix fanining ma'lumotlar bazasini tashkil qiluvchi, materiallar majmuini shakllantiruvchi ilmiy-amaliy sohalar bilan tanishtirish, ularda bu sohalar haqida mukammal tasavvur, bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir. Fanning vazifasi talabalarni manbashunoslikning asosi hisoblanmish «yordamchi tarixiy fanlar»ning sohaları bilan tanishtirish, qadimgi yozuvlar matnlarining tashqi holati bo'yicha zarur amaliy xulosalar chiqarishga o'rgatish, qadimgi yozma yodgorliklarni tavsif qilish usullarini o'rgatish, epigrafika manbashunoslikning maxsus sohasi sifatida turli kitobalarni o'qish, tahlil qilish va manba sifatida ilmiy hamda o'quv jarayonlarga jalb etish, numizmatik materiallardan siyosiy va iqtisodiy hayotga oid xulosalar chiqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalar berish, tarixiy atamashunoslik sohasi haqida tasavvur bilim va ko'nikmalar berish, sfragistika tarixiy muhrlar haqida, ularning ijtimoiy hayotdagi vazifalarini va tarixiy ahamiyatini o'rgatish vazifasiga xizmat qiladi, geraldika qadimgi urug', qabila, ijtimoiy-siyosiy uyushmalar, davlatlar, diniy ijtimoiy uyushmalar kabilarning ramziy belgilari to'g'risida tasavvur va bilimlar berish, tarixiy toponimiya haqida ma'lumot berish tasavvur va bilimlar berishdan iborat.

Tarix tadqiqotlarining metodologik, g'oyaviy-nazariy asosini doimiy ravishda muayyan jamiyat, undagi yetakchi ijtimoiy kuchlarning manfaatlarini belgilab kelgan. Shu tufayli tarix fani siyosat bilan, ijtimoiy tuzulma yoki harakat, davlat tuzulmasi va boshqalarning etakchi konseptual maqsadlariga xizmat qilib keladi. Bu hol tarix tadqiqotlarining davrlar o'tgach, yangi-yangi manfaatlar nuqtai nazaridan qayta baholash ehtiyojini paydo qiladi. Tarixni qayta baholash zarurati esa, bu fan metodologiyasining ob'ektivlik talabiga (to'la xolislikka) javob berolmasligi deb baholanishi mumkin. Metodologiya va metodika (uslubiyat va tadqiqot usulla-

ri) o'rtasida uzviy aloqadorlik masalasi muhim omildir. Tadqiqot usullari uslubiyatni, ya'ni tadqiqotning g'oyaviy-nazariy asoslarini ta'minlashga xizmat qilmog'i lozimdir. Metodologiya va metodika dialektik birlikni tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasining tamoyillari qatorida eng muhimi g'oyaviy strategik maqsadni to'g'ri belgilash, tarixiy jarayonni ob'ektiv yoritishdir. Shu bilan birga tadqiqotning manbaviy asoslanishi, daliliyligi ham zarur shartdir. Aks holda tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsad (echimi izlanayotgan muammo)ni faktologik jihatdan asoslanmagan bo'ladi. Tadqiqot metodologiyasi uchun yana bir muhim tamoyil (prinsip) bu tarixiylikdir. Ya'ni, o'tmish voqea-hodisalarning o'z zamoniga nisbatan, ularning qanchalik taraqqiyotga ta'sir ko'rsatgani yoki regressiv rol o'ynagani muhim hisoblanadi. Demak, tarixiy voqea-hodisalarning ahamiyatiga o'z davriga nisbatan baho berish lozimdir deganidir.

Yuqorida keltirilgan tarixiy tadqiqot metodi va metodologiyasiga bog'iq mulohazalar o'z navbatida tarixning yordamchi ilmiy-amaliy sohalariga ham bevosita daxldordir.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. An'anaviy yordamchi tarix fan tarmoqlarini bilasizmi?
2. Yordamchi tarix fanlarining metodologik asoslarini tushuntiring.
3. Yangi paydo bo'lgan yordamchi tarix sohalarni aniqlang?
4. Yordamchi tarix fanlarining tarixni o'rganishdagi ahamiyati.
5. Bilingva va trilingva atamalarini izohlang.
6. Umumiy va maxsus tarix fanlari, ularning yordamchi tarix fanlaridan farqi?
7. Yordamchi tarix sohalarining amaliy ahamiyati va ish usullari.

1.2. Paleografiya. Fanning mazmuni va mohiyati. Ish usullari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga yozuv madaniyatining tarixiy ildizlari, yozuvning ibtidoiy shakllari, nutq-tovush-harf alifbe tizimlarining shakllanishi, qadimiy yozuv materiallari va ashyolari, yozma yodgorliklarining tashqi saqlanish holati va uni o'rganish usullari to'g'risida bilim, tasavvur va ko'nikmalar hosil qilish.

Tayanch soʻz va iboralar: *paleografiya, rasmlı va belgılı yozuvlar, rongo-rongo, kipu, tokapu, nko yozuvi, Bernar de-Monkofon, Narmer palettekasi, iyerogliflar, venyan, finikiy yozuvi, klinopis, ter-teriy yozuvi, Maykop madaniyati, grek va lotin yozuvi, mayuskul, minuskul, oʻram, alfavit, kriptografiya, Maykop yozuvi, olmeks yozuvi, luviy, ugarit alfaviti, krit, etrusk, yahudiylarning kvadrat yozuvlari, tifinag, gael xati, xangil, dongba xati, ol-chiki, bête, bassa, Vai, Varang-kshiti.*

Paleografiya yordamchi tarix fani yozuv yodgorliklarining tashqi aloqmatlari, ularda aks etgan yozuv shartli belgilar tizimi, yozuv materiali, yozuv ashyolari, bitik usullari yozuv yodgorliklarining saqlanish holati, matni tuzish va uning qismlarini joylashtirish xususiyatlari, kotiblik koʻnikmalari, husnixat shakllari, ayrim uslubiy grafik shakllar, bezaklar, harf va ularnig birikmalarida kotibning xos usullari, yodgorlikning yaxlit tuzilishiga xos alomatlar (vara-qitʼa, oʻram, kodeks, va boshqalar), bosh harf, fraza ajratish, tinish belgilari va hokazo koʻplab masalalarni yaxlit oʻrganishdan iborat murakkab vazifani ado etadi.

Paleografiya yordamchi tarixiy fanlar sohalaridan biri boʻlib, yozma yodgorliklarning yozuv tuzilishi, alifbosi yoki boshqa turdagi shartli chizma belgi va shakllarning genetik asoslari, ularning rivojlanish yoʻllari va dinamikasi, yozuv asboblari, yozuv uchun foydalanilgan materiallar, xat turlari, dastxat shakllari, xususiy xat namunalari, yozuvning uslub turlari, husnixat sifatida meʼyoriy darajalarga yetgan namunalari, yozuvning bezaklari, umumsavodxonlik va kotiblik kasbiy sanʼati turlari, matn tuzish tamoyillari, yozuv materiallari, yozuv matnlarining saqlanish holati kabi qator masalalarni oʻrganib, kerakli maʼlumotlar zahirasini manbashunoslik tadqiqotlari uchun tayyorlab beradi. Paleografiya yozma yodgorliklarning tashqi holatini tekshirish bilan shugʻullanadi. Lekin, paleografik tadqiqot uchun jahonda yoki mintaqada qadimgi yozuvlar, ularning belgi tizimlari, harflarning qaysi tovushni yoki lugʻaviy maʼnoni ifodalashi va yozuv madaniyati masalalaridan xabardorlik talab qilinadi. Bu oʻz navbatida dastlabki bosqichda qanday yozma yodgorlik bilan ish koʻrilayotgani toʻgʻrisida farazni olgʻa surish, va tekshirilayotgan yozma yodgorlik yozuvining qanday tizimga, qaysi davrga tegishligini belgilash imkonini beradi.

«Paleografiya» atamasi yunoncha ikki soʻz oʻzagidan yasalgan boʻlib, palayos – «qadimiy», grafo-«yozaman» demakdir. Yaʼni, paleografiya qadimiy va umuman oʻtmishga oid yozma yodgorliklarni oʻrganuvchi ilmiy sohadir. Yozma yodgorliklar paleografiyasi ustida ishlash birinchi galda tekshirilayotgan yodgorliklarning yozilgan vaqtini, makonini, qaysi yozuvdaligini, saqlanish ahvolini sinchkovlik bilan tavsiflashdan boshlanadi. Markaziy Osiyodagi qadimiy yozuv yodgorliklarida koʻpincha sanalari maxsus koʻrsatilmaydi. Ularning qachon yozilgani masalasida aksariyat hollarda yo bilvosita manbalardan maʼlumotlar qidiriladi., yoki yozuvining paleografik rivojlanish shakllari tadrijidan ayni tekshirilayotgan yodgorlik yozuv shaklining oʻrmini belgilashga toʻgʻri keladi. Buni sugʻd yozuvining qadimiy harflari qoʻshib yozilmagan bosqichi bilan yuksak darajada kursiv (yugurik)-ulab, ravon va uzluksiz xat turida yozilgan shakllari oʻrtasida joylashuvi namunalarni qiyoslash orqali hal etish misolida koʻrish mumkin, yaʼni, sugʻd yozuvi tarixida harflar oʻzaro ulab yozilmagan (lapidar xat turi) bilan kursiv – ravon husnixat turi oraligʻida qariyb 700–800 yillik yozuv tarixi bor. Shunday qilib, paleografiya manbahunoslar u yoki bu yozma yodgorlikni oʻqib tahlil qilishida asosiy yordamni yetkazadi. Manbahunos uchun oʻz navbatida paleografik ish usullaridan xabardorligi va paleografik tadqiqotlar natijalaridan toʻgʻri va unumli foydalana olish koʻnikmalari muhim ahamiyatga egadir.

Paleografiyaning asosiy maqsadi muayyan yozma yodgorlikning barcha tashqi xususiyatlarini aniqlash va tavsif etishdan iborat. Bu ish avvalo, yozuv materiali, yozuv belgilari, matn tuzish usullari, kabi matnning bezaklari kabi tashqi alomatlar, zamon va makonlar osha doimiy oʻzgarishda va rivojlanishda ekanini, tarixiy shart-sharoitlar bilan bogʻliqligini hisobga olinmogʻi lozim. Paleografik tahlil orqali yozma yodgorlikning tashqi holati barcha belgi va xususiyatlari haqida maʼlumotlar yigʻindisi yuzaga keladi. Ayniqsa, bu tahlil yozma yodgorlikning yozuvi nomaʼlum, joyi, sanasi haqida maʼlumotlar yoʻq yoki, yetishmagan hollarda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Baʼzan paleografik tahlil uchun yozma yodgorlikning mazmuni va qanday doiraga moʻljallangani ham hisobga olinadi. Chunki, koʻp hollarda sharqda murakkab mazmunli falsafiy asarlar murakkab xat usullaridan foydalanib koʻchirilgan hollar ham uchraydi. Bundan tashqari ayrim shaxslarning savodliligi darajasida xususiy xat namunalari meʼyor-

lashgan husnixat va mahkamachilikka xos usullardan farqli ravishda o'qib o'rganish uchun qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Paleografik tadqiqotlar bugungi kunda nafaqat qadimiy yozma manbalar doirasini balki, ma'lum amaliy maqsadlarda so'nggi davrlar, hatto hozirgi zamon yozuv materiallarini tekshirishgacha amal qilmoqda. Olimlar yozuvni bundan V-VI ming yil avval Misr, Mesopotamiya, Xett, Hindiston va Xitoyda kashf etilgan, deb hisolashadi. Qadimgi Shumerda (Mesopotamiya) mil. avv. IV ming yillikda mixsimon iyeroglif yozuvi kashf qilingan. Shumer yozuvlari suratli yozuvlar bo'lib aytmoqchi bo'lgan fikr surat shaklida aks ettirilgan. Lekin, suratli, so'zlar bilan ko'p narsani ifoda etib bo'lmagan va bu soddalashtirilib ponasimon mixxat yozuvi kashf etilgan. Mixxat belgili yozuvlar 600 dan ortiq bo'lgan. Bu yozuv III ming yillikda Shumerda ixtiro qilingan. Mesopotamiyaning Ur, Bobil, Ashur kabi shaharlarida kutubxonalar mavjud bo'lgan. Mixxat yozuvi Old Osiyoga keyinchalik Evropa davlatlariga keng tarqalgan.

Misrda bundan VI-VII ming yil avval 750 belgidan iborat – rasmi iyeroglif kashf etilgan. Misr yozuvida narsa va hodisalar turli xil rasm va belgilar bilan ifoda etilgan bo'lib zamonlar o'tishi bilan bu belgilar alifbo belgilariga aylangan. Qadimgi podsholik (mil. avv. 2800–2250) davrida 24 ta tovushni bildiradigan alifbo paydo bo'lgan. 1822 yil Jak Fransua Shampalon Rozetta shahri yaqinida toshga o'yilgan bir xil mazmundagi Misr va Yunon yozuvlarini o'qishga muvaffaq bo'lgan (Rozetta toshi hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanadi). Misrliklar yozuvi o'ngdan chapga qarab yozilgan, shumerliklar yozuvi esa, chapdan o'ngga qarab yozilgan.

Hind yozuvi – mil.avv. 3-2 ming yillikda 700 ga yaqin belgi – rasmdan iborat yozuv bo'lgan. Hind va Panjob viloyatlarida 700 belgidan iborat alifbo topilib, olimlarning fikricha, bu yozuvlar Shumer va Misr yozuvlari asosida vujudga kelganligi aniqlangan. Hind yozuvi taxminan 400 yoki, 250-300 belgi – rasmdan iborat bo'lgan shumer va xett yozuviga o'xshatiladi. Miloddan avvalgi V asrdan boshlab Hindistonda braxmi, kxaroshtxi, oramiy, gupta yozuvidan foydalanganlar.

Xitoy yozuvi – bundan IV ming yil avval kashf etilgan, Xitoy iyeroglifi dastlab Shan In davrida mil. avv. II-ming yillikda kashf etilgan, shunday yozuvlarning turi 2 mingga yaqin bo'lgan. Xan davrida iyerogliflar

soni 18 mingtaga etgan. Hozirgacha qisman o'zgarishsiz saqlangan. Dastlab xitoyliklar suyak, yog'och, cho'p, teri va bambuk daraxtidan tayyorlangan taxtachalarga yozishgan, V asrdan boshlab ipak, shoyi parchasiga yozganlar. Krit-Mikenda mil. avv. III-II ming yilliklarda chiziqli yozuv mavjud bo'lgan. Bu yozuvni 1953 yilda ingliz olimlari Ventris va Chadvik «B» chiziqli krit yozuvlarini o'qishga muvaffaq bo'lgan. Etrusk, osk, lotin yozuvlari mil. avv. VIII-VII asrlarda yaratilgan. Finikiyada mil. avv. IX asr oxiri VIII asr boshlarida 25 ta belgidan iborat yozuv kashf etildi. Yozuv isloh qilinib, 22 ta belgiga tushirildi. Bu finikiya yozuvi deb ataldi. Miloddan avvalgi II-ming yillik oxirlarida Suriyada 29 belgidan iborat, Finikiyada esa, 22 harfdan iborat alifbo kashf etilgan, dunyo alifbolari asosan finikiya alifbosidan kelib chiqqan. Finikiya alifbosi asosida oramiy yozuvi, Eron Ahamoniylari yozuvi va Parfiya yozuvi kelib chiqqan. Kishilik jamiyati o'z tarixining ko'proq qismini yozuvsiz o'tkazgan. U yozuvga etib kelguncha uzoq yo'lni bosib o'tgan va nutqni yozib olish uchun bir necha ming yil ilgarigina belgilar qo'llanila boshlagan. Biroq, 1901 yili Transilvaniyada, Terteriya qishlog'i (Ruminiya) yaqinida arxeologlar juda ham ko'p sirli rasm-belgilar chizilgan uchta sopol taxtacha topishdi. Bular deyarli etti ming yillik o'tmishga ega yozma yodgorliklar edi. Odanning tajribasi va bilimi orta borgan sari unda bilganlarini yodda tutish va boshqalarga berish zarurati tug'ildi. Buyumlardan dastlab minemonika vositalari yoki «eslatuvchi» vositalar sifatida foydalanish zamonaviy yozuvga olib keluvchi mashaqqatli uzoq yo'ldagi birinchi qadam bo'ldi. Bu vositalar fikrni uzatmas, balki uni faqat eslatardi. Biror narsani eslab qolish uchun ro'molning uchini tugish odati shundan qolgan. So'ngra buyumlarga aniq ma'no berila boshlangan. Ular oldindan kelishib olingan narsalarni bildiruvchi o'ziga xos signallar, shartli belgilar bo'lib hisoblangan. Cho'pxatga yoki, daraxt tanasiga o'yib belgi solish, tugunlar, tizimchalar, urush e'lon qilish vaqtida esa, kamon o'qi va boshqa buyumlar shunday shartli belgi vazifasini o'tagan. Buyumga ma'no birkirib qo'yishning bu usuli «buyumli yozuv» deb atalgan. Son, raqamlarni bildirish uchun, masalan, taxtachalarga o'yib shartli belgilar o'yilgan. Bu xatcho'plardan har xil shartnomalar tuzishda foydalanilgan. Shartnoma tuzishda xatcho'pni bo'yiga qoq o'rtasidan bo'lib, yarmi bir tomonga, ikkinchi yarmi ikkinchi tomonga berilgan. Xatcho'p bo'lakchalari birlashtirilganda kertiklar bir-

biriga mos kelgan. Xatcho'plar kalendar sifatida ham qo'llanilgan (unga kunlar, haftalar soni va hokazolar o'yilgan). Ular qarz shartnomalarida tilxat o'rmiida ham xizmat qilgan. Xotirada uzoq vaqt saqlab turilishi lozim bo'lgan voqealar to'g'risidagi unutilmas ma'lumotlar ro'yxati sifatida ham xatcho'plardan foydalanilgan. To'g'ri hisob-kitob uchun hisoblash tizimchalari qo'llanilgan. Ular perulik cho'ponlarda, Lotin Amerikasi va Afrikaning boshqa ba'zi xalqlarida hozir ham bor. Bir tizimcha ho'kizlar-ni, boshqa tizimcha sigirlarni sanash uchun xizmat qiladi; bu tizimcha ikki tutamga ajratiladi – bir tutami bilan sog'im sigirlar va boshqa tutami bilan bo'g'oz sigirlar sanaladi. Uchinchi tizimcha buzoqlarni sanash uchun ishlatiladi. Tizimchadagi tugunlar soni shu cho'ponning podasida necha bosh mol borligini bildiradi. Qadimgi xitoylar ham hisob-kitob va yodda saqlash uchun tizimchalardagi tugunlardan foydalanganlar. Qadimgi xalqlarda vaqt hisobi ham ko'pincha tugunlar bilan olib borilgan. Eramizdan oldingi V asrda yashagan qadimgi yunon tarixchisi Gerodot hikoya qilgan Doro kalendari bunga misol bo'la oladi. Gerodotning ta'kidlashicha, Eron shohi Doro I Skifiyaga yurish qilganida Dunay daryosiga maxsus qurilgan ko'prikdan o'tgan. Ko'prikni saqlash, qo'riqlash uchun Doro o'z ittifoqchisi bo'lmish ioniyaliklarni qoldirgan. Ularga oltmish tugunli kamar berib, bunday degan: «...Bu kamarni olinglar: endi gapimga quloq solinglar: mening skiflarga qarshi chiqqanimni ko'rishingiz bilanoq, shu vaqtdan boshlab har kuni bitta tugunni yechaveringlar. Agar tugunlar bilan ko'rsatilgandagi kunlar tugasa-yu men shu vaqt ichida qaytmasam, o'z vatanlaringizga jo'nayveringlar. Hozircha ko'prikni qo'riqlanglar va uni mumkin qadar but saqlashga harakat qilinglar. Bu bilan menga katta yordam ko'rsatgan bo'lasizlar». Tugunlardan iborat kalendardan Sibir, Gvineya, Polineziya, Sharqiy Afrika xalqlari ham foydalangan. «Axborot hassalari» ham o'ziga xos buyum-maktub vazifasini o'tagan. Ular Qadimgi Evropada, Qadimgi Xitoyda, avstriyalik va afrikalik qabilalar o'rtasida mashhur bo'lgan. Boshqa qabilaning elchisi olib kelgan hassa tashrif buyurgan shaxsning vakolatini tasdiqlovchi o'ziga xos hujjat hisoblangan. Hassaga kertib belgilar va xotira nishonlari tushirilgan. Elchi ularga qarab o'ziga qancha topshiriq berilganini eslagan. Kertik-belgilarning joylashishi, ehtimol, ma'lum faktlarni ifoda etgandir. «Vampum» kamari (po'tasi) Shimoliy Amerika hindularining buyumli yozuvi bo'lib, shakli juda

ajoyibdir. «Vampum» kamari rang-barang chig'anoqlar qo'shib to'kilgan bo'ladi yoki, chig'anoqlar unga tegishlicha osib qo'yiladi. Chig'anoqlarning o'zaro joylashuvi, soni va rangi muayyan ma'noni anglatadi. Ba'zan kamarga xabarning mazmunini aniqlashtiruvchi rasmlar ham chizilgan bo'ladi. XVII asr oxirida muhim siyosiy hujjat hisoblangan vampum ham bizga ma'lum. Penna vampuni deb ataluvchi, o'rtasiga ikkita qora shakl (kishi shakli) tushirilgan bu oq kamarni lenilenape qabilasidan bo'lgan hindular o'rtasidagi tinchlik va hamkorlik garovi sifatida taqdim qilganlar. Hozirgi Peruning qadimgi aholisi inklarning tugunlardan iborat maktubi – kipu – buyumli yozuvning ajoyib namunasi bo'lib hisoblanadi. Bunda buyumli yozuvning hamma imkoniyatlari ochib berilgan, deb sanaladi. Kipu chalkash-chulkash bog'langan, tugilgan tizimchalar osilgan yo'g'on arqon yoki tayoqchadan iborat maktubdir. Tizimchalar va tugunlarning soni, ularning katta-kichikligi, joylashishi va rangi turli ma'noni anglatgan. Kipuning og'irligi ba'zan to'rt kilogrammcha kelgan. Bo'yalmagan tizimchalar sonli hisob uchun va muhim voqea-hodisalarni yodlab qolish uchun, rang-barang tizimchalar esa, ancha murakkab xabarlar uchun qo'llanilgan.

Hindlarda har bir rang muayyan ma'noni: qora rang – baxtsizlikni, o'limni, binafsharang-xavf-xatarni yoki dushmanlikni, qizil rang-urushni, oq rang–tinchlikni, sariq rang-oltinni, yashil rang-don-dunni bildirgan. Hindlar turli ranglarni va tugunlarni turlicha qo'shib ishlatib har xil xabarlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Ba'zi olimlar, kipuga qonunlar majmui, xronikalar, hatto she'rlar yozilgan bo'lishi mumkin, degan fikrni aytmoqdalar. Boshqa olimlar esa, murakkab yozuvlarni tugunlar va rang-barang tizimcha yordamida amalga oshirish mumkin emas demoqdalar. Hozirgi vaqtda ham ishlatish qulay bo'lgan joylarda signalizasiya uchun buyumli yozuv prinsipidan foydalanilmoqda; masalan, suv yo'llarida xatarli joylarni ko'rsatib turadigan suzg'ich-bakenlar, mayoqlar va signal bayroqchalari – dengizda, svetofor va semaforlar – quruqlikdagi yo'llarda, signal lampochkalari – har xil priborlarda qo'llaniladi. Bularning hammasi «axborot hassalari» va perulik cho'ponlarning tizimchalariga «qarindosh»dir. Buyumli yozuv o'zining asosiy vazifasini bajara olmadi: insoniyatning to'plangan bilimlarini saqlab, yodlab qoladigan o'ziga xos xotirasiga aylana olmadi. Ijtimoiy turmush murakkablashgan sari bunga


ehtiyoj tobora ortib borardi. Urf-odatlar, an'analar shakllandi, ularni yangi avlodga yetkazish lozim edi. Mehnat taqsimoti va mol ayirboshlash aniq hisob yuritishni talab qilardi. Qabila boshliqlari va koinlar ajralib chiqdilar, ularning faoliyatini abadiylashtirish zarur edi.

Piktografiya yoki rasmlardan iborat yozuv zamonaviy yozuvga olib boradigan yo'ldagi navbatdagi bosqich bo'ldi. Uning xususiyati axborot uzatish bilan belgilanar edi. Rasmlardan iborat yozuvning xususiyati shuki, bunda fikr ayrim tushunchalarga ajratib emas, balki to'la ifodalanadi. Piktogrammaning eng mayda parchalari (fragmentlari) ham, zamonaviy yozuvdagi jumlar singari, mazmunan tugaldir. Jumla tarkibiy qismlarga bo'linadi, ammo piktogramma bo'linmaydi. Piktogramma harakatni, voqea-hodisani tasvirlaydi, lekin og'zaki tilni, buyumlarning nomlarini mutlaqo aks ettirmaydi. Piktogramma nimani tasvirlasa o'shani ifodalaydi, unda simbolika yo'q. Shuning uchun piktogrammani har bir kishi, qanday tilda gapirishdan qat'iy nazar, sharhlab berishi mumkin. Piktogrammalar ov haqidagi ma'lumotlarni, ro'zg'or ishlari bilan bog'liq, yozuvlarni, jangovar yurishlar, bosqinchiliklar, to'qnashuvlar to'g'risidagi xabarlarni, kuf-sufflarni (ular ayniqsa, Shimoliy Amerika hindulari o'rtasida, shuningdek Indoneziyada ko'p tarqalgan), siyosiy shartnomalarni, arznomalarni, ultimatumlar va sevgi maktublarini o'z ichiga olgan. Piktogrammarni izohlash uchun eng qulayi she'riy formadir. Piktografiya ibtidoiy san'at quchog'ida vujudga keldi. Olimlar insonlarning bundan 40-10 ming yil ilgari qadimgi paleolit davrida chizgan rasmlarini topishgan. Qadimgi odam toshni o'yib naqsh solgan, suyakka belgilar o'ygan, g'or devorlariga hayvonlar: bizon, mamont, ohular, karkidon, otlar, bug'ular yoki odanlar tasvirini bo'yoqlar bilan chizgan. Bu bilan u go'yo dunyoni bilib olgan va tasvirlagan.

Tadqiqotchilarning fikricha, piktografik yozuv neolit davrida, tarqoq urug'dosh guruhlar qabilaga birlasha boshlagan vaqtda uzil-kesil shakllangan. Piktografik belgilar hozirda ham keng qo'llaniladi. Magazin va ustaxonalarning viveskalaridagi mollar tasviri, ko'cha harakatini tartibga solib turuvchi belgilar, zaharli moddalar solingan idishlar devoridagi bosh suyagi, chalishtirilgan suyaklar tasviri va yo'nalishni ko'rsatuvchi qo'l yoki strelkalar rasmi va hokazo shular jumlasidandir. Masalan, Shimoliy Osetiyada marhumning fazilatlarini yoki iste'dodini bildiruvchi piktografik

belgi chizish odati saqlanib qolgan: mohir chavandozning qabr toshida – ot yoki egar, olimning qabr toshida – kitob, mohir tikuvchi qabr toshida esa, tikuv mashinasi tasvirlanadi. Tadqiqotchilar piktografiyani fikrni yozuv bilan ifodalashning dastlabki usuli deb hisoblaydilar. Piktografiya yaqqolligi tufayli hammabop bo‘lgan-u, biroq ma’no, mazmuni ixtiyoriy sharhlashga yo‘l qo‘ygan. Rasm fikrni aniq ifodalashga imkon beradigan, ko‘p joyni egallaydigan vosita bo‘lganligidan mavhum tushunchalarni rasm yordamida anglatish juda qiyin edi. Bir xildagi buyumning tasviri turli piktogrammalarda turlicha chiqqanligi, harakatlar, voqealar ham har xil tasvirlanganligi sababli bayon qilinayotgan ma’lumotlarning aniqligi buzilgan. Masalan, «qurol» bir joyda nayza ko‘rinishida chizilgan bo‘lsa, boshqa joyda kamon va o‘q, yana bir joyda to‘qmoq shaklida tasvirlangan. Yozuv biladiganlar nihoyat darajada kam bo‘lganligidan va yozuvdan tasodifiy hollardagina foydalanilganligidan piktografik yozuvning kamchiliklari ko‘zga tashlanmagan. Lekin, davlat tuzumi rivojlanib, yozishmalar kundalik ishga aylana borgan sari yozuvga ehtiyoj ortavergan, yozuv kundalik hayotda zaruratga aylangan. Yozishni tezlashtirishga ehtiyoj tug‘ilgan. Har bir tasvirdagi rasm asta-sekin soddalashib borishi va ularning hammasi aniq grafik belgilarga ajralib ketishi qonuniydir. Muayyan rasm buyumning nomi bilan atalgan, buyum tasvirlovchi bo‘lib qolgan. Yozuv bitiladigan material belgi-rasmlarning shakliga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, Old Osiyoda to‘g‘ri burchakli yoki cho‘zinchoq doira shaklidagi sopol taxtachalarga belgilar chizilgan. Loyning qovushqoqligi taxtachalarga aylana chiziqlar chizishni qiyinlashtirgan, shuning uchun pona shaklidagi belgilar – mixxat ishlab chiqilgan. Misrda asosiy yozuv materiali sifatida papirusdan foydalanilgan; papirus-xat yozish uchun maxsus tayyorlangan birinchi materialdir. Misr yozuvlari tasviriyligi bilan ajralib turadi. Xususan toshga o‘yib yozilgan xatlar ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ular ko‘pincha naqsh bilan mohirona uyg‘unlashtirilgan.

Piktogramma ayrim elementlarga (gap bo‘laklariga) bo‘linmasdan faqat tugallangan fikrnigina ifodalar edi, endi har bir tushunchaga va konkret buyumga belgi-rasm biriktirib qo‘yildi. Ulardan, o‘z navbatida, yozuv paydo bo‘ldi. Bunday belgilar sistemasi – ideografiya – boshqarish, hisob yurgizish, qonunlarni yozish va shu kabi boshqa ishlar uchun barqaror, aniq yozuvga ehgiyoj sezgan davlat ko‘lamida tartibga solingan. Bir



qancha mamlakatlarda (Misr, Shumer, Xitoy, Krit oroli) ideografiya jamiyat taraqqiyotining o'sha bir xil bosqichida, qulchilik davlati bilan birga paydo bo'lib, uning bag'rida kamolotga erishgan – yuksak darajada taraqqiy qilgan. Ideografik yozuv axborot mazmunini bayon qilishi bilan birga, tilning lug'aviy tarkibini ham belgilab bergan. Belgi rasmlarning izchilligi endi manzaraning injiqligiga bog'liq bo'lgan, u tilning o'ziga xos sintaktik tuzilishini aks ettirgan. Ma'nosi aniq va tasvirlanishi oson bo'lgan so'zlar uchun belgi-ideogrammalar yaratilishi grafik shakllarni soddalashtirish yo'lidan borgan. Aniq buyum bilan mavhum tushuncha o'rtasidagi bog'lantirish ba'zan bexabar odam ishonadigan rivoyat yoki e'tiqodga asosan ifodalangan. Masalan, Qadimgi Misrda tuyaqush qanotidagi hamma patlarning uzunligi bir xil bo'ladi deb, shunga qat'iy ishonishgan, shunga asosan «haqqoniylik» so'zi tuyaqush pati tasviri bilan ifodalangan. Yil so'zi esa, palma daraxti shoxi bilan tasvirlangan, chunki misrliklar palma daraxtida bir yilda faqat 12 ta novda o'sib chiqadi deb o'ylar ekan. Shumer yozuvlarida «quyoshni» tasvirlovchi belgi – nur, kun, oqlik degan so'zlarni anglatish uchun, yulduz belgisi – osmon, xudo degan so'zlarni, chigirtka tasviri esa, yo'q so'zini ifodalash uchun ishlatilgan. Xitoy tilida belgilar shakli yoki, vaziyati o'zgarishi bilan yangi ma'no kasb etganlar. Masalan, «odam» degan so'zni anglatuvchi iyeroglif birmuncha o'zgartirilganidan (yangi chiziqlar qo'shilganidan) keyin tana, qo'l degan ma'noni anglatgan. Xitoy mirzalari sonlarni va fazoviy munosabatlarni bildirish uchun maxsus shartli-ramziy iyerogliflarni qo'llanganlar. Ko'pincha murakkab va mavhum tushunchalar ikki ideogrammani bir belgida uyg'unlashtirish, birlashtirish yo'li bilan bayon qilingan. Masalan, shumer tilida quyidagi birikmalar ishlatilgan:

non+og'iz = emoq

ko'z+kuchuk = yovuz

Xitoy tilida:

ayol + bola = sevmoq

quloq+eshik = eshitmoq, bildirmay quloq solmoq

qilich + yurak = sabr qilmoq, toqat qilmoq

ayol+tom = tinchlik, sukunat, jimlik.

Atoqli otlarni ideogramma bilan anglatish ayniqsa qiyin bo'lgan. Mirzalar ba'zi otlar uchun ma'nosi jihatdan o'xshashroq ideogrammalarni qo'llanganlar. Biroq, hamma otlar ham qandaydir ma'noga ega bo'lavermagan. Bu birinchi galda xorijiy otlarga tegishlidir. Lekin, ziyrak mirzalar bu qiyinchilikni ham bartaraf etganlar. Ular tadqiqotchilar «rebus» usuli deb ataydigan usulni qo'llanganlar. Ot qismlarga shunday ajratilganki, bu qismlar eshutilishiga qarab qanday bo'lmasin biror so'zga mos keltirilgan. Bu so'zlarning ideogrammalari yig'indisidan esa, ot tuzilgan. Qadimgi mirzalarning tirishqoqligi, ijodkorligiga qaramay, ideografik yozuvda, umuman olganda, jiddiy kamchiliklar bo'lishi nutqni yozishning yangi prinsiplarini izlash zaruratini tug'dirgan. Ideografiya mavhum tushunchalarni belgilar bilan ifodalasa-da, so'zlarning grammatik formalarini ko'rsatib bera olmagan, shu tufayli tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishni aniq anglatmagan. Ideografiya sistemasining bartaraf etilishi eng qiyin bo'lgan kamchiligi-unda belgilarning juda ham ko'pligidir. Jamiyat taraqqiyotining ayrim bosqichlarida ideografik yozuvda o'n minglab belgi bo'lgan. Qadimgi xalqlar yozuvni mo'jizaviy san'at hisoblab juda qadrlaganlar, yozuvni o'zlarining katta xudolari yaratgan deb, shunga ishonganlar. Bobillar yozuv va hisobning ijodkori deb, koinotni yaratuvchi iloh Marduqning o'g'li, donolik tangrisi Nabuni, qadimgi misrliklar esa, donolik tangrisi Totani hisoblaganlar. Bu ikkala xudo odamlarning taqdirini belgilab beradigan, har kimning taqdirini uning peshonasiga «qisimat tayoqchasi» bilan yozib qo'yadigan hukmdorlar deb atalgan. Qadimgi xitoylar yozuvning ijodkori sifatida ajdarho tumshuqli xudoni – san szeni, hindlar Braxmani e'zozlaganlar. Qadimgi yunonlar son, o'lchov va alifbeni xudo Germes yaratgan deb bilganlar. Bo'g'inli yozuv sistemasi o'rganish va qo'llanish uchun ideografik yozuvga qaraganda ancha qulay bo'lgan. Undagi belgilar soni ikki-uch yuzdan oshmagan va bir necha belgidan kam bo'lmagan, shunga ko'ra yozuv ancha ixchamlashgan, tilning fonetik va grammatik tuzilishini aniqroq aks ettirgan. Qadimgi Misr yozuvida dastlab undosh tovushlar ajratilgan. Birinchi alifboni eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda finikiyaliklar yaratgan. Bu alifbo yigirma ikki harfdan iborat bo'lgan, harflar faqat undosh tovushlarni yoki undosh va unli tovushlardan tuzilgan bo'g'inlarni ifodalagan. Chunki, finikiyaliklar tili semit tillari gruppasiga mansub bo'lib, unda undosh tovushlar asosiy rol o'ynagan. So'zlarning

ildizi undosh tovushlardan tuzilgan. Unli tovushlar esa, asosan grammatik bog'lanishlarni va so'zning shakli (formasi)ni ifodalagan. Shu sababli finikiyaliklar alifbosi yozuvning bo'g'inli va harf-tovushli sistemalari o'rtasida oraliq masofani egallagan. Fipikiyaliklar alifbosidagi belgilarining shakli sodda bo'lib, yozish uchun ham, yodlab qolish uchun ham qulaydir. Finikiyaliklar yozuvining kelib chiqishi haqida bir qancha fikr bor. Olimlar misr yozuvi ham, ossuriya-bobil yozuvi ham, krit-miken yozuvi ham finikiyaliklar yozuviga asos solgan bo'lishi mumkin, deyishmoqda. Har bir nazariyaning tarafdorlari o'z dalillarini keltirmoqdalar. Biroq biz uchun muhimi – finikiyaliklar alifbosi yozuvning uzoq rivojlanish yo'lidagi qonuniy natija ekanligidir. Finikiyaliklar alifbosidagi harflar yunon va aramey yozuvlaridan o'zlashtirib olingan. Harfli-tovushli yozuvning sharqiy tarmog'i va Osiyodagi tarqalgan ba'zi bo'g'inli sistemalar oramiy alifbosidan kelib chiqqan. Yunon alifbosi G'arbiy harfli-tovushli yozuv sistemalarining beshigi bo'lganki, unli va undosh tovushlarni ishlatish bu sistemalarga ham xos bo'lgan. Yozuvning rivojlanish sxemasi: pikto-gramma– ideogramma (logogramma) bo'g'in-har biri soddalashtirilgan va tuzatilgan. Shunday qilib mil. avv. IV-III asrlardan boshlab, oramiy alifbosining harf belgilari va alifbe tizimiga asoslangan mahalliy eroniyzabon yozuvlar yaratila boshlagan. Bular o'rta fors – pahlaviy yozuvi, parfyoniy yozuv, xorazmiy yozuv, sug'diy yozuv, boxtariy yozuvi kabilar edi. Ushbu qisqa ro'yxatning ko'rsatishicha oramiyo yozuvi asosida mahalliy yozuv yaratuvchilik Eron davlatining tasarrufida bo'lgan satrapliklarga – chekka o'lkalarga ham yoyilib ulguragan.

Mazkur mahalliy yozuvlarning amaliy qo'llanishda ularni birlashtirib turuvchi omillar, birinchidan, grafik (chizma) asoslarning umumiyligi bo'lsa, ikkinchidan ushbu yozuvlarda geterografik yozuv usuli mavjudligi edi. Bu o'rinda biz geterografik xususiyat haqida tushuntirish beramiz. Geterografiya atamasi «o'zgacha yozish» deb tarjima qilinishi mumkin. Buning ma'nosi shuki, oramiy yozuvdan o'sib chiqqan mahalliy matnlarda ko'p va tez-tez ishlatiladigan ot, olmosh, fe'l, ba'zan sifat turkumlariga oid so'zlarni oramiycha yozish odat tusiga kirgan. Matnlarni o'qishda ushbu oramiycha tasvirlangan so'zlar mahalliy tildagi ekvivalentni, ya'ni teng ma'noli so'z bilan almashtirib o'qilavergan. Chunki, bu so'zlarning mahalliy tarjimalarini butun savodli jamiyat yaxshi bilgan. Demak, oramiycha

shaklda yozib qo'yilgan har bir so'z matnlarda ularga mos mazmundagi so'z orqali o'qish uchun signal vazifasini o'tagan. Bunday «so'z – signal» birliklar yozuv tarixida geterogrammalar deb ataladi. Xuddi shu kabi Xorazmiy yozuvida ham chizma shakllar oramiy yozuvi belgilari asosida rivojlanish bilan barobar geterografik qo'llanuvchi so'zlar miqdori talaygina. Geterogrammalarining salmog'i ko'p bo'lgan qadimiy yozuvlardan biri o'rta fors – pahlaviy yozuvi edi. Bu yozuv matnlarida geterogrammalar ko'p va zich qo'llangani sababli ularni oramiycha matnlar deb tushunishga moyil olimlar ham bo'lgan. 1969 yili sovet arxeologlari Enasoy dar-yosining boshida, Minusinsk yaqinidan ola-bula qilib rasmlar chizib tashlangan yettita yog'och taxtacha topishdi. Taxtachalarning shakli jangovar qilichni eslatardi. Ekspeditsiya rahbari, tarix fanlari doktori M. Gryaznov mana bunday xulosaga keldi: rasmlarning joylashishiga qarab ularni piktografik yozuv namunalari deyish mumkin. Qadimgi eniseyliklardan asrlar osha bizgacha yetib kelgan bu maktubning mazmuni, yog'och «otkritkalar»da nimalar ifodalanganligi hozirgacha ma'lum emas.

1974 yili Turkiyaning janubida fransuz arxeologlari balandligi bir metr dan sal oshiqroq tosh devorni topishadi. Devorga ikki tilda emas, balki bir yo'la uch tilda: lidiyaliklar, qadimgi misrliklar va oramiy tilida bitilgan yozuv – tirilingva ni ko'rib olimlarning sevinchi to'lib toshdi. Oramiy yozuvi qadimgi yunon yozuvi kabi yaxshi o'rganilgan edi. U qadimgi Eron imperiyasida davlat tili vazifasini o'tagan.

Tadqiqotchi atoqli otlarni bilingva yordamida (agar bo'lsa) birinchi navbatda topadi. Ular olimni noma'lum yozuvga olib kiradigan so'qmoq yo'l bo'lib xizmat qiladi, masalan, V. Tomson Orxun Enasoy bitiktoshlardagi yozuvlar ichidan birinchi bo'lib, «turk», «tangri» so'zlarni o'qiydi. Bilingva bo'lmagan hollarda noma'lm tilda yozilgan tekstni o'qib tushinishi uchun quyidagi ikki usuldan foydalaniladi.

Birinchi – kombinatsiyaga asoslangan usul, bunda yozuv o'qilayotgan (lekin tarjima qilinmagan), tekstidan kelib chiqayotgan qonuniyatlar asosida tushuntiriladi va sharhlanadi. Turli guruhdagi belgilarning tuzilishi va o'zgarishini, umuman tekstning tuzilishini, jumlaning asosiy bo'laklari qanday o'rin egallanganligini kuzata borib, keyin xulosa chiqariladi. Ikkinchi – etimologik usul. Bu usul o'qitilayotgan matndagi so'zlarni tahlil qilingan qardosh tildagi so'zlarga taqqoslashga asoslangan, biroq bu usul-

ni qo'llash uchun mazkur ikki tilning qardoshligini isbotlaydigan jiddiy dalillar zarur. Harf (belgi)lar shaklining o'xshashligi yetarli dalil bo'la olmaydi, masalan: ruscha «N» bilan lotincha «N» ning shakli bir xil lekin ular har xil o'qiladi. Yozuvchi har qanday kontekstda o'qish mumkin bo'lgandagina deshifrovkani nihoyasiga yetgan deb hisoblash mumkin.

Paleografiya faqat yozuv bilan shug'ullanmaydi u yozuv shakli, yozuv yozilgan material (qog'oz, pergament, papirus) qanday siyohda yozilgani, nima orqali yozilgani (pero, qalam, mo'yqalam) siyoh sifatida nimadan foydalanilgani kabi narsalarni ham o'rganadi. Paleografiya fanida yozuv qaysi usulda yozilgani (nastaliq, nasx, suls) va harflar necha gradus ostida yozilganiga ham e'tibor beriladi. Paleografiya atamasini birinchi bo'lib 1708 yili fransuz monaxi Bernard de Monfokon o'zining «Yunon paleografiyasi» asarida ishlatadi. U bu ishi uchun paleografiya «otasi» degan nomga sazovor bo'lgan. Uning hamkasbi Jan Mabilion (1632–1707) Parijda chop ettirgan «VI kitobdagi diplomatika» asarida ilk o'rta asrlardagi yozuvlari ilk bora klassifikatsiya qiladi. Paleografiya fani XVIII asr boshlarida Rossiyadagi ilmiy tadqiqotlar boshlanishi bilan Rossiya hududida ham keng yoyiladi. Yevropada paleografiya fanining rivojlanishi ilk o'rta asr gumanistlari bo'lmish Jovanno Bokkachcho va Franchesko Petrarka nomlari bilan bog'liq. Petrarkaning yozgan xatlari hozirda Lombardiya, Florensiya, Venetsiyada saqlanadi.

Kipu – inklarning qadimgi sanoq sistemasi va yozuvdir. Bu o'ziga xos murakkab arqon bog'lovlari va tugunlaridir. Bu tugunlarning qanday tugulganligi va ularning rangi biror bir tushunchani anglatgan. 1533 yilda ispanyalik konkistador Ernardo Pissaro kipu haqida daslabki ma'lumotlarni bergan. 1923 yilda amerikalik tarixchi Lesli Lokk o'zining «Ancient quipu» kitobida buning yozuv ekanligini isbotlab bergan. Genri Erton esa, buni hisob sestemasi ekanligini takidlagan. 2006 yilda Genri Erton tugunlarning ikki sistemaga bo'linib, 128 variantda ekanligini aniqladi. Kipu so'zining ma'nosi indeyslar tilida kechua, ya'ni «tugun» degan ma'noda bo'lgan. Tugunli yozuv Janubiy Amerikaning bir qator xalqlarida mavjud bo'lgan. U inklar davlatida rivojlangan. Kipu yirik arqon yoki tayoqqa ulangan nozik arqonlardan iborat bo'ladi. Arqonchalar rangi, sonlari va ulardagi tugunlar turlicha bo'ladi. Qadimiy ink qabilalari bu tugunlar orqali bir-biriga axborot uzatish uslubini o'ylab topgan deyish mumkin.

Buning uchun ular jundan tayyorlangan har xil turdagi arqonlardan foydalanган. Bu arqonlar turli xil ko'rishda tugib qo'yib, tayoqcharga bog'lab qo'yishgan. Xatlar ham shunday ko'rishda manzilga yetib borgan. Olimlar orasida tarqalgan ba'zi bir fikrlarga ko'ra, inklar bu usul bilan o'z mahalliy qonunlarini, solnoma va she'riy misralarini yozib borganlar. Tugunchalar bilan yozish boshqa xalqlarda ham mavjud bo'lgan. Masalan, bunday usuldan qadimgi xitoyliklar va mo'g'ullar foydalanishgan.

Kipuda yilnomalar, qonunlar, buyruqlar va she'rlar yozilgan.

Sonlardan iborat, chunki ularda mollar soni ko'p bo'lgan.

Eng qadimgi kipular qablardan topilganligi sababli, u ko'mish marosimi bilan bog'liq buyum deb hisoblashadi.

Kipular odatda turli rangli tugunlar orqali kodlangan tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, bunday kodlarning 2000 ta turi mavjud bo'lgan. Hanuzgacha bu yozuv va inklarning tili haqida yagona to'xtamga kelinmagan. Viskonsin Universiteti professori Frank Salamonning ta'kidlashicha, bu yozuvda ko'plab ramzlar va tasvirlar uning ma'nosida yashiringan. Uni o'qishga muyassar bo'lganda ham uning ma'nosini tushinib yetish dargumondir.

Taniqli hisobchi Tavantin Suyuning fikricha, bu yozuv emas balki arifmetik amallarni bajarish sistemasidir. Bu sistemadan faqatgina rohiblar emas balki, o'quvchilar ham foydalangan degan ehtimol ham yo'q emas.

Kipuni tugishda ishlatiladigan arqonlar alpaka va lamalarning yungidan tayyorlangan. Ispan tarixchisi Xose de Akostaning ma'lumot berishicha bu yozuvda imperatorning maxfiy topshiriqlari yozilgan.

Asteklar piktografik yozuvi. Astek qabilalari piktografik ya'ni rasmiy yozuvlardan foydalanganlar. Voqealarni rasmlar orqali ifodalashgan. Asteklar o'zi foydalangan yozuv va tilni naxuatl deb nomlaganlar. Bu yozuvga mayalar foydalanadigan mixtek yozuvi katta ta'sir ko'rsatgan, ammo ularning har ikkalasi ham qadimgi xochikalko, kakaxtla va undan



ham qadimgi bo'lgan teotihuakan yozuvlari asosida kelib chiqqan deya taxmin qilinadi. Astek qabilalari asosan hisob-kitob ishlarini, kalendarlarini, odamlar va joy nomlarini yozib qoldirganlar. Ushbu ma'lumotlarning barchasi naxuatli yozuvida yozilgan. Yozuvlar asosan hayvon terisiga yozilgan. Asteklar o'n oltinchi sonli tizimni ishlatganlar. Raqamlar bir necha nuqtalar, shuningdek eski q'olyozmalarda sonlarning o'zaro kombinatsiyasi sifatida qayd etilgan. Bunday tizim taqvim sanalarini yozish uchun yetarli edi.

Maya yozuvi. Mayalarning iqtisodiy-madaniy taraqqiyoti milodiy asr boshlarida yozuvni yaratish imkonini berdi. Yozuvlar koinlar tomonidan qalamda iyeroglif shaklida yozilgan va ular maxsus rasmlar orqali bezaatilgan. Bundan kelib chiqadiki, mayalar yozuvlari ham asteklarniki kabi iyeroglif va tasvirlar bilan ifodalangan. Mayalar xati XIX asrda Shampal-yon tomonidan Misr yozuvlari muvaffaqiyatli tarzda talqin qilinishi ta'sirida maya yozuvlarini deshifrofla qilish mumkin bo'ldi. Maya iyerogliflari haqida birinchi maqola 1810 yilda e'lon qilindi. Meksikadagi ushbu sivilizatsiyani o'rganish 1830 yildan boshlab amalga oshirila boshlandi. Maya yozuvi og'zaki va bo'g'inli belgilar tizimidan iborat bo'lgan. Hozirgi kunda mumtoz maya matnlari cholti tilining adabiy versiyasida yozilgan deb faraz qilinadi. Maya elitasi ushbu tilni maya tilida so'zlashadigan hududlarda qo'llaganlar. Gvatemala tog'larida yashovchi aholi yozuvlarida vaqti-vaqti bilan maya yozuvini qo'llaganliklarining ba'zi bir dalillari mavjud. Shu bilan birga, bu tillardagi matnlar, odatda, cholti tilida gapiradigan skotterlar tomonidan yozilgan va shuning uchun u maya yozuviga katta ta'sir ko'rsatgan. Maya yozuvi – keramika va devorlarga diqqat bilan terilgan, qog'ozlarda qayd etilgan, yog'ochdan yoki toshni yo'nib tayyorlangan maxsus ustunlarga yozib qoldirilgan rivojlangan belgilar tizimi hisoblanadi. Belgi usti bo'yalgan, lekin ko'p holatlarda bo'yoqlar bizgacha o'z holda yetib kelmagan. Mayalarda taxminan 7000 ga yaqin matn bo'lgan.

Tokapu yoki tukapu (kechua tilida tukapu ingliz tilida tokapu) bu inchasning eng chiroyli kiyimidir. Qo'lda ishlangan mato, ajoyib naqshlar, ayolning rangli kiyimi va shuningdek, kvadrat ichida kiritilgan geometrik raqamlar, ular alohida joylashtirilgan va bandlar shaklida vertikal yoki gorizantal chiziqlar bilan bog'langan. Birinchidan ispan missionerlari tomonidan tayyorlangan turli xil kechua lug'atlarida tukapu deb nomlangan—has-

hamatli kiyimlar yoki, kanvas deb atalgan. Ko'pgina bahs-munozaralar mavzusi tokapuning Janubiy Amerika xalqlari jumladan inchan yozuvini yozishga tegishli. Bugungi kunda XVI–XVII asr tarixchilari va yozuvchilarining guvohliklari va tokapuning yozma xarakteriga inka to'qimalariga belgi qo'yilsada, bu gipotezaning tasdiqlanishiga ishonarli dalillar yo'q. Ehtimol, kipu bilan tokapu o'rtasida ham aloqa bordir.

Rongo-rongo yozuvi Chilida yashagan aboragenlarning yozuvi hisoblanadi. Bu yozuv namunalari 1862 yilda Chilidan topilgan. 1864 yilda taniqli episkop Ejin Eyro bu yozuv bitilgan taxtachalarni yig'a boshlaydi. Bu taxtachalarda noma'lum ramzlar, hayvonlar va geometrik shakllar mavjud, jami 800 ta belgini katalog qilib chiqadi. Aborigenlar bu yozuvni o'qib yoza olganlar. Bu yerga kelgan ba'zi ruho-niylar bu yozuvlarni varvarlarning oddiy belgilari deyishsada ba'zilar buni tarixni ochuvchi kalit deb hisoblashgan. Keyinchalik olimlarning izlanishlari natijasida bu belgilarning katalogi tuzib chiqilgan. Bu yozuv mahalliy aholi tilida «kahau motu mo rongo-rongo» deb nomlangan.

Kelt-ogam yozuvi. Janubiy Irlandiya, Shotlandiya va Men oroli hududlaridan topib o'rganilgan. Bu yozuv toshga yozilgan holda topilgan. Yozuvning yuzdan ortiq namunalari mavjud. Bu yozuvning tarixi eramizdan avvalgi IV asrga borib taqaladi. 650 yilda o'z o'mini lotin yozuviga bo'shatib bergan. Kelt-ogam yozuvining o'ziga xos xususiyati shundaki, bu yozuv ikki tomoni yo'nilgan toshlarga chiziq va nuqtalarning o'ymakorlik bilan tushirilganligi. Bu alifbo 20 ta belgidan iborat bo'lgan. Keltlar sharqda ham kamdan-kam uchraydigan, oddiy bo'lmagan o'ziga xos yozuvni kashf qilishgan. Lotin yozuvi bilan birgalikda german-runik yozuvi bilan ham aloqadorlik jihati uchraydi.

Vestgotik yozuv. Ispaniyada vestgotlar g'alabasidan so'ng, rimliklar sodda tez yoziladigan yozuvni maxsus jihatlarini rivojlantirgan. Ba'zi hujjatlar VII asrga o'tish davrida turli noan'anaviy shakllar bo'lganini ko'rsatadi. Vestgot yozuvining yaqqol jihatlarini sezila boshlagan VIII asrda uning



tez yozishga asoslangan turlari paydo bo'lgan. IX asrdan kalligrafiya shakllari aniqroq bo'ldi va XI asrga kelib ingichka va qo'pol holga keldi. Juda kichik bo'lgan vestgotik yozuvining tez yoziladigan shakli IX asr o'rtalarida hujjatlarda nashr qilingan. **Meroving yozuvi.** Gaulda dastlabki qirollar sulolasi foydalangan tez yozishga asoslangan yozuv meroving yozuvi deb nomlangan. Bu 38-qirollik diplomasi orqali aks ettiriladi. 38-qirollik diplomasi bir qancha xususiy yorliqlar va ishonchligini tasdiqlovchi hujjatlardir. Garchi Ravenna kursivi va meroving hujjatlari bir asrdan kamroq aralashgan bo'lsada, bu ikki yozuv orasida katta farq bor. Kitoblarni nusxalovchilar tez yozadigan, hujjatlarni topuvchi, ingichka va qalin, tekisroq shakllardan, boshi va oxiri qisqartiriladigan shakllardan foydalangan. Meroving yozuvi shuningdek, kitoblarda bo'ladigan osonlashtirish xususiyatlarini ifodalashda ishlatiladi.

Vincha yozuvlari. Vincha yozuvlari Janubiy-Sharqiy Yevropada, ayniqsa Belgrad yaqinidagi Vinchadan, shuningdek, Gretsiya, Bolgariya, Ruminiya, Sharqiy Vengriya, Moldaviya, Janubiy Ukraina va Sobiq Yugoslaviya shaharlaridan qazilgan ishlar mobaynida topib o'rganilgan. Miloddan avvalgi VII-IV ming yilliklar oralig'idagi bu yozuv bilan bezatilgan asarlar yoshi 8000-6500 yil deb belgilashadi. Ba'zi olimlar Vincha yozuvlari minglab yillar mobaynida qadimiy Misr va shumer yozuvlaridan oldin ishlatilib, hech qayerda topilmagan yozuvlardan ham eng qadimiyligini aytadi. Yozuvlar qisqagina bo'lgani uchun va taqdim etilgan tilning noma'lumligi, juda katta ekanligi va noaniqligi bilan xususiyatlidir.

Tifinag yozuvi. Miloddan avvalgi III mingyillikka oid bo'lgan tifinag yozuv sistemasi yoki, «lybiko-berber» deb ataluvchi qoyatosh rasmlari Janubiy Jazoidagi yozuv madaniyatidan darak beradi. Hozirgi kunda Mali, Nigeriya, Chad, Janubiy Jazoir va Janubiy Liviya kabi hududlarni o'z ichiga olgan G'arbiy Afrikaning katta hududida istiqomat qilgan tuareglar tomonidan tifinag yozuvi foydalanilgan. Qadimgi davrdan buyon mavjud bo'lgan tifinag yozuvi tamazit tilida so'zlashuvchi Sahara hududida antik davrlardan beri saqlanib qolgan.

Vai yozuvi. Vai-dunyodagi eng qadimgi alfavit belgi yozuvi hisoblanadi. Bugungi kundagi Liberiya va Serra-Leonda 150.000 aholi foydalanib keladi. Vai tili- bu juda yaxshi rivojlangan bo'g'inli tizim bo'lib, qariyb 210 ta turli xildagi konsanant belgilar va unli tovushlarni yaqqol namo-

yon qiladi (qadimgi Mande avlodi). Miloddan avvalgi 3000 yillikka oid boʻlgan Goundaka, Malidan Sahara hududidagi qadimgi Tifinag va Proto-Sahara tillariga oʻxshagan va aloqasi boʻlgan tosh sirtiga yozilgan Vai yozuvi hujjatlari topilgan.

Nisibidi yozuvi. Bu yozuv Afrikada keng tarqalgan piktografik yozuvdir. Igbo va ibbi-bio efik hudularida tarqalgan. Ebbi va effigy niger til oilasining kanalegskiy guruhiga mansubdir. Afsonalarga koʻra ebi qabilasi idiokovlardan bu yozuv turini olishgan. Bu yozuv turi sibi (kesmoq) nichibi (ayyorlik, uddaburonlik) soʻzlaridan kelib chiqqan. Mahalliy sehrgarlar orasida keng tarqalgan nsibidi yozuvi Afrikaning Vai, Mende, Bamung, Looma, Bete kabi alfavitlarning yaratilishiga asos boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Nlo – maqollarga doir piktografik yozuv turi boʻlib, **Kfa** oilasiga mansub Eva xalqiga tegishlidir. Uning maʼnosi yozmoq, kesmoq. **Nlo** yozuvining oʻziga xos xususiyati shundaki, har bir belgi bitta butun gapni yoki aforizm, maqol maʼnosini berishi mumkin. Bilamizki, hozirgi kungacha dunyo tarixida 220 xil yozuv turi mavjud boʻlgan. Lekin hozirda ularning koʻplari muomaladan chiqqan. Vaqt oʻtishi bilan biror maskandagi ichki va tashqi taʼsirlar tufayli ularning holatlari va korinishlari oʻzgara borgan. Dunyo tarixida hanuz yashab kelayotgan Hindiston sivilizatsiyasida ham koʻplab yozuv turlarini koʻrishimiz mumkin. Misol uchun Kxaroshtxi, braxmi, devonogroy, sanskrit kabi yozuv turlari paydo boʻlgan.

Braxmi yozuviga toʻxtaladigan boʻlsak bu yozuv mil.avv. IV asr ikkinch yarmidan qoʻllanilib kelingan boʻlib u asosan, tangalarga bitilgan. U oʻngdan chapga qarab yozilgan boʻlib, lekin Ashoka davriga kelib chapdan oʻngga yozish yoʻlga qoʻyilgan. Bu yozuv haqida koʻplab bahsli holatlar uchraydi. Hozirgi fikrlarga koʻra, ushbu yozuv oromiy yozuvlari turkumiga kirmaydi, aksincha, shimoliy-semit alfavitlar turkumlariga yaqin. Bu yozuv turi hatto, Ahmoniy imperiyasida qoʻllanilgan. Keyinchalik kxaroshtxi yozuvini ham surib chiqargan.

Kxaroshtxi yozuvi Hind-yunon, shuningdek, hind-skif podsholigining tangalari orqali hamda Ashoka podshosining yozuvi orqali maʼlumdir. Ushbu yozuv Gʻarbiy Hindistonda vujudga kelgan va miloddan avvalgi IV asrdan to milodiy III asrgacha foydalanilgan. Bundan tashqari Baqtriya, Kushonlar imperiyasi, Sugʻdiyona oʻlkasi va Buyuk Ipak yoʻlida-

gi mintaqalarda foydalanilgan. Shundan so'ng bu yozuv keng tarqalgan braxmi yozuvi tomonidan siqib chiqarilgan. Ayrim tadqiqotchilar bu yozuvni Hind-Skif, Oriy yoki shimoliy g'arbiy yozuv deb atashadi. Yozuv juda tarqoq bo'lib o'ngdan chapga tomon yoziladi hamda belgilarning shakli taxminan eramizgacha bo'lgan X asrdagi Oromiy yozuvi shakliga o'xshash. Ma'lumot o'rnida shuni aytmoqchimizki, Sankt-Peterburgda chop etilgan «Древный Бактрия» yozilishicha, 1972 yil Dalvarzin tepani o'rganish chog'ida u yerdan 36 dona quyma oltin topilgani aytib o'tiladi va ularning miqdoriy belgilari kxaroshtxi yozuvida bitilganligi aniqlangan.

Devanagiri so'zi «deva» va «nagari» so'zlarining qo'shilmasidan paydo bo'lgan hindcha talaffuzda nagariy deb aytiladi va Hindiston va Nepal davlatlarining alfabet yozuvlari turkumidir. U chapdan o'ngga qarab yozilgan. Bu yozuvning dastlabki qismlari miloddan avvalgi I asrga oid bo'lib, keyingi ko'rinishlari X asrga tegishlidir. Devanagiri yozuvi qadimgi Braxmi yozuvi oilasiga mansub bo'lgan. Devanagiri yozuvidan 120 dan ortiq tillarda foydalaniladi. U asosan Hindiston Janubida keng foydalanilgan va sekin astalik bilan Janubiy Sharqiy Osiyoga tarqalgan. Devanagiri yozuvi 47 ta belgidan iborat bo'lib ulardan 14 tasi unli va 33 tasi undoshdir. Bu yozuv dastlab milodiy I va IV asrlarda Gujaratni qamrab olgan.

Kriptografiya (yoki kriptologiya) yunoncha «kriptos»-mahfiy, «grafo»-yozish degani. Ma'lumotlarni sir saqlashni, mahfiylashtirishni o'rganadi. Kriptografiya mahfiy matnni begona, bexabar kishilar tushunmasligi uchun yozuvni o'zgartirish tizimi, bunda oldindan kelishilgan vositalardan – belgilardan foydalaniladi. Kriptografiya diplomatik, harbiy, savdo-sotiq va moliyaga oid hamda diniy va boshqa matnlarni shifrlash uchun ishlatiladi. Bu yozuvning ko'p turlari mavjud. Matn harflarini raqamlar bilan almashtirish, harflar o'rniga har xil shartli belgilar ishlatish lozim bo'lgan harflar o'rniga boshqa alifbo harflarini qo'yib yozish va boshqa kriptografik yozuv maxsus shifr yordamida o'qiladi. Paleografiyaning mahfiy yozuv tizimi grafikasini o'rganuvchi tarmog'i. Kriptografiya axborotni boshqa ko'rinishga o'tkazishni matematik usullarni o'rganadigan fan. Maxfiy axborot almashunuvni amalga oshirishni o'rganadi. Zamonaviy kriptografiya quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi. Simmetrik va assimetrik kriptozimlar. Simmetrik kriptozimlarda shifrlash va deshifrlash

uchun bitta kalitdan foydalaniladi. (Shifrlash – ochiq matnni shifrlangan matn holatiga o'tkazish, deshifrlash–kalit yordamida shifrlangan matnni dastlabki matn holatiga o'tkazish).

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Yozuvning genetik asoslari haqida nimalarni bilasiz?
2. Hozirgi zamon yozuv tizimlarining tarixiy asoslarini bilasizmi?
3. Ideografik va iyeroglif yozuvlar farqini tushuntiring.
4. Qadimgi Misr paleografiyasi haqida nimalar bilasiz?
5. «Deshifrovka» atamasini izohlang.

1.3. Markaziy Osiyo paleografiyasi

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Markaziy Osiyo xalqlarining mahalliy tub joy yozuvlari hamda shomiy yurtlardan kirib kelgan oramiy yozuv va undan namuna asosida paydo bo'lgan parfiyoniy, xorazmiy, sug'diy, boxtariy va uyg'ur-turkiy nihoyat orxun-yenisey alifbe tizimlari, ularning harf tovush funksional xususiyatlari, paleografiyasi haqida bilim, tasavvur va ko'nikma hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: *paleografiya, pahlaviy yozuv, oramiy yozuv, qadimgi xorazm yozuvi, qadimgi boxtar yozuvi, qadimgi sug'diy yozuv, issiq yozuvi, Mug' tog'i hujjatlari, So'rx-Kutal, rabatak yozuvi, Paziriq xarobasi, Niso hujjatlari, eftaliylar yozuvi, turkiy-runik yozuv, Ongin va Bug'ut yodgorligi, Kulichur bitiktoshi, Muyun chur bitiktoshi.*

Markaziy Osiyo xalqlari yozuvning sodda, ibtidoiy shakllaridan mil. avv. I ming yillikdayoq voz kechib, mil.avv. VI asrdayoq alifboli yozuv tizimlari, xususan, oramiy yozuvi bilan tanishganlar. Olimlarning fikricha, Avesto kitobi mil. avv. VIII–VII asrlardayoq kitob holatiga keltirib yozib olingan bo'lsa, demak, ajdodlarimiz mil. avv. VII arsdayoq yozuvning alifboli darajasiga erishganlar. Demak, paleografik tadqiqotlar uchun alifboli tizimlar asosidagi material xronologiyasi ham bevosita o'sha davrdan boshlanadi. Shu sababli paleografiyani «Avesto paleografiyasi»dan boshlab, so'ngra oramiy grafikasidan rivoj topib, tez orada bir qancha mahalliy yozuv tizimlariga aylangan alifbolar, ular vositasida yozib olin-

gan yodgorliklarga o'tish ma'quldir. Bular parfyoniy yozma yodgorliklari, boxtariy-oramiy yodgorliklar, xorazmiy, sug'diy, o'rta forsiy-pahlaviy yozuvlari, sug'diy asosida rivojlangan uyg'ur-turkiysi, O'rxun Yenisey va uning o'nlab mahalliy variantlaridirki, paleografik tadqiqot orqali ularning manbaviy ahamiyatini ko'rsatib berish, ilmiy istifodaga olib kirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu borada yana bir muhim masala borki, u ham bo'lsa har bir yozuv tizimining ichki grafik rivojlanish dinamikasini ko'rsatishdir. Masalan: Markaziy Osiyoda oramiy grafikasi asosidagi yozuvlarning oramiycha shakllardan ajralib chiqib mustaqil chizma shakllar darajasiga, undan go'zal husnixat shakllariga xos yozuv usullarini paydo etish yo'llarini yodgorliklarda kuzatish ham muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo jahon qadimiy yozuv yaratuvchilik jarayonlarining muhim bo'g'ini bo'lib kelgan. Bu o'lkada yozuvlar paydo bo'lishi ikki manbaviy asosga ega. Birinchi manba mahalliy sharoitda tub joy an'alariga tayanib yaratilgan yozuv an'anaviy yo'nalishi bo'lsa, ikkinchisi uchun Old Osiyo mamlakatlaridan qadimiy Eron saltanati tasarrufida bo'lgan o'lkalarga tarqalgan oramiy yozuvi asosiy manba hisoblanadi. Mahalliy yozuv yaratuvchilik asoslarini «Issiq yozuvi» nomli bitik va u bilan shaklan o'xshash yodgorliklar-Janubiy O'zbekiston «issiq» bitiklari, Afg'onistonning Dashti navur qoyatosh bitiklari kabilardir. Lekin «issiq yozuvi» bugunga qadar ilmiy asoslangan va qanoatlanarli talqinga ega emas. Uning yodgorliklarini o'qib izohlashga qaratilgan urinishlar hali fanda to'liq e'tirof etilgan emas. Sug'd, xorazmiy, boxtariy xatlari bir qadar yaxshi o'rganilgan. Ayniqsa, sug'd yozma yodgorliklarni o'qish, talqin qilish bo'yicha ko'p ishlar qilingan. Lekin, mazkur yozuvlar yodgorliklarini izchil o'rganish davom etmoqda. Bu sohadagi vazifalar yangi avlod tadqiqotchilarni taqozo etadi.

Mintaqada shakllangan qadimgi yozuvlardan biri shubhasiz sug'd yozuvi va yodgorliklaridir. Sug'd yozuvi mil. avv. III-II asrlarda shakllangan. Lekin, milodning dastlabki davrlariga oid sug'd manbaalari kam topilgan. Buning asosiy sababi, arablar istilosidir. Arablar Markaziy Osiyoni bosib olganlaridan keyin bu yerdagi turli narsalarga yozilgan yozuvlarni beayov yo'q qildilar. Istilo natijasi Markaziy Osiyo xalqlari orasidagi til munosabatlariga ham ta'sir qildi. Arab va fors tili shahar madaniyat tiliga aylana bordi. Bu esa, sug'd tilining amaliy doirasini toraytira boshladi.

Buning ustiga turkiy tilning tobora keng yoyilishi sug'd tilining mavqeini yanada cheklab qo'ydi. Muhammad Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» asaridan ma'lum bo'lishicha, X asrda sug'd tili faqat qishloq tumanlaridagina saqlanib qolgan edi. Shuning uchun sug'd tilida yozilgan manbalar kam saqlanib qolgan. XX asrda sug'd manbalariga qiziqish kuchaydi. Asosan chet el olimlari sug'd manbaalarini topishga harakat qilishgan. 1889 yili N.I.Yadrintseyev tomonidan Orxun daryosi havzasidagi Qorabolg'a sun degan yerdan topilgan uch xil yozuvli tosh lavhadagi uchinchi yozuv sug'd tilida – «sug'd yozuvi» deb ataladigan yozuvda bitilganini aniqladi. Qizigi shundaki, sug'd tilida bitilgan dastlabki epigrafik yodgorliklar faqat sug'd hududidan tashqarida topilgan. XX asr 30-yillarigacha sug'd hududidan birorta ham yozuv topilmagan. Umuman sug'd tilidagi manbalar IV–IX asrlarga oid bo'lib turli mazmundagi yuridik hujjatlar (ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotdi hujjatlari, tilxatlar) hukmdorlar o'rtasidagi yozishmalar, kundalik turmushga oid hujjatlar hamda farmonlardan iboratdir. Bu hujjatlar Sug'diyonaning o'zida (Mug' qal'asidan), Samarqandda (Afrosiyobdan), Qirg'iziston va Sharqiy Turkistondan topilgan. 1961–1965 yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tarix va arxeologiya instituti ekspeditsiyasi Afrosiyobda V–VII asrga oid saroy harobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasi devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo'lib ular orasida oq kiyim kiygan Chag'oniyon elchisining surati ham bor. Uning etagida sug'd tilida 16 satrdan iborat ishonch yorlig'i ham yozib qo'yilgan. Muhim hujjatlar sug'diylarning Qozog'iston, Qirg'iziston, hamda Sharqiy Turkistondagi savdo koloniyalaridan ham topilgan. Bular orasida ayniqsa, 1902–1906 yillarda A.Steyn boshliq ingliz ekspeditsiyasi topgan epigrafik yodgorliklar mashhurdir. Bu ekspeditsiya Xitoyning G 'arbiy tumanlarida Dunxuan nomli joyda qazuv ishlarini olib borib, yuzlab xitoycha, turkcha va boshqa xat hujjatlari orasida sug'd yozuvi bilan bitilgan nodir qo'lyozmalar ham topishga muvaffaq bo'ldi. Talas daryosining o'ng sohilida, hozirgi Talas shahridan 7-8 km km shimolda joylashgan Kulunsoy hamda Teraksoy daralarida qoyatoshlar o'yib bitilgan yozuvlar alohida e'tiborga ega. Bu yozuvlar IV–XI asrlarda sug'd kasabalaridagi ahvol haqida, Markaziy Osiyo bilan Sharq mamlakatlari orasidagi savdo aloqalari va bunda sug'diylarning roli haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Dunxuan va Xo'ton hujjatlari A. Steyn, Talasdan

topilgan yozuvlar esa, V.A.Kamaur, M.E.Masson, D.F.Vinnik, A.Asanaliyev, U.Jumagulovlar tarafidan o'rganilgan. Sug'd yozma yodgorliklari ham yozuv alfavit turlari, ularda aks etgan diniy dunyoqarash mazmuni bo'yicha turlichadir. Masalan, budda diniy marosimlari aks etgan yozma yodgorliklarning aksariyati «Samarqand yozuvi» yoki, «sug'd milliy yozuvi» nomi bilan yuritiladigan yozuvda bitilgan. Kushonlar imperiyasida (milodiy I–II asrlar) oid tangalardagi yozuvlar ham sug'dcha bo'lgan.

1932 yilning bahorida Zahmatobod tumanida (hozirgi Ayniy) Hayrobod qishlog'i yaqinidagi Mug' nomli tepalik yonbag'rida cho'pon Jo'rali Mahmudali o'g'li kolxoz qo'ylarini o'tlatib yurganida, qal'adan noma'lum yozuvda bitilgan xatni topib oladi. Cho'pon qishloqqa qaytgach xatni mahalliy savodxon kishilarga ko'rsatadi. Lekin, xatni hech kim o'qiy olmaydi. Voqeadan xabardor bo'lgan Abdulhamid Pulodiy (Zahmatobod tuman partiya komitetining birinchi kotibi) – xatni Dushanbega jo'natadi. U yerda xatni Sobiq Ittifoq FA Tojikiston bazasining ilmiy kotibi A.Vasilyev ko'radi. Undan fotonusxa olib Peterburgga – sug'd yozuvidan xabardor olim A.A.Frey manga jo'natadi. Shu yili kuzda Qalai Mug'da qazish ishlari boshlab yuborildi. Qazishmalar natijasida 400 ga yaqin ashyoviy dalillar topildi, qal'a arxitekturasi o'rganilib izohlandi, avval topilganlari bilan birga 80 dona yozma yodgorlik tekstlari qo'lga kiritildi. Ulardan 74 tasi sug'dcha, 2 tasi arabcha, bittasi turkiy bo'lib fan uchun benihoya qimmatbaho ma'lumotlarni beradi. Bu yerdan topilgan sug'd yozuvi yodgorliklari uchun ishlatilgan materiallar yozuv taraqqiyotini o'rganishda muhim ob'ektdir. Sug'd yozuvi va Markaziy Osiyo yozuvlarining eng qadimiylari metall predmetlari yuzasidan bizgacha etib kelgan. Ularda xatning shaklan eng sodda turlaridan tortib, yuksak kursiv husnixat shakllarigacha mavjud. Sug'd yozuvining keyingi namunalari ko'pincha ipakdek nafis va pishiq «xitoy» qog'oziga bitilgan. Bundan tashqari Samarqand qog'ozi ham keng tarqalgan bo'lib, lekin, tadqiqotchilar fikricha VII–VIII asrlarda bu yerda qog'oz ishlab chiqarish qiyin bo'lganligi uchun qog'oz yetishmagan va juda qimmat turgan. Shu sababli ko'pincha xo'jalik hisobi ishlarida kundalik ehtiyojlar uchun qog'oz bilan bir qatorda yog'och ham keng qo'llanilgan. Yog'och – toldan yasalgan tayoqchalar bo'lib (uzunligi 0,5 m va undan ortiq) ularning po'stlog'i shilingan, ko'pincha uzunasiga ikkiga bo'lib ishlatilgan. Yog'ochning bo'rtiq va tekis yuzala-

riga yozilavergan. Mug' hujjatlarining 30 ga yaqini shu kabi tol yog'ochlariga yozilgan. Hujjatlarning bir qanchasi esa, charmga yozilgan. Ularning saqlanish darajasi har xil. Bulardan tashqari, sug'd yozuvining qator namunalari sopol parchalarida, idishlarning sirtida, toshda yetib kelganki ularning tarixiy va madaniy jihatidan ahamiyati beqiyosdir. Sug'd yozuvi mil. avv. I ming yillikda Osiyoda keng tarqalgan oramiy yozuvidan kelib chiqqan. Miloddan avvalgi III–II asrlarda sug'd yozuvi to'la shakllanib bo'lgan edi. Sug'dda savodxonlikka intilish kuchli bo'lganligi ko'pincha Sug'd davlatining ichki iqtisodiy taraqqiyoti ham savodxonlikni talab qilar edi. Shuning uchun ham Sug'diyona savod o'rgatish maktablari, kotiblik san'ati maktablari bo'lgan. 1965 yili Panjikentdan topilgan sug'd alifbesi bitilgan mashq taxtachasi, Mavrdan sopolga bitilgan kotib mashqlari bu fikrni isbotlashi mumkin. Qalai Mug'ddan ba'zi yodgorliklar haqida, bu yozma yodgorliklar o'sha paytda Sug'dning xo'jalik ishlari, bir qator yuridik hujjatlar, arab noibining xatlari, Devashtich qo'zg'oloni haqida. Bizga ma'lumki, Devashtich qo'zg'oloni bostirilgach, dastlab u avf etildi, keyinchalik Arbinjon degan yerda dorga osib o'ldirildi. Bu voqea 722 milodiy yilda bo'lgan. Olimlar tomonidan o'qilgan va nashr qilingan juda yomon holda yetib kelgan (charmning ko'p yerini qurt egan, chirigan, yozuvi bir qadar o'chib ketgan) arabcha xat Devashtichning arab xalifasi noibiga hijriy 100 yilda (milodiy 710–718 yillar) yozgan maxsus xati edi. Unda 710 yilda Gurak tomonidan taxtdan chetlatilgan, o'zini o'ldirgan Sug'd podshosi Tarxunning bolalariga homiy bo'lishni noibdan iltimos qilingan edi. Bu hol arab istilosi davrida Sug'dda taxt uchun kurash ham davom etganini ko'rsatadi. Aslida Devashtich Tarxunning ikki o'g'liga homiy bo'lgan va taxtning vorisi deb ana shu ikki bolani bilgan. Shuning uchun 710 yildan boshlab Sug'd podshosi hisoblangan Tarxunning akasi Gurakning hayot bo'lishiga qaramay Devashtich ham o'zini Panjikent hokimi, Sug'd podshosi deb e'lon qilgan. Arablar siyosati natijasida, ko'pchilik zodagonlar arablar tomoniga o'tgan. Sug'd podshosi Gurak ham Devashtichning taxtga da'vosidan va xalq orasidagi qo'zg'olondan qo'rqib arablar tomoniga o'tib ketgan.

Oramiy yozuvi asosida yana Xorazm yozuvi kelib chiqqan. Bu yozuvning mil. avv. V–IV asrlarga oidlari Oybuyirqal'adan topilgan. Sug'd yozuvi va xorazm yozuvlari asosida 25 harfdan iborat Toxariston

yozuvi shakllangan, bu yozuv ko'ndalangiga chapdan o'ngga qarab bitilgan. Sug'd yozuvi asosida turk yozuvi shakllangan, bu yozuv fanda ko'k turk yoki, runik bitiklari deyiladi. Sibir, Mo'g'iliston (Tunyuquq, Kultegin, Bilga Hoqon, Ongin bitiklari), Oltoy, Markaziy Osiyo (Farg'ona, Ettisuv, Zarafshon vodiysi)dan topilgan. 38–40 harfdan iborat bo'lgan. Oramiy yozuvi asosida yana kushon (bu yozuv burchakli, to'trburchakli va aylana shaklda bo'lgan) – baqtriya yozuvi shakllangan, bu yozuv qoldiqlari qadimgi Termiz shahridan topilgan. Baqtriya yozuvidan esa, eftaliylar yozuvi (25 harfli) shakllangan. Sug'd yozuvi va xorazm yozuvlari asosida yana bir yozuv uyg'ur yozuvi kelib chiqqan, uyg'ur yozuvidan manjur hamda mo'g'ul yozuvlari shakllangan.

Markaziy Osiyo hududlarida yuqorida ko'rsatilgan yozuvlar bilan bir qatorda kushanlar davrida Hindistonda yuzaga kelgan kxaroshtxi, braxmi kabi yozuvlar ham tarqalgan. Bu yozuvlar bilan bitilgan matnlardan parchalar janubiy O'zbekiston yodgorliklaridan topilgan. Bulardan tashqari milodiy III –V asrlar orasida Markaziy Osiyo o'lkalari bo'ylab kompakt diniy jamoalar sifatida tarqalgan moniychilik, xristianlikning nestorchilik oqimi vakillari orasida moniychilik va xristianchilik diniy targ'iboti ishlarni amalga oshirishda suryoniy va moniy yozuvlari keng amal qilgan. Moniyinning moniycha injil, Moniy maktublari, Kefalaya, Arjang va boshqa muqaddas kitoblari moniy yozuvi bilan sug'd tilida, uyg'ur turkiy tilida ko'plab ko'chirilgan. Demak, moniy yozuvi haqida gap ketganda oramiycha moniy, sug'dcha moniy, turkiy moniy va boshqa alifbe turlari bo'lganini ko'zda tutmoq lozim. Suryoniy yozuvidan ham xuddi shu kabi bevosita suryoniy tili, o'rta forsiy, sug'diy, turkiy tili matnlari ko'chirishda foydalanilgan. Demak, moniy va suryoniy yozuvlari shomiy tilli, eroniy zabon, turkiy tilli xalqlar uchun barobar xizmat qilgan va har bir xalq alifbo belgilarining funksional fonetik mazmunini o'zi uchun qulay shakllarga keltirib yangi-yangi alifbo tizimlari yaratishga muvaffaq bo'lganlar.

Sug'd yozuvi tarixini o'rganishda olim V.B. Xenning kiritgan «milliy sug'd yozuvi» tushunchasidan foydalanish ma'qul. Bu tushuncha sug'dlarning asosiy yozuvini, ya'ni oramiy yozuvidan ajralib chiqqan hamda harflarning tovush ifodalash xususiyatlari sug'd tili talablariga moslashtirilgan alifbo va yozuv tizimini ko'zda tutadi. Bu o'rinda «sug'd milliy yozuvi» tushunchasi shartli ma'noda qo'llaniladi. Chunki, sug'dlar Sug'd viloya-

ting asosiy aholisi va Buyuk ipak yo'llari bo'ylab yuzlab savdo-sotiq bozorlarida xalqaro savdo bilan shug'ullangan, keng tarqalgan xalq edi – millat emas. Shunday bo'lishiga qaramay sug'd xalqi ommasining asosiy katta bo'lagi «milliy sug'd yozuvini» bilgan va keng ma'noda savodxon bo'lgan. Shu bilan birga suryoniy, xristian va moniy cherkovlari jamoasi ham milliy sug'd yozuvini bilganligiga shubha yo'q. Zero, suryoniy va moniy yozuvlari faqat diniy amaliyotga xizmat qilgan. Kundalik hayotiy ehtiyojlarda bu dinlar jamoalari ham milliy sug'd yozuvidan foydalanishgani tabiiy. Bu alifbe harflar soni, tartibi jihatdan sodda tizim bo'lib, 22 ta harfdan iborat bo'lgan. Lekin, 22 ta harf bu yozuvning ajdodi oramiy yozuvi qolipidan olingan tartibni takrorlaydi. Aslida esa, sug'd yozuvi ham oramiy yozuvi singari faqat undosh harflar tizimini ko'zda tutgan.

XIX asrning II yarmida «slavyan nazariyasi» unutila boshlandi. Bu davrlarda qadimshunoslar Enasoy, Abakan daryosi qirg'oqlaridan, Oltinko'l yaqinidan, Buluk daryosi bo'ylaridan ko'plab toshga yozilgan yozuvlarni topdilar. Lekin, bu yozuvlarning taqdiri ham avvalgi yozuvlarning taqdiriga o'xshab noma'lumligicha qolaverdi. Yozuvlarning turkiy xalqlarga tegishli ekanligini birinchi bo'lib N. Yadrintsyev isbotlab berdi. U topilgan yozuvlarning taxminan 2000 yillar ilgari yaratilganini, turkiy xalqlarning skif va gotlarga qo'shni bo'lganligini, bu yozuvlar turkiy xalqlarga taaluqli ekanligini aniqladi. Lekin, bu bitiktoshlarda nimalar ifodalanganligi noma'lumligicha qolaverdi. N.M. Yadrintsyev boshliq ekspeditsiyaning Orxun va Tula daryolariga qilgan safarlari run bitiklarini butun dunyoga mashhur qildi. U topgan «tangacha»li bitiktoshlar ko'pchilik tarixchilarning diqqatini o'ziga jalb qildi. Bu matnlardan ma'lum bo'lishicha, bitiktoshlarning biri Bilga hoqon va ikkinchisi ukasi, lashkarboshi Kultegin sharafiga bitilgan ekan. Kultegin bitikida xitoycha yozuv matnlari ham bor edi. N. Yadrintsyev topilmasidan so'ng bu yozuvlar Orxun- Yenisey yozuvlari deb nomlandi. Ba'zi olimlar bu yozuvlarni run yozuvlariga o'xshashligini nazarda tutib, turkiy-run yozuvlari deb atayverdilar. 1891 yili N. Yadrintsyev Ongin daryosi bo'yidan yana bir bitiktosh topadi. U fanda Ongin bitiktoshi deb atala boshladi. Keyinchalik Yettisuvdan bitiktoshlar topildi. Ular shakl jihatidan Orxun yozuvlaridan bir oz farq qilgan. Yozuvlarni o'qish daniyalik olim V. Tomson va rossiyalik olim V. Radlovlar zimmasiga tushdi. 1893 yil bahorida Tomson Orxun daryosi bo'yidan

topilgan yozuvlarni o'qiganligi haqida Daniya qirolligi Fanlar akademiyasi yig'ilishida axborot beradi. Uning boshqa xalqlar yozuvini deshifrovka qilib o'qishda qo'llagan tajribasi Orxun yozuvlarining kalitini ochishda ham qo'l keladi. U yozuvlardan turli belgilarning qanday tovush ifodalashini bilib olgach, unga tayangan holda, Orxun yozuvlaridagi butun alifboni aniqlaydi va birinchi marta «tangri», «turk» so'zlarini o'qiydi. Bu bitiktoshlarning turkiy xalqlarga mansubligi aniq isbotlab beradi. Tomsondan keyin V. Radlov ham 1894 yil 19 yanvar kuni Rossiya Fanlar akademiyasi yig'ilishida Kultegin bitikini o'qiganligi haqida ma'lumot beradi. V.Radlov bu bitiktoshlardagi turkiy yozuvlar alifbosining 15 harfni 1893 yil kuzida, ya'ni, Tomson o'qishiga qadar aniqlab bo'lgan edi. Shunday qilib, ikki olimning sa'yi-harakatlari bilan bu yozuvlar – run, ya'ni sir emasligi isbotlandi. Bu bitiktoshlar turkiy yozuvda bitilganligi isbotlangandan so'ng, yana bir muammo paydo bo'ldi: Orxun-Yenisey yozuvlari qaysi yozuv asosida kelib chiqqan: Lekin, olimlar haligacha bu xususda bir to'xtamga kela olganlari yo'q. V. Tomson bu yozuvdagi ayrim harflarning seliy-pahlaviy yozuvdagi harflarga o'xshashligini topdi. Keyinroq turkiy alifbodagi 23 harfning oramiy alifbosiga o'xshashligi aniqlandi. U turkiy tilning tovush qurilishiga mos holda qayta ishlangan va oramiy alifbosidagi bir necha belgilar bilan to'ldirilgan degan xulosaga keldi. Oramiy yozuvi mil. avv. I ming yillik boshlarida vujudga kelgan. Bu yozuv dastlab Suriya va Mesopotamiyada paydo bo'lgan. Dastlabki oramiy yozuvi finikiya yozuvidan deyarli farq qilmagan. Keyinchalik mil. avv. I ming yillik o'rtalarida oramiylar finikiya yozuviga ayrim o'zgartirishlar kiritganlar. Harflar soni qisqartirilib, shaklini ham soddalashtirganlar. Miloddan avvalgi VIII asrdan boshlab ko'pgina xalqlar: yahudiylar, bobilliklar, ossuriyaliklar, fors-lar va arablar oramiy yozuvini o'z tillariga moslashtirganlar.

Qozog'istonlik olim A.S. Omonjulovning fikricha, turkiy alifbo mil. avv. I ming yillikda shakllanib bo'lgan edi. Bu fikrda jon bor. 1970 yil Olma otadan topilgan (Issiqdan) ashyoviy dalillar buni isbotladi. Bu erdan topilgan chetlariga turkiy-runiy yozuvlariga o'xshash belgilar bitilgan kumush kosacha hammaning diqqatini tortadi. Qazilma rahbari ashyoviy dalillar joylashgan qabr mil. avv. V–IV asrlarga tegishli ekanini aytdi. 1960 yillarda Turkiston shahriga yaqin bir joyda loyga bitilgan bitiktosh topiladi. Uchta belgini hisobga olmaganda bitik Orxun yozuviga mansub. Bu

loy bitik o'ziga xos tumor bo'lgan. Bu belgilar ijodkori noma'lum, lekin, bu belgilar o'sha davr bilan shug'ullanuvchi olimlarning aytishicha yunon alifbosidan olingan. E.D. Palivanov turk- yunon yozuvlarini turkiy muhitning o'zida paydo bo'lganligi haqidagi fikrni bildiradi. Qadimgi turkiy yozuvi 38 harfdan iborat bo'lib, 4 harf unli, qolgan 34 harf unsizdir. Yana ba'zan -a -e, -o -u, -yu harflari uchun bir harf qo'llanilgan. Bu qadimgi yozuv o'ngdan chapga qarab yozilgan va so'zlar orasiga ikki nuqta (:) qo'yilgan. Demak, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, qadimgi turk yozuvi mil. avv. V asrda paydo bo'lgan va asosan oramiy yozuvi asosida shakllangandir.

Eramizning dastlabki yillarida Arabiston yarim orolining shimoliy – G'arbiy qismida Nabatiylar davlati mavjud bo'lib bu davlatning yozuvi oramiy yozuvi edi. Bu yozuv nabatiylar davlatida ishakllanganligi sababli, nabatiylar yozuvi deb ham atalgan. Bu alifbo 22 belgidan iborat bo'lgan. Keyinchalik bu alifbodan hozirgi kunda Afrikaning shimoliy-G 'arbiy qismidan Hindistongacha bo'lgan ulkan hududda amalda qo'llanib kelinayotgan va arab yozuvi deb ataladigan yozuv shakllangan. Ilk arab yozuvining eng qadimgi yodgorliklari Janubiy Suriyadan topilgan bitiklar bo'lib, ular eramizning IV–VI asriga mansubdir. Eramizning –VI asriga kelib arab yozuvi shimoliy Afrikaga ham tarqalgan edi. Arab tilining rivojlanishi, uning xalifalikka tobe bo'lgan hududlarda keng tarqalishi arab yozuvi va uning orfografiyasini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Bu narsa esa, yozuvda isloh o'tkazish masalasini ko'ndalang qo'ydi. Bu islohn amalga oshirishda o'sha davrda Iroqning hukmdori bo'lgan Al-Hajjojning tashabbusi va xizmati ulkan bo'lgan. Yozuvda o'tkazilgan bu islohotning vaqti aniq bilingan emas. Ehtimol u bosqichma-bosqich uzoq muddat davomida amalga oshirilgan va 680 yildan 780 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan. Shunday qilib 28 ta harfdan iborat bo'lgan arab yozuvi shakllangan. Bu yozuvdagi bir-biridan shaklan farq qiladigan harflar nabatiy yozuvida bo'lgani kabi 15 tadir. Nabatiy yozuvida so'z tarkibidagi harflar asosan bir tomondan ulab yozilgan. Ilk arab yozuvida esa, harflarning ko'pchiligi har ikki tomondan qo'shib yozilgan. Shu sababli shakllanib takomiliga yetgan arab yozuvida har bir harfning so'z boshida, o'rtasida, oxirida yoziladigan va alohida shakllari ishlab chiqilgan va amalda qo'llana boshlagan. Istisno tariqasida 6 ta harf ilgarigi xususiyatini saqlab qolgan va ular faqat o'ng

tomondagi harf bilan qo‘shib yoziladi. Shuning uchun ularning ikkitagina shakli mavjud, Shunday qilib, arab yozuvidagi 28 harfning 100 ta ko‘rinishi shakllangan. Nabatiy yozuvida cho‘ziq unlilar harflar yordamida ifodalangan edi. Bu qoida arab yozuvida ham saqlab qolingan. Shuning uchun, arab yozuvidagi harflari undosh tovushlarni ifodalash bilan birga cho‘ziq a, u, i unlilarni ham ifodalaydigan bo‘lgan.

XI asrda arablarda shakllangan fikrga ko‘ra, arab yozuvining dastlabki bosqichida faqat kufiy yozuvi mavjud bo‘lgan. «Qur’oni Karim» dastlabki nusxalari shu yozuvda ko‘chirilgan. Bu yozuv 4-xalifa Ali ibn Tolib tomondan takomiliga yetkazilgan. Arab grafikasidagi boshqa xat turlari shu kufiy yozuvi asosida keyinchalik shakllangan xat turlaridir. X asrga kelib arab yozuvi yana isloh qilingan. Bu isloh Ali Muhammad ibn Ali ibn Muqla (h. 272–328) (886–940) nomi bilan bog‘liq. Bu kishi uch abbosiy xalifa qo‘lida vazirlik lavozimida ishlagan. U kufiy xati asosida sharq olamida keyinchalik mashhur bo‘lib ketgan olti xat turini yaratgan olimdir: muhaqqaq, suls, riqo, nasx, tavqi’ va rayhoniyy xat turlari. Ibn Muqlaning bu ishini eronlik olim Ali ibn Hiloi davom ettirgan. Uning tahllusi Ibn Bavvob bo‘lgan va u (413) 1022 yilda vafot etgan. U Sherozdagi mashhur kutubxonada xodim bo‘lib ishlagan. Islohot ishini undan keyin davom ettirgan shaxs so‘nggi abbosiy xalifa saroyida hattot bo‘lib ishlagan Yoqut Musta‘simiydir (640–696), (1242–1298)

1. Kufiy yozuvi nabatiy yozuvi asosida shakllangan dastlabki arab yozuvidir. U birinchi marta Kufa shahrida ishlatilib, u yerda rivoj topgani uchun «kufiy» deb nom olgan. Bu xat turidagi harf elementlariga gullar, barglar, ko‘raklar shakli berilib, husnixat turlarida ishlatilgan va unga gulli xatti kufiy deb nom berilgan.

2. Muhaqqaq yozuvi yoki xatti muhaqqaq –bu yozuv turi abbosiy hukmronligining boshlanishida – VII asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. U Iroq hududida paydo bo‘lgani sababli xatti iroqiy deb ham ataladi. Bu yozuv turida harflardagi egri chiziqlar bilan to‘g‘ri chiziqlar o‘rtasidagi proporsiya 1,4 va 3,4 ga to‘g‘ri keladi. Muhaqqaq yozuvi katta harflar bilan yoziladigan matnlarga mo‘ljallangan. Shuning uchun u katta hajmdagi «Qur’oni Karim» nusxalarini ko‘chirishda ishlatilgan.

3. Rayhoniyy yozuvi yoki xatti rayhoniyy – hozirgacha Sharq paleografiyasida bu yozuv turiga aniq ta‘rif berilmagan. Bir xil olimlar rayhoniyy yozuvi bilan muhaqqaq yozuvi o‘rtasidagi farq rayhoniyy yozuvidagi chi-

ziqlarning faqat ingichkaligi va go'zalligidan iborat, bundan boshqa ular o'rtasida farq yo'q desalar, boshqalarning fikricha, agar muhaqqaq yozuvidagi harflarning o'zaro mutanosibliigi qonun – qodasiga rioya qilgan holda nasx yozuvi bilan bir xil hajmda harflar yozilsa, bu rayhoniy yozuvi bo'ldi. Yana uchinchi toifa olimlarining fikricha, muhaqqaq yozuvida ayrim harflarni tashkil etuvchi doiralar kvadratga yaqinroq turadi.

4. Suls yozuvi yoki xatti suls – O'rta asrlarda bu yozuv musulmon olamining barcha hududlarida eng keng tarqalgan yozuv turlaridan edi. Bu yozuvni muhaqqaq yozuvi bilan qiyoslasak, muhaqqaq yozuvida tantanavorlik, ulug'vorlik aks etib tursa, suls yozuvida esa, o'ziga xos mayinlik, noziklik ustun turadi. Bu yozuvda chiziqning uchdan bir qismi to'g'ri chiziqdan va uchdan ikki qismi egri chiziq va dumaloq shakldan iborat bo'lgani uchun bu yozuv «suls» deb atalgan. (arabchada bu so'z «uchdan bir» ma'nosini bildiradi).

5. Tavqi' yozuvi yoki, xatti tavqi' – bu yozuv turi xatni tez yozishga mo'ljallangan, harflarning shakli dumaloq bo'lgan yozuvdir, o'rta asr hattotlarining fikricha, bu yozuv suls yozuvidan kelib chiqqan va uning modifikatsiyasidir.

6. Riyo yozuvi yoki, xatti riyo – buyozuv turi tavqi' yozuvining kichraygan shakli bo'lib, u ham suls yozuvi bazasida vujudga kelgan. U ham hukmronlarning farmon va yorliqlarini yozishda qo'llanilgan.

7. Nasx yozuvi yoki, xatti nasx – «nasx» so'zining lug'aviy ma'nosi «yo'q qilish, bekor qilish, chizib tashlash»dir. Atama sifatida u «boshqa xat turlarini bekor qiluvchi» ma'nosida qo'llanilgan. Keyingi ikki yarim asrlik muddat ichida undan «nasxi eroniy» deb ataladigan varianti vujudga kelgan. Bu esa, mashhur hattot va olim Yoqut Musta'simiy faoliyati bilan bog'liqdir. Xullas, arab olamida shakllanib, amalda qo'llana boshlagan arab yozuvi keyinchalik shunday taraqqiy etganki, unda vujudga kelgan yozuv turlari haqiqiy san'at darajasiga ko'tarilgan va bu yozuvlarda bitilgan qo'lyozmalar hozirgacha ham dunyo miqyosida sharq sivilizatsiyasining tipik namunasi sifatida e'zozlanib kelinmoqda.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Markaziy Osiyo paleografiyasi namunalari misollar keltiring.
2. Qadimgi Mug' tog'i hujjatlari arxivi haqida nimalarni bilasiz?
3. Rabatak arxivi tarixini yorting.

4. Qadimgi turkiy bitiktoshlarda qanday tarixiy voqealar ifodalangan?
5. Sug'd yozma yodgorliklari paleografiyasi.
6. Qadimgi turkiy yozuvning mahalliy variantlari. Yozma yodgorliklar paleografiyasi.
7. Arab yozuvi paleografiyasi. Arab yozuvi asosidagi kitobat va kitob san'ati.

1.4. Epigrafika. Tarixiy ahamiyati, maqsadi va vazifalari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Yordamchi tarix fani sifatida epigrafika mazmuni va mohiyati, tadqiqot ob'ekti hamda umume'tirof etilgan epigrafik yodgorliklar tarixi haqida bilim va ko'nikma hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: *epigrafika, transformatsiya, etimologiya, topoformant, lokalizatsiya, ma'no siljishi, bilingvizm, bitiktoshlar, Kish lavhi, Xammurapi qonunlari, deshifrovka, lotin, grek yozuvlari, maya, as-tek yozuvi.*

Epigrafika yunoncha «epi» va «grafika» so'zlaridan olingan bo'lib, «qattiq material yuzasidagi yozuv» degan ma'noni bildiradi. Epigrafika fani asosan tosh, sopol, metall, va boshqa qattiq buyumlarga bitilgan qadimgi va o'rta asr yozuvlarini o'rganuvchi fandır. Ushbu fan uyg'onish davrida qadimiylikka, chunonchi Qadimgi Sharq va qisman qadimgi «Bibliya»ga qiziqish kuchaygan paytda paydo bo'lgan. Epigrafika fanida dastlab Italiya, Yunoniston, Shimoliy Afrika va Falastindan topilgan oltindan bo'lgan yunon, etrusk, qadimgi yahudiy, finikiya yodgorliklarigagina ega edi. XIX asrning o'rtalaridan epigrafika ayniqsa, tez rivojlana boshladi. Epigrafika fani yordami bilan Kipr orolidan topilgan miloddan avvalgi XI-VIII asrlar tosh va idishlarga bitilgan yunon tilidagi yozuvlar, Livan, Suriya, Karfagen, O'rta er dengizi orollari, Italiya, Frantsiya, Ispaniya va Shimoliy Afrikadan topilgan Finikiya, Puni qadimgi yozuvlari, shuningdek miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda Fila oroli va Nil daryosidan topilgan qadimgi Misr petroglifik yozuvlari, miloddan avvalgi VI asrdagi janubiy va shimoliy arab yozuvlari, Dajla va Frot daryolari oralig'i va Old Osiyoning qadimgi hududlaridagi miloddan avvalgi III ming yillikka oid mixxat matnlari, Ahamoniylar sulolasining o'rnatilishidan Artakserks III podsholigi (mil.avv. 358-338) gacha bo'lgan davrdagi qoyalar, saroy

devorlari va oltin taxtachalarga bitilgan qadimgi Eron mixxatlari, slavyan, gruzin, arman, qadimgi turkiy, xitoy, shuningdek, Markaziy Osiyo va boshqa hududlardan topilgan ko'plab yozma yodgorliklar (bitiklar) topib o'rganildi. Epigrafikaning taraqqiyoti tufayli qadimgi xalqlarning qadimgi turmush tarzi, ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va moddiy madaniyati, diniy mazhabi va umumiy tarixi haqidagi qimmatli ma'lumotlarni to'plash imkonini yaratildi va to'plandi. Harf shakllarining o'zgarishini ilmiy jihatdan o'rganish orqali arxeologik yodgorliklarning qaysi davrga mansubligi, qadimgi yozuvlarning rivojlanish darajasi aniqlandi. Yenisey (Enasoy) daryosi havzasi (Xakasiya A.V. va Tuva A.R.) dan topilgan Orxun-Yenisey yozuvlari fanga ko'pgina qimmatli ma'lumotlarni to'plash imkonini berdi. Yumshoq buyumga yozilgan yozuv qo'lyozma hisoblanadi. Epigrafika fani qattiq buyumlarga yozilgan yozuvlarni o'rganadi. Qadimgi davrda qog'oz taqchil bo'lgan paytda qattiq materiallardan yozuv vositasi sifatida foydalanish juda keng tarqalgan. Yozuv uchun yumshoq materiallar teri, papirus, va pergamentlardan ham foydalanganlar. Lekin, bu yumshoq materiallar vaqt o'tishi bilan chirigan yoki yaxshi saqlanmagan shuning uchun qadimgi dunyo tarixini o'rganishda asosiy manba bo'lib epigrafik yodgorliklar maydonga chiqadi. Deshifrovka noma'lum yozuv bitilgan matnни o'qish demakdir. Buning uchun tadqiq etilgan yozuvdagi belgilarni o'sha belgilar bilan yozilgan tildagi so'zlarga o'xshatish, matnlashtirishdir. Noma'lum til yoki noma'lum yozuvni o'qish uchun qandaydir bir tayanch, asos bo'lishi kerak. Agar tayanch bo'lmasa, asos topilmasa, jiddiy natija chiqishini ham kutmaslik kerak.

Dastlab, tadqiqotchi noma'lum tilda, biroq ma'lum yozuvda bitilgan xat yoki hujjatni tushunib olishi va o'qishi kerak. Masalan, xett mixxatida yozilgan matn va etrusk tilini yoki, bizga yanada tanishroq misol-Portugalida lotin alifbosidan foydalanishni olaylik. Agar portugal lug'ati va grammatikasi bo'lmasa, portugalcha matnни qanday qilib o'qish mumkin? Buning uchun tadqiqotchi so'zlarning ma'nosini tushunishi va grammatik formalarini bilishi lozim. Ikkinchi variantda, til aniq ma'lum yoki ma'lum deb hisoblanadiyu, lekin matn noma'lum yozuv bilan bitilgan, masalan, Kiprning tugunli sistemasida yozilgan yunon yozuvi yoki oddiy misol: siz nemischanı tushunasiz, biroq faqat lotincha harf (shriftni) o'qiy olasiz va got harflarini bilmaysiz. Bu yerda tadqiqotchiga bir xil belgilar sistemasini

boshqa xil sistemaga o'tkazishga to'g'ri keladi. Nihoyat uchinchi, oxirgi variant sizga til ham, yozuv ham noma'lum. Bu tadqiqot eng qiyin biroq eng jozibali hol, albatta. Bunda tadqiqotchi bir xil yozuv sistemasini boshqa sistemaga o'tkazishi va ma'nosini tushunib olishi lozim. Bu vaqtda yordamchi fanlarning imkoni boricha barcha ilmiy vositalarining yordami zarur. Shuning uchun, masalan, Xett mixxatida yozilgan matnni o'qish bilan Misr iyerogliflari yoki mixxatni o'qishni bir darajaga qo'yib bo'lmaydi. Noma'lum matnni o'qish, ya'ni deshifrovka qilishning eng barakali vositasi – bilingvadir, ya'ni turli tillarda yozilgan biroq ozmi-ko'pmi bir xil mazmunga ega bo'lgan ikki parallel matndir. Masalan, rus va o'zbek tillarda yozilgan e'lonlar bunga misol bo'la oladi. Agar bilingva bo'lmaganida Misr iyerogliflarini ham Bobil mixxatlarini ham o'qib bo'lmas edi. Bundan bir necha yil ilgari Likiya bilingvalari topildi, mil.avv. bir necha asr davomida bu podsholik gullab yashnagan. Bilingvalarni topgan tadqiqotchilarning quvonchi ichiga sig'mas edi. Axir shu paytgacha likiyaliklar yozuvni o'qish imkoni bo'lmagan edi. Biroq, olimlar behuda quvonishgan ekan, topilgan narsalar bilingva emas, balki likiyaliklar bir necha so'zdan iborat yozib qoldirgan qabrtoshlarlar bo'lib chiqdiki, bu so'zlar lug'at tuzish uchun kamlik qilar edi.

Yordamchi tarix fanlarining muhim tarmog'laridan hisoblanmish epigrafika va paleografiya umuman yozuv yodgorliklari bilan shug'ullanishi jihatidan bir-biriga yaqin sohalardir. Biroq, bu yaqinlik nisbiydir. Epigrafika qattiq materiallar yuzasidagi bo'rtna va botiq matnlar bilan, paleografiya esa, yumshoq materiallar: qog'oz, pergament, papirus, potxi, beresta va boshqalar yuzasidagi matnlar bilan shug'ullanadi. Bu o'rinda paleografiya va epigrafikaning umumlashtiruvchi jihati yodgorliklardagi yozuvning grafik alomatlarini o'rganishda yaqqol ko'rinadi. 1974 yili Turkiyaning janubida frantsuz arxeologlari balandligi bir metrdan sal oshiqroq tosh devorni topishadi. Devorga ikki tilda emas, balki bir yo'la uch tilda; likiyaliklar, qadimgi misrliklar va oramiy tilida bitilgan yozuv-tirilingvani ko'rib olimlarning sevinchi oshdi. Oramiy yozuvi qadimgi yunon yozuvi kabi yaxshi o'rganilgan edi. U qadimgi Eron imperiyasida davlat tili vazifasini o'tagan. Shunday qilib, tadqiqotchi yozuvni o'qishga kirishar ekan, avvalo yozuv sistemasining umumiy xususiyatini aniqlaydi. U oxirgi satrning to'ldirilmay qolgan qismidan, yozuvning yo'nalishini bi-

lib oladi, soʻzlarning boʻlaklarga ajralishi ajralmasligini aniqlaydi, boʻlaklarga ajratilgan taqdirda boʻlaklar qanday belgilar: chiziqcha, nuqta, ikkita nuqta va hokazolar bilan muntazam takrorlanayotganligiga eʼtibor beradi. Soʻngra belgilar sonini belgilab chiqadi. Shunga qarab, u qanday yozuv: harfli, boʻgʻinli, ideografik yoki, aralash yozuv bilan ish koʻrayotganligini bilib oladi. Belgilari soni 30 tadan kam boʻlgan yozuvning harfli sistema boʻlishidan koʻra, bir necha yuz belgidan iborat, yozuvning esa murakkab boʻgʻinli sistema boʻlishi aniqroqdir. Tadqiqotchilarning atqilgan otlarni bilimga yordamida (agar boʻlsa) birinchi navbatda topadi. Ular olimni nomaʼlum yozuvga olib kiradigan soʻqmoq yoʻl boʻlib xizmat qiladi, yozuvchi har qanday kontekstda oʻqish mumkin boʻlgandagina deshifrovkani nihoyasiga yetgan deb hisoblash mumkin.

Misr yozuvi asosi eʼtibori bilan ideografik xat boʻlib, unda har bir tushuncha muayyan tasvir belgi iyeroglif bilan ifodalanadi. «iyeroglif» yunoncha soʻz boʻlib, lugʻaviy maʼnosi «muqaddas belgi». Misr yozuvi tizimida uch xil belgi ajralib turadi:

1. His-tuygʻu bilan idrok etiladigan narsalarni tasvirlovchi ideogrammalar. Bunda biror soʻzni ifodalash uchun aynan shu soʻzni ifodalovchi buyum yoki predmetning oʻzining rasmi chiziladi.

2. His-tuygʻu bilan idrok etiladigan harakatlar. Bunda biror harakatni belgilarda ifodalamoq uchun aynan oʻsha harakat rasmi chiziladi. Masalan, «uchmoq» soʻzini ifodalash uchun, qushning qanot qoqib ketayotgan rasmi chiziladi, «yigʻlamoq» soʻzini ifodalash uchun, koʻz va koʻzdan yosh oqayotganligi tasviri tushiriladi va hokazo.

3. Mavhum tushunchalarni tasviriy yoʻl bilan ifodalash. Masalan, «keksalik» soʻzini ifodalash uchun, odamning hassaga suyangan rasmidan foydalanishgan, «topmoq» soʻzini ifodalash uchun esa, laylakning engashgan holda, tumshugʻida qandaydir narsani ushlab turgan holatidan foydalanilgan va hokazo. Mavhum tushunchalarni ifodalash uchun fonetik belgilar ham qoʻllanilgan. Eshitilishi bir-biriga oʻxshash, lekin maʼnosi har xil soʻzlar, yaʼni omonimlar shunday belgilar bilan ifodalangan. Ha, bir-biriga oʻxshash, lekin aynan bir xil boʻlmagan «xob» (yuzdagi xol) va «hol» (hol-ahvoli maʼnosida) singari soʻzlar bir xil belgi bilan ifodalangan boʻlishi mumkin. Yuqorida aytib oʻtilgan «determinativlar» yoki «ochqich belgilar», garchi talaffuz etilmagan boʻlsada juda katta ahamiyatga mo-

lik deb hisoblangan. Ular bitta belgi bilan ifodalangan omonimlarni birbiridan farqlashga xizmat qilgan. Misr belgilarining aksariyat ko'pchiligi determinativga ega. Masalan, jins determinativi: erkak kishining ismidan keyin erkak bilan bog'liq bo'lgan ifodadan so'ng o'tirgan erkakni tasvirlovchi belgi va aksincha, ayol kishi ismidan keyin yoki aloqador ifoda oxirida ayolni tasvirlovchi belgi qo'yilgan. Mamlakatlar determinativi – kattaligi cheklangan bir parcha yer, vaqt determinatvi – quyosh gardishi, ish harakatlar determinativi – biron yumush bilan bog'liq qo'l, mavhum tushunchalarniki-qo'lyozma o'rami bilan ifodalangan. Misrliklarning o'z fikr-mulohazalarini yozma ravishda bayon etishlariga yordam bergan bu belgilar ikki ma'no kelib chiqishini istisno etgan. Xatni yozish yo'nalishi qat'iy belgilanmagan. Biz chapdan o'ngga qarab yozamiz, misrliklar esa, kamdan-kam hollardagina chapdan-o'ngga qarab yozganlar. Ularga belgilarni o'ngdan chapga yozish ko'proq ma'qul kelgan. Lekin, belgilar ustun tarzda, yuqoridan pastga qarab qo'yib chiqilgan. Ism va nomlar «rebus» uslubida yozilgan, biroq bu yozuvlarda unli tovushlar yo'q. Misrliklar tilida bir undosh va unilardan tarkib topgan bir bo'g'inli so'zlar bo'lgan, lekin unli tovush yozuvda ko'rsatilmaganligi sababli, bir bo'g'inli so'zlar harfga o'xshash shaklda yozilgan. Lekin, bundan, misrliklar harfni ixtiro qilganlar degan ma'no kelib chiqmaydi. U zamonlarda kishilar o'z nutqlarini bo'g'in va tovushlarga ajratishini bilmaganlar, shuning uchun bunday belgilarni harf deb tushunmaganlar. Yuqorida biz Misr yozuvini iyeroglif deb atadik. Aslini olganda bunday deyish to'g'ri emas, yozuv tushunchasining ma'nosi kengroq. Gap shundaki, misrliklar uch xil; iyeroglif, ieratik va demotik yozuvlardan foydalanganlar. Iyeroglifika yozuvi asosan hashamatli yodgorliklarda qo'lanilgan. Ieratika (yoki kitob) yozuvi belgilarining oddiyligi bilan ajralib turadi; bu yozuv o'zining rasmlilik xususiyatni biroz yo'qotgan. Ieratika belgilari papirus qog'oziga tushirish jarayonida shakllangan va dunyoviy kitoblar hamda xat-xabarlar uchun qo'llanilgan. Diniy yozuvlar ham ieratikada yozilgan. Ieratika yozuvidan iborat eng qadimgi yodgorlik miloddan avvalgi 3000 yillikka mansub. Demotika yuyunoncha «demos» so'zidan olingan bo'lib, xalqchil ma'nosida yoki tezxat. Bu xat belgilarning shaklini tobora soddalashtirish jarayonida mil. avv. VII asrda shakllandi. Bizga ma'lumki, Misr dunyoning eng qadimgi madaniyat o'choqlaridan biridir. Bu erda mil. avv. IV mingyillikda davlatlar paydo

bo'lgan. Miloddan avvalgi III ming yillikda bu yerda Fir'avnlr maqbaralari – ehromlar qurila boshlagan. Ana shu ehromlar ichida toshlarga o'yilgan yozuvlar mavjud. Qadimgi Misrliklar narigi dunyoda ham hayot borligiga ishonishgan. Bu ishonch shunchalik qat'iy ediki, ular bir umr o'zlarini narigi dunyoga tayyorlashgan. Albatta, bunday hayotga erishish tashvishini ko'proq fir'avnlr chekishgan. Ular o'zlari uchun ulkan maqbaralar qurishgan. Ular bu ehromlarni turli uy-ro'zgor buyumlari, oltin va qimmatbaho buyumlar bilan bezashgan. Shu yerda arxeologlarni bir narsa o'ylantiradi. O'zida qimmatbaho metallarni koni bo'lmagan Misr shuncha boylikni qayerdan olib kelgan? Javoblarni eng avvalo ehrom ichidagi – devorlardagi iyerogliflardan izlashgan. Ularda Misr hukmdorlari hayotidan hikoyalar talqin etilgan. Bundan III yarim ming yil avval, ya'ni mil. avv. XVI asrda Nil bo'yidagi buyuk mamlakatda Xatshepsut ismli fir'avn ayol hukmrolnik qilgan. Uning go'zal siymosi Karnakdagi Dayr-al-Bahri ehromida ham aks etgan. Ehrom uning maqbarasi bo'lishi kerak edi. Shuning uchun ham unga katta e'tibor berilgan. Uning ayvoni xushbo'y mirra daraxtidan ishlangan. Misrda esa, bunday daraxt bo'lmagan. Shu kabi, boshqa daraxtlarni, qimmatbaho mahsulotlar va oltin olib kelish uchun Xatshepsut besh kemadan iborat savdo ekspeditsiyasini tashkil etadi. Karvon dengiz ortidagi Punt mamlakatiga yo'l oladi va zafar bilan qaytadi. Bunday yurishlarning har qadami haqida ehromning devorida yozuvlar va sur'atlar mavjud. Ulardan biridagi iyeroglif bunday hikoya qiladi: «Kemalar Pont mamlakatining ajoyib narsalari turli o'simliklar, mirra va obnus daraxtlari, fil tishlari, toza oltin va boshqa narsalar bilan to'ldiriladi».

Qadimgi o'ymakorlar Pont mamlakatidagi habashlar, palma, maymun va qurilishlarni tasvirlaganlar. Afsuski, rasmlarning bir qismigina saqlanib qolgan xolos. Qadimgi misrliklarning Pontda bo'lganliklari haqida boshqa qadimiy yozuvlar ham guvohlik beradi. Ularning biridan ma'lum bo'lishicha, fir'avnlardan biri Sapura davrida 80 ming mira, 6000 o'lchov birligidagi elektrium (oltin va kumush quymasi), va 2600 bo'lak qimmatbaho daraxtlar olib kelish bilan yakunlangan. Rus olimi V.S. Golenishcheyev 1888–1889 yilning qishida Mirsga sayohat qiladi. Mana shu sayohat davomida u mil. avv. III ming yillik oxiriga oid Axmimdagi yozma va tasvir yodgorliklari haqida tadqiqot olib boradi. Uning u yerda olib borgan tadqiqotlaridan yodgorlik sifatida olib kelgan yodgorlik buyumlari 1911

yildan buyon A.S. Pushkin muzeyida saqlanadi. Bu quyi Misrdan topilgan yodgorlik asosan bir harbiy rahbarning qabr toshidagi yozuvlar haqidadir. Bu qabr tosh taxtadan tayyorlagan qalinligi 2 mm dan 3,5 mm gacha, eni 10–20 sm gacha, ba'zi joylari 30–60 sm. taxta yodgorlikning uzunligi 1 metr 80 sm, qabr tosh cho'l yulg'unidan tayyorlangan. Shu yulg'undan alohida taxta mixlar hozirlangan va shu mixlar yordamida qabr tosh devoriga qoqilgan. Taxtadagi yozuv iyerogliflar va zangori rangda berilgan. Olim taxtachani tekshira yotib bir so'zni ifodalovchi ikki xil iyeroglifga e'tibor bergan. Ya'ni, Qadimgi Misr omochini ikki shakli ayni bir so'z «sevmog»ni ifodalagan. Misrda uch xil yozuv bo'lganligi aytilgandi, ana shu misol yozuv uch turining isbotidir. Taxtachda jangchi so'zi qurol ushlab turgan odam qiyofasida berilgan. Harbiy boshliq esa, qurol ushlab yurib ketayotgan jangchi sifatida ko'rsatilgan. Endi Axmimdagi qabrtosh haqida. Qabrtosh taxtachaning qopqog'i – bu taxtacha har biri qalinligi 3 mm bo'lgan kyodr faneridan tayyorlangan. Qopqochani uzunligi 196,5 sm, eni 44,7 sm, qalinligi 7,8 sm. bu taxtacha yaxshi saqlangan bo'lib, yozuv ostidan va ustidan oq chiziqlar tortilgan. Bu oq chiziqning yozuvdan uzoqligi 0,9 sm dir. Iyeroglif qatorning balandligi esa, 7 sm. qabr toshidagi yozuvlar quyidagilardir:

«Podsho va Anubis, hokim xudo ibodatxonasiga boshchilik qiluvchi, iltifot qiluvchi va chaqiruvchi, dunyoga ajoyib bir hokimlik qilish uchun jo'natilgan, qabristonda o'zining maqbarasi bor, u xudoning oldida haqiqiy podshoh, osmon hokimi». Bu yodgorlik orqali biz harbiy qo'mondonlar ham yuksak mavqega ega bo'lganligini bilib olamiz. Qabrtosh mil.avv. III ming yillik oxiriga mansubdir. 1908 yili akademik N.P. Lixachyov qohiralik antikvar Alidan qadimgi Misr sag'anasi tasviri tushirilgan fragment (relef) sotib oladi. Bu fragment 1938 yili Ermitaj muzeyiga qo'yilgan. Keyinchalik bu fragment ustida Yu.Ya. Perepelkin chuqur izlanish olib borgan. Olim bu yodgorlikni qadimgi Misrda 5-sulolaga tegishli ekanligi aniqladi. Perepeldkindan keyin bu yodgorlik ustida hech kim ish olib bormagan. Bu relefning eng baland joyi 170 sm, eni 145 sm. Relefda asosiy figura Osiris xudosidir. Relefda yangi yildan keyin birinchi kun nishonlanadigan Tota bayrami ham ko'rsatilgan. Bu bayram faqat V-sulola vakillari tomonidan nishonlangan. Relefda Ra xudosi o'tirgan holatda tasvirlangan. O'ng qo'li tizzalari uzra cho'zilgan. Chap qo'li esa, qayrilgan holatda ko'kragida tu-

ribdi. Yuzi va parigi yaxshi tasvirlangan, hayvonlar esa, shu qabrda yotgan odamga narigi dunyoda kerak bo'ladigan buyumlar edi. Ra xudosing ro'parasida hayvon parrandalar ushlab turgan odamlarning tasviri berilgan. Pastdagi ikkinchi qatorda sakkiz kishining turli idishlar ushlab turgan, parranda va hayvonlar ushlab turgan sur'ati aks ettirilgan, oxirgi uchinchi qatorda esa, marhumni xotirlash uchun so'yiladigan buqa aks ettirilgan. Bu iyeroglif – «xotirlash uchun buyumlar qo'yiladigan yashik» – degan ma'noni bildiradi. Bu yodgorlik mil.avv. III ming yillikka oid bo'lib, eski poytaxtlar Sakkaar yoki Gizada tayyorlangan bo'lishi mumkin. Aniqrog'i, Gizada tayyorlangan bo'lishi kerak. Chunki, qadimgi Giza yodgorliklarida xotira buyumlarni ritula (diniy marosim) yozuvlar bilan ifodalash ko'proq tarqalgan edi.

1798–1799 yillari Napoleon Banopart Misrga ekspedisiya uyushtiradi. Ana shu ekspedisiya davrida jahon ahamiyatiga molik voqea ro'y berdi. 1799 yil 2 avgustda fransuzlar inglizlarning dengiz tomonidan bo'layotgan hujumini daf etib, sohilni qo'lda saqlab qoldilar. Rozettadan yetti mil naridan Qadimiy Rashid qal'asini himoya qilayotgan askarlar handak qaziyotib, allaqanday yozuvlar bitilgan qop-qora toshni topib olganlar. Ma'lumki, Napoleon armiyasida birmuncha ma'lumotli kishilar to'plangan edi. Silliqlangan bu qora bazalt toshi ustiga yozuvlar bitilgan ekan. Silliqlangan bu qora bazalt toshidagi yozuvlar uch tilda yozilganligini zobitlar bir nazar tashlashdayoq fahmlab olganlar. Uch to'rt satrlik yuqoridagi yozuv iyeroglifdan iborat. Ancha yaxshi saqlangan o'rtadagi yozuvni ofiserlar Suriya yozuviga o'xshatganlar (lekin bu yozuv Misr demotika yozuvining bir turi bo'lib chiqqan), pastki yozuvning eski usuldagi harflar yunon harflar bilan yozilgan yunon xati ekanligini zobitlar o'sha zahotiy oq aniqlashgan. Olimlarning orzulari ushaldi. Axir ular iyerogliflarni o'qishga uzoq yillar urindilar va nihoyat bilingva «ikki tildagi» yozuv; iyeroglif va evropaliklarga tushunarli tildagi yozuv topilsagina bu sohada muvaffaqiyatga qozonish mumkin, degan xulosaga keldilar. Bu yerda esa bir yo'la «uch tildagi yozuv»– trilingva topildi. Rozetta toshi dastlab Qohiraga jo'natildi, keyinchalik Misrda Fransiyaning mag'lubiyatidan keyin Britaniya muzeyiga kelib qolgan. Qadimgi zamonlarda Misrdan Rimga sirtiga iyerogliflar chizilgan yodgorlik toshlar olib kelishgan. XVII asrda A. Kirxer ana shu toshlarni o'rganishga kirishgan. U qanchalik qattiq

urinmasin Misr iyerogliflarini o'qiy olmaydi. U qadimgi Misr tilidan kelib chiqqan kopt tilini bilmasdan turib iyerogliflarni o'qib bo'lmaydi degan xulosa chiqaradi.

Rozetta toshi topilgandan keyin fransuz sharqshunosi S. de Sasi bu yozuvlar ustida juda ko'p bosh qotirgan. U dastlab demotik matnni chuqur o'rganib chiqib, yunoncha tekstdagi Ptolomey, Epifan, Aleksandr va boshqa ismlariga to'g'ri keladigan belgi guruhlarini borligini aniqlagan. Lekin, baribir, u iyerogliflarni o'qiy olmagan va oshkora suratda: «muammo nihoyatda chigal va uni ilmiy jihatdan yechib bo'lmaydi» degan. Lekin, u o'z tahlillarini shved arxeologi, kelt tilini bilimdoni D.Okerbladga jo'natadi. U demotik tekstni yunonlarga oid qismidagi barcha atoqli otlarni mustaqil ravishda tanib – bilish va o'qishga muvassar bo'ldi, shu bilan birga ayrim misrcha so'zlarni (ibodatxona, yunonlar va boshqalarni) ham o'qiy olgan. Biroq s.de Sasi ham, Okberlad ham misr tilida unli tovushlar tushib qolishini hisobga olmaganlar. Shundan keyin Misr yozuvini o'qishni ingliz olimi T. Yung davom ettirdi. U demotik yozuv iyerogliflarning yoziladigan varianti ekanligini isbotlab berdi. T. Yung iyerogliflar jumbog'ni demotik yozuv yordamida yechish mumkin degan xulosaga kelgan va 70 dan oshiq iyeroglif yoki iyeroglif guruhlarining ma'nosini aniqlashga muvaffaq bo'lgan. U tekstdan Ptolomey va malika Berenikalarning ismlarini izlab topgan. Lekin, olim demotik yozuvda ham, iyeroglifda ham fonetik belgi bo'lmagan degan noto'g'ri yo'lga tushib qoladi va ishini oxiriga etkaza olmaydi. Keyinchalik Misr iyerogliflarining o'qib chiqish fransuz olimi J.Shampol'onga nasib bo'ldi. U uzoq izlanishlardan keyin 1821 yil yil 23 dekabrda ayni tug'ilgan kuni olimning miyasiga Rozetta toshidagi iyeroglif belgilari bilan yunoncha tekstdagi so'zlarni sanab chiqish fikri keladi. Yosh olim uzoq izlanishlardan keyin Misrda uchinchi yozuv tili – ieratik ham bo'lanligini isbotlaydi. Bungacha olimlar Misrda ikki xil yozuv bo'lgan deb hisoblab kelar edilar.

Yosh olim iyerogliflarni sanab ko'rib hayratda qoladi: 486 ta yunoncha so'zga 1419 ta iyeroglif to'g'ri keladi. Iyeroglif yozuvida esa, 166 ta belgi. Ana shundan keyin J. Shampol'on iyerogliflar faqat belgi so'zlar-dangina, ideogrammalargina bo'lmay, ular tovush ham ekanligiga ishonch hosil qiladi. U ishni boshlab yuboradi. Dastlab matndagi podsho Ptolomey Epifanni o'qiydi. Toshda podsho ismi kartush ichiga olingan bir necha bel-

idan iborat edi. Bu erda sakkizta belgi bo'lib, unda podsho ismi yozilgan edi. Lekin, bunga dalil kerak edi. O'sha yillari topilgan «Fale yodgorligi» degan osori atiqqa topilib, unda ikki xil – iyeroglif va yunoncha yozuv yozilgan edi. Bu bilingvada Rozetta toshidagidek podsho Ptolomey ismi kartush ichiga olingandi. Endi solishtiradigan narsa bor edi. Yana ramka olingan ba'zi belgilar olimni diqqatini tortadi. Olim yunoncha matndagi Kleopatra so'zini o'qib buni, malika nomi ekanligini isbotladi. Olim boshqa kartushdan Aleksandr so'zini o'qish orqali iyerogliflar ro'yxatiga «N» va «S» tovushlarini qo'shdi. Malika Berenika ismini o'qigach iyeroglif alifbosiga «B» tovushi ham qo'shildi. Uzoq izlanishlardan keyin J. Shampol'on 24 tovushni bermalol o'qiydigan bo'ldi. Keyinchalik olim toshdan Ramzes, Tutmos Fir'avn ismlarini o'qishga muvaffaq bo'ldi.

1761 yil Daniya qiroli uzoq Arabiston, Eron va boshqa noma'lum sharqiy mamlakatlarni o'rganish uchun ekspeditsiya uyushtiradi. Ekspeditsiya tarkibida ruhoniyo'g'li, arab tilini bilgan K. Nibur ham bor edi. 1765 yil u Arabistonga jo'nab ketadi. U yerdan Mesopotamiya so'ngra Eronga o'tadi vanihoyat Sherozning shimoliy sharqiy tomonida, ya'ni Sherozdan 7 mil uzoqlikda uning ko'p yillik orzusi ro'yobga chiqadi, u qadimgi Persepol shahrining xarobalarini topadi. Persepol shahri qadimda Makedoniyalik Aleksandr tomonidan yondirilgan edi. 1939 yillargacha bu haroba aholi uchun tosh koni bo'lib xizmat qilgan edi. Lekin, K.Nibur bu yerdan o'ziga kerakli narsani topa oladi. U uch hafta mobaynida: haykal, qabrtosh, bahaybat toshlarga bitilgan mixxatlardan nusxa ko'chiradi. Ana shunday izlanishlar oqibatida Ahamoniylarning mixxat yozuvlari topildi. Lekin, ko'pchilik olimlar uni o'qishga muvaffaq bo'la olmadilar. Mixxat yozuvini o'qishga G. Grotefend muvaffaq bo'ldi. Xatlarning uch xildagi ko'rinishdagi yozuvda bitilganini K.Nibur payqagan edi. Keyinchalik G.Grotefend mil.avv. 540 yilda Kir Bobilni tor mor qilib, Buyuk Eron (Parsiya) podsholigini barpo etganligini bilib oladi. Olimlar qadimgi fors tilidagi matn o'rta ustunda joylashgan imtiyozli mavqega ega degan taxminni ham aytishadi. Matnda belgilarning bir turkumi ancha tez uchraydi, bu podsholik unvon emasmi. G. Grotefend qabr toshlarini podsholarga atab yozilganligini aniqlab dastlab «Podsho» (shohlar shohi) degan so'zni o'qidi. So'ngra u muhim tafsilotni payqadi; barcha lavhalarda dastlabki guruhlardagi mixxatlarning faqat ikki xil variantini uchratdi. Demak,

K. Nibur nusxa ko'chirgan haykal, qabr tosh, yodgorliklardagi yozuvlar ikki shohga tegishli. Yana bu nomlar alohida – alohida yozilganligidan ismdan keyin «shoh» so'zini ifodalovchi belgi qo'yilgan, ikkinchi ismdan keyin belgi qo'yilmagan. Bundan kelib chiqadigan sxema: **V. Shoh B shoh o'g'li, B shoh, A shohning o'g'li**, demak, birinchi podshohning otasi shoh bo'lmagan, masalan, Doroning otasi. Uzoq izlanishlardan so'ng G. Grotefend bu yozuvlarni o'qiy oldi, «Kserks ulug' shoh, shahonshoh, Doro, shoh o'g'li Aximanid, bu saroyini o'sha qurdirgan». Bu voqea 1802 yili bo'lgan edi.

Shumer epigrafik yodgorliklarini bizga tarjima qilib bergan olim D. Smitdir. U yoshligida tirikchilik uchun pul topish maqsadida Londonga keladi va graviyurachilikka ishga kiradi. Lekin, u keyinchalik buyuk olim bo'lib yetishdi. U dastlab, Britaniya muzeyiga assistantlikka ishga kiradi. Bu yerda u muzey yerto'lalarida saqlanayotgan mashhur Ashurbanipal kutubxonasiga mansub sopol lavhalarni o'qishga kirishadi. U sopol lavhalarni chang loydan tozalaydi, siniqlarni simlab yopishtirib butun holatga keltiradi. Bunga bir oy vaqt ketadi. Ana endi yozuvlarni deshifrovka qilsa bo'ladi: «Gilgamesh, Uruq hukmdori, o'z fuqarolariga nisbatan shafqatsiz bo'lgan. Og'ir ishlarda madori qurigan bu mazlumlar zolimning jazosini berishni so'rab xudolarga iltijo qilganlar. Xudolar mazlumlarning iltimosini qondirganlar: Gilgamesh o'rmonda hayvonlar orasida yashagan polvon Enkiduni shaydo qilib yo'ldan ozdirish uchun uning huzuriga chiroyli koinani maxfiy ravishda jo'natadi. Enkidu Uruqqa kelib Gilgamesh bilan yakkama-yakka olishadi. Biroq, raqiblarning kuchi teng bo'lganligi uchun hech kim g'olib chiqa olmagan. Shundan keyin ular do'stlashganlar va xalq manfaati yo'lida birgalikda jasorat ko'rsatganlar. Dahshatli sherlar bilan olishib, ma'buda Ishtarni bahaybat mahluqlar qo'lidan ozod qiladilar. To'satdan Enkidu kasal bo'lib, vafot etadi: Gilgamesh sodiq do'st idan judo bo'lganiga qattiq qayg'urib zor-zor yig'laydi va abadiy yashashlik (boqiylik) sirini topishga ahd qiladi. U abadiy hayot, manguilik sirini biladigan kishi – Utnapishtimni izlab ketadi. U juda ko'p qiynalib dunyo to'fonidan omon qolishni peshonasiga yozib qo'yilgan manguilik in'om etgan yakka-yu yagona kishini Utnapishtimni izlab topadi. D. Smit ko'zlariga ishonmaydi. Nahotki, Bibliyadagi Nuh payg'ambar qadimgi shumerlar dostonida tirilgan bo'lsa? U dostonning qolgan qismini ham o'qiydi.

Qadimgi Shuruppak shahri qayerda degan savol uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilarga tinchlik bermayotgan edi, bu savolning javobi mixxat lavhalaridan topildi. Afsonaviy Nuh aniqrog'i Bibliyadagi Nuhning timsoli bo'lib qolgan. Xalq uni Utnapishtim deb atagan. Bu kishi shu shaharda yashagan. Afsuski, dostonning boshqa qismi yo'q edi. Lekin, shu ozgina narsa ham Londonni oyoqqa turgizdi. Hazil gapmi? Qadimgi Shumer dostoni Bibliya ijodkorlari butun dunyo to'foni haqidagi afsonani shumerlardan olganliklarini ochiqdan- ochiq aytib Bibliyani zarbaga uchratdi. Bu hol ko'pchilikni qiziqtirib qo'ydi, hatto «Daily telegraf» gazetasi qolgan lavhalarni topgan kishiga ming funtsterling pul va'da qildi. Qolgan lavhalarni 1873 yil D. Smit topadi. Olim 380 ta lavhani topib, undan dostonning qolgan qismini qayta tiklagan. Odamlarning gunohlariga toqat qilolmagan xudo Enlil odamzod urug'ini quritishga ahd qildi. Qiyomat mudhish kun tobora yaqinlasha berdi. Nahotki dunyoni suv bosib, yer yuzida biron bir mavjudot, jonivor omon qolmasa? Tun. Hamma yoqni zulmat qopladi. Qadimgi shahar chekkasida qamish va shox-shabbadan qurilgan kulba yakka o'zi qaqqayib turibdi. Bu Utnapishtim degan taqvodor kishining olachig'i. Unga shamol yoqimli ovoz bilan shivirlayapti: Ajabo, bu qanday gap! o'yladi Utnapishtim. Yana ilohiy ovoz eshitildi. Bu osmonning «tubi teshilib», jala qo'yib yer yuzini suv bosganda qutilib qolish uchun kerak bo'ladigan kemani qurish kerakligini unga tushuntirayotgan ovoz edi. Utnapishtim kema qurdi, barcha teshik yoriqlarni eng yaxshi mum bilan mumladi. Kema juda ko'p bo'limlarga ajratilgan, bir necha qavatli juda katta yashikdan iborat edi. Uni tomi zo'r xafsala bilan yopilgan bo'lib, eng kuchli yomg'ir ham o'tolmas edi. Utnapishtim ilohiy topshiriqni hammasini bajarib bo'lgandan keyin dovul turdi, osmonni qop-qora bulutlar qoplab oldi, momoqaldiroq gumburlab, chaqmoq chaqdi va kuchli jala quydi. Jala 6 kunu 7 tun davom etdi. Utnapishtim Niser (Niser) tog'iga yetib kelguncha to'lqinlar uning najot kemasini paraxadek u yoqdan bu yoqqa irg'ita berdi. Insonlar loyga aylandi. Tevarak atrof bepoyon dengiz. Faqat Niser tog'ining cho'qqisigina suvdan chiqib turardi.

Ermitaj muzeyida Shumer belgilari bitilgan kichkina sopol lavha saqlanadi. Bu sopolning yoshi mutaxassislarning fikricha 5 ming yildir. Lavhada bor yo'g'i 4 ta belgi. Qo'l va to'siq. Garchi barcha belgilar sur'atlardan iborat bo'lsalarda ularni piktogramma deb atash mumkin emas.

Bu tushunchalarni anglatuvchi o'ziga xos yozuv, belgilar esa tipik ideogrammalardir. Ideogrammalar piktogrammalardan kelib chiqqan. Mixxatning rivoji rasmlarni soddalashtirish yo'lidan borgan. Shumerda «yemoq» tushunchasi «non» va «tog» bilan ifodalangan. Vaqt o'tishi bilan bu ham shumerliklarni qanoatlantirmagan, chunki bu tilning boyligini va ko'p ohangdorligini ifodalay olmagan. Yozuvdagi belgilardan xo'jalik ishlari-ga doir hisobot tuzishda foydalanganlar. Shumerliklarni yozuviga fonetik qo'shimchalar kiritishga undagan narsa shu bo'ldi. Shumerliklar turlicha talaffuz etiladigan (ko'p ohangli belgilarni bunda ko'p belgi ko'p tovush komplekslarini ifodalagan) va aksincha, bir ohangli belgilarni qo'llay boshlaganlar. Bo'g'inli belgilar yordamida son, kelishik va boshqa grammatik formalarni aks ettirish mumkin bo'lgan. Shumerlar yozuvi shu tariqa ideografikdan logografik yozuvga keyin esa, bo'g'inli yozuvga aylangan. Garchi bu o'zgarish uzoq vaqt davom etgan bo'lsa ham tovushli nutqni Shumer yozuvi bilan ifodalash, bayon qilish imkoniyati tug'ilgan. Biroq, Shumer mixxati harfiy yozuv darajasiga ko'tarila olmay shu bosqichda qolavergan. Vaqt o'tishi bilan belgilarning tashqi ko'rinishi ham o'zgar-gan. Rasmlar tobora shartli tus olgan. Shumerlar madaniyatini meros qilib olgan bobilliklar va ossuriyaliklar Shumer yozuvini qabul qilib, uni o'z tillariga moslab soddalashtirganlar va tubdan o'zgartirganlar.

Ossuriylar mixxat tizimini soddalashtirganlar. Undagi belgilar sonini kamaytirib o'z qo'shimchalarini qo'shganlar. Mixxatlar o'qilgach, ko'rim-siz kulrang lavhalarga bo'lgan munosabat o'zgargan. Agar ular ilgari tash-lab yuborilgan bo'lsa, keyinchalik ular saralangan, chang loydan yaxshi-lab tozalanib ilmiy markazlarga yuborilgan. Ko'p miqdorda sopol lavhalar topila boshlangan. Uruqning o'zida bu sopol lavhalari, tol novdasidan to'qilgan savatlarda saqlangan keyin dasta-dasta qilib bog'lab, dastalarga «ishchilar maktubi», «bog'ishlariga doir hujjatlar», «to'qimachlik ustaxo-nasiga tegishli hujjatlar solingan kumush savat» deb yozilgan va yorliq-lar osib qo'yilgan. Bular podsho va ibodatxonalar xo'jaliklarining arxivi bo'lgan. Arxivlarda quyidagi sopol lavhalar mavjud bo'lgan: «kemani tu-zatish uchun kerak bo'lgan qamishni tashish va saroyga to'sinlar keltirish uchun bir kunga 45 nafar qul yuborildi». Bu xo'jalik hujjati quldorlik tu-zumi mohiyatni ochib beradi. Mana onaning o'g'lini sotganligi to'g'risi-da vasiqa: «Sinnurining Zalilum ismli o'g'li uchun Balmunamxe onasiga

11 shekel kumush tortib berdi, u kelgusida da'vo qilmayman deb zargar Ilbrat oldida, kumush tortuvchi Singamil oldida, Ilimaxi oldida qasam ichdi». Bundan biz o'z o'g'lini sotishga majbur bo'lgan onaning qanday qashshoqlikda yashaganini bilib olishimiz mumkin.

Luvr fondlarida qadimgi Shumerning buxgalteriya hisob-kitob kitoblaridan olingan «Sahifa» saqlanmoqda. Nozir qullarni boqish uchun kerak bo'ladigan donni hisoblab chiqish uchun qullarning ro'yxatini tuzgan ayollar va bolalarning ismi ustuncha qilib yozilgan bo'lib, ko'p ismlar yoniga «o'lgan» deb belgi qo'yishgan. Ko'p qullar o'lganidan iste'mol qilinadigan bug'doy kamayib boravergan. Shumerlar xizmatga doir bu hujjatlaridan tashqari bizga matematik qishloq xo'jaligi va meditsinaga doir va adabiyot asarlari ham qoldirganlar, Pifagor teoremasini Mesopotamiya matematiklari o'sha zamonlardayoq isbot qilgan. Shumer olimlari taqvimlari, xaritalar tuzganlar, tabobatda turli o'simliklardan muvaffaqiyatli foydalanganlar. Sopol lavhalar bizga Shumer xalqining donoligi, ijodkorligi, ko'rkamligi to'g'risida hikoya qiladi. Shumerlarning mixxatda yozilgan 17 ta lavhasi yer bag'rida qariyb 4000 yil yotgan, ularni qazib olib, o'qib ko'rgan arxeologlarning taajubdan og'zi ochilib qoldi. Undan bir parcha otaning o'g'li bilan suhbatini keltiramiz :

– «Qayerga bording?»

– «Hech qayerga bormadim.»

– Hech qayerga bormagan bo'lsang nega bekor yuribsan? Maktabga jo'na. Ustozing oldida turib tayyorlagan darslaringni unga aytib ber. Sumkangni och, o'z taxtachangga yoz, akang sen uchun yangi taxtacha yozib bera qolsin. Darslaringni tayyorlab bo'lgach, muallimingga ka'rsatgin, so'ng ko'chada sang'ib yurma, oldimga qayt, nima deganimni tushundingmi?

Bizga ma'lumki Mesopotamiyada mil. avv. IV–III ming yilliklar dayoq shahar davlatlar – «En»lar paydo bo'lgan, keyinchalik Mesopotamiya ya'ni, Amoriylar davrida ayniqsa kuchaydi. Samsuilin va uning Vorisi Hammurappi davrida Bobil davlati o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Albatta, Mesopotamiyadan shu davrga oid juda ko'plab epigrafik yodgorliklar topildi. Shulardan eng mashhuri Hamurappi (mil.avv. 1792–1750) tomonidan qora bazalt toshi ustiga yozdirilgan hamurappi qonunlaridir. Bu qonun 247 moddadan iborat bo'lib, toshda yozlilishicha

«Mamlakatda adolat oʻrnatish» uchun qabul qilingan edi. Bu haqida juda koʻplab maqolalar eʼlon qilingan. Endi biz aynan Samsuilin va Hamurappi davrida mashhur boʻlgan shaxslardan biri Shep-Sin arxiviga oid yozuvlar bilan tanishamiz. Bu shaxs ismi Samsuilin 6 yil podsholigiga qadar boʻlgan hujjatlarda ham mavjuddir. Shep-Sin faoliyati Rimsin hukmronligi davrida boshlanib, uning oʻgʻli Kudurmabug, Hamurappi va Samsuilin davrida Larsa shahri bosib olingandan keyingi davrda koʻp uchraydi. Hamurappi davrida Shep-Sin tamqarlar boshligʻi lavozimida ishlaydi. Uning ismi Hamurappining janubiy Mesopotamiya hukmdori Siniddinam nomiga yozgan xatida ham uchraydi. Shu davrga oid Shep-Singa bogʻliq hamma hujjatlarda u ehtiromli kishi sifatida xotirlanadi. Shep-Singa oid barcha hujjatlar; soliq, qimmatli buyumlar, mahsulotlar tarqatish haqidadir. Bu hujjatlar nemis olimi P.Kashaker, keyinchalik V.F.Leyman tomonidan tadqiq qilingan. Albatta, bu davrda yozuvlar qogʻozga emas, balki sopolga, taxtachaga va toshlarga yozilgandir. Endi biz Shep-Singa oid hujjatlarni baʼzilarini koʻrib oʻtamiz. Eslatib oʻtamizki bu hujjatlarning barchasi Berlinda saqlanadi. Hujjat 9, 8, VIII, 34 X. Bu hujjatlarda Sinimgurning oʻgʻli Ipku-Irro va ukasi Shep-Sindan 7,5 sikl kumush qarz olganligi va uni 12 kundan keyin qaytarishi taʼkidlangan. «7,5 sikl kumush Hamurappi hukmronligining 33 yilida hisoblanadi. Tamqarlar boshligʻi Shep-Sindan Sinimguran oʻgʻli Ipku-Irrova ukasi oldilar, bu pulni ular Kislim oyining birinchi kuni qaytarib berishlari kerak. Oʻz muhrlarini ilova qildilar.

Bu hujjatlardan koʻrinadi-ki, Shep-Sin uzoq vaqt Amoriylar davlatida tamqarlar boshligʻi vazifasida ishlagan. Hujjatlardan yana biz oʻsha paytda muomalada boʻlgan oy nomlari, ogʻirlik oʻlchovlar va savdo munosabatlarini oʻrganishimiz mumkin. Bundan tashqari, Shep-sin arxivi bizga davlat ixtiyorida tamqarlar rolini qanday boʻlganligi haqida tushuncha beradi. Masalan, «150 gur arpa – 1 mina kumushga sotilgan. 225 gar arpa esa, 1,5 mina kumushga sotilgan. Etelpi Marduq ismli kishi 144 gur arpaga oid Mesopatamiyadagi yozma yodgorlik, toshga yozib oʻyilgan «Karati haqida»gi poema bilan tanishib chiqamiz. Bu poemada podshoning diniy marosimlarda tutgan oʻrni haqida maʼlumotlar mavjud. Doston asosan podsho oilasining kelishib olish uchun Udumli mamlakatiga qilgan yurishi va bu yurishda podsho otasining halok boʻlishi haqida yozilgan.

Bu yurishda ko'ngilli askarlardan tashqari armiyadan bo'shagan jangchilar ham qatnashgan.

Miloddan avvalgi 1296 yili bahorida Orant daryosi vodiysida qadimgi Misr fir'avini Ramzes II va Xett podshosi Muvatallis (Xatesuliy III) qo'shinlari o'rtasida Kadesh shahri yonida yaqinida to'qanashadilar. Bu jangda g'olib bo'lmay, ikkala tomonning kuchlari ham teng keladi va mil. avv. 1280 yil ikki davlat o'rtasida «Abadiy tinchlik va do'stlik to'g'risida» bitim tuziladi. Ramses II bitimning isboti sifatida Xett podshosi qiziga uylanadi. Ramzes II mamlakatiga qaytib kelgach, misrliklar uni xettlarning g'olibi, deb kutib oladi. Uni «butun mamlakatida hurmatga sazovor» xetlar mamlakatining maqtanchoqligiga barham bergan, dovyurak, buyuk xudo «Ra ning, Xetlar mamlakatini oyoq osti qilgan o'g'li» deb e'lon qiladilar. Saroy shoiri Ramzes II ning g'alabasiga bag'ishlab, doston yaratadi, dostonda Kadesh yaqinidagi janglarning borishi tasvirlanadi. XIX asr 70-yillarida Britaniya sharqshunosi A.Seys qadimgi sharqda faqat ikkita Ossuriy-Bobil va Misr madaniyati va yozuvi ham bo'libgina qolmay, qadimda o'ziga xos sivilizatsiyaga ega bo'lgan bu xalqni xetlar deb atagan edi. Biroq, uning bayonatiga sovuq munosabatda bo'lganar, A.Seysga esa, «xetlar ixtirochisi» degan laqab belganlar. «Xett» xalqining nomi Bibliyada ham keltirilgan. Unda, jumladan: «Avraam davridayoq xetlar Xannani egallagan», deyilgan. Biroq, XVIII oxiri XIX asr olimlari tarixiy ma'lumotlar manbai sifatidagi Bibliyaga ishonchsizlik bilan qaraganliklari bu dalilga jiddiy munosabatda bo'lishga halaqit bergan, holbuki qadimgi sharq ayni shu vaqt chinakamiga kashf etilgan. Bu davrda arxeologiya va tilshunoslik jadal rivojlangan. Ierogliflar va mixxatlar o'qilgan, izohlab berilgan. Yangi yozuvga e'tibor berishga majbur qilgan birinchi topilma Hama toshlari bo'lgan. Bu toshlar jami to'rtta bo'lib, Suriyaning Hama shahridagi bozordan topilgan. Toshlarining uchtasi devorga o'rnatilgan, to'rtinchisi esa, maydonda yotgan ekan. Maydon markazidan topilgan to'rtinchi tosh «shifobaxsh» kuchga ega bo'lganligi aytib o'tilgan, bod kasalidan azob chekuvchi kishi uning ustiga biroz cho'zilib yotsa, «bir zumda sog'ayib ketarkan». Qisqa vaqt ichida Old Osiyoning bir-biridan uzoq masofadagi turli joylaridan yana xett yozma yodgorliklari topiladi. Bu A.Seysga xetlar olimlar o'ylaganidek kam sonli Shimoliy Suriya qabilalari bo'lmay, katta xalq bo'lgan, degan xulosa chiqarishga yordam

bergan. Suriyada arxeologik qazishlar o'tkazilgan vaqtda Hama toshlaridagidek yozuvlar bitilgan haykallar topilgan. Turkiyadagi Marasha shahri darvozasini bezab turgan sherning yolkasiga va biqinlarga shunday yozuv buyurtma belgilar bilan yozilganligi aniqlangan.

1905 yil arxeologlar Bo'g'ozqoya tumanini qaziy boshladilar, va u yerdan kutilmaganda xett podsholigining davlat arxivini topadilar. Ko'plab xett yozuvlari bitilgan sopol lavhalari topilgan. Topilgan lavhalarning bir qismidagi yozuvlar akkad tilida ekan. Bu vaqtda akkad mixxatining siri ochilgan «akkad» yozuvlari o'qilayotgandi. Shunda ekspeditsiya Xetlar davlatining qadimgi poytaxti yonida turganligi ma'lum bo'ladi. Xuddi shu yerdan hammani hayajonga solgan narsa – Misr fir'avini bilan Xett podshosi o'rtasida tuzilgan «abadiy tinchlik va do'stlik to'g'risidagi», Fivadagi Amoe qasrida Misr tilida o'yib yozilgan mashhur bitimning xett tilidagi varianti topiladi. Endi olimlar ixtiyorida yetarli miqdorda yozma yodgorliklar bor edi, ularni o'qishga kirishilsa bo'lar edi. Xett yozuvlari ikki xil belgilardan – mixat va iyeroglifikaga nisbatan kengroq tarqalgan edi. O'rta asr Evropasida lotin alifbosi qanday rol o'ynagan bo'lsa, o'z davri uchun Xett yozuvi ham shunday rol o'ynagan va lotin alifbosi singari ko'pgina qadimiy tillarni yozishda foydalanilgan.

Mixxatlarni, iyerogliflarni o'qish prinsipi ma'lum bo'lgani uchun de-shifrovka muammosi Xett tilining xususiyatlarini aniqlashdangina iboratligi ko'rinib turardi. Xett tekstlarni tushunmoq uchun til tuzilishini va uning gramatik shakllarini aniqlashgina qolgan edi. Xett yozuvining mixxat va iyeroglifi variantlarini o'qishning boshlanishi chex olim B. Grozniy nomi bilan bog'liq. B. Grozniy I jahon urushi oldidan Xett mixxatidan nusxa ko'chirish bilan shug'ullanadi. Xett tekstlarini o'qishni birinchi navbatda, bilingva yo'qligi qiyinlashtirgan (bilingva keyin topilgan so'zlarining to'g'ri tushunilganligi tasdqilangan). Birgina yo'l qolgan edi, u ham bo'lsa mantiqiy xulosalar chiqarish va begilarni solishtirish vositasida tilning strukturasi aniqlash edi. Olim ishni xett qonunlari yozilgan tekstlarni izohlashdan boshlagan. Qonunlarda jumalarning tuzilishi bir tartibda bo'lgan: «agar kimda – kim shunday – shunday qilsa, u shunday to'laydi». Olim tilning gramatik tuzilishini juda tez o'zlashtirgan. Uning O'rta Osiyodagi ko'pgina qadimiy tillar singari, somiy tili bo'lmay, xind-evropa tili bo'lib chiqishi olimni taajublantiradi, bir so'zning o'zgarib borishi,

ya'ni turlovchi qo'shimchanning almashib turishi aniq bilinib turadi, so'zlar turlanishining butun tizimi, garchi **akkad** so'zlari va so'z birliklari ko'p bo'lsada, buning hind – evropa tili ekanligidan dalolat beradi. Olim butun jumalarning mohiyatiga tayanib turib, **xettcha** ko'pgina so'zlarni, grammatik shakllar ma'nosini tez aniqlay oldi. Shunday qilib, hind-evropa tillari haqida yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan B.Grozniy bu oilaning eng qadimgisi bo'lmish – Xett mixxatining sirini ochishga muvaffaq bo'ldi. Agar ilgari Gomerning poemalari va miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalariga mansub bo'lgan hind eposi «Rigveda» hind-evropa tillaridagi eng qadimgi tekstlar deb hisoblanilgan bo'lsa, Xett tekstlarining o'qib chiqilishi olimlarga asrlar qariga ya'ni miloddan avvalgi XVIII asrgacha nigoh tashlashga yordam beradi. Xettlarning dastlabki yozuvi iyeroglif bo'lganligi hozir isbotlangan. Xettlar uni o'zlari, ya'ni rasmi yozuvdan hosil qilib, misrliklardan mustaqil ravishda yaratganlar. Xettlar keyinchalik mixxatni o'zlashtirganlar shunga qaramay iyeroglif yozuv keng tarqalgan edi. Xettlarning yana bir ajoyib yozuvi bo'lgan; bu toshga o'yib yozish san'atidir. Bunda har bir belgi shu qadar zo'r hafsala va puxtalik bilan ijro etilganki, yozuv chinakam san'at asariga aylangan. Xett yozuvining eng qadimgi yodgorligi yigirma to'qqiz nafar xett podshosini ro'yxatini o'z nomi bilan boshlab bergan shoh Anittas yozuvi ana shunday imkoniyat tug'dirdi. Avvalo shu narsa ma'lum bo'ldiki, xettlar Kichik Osiyoning tub aholisi emas ekan. Ular g'arbdan kelib Anatoliyada o'rnashib qolganlar.

1947 yil kuzida nemis professori G.Bossert Turkiyaning janubi G'arbiy tomonidagi Qoratepa deb ataluvchi tepalikdan qisman xett iyeroglifidagi va qisman finikiyaliklar tilida yozilgan ancha uzun matn topdi. Bu bilingva edi. Professor G.Bossert bu toshni turklarning «shertoshi» haqidagi afsonasini eshitib, uzoq izlanishlardan so'ng tog' tepasidan topgan. Olim finikiyacha yozuvni o'qib chiqqanidan so'ng, belgilarni iyerogliflarga ham solishtirsa bo'lardi-yu, biroq buning uchun avval bilingva ekanligini aniqlab olish zarur edi. Toshga ikki xil xett iyerogliflik teks bilan barobar uchta finikiyacha yozuv ham bitilgan edi. Lekin, belgilar shu qadar tartibsiz holda sochilib ketgan ediki, xettcha iyeroglif tekstni boshini topib bo'lmas edi. Toshdagi yozuvlardan biz xett adiblaridan birining ismi Killas ekanligini bilib olamiz. U bizga hozirgacha ma'lum bo'lgan shoirlarning eng qadimiysidir. Gomerdan 500 yil ilgari yashagan bu shoir osmon saltanatida

xudolarning hukmronlik uchun kurashi to'g'risida katta asar yozgan yoki qayta ishlagan. Xett aholisi matematika, geometriya sohasidagi bilimlarni bobilliklardan o'zlashtirganlar, o'zlaridan hech qanday narsa qo'shmanlar.

Bizga ma'lumki, lotin yozuvi dunyodagi eng qadimgi yozuvlardan biridir va mil. avv. VII–VI asrlarda to'liq shakllana boshladi. Qadimgi dunyo tarixidan ma'lumki, dastlabki davrlarda qog'ozning yetishmasligi tufayli asosan sopol, taxtach, toshlarga va metallar sirtiga yozganlar. Shu jumladan, lotin yozuvlari ham paydo bo'lganidan to uzoq vaqtlargacha qattiq buyumlarga yozilgandir. Ana shunday lotin epigrafik yozuvlari, yodgorliklari hozirgi kunda juda ko'plab topilgan. Bunday epigrafik yodgorliklar asosan muzeylarda, bibliotekalarda va xususiy kolleksiyalarda saqlanadi. Eng ko'p lotin epigrafik yozuvlari, yodgorliklari Italiyada saqlangan. Italiyada, Vatikandagi K'yaramonte muzeyi o'zining lotin epigrafik yodgorliklariga bog'liqligi bilan ajralib turadi. Muzeyning lapidariya galereyasida 5000 yozuvli yodgorlik saqlanadi. Lotin epigrafik yodgorliklari kolleksiyasini boyligi jihatidan ikkinchi o'rinda Rimdagi Kapitoliy muzeyi turadi. Kapitoliy muzeyining lapidariya galereyasida 2000 dan ortiq lotin yozuvli yodgorlik mavjud. Bulardan tashqari, lotin epigrafik yodgorliklari papa Yuliy III (1550–1555) asos solgan uy muzeyida, Neapol, Florensiya, Venesiya, Verona, Paluy kabi shaharlaridagi muzeylarida saqlanmoqda. Lotin epigrafik yodgorliklari Rim imperiyasiga kirmagan mamlakatlar: Vengriya, Ruminiya, Bolgariya, Turkiya, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida saqlanmoqda. Rossiyada ham lotin yozuv namunalari mavjud bo'lib, bu yodgorliklar XVIII–XIX asrlarda keltirilgan. Bu yodgorliklar asosan marmar toshi ustiga yozilgan bo'lib, asosan Sankt-Peterburgdagi Ermitaj va Pavlov muzeylarida saqlanadi. Faxriy yozuvlar Rimda qadimdan mavjud bo'lib, ular elogiya nomi bilan atalgan. Elogiya bu – biror shaxsning ma'lum bir xizmatiga atab yozilgan yozuvdir. Ma'lumotlarga ko'ra, Romul mil. avv. 753 yildan 716 yilgacha Rimda podsholik qilgan. Faxriy yozuvlar antik dunyoda juda keng tarqalgan edi. Eng ahamiyatli yozuvlar Rimdagi Triumfal arkida joylashgan. Bular imperatorlar Tit, Septimii Sever va Konstantin sharafiga yozilgan faxrli yozuvlardir. Dastlabki ikkitasi – Forumda, oxirgisi – Forum orqasida Kolizeyda joylashgan.

Binolarning suvoqlari, ibodatxonalarning naqshlariga o'yib yozilgan xatlar Rus yerlarida ko'p va ma'lum. Bunday yozuvlar «graffiti» deb ataladi. Kiev shahridagi Sofiya sobori Kiev Rusining hashamatli me'morchilik obidasidir. Bu binoning devorlarida ham shunday yozuvlar behisob ko'p. Rus me'morchiligining jahon san'at xazinasiga kirgan bu durdonasi o'rganila boshlanganiga bir yarim asrdan ko'proq vaqt o'tdi. Sofiya sobori devorlaridagi graffiti (uyib yozilgan xatlar)ni o'rganishga dastlab asrimizning 20-30 yillarida urinib ko'rilgan. Akademik B. Ribakov urushdan keyin sobor devorlaridan ajoyib yozuvlar topdi. 1947 yilda akademik tomondan nashr qilingan graffitilar orasida diqqatni jalb qiladiganlari qadimgi Rusning atoqli tarixiy arboblari – Vladimir Monamax, Martiriy, arxiepiskop Novgorodskiy va boshqalarning nomlari tilga olingan yozuvlardir. 1951yilda Novgorodda arxeologlar XIV asrga mansub, qatlamni qazayotganlarida, arxeolog N. Akulova qayin po'stlogiga yozilgan yozuvni topadi. Hozirgacha butun Rus yeridan ana shu qayin po'stlog'iga yozilgan 530 dan oshiq yozuv topildi.

«To'ramiz Timofeyga Mixaildan salom. Yer tayyor, urug'lik don kerak, to'ramizning farmoyishini olmay turib, ekishga jur'at eta olmaymiz. Odamingizni yuboring to'ram.» degan mazmundagi xat topilgan.

XVIII asrda turkiy xalqlar yozuvlari haqida dastlabki ma'lumotlar paydo bo'ldi. Lekin, yozuvlar qaysi xalqqa mansub ekanligi muammoligicha qolaverdi. 1691 yilda o'z davrining yirik olimi, Moskvadagi Gollandiya elchixonasi a'zolaridan biri Nikolay Vidzen Verxotur shahridan uncha uzoq bo'lmagan joyda noma'lum alifboda yozilgan bitiktoshlarni topdi. N. Vidzenning bu sohaga qiziqishiga Sibir viloyati boshlig'i Golovin sababchi bo'lgan edi. U Sibir bo'ylab sayohat qilib yurganida Ob daryosining o'pirilgan joyidan odam suyaklari saqlangan yog'och quti, kumush boldoq, idishlar topadi. Bu topilmalarni u N. Vidzenga sovg'a qiladi. Lekin, bu topilmalar va yozuvlar qaysi xalqqa tegishli ekanligi noma'lum edi. Oradan 5 yil o'tgach 1696 yilda Tobolslik boyar o'g'li Semen Revezov ham Sibir yerlarining xaritasini chizayotib, bir bandiga Orxun toshi deb belgi qo'yadi. Noma'lum yozuv bitilgan bu tosh xaritada chegara vazifasini o'tay boshlaydi. Bunday yozuvlar haqida 1710 yilda asirlikka tushgan shved zobiti Filipp Ioganin Stralanberg to'liqroq ma'lumot beradi. Asirlikda u 13 yil yashab noma'lum yozuvning jadvalini ham chizib

oladi. Uningcha bu yozuvlar run yozuvlari deb atala boshlandi. Run deb atalishiga sabab, got yozuviga tashqi jihatdan o'xshashligidir. Runa – sir ma'nosini bildiradi. Qadimgi olmonlarning run yozuvi milodiy II–III asrlarda kelib chiqqan. Turkiy yozuvlar esa, g'arbdagi run yozuvlari paydo bo'lgunga qadar ham mavjud edi. 1716 yili Pyotr I Dantsigda professor Breyning tabiat-tarix muzeyini borib ko'radi. Shundan so'ng olimdan bu sohada iqtidorli kishi berishni iltimos qiladi. Brey do'sti, tibbiyot fanlari doktori Daniil Gotlib Messershmidtni tavsiya qiladi. U tarix, jug'rofiya, botanika sohasida ham bilimdon edi. Oradan ko'p o'tmay D.Messershmidt Peterburgga chaqirildi. Unga Sibirning fizik tasvirini yaratish topshirildi. U yetti yil tinimsiz ishladi.

Tunyuquq bitiktoshi II-Turk hoqonligiga asos solgan Eltarish hoqonning maslahatchisi va sarkardasi Tunyuquqqa bag'ishlanib, 712–716 yillari o'yib yozilgan. Tunyuquq bu bitikni o'zi hayotligida yozdirgan. Bitiktosh Ulan-Batordan 66 km. janubiy sharqidagi Bain Tsokto degan joydan topilgan. Bitiktoshni Yelizaveta Klements 1897 yili shimoliy Mo'g'iliston safariga borganda topgan. Tunyuquq bitiktoshi Kultegin va Bilga hoqon bitiktoshidan mazmunan farq qiladi. Bitiktoshda turkiylarning dushman qabilalariga qarshi kurashi, Tunyuquqning xalq oldidagi xizmatlari hikoya qilinadi. Tunyuquq Turk hoqonligi Xitoyga bo'ysundirilgan vaqtda (630–680 yillar) Xitoyga ko'chib ketgan Turk oilasida tug'ilgan. Faqat, qaysi turkiy uruqqa mansubligi aniqlanmagan. Keyinchalik turklar xitoyliklardan mustaqillikka erishgan paytda Eltarish qutlug' hoqon tomoniga o'tib, Bilge hoqon davrida ham Turk hoqonligida birinchi vazir va harbiy qo'mondon vazifalarida qolgan. Bu Tunyuquq Tosh yodgorligi Tula daryosining yuqori oqimidan, Kultegin va Bilga hoqon yodgorliklari atrofidan topilgandir. Faqat, yodgorlikning qaysi yili o'rnatilganligi aniqlanmagan.

Kultegin bitiktoshi Bilga hoqon bitiktoshi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. Radlov bu bitikni nemis tiliga tarjima qilgan. Bu bitiktosh marmarga o'yilgan, qalinligi 41 sm, balandligi 3 metr 15 sm, tub qismining qalinligi 1 m. 24.sm. marmar tosh o'rtasida besh burchakli qalqon bor. Unga balandligi 64 sm, kengligi 40 sm. bo'lgan lavha o'yilgan. Lavhada arxar surati naqshlangan. U hoqonlik tamg'asi hisoblangan. Orqa tomonga bitiktoshning o'rnatilish tarixi, hattot yozuvida bitilgan. Uning old tomoniga 40 satr, o'ng va chap tomoniga 13 satrdan yozuv bitilgan. Ba'zi joy-

larida yozuv o'chib ketgan. Bu marmartoshga yozish ishini Yo'llig Tegin ismli kishi bajargan. Bu bitiktosh Kulteginning akasi Bilga hoqon ko'rsatmasi bilan amalga oshirilgan. Bitikda asosan xalqqa murojaat qilingan. Bitik 732 yili Kultigin xotirasi uchun Bilga hoqon tarafidan bitilgandir. Kultigin 731 yili to'qqiz-o'g'izlar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan edi.

Bilga hoqon bitigi – Bilga hoqon 734 yil 25 noyabrda o'z yaqinlari tomonidan o'ldiriladi. Uning o'g'li Ichan hoqon 735 yili otasining xotirasi uchun Kultegin bitikidan 1 km uzoqlikda bitiladi. Bu yozuvni ham Bilga hoqonning amakisi Yo'llig Tegin yozgandir. Bitiktosh ag'darilib 3 bo'lakka bo'lingan, shuning uchun ham yozuvlarning ma'nosi unchalik tushunarli emas. Bitiktosh Bilga hoqonning taxtga o'tirishidan boshlanadi. Bitiktoshda Bilga hoqonning hoqonlik yillari, davlatni adolatli boshqarganligi aytiladi. Bitiktoshning so'nggi misralarida Bilga hoqonning o'z xalqiga qilgan nasihatleri aks etgan. Bunday bitiklar Markaziy Osiyodan ko'p topilmagan. Asosan Talas vodiysidan topilgan xolos. Talas bitiktoshlarini topish va jamoatchilikka ma'lum qilishda M.E. Masson 1930 yilda Tereksoyda o'tkazgan arxeologik qazishmalari natijasida orxun-enasoy harfi shaklidagi ikki qator yozuv bitilgan tosh topdi. Yana Talasdan 1933 yilda yettita katta – kichik hajmdagi bitiktosh topildi. 60-yillarda ham O'sh viloyatida Batken tumani hududida qabr toshiga bitilgan va qadimgi turk davriga oid bitiktosh ma'lum qilingan. Qadimgi turkiy yozuvlar tarqalgan o'lkalar orasida O'zbekiston hududlarining ham alohida o'rni bor ekanligi qator topilmalar orasida isbotlanmoqda. Masalan, Farg'ona vodiysidagi Isfaradan topilgan turkiy bitik, A.N. Bernshtam e'lon qilgan Farg'ona turkiy bitiki, Quvadan topilgan xum sirtidagi turkiy bitik, S.T. Klyashtorniy o'qigan Farg'onadan topilgan bronza uzugiga yozilgan bitik va boshqalar bu fikrni tasdiqlaydi. Tadqiqotlar O'zbekiston hududida yashagan yangi turkiy bitiklar topilishiga olib kelmoqda. 1986 yili O'zFA Arxeologiya instituti tomonidan Andijon viloyatining Marhamat tumanida joylashgan Lo'mbitepa yodgorligida qazish ishlari boshlandi. Bu yodgorlik maydoni 60x90 metr, balandligi 8 metr keladigan tepa bo'lib, V–VIII asrlarga oid bo'lgan mustahkamlangan qishloq qo'rg'oni edi. Bu yodgorlikda ko'plab ashyoviy dalillar qatori qadimgi turkiy yozuviga dahldor muhim obida topildi. Bu obida buyi 20 sm. dan sal ortiqroq, qorin qismining keng nuqtasi 16–17 sm, bo'yin qismi tor xumcha bo'lib, uning og'zi labidan yelkasiga

birlashuvchi bir yoqlama ushlagich bandi bor. Uning bandi sirtiga pastdan yuqoriga yo'nalgan qadimiy turkiy bitik o'yib tushirilgan.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Rozetta toshi qachon topilgan?
2. Rozetta toshidagi trilingva haqida nimalarni bilasiz?
3. Ieratika, iyeroglif va demotik yozuvlar haqida nimalarni bilasiz?
4. Iyeroglif nima?
5. Axmimdan topilgan yodgorlikni tushuntirib bera olasizmi?
6. Misrga qora yog'ochlar qayerdan keltirilgan?
7. Misr iyerogliflarida raqamlar qanday ifodalangan?
8. Fale yodgorligi haqida nimalarni bilasiz?
9. Determinativ nima?
10. Demotik yozuv qanday paydo bo'lgan?
11. Misr yozuvini o'qishda T. Yungning xizmati qanday bo'lgan?

1.5. Numizmatika. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ibtidoiy tovar almashuv munosabatlardan ekvivalent savdo munosabatlariga o'tishning tarixiy shart-sharoitlarini, ekvivalent material sifatida tovarga tenglashtirilgan qimmat ifodasi sifatida pul birliklarini paydo bo'lishi, buning mulkchilik va davlatchilik jarayonlari bilan bog'liqligi, pul birliklarini ashyoviy tadqiqi bo'yicha siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarga tegishli yodgorlik sifatida ilmiy ahamiyatini tushuntirish.

Tayanch so'z va iboralar: *moneta, tanga, yozuv va tasvir maydoni, sur'at, tug'ro, zarb, qayta zarb, quyma usul, chekkagardish, gurt, elektr, tirandoz, avers-revers, emitet, ligature, Iogann Ekkel, Petrarka, Kopernik-Greshem qonuni, valyuta, talent, draxma, stater, xalq, obol, aureus, tetradraxma, shekel, solid, prut, darik, siglos, ass, dengi, kvinariy, sestersiy, unsiya, viktoriat, tashqi pullar, talant.*

Tangalar o'tmishning eng muhim guvohlaridir. Ular tarix haqida, uzoq o'tmishdagi siyosiy, iqtisodiy munosabatlar, dunyoqarash tizimlari, ishonch, e'tiqodlar haqida, badiiy tasavvurlar to'g'risida bebaho ma'lumotlarni o'zida saqlaydi. Tangalarning tarix haqida so'zlovchi «tili» o'ziga xos.

Ba'zi tangalar o'tmish voqea-hodisalari haqida shu qadar aniq xabarlar beradiki, natijada u yoki bu tanganing dunyoga kelishi ham shu axborotning o'zidan ma'lum bo'ladi. Boshqa tangalarning ma'lumotlari esa, unutilgan voqealar bilan bog'liq bo'lgani uchun mavhum bo'ladi. Ularning ma'nosini chin tarixiy jarayon bilan bog'lash g'oyat murakkab tadqiqotlarni, taqqoslash, tahlil kabilarni talab qiladi. Tangalarda yetib kelgan yozuvlar ba'zan unutilgan, tasvirlardagi odam, hayvon va boshqa ifodalar haqida tarixiy ma'lumotlar yo'qotilgan hollar ham ko'p uchraydi. Tangalar, ularni tarix bilan bog'lab o'rganish ishi bilan numizmatika fani shug'illanadi. Numisma – «tanga» (lotincha) demakdir. Tanga birinchi galda – pul, ya'ni tovar oldi-sotdi munosabatlarining qiymat belgisi va qiymat ashyosi. Insoniyat hayotida uning o'rni va roli beqiyos darajada katta bo'lib kelgan.

Tanga (pul shakli sifatida) paydo bo'lmasdan avval «savdo» munosabatlarining mohiyati amalda almashuvdan iborat bo'lgan desak xato bo'lmaydi. Almashuv zaruriyati esa, o'z navbatida mehnat taqsimotining oqibati edi. Sof ma'noda to'la-to'kis natural xo'jalik jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga qodir emas edi. Zero, buning majmui o'zi uchun barcha zarur narsalarni ishlab chiqarishga qodir emas edi. Shu sababli o'z imkoniyati va mehnat turining mahsulotidan ortiqchasini boshqa xo'jalikda yetishtirilgan, lekin qo'shni, uzoq yaqin jamoalarda yetishtirilgan mahsulotga almashtirish zaruriyati doimo ko'ndalang bo'laverar edi. Bir jamoa (qabila, urug') ma'lum mahsulotni yetishtirish uchun xomashyoga ega, boshqasida esa bu imkon yo'q. Biroq, boshqa jamoa birinchisi uchun kerak narsaga ega. Shunday hollarda almashuv sodir bo'lgan. Asta-sekin almashuvning bu turi (fil suyagi) tomonlarni hamma vaqt ham qanoatlantirmasligi ayon bo'la boradi. Chunki, har bir vaziyatda almashuv uchun kerak mahsulot ishonch bilan topilavermaydi. Natijada, tovar mahsulotning eng qadrlı yoki noyob hisoblangan turi, ba'zan hatto, ramziy ma'no beruvchi narsadan almashuvga qo'yilayotgan har qanday tovarni olish uchun ramziy yoki shartli qiymat sifatiida foydalanish odati boshlanadi. Ya'ni tovar-ekvivalentligi asosiga qurilgan ilk «savdo» munosabatlari boshlanadi. Qadimgi xalqlarda, yangi zamonlarda esa, Avstraliya, Afrika, Okeaniyadagi taraqqiyotdan orqada qolgan xalqlarda, Amerika hindularida va hokazo ekvivalent ma'noda daryo va zah joylarda bo'ladigan kauri chig'anoqlaridan foydalanib kelishgan. Qadimgi rivojlangan Xitoy, Hindiston,

Yaponiya uabi mamlakatlarda ham kauri chig'anoqlaridan pul sifatida uzoq vaqtlar davomida foydalanishgan. Malenziya xalqlari orasida yaqin o'tmishda ham chig'anoq, shisha munchoqlar, kuchuk tishlari, cho'chqa dumi kabilar ekvivalent pul birliklari sifatida amal qilgan. Buning hech ajablanarli joyi yo'q. Hatto, XII–XIII asrlarda Rus davlatida mo'yna (kunisa nomli o'rmon kemiruvchisining oshlangan terisi) pul o'rnida ishlatilgan vaqt ham tarixda ma'lum. Buning sababi o'sha davrdagi kumush konlarining «charchashi», tanga yasash uchun ham ashyo yetishmasligi bo'lgan. Qadimgi dunyoda ekvivalent sifatida uy hayvonlaridan foydalanilgani ham ma'lum. Masalan, bu odatning qoldig'i hozir ham bor. Kelin olishda qo'y, qoramol berilishi haqiqiy pul-paydo bo'lmasdan avval tabiiy hol edi. Tilimizda «mol» so'zining «boylik» ma'nosida ishlatilish ham qoramolning qiymat ma'nosiga ishoratdir. Qadimgi grek eposlari Odissey va Illiadada savdo haqida ma'lumotlar ko'p. Lekin, biror marta pul haqida gapirilmaydi. Uning o'rnida tovarlar qiymati qoramol yoki qo'y bilan belgilangan. Pul, tanga ko'rinishidagi ekvivalent birlik tushunchasiga yetib kelguncha almashuv va mol ekvivalentligi tajribasi ming yillar davomida amal qilgan. Nihoyat, ekvivalentlik uchun metall eng qulay va ishonchli vosita sifatida qaror topdi. Qadimgi Misr va Mesopotamiyada metalning yombilari pul vazifasini o'tagan, quyma metal ba'zan xalqa, yarim xalqa, metal qalamcha, quyma parcha shakllarida bo'lgan. Ulardan savdoda vazniga qarab foydalanilgan. Qadimgi Italiyada Apollon chashmasi deb atalgan muqaddas buloqdan 300 kg. shu kabi yombilar topilgan. Qadimgi Italiyaliklar ularni suvga ehson sifatida tashlashar ekan. Chashmalarga tanga tashlash odati xalqimizda hozirgacha mavjud. Toshkentdagi Chorsu bozori maydonida bo'lmish Ukkosha bulog'iga tanga tashlashni hozirgi avlod toshkentliklar hali unutmaganlar. Avvalo, metall buzilmaydi. So'ngi ra metaldan ishlangan pul birligi ixcham, saqlash uchun, olib yurish uchun qulay, sanash oson. Savdo uchun zarur mayda bo'laklarga bo'linishi oson. Lekin, metal pul birliklarini tayyorlashda ularning xomashyosiga qiymati mast metall eritmasini qo'shish, yombining vaznidan urib qolish, o'rnatilgan hajmidan kichikroq pul birliklari chiqarish kabi o'g'riliklar tez-tez uchrab turgan. Bunday tarzda metal pullarni buzish ko'pincha hukmdorlar tomonidan zimdan buyurilgan. Ba'zan mahalliy hokimlar markaz nomidan zarblar qilib, yuqoridagidek yasama pul chiqarishgan.

Tanga ko‘rinishidagi yupqa metall parchalari yuzasiga – o‘ngu-tersiga tang‘alar urila boshlashi pul birliklarini haqiqiy ma‘noda numizmatik materialga aylantirgan. Chunki, endi pulda davlat belgisi, uni zarb qildirgan hukmdorning tasviri, o‘sha davr mafkurasi bilan bog‘liq ramziy shakllar, obrazlar (xudolar, farishtalar, qahramonlar, totem ramzlari va h.k.) paydo bo‘ladi. Tangalarda turli tasvirlarning paydo bo‘lishi ularni muhim tarixiy manbaga aylantiradi. Endi tanga shunchaki metall parchasi emas, balki iqtisodiy munosabatlar, xalqaro aloqalar, siyosiy hayot, mafkuraviy qarashlar, metalga ishlov berish texnologiyasi, yozuv madaniyati, tasviriy san‘at va boshqa ko‘plab sohalar taraqqiyotining bebaho namunasi. Ilmiy soha sifatida numizmatikaning shakllanishida yig‘machilik (kolleksiyachilik) dastlabki qadam bo‘lib xizmat qilgan. Yig‘machilik keng ma‘noda qadimgi davrlarga oid noyob ashyolarni to‘plash, ularni namoyish qilish bilan faxrlanish, antikvar buyumlarni boylik sifatida tushunish tarzida boshlanib, asta-sekin yig‘ilgan buyumlardan ma‘no qidirish, ularni tasnif qilib, guruhlar ichida va guruhlararo umumiy va xos xususiyatlarni o‘rganish sari rivojlangan. Yig‘ilgan ashyolarning tavsiflari, kataloglari tuzila boshlagan. Ko‘p hollarda antikvar buyumlar bilan ishlashga boy-badavlat egalari mutaxassislarni taklif etganlar. Tarix fanining yordamchi sohalarida ichida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan numizmatika, mamlakatimiz istiqloлга erishlandan keyin uning nufuzi yanada ortdi, mustaqil tarix fani sifatidagi maqomga ega bo‘ldi. Chunki, tariximizni o‘rganishda tangashunoslik fanining ahamiyati beqiyosdir. Tangalar bizga eramizdan avvalgi davrdan to hozirgi kungacha bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar siyosiy iqtisodiy, ayrim hollarda esa, millatlarning e‘tiqodiy dunyoqarashlari haqida ma‘lumot beradi.

Tangashunoslik oltin, kumush va misdan ishlangan metall pullarni o‘rganish haqidagi fandır. Ushbu sohaga bundan tashqari yana qog‘oz pullarni o‘rganish (bonistika) va orden, medal hamda shu xildagi esdalik tang‘alarni (znachoklar) florestika) o‘rganish ham kiradi. Bu fan arxeologiya bilan aloqador fanlar jumlasidandır, numizmatika fani arxeologiyaga yordam beradi. Tangashunoslik bilan qiziquvchilar doirasi birdaniga kengaygan emas, tanga chaqa pullarni to‘plash ilmiy numizmatika tomon dastlabki qadam bo‘ldi. Kolleksiya to‘plash mazkur faning rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Bundan bir necha yil muqaddam insonlar tanga va chaqa pullar bilan qiziqqanlar. Dastlabki tanga chaqalar miloddan avvalgi

VII asrda Kichik Osiyoda paydo bo'ldi. Kolleksionerlar turli zamon va davrlardagi tanga, chaqa pullarni yig'ib ularni kataloglarini (ro'yxatlarini) tuzganlar va har qaysisini alohida tarzda ta'rifini yozganlar. Ularning ko'pchiligi qadimgi tillarni bilganliklaridan tanga chaqalardagi xatlarni o'qishga harakat qilganlar. Ayrim kolleksionerlar to'plagan tangalarini bir joyga to'plab umumiy kolleksiya tashkil etganlar. G'arbiy Yevropa hukmdorlari san'at ahli tangalarni boylik sifatida to'plashlari natijasida u yerdagi davlat xazinalarida turli xil mamlakatlarning tangalari yig'ilib bordi. Tangalarni yig'ish XIV asrdan boshlab asta – sekin odat tusiga kirdi. Qirollar va imperatorlar qimmatbaho tangalarni davlat xazinasidan ajratib olib maxsus myunkabinetlar (tangalarni saqlovchi xonalar) tashkil etganlar, hamda ularni o'rganish va ularga tartib berish uchun olimlarni jalb etganlar. Hozirgi kunda Angliya, Fransiya, Sankt-Peterburg, Vena, Berlin kabi mamlakat shaharlarida jahondagi yirik yig'ma kolleksiyalar mavjud.

Dastlabki tangashunoslikning izlanishlari natijasida ilk bor XIV asrda Andreo Fulvinoning yunon va rim tangalari ifodalangan «Taniqli kishilar tasviri» nomli kitobi nashr etildi. Ushbu kitob mashhur hukmdorlarning tasviri va ularning hayoti haqida qisqacha ma'lumot berganligi bilan mazkur tadqiqot qiziqish uyg'otdi. Keyinchalik 1553 yili Giloma Rud «Dunyo yaratilgandan buyon yashagan taniqli kishilarning tangalardagi hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma'lumot» nomli kitobini o'quvchilarga taqdim etdi. Bu adabiyotlar XVI asrda juda katta nufuzga ega bo'lgan. Tangashunoslik ilmi kashshoflarini XIV–XVI asrlarda tangalardagi hukmdorlar qiyofasi va tarjimai holi qiziqtirgan bo'lsa, XVIII asrda bu fanni ilmiy nuqtai nazardan rivojlantirish katta ahamiyat kasb etdi. Avstraliyalik ruhoniy Iosif-Ilariy Ekkel (1738–98) sakkiz jilddan iborat «Qadimgi tangalar ilmi» nomli kitobida 70 mingdan ziyod tangalarga tartib berdi. Aniq olmay olmagani tangalar haqida hech qanday faraz qilmagan, ularni noma'lumlar qatoriga qo'shib qo'ygan, ko'p mamlakatlarni tanga turlarini aniq olmay olmagani. XVIII asrda sharqiy numizmatikada bir necha ming tanga pul bo'lgan, ammo ularni shu vaqtga qadar tadqiq qiluvchi bo'lmagan. Rossiya FA akademigi Xristian Martin Fren sharqiy numizmatikaga asos solgan kishidir. U Qozonda yashab Oltin O'rda xonlari tomonidan zarb qilingan tangalarni o'rganish uchun juda boy manbaga ega bo'lgan. Fren nemis bo'lganligi uchun tez orada Germaniyaga chaqirishgan, yo'l-yo'lakay Pe-

terburgda to'xtagan, u yerda Fanlar akademiyasida to'plangan tangalarni ko'rgach, tashlab keta olmagan, butunlay Rossiyada qolib butun umrini sharq tanga pullarini o'rganishga bag'ishlagan.

Pyotr I tomonidan Peterburgda tashkil etilgan muzey kunskamerada boshqa eksponatlar bilan birga tanga pul va medallardan ham katta kolleksiya to'plagan. Kunskamerada doim o'z kolleksiyasini to'lg'azib turgan, to'plagan tanga pullarni tartibga solgan. Undagi qimmatbaho pullar kolleksiyasi hozirgi vaqtda Davlat Ermitajida joylashtirilgan, bu kolleksiya dunyodagi eng katta kolleksiyalardan biri hisoblanadi, hisobida 300 mingta tanga pul bor. Bundan tashqari Markaziy Osiyo numizmatikasi tadqiqotchilari orasida M.E.Masson, V.A. Mishkin, Ye.A. Davidovichlar salmoqli o'rin egallaydilar. Ular qadimgi Markaziy Osiyo tanga pullarini aniqlab turlarga ajratdilar va zarb qilish ishidagi rivojlanishning asosiy bosqichini belgiladilar. Qadimshunos olimlar yer kurrasidagi dastlabki savdo muomalasi ibtidoiy jamoa tuzumining tosh asridan boshlanganligini isbotlaydilar. Ularning ta'kidlashlaricha inson o'z mehnatining mahsulotlarini ayirboshlash natijasida savdo – sotiqning ilk va sodda to'rini vujudga keltirdi. Tanqis ashyolarni pul o'rnida ayirbosh qila boshladi. Bundan tovar pul muomalalari mintaqalarda turli ko'rinishda amalga oshirilgan. Masalan: Osiyo va Afrikada kauri nomli chig'anoqlar pul vazifasini o'tganligi ma'lum. Ular ayrim elatlarda qadimdan, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumidan milodiy XX asrgacha savdo vositasi bo'lib kelgan. Masalan: bu chig'anoqlar qadimiy Xitoy, Yaponiya, Hindiston shaharlarida ancha vaqtgacha muomalada qadrlangan. VI–VII asrlarda Germaniya, IX asrda Shvesiyada, XVI asrda Riga shahrida ishlatilganligi, Gveniyada ham kauri tasviri tushirilgan pullar mavjud bo'lganligi aniqlangan. Bundan tashqari insonlar orasida jonliq qoramol yoki, xarsanglar keyinchalik itlarning tishi, cho'chqa go'shti, ma'dan parchasi singari narsalar ham savdo vositasi sifatida qo'llanilgan. Odamzot o'zi uchun qulay pul shaklini ixtiro etguniga qadar mazkur «pul» larni tabiatdan olib savdo vositasi sifatida ishlatib turgan. Vaqti kelib inson ma'dandan ishlangan pul-parchaning yengilligini va o'z yonida olib yurishga qulayligini hisobga olib sof ma'danli quymalarni ayirbosh qilishga o'tadi. Bunday pul birligi qadimgi Ikki daryo oralig'i va Misrda paydo bo'lib, bu davrdan e'tiboran inson hayotiga «tanga» holatida kirib keldi. Ammo, bu quymalarni inson-

lar qalbakilashtira boshlaydilar. Qattiq jazo choralariga qaramay bunday hol davom etavergani sababli, hukmdorlar o'z quymalarini muhrlashga, ya'ni ularda biror-tasvirni yoki tug'rolar-gerblarni ifodalashga odatlandilarki, bu bilan quymalar haqiqiyliги davlat tomonidan kafolatlanadigan bo'ldi.

Qadimiy tarixchilar Gerodot va Ksenofont asarlaridan ma'lumki, ilk tangalar oltin va kumushdan bo'lib, Kichik Osiyodagi midiyaliklar tomonidan miloddan avvalgi VII asrda zarb etilgan. Ammo, Yunonistondagi Egina shahrida, Xitoy va Hindistonda maxsus tangalar zarb etish ixtiro qilindi. Ularning ko'rinishi juda sodda bo'lib, dastlab ayrim chizgilar bilan bezatilgan, so'ngra turli jonzotlarni (toshbaqa, ukki, dengiz mushugi, baliq va hokazolarni) tasvirlashga o'tilgan. Bunda aks ettirilgan jonzot, uning shahar tug'rosi yoki nomi bilan hamohangligidan kelib chiqib ish tutilgan. Keyinchalik ilohlar va bazilevelar tasviri ifodalangan tangalarni «moneta» deb nomlay boshlaganlar. Qadimgi Rim davlatida Yunona deb boshlaganlar. Qadimgi Rim davlatida Yunona deb nomlangan iloh bo'lib, «moneta» uning xislatlaridan biri miloddan avvalgi 45-yillarda Tit Kariziy tomonidan nozik bir ayol tasviri tushirilgan tanga zarb etildi. Tasvir ortida «moneta» degan lotincha so'z zarblangan bo'lib «bashoratchi» degan ma'noni ang'talar edi. Shu davrdan boshlab tangalar moneta deb yuritiladigan bo'ldi. Yevropaning g'arb bilan sharqqa kirib kelgan bu so'z rusizabon insonlararo tilida keng qo'llanila boshlandi.

Hozirgi kunda jahon bozorida turli xil tanga va pul birliklarining nomlarini uchratish mumkin. Qadimgi tetradraxma, draxma, gemidraxma, obol, dinor, dirham, lira va hokazo nomli tangalar mavjud bo'lgan. Bu nomlarning kelib chiqishi ham bir – biri bilan uzviy bog'liqdir. Masalan: Yunon draxmalaridan sharqiy dirham, Rim dinariylaridan dinor va boshqa shu kabi pul nomlari hosil bo'lganligi hammaga ma'lum. Qadimgi tangalar ikki xil: 1) quyma 2) zarblangan uslubda tayyorlangan, quyma tangalar maxsus shakl va tasvir qo'yilgan qolip idishlarga ma'dan quyib tayyorlangan. Ikkinchisi esa, temir yoki bronzadan ishlangan muhr-shtempelda (tanganing o'ngi va tersi naqsh etilgan maxsus asbobda) tangalar ifodasi tayyorlanib, kerakli metall quymasi ustiga zarblangan. Birnichi uslubda tanga sathidagi tasvir noaniq bo'lganligidan tezda o'chib ketishi sababli miloddan avvalgi VII asrga kelib zarblangan tangalar keng miqyosda

qo'llanadigan bo'ldi va shundan buyon tangalar faqat zarblangan holda muomalaga chiqarib kelinmoqda.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti ulkan, poyonsiz yo'llarni bosib o'tdi, taraqqiyotni evolyutsion yo'li, insoniyatni sivilizatsiya sari yetakladi. Antik taraqqiyotni boshlanishi san'at va madaniyatning hamma sohaslariga ta'sir ko'rsatib, o'zining rivojlanish yo'lida yuqoriga yetgan bo'lsa, bu davrda tarix fanining alohida bo'limi hisoblangan numizmatika sohasida ham diqqatga loyiq ishlar qilingan. Metallardan ishlangan pul tanga chaqalarning paydo bo'lishi insoniyat tarixidagi muhim voqealardan biridir. Metall pullar qirqib tortila boshlaganidan keyin, ularni og'irligi ko'rsatib beruvchi belgi sola boshlaganlar. Belgi solingan pulni paydo bo'lishi haqida shunday afsonalar saqlangan. Rimliklarni ko'pdan – ko'p xudolari orasida, ixtirolarni boshqaradigan xudolar ham bor ekan. Uning ikkita yuzi bo'lib, oti Yanus ekan. Dastlab tanga pulni pulni o'sha Yanus ixtiro qilgan emish. Shuning uchun eski rim va italyan pullarining bir tomonida ikki yuzli Yanus surati, ikkinchi tomonidan Yanus tushib kelgan kema surati zarb qilingan. Tanga pullarning dastlab qayerda paydo bo'lganligini aniq aytish qiyin. Ammo, tanga pulning nomi «Moneta» ellinlarda tug'ilgan. Qadimgi Rimliklar xudolarni hammasi yer va osmon podshosi Yupiter va uning xotini Yunon Monetaga bo'ysunadi deb bilganlar.

«Moneta» – murabbiya degani. Rimliklar ma'buda Monetani benihoya hurmat qilganlar va unga atab Rimning eng baland joyiga ibodatxona solganlar. Ular urushlarda g'olib bo'lganlaridan keyin o'z ma'budalariga atab katta qurbonliklar qilishgan, hatto pullarini Yunon Moneta ibodatxonasida zarb qilishga qaror qilganlar. Ana shundan buyon tanga pullar moneta deb ataladigan bo'ldi. Dastlab qilingan dunyoda tanga pullar faqat sof oltin va kumushdan zarb qilingan. Ammo, metallar sof holda juda mo'rt bo'lganligidan, undan zarb qilingan pullar tez yeyilib siyqalanib ketgan. Shundan keyin, pullarni qotishmadan zarb qiladigan bo'lganlar. Oltin yoki kumushga boshqa metallar, masalan, mis yoki qalay qorishtirganlar. Har bir mamlakatning hukmdori boshqalarnikidan farq qiladigan tanga pullar zarb qilib chiqarishga uringanlar. Numizmatika fanining asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan tanga pul xillari ana shu tariqa paydo bo'lgan. Tanga pullarni odatda betini o'rab turgan doirasi bo'ladi, bu doirada yozuv yoki surat bo'ladi. Numizmatlar yozuvni tanga pulning legendasi (tangada uchray-

digan barcha yozuvlar, qisqartirilgan soʻzlar, alohida harflarning atamasi) deb ataydi. Suratlariga kelsak odatda podshohlar, xudolar surati zarb qilinadi va bu suratlar davlatning yoki podshohning muhrini aks ettiradi. Qadimgi Gretsiyada tanga pullarga koʻproq xudolar, maʼbudalar va muqaddas hayvonlarning suratlarini zarb qilganlar. Afina shahrining tanga pullarida maʼbuda Afina surati, Olimpiya tangalarida Zevs surati zarb qilingan. Numizmatika xronologiya, moddiy madaniyat, ichki va tashqi savdo tarixi masalalarini tekshirishga imkon beradi, tarix, arxeologiya faleografiya, sanʼat tarixi, iqtisod, etnografiya faktlari uchun katta ahamiyatga ega. Oʻrta asrlar Yevropasida numizmatika sohasi yaxshi oʻrganilgan. Tahlil va tadqiqotlar ancha koʻp:

1. Oʻrta asr Yevropasida tangalar tarixini 5 davrga boʻlamiz:
2. Varvarlar zarblari V–VIII asr oʻrtalari
3. Karoling dinori VIII oʻrtalari – X asr
4. Feodallar dinori X – XIII asr oʻrtalari
5. Grosha – florina XIII asr oʻrtasi XVI asr boshi
6. Taler davri – XVI asr boshi XVIII – XIX asrlar

Birinchi davrda varvarlar zarblari – V–VIII asr oʻrtalarida Oʻrta asr Yevropasi mamlakatlarida Rim imperiyasi qulagandan keyin Vizantiyada (Konstantinopol) Anastasiy I (491–518) davrida uning nomi bilan qanotli gʻalaba xudosi va (Konstantinopol) nomining 4 harfi yozilgan kumush tangasi zarb qilinadi Vizantiya Imperatori Tiberii (578–582) tomonidan birinchi oltin tanga zarb qilinadi. 568 yili Leovigeld (576–586) davrida Ispaniyaning Priney yarim oroli qoʻshib olinib tresns deb atalgan tanga V tipida (gʻalaba) imperator portreti berilgan tangalari zarb qilinadi. Pul zarb qilish imperator Dialektian (284–305) davrida ancha jonlangan. Konstantin I ning birinchi kumush tangasi (1/144), Konstantin II (337–361) oltin tangasi Burgundiya, Langobard, Anglosakslar ana shu varvarlar tangalaridan foydalanishgan. Alarix II (487–507)uning oʻgʻli Tezalix (507–511), Amalarix (511–526) davrida kumush va oltin tangalarda monogammalar yaʼni yozuvlar oʻyib yozilgan. Bu AMR harflaridir. Orqa tomonida (V) gʻalaba tasviri yozilgan. Yustian I (518–527 va Yustian II (527–565) davrida Iso paygʻambar tasviri oʻyib yozilgan. Shular tarkibida Amalarixning tangalari saqlanib qolgan. Uning pullari butun Ispaniya boʻyicha xaridorgir boʻlgan. Bu tangalar to 531 yilgacha amalda boʻlgan. 568 yilda taxtni Le-

ovilgeld (568–586) vestgotlarning eng kuchli hukumdori egallaydi. Tanga zarb qilish takomillashadi. Vestgotlarning oxirgi qiroli Germengild (579–585) davrida triens tangasi zarb etiladi. Tanganing old tomonida krest va qanotli farishta, orqa tomonida har xil nomlar yozilgan. Masalan: felix, victor va boshqalar. Langobardlar. Perktarita (672–688), Kipinert (688–700), Aripert (700–712) tangalarida *cnigper*, Pamxis (744–749) davrida esa tanganing old tomonida imperator portreti chizilgan. VII asrning II yarimida Irakliya (610–641), Konstantin II (641–648) davrida tanganing old tomonida imperator portreti orqa tomonida krest tasviri tushirilgan. Dizederiy (756–774) davrida krest tasviri yulduzlar tasviri bilan to'ldirilgan. Oltin va kumush tangalar imperator Yustian I, Yustian II va Teberiya (582–602) portreti tushirilgan tangalar zarb qilinadi. Yuza tomonida krest (but) chizilgan va tanga triens deb atalgan. Merovenglar davrida VI asrning ikkinchi yarimida solid va triens tangalarida krest tasviri muqaddam joy olgan. Dastlabki, mis tangalar ham vujudga kelgan. Bu tangalar Avstraziya Teuderix (511–534) va qiroi Neustr Xildebert I (511–558) davrida ancha rivojlangan. Tanganing yuz tomonida *dn theodebepts* yozuvi bitilgan. Bu pul muomalasi Parij, Sani, Mass, Mazel, Reyn, va Marsel bo'ylab harakatda bo'lgan. Tangalar zarb qilish makonlari ham kengaygan. Merovenglar davrida 900 ga yaqin joylarda pul tangalar zarb etilgan. Mahalliy hukumdorlar o'z qasrlarida ham Fransiya va Angliyada VII asr o'rtalarida oltin solid hukumron bo'lgan. Tanga yuzasida gulchambar tasviri bo'lib orqa tomonida Viktoriya (V) g'alaba tasviri zarb qilingan. Yoki, ko'pincha orqa tomoniga but rasmi tushirilgan. VII asrda shuningdek kichik og'irlikdagi 1,1 1,3 gr, kumush dinorlari zarb qilingan. Portret, but, yozuv bitilgan. Birinchi davr qariyb 300 yilga cho'zilgan. Tanga pullarni o'g'irligi 1,1 gr.dan 1,3 gr. gacha bo'lgan.

Ikkinchi davrda, Karoling dinori – VIII o'rtalari – X asr davri mobaynida turli o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Tipin Korotki (751–768) davrida kumush dirham og'irligi jihatidan 780 gr bo'lib oltinni siqib chiqaradi. Tanganing «funt» nomini olishi Buyuk Karl (768–814) zamonasida yuz beradi. Tanganing yuziga qiroi rasmi, ikkinchi tomoniga tanga zarb qilingan qasr tasviri tushiriladi. Tangalarning old tomonida yozuv saqlangan. Masalan: *rt pex pipins*. Endi tanganing orqasida cherkov, shahar darvozasi va kema tasviri tushiriladi. Tangalarda yozuv saqlanib qolgan. Imperator

yoki avg vstvs gulchambar va imperator portreti tushirilgan. Angliyada qirol Eduard Muchenik (975–978), Knut (1016–1035), Garold (1035–1040) Hardaknut (1040–1042), Eduard Ispovednik (1042–1066) davrida oltin tangalar zarb etilgan. Tangada qirol portreti, ya'ni boshi va orqa tomonida but tasviri tushirilgan. Keyinchalik, qirol Vilgelm Bosqinchi (1066–1087), Stefan I (1135–1154), Genrix I (1100–1125), Genrix II Plantagenet (1154–1189) davrida penni nomli oltin tanga zarb qilib, savdo va to'lov vazifasida keng qo'llangan. Grafiklarning qudrati tobora oshib borgan. Ayniqsa, Anjuy grafligi boshqa shaharlar bilan har doim raqobatda g'olib kelgan. Bu grafikda og'irligi 1,5 gramli oltin tanga zarb etilgan. Tanganing yuza qismida qirol boshi orqa tomonida esa but tasviri tushirilgan. Faqat Genrix VIII (1485–1509) davrida penni o'g'irligi 0,54 gramga tushib qoladi. Uchunchi davr feodallar dinori X–XIII asr o'rtalarigacha davom etib, bu davr rivojlangan feodalizm davri deb ataladi. Yevropada Italiya davlati o'ziga xos rivojlanishni boshidan kechirayotgan edi. Undagi shaharlarning rivojlanishi, savdo – sotiqning o'sishi pul muomalasini yanada rivojlanishini taqozo etgan. Qirol Barbarossa Fridrix I (1152–1190) davrida oltin tanga pullari 0,82, 0,84 gr. tashkil etgan. Oltin tanga 660 probali bo'lib, xalqaro maydonda xaridorgir bo'lgan. Italiyaning Florensiya shahri o'sha paytda eng odamlar bilan gavjum shahar sanalgan. Shaharda 1,75 gr. keyinchalik 1,80 gr. tanga zarb qilish yo'lga qo'yilgan. Yuza qismida gulchambar va shahar gerbi, orqa tomonida Iso Payg'ambar tasviri tushirilgan. Tangada gul tasviri bo'lgani uchun (latincha: flos, fiore) florin nomini olgan. Venetsiya shahri o'rta asrlar Italiyasining eng gullab yashagan davriga to'g'ri keladi. Shahar nihoyatda boy bo'lgan. Dunyo mamlakatlarining kemalari savdo sotiq olib borish uchun shu shaharga kemalarda kelishgan, savdo boji to'lashgan. Venetsiyada qirol Enriko Dondalo (1192–1205) davrida 2,18 gramli kumush tanga zarb etilgan. 1285 yildan 3,56 gramli oltin tanga zarb etilgan. Tanganing old tomonida dvcat so'zi yozilgan.

Fransiyada qirol Luyudovik IX (1226–1270) davrida 4,22 gramli, 958 probali oltin tanga zarb etilgan. Tanga grosha nomini olgan. 1306 yilda qirol Filip IV 42,5 gramli oltin dinor zarb etadi. Lekin, yillar davomida tanga nominali pasayib borgan. Masalan, 1365 yilda Karl V (1364–1380) davrida bu dinorning og'irligi 2,55 gramni tashkil etgan. To'rtinchi

davr, grosha-florina XIII asr o'rtasi, XVI asr boshlarigacha davom etgan. Asosan, 1137 yilda yuz yillik urush barcha Yevropa davlatlarini iqtisodiy ravnaqiga rahna solgan. To'lov, soliq yig'ishda qiyinchiliklar bo'lgan. Oltin pullar kamayib ketgan. Bu esa, oltin va kumush konlarini qidirib topish va kavlab olishni taqozo etgan. Albatta, primitiv asbob-uskunalar, ishning og'irligi, xavfiligi, ko'p odamlarning o'limiga olib kelgan. XV asr Yevropa davlatlarida pul zarb qilishning rivojlangan davriga kiradi. Asosan kumush tangalar talerlar zarb qilish va hududlar bo'yicha chiqarish kengayadi. Ayniqsa, qadimgi german hududlarida shahar davlatlarida Lyunbergda (1434), Gamburgda (1435), Saksoniyada (1455), Bremenda (1463), Polshada (1320) yillarda zarb qilish yo'lga qo'yilgan.

Beshinchi davr, taler davri: XVI asr boshi XVIII–XIX asrlargacha davom etgan. Oltin tangalar haqida fikrimizni davom ettiradigan bo'lsak, soliq yig'uvchilar ro'yxatida Yevropa davlatlarining aholi sonini ham aniqlay olishimiz mumkin. Masalan, Gollandiya hududida 1623 yilda 15 mln. aholi yashagan. Gollandiyada XIV asrda yiliga 18-19 kg oltin tanga zarb etilgan. XV asrda Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin savdo munosabatlari rivojlanishi natijasida mamlakatlar o'rtasida umumiy qiymatga ega bo'lgan pul muomilasini tashkil etishni talab qiladi. Tanga XV asrda Venesiyada Nikola Tron (1471–1473) 945 probali og'irligi 6,52 gr. kumush tanga zarb qilinadi. Tanga Lir deb ataladi-orqa tomonida sher rasmi tasvirlangan. Mazkur tanga nisbatan boshqa mamlakatlar bilan to'lov vazifasini bajarishda ishlatilgan, xaridorgir bo'lgan. Tanga pullarning keyingi taraqqiyotiga e'tibor qaratsak, har bir davlat o'z taraqqiyotidan kelib chiqib, iqtisodiy rivojlanishi uchun o'z tanga pullarini zarb etganini ko'ramiz. Albatta oltin, kumush va mis tarzida amalda qo'llanib kelingan. To'qog'oz pullar chiqquncha tangalar muomalada bo'lgan, iqtisodiy, savdo– pul munosabatlarini tartibga keltirib turgan. Jamiyat taraqqiyoti hamma vaqt pul muomalasini yangilashni, savdo va xo'jalik yuritishni yangicha usullarini joriy etishni taqozo etib turgan. Muhimi, jamiyatda tovar pul munosabatlarini tartibga solish va barqarorlashtirishda muhim kasb etgan. 1974 yili gersog Lelesio Mariya S. Foria (1966–1984) o'zini rasmi bilan tanga zarb qiladi. 9,65 gr. 960 probali tanga teston deb atalgan. Lekin bu pul uzoq muomalada bo'la olmadi. Keyinchalik, Chexiyani Yaximov-shahrida taler tangasi zarb qilinadi, 2,9 gr. Yangicha tanga yuzida Ioaxim Svetoy – orqa tomonida sher rasmi tushurilgan. Bu tanga

Ispan Amerikasida keng tarqalgan. Gollandiyada – dolder, Italiyada – taller, Skandinaviyada – doler, Shimoliy Amerikada – dollar deb atalgan. Angliyada kron, Ispaniya, Niderlandiyada – potagon, detal, Ispaniyada – peso, Italiyada – skudo, Fransiyada – ekyu deb atalgan. Keyinchalik mazkur tanga umumiy nom olib dollar deb atalgan.

Qadimiy tangalar Tojikiston hududidagi qazishma ishlari natijasida topilgan Amudaryo xazinasidan 3 ta tetradraxma topilgan. Bu tangalar mil. avv. 500–490 yillarda zarb etilgan. Tangalardan ko‘rinadiki bu tangalar Ahamoniylar davlati va uning tarkibiga kirgan davlatlar va shaharlar uchun zarb etilgan bo‘lib, ular hukmdor atalgan. Qirollik tangalari bilan bir qatorda Ahamoniylar davlatida Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘i hududidagi shaharlarda zarb etilgan tangalar ham asosiy o‘rinda turgan. Bundan tashqari Ahamoniylar davlati tarkibidagi ba‘zi bir shaharlar ham tangalar zarb etishgan. Davlat tarkibidagi Satrapliklarda ham, hukmdordan tashqari ahyon-ahyonda zodagonlarning ham tangalari zarb etilganini ko‘rish mumkin. 1988 yilda Tojikistondagi Xonako Xovalin rayoniga yaqin bo‘lgan joydagi o‘rta asrlarga tegishli bo‘lgan Shahri Munk shaharchasidan mahalliy aholi kumush tanga topib oladi.

Amudaryo xazinasini – 1877–1878 yillarning qish faslida mahalliy xalq tomonidan Taxti Kobad shaharchasidan topilgan. Bu shaharning o‘rni Vaxsh va Pandja hududlari qo‘shilgan joyda bo‘lgan. Xazina bugungi kunda Britaniya muzeyi saqlanmoqda. Salavkiylar hukmdori Antiox I mil. avv 280–268 yillarda Baqtriya shaharlarida kumush tangalar zarb ettiradi. Antiox II hukmronligi davrida (mil.avv 261–251 yillar) zarb etilgan tangalarda avers qismida Antioxning tasviri revers qismida esa, Appolon tasviri tushirilgan. Amudaryo xazinasini orasida Yunon-Baqtriya davlati hukmdori Diodotning oltin va kumush tangalari topilgan. M.E. Masson XX asrning 20-yillarining boshlaridagi qidiruv ishlari natijasida Markaziy Osiyo hududidagi tangalardan tashqari Rim imperatorlari Domitsiana (mil. 81–96 yillar), Trayan (98–117 yillar), Adriana (117–138 yillar), Antiona Piya (138–161 yillar) va Mark Avreliy (161–180 yillar) tangalari topilgan. 1978 yilda Taxti Sangin shaharchasidagi arxeologik qidiruv ishlarida boshqa davlatlarning tangalari bilan bir qatorda 69 ta Parfiya hukmdori Fraata IV draxmasi ham topilgan. Fraata IV draxmasi boshqa Taxti Sangindan topilgan tangalar bilan birga Britaniya muzeyida saqlanmoqda.

Qashqdaryodan topilgan Zevs va Gerakl tasviri tushirilgan tangalar xususida soʻz yuritiladi. Unda aytilishicha bunday tangalar Qashqadayo vohasidagi Kesh (hozigi Shahrisabz) va Naxshab (hozirgi Qarshi) dan topib oʻganilgan. Qashqadaryo vohasi Yakkabogʻ tumanidagi Toʻrtkoʻl tepa yodgorligidan bir tanga topiladi. Tanganing old tomonida Zevs taxtda oʻtirgan holatda tasvirlangan boʻlib, qoʻlini oldinga choʻzib turibdi, qoʻlida esa qush qonib turganligini koʻramiz. Tanganing orqa tomonida Gerakl oʻng oyogʻi oldinga choʻzilgan holda xuddi Zevs taxtda oʻtirgandek tasvirlangan. Bu tasvir raqsga tushayotgan odamni eslatib yuboradi. Bunday koʻrinishdagi tangalar dastlab 1965- yilda S.K.Kabanov tomonidan Kichik Qiztepa manzilgohidan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan. Tangalarning diametri 13 mm, ogʻirligi 0,21 gramm boʻlib, mil. avv I asr milodiy I–II asrlarga oidligi aytiladi. Bundan tashqari bu yerdan tanganing oldiga hukmdor orqa tomoniga turli xil qahramonlar tasviri tushirilgan tangalar ham topilgan. Xerayya va Xiayya tetradraxmalaridagi soʻzlarning izohi xususida soʻz yuritiladi. Unda Xerayya (Geraya) tangasining kushon davlatini tashkil topishida alohida roli bor ekanligi taʼkidlanadi. Shuning uchun ham koʻplab olimlar (A. Kanningxem, P. Gander, E.V. Zeymal) kabilar tangaga qiziqib qoladilar. Dastlab «geraya» haqida soʻzi haqida gapiradigan boʻlsak kitobda uning bir necha vaianlari keltirib oʻtiladi. Bular quyidagilardir:

Sak xalqlarida qabila boshliqlari «geray» yoki «eray» deb nomlangan. Tanga nomi deb qaraladi (J. Kribb)

Erondagi sulolalardan birining nomi deb taʼkidlanadi.

Tangadagi ANTEIX soʻzi esa eroncha SANAB soʻzining kalkasi deyiladi. ANTEIX soʻzi «dushmanning hujumini qaytaruvchi» maʼnosini ifodalaydi. Draxma, dirxemax va xalk kabi tangalarga asosan qushlarning, hayvonlarning tasviri tushirilgan boʻlib, oromiy, pahlaviy, kxaroshti, xorazmiy, soʻgʻdiy yozuvlar bilan hukmdorning nomi qayd etilgan. Tangadagi bunday tasvirlar orqali biz oʻsha davrda qanday hayvonlar ulugʻlanganligini. Tangaga yozilgan soʻzlar orqali esa yozuv tarixi va ularning turlari haqidagi maʼlumotlarga ega boʻlamiz. Masalan III–VIII asrlarga oid boʻlgan Artashira, Varaxrana tangalariga qaraydigan boʻlsak, tangalardagi tasvirlarda altar va olov tasviri yaqqol koʻzga tashlanadi. Bu tasvir zardushtiyligining qay darajada buyukligini ifodalaydi.



III–VIII asrlarga oid bo‘lgan Artashira, Varaxrana tangalari



Qadimgi Xorazm tangalarining an’anaviy ko‘rinishlari. Bu borada 1964 yilda Tupoqaladan topilgan draxma misol qilinadi. Ammo undagi tasvilar ancha xiradir. Shunga qaramay u yerdagi tasvirlar Xorazm tangalarining an’anaviy ko‘rinishini ifodalaydi. Chunonchi undan keyin zarb qilingan xorazm tangalarida ham shunday tasvirlani ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyining numizmatika fondida faqat O‘rta Osiyo tangalari saqlanibgina qolmay, balki unga qo‘shni Afg‘oniston, Hindiston, Eron va Sharqiy Turkistonda zarb qilingan tanga pullar ham saqlanmoqda.

Tit Kariziy davridagi ma‘buda Moneta tasviri berilgan Rim denori va tanga zarb qilish uchun ishlatiladigan asboblari.



Ahamoniylar darigi eramizdan avvalgi VI–V asrlar



Makedoniyalik Aleksandr tetrodraxmasi miloddan avvalgi 323 yil
Aversi – hukmdor boshi o'ng tomonga burilgan shoh tasviri.


Reversi – Uzatilgan o'ng qo'lida qush tutib taxtda o'tirgan Zevs tasvi-
ri. Kumush tetrodraxma – diametri 28 mm, vazni – 17,5 gramm.



Yunon-Baqtriya hukmdori Yevkratid tangasi
(«Ulug' shoh Yevkratid» yozuvli)



Vima Kadviz xalqi (eramizning I asrning ikkinchi yarmi)



Sug'd hukmdori Mastan-Navyan (698–700) tomonidan zarb qilingan tanga. Avers: To'rtburchak shaklning o'ng va chap tomonlarida muhr belgisi, Revers: To'rtburchak shaklning atrofida so'g'dcha legenda «Ixshid Mastan». Bu tanga bronzadan yasalgan bo'lib, kengligi 24 mm, og'irligi 2,4 gr.



Hukmdor Tukaspada (696–698) tomonidan zarb qilingan tanga. Avers: To'rtburchak shaklning o'ng va chap tomonlarida muhr belgisi. Revers: To'rtburchak shaklning atrofida sug'dcha legenda «Ixshid Tukaspada». Bu tanga bronzadan yasalgan bo'lib kengligi 24 mm, og'irligi 3gr.



Hukmdor Shishpir (taxminan 642–655) tomonidan zarb qilingan tanga.

Avers: To'rtburchak shaklning atrofida 4 ta krest shakldagi muhr belgisi. Revers: To'rtburchak shaklning atrofida so'g'dcha legenda «Ixshid Shishpir». Bu tanga bronzadan yasalgan bo'lib, kengligi 25 mm, og'irligi 2,9gr.



Xitoy mis tangasi, motiga shaklida, Loyan provinsiyasi (mil.av. V–III asr)

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Numizmatikaning paydo bo'lishi, mustaqil fan sifatida shakllanishi
2. Chet el olimlarining numizmatikaga oid asarlarining ayrimlari haqida
3. O'zbek olimlarining numizmatika sohasidagi faoliyati (Retveladze, M.Is'hoqov, Sh.Kamoliddin, G.Boboyorov, va boshqalar)
4. Numizmatik materiallar va tadqiqot usullari
5. Insoniyat tarixida qadimda ishlatilgan pul birliklari haqida.
6. Tanga ishlab chiqarish texnikasi.

1.6. Markaziy Osiyo tarixiga doir numizmatik materiallar

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Markaziy Osiyo tarixida ekvivalent material sifatida tovarga tenglashtirilgan qimmat ifodasi sifatida pul birliklarining paydo bo'lishi, buning mulkchilik va davlatchilik jarayonlari bilan bog'liqligini, qadimgi pullar tarixini tushuntirish.

Tayanch so'z va iboralar: *tanga, sur'at, zarb, qayta zarb, quyma usul, chekkagardish, elektr, tirandoz, avers-revers, emitet, ligature, talent, draxma, stater, darik, siglos, ass, dengi, kvinariy, sestersiy, unsiya, viktoriat, tashqi pullar, talant.*

Markaziy Osiyo hududidan topilgan eng qadimgi tanga bu – Ahamoniylarning darigi bo‘lib, Tukmaniston hududidan topilgan. Greklar ulkan jahon imperiyasiga asos solishi natijasida Markaziy Osiyo ham uning tarkibiga kiritildi. Natijada, umumiy oldi-sotdi savdosida pul joriy etildi. Grek madaniyatining yirik vakillari bo‘lmish Salavkiylar tanga pullarini grek namunasi bo‘yicha zarb etdilar. Bu chiqarilgan pullarning nomlari turlicha edi. Jumladan, tilla, oltindan qilingan pullar stater, kumush-pullar – tetradraxma, draxma, yarim draxma deb atalgan. Hatto, pullarning og‘irligi grek o‘lchov birligi bo‘yicha, ya‘ni tetradraxmalar 16 gramm, draxmalar 4 gr.ni tashkil etgan. Kundalik savdoda foydalanish uchun mo‘ljallangan mis tangalar ham chiqarilgan. Grek-Baqtriya an‘analarini davom ettirgan. Tanganing yuza tomonida podshoni rasmi, orqa tomonida esa, grek xudolardan (Appolon, Artemida, Afina, Gerakl, Zevs, Poseydon va boshqalar) birining rasmi ifodalangan. Ammo, mahalliy ta‘sir ham pul zarb qilish ishlarida sezilarli bo‘lgan. Jumladan, grek xudolarining ba‘zi bir xususiyatlari Sharq xudolarining ba‘zi jihatlariga o‘xshash holda aks ettirilgan. Grek-Baqtriya tanganlari medal (medal tanga- bironta ulug‘ zot, sharafli sana, qimmatchilik yoki qahat, ochlik yillari munosabati bilan zarb etilgan tanga) yasash san‘atining go‘zal namunalari hisoblanadi. Bu rasmlar tarixiy shaxslarning qo‘lyozma manbalarida ifoda etilmagan qiyofalari va his-hayajonlarini aks ettiradi. Markaziy Osiyoda zarb etilgan Salavka tanganlari juda oz miqdorda topilgan bo‘lsa, Grek-Baqtriya tanganlari esa aksincha, ana shu umumiy miqdorning ko‘p qismini tashkil etadi. Grek-Baqtriya kumush tangalari xazinasini (100 ga yaqin) Qashqadaryo vodiysining Kitob shahri atrofidan topilgan. O‘zbekiston territoriyasida XIX asr oxiri XX asr boshlarida kolleksionerlardan sotib olingan Ahamoniylarning qator dirik – (oltin tanganlari) va sikllarini – (kumush tangalari) sotib olinishi Ahamoniylar davriga mansub tilla va kumush pullarni Sug‘d va Baqtriyaga kirib kelganligidan dalolat beradi. Gerodotni yozib qoldirilgan ma‘lumotlarga qaraganda Sug‘d, Xorazm, Baqtriya Ahamoniylarga talantya‘ni pul birligida o‘lpon tulaganlar. Tanga zarb etish O‘rta dengiz bo‘yi mamlakatlariga tez tarqaldi. Miloddan avvalgi VI asrda esa, Eron va Markaziy Osiyo kattagina qismini o‘z ichiga olgan Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirib bordi. Yunon shaharlari tanga zarb etish tarixida muayyan o‘rin tutadi. Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq noyob qazilma boyliklarini

qo'lg'a kiritgach, Makedoniyalik Aleksandrning odamlari o'z yurtlarida tanga zarb ettirdilar va ularni butun O'rta dengiz mamlakatlariga muomalaga kiritganlar. Makedoniyalik Aleksandr vafotidan keyin tasarrufidagi yerlarning sharqiy qismi Salavkaga tegdi. Ahamoniylar va makedoniyalik Aleksandr tangalarining Markaziy Osiyoga faqat noyob nusxalari yetib kelgan edi. Salavkaning o'g'li Antiox davridan boshlab Markaziy Osiyoga kumush tangalargina emas, balki mis chaqalarning ham keng ko'lamda kirib kelishi kuzatiladi. Miloddan avvalgi III asrda Markaziy Osiyoda pul muomalasi boshlanadi.

Miloddan avvalgi III asrning oxirlarida Markaziy Osiyoning o'z tangalari paydo bo'ldi. Ular Antioxning kumush tangalariga o'xshatib zarb etiladi, byusti, orqa tomonida yuganlangan shoxli ot boshi va hukmdor nomi bitirilgan («Podshoh Antiox») degan yozuv ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari monogramma (grek tilida mono – bir; gramma – harf yozuv. Bu yerda tangada monogramma – tangani zarb qilgan usta hamda hukmdor ismi shariflarining jimjimador bosh harfi) ham bor. Antiox asl tangalaridan uning farqi shu ediki, Markaziy Osiyo tangalaridagi tasvirlarning sifati pastroq edi. Yozuvlar buzib berilgan. Ular Samarqandda zarb etilgan. Miloddan avvalgi III asr o'rtalarida Salavkiylar hokimligini sharqiy hududlarida Grek-Baqtriya podshohligi yuzaga keldi. Grek – Baqtriya tangalari yuqori badiiy did bilan ishlangan bo'lib, har bir tangada doira ichiga podshohning tasviri uning ichki mohiyatini ochib beradigan tarzda zargarona san'at bilan bajarilgan. Grek-Baqtriya tangalari mamlakatimizni janubiy sarhadlari Surxordaryo viloyatida ko'p uchraydi. Buxoro vohasida Grek – Baqtriyani yirik kumush tangalarining 60 nusxasidan iborat butun boshli xazinasini topilgan. Bu hukmdorlar ko'proq asosan kumushdan, istisno hollarda hatto mis, nikel qotishmasidan zarb etganlar. Grek-Baqtriya tangalarini mashhurli shunga olib keldiki. Markaziy Osiyoning ko'pgina hududlarida anubiy Amudaryo bo'ylarida Buxoro va Xorazm vohalarida o'sha tangalarni o'xshatib tangalar chiqarildi. Milodning I–III asrlarida O'zbekistonning janubiy, Afg'oniston hamda Shimoliy-G'arbiy Hindistonni o'z ichiga olgan jahonshumul mamlakat bo'lmish Kushon imperiyasi tarkibiga kirgan. Zarb etilgan ilk kushon tangalarida grek – baqtriya ta'siri yaqqol sezilgan, biroq keyinroq Kushonning o'ziga xos alohida tangalari paydo bo'ldi. Bu davrdagi tangalarda hatto, Budda tasvirini ham ko'rish mumkin. Kushon

tangalari Kama bo'ylarida ham uchraydi. Xorazmdan topilgan tangalarda lotin alfavitidagi «S» harfiga o'xshash siyovushlar tamg'asining borligi, bu sulola siyovushlar avlodidan bo'lgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Mana shunday taqlidda kushon tangalari tarqaladi, mahalliy har qanday tangalarni zarb qilish deyarli to'xtaladi. Eramizning boshlarida tashkil topgan kushonlar podsholigi yangi era boshlarida dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan imperiyaga aylanishi natijasida kushon tangalarida ham grek alifbosidan foydalanish davom etdi. Keyinchalik grek alifbosida Baqtriya tilidagi so'zlar yozila boshlandi. Grek xudolarining tasviri asta – sekin mahalliy, shu jumladan zoroastriya xudolarining tasviri bilan almashtirildi. Anaxita (tabiatning xosildorlik va jonlantiruvchi xudosi), Farro (boylik va podsho hukumati ramzi), Mitra (quyosh ilohiyati) shular jumlasidandir. Agar Markaziy Osiyoda kushonlar va hatto ilk kushonlar davrida ham kumush tanga zarb qilingan bo'lsa, kushon podshosi Vima Kadfiz islohot o'tkazib, oltin tanga zarb qilishga asos soldi. Shu davrda ko'plab oltin dinorlar va boshqa tangalar chiqarildi. Mazkur tangalar xalqaro savdoda muhim o'rin egallagan rim oltinlariga yaqin turar edi. Shu narsa diqqatga sazovorki, kushonlar davrida turli qiymatga ega bo'lgan mis tangalar ham ko'plab zarb qilingan. Faqat Surxandaryo viloyatining kichik qishloqlarida kushonlarning yuzlab mis tangalari topilganligi fikrimizning dalilidir. Markaziy Osiyoda bunday hol ilgari bo'lmagan. Bu kundalik mayda savdoning xalq orasida qanchalik rivojlanganligidan dalolat beradi. Kushon tangalarini aksariyati oltindan zarb qilingan. Bundan tashqari kushonlar davrida ko'plab mis chaqalar ham chiqarilgan. Masalan: Surxondaryo hududida ular faqat ko'hna shaharlarning xarobalaridagina emas, balki kichikroq qishloq kasabalarida ham uchraydi. Binobarin, hatto qishloqlar ham o'sha davrlarda tovar pul munosabatlariga tortilgan. Bu davrda Amudaryo viloyatlari iqtisodiy taraqqiyotining yuqori yuksak darajaga yetdi. Bu borada mazkur viloyatlar Markaziy Osiyo miqyosida yetakchilik qilganligi ehtimoldan holi emas.

Eramizdan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmida Sug'd podsholigi Grek – Baqtriya imperiyasidan ajralib chiqdi, ammo Grek – Baqtriya tartibiga taqlid qilgan holda o'z rangalarini zarb etishda davom etdi. Lekin, tez orada mazkur tangalardagi grek yozuvi sug'd yozuvi bilan almashtirildi. Eramizning boshlarida bir tomonlama podsho tasviri, ikkinchi tomo-

nida yoychining rasmi aks ettirilgan Sug'd kumush tangalari paydo bo'la boshladi. Ularning vazni ancha yengil bo'lib, og'irligi 0,3 grammni tashkil etardi. Eramizdan avvalgi III–II asrlarda O'zbekistonning shimoliy hududlari ko'chmanchi kangyuy birlashmasiga tobe edi. O'troq viloyatlar esa o'z hukmdorlariga ega bo'lib, yarim mustaqil edilar. Xorazmga kushon tangalari kirib kelsa ham, ular – podsho tasvirini va otliq askarni aks ettirgan o'z tangalarini zarb qilishda davom etardi. Eramizning birinchi asrida Chochda (Toshkent viloyatida) ham tangalar zarb qilingan. Bu tangalarda toj kiygan podsho, ikkinchi tomonida sug'd yozuvi bo'lgan o'ziga xos tamg'a tasvirlangan edi. Bu davr taraqqiyotida Farg'ona vodiysi iqtisodiy rivojlanish girdobiga tortiladi. Vodiya Xitoy tangalari tez-tez uchraydi, ayrim viloyatlarida esa Rim tangalari ko'zga tashlanadi. (O'ratepada shunday tangalar xazinasi topilgan). Bularning bari xalqaro savdoning keng miqyosda olib borilganligidan, unga O'zbekistonning ko'pgina viloyatlari tortilganligidan dalolat beradi. Bu esa, Farg'ona viloyatining iqtisodiy jadal rivojlanganligidan dalolat beradi. O'zbekistonda mahalliy tangalar bilan bir qatorda chet ellardan keltirilgan tangalar ham uchraydiki, bu O'zbekiston viloyatlarining xalqaro savdo bilan keng shug'ullanganligini ko'rsatadi.

Miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida Parfiya ahamoniylar qo'l ostiga tushadi va saltanatning 16 okrug tarkibiga kiritilgan. Parfiya tangalarida tasvir etilgan shohlarning siymolarini har bir shoh surati uchun individual bo'lgan tiara (qadimgi Sharq podsholari hamda Rim papalarining bosh kiyimi) shakli orqali farqlasa bo'ladi. Parfiya shohlari boshqalardan farqlaydigan belgi bu «ossuriy» tipi deb nom olgan qalin, uzun, to'lqinsimon turuvchi soqolidir. Miloddan avvalgi IV asrning 30 yillari so'ngida yunon Aleksandruga tobe qilinadi. Shu asrning so'ngi o'n yilliklarida Salavkiylar ta'siriga tushib qoladi. Bu holat miloddan avvalgi III asr o'rtalarida qadar davom etadi. Taxminan shu davrda parfiyaliklar salavkiylar ta'siridan ozod bo'ladi. Bu haqda yunon va arman manbalarini guvohlik berishicha, asli kelib chiqishi saklarning day qabilasidan bo'lmish tajan daryosi bo'ylarida yashovchi Parna urug'i sardori Arshak salavkiylarning Parfiyadagi noibini ag'darib hokimiyatni o'z qo'lga oladi va arshakiylar sulolasiga asos soladi. Xorazmliklarning harbiy taktikasini qo'llagan arshakiylar rimliklarga zarba bergan. Shundan keyin Suriya,

Kichik Osiyo hamda Falastinni ham bo'ysundirgan va poytaxtni Ktesifon shahriga qo'chiradi. Shuning uchun Marg'iyona uning tarkibidan chiqadi. Arshakiylar davri ijtimoiy siyosiy hayotiga e'tibor bersak, oliy hukmdor arshakiylar xonadonidan bo'lishi shart hisoblangan. Davlat boshqaruvida ikkita kengash: zodagonlar va kohinlardan iborat bo'lgan. Yangi hukmdor shu kengash ishtirokida saylangan marxum vasiyati inobatga olingan. Vafot etgan hukmdorning o'g'li, ukasi taxtga chiqmasdan sulolani biron bir namoyondasi egallagan. Kengash hatto oliy hukmdorni chetlatishga hamqodir hisoblangan. Shu bilan birga mulklari, mavqei bir xil bo'lmanaganini ta'kidlash joiz. Seyiston, Girkaniya yarim mustaqil mulk sifatida o'z pullarini zarb etganlar. Har bir satrapiyada turli xo'jaliklar mavjud bo'lib, davlat xazinasiga soliq to'lab turgan. Ishlanadigan yerlar bir necha darajaga bo'linib, ulardan olinadigan soliqlar ham turlicha bo'lgan, asosan mahsulot sifatida qisman pul bilan qabul qilingan. V asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston siyosiy hayotida eftaliylar xonadoni hukmron o'rin tuta boshlaydi. Bu yillarda zaiflashish yo'liga kirgan kushonlar saltanatining G'arbiy sarhadlari sosoniylar tahdid ostida qolgan edi. Shuning uchun bu ikki sulola o'rtasida raqobatlashish tabiiy edi. Beshinchi asrning 30 yillaridan to'qnashuvlar sodir bo'ladi. Sosoniylar davlatning sharqiy viloyatlarini (Seyistondan marg'iyonagacha bo'lgan hudud) boshqarganlar. Shu munosabat bilan ular qo'shni o'lka siyosiy, savdo doiralari bilan yaqindan muomalada bo'lgan. Sosoniyarni mazkur hududlarni boshqargan hukmdorlari «kushon hukmdor»lari unvoniga ega bo'lgan. Ammo, eftaliylar qudrati oshib, Sosoniylarga qarshi kurashga kirishishini anglagan Peruz dastlab ularga qarshi urush ochadi, asrga tushib qoladi. Vizantiya hukmdorlarining yordami bilan ozod qilinadi, keyin yana ikki marta harbiy yurish uyushtiradi. Yana asr olinib 30 xachir kumush dirham evaziga ozod qilinadi.

Eron Sosoniylarini kumush tangalari Turkistonga ko'plab keltirgan. Ularni old tomoniga shahanshoh tasviri, orqa tomoniga esa ikki soqchi o'rtasida o'tli mehrob tasvirlangan. Ana shunday dirhamlarga taqlididan hukmdorlari buxorxudotlar nomida yuritilgan. Amudaryo viloyatlari hamda Buxoro vohasida kumush tangalar zarb qilingan. Shu bois Buxoro tangalari – buxorxudot tangalari nomini olgan. Turkistonga Vizantiya tangalari kirib kelib, Chag'oniyon, Sug'd, Choch va Farg'onada tanga chiqa-

rishga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu ta'sir juft tasvirlarning paydo bo'lishida o'z aksini topadi. Sug'd, Choch va Xo'jand oralig'ida joylashgan Ustrushon tangalari ham diqqatga sazovordir. Ularning ayrimlarida Hindiston bilan aloqalarga shama qiluvchi fil tasviri keltirilgan. Bundan tashqari mahalliy tanga nusxalari ham bo'lgan. Bu borada «xorazm chavandozi» tasviri milodning birinchi asridan sakkizinchi asrigacha bo'lgan tangalardan joy olgan. Xorazm hukmdorlari o'z tangalarini zarb etishni yo'lga qo'yanlar. Pul tizimini joriy qilinishi davlatchilikni rivojlanganligidan dalolat beradi. Ilk O'rta asrlarda jahon taraqqiyoti yanada taqqiy topdi. Chunki, jahonning rivojlangan mintaqalarida, quldorlik tuzumi inqirozga yuz tutib, feodalizm davri boshlandi. Natijada jahon mamlakatlari bilan keng ko'lamdagi savdo va madaniy aloqalar yanada faollashdi. Xitoy bilan aloqalarning kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ayrim viloyatlarida xitoy namunasidagi tangalar zarb etila boshlandi. Ko'p asrlar mobaynida Xitoyda mis (yoki bronzadan) ishlangan. O'rtasida kvadrat tarzidagi o'yiqli tangalar yagona pul xizmatini o'tagan Ular zarb etilmay balki quyilgan. Shunday Xitoy tangalari taqlididagi (xitoy, iyerogliflarisiz) o'rta o'yiqli quyma tangalar Samarqand, Sug'dda, Buxoro vohasida, Farg'onada, Yettisuvda va Amudaryo bo'yi viloyatlarida chiqarilgan. Bundan tashqari Turkistonga Vizantiya tangalari ham kirib kelib, Chag'oniyon, Sug'd, Choch va Farg'onada tanga chiqarishga o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu ta'sir xususan juft tasvirlarning paydo bo'lishida o'z aksini topadi. Sug'd, Choch va Xo'jand oralig'ida joylashgan Ustrushon tangalari ham diqqatga sazovordir. Ularning ayrimlarida chamasi Hindiston bilan aloqalarga shama qiluvchi fil tasviri keltirilgan. Umuman olganda ilk O'rta asrlar tanga nusxalarining nihoyatda xilma – xilligi bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyo VI asrda Sariq dengizdan Qora dengizga qadar cho'zilgan ulkan turk hoqonligi tarkibiga kiradi. Turkiston yerlarida hukmronlikni o'nlab O'rta va mayda mulklarning hokimlari amalga oshirib, ulardan deyarli har biri o'z tangasini chiqarishga intilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, Turkistonning deyarli barcha viloyatlari iqtisodiy rivojlanishning shunday darajasiga erishdiki, natijada o'z tangasini chiqarish zarurati tug'ildi. Natijada bu davrga kelib barcha Turkiston viloyatlari numizmatika sahnasiga chiqdi. Chochda tanga zarb etish to'rtinchi asrdan oldinroq ilk O'rta asrlarda nusxalarning nihoyatda xilma – xilligi bilan ajralib turuvchi tanga zarb etadigan bir qancha

markazlar tarkib topdi. Farg'onada ilk bor o'z tangasi, chamasi VI asrda paydo bo'lgan. Sakkizinchi asrda esa, bir qancha yerlarda chiqarilgan. Ustrushonda tanga zarb etish yettinchi asrda vujudga kelgan. Keshda o'z pul zarb qilina boshlanganligi aniqlangani yo'q. Naxshabda tanga zarb etish to'rtinchi asrdan boshlanib, sakkizinchi asrda ham davom etgan. Bu vaqtga kelib tangalar hamma yerda chiqarilgan bo'lsada, Turkistonning barcha viloyatlari iqtisodiy jihatdan bir xil rivojlangan emas. Bu borada Samarqand, Sug'd yetakchilik qilgan, zero bu yerda mis tangalar juda ko'p chiqarilar edi. Umuman olganda bu davrda Markaziy Osiyo ko'plab kichik va mayda egaliklarga parchalanib ketgan edi. bu parchalanish har bir viloyatning o'z tangasini bo'lishiga olib keldi. Masalan: Nahshabda (Qashqadaryo vohasining qadimgi shahri) III-V asrlarda bir tomonda podsho kallasi, ikkinchi tomonda podshoning sher bilan kurashini aks ettirgan mis tangalar zarb qilingan. Buxoro viloyatida Markaziy Osiyoga ko'plab kirib kelgan Sosoniy kumush tangasi ta'siri rol o'ynagan. Tanganing bir tomonida hukmdorning kallasi, ikkinchi tomonida koinlar bilan mehrob olovi tasvirlangan. IV-V asrlargacha Sug'dda yoychi tasvirlangan mayda kumush tangalar chiqarilgan. Yaqinda qadimiy Samarqand (Afrosiyob) hududida ana shunday tangalar xazinasini topilgan.

VII asrning ikkinchi choragidan e'tiboran Samarqand podshohlari to'rtburchak shaklidagi teshikka ega bo'lgan, Sug'd yozuvi bitilgan mis tangalarni zarb qilganlar. Mazkur tangalarda kichik hokimlar o'z unvon va ismlarini, shuningdek tanga zarb etilgan joy ko'rsatib o'tganlar. Masalan: Panch (Panjikent) yoki Seyiston va hokazo. Shunisi diqqatga sazovorki Samarqand hukmdorlarining yuzlab, ayrim hollarda katta xazinalar tarzida topilmoqda. Bunday tangalar birinchi navbatda ichki mayda savdga xizmat qilgan. Bu tangalar boshqa viloyatlar Naxshab, Choch, Xorazm, Toxariston va Eronda ham topilgan. Yuqorida nomlari bilan ajralib ketgan bo'lsa ham ularning o'rtasidagi savdo aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi. Samarqand hokimlarining chiqargan tangasidan qo'shni Ustrushona (Jizzax va O'ratepada) viloyatida VI-VIII asrlarda zarb qilingan tangalar tubdan farq qilgan. Ularda to'rtburchak shaklidag teshiklar bo'lmay, balki hukmdorning rasmi va Sug'd yozuvida hukmdorlarning nomi va unvoni hamda tangasi ifodalangan. Shu davrlarda Chochda, ya'ni VI-VII asrlarda bir necha xilda ko'plab

tangalar zarb qilingan. Ularda Sug'd yozuvlari, tamg'alari podshoning boshi yoki rafiqalarining rasmi ifodalanar edi. Tanga pullar xilining ko'pchiligi Chochda pul savdosini juda ham rivojlanganligini ko'rsatadi. Yaqinda Samarqand muzey kolleksiyasidan V–VI asrlarga oid Farg'onaning tangasini topishga muvaffaq bo'lindi. Qadimiy yozuvi bo'lgan bu yodgorlik o'sha davr xalqlarining tilini o'rganishimizga yakkayu yagona yodgorlik hisoblanadi. Keyinchalik VII–VIII asrlarda Farg'onada to'rtburchak shaklidagi teshikka ega bo'lgan Sug'd yozuvi tushirilgan tangalar chiqarilgan. Shu davrlarda zarb qilingan tangalar, Markaziy Osiyo xalqlarini yuksak madaniyatga ega ekanligini birinchi navbatda tovar pul munosabatlarini gullab – yashnaganligidan dalolat beradi.

VII asrning so'ngida Abdumalik Umaviy pul islohoti o'tkazib, musulmon tangasini zarb qilishga asos soldi. Shundan e'tiboran tangalar sof epigrafik, ya'ni ularda faqat yozuvlar joylashtiriladigan bo'ldi. Bu davrda zarb etilgan yangi tangalar har ikki tomonida ham tasvirlarni yo'qligi bilan oldingi tangalardan ajralib turar edi. Asta-sekin yozuvlar bir tartibda yozila boshlandi. Tanganing old tomoniga «La ilaha illolloh», orqa tomoniga esa, «Muhammad ollohning rasuli» degan yozuvlar bitilgan. Shunisi muhimki, tanganing old tomonida tanganing nomi, zarbxona nomi hijriy hisob bo'yicha tanganing zarb etilgan yili keltirilgan. Xalifalikda oltindan, kumushdan, misdan tangalar zarb qilingan ularning nomlanishi metalga bog'liq edi. Oltin tangalar – dinor, kumush tangalar–dirham, mis tangalar – fuls deb atalgan. Ilk musulmon tangalari ismsiz bo'lgan. Keyinroq xalifalarning, noiblarning va hokazolarning ismlari paydo bo'ladi. Musulmon tangalardagi yozuvlar ko'fiy usulida yoziganligidan VIII–IX asrlardagi tangalar ko'pincha kufiy tangalar deb yuritilgan. Dinor va dirhamlarni faqat dastlabki vaqtlarda xalifalikkina zarb qilish huquqiga ega bo'lgan. Mis tangani esa, vorislar, amirlar tanga chetiga o'z nomlarini yozdirib zarb qilishlari mumkin edi. Oltin tanga tashqi savdo uchun zarb qilingan edi. Xalifalik savdosida kumush tangalar dirhamlar pul muomalasini asosini tashkil etgan. Ular xalifalik va uning xalqaro savdosini yetarli darajada ta'minlaganlar.

Mavorounnahrda arablar istilosidan keyingi dastlabki vaqtlarda umumxalifa tangalari bilan bir qatorda mahalliy eski tangalar ham muomalada bo'lgan va arablar o'z noiblarining nomlari bilan arab yozuvida

shunday tangalarni zarb qilganlar. Asta-sekin bu yerlarda ham umumxalifalik tangalari dirham, fulslar zarb qilina boshlagan. VII–IX asrlarda Buxoro, Samarqand, Shoshda shunday tangalar zarb qilingan. Bundan tashqari vaqti–vaqti bilan tangalar zarb qiladigan shaharlar ham bo‘lgan. Masalan: Muaskar ash-shosh (Shosh qal’asi), o’sha davrdagi Farg‘ona poytaxti Axsikent shunday shaharlardan hisoblangan. Mavorounnahr xalifalikdan ajralib chiqqandan keyin Hirot viloyatidan kelib chiqqan Tohir ibn Xusayn (821–873) Xuroson noibi etib tayinlanadi va u Tohiriylar sulolasiga asos soladi. U Bog‘dod xalifaligiga tobe bo‘lib ichki siyosatda mustaqil edi. Tohiriylarga tobe bo‘lgan Mavorounnahr noibi birinchisi somoniylardan edi. Tohiriylar taxtdan tushganlaridan keyin Somoniylar mustaqillikka erishganlar. Tohiriylar tangashunoslik sohasida dastlab dirham va mis tangalar zarb qilingan. Abdulla ibn Tohir hukmronligidan boshlab oltin dinorlar zarb qilingan. 15 dan ortiq zarbxonalar bo‘lib, vaqti-vaqti bilan tangalar zarb qilingan. Mavorounnahrning Samarqand, Buxoro, Shosh, Madinai ash – Shosh shaharlarida, keyinchalik Xorazm zarbxonalarida tangalar zarb qilingan. Umumiy ko‘rinishi xusnixat yozuvlarni joylashishi bo‘yicha Tohiriylar davlatida zarb qilingan tangalar umumxalifalik tangalaridan farq qilardi. Birinchi Somoniy faqat kumush tanga zarb qilish huquqiga ega bo‘lganlar. Ular zarb qilgan mis tangalar – feleslar tashqi ko‘rinishi bo‘yicha yumaloqqa yaqin xatlari xunuk bo‘lgan. Somoniylar hukmronligi o‘rnatilgandan keyin Ismoil ibn Ahmad davrida kumush tangalar ko‘plab ishlab chiqariladi. Keyinchalik oltin tangalar paydo bo‘la boshlaydi. Oltin tangalarga nisbatan a’lo sifatlilik kumushdan ko‘plab zarb qilingan tangalar mamlakat tashqarisiga ham chiqib ketgan. Sosoniylar tomonidan zarb qilingan tangalardagi yozuvlar xuddi xalifalik davrda zarb qilingan tangalardek edi. Mis yoki kumush tangalarning bir tomonida bir yoki ikki qator axyon – axyonda uch qator yozuvlar uchraydi. Dirhamlarda faqat Sosoniylar noibining ismi yozilibgina qolmay, xalifalarni ismlari ham yozilgan. Sosoniylar davrida zarb qilingan mis tangalar tashqi ko‘rinishi bilan ham diqqatga sazovordir. Mis tanga ko‘proq tarqalgan, ko‘p muomalada bo‘lishiga qaramay u dirham va dinorlar singari puxta ishlangan. Ulardagi yozuvlar ham chiroyli. Ayrim mis tangalar, ayniqsa Buxoroda zarb qilingan mis tangalar shunchalik chiroyli va puxta ishlanganki kishini hayratga solgan. O’sha davr-

larda 30 dan ortiq zarbxonalar bo'lgan. Lekin, ular vaqti – vaqti bilan qisqa muddat ishlab keyinchalik yopilgan.

Somoniylar dinorlari nisbatan kichik ko'lamda asosan Turkistondan tashqarida zarb qilingan, ko'plab Xuroson, ayniqsa Mavorounnahrda Buxoro, Samarqand va Shoshda zarb etilgan. Mis tangalar deyarli Mavorounnahrda, Buxoro va Samarqandda ikki xil qiymatda – adli va pashix tarzida tarqalgan. Somoniylar davrdagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tangashunoslik sohasida ham shu davrlardan boshlab qalbakilashtirish masalasi bu davrda ham tangalarni har vaqt qo'lbola uskuna shtampelda zarb etishavergan. Zarbxona uskunasi ular qo'liga tushib qolgan. Tangalarni qalbakilashtirish asrlar davomida mo'may daromad keltirgan, shuning uchun ular o'limdan ham qo'rqmay faoliyatini davom ettirganlar. Bu esa tanga chaqalarning qadri yuqori ekanligidan dalolat beradi. Somoniylar hukmronligining oxirgi davrlarida, ayniqsa X asrning ikkinchi yarmiga kelib mintaqaning Yettisuv qismida shakllangan makondan ko'ra ham kengroq miqyosda siyosiy faoliyat ko'rsatish imkoni va qudratiga ega bo'lgan yangi siyosiy kuch maydonga chiqadi. Biz ularni Qoraxoniylar nomi ostida bilamiz. «Qoraxon» atamasi xususida «xon» ma'lum tushuncha, ya'ni hukmdor «Qora» ning asli «Qaro» bir necha ma'noda qo'llanishi ta'kidlangan holda, biz ko'rayotgan misolda «Buyuk», «Ulug'» tushunchasini beradi. «Buyuk» xon, «Ulug'xon». Shunday qilib X asrning ikkinchi yarmida qoraxoniylar sharqiy yo'nalishda Balxash ko'li – Chergen daryosiga (Sharqiy Turkiston) bo'lgan yerlarni bo'ysundirishga muvaffaq bo'lib, G'arbiy yo'nalishda Isfijob, O'zgan, Murg'ob daryosi quyi oqimlariga bo'lgan hududni o'z ta'sir doirasiga kiritib oladi. 1005 yili Somoniylar siyosiy sahnadan butunlay tushib ketdi, shu vaqtdan boshlab Qoraxoniylar En va Buxoro, Samarqand umuman Amudaryogacha bo'lgan hududlarni boshqara boshladilar. Boshqacha aytganda XI asr boshlarida Turkiston bir qancha siyosiy kuchlar tomonidan idora etilgan. Sharqiy Turkiston, Toshkent, Isfijob, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Chag'oniyon, Xuttalon viloyatlari Qoraxoniylar Amudaryoning chap sohilidagi yerlar to G'aznagacha Xuroson, Seyiston viloyatlari g'aznaviylar, Xorazm esa, Xorazmshohlar, Orol dengizidan sharq va shimoldagi yerlar o'g'izlar ittifoqi tomonidan boshqarilar edi.

Qoraxoniylar davri iqtisodiy hayotiga e'tibor bersak, dehqonchilik qishloq xo'jalik ishlarini bir maromda olib borilishi, sun'iy sug'orish inshootlarini qilinishi, savdo-sotiq va hunarmandchilik sohasida tahsinga sazovor ishlar qilingan. Yuqoridagi ishlarni inobatga olgan holda tangashunoslik sohasida ham Qoraxoniylar tahsinga sazovor ishlarni amalga oshirishgan. Qoraxoniylar tangasi somoniylar tangasidan yozuvining nafisligi va umuman bezaklarning xilma – xilligi hamda sifatligi bilan ajralib turadi. Kamdan–kam hollarda fil, yo'lbars, arslon, qoplan, quyon, qushlar, hatto baliq tasvirlangan. Qoraxoniylar mavjudodni tasvirlashni islom dinida ma'qul ko'rilmassligidan yaxshi xabardor bo'lganliklari uchun mavjudod rasmlari ichki bozorda ishlatish uchun chiqariladigan chaqalardagina berilgan.

Qoraxoniylar mis, kumush tangalar, XII asrning o'rtalariga kelib oltin tangalar ham zarb qilganlar. Ayni vaqtda Qoraxoniylar davridan 40 dan ortiq zarbxonalar fanga ma'lum emas. Masalan: Axsikent, Bolasog'un, Barob, Barsxon (Issiqko'l janubida) va boshqalar. Shuni ta'kidlash joizki, bir zarbxona bir necha nomlarda tanga zarb qilgan bo'lishi mumkin. Masalan: Ko'zo'rda va Bolasog'un nomi bitta shaharga tegishli. Lekin, Somoniylar davriga nisbatan Mavorounnahrda zarbxonalarni ko'payganligi shubhasiz, zarbxonalar uncha katta bo'lmagan ularni tashkil etish uchun ko'p mablag' sarf etish talab qilinmagan. Qoraxoniylar davlatini salmog'i ular zarb etgan XI asrning kumush tangalaridagi yozuvlar ma'nosida ham aks etgan. XI asr kumush tangalarida bu davrga kelib, musulmonlar dunyosining diniy boshlig'i Bog'dod xalifasining nomi butun Qoraxoniylar davlatining hokimi, shuningdek uning vassali shahar yoki viloyat hokimining va tanga zarb qilingan joy ko'rsatilgan. Mis tangalardagi yozuvlar kumush tangalardagi yozuvlardan farq qiladi. Ularda xalifaning nomi ko'rsatilmay, faqat tanga zarb qilingan shahar yoki viloyat hokimining nomi, tanga zarb qilingan joy ko'rsatilgan. Qoraxoniylar davrida zarb qilingan tangalardagi yozuvlarning aksariyati arab alifbosida bo'lib, onda-sonda uyg'ur so'zlari ham uchraydi. Ko'pchilik hollarda Nasr, Yusuf singari hokimlarning nomlari uyg'ur tilida yoziladi. Tangalarning tashqi ko'rinishida ham ayrim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Agar somoniylar davrida zarb qilingan tangalardagi yozuvlar aylanasiga bitilgan bo'lsa, qoraxoniylar to'rtburqak shaklida yozganlar. Qoraxoniylar asosan kumush tangalardan tashkil topgan tan-

galar sistemasini ham somoniylardan meros qilib oldilar. X asr oxiri XI asr boshlarida Qoraxoniylarning oddiy kumush pullari sof kumushdan tayyorlanib xalqaro savdoda ishlatilgan. XI asrning ikkinchi o'n yilliklariga kelib kumush tangalarni sifati o'zgaradi. Kumush miqdori kamayib uning o'rniga mis, qo'rg'oshin ishlatila boshlandi. XI asr o'rtalariga kelib Yettisuv va Farg'onada tarkibida umuman kumush bo'lmagan dirham tangalar zarb qilingan va oq tangaga «dirham» – ya'ni kumush tanga deb yozilgan. Fanda «kumush inqirozi» deb atalgan bu hodisa XI asrda butun musulmon sharqida qayd qilingan. Qoraxoniylar davlatida «kumush inqirozi» ni sodir bo'lishiga o'zaro kurashlar sabab bo'lgan, undagi ko'plab harakatlar sifatsiz dirhamlarni chiqarishga sabab bo'lgan, tanga zarb qilishdagi bunday firibgarlik, aholini kumush va mis tangalarga bo'lgan ishonchini yo'qotgan. Shuning uchun XI asr oxiri va XII asrda Qoraxoniylar davlatining shimoliy viloyatlarida tanga umuman zarb qilinmadi. Mavorounnahrda tanga zarb qilish ozayib ketdi. Savdo bitimlarida boshqa sulolalardan keltirilgan dinorlar – oltin tangalardan foydalanilgan.

Mavorounnahrda zarb qilingan tangalarda faqat Qoraxoniylar nomi yozilibgina qolmay, salquqiylar sulolasiga mansub bo'lgan sultonlarning nomlari ham bitilgan. tangalar asosan Samarqand, Buxoro, O'zgan zarbxonalarida chiqarilgan. XII asrning 60 yillariga kelib, tanga zarb etish ishlari butunlay o'zgardi. O'zgan va Samarqandda kumush suvi yuritilgan dirhamlarni ko'plab zarb qila boshlashiga yo'l qo'yiladi. Bu bilan bir qatorda Samarqand va Buxoroda oltin dinorlar zarb etila boshlandi. Kumush suvi yugurtirilgan dirhamlar kundalik savdoga bo'lgan talabni qondiradigan bo'lsa, oltin tangalardan savdo bitimida xalqaro savdoda ham foydalanilgan. Haqiqiy kumush tangalar bo'lmaganligi oltin tangalar, yirik pul hisoblanganligi uchun ularni mayda–chuyda bo'laklarga bo'lib savdo qilishgan. XII asrning ikkinchi yarmi va XIII asrdagi Qoraxoniylar sulolasi tomonidan zarb qilingan tangalar, X asr oxiri va XI asrda zarb qilingan tangalardan tubdan farq qiladi. Birinchidan bu tangalar vaqt o'tishi bilan yiriklashib borgan. Agar X–XI asr tangalarining diametri 2–2,5 sm bo'lsa. XII asrning 60–70 yillarida kumush suvi yuritib zarb qilingan dirhamlarning diametri 3 sm. XI asr boshlarida esa, 4 sm bo'lgan. Tangalardagi yozuvlarning joylashtirilishi, o'rnini va ularning ma'nosi ham o'zgardi. O'zbekiston hududa XI–XII asrlarda muomalada bo'lgan tangalarni asosiy

qismi Qoraxoniylar davrida zarb qilingan tangalarni tashkil qiladi. Lekin, O‘zbekistonning ba’zi janubiy tumanlari, ya’ni Termiz g‘aznaviylar, keyinchalik Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Bu yerlarda g‘aznaviylar va Temuriylar tomonidan zarb qilingan tangalar muomalada bo‘lgan. Xorazmda anushteginiylar sulolasi vakili Muhammad ibn Tekesh davridan muntazam ravishda tangalar zarb qilingan. Sulton faqat Xorazmda tanga zarb qilmay, balki Samarqand, Buxoro, O‘zgan va Marv shaharlarida, shuningdek Mavorounnahrda tashqarida ham mis, kumush suvi yugurtirilgan kumush va oltin tangalar zarb qildirgan. Jahon tarixidan ma’lumki, XIII asr boshlarida Turkiston mo‘g‘ullar tomonidan istilo qilindi. Keyinchalik bu imperiya alohida davlatlarga, uluslarga parchalanib ketdi. Jumladan Turkiston bu davrda Chig‘atoy ulusi tarkibiga kirdi. Xorazm Jo‘jilarga, Janubiy Turkiston Xulagularga bo‘ysundi. Mo‘g‘ullar Markaziy Osiyoni zabt etgach, o‘zaro savdo muomalasida oldingi sulolalar davrida zarb qilingan tangalar ishlatildi. Ammo, tez orada Chingizxon hamda xalifa Nosingning ismidan boshqa hech qanday hokimning ismi yozilmagan tangalar Samarqand va Buxoroda zarb qilina boshlagan. Har ikki shaharda ham kumush va kumush suvi yuritilgan dirhamdar, Samarqandda vaqti – vaqti bilan dinorlar zarb qilingan. Agar dinorlar keng muomala uchun zarb qilingan bo‘lsa, dirhamlar esa o‘sha tanga chiqarilgan viloyat aholisi uchun mo‘ljallangan edi. Bu xol o‘sha tangalarga bitilgan yozuvlardan ayon bo‘ladi.

XIII asr oxirida Chig‘atoylar davlati yuqori probali kumush tanga muntazam chiqarila boshlandi, bu bilan kumush inqiroziga chek qo‘yildi. XIV asr boshlarida Chig‘atoy tanga turkumi shakllanib, u mo‘g‘illar istilosi arafasida tangalardan tubdan farq qilgan. Tanganing old tomoniga islomiy e’tiqod ramzining ikkala qismi yozilgan va xalifalar: Abu Bakr, Umar, Usmon va Alining nomlari yozilgan. Tanganing orqa tomonida podshoh nomi, zarbxonalar nomi va sanasi, odatda raqamlar bilan tushirilgan. XIII–XIV asrdagi tanga yozuvlarida avvalgidek arab tili hukmronlik qilgan, ba’zi uyg‘ur yozuvidagi mug‘ul matnlari berilgan. Samarqandning XIII asr dirhamlarida, forsiy va onda–sonda turkiy matnlar arab yozuvida berilgan. XIII asr Buxoro tangalarining noyob nusxalarida hatto Xitoy iyerogliflari uchraydi, bir vaqt Buxoro noibi xitoy bo‘lgan. Boshqa bir xitoyning maslahati bilan qo‘shni Xulagular davlatida XIII asr oxiri-

da pul islohoti o'tkazilib, unga ko'ra oltin va kumush tangalar zarb etish va muomalada yuritish ta'qiqlangan. Uning o'rniga «Chao» – qog'oz pul chiqarilgan. Xitoyda qog'oz pul bir necha asrdan buyon mavjud edi. Xulagular davlatida esa, qog'oz pul muomalada bo'lmagan. Shuning uchun aholi «Chao» ni qat'iy qabul qilmadi. Savdo-sotiq to'xtab qoldi. Xo'jalik faoliyati izdan chiqdi, natijada hukumat tez orada tanga zarb ettirishga majbur bo'ldi. O'ylamay o'tkazilgan islohot inqirozga yuz tutdi. Lekin, 1225 yili Samarqandda zarb qilingan dirhamlar diqqatga sazovordir. Mo'g'ullar istilosidan keyin oradan besh yil o'tgan bo'lsa ham dirhamlarning turi o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotmadi. Birinchidan, hech qayerda diniy aqidalar bayon ko'rsatilmagan, gorizontaal yozuvlar, xoshiyalar yo'q, old tomonida «Samarqand» so'zi bitilgan. Qolgan hamma yozuvlar to'g'ri to'rtburchak ichiga joylashtirilgan. Tanga zarb qilingan vaqti uch marta qayta yozilgan. Birinchi marta tanganing old tomonida va ikki marta orqa tomonida tanga zarb qilingan sana ko'rsatilgan. Ammo, yozuvlardan biri ajablanarlidir. Unda «Bu tanga Samarqand va uning viloyatlarida o'tadi» deb yozilgan. Samarqandda zarb qilingan kumush suvi yugurtirilgan mis dirhamlarda tojik tilida yozilgan so'zlar kishini yana hayratga soladi. «Kimda-kim Samarqand va uning chekkalarida ushbu tangani olmasa, u jinoyatchi hisoblanadi» deb yozilgan. Sababi shundaki avvalgi hukmdorlar davrida bo'lganidek, mo'g'ullar istilosidan keyin ham dirhamlarni o'z qiymatidan ortiqroq yurgizishga majbur qilganlar. Aholi kumush suvi yugurtirilgan mis dirhamlarni olishdan bosh tortar edilar. Shuning uchun ham Samarqandda tezlikda haqiqiy kumush tangalar zarb qilindi. Buxoroda ham ahvol shunday tarzda edi. Mavorounnahrning boshqa viloyatlarida mo'g'ullar hukmronligining birinchi o'n yilligida umuman tangalar zarb qilinmadi. bunday ahvol uzoqqa cho'zilishi mumkin emas edi. Savdo-sotiq ishlari mo'g'ullar bosib olgan vaqtdagi darajaga yetmasada, muomala vositalariga juda muhtoj edi.

XIII asr o'rtalarida oltin tanga dinor zarb qilinib og'ir ahvoldan qutulishga urinib ko'rildi. Dinorlarni Buxoro, Samarqand, Xo'jand, O'tror, Damashq zarbxonlarida chiqara boshlandi. Dinorlar turli kattaliklarda bo'lgani uchun savdo vaqtida ularni kichik-kichik bo'laklarga bo'lishga to'g'ri kelardi. Kumush suvi yugurtirilgan mis dirhamlarni zarb qilish ham yo'lga qo'yildi. Ularni Samarqand va Buxorodan tashqari Xo'jand

va O'tror zarbxonalarida chiqara boshlandi. 1317 yili Chig'atoy ulusi savdo talablariga javob beradigan darajada pul islohoti o'tkazildi. Kumush suvi yugurtirilgan mis dirhamlarni ishlatish ta'qiqlandi. Asta-sekin islohot o'tkazilib, XIII asr oxiriga kelib muvaffaqiyat qozondi. Bir xil sifat va og'irlikka (2 gramga yaqin) ega bo'lgan dirhamlar, ular qayerda zarb qilinganligidan qat'iy nazar butun mamlakat bo'yicha muomalada bo'lar edi. Yangi-yangi zarbxonalar ishga tushirilib, ular soni 16 taga yetdi: Buxoro, Andijon, Qoshg'ar, Marg'ilon, Taroz, Toshkent va hakazolar edi. 1321 yili mo'g'ul xona Kebekxon o'tkazgan pul islohoti savdoni rivojlantirish uchun yanada qulay, imkoniyat yaratdi. Shu davrdan e'tiboran yagona namuna bo'yicha og'irligi 1,4 gramga yaqin bo'lgan kumush dinorlar chiqarila boshlandi. Bir kumush tanga 6 ta dirhamga to'g'ri kelardi. Mo'g'ullar davrida Markaziy Osiyoda zarb qilingan tangalarda hokimning ismi ko'rsatilmagan bo'lsada, Kebek va uning izdoshlari Tarmashirin davrida zarb qilingan tangalarda «Ulug'larning ulug'i, adolatparvar hoqon (yoki sulton)» deb yoziladigan bo'ldi. Mo'g'ullar istilosidan to Amir Temurning taxtga o'tirishiga qadar o'tgan yuz ellik yil davomida Markaziy Osiyoda tanga zarb qilish ishlarida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu umumiy yagona belgi mo'g'ullarning umumiy tang'asidir. Amir Temur zamonida 6 gr. og'irlikdagi kumush tangalar va uning to'rtidan biriga teng 1,5 gr.lik kumush pullar zarb qilinganligi ma'lum. 1,5 grammlik kumush pullar «miri» deyilgan. Mazkur nom Sohibqiron Amir unvoni bilan bog'liq. Shuningdek, muomalada mis pullar chaqalar ham bo'lgan. Tangalar Samarqand, Buxoro, Ardabil, Astrobod, Darband, Damg'on, Tabriz, Sabzavor, Sheroz va boshqa qator shaharlarda zarb qilingan. Bundan tashqari Amir Temur harbiy o'rdasining maxsus zarbxonasida (dor alzarbi urduyi oliy) bo'lgan.

Temuriylar davrida ham ikki xil qiymatda kumush tanga zarb qilish davom etdi. Yirik kumush tangalar «tanga», maydalar «miri» Temur unvoni «amir» ning qisqa shakli deyilgan. Ulug'bek davridan ko'p mis tangalar bizgacha yetib kelgan. Uning ilk mis tangalaridan biri diqqatga sazovor. Axxi, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Termiz tangalarida sher, orqasidan esa, quyosh chiqib kelayotgani tasvirlangan. Hijriy 832 yil (milodiy 1428–1429)larda Ulug'bek ikki bosqichda muhim pul islohoti o'tkazdi. Birinchi bosqichda bir xil mis tangalar bir qancha zar-

bxonalarda Andijon, Shohruhiya, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, Termizda chiqarildi. Ikkinchi bosqichda isloh qilingan tangalar ishlab chiqarish Buxoroda markazlashtirildi va nusxasi hamda sanasi o'zgartirilmagan holatda Ulug'bek o'limiga qadar, undan keyin ham zarb etildi. Ulug'bekning pul islohoti xazina va aholi manfaatlarini ma'lum tarzda uyg'unlashtirdi. Temur va Temuriylar davrida zarb qilingan tangalar qator xususiyatlar bilan boshqa davr tangalaridan farq qiladi. Zarb etilgan tangalarga maxsus tamg'a bosish ana shunday xususiyatlardan biri edi. Bunday naqshlar Chig'atoy davri tangalarida XIII asrda solinib, XV asrga kelganda keng qo'llanila boshladi. Ular dumaloq, to'rtburchak, gulga o'xshash va hokazo shakllarda bo'lgan. Xorazm o'ng qirg'og'i bilan Chig'atoy ulusi tarkibiga kirsada, chap qirg'og'i Urganch bilan birgalikda Jo'ji ulusi tarqibiga kirgan bo'lib, Oltin o'rta xonlari tomonidan boshqarilar edi. XIV asrning ikkinchi yarmida 1360–1380 yillarda taxt uchun 25 xon urush olib bordi, markaziy hokimiyatning zaiflashganligidan qo'ng'irotlar qabilasining mahalliy «so'fiylar» sulolasi ustalik bilan foydalandi. Ular taxminan 1360 yillardan Xorazmni mustaqil idora qila boshladilar, hatto Xorazmning o'ng qirg'oq yerlarini qo'shib oldilar. 1372 yili Temur Xorazmga yurish qilib o'ziga tobe qiladi. Chunki, Yusuf So'fiy bir safar Amir Temurni tan olsa, bir safar Oltin O'rda xona To'xtamishni tan olar edi. Shuning uchun Amir Temur Xorazmga bir necha marta yurish qilgan. 1388 yil Urganchni egallaydi. Amir Temur vafotidan so'ng Xorazmda yana Oltin O'rda xonlari hukmronlik qildi. 1412 yili Amir Temurning o'g'li Shohrux Xorazmni qayta qo'lga kiritadi. Mo'g'ullar istibdodidan so'ng Xorazmda zarb qilingan tangalar bizgacha yetib kelmagan. Temur hukmronligi davrida kichik oltin tangalar ham zarb etildi. Xorazmda Chig'atoylar dinoriga o'xshash yirik kumush tangalar bo'lmagan, Xorazmni juld dirhamlari Mavorounnahr Chig'atoy dirhamlaridan farq qilgan. Birinchidan ularning qiymati turlicha bo'lib, u asta-sekin kamayib borgan. XIII asr oxirlariga kelib hamma kumush tangalarning og'irligi 2,3 gramm bo'lsa, XIV asr boshlarida 1,9 gramm, 1380 yilda 1,5 gramm, XV asrning boshlarida esa 1,1 gramni tashkil qilgan. Oltin tangalarning og'irligi esa, 1,10 gramm–1,15 va undan oz bo'lgan. XIII asrga doir Xorazmning birinchi dirhamlarida o'sha davr hokimiyatini boshqarayotgan hukmdor nomi aks etgan. Tanganing bir tomonida diniy oyatlar yoki Qur'ondan olingan kalima,

ikkinchi tomonida tanga chiqargan sana, joy zarb qilingan. Tangalardaga yozuvlarda xatolar ham bo'lgan, harflar tushib qolgan yoki qo'shilib ketgan. Temurning kumush tangalari uning nomidan soxta mo'g'ul 'onlari Suyurg'atmish va Sulton Maxmud nomlari bilan Movaraunnaxr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Iroqning 40 dan ortiq shaharlarida zarb etilgan. Movaraunnalir va Xurosonning bosh hukmdori sifatida Shoxrux Mirzo Astrobod, Buxoro, Damg'on, Isfaxon, Kirman, Qum, Nishopur, Marv, Samarqand, Sabzavor, Sultoniya, Tabriz, Xorazm, Hirot va Sheroz va boshqa shaharlarda o'z nomi bilan kumush tangalar zarb qilib, pul zarbi va savdosini tartibga soldi. Bu davrda ichki chakana savdoda keng ko'lamda muomalada bo'lgan mayda mis chaqa «fulus» lar ko'proq mahalliy hokimlar tomonidan zarb qilinar edi.

1428 yili Ulug'bek tomonidan o'tkazilgan fulusiy pullar islohoti katta ahamiyat kasb etdi. Aholining ichki savdo munosbatlariga ko'proq jalb etish maqsadida Ulug'bek yengil vaznda zarb etilgan va muomalada yurgan barcha chaqa pullarni bekor qildi. Ichki savdoni mayda mis pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun bir vaqtning o'zida Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Toshkent, Shoxruxiya va Andijon shaharlarida zarbxonalar tashkil qilinib bir xil vazndagi fuluslar zarb qilinib, muomalaga chiqarildi. Mis pullarni zarbini markazlashtirish maqsadida boshqa shaharlardagi zarbxonalarga barham berilib. Buxoro zarbxonasi saqlab qolingan. Xalq orasida «Fulusi adliya» ya'ni, «adolatli chaqa» nomi bilan shuhrat topgan bu yangi mis fuluslar Movaraunnaxrning barcha shahar va qishloqlarida keng muomalaga kirib davlatning ichki savdosini naqt pul bilan ta'minladi. Ulug'bekning bunday islohoti mamlakatda hunarmandchilik mahsulotlarining ichki chakana savdosi uchun keng yo'l ochib bergaladi. Ulug'bekning bunday islohoti mamlakatda hunarmandchilik mahsulotlarining ichki chakana savdosi uchun keng yo'l ochib berga edi. 1428–1929 yillardagi islohot pul muomalasini yaxshilash. Mis tangalar qadrini oshirish maqsadida amalga oshirilgan edi. Natijada u bir qancha samaralar berdi. Unga ko'ra 1420 yili zarb etilgan mis tangalar zarbxonalarga topshirilib, ularning o'rniga og'irligi 1,5–2 barobar ko'p bo'lgan tangalar zarb etildi. Qulaylik uchun zarbxonalar Buxorodan tashqari Andijon, Qarshi, Samarqand, Termiz, Shohruhiya ham tashkil qilingan. Natijada pulning qadri ko'tarilgan. XIV asrning 40–50 yillariga kelib Shayboniylar davlati

tinimsiz o'zaro urush olib boradigan kichik–kichik hokimlik va viloyatlarga bo'linib ketdi. Faqat 70–80 yillarda Abdulloxon butun mamlakatni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Shayboniylar hukmronligi davrida mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatib, tangalar zarb qilishda ancha o'zgarishlar qilishdi. Bu davrda Temuriylar davridagi zarb qilingan kumush va mis tangalar ham mavjud edi. Shayboniylar ularni tamg'alab, qiymatini kamaytirganlaridan so'ng mazkur tangalar savdo aloqasida yurgizila boshlandi. Shayboniylar nomi bilan yangi kumush va mis tangalar zarb qilishda, oz miqdorda oltin tangalar zarb qilindi, faqat Abdulloxon tomonidan. Shayboniylar zarb qilgan kumush tangalar Temuriylar davrida zarb qilingan tangalardan farq qilgan. Lekin, mis tangalar Temuriylar davrida zarb qilingan mis tangalarga o'xshash edi. Ular ko'p hollarda chiroyli bezatilgan dinorlardan tashqari mayda mis pullar ham zarb qilganlar. Bir dinorga oltita mis pul to'g'ri kelgan. Mis pullar e'tiborsizlik bilan zarb qilingan. Bizgacha yetib kelgan mis pullar yozuvlari o'chib ketganligi uchun yaxshi o'rganilmagan. Shayboniylar davri tangalardagi yozuvlar ko'p hollar nasx yoki kufiy uslubida bitilgan. Ba'zan tomonlardan biridagi yozuv o'rniga turli naqshlar yoki hayvon, qushlarning rasmi berilgan. Hayvonlar yomon tasvirlangan, hozir ularni ajratish ham qiyin. XV asrda bo'lganidek XVII asrda ham kumush va mis tangalarni tamg'alash uslubi davom etgan. Tangalar ilgari nima maqsadda tamg'alangan bo'lsa, shayboniylar davrida ham tamg'alashni mohiyati xarakteri shundayligicha qolgan. Bu davlatda ko'plab zarbxonalar mavjud edi. Andijon, Axsi, Buxoro va boshqa shaharlarda tangalar zarb qilingan. Faqat Toshkent, Samarqand va Balxda muntaзам ravishda tangalar zarb qilingan. Xurosonni qo'lga kiritganda Hirot, Mashxad, Nishopur, Saraxs va boshqa shaharlarda zarb qilingan. Bundan tashqari uncha katta bo'lmagan vaqtli zarbxonalar ham bo'lgan. XVI asrda bunday zarbxonalar mis dinorlarga tamg'a bosish ishi bilan shug'ullanmaganlar. Masalan: Vobkani (Vobkent), Shavdaro va Miyonqol, Parak singari zarbxonalardir, ular shaharlarda emas, balki uncha katta bo'lmagan aholi yashaydigan joylarda ish yuritar edilar. Kumush tangalarga tamg'a bosish birinchidan oldin ma'n etilgan tangalarni qaytadan savdo muomalasiga kiritishga imkon yaratsa, ikkinchidan xazina foyda ko'rar edi. Lekin mavjud kumush tangalar «eski» va «yangi» tangalarga bo'linar edi. O'nta eski tanga to'qqizta yangi tangaga to'g'ri kelar edi. Bu hol xazina

uchun boyluk hisoblanar edi. Shayboniylar davlati inqirozga yuz tutgan bir vaqtda ba'zi viloyat hukmdorlari o'z nomlari bilan kumush tangalar zarb qilganlar. Xullas, Shayboniyxon aholi turmush darajasini yaxshilash niyatida o'tkazilgan. 1507–1509 yillardagi islohoti natijasida u to shu vaqtgacha mavjud turli o'lchov va og'irliklardagi tangalar o'miga bir xil og'irlik o'lchovidagi (5,2 gr.) kumush va mis tangalarni joriy etadi. Bu, albatta, pul savdo munosabatlarini barqarorlashtiradi. Ammo Muhammad Shayboniyxon o'limidan keyin bir tomondan o'zaro qarama-qarshilik, ikkinchi tomondan Boburning Samarqandni olish niyatidagi harbiy yurishlaridagi janglar mamlakat iqtisodiy hayotiga katta zarar bo'lib, pul qadsizlangan. Shuning uchun ham Kungunchixon 1515 yildan boshlab pul islohotiga kirishib, faqat 1527 yilga kelib ahvolni to'g'rilashga erishadi. Shayboniylar davlati inqirozga uchragandan so'ng hokimiyat tepasiga joniylardan Muhammad Joniy taxtga o'tirdi – XVIII asr o'rtalariga qadar hukmronlik qilganlar. Bu davr mobaynida mamlakat iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar qilishgan. Ular XVII asrda kumush, mis tangalar zarb qilganlar, 1702 yildan oltin tangalar chiqarganlar. Shayboniylar dastlab tangalarning og'irligini bir misqol, ya'ni 4,8 gramm miqdorida zarb qilgan bo'lsalar, XVII asrga kelib tangalarni og'irligi 4,4 grammga tushib qoldi. Joniylarning zarb qilgan tangalari XVI asrdagi tangalardan farq qilmaydi, ular zarb qilgan kumush va oltin tangalardagi yozuvlar nasx uslubida berilgan. XVII asrda ham kumush tangalar «eski» va «yangi» tangalarga bo'lingan. Bu davrdan boshlab kumush tangalar a'lo sifatli sof kumushdan tayyorlangan. Mazkur tangalar «eski» deb e'lon qilinishidan so'ng 10% qimmatini yo'qotgan, keyinchalik tangalarda kumush miqdori kamayib borgan. XVII asrning o'rtalarida tangalarning yarmi kumushdan iborat bo'lgan. Shunday bo'lsa ham zarb qilingan tangalar «yangi» hisoblanib ular yuz foiz kumushdan zarb qilingan tangalardek muomalada yuritilgan. Ammo, davlat ularni «eski» tangalar deb e'lon qilishi bilanoq tangalar yarim qimmatini yo'qotar edi.

Tangalarning 50% kumushdan zarb qilinayotganligiga qoniqmagan joniylar XVII asrning oxirida kumush miqdorini 25% ga tushirdi. Mazkur tangalar hatto ko'rinishidan ham kumush tangalarga o'xshamas edi. XVIII asrning boshlariga kelib kumush tangalardagi kumush miqdori 9% ga tushib qoldi. «Eski» tangalarni qiymati tez-tez tushib turganligi sababli yi-

rik savdo ishlarini olib borish qiyinlashdi. Savdo ishlarini yengillashtirish maqsadida XVIII asrning boshlarida ashrafiy yoki tilla deb nom olgan oltin tangalar zarb qilina boshlagan. XVIII asrda Markaziy Osiyoda o'zbek qabilalaridan chiqqan kishilar hukmronlik qilgan uchta mustaqil xonlik tarkib topdi: Qo'qon xonligi, Buxoro xonligi va Xiva xonligi. Uchchalla davlatda (ashrafiy yoki tilla), kumush (tanga), misdan pul tayyorlandi. Qo'qon xonligida 1876 yili pul chiqarish to'xtatilgan. Xorazmshohlar va Xiva xonligi davrida o'zining haqiqiy qiymatiga ega bo'lgan oltin, kumush va mis muomalada ishlatilgan.

Xiva xonligida uch xil pullar muomalada bo'lgan:

1. «Tilla» – oltin pul bo'lib, ikki xil shaklda va og'irlik miqdorida bo'lar edi. O'sha davr pul miqdorida 1 so'm 80 tiyanga teng, ikkinchisi 3 so'm 60 tiyin deb belgilangan edi.

2. «Tanga»—kumushdan ishlanib, bir tanga o'sha davr pul birligida 30 pul birligi yoki 20 tiyin deb belgilangan.

3. «Pul»—misdan ishlanadi. U pulga va tiyanga bo'linar edi. Kumushdan ishlangan tanga «oq tanga» deb, misdan ishlangan pul «qora tanga» deb yuritilar edi. «qora tanga» o'zining qiymati jihatidan oq tanganing 60 % ga teng edi. Shuningdek, xonlikda «Shoyi», «Abbos shoyi», «yarim shoyi» deb nomlangan pul birliklari ham ishlatilgan. Ularning qiymati 10 tiyindan 40 tiyigacha o'zgarib turgan. Bu pullarda odam rasmi tasvirlanmasdan arab imlosida qaysi xonlik tomonidan nechanchi yillarda zarb qilingani yozilar edi. Xiva oltinlari pullari mahalliy va chet eldan keltirilgan oltinlarga bo'linar edi. Xiva oltinlari o'zining yaltiroqligi, mustahkamligi jihatidan ajralib turgan. Muomalada ko'p ishlatilgan kumush pullarni metallari Quyi Novgoroddan keltirilgan. Hozirgi kunda Xiva xonligida zarb qilingan oltin, kumush, mis pullar va ularning qoliplari dunyoni ko'pgina mamlakatlari muzeylarida saqlanmoqda. Masalan: Moskva, Sankt – Peterburg, ayniqsa Xiva xonligi Rossiya tomonidan zabt etilgach uning qimmatbaho buyumlarini birinchi navbatda oltin, kumush pullarini talash. Rossiya jug'rofiya jamiyati vakili sharqshunos olim P.I. Perx va A.P. Kun rahbarligida ilmiy jihatdan tashkil qilindi. Vasilevskiy yordamida Peterburgdagi Ermitajda tashkil qilingan numizmatika va boshqa fondlar Markaziy Osiyodan, jumladan Xiva, Qo'qon va Buxoro amirligidan kelgan oltin, kumush, mis, atlas va boshqa pullar hisobiga boyidi. 1883 yili Ermi-

tajga jo'natilgan buyumlar ichida 1168 ta qadimiy oltin-kumush tangalar edi. Bundan tashqari o'ljalar ichida tanga zarb qiladigan qoliplar, oltin va kumushdan ishlangan. 25 ta xon muhri, 200 dan ortiq qadimiy tangalar majud edi. Bularning hammasi Xiva xonligi davrida zarb qilingan pullarning namunalari. Rossiya Xivani bosib olishi bilanoq pul sistemasini Rossiya pul sistemasiga o'tkazishni taklif etgan, lekin amalga oshmagan.

Xonlikda ko'pincha kumushdan bo'lgan tanga pullar qulayligi uchun ko'p ishlatilgan. XIX asrning oxirlarigacha har yili bir million so'mlik kumush tanga pullar xivalik mahalliy ustalar tomonidan zarb qilingan. Rossiya bosib olinganidan keyin Yekaterina II podsholigi davridan buyon pul sifatida muomalaga kiritilgan qog'oz, kumush pullar xonlik hududida qo'llanilmagan. Qo'llanilganda ham o'z kusidan past narxda qo'llar edi. Pul muomalasida qiyinchilik vujudga kelishi natijasida sarroflar faoliyati aktivlashadi. Hatto rus savdogarlari tangalar va tillalarni yig'ishtirib olib qog'oz pullar tarqatishni taklif qiladilar. 1893 yil Rossiya moliya vazirligining tashabbusi bilan rus savdogarlarining iltimosi muhokama qilindi va Xiva xoni tanga pullarini faqat rus podshosining ruxsati bilan zarb qilish majburiyati yuklatildi. Natijada XX asrning birinchi o'n yiligidan rus qog'oz pullari ishlatilayotgan tanga pullarga nisbatan ikki barobar ko'payib ketdi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon II o'z umrining oxirlarida Xiva xonligida muomala uchun ishlatilayotgan pul miqdorining yetishmayotganligi, shuningdek musulmon sharq olamida podsholar nomidan pul chiqarib turilmasa unga xalq itoat etmasligini tushuntirib iltimos qilib zo'rg'a tanga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Uning vafotidan keyin Xivada pul bosib chiqarish deyarli to'xtatildi. Rus podshosi pullarni muomalada ishlatiladigan bo'ldi.

1914 yildan boshlab Rossiya rus savdogarlari Xivada zarb qilingan tangalarni olmay qo'yadi, mavjud bo'lgan tilla va kumush pullar xalq qo'lida muomalada ishlatilib kelindi. Asfandiyorxon hokimiyatga kelgach, rus podshosi va amaldorlari Xiva xonligida bir qancha islohotlar o'tkazish, Xivada muomalada bo'lgan yuritilayotgan barcha tanga va pullarni yig'ib olib butunlay pul sistemasini o'tkazishni ham taklif qildilar. Lekin, amalga oshirilmadi. 1918–1920 yillar xonlikda ikki xonlik davri bo'ldi. Bu davrdagi Sayd Abdulloxon qo'g'irchoq xon edi. Aslida hokimiyatni Junaidxon boshqarar edi. U o'z hokimligini xalqqa ma'lum qilish uchun pul ham bos-

tirib chiqardi. Uning puli atlasga ishlangan bo‘lib «turma qog‘oz» nomi bilan yuritilgan. Keyinchalik Junaidxon nomi bilan qog‘oz pullar ham bosib chiqargan. 1920 yili 2 fevralda hokimiyat sovetlar tomonidan egallanganidan keyin 1920 yil 11 aprel qaroriga asosan Xiva pul birligi kursi belgilandi. Xivaning qog‘oz pul birligi kurs rus podsholari davridan ishlatib kelinayotgan 1 so‘m «krenka» puli 4 so‘mlik Xorazmning uchun sovet puliga va 1 so‘m «Turkiston boni» puli, Xorazmning 5 so‘mlik umumsovet puliga teng deb belgilanadi. 1920 yilning apreldan boshlab Xivada yangi pul birligi bosib chiqarish boshlandi. Uning old tomonida qishloq xo‘jalik ishchi va dehqonlarning ittifoqini bildiruvchi o‘roq, jo‘xori poyasi belgisi tasviri gerb tarzida tasvirlangan edi. 1921 yil 1 yanvardan RSFSRning 1919 yilda bosib chiqargan pul birligi ishlatila boshlandi. Bu o‘z qiymatiga ko‘ra shu davrda yurib turgan Rossiya «Krenka» puliga teng bo‘lib va «Turkbon» nominasiga nisbatan 10 barobar qimmat edi. Xorazmda 1920 yil may oyidan 1921 yil may oyigacha 489 million, 549 so‘m Xorazm puli bosib chiqarilgan, Rossiyadan 225 million so‘m qog‘oz pul olingan. Junaidxon davrida bosib chiqarilgan 3 million so‘m pul ham muomalada bo‘lib, jami Xorazmda 717 million so‘mdan ortiqroq pul mavjud edi. Shunday holatda pul muomalasini tartibga sola olindi. Xorazm pulini qiymati tusha boshladi. 100 mlrd so‘mlik Xorazm puli bosib chiqarildi. Bir milliard 100 million so‘m RSFSR puli ham ishlatila boshlandi, lekin qadrsizlanishini oldini ola olmadi. 1923 yil 31 may va 9 iyulda Xorazm Xalq Respublikasi MK ijroiya komitetida Respublika pul birligi kursi ko‘rib chiqildi. Xorazm pul birligi bir so‘mlik Rossiya pul birligi bilan almashtirishga qaror qilindi va 1923 yili 10 iyuldan 10 avgustgacha – muddati deb belgilandi. 1924 yil 14 fevraldan muomala uchun zarur bo‘lgan pullar bosib bo‘lingach, SSSR pul birliklarini bosib chiqarish to‘xtatildi. Ularni o‘rni qoplash uchun 1924 yilda kaznachey biletlar, kumush va mis pullar bosib chiqarildi. Iyun oyida SSSRning barcha hududlarida pul birliklarini almashtirish yakunlandi, qadrsizlangan hamma pullar yig‘ib olindi.

1922–1924 yillar davomida amalga oshirilgan pul islohoti Xorazmda Sovet hokimiyati yillarida amalga oshirilgan birinchi pul islohoti edi. Oltin, kumush va mis pullar bundan keyin ham aholi qo‘lida ishlatilib kelinadi. Ikkinchi pul islohoti 1947 yili, uchinchi 1961 yilda amalga oshirildi. Bu islohot ham muomaladagi 10 so‘mlik pullar 1 so‘m qiymatiga

keltirildi. Yangi pul birliklariga o'tildi. 1991 yil yanvar oyida SSSR davlat bankining 1961 yil nusxasidagi 50 va 100 so'mlik pul belgilari to'lov uchun qabul qilish to'xtatildi, o'rniga yangi 50 va 100 so'mlik pullar bosib chiqarildi.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Markaziy Osiyodagi qadimiy tangalar.
2. Markaziy Osiyoda arablar istilosiga qadar bo'lgan davrdagi pul muomalasi.
3. Arablar davridagi pul tizimi va uning xususiyatlari.
4. Somoniylar, Mo'g'ullar. Temuriylar davri pul tizimi.
5. Markaziy Osiyo xonliklari davrida tanga pul tizimi.
6. Pul islohotlari va tarixiy jarayonlarga bu islohotlarning ta'sirlari haqida.
7. Zarbxonalar va ularning tarixiy ahamiyati.

1.7. Tarixiy toponimika. Fanning predmeti, maqsadi, vazifalari

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Tarixiy joy nomlari davrlar o'tishi bilan unitilib o'zgarib borganligi sababli o'tmish voqea hodisalaring manzil makonlari haqida aniq tasavvur hosil qilish, muayan o'rganilayotgan hududning yoki voqea manzilining jahon tarixiy jarayonlaridagi o'rnini to'g'ri belgilash, tarix faktlarini lokalizatsiya qilish ko'nikmasini yaratish, manbalardagi toponimlarni hozirgi toponimik tizim bilan aloqasini belgilagan holda tarixiy bilim berish.

Tayanch so'z va iboralar: *toponim, tarixiylik, transformatsiya, etimologiya, topoformant, lokalizatsiya, ma'no siljishi, Mouru, Sug'uda, Xorasmi, Turon, Bahdi, madiavest, stratigrafiya, patomonim, limnonimlar, pelagonimlar, astionimlar, komonimlar, xoronimlar, speleonimlar, oykonimlar, polisonimlar, oronimlar, gidronimlar, agronimlar, dromonimlar, etnonimlar, antroponimika.*

Inson paydo bo'libdiki, uning hayoti muayyan makon bilan bog'liq bo'lib kelgan. Makon tushunchasi keng ma'noda talqin etilsa, inson hayoti va faoliyati makrodunyoning turli nuqtalari bilan uzviylikda kechadi. Odamzod o'zi yashayotgan, qadami yetgan yerlarga nom qo'yishi tabiiy hol, chunki u yoki bu voqeani odam o'sha voqea-hodi-

sa sodir bo'lgan yerga bog'laydi. Qadimgi yunonlar bu sohaga umumiy nom qo'yishgan va fanda toponimika atamasi paydo bo'lgan. «Topos» – o'rin, joy; «onomos» – ism, ot demakdir. «Onima» varianti – nomlanish deb tarjima qilinishi mumkin. Joy nomlari bir tomondan geografiya uchun ob'ekt bo'lsa, ikkinchi tomondan ularning tuzilishi materiali leksik birliklar, ya'ni bir tilning ayrim olingan so'zi, qo'shma so'zi kabilardan iborat bo'lgani uchun filologiyaga, xususan tilshunoslikka aloqador. Tilshunos olim toponim usullarni tarkibiy tuzilishi yasalish usullarini til qonuniyatlari asosida o'rganadi. Geograf esa, joy nomlari asosida u yoki bu ob'ektning topografik o'rnini kartalashtirish, masafalarni aniqlash kabi, hududlarni belgilash, dunyo tomonlariga (shimol, janub, g'arb, sharq) munosabatini aniqlash kabi maqsadlarini amalga oshiradi. Toponimikaning fan tarmog'i sifatidagi asosiy vazifasi geografik nomlarni o'rganish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shakllanish va rivojlanish (o'zgarish) bosqichlarini tekshirish, ilk ma'nolarini, keyingi davrlarda ularning ma'nolarida ro'y bergan siljishlar, toponimlarni shakllantirgan grammatik omillarni o'rganishdir. Bularning barchasi bir qarashda tilshunoslikka bevositap aloqador. Lekin, ayni shu masalalar toponimlarning tarixiy tahliliga ham xizmat qila oladi. Toponimlarning aksatriyati uzoq tarixiy o'tmish bilan bog'liq. Ularning paydo bo'lishini bilish muayyan tarixiy shart-sharoitlarning ma'nosini ochishga xizmat qiladi. Toponimlarga bu yo'sinda yondoshish tarix fanining yordamchi sohasi «Tarixiy toponimika» uchun ilmiy uslubiy zamin yaratadi. Demak, tarixiy toponimika yordamida tarixiy voqea-hodisalarning mohiyatiga kirib borish imkoniyati yanada kengayadi.

Toponimika masalalari odamlarni qadimdan o'ziga jalb etgan. Zero, joy nomlari tasavvur etish qiyin mavhum, muallaqlik bo'lib tuyulgan. Shu sababli insoniyat o'zi yaratgan hayoliy mifologik ijodi voqealarni ham, albatta, joy nomlari bilan, hatto, o'ylab topilgan hayoliy nomlar bilan bog'lab kelgan. Masalan, «Chambil eb» Go'ro'g'li dostonlar turkumining poytaxt shahri, Ramayanada Xastinapur mifologik shahar nomi, Gomerining Illiada va Odisseyada dostonlaridagi talay mifologik manzillar shular jumlasidandir. Xuddi shu kabi, juda qadimiy joy nomlari bo'lib, ularning asl tarixi unutilgach, tarixiylikdan mifologik qatlamga surilgan nomlar ham uchraydi. Bularning bari toponimik material tarixiy talqinga muhtoj manba ekanini ko'rsatadi.

Geografik nomlarni yaxlit ma'noda ifodalovchi atama toponimiya, toponimiya sohasi esa, toponomist deyiladi. Ma'lum hududga tegishli toponimlarni birlashtiruvchi boshqa atama ham bor. Bu geografik nomenklaturadir. Nomenklatura «joy nomlari tavsifi» yoki «... ro'yxati» deb tarjima qilinishi mumkin. Nomenklatura so'zi boshqa fanlar uchun ham qo'llanadi. Masalan, «texnik nomenklatura», «biologik nomenklatura» va boshqalar. Bu o'rinda shu fanlarga tegishli atamalar majmui ko'zda tutiladi. Geografik ma'noda toponimlar joyni yer yuzasidagi muayyan nuqtaga odamlar tasavvuri uchun bog'lashga xizmat qiladi. Toponimiya shunchaki joy nomini atash emas. Zero, toponimlar ularni yuzaga keltirgan tushunchalar bilan bog'liq holda onomastika (nomshunoslik)ning boshqa sohalari bilan ham uzviy aloqadordir. Bular antroponimlar, zoonimlar, gidronimlar, dendronimlar, oronimlar va hokazo. Ko'pincha toponimlar atoqli ot toifasiga kirguniga qadar turdosh otlar safida bo'ladi. Ular biror joy nomi sifatida qaror topgach toponimga – atoqli otga aylanadi. Geografik nomlar ular qaysi ob'ektga nisbatan qo'llangani aniq bo'lmaguncha joyga nisbatan aniq tasavvur bermaydi. Masalan, Kesh toponimi O'zbekiston, Qashqadaryo, boringki, Shahrisabz vohasi kabilar bilan bog'liq izohlanmasa, bu atama mansub tarixni bilmagan odam uchun hech qanday ma'no bermaydi. Qo'shtepa toponimi umuman ob'ekt sifatida bir qancha yerda mavjud. Buni Darg'om bo'yidagi, Urgut tumaniga qarashli yerda joylashgan arxeologik ob'ekt deb tushunilsa aniq tarixiylik kasb etadi va aniq joy tasavvuriga xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, Kichik Osiyoda Koshodepe ham o'z makoni bilan bog'liq izohlanmasa tushunish qiyin.

Toponimlarning tarixiy talqini murakkab ilmiy izlanishlarni talab etadi. Chunki toponimlar u yoki bu ob'ektga nisbatan turli davrlarda berilishi mumkin. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, ma'lum bir makondan aholi migratsiya qilib boshqa manzilga qo'nadi. Uning asl joyini boshqa xalq yoki etnik o'zgaralar egallaydi. Ba'zan eski nomlarni saqlab, ularning talaffuzini o'zgartiradilar yoki o'z tillariga kalka usuli bilan ag'darib oladilar. Xuddi shu kabi hodisa Zarafshon daryosiga nisbatan bir necha bor ro'y bergani ma'lum. Yunonlar uni Politimet deganlar. Arab mualliflari Naxri Sug'd, Naxri Buxoro va boshqa nomlar bilan atashgan, nihoyat o'rta asrlarda daryoga nisbatan Zarafshon atamasi qaror topgan. «Politimet» yunoncha «ko'p sharafli» degan ma'noni bildirgan. Agar yunonlar bu daryoning

nomini mahalliy atamaga ko'ra Kalka qilgan bo'lsalar, u holda qadimgi sug'dlar o'z daryolarini Namich deb atagan bo'lsalar kerak. Bu fikrni Sankt-Peterburglik olim V.A. Livshis o'rta qo'ygan edi. Bizningcha bunda bir ma'no bor. Chindan ham qadimgi sug'd tilida «namo'» – ulug'vor, nomdor, sharaflig degan ma'nolarga ega.

Tarixiy toponimlarning paydo bo'lish, unutilish, yangilanish shart-sharoitlari butun bir tarixiy jarayonlar bilan, ma'naviy diniy dunyoqarash tizimlari bilan, xo'jalik yuritish, turli xil sotsial bo'xronlar, harbiy voqealar tabiiy hodisa va boshqalar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, «Xudo urgan» toponimi Toshkentning shimolida Xasanboy qishlog'iga kiraverishdagi ko'prikning nomi bo'lgan. Bu ko'prik atroflari ovloq yerlar bo'lib u yerda bir guruh qaroqchilar yo'ltosarlik qilishgan ekanlar yo'lovchi paydo bo'lib ko'prikka yaqinlashganda yo'lga ko'ndalang qilib xoda tashlashar ekan. Yo'lovchi uchun bu «boringni berib o'taver» degan ma'no berar ekan. Hasanboy xalqi bu himoyani unutgan emas. Xolbuki, o'sha ko'prik allaqachon yo'q bo'lib ketgan. Chunki Hasanboy arig'ining o'zani boshqa yerga surilib yangi kanal orqali olib o'tilgan. Yoki, boshqa bir misol: katta boylarning yerlari egalari nomi bilan atalgan paytlar bo'lgan. Mazkur Hasanboy qishlog'ida katta ekin maydonlaridan biri «Rixsiboyning yeri» deb atalar edi. Boshqa bir ekin va bog' maydonlar Yovshuboyning yeri deyilar edi. Bu boylar allaqachon o'tib ketgan bo'lishiga qaramay, yerlarni katta va keksa yoshdagi aholi shu nomlar bilan eslashadi. Endi Hasanboy qishlog'i deyilishiga sabab haqida. Hasanboy aholisi asosan Toshkent shahrida «shahar hovlilari» bo'lgan, yozda «dala havo»ga chiqib, ekin tekin, bog'-rog' qilib tirikchilik qilgan. Qishloq XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Sebzor dahasining aholisi yetakchilik qilgan, ularni «dala»ga olib chiqib yer suv taqsimlab bergan oqsoqol Hasanboy ota nomi bilan bog'liq. Shu tadbir Hasanboy ota Toshkent aholisini iqtisodiy tanglikdan qutqarib qolgan. Chunki, o'sha davrda Toshkent Qo'qon xonlari tasarrufiga tushib qolgan va zulm kuchaygan edi.

Toponimlarni sotsio-lingvistik tahlil etish beixtiyor ularning tarixiy asoslari tomon yetaklaydi. Masalan, etnotoponimlar, antropo-toponimlar, ijtimoiy voqea-hodisalar bilan bog'liq joy nomlari bular hammasi jamiyat holatlari tufayli sotsial hayot in'ikosi sifatida yuzaga keladi. Shu sababli toponimlarni tarixiylikning bir chizig'ida – sinxron kesmada hamda

joy nomlari taraqqiyotining boshlanishidan avomiyligi asosida dioxronik usullar bilan o'rganiladi. Bulardan ikkinchisi, ya'ni diaxronik yondashuv tarixiy jarayon nuqtai nazaridan qiziqroq va samaraliroq bo'ladi. Markaziy Osiyo toponimik nomenklaturasining diaxronik manzarasini kuzatadigan bo'lsak, so'ngi uch ming yil davomida bu mintaqada shu sqadar ko'p toponimik qatlamlar paydo bo'lganki, ularni o'z qatlamlari doirasida aniq chegaralab tekshirish amri mahol. Chunki toponimik qatlamlar ayrim hol-larda yangi tarixiy sharoitda paydo bo'lgan toponomenklatura orasiga kirib yashovchi nomlarga ega bo'lishi ham mumkin. Masalan, Naxshab-arablar tomonidan nasaf deb yuritildi. Choch toponimi X asrdan boshlab Toshkent shahrida qo'llana boshlagan. Xitoycha Shi-kan – «tosh shahar» deb atal-gani ham bejiz emas. Lekin, Choch atamasi keyingi asrlarda ham saqlanib qolaverdi. Bobur Choch kamoni haqida yozib «Kamoni Chochiy» ibora-sini qo'llagani yaxshi misol bo'la oladi. Ba'zan tarixiy toponimlar ma'lum joy aholisiga tushunarsiz bo'lsa-da, yashovchanligini yo'qotmaydi. Ma-salan, Toshkentning Xadra maydoni. Sinchkov va til tarkibidan xabardor odam Xadra «xaddi roh» yo'l cheti deb izohlanmasa, oddiy toshkentlik uchun bu atama an'anaviy mavjud va yodaki aytiladi xolos. Bundan tas-hqari, arab tilida «axdarun» va «xadraun» so'zlari «yashil» ma'nosini anglatishini hisobga olsak, Xadra maydonini «yashil maydon» deb ham tarjima qilish mumkin. Novza atamasi Toshkentning g'arbiy mavzelaridan birining nomi. Bu so'z tuzulishiga ko'ra juda qadimiy. Sug'd tilida nov «yangi», za esa «yer, joy» demakdir. Demak, qochonlardir qadimda va ilk o'rta asrlarda Choch orqali savdo ishlari olib borgan sug'dlar shu mavzeda qo'nim topishgan, balki yashab qolib, mahalliy turkiy aholi bilan aralashib ketgan deyishga asos bor. Toponimning tarixiy dinamikasi 1,5 ming yildan ortiq vaqtni ko'rsatmoqda.

Toponimiya davriy qatlamlariga ko'ra, tarixiy va hozirgi zamonda amalda bo'lgan qatlamlarga bo'linadi. Tarixiy toponimlarning unutilgan qatlami va uzoq davrlardan buyon davomiy amal qilib, hozirgacha yetib kelgan qatlamlari ham hisobga olinmog'i lozim. Toponimik nomenklatura birliklari va ularni shakllantiruvchi unsurlari va kelib chiqish davri har xil, til manbalari ham turli-tuman bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekiston toponimik nomenklaturasida qadimgi turkiy, qadimgi eroniy elementlar keng tarqalgan. Shu bilan birga turli siyosiy-ijtimoiy, etnologik, madaniy

ma'naviy omillar tufayli paydo bo'lgan toponimlar ham katta sonni tashkil etadi. Siyosiy qatlamda yuz bergan «portlash» sovet davri toponimlari misolida yaqqol namoyon bo'ldi: Qizil to'qimachi, Baynalminal, Pervomayskaya, Bolshevik ko'chasi, Sovetskaya ko'chasi, Lenin kolxozi, Ordjonikidze rayoni va hokazo. Toponimiya amaliy mohiyatiga ko'ra ijtimoiy tarixiy hodisadir. Shunga ko'ra, toponimiyaning tarixiy material sifatida o'rganish muhim ahamiyatga ega. Boshqa jihatdan toponimiya so'z birliklari bilan ish ko'rgani sababli tilshunoslik uchun ham o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Toponimiya shunchaki leksik birliklar yig'indisi emas, balki ekstralingvistik omillar yig'indisi hamdir. Toponimiyada ijtimoiy hayot, madaniy jarayonlar, turli xil siyosiy vaziyatlar, bir so'z bilan aytganda ijtimoiy kollektiv hayotining barcha sohalari aks etishi mumkin. Masalaning bu tomoni toponimlarda etnik jarayonlar, iqtisodiy munosabatlar, ma'lum ijtimoiy etnomadaniy aloqalar, tillar ta'sirdoshligi va boshqa ko'plab xususiyatlar mujassamlashadi. Toponimiya sotsiolingvistik nuqtai nazardan haligacha yetarli o'rganilmagan. Tarixiy jihatdan ham toponimiyaning maxsus va yalpi o'rganilgan deb ayta olmaymiz. Zero, toponimiya tarixiy jihatdan shunday murakkab tadqiqot maydoniki, uning avvalo, lingvistik (leksik, semantik, fonologik, morfologik) asoslari to'liq tasavvur qilingan emas. Hatto, aytish mumkinki, Markaziy Osiyo tarixiy toponimiyasining leksik fondini tartibga solingan ro'yxati, katalogi, izohli to'liq lug'ati yaratilmagan. Ahvolning bu qadar murakkabligi tarixiy toponimiya tadqiqotining asosiy muammolarini «Yordamchi tarix» fanlari tarkibida bir bora qayd etib o'tishni dolzarb masalaga aylantirdi. Tarixiy toponimiyaning tadrijiy (diaxronik) rivojlanib boruvchi hodisa deb baholash bilan barobar, ularning tarixiy fani uchun qo'shimcha ma'lumotlar beruvchi manba ekani alohida hisobga olinishi lozim.

Toponimiya joy nomlari bilish bilan birga umumiy nomshunoslikning barcha tarmoqlari bilan uzviy aloqada bo'lishi mumkin. Ya'ni, kishi ismlari – antroponimlar joy nomlari vazifasida amal qilishi mumkin. Gidronimik toponimlar ham uchraydi. Zoonimik toponimlar, oronimik toponimlar, godonim (yo'l nomlar – yunoncha hodos «yo'l»), agronimlar (maydonlar) va hokazo toponimik guruhlar ularning mazmun tasnifidan kelib chiqadi. Shu bilan bir qatorda toponimiya o'zi atagan manzilning katta yoki kichikligiga qarab makrotoponimlar va mikrotoponimlarga bo'linadi. Topo-

nimiyaning geografiya, tilshunoslik va tarixning sintezi deb qarovchilar ham bor. Bunday qarash toponimiyani tadqiq qilishda metodologik va tetodik yondoshuvni belgilashga yordam beradi. Ya'ni, toponimika tarkibida yuqorida sanalgan yo'nalishlarning barchasi uchun umumiy bo'lgan atamalak xususiyati bilan birga atrofdagi ob'ektlarga nisbatan atama yasashning o'ziga xos xususiyatlari birlashadi. Markaziy Osiyo va uning geografik nomlari to'g'risidagi eng qadimgi ma'lumotlar miloddan avvalgi VIV asrlardayunon olimlari asarlarida uchraydi. «Tarix fani otasi» deb nom olgan Geradot Girkand «Kaspiy» dengizidan sharq tomondagi hududni «bepayon tekislikdan iborat» deb atagan, Araks daryoni (Amudaryoni) tilga olgan

Makedoniyalik Aleksandrning bostirib kelishi, shuningdek savdo aloqalarining avj olishi qadimgi dunyo oilalarining geografik tasavvurlarini kengaytirishga imkon berdi. Aleksandr Baqtriya bilan Sug'diyonada sakkizta shahar, boshqa bir ma'lumotlarga ko'ra o'nta shahar qurgan, shulardan Aleksandriya deb atagan (masalan, Aleksandriya Esxata «Chekka Aleksandriya», hozirgi Bekobod shahri yaqinida), Kiropol (Tojikiston Respublikasidagi Shahriston dovoni yaqinidagi Shahriston qishlog'i o'rnida bo'lgan degan fikr bor). Shu bilan birga fotih bir qancha shaharlarni, jumladan Marokandni (Samarqandni) vayron qilgan. Makedoniyalik Aleksandrning buyrug'i bilan yozib borilgan mukammal kundaliklar ham, uning urushlari tarixiga oid birinchi manbalar ham bizgacha yetib kelmagani bois geografik ma'lumotlarda ko'p narsalar noma'lum bo'lib qolayotir. Markaziy Osiyoning, jumladan O'zbekistonning daryolari, tabiiy geografiyasi, shaharlari to'g'risidagi ma'lumotlar miloddan avvalgi I asrga kelganda aniq bir tus oladi. Masalan, qadimgi yunon geografi va tarixchisi, 17 jildlik «Geografiya» asarining muallifi Strabon, tarixchi va yozuvchi, 7 jildlik Makedoniyalik Aleksandr yurishlari tarixi muallifi Flaviy Arrian, 10 jildlik «Makedoniyalik Aleksandr tarixi»ni yozgan Ruf Kurtsiy (I asr) Yaksart (Sirdaryo), Politimet (Zarafshon) haqida ma'lumotlar berganlar. Arrian Sirdaryo bo'yida sug'diylarning Vasileya shahrini tilga olgan. Astranom Klavdiy Ptolomey (taxminan 90–160 yillar) Markaziy Osiyo geografiyasi haqida keng ma'lumotlar berib o'lka hududlarini, daryolari, shaharlarini tasvirlab yozgan. Shunday qilib, antik

dunyo olimlarining asarlarida Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonda bir qancha nomlar, chunonchi Girkand dengizi, Araks (Amudaryo), Oks (Oksos-Amudaryo), Xorazmiya (Xorazm) shahri, Qang' (Kangxa, Qanguy) davlati, Yaksart (Sirdaryoning eng qadimiy mahalliy nomi), Marakand (Samarqand), Politimet (Zarafshon) va boshqalar tilga olingan.

Milodning VII asridan e'tiboran arab xalifaligi mamlakatlarida ham fan rivojlana boshladi. Arablar bosib olgan Markaziy Osiyo ham ana shu xalifalik tarkibida edi. Markaziy Osiyodagi, avvalgi mustaqil bo'lgan mamlakatlar o'sha vaqtda o'z yozuviga ega yuksak madaniyatli davlatlar edi. Ularda ta'lim tizimi, sug'orma dehqonchilik rivojlangan, yirik shaharlarda boy kutubxonalar bo'lgan. O'rta asrlarda Turkistonda buyuk olimlar ijod qilganlar va jahon fanini, jumladan toponimikani rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Masalan, Beruniyning geografik va toponimik merosi «At-tavhim», «Hindiston tarixi», «Al-osorul boqiy», «Qonuni Ma'sudi» asarlarida keltirilgan. Olim xorazmliklarda Vaxsh suvlarni, jumladan Jayxun daryosini nazorat qilib turgan malak nomi ekanligini aytgan. Demak, Amudaryoning o'ng irmog'i bo'lgan Vaxsh, Surxondaryo viloyatidagi Vaxshivor, Vaxshivordara kabi toponimlar o'sha suv parisi nomi in'ikosidir. «Geodeziya» asarida Beruniy o'sha vaqtdagi Sariqamish ko'lini Xiz tengizi, ya'ni «Qiz dengizi» deb atagan. Olim toponimika qonuniyatlariga oid bir qancha fikrlar bildirgan, masalan, yunonlar va arablar turkiy so'zlarni buzib o'z tillariga moslab talaffuz qilganliklari oqibatida bir qancha so'zlarning ma'nosi o'zgarib ketganini, (masalan, turkiycha tosh so'zini arablar shosh deb talaffuz qilishlarini) aytadi. Beruniy o'zining «Saydana» asarida 400 dan ortiq qishloq, tog', daryo, shahar va orollar, «Qonuni Ma'sudi» kitobida 600 dan ortiq joy nomlarini tilga olgan. Shundan 85 tasi Markaziy Osiyo va Xurosonga tegishlidir. O'rta asrlardagi barcha tarixiy, geografik va lingvistik asarlar orasida toponimika uchun hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan asar, bu Mahmud Koshg'ariyning uch jildli «Devonu lug'otit turk» kitobidir. O'zbekistonning tarixiy toponimiyasi uchun yana qimmatli asarlaridan biri Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobi sanaladi. Kitob 934–944 yillarda arab tilida yozilgan. 1128–1129 yillarda forschaga qisqartirib tarjima qilingan, noma'lum muallif kitobga mo'g'ullar bosqinchiligigacha bo'lgan voqealarni qo'shgan.

Bu asarda Markaziy Osiyoning VIII-XII asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti yoritilgan. Shu bilan birga eski Buxoro va uning yaqinidagi bo'lib bir necha yuz geografik nom tilga olingan. Shunisi qiziqki, X-XI asrlardagi ko'pgina geografik nomlar hozirgacha saqlanib qolgan. Shulardan Nur (hozirgi Nurota), G'ijdivon, Romitan, Shopurkom, Karmana qadimiy nomlardir. Varaxsha (Faraxsha), Poykand Buxorodan ham keksa shaharlardir, deb yozadi Narshaxiy. Tarixchining ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroning Numijkat, Bumiskat, Madinat-us-sufriya («Mis shahri»), Madinat-tujjor («Savdogarlar shahri»), Fohira degan nomlari bo'lgan. Shopurkom arig'i (hozir qishloq ham) Eron shahzodasi Shopurning nomi bilan atalgan ekan. Shopur buxorudotdan (Buxoro hokimidan) yer olib, qasr qurgan va Vardana qishlog'ini barpo qilib, ariq qazib keltirgan. Shopurkom- «Shopur arig'i» demak. Shopur ismi o'z navbatida ikki so'zdan iborat: shox, pur- o'g'il, shahzoda. Kom atamasi qadimdan Buxoro atrofiga iste'molda bo'lgan va hozir ham anchagina geografik nomlar tarkibida uchraydi: Komi Zar, Komi Akka (Zarafshonning bir nomi), Haramkom va hokazo. O'zbekiston joy nomlarining o'rganilishiga «arab geograflari» nomi bilan mashhur olimlar katta hissa qo'shgan. Shu narsa e'tiborga sazovorki, yangi qo'shib olingan hududlarning ma'muriy tuzilishini o'rniga qo'yish munosabati bilan «Soliq daftarlari»-«Kitob al-xaraj» va «Yo'lnomalar» paydo bo'ladi. Bunday nomalarda viloyatlar va aholi punktlari, dehqonchilik va kasb-hunar mahsulotlari, bekatlar, ular orasidagi masofa, aloqa sharoiti ko'rsatib qo'yilar edi. Asli eronlik bo'lgan arab geografi Abulqosim Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Xurdodbehning (XI asr) «Kitob al masolik va mamolik»- «Yo'lnomalar va mamlakatnomalar» kitobi shunday geografik asarlarning dastlabkisi edi. Bunday ma'muriy-statistik yo'nalish Al-Yaqubiyning «Kitob al-buldon» («Mamlakatlar kitobi»), Ibn Ja'far Qudamaning «Soliqnoma» («Xaraj kitobi») asarlarida o'z rivojini topdi.

Arab geografiyasi, ayniqsa X asrda keng rivojlandi. Ibn Rusta (Abu Ali Ahmad ibn Umar) geograflar orasida alohida o'rin tutadi. Uning «Kitob al-alak an-nafisa» («Durdonalar kitobi») asarida Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonga bag'ishlangan qismi Vatanimiz toponimikasi uchun juda muhim. Ibn Rusta, chunonchi, Buttam tog'laridan oqib keladigan Qumrad va Xovarrud daryolarini Romid (hozirgi Kofirmihon) daryosining

irmoqlari deb ataydi. Akademik V.V.Bartoldning fikricha, bu daryolar hozirgi Surxondaryoning Qoradaryo, To'polondaryo, Sangardakdaryo nomli irmoqlari bo'lishi kerak, Buttam tog'lari esa Birinchi Buttam (Hisor tizmasi), O'rta Buttam (Zarafshon tizmasi) Tashqi Buttam (Turkiston tizmasi) tog'laridan iborat bo'lgan. X asrda Istaxriy (Abu Is'hoq Ibrohim ibn Muhammad al-Farisiyning «Kitob al-masolik va al-mamolik» asari 930–933 yillar) arab geografiyasining katta yutug'i edi. Keyinchalik, 976–977 yillar Movaraunnahrga sayohat qilib, uni tasvirlab yozgan ibn Havqal Istaxriy asarini yanada to'ldirdi. Masalan, ibn Havqalning guvohlik berishicha, Sag'onrud (Chag'onrud), ya'ni Surxondaryo Termiz shahridan pastroqda Amudaryoga quyilgan. Xalifalik tarkibidagi o'lkalar, jumladan Movaraunnahr geografiyasi, tarixi, iqtisodiyoti, madaniyati, jumladan toponimiyasi haqida Muqaddasiy (Shamsiddin Abu Abdalloh Muhammad ibn Ahmad) ayniqsa to'liq ma'lumot bergan.

Muqaddasiy ma'lumotlariga ko'ra, Chag'oniyonda (Surxondaryo vodiysida) 16000 ga yaqin qishloq bo'lgan. Sayyoh Farg'onada Axsikat, O'zgand, O'sh, Qubo (Quva), Marg'inon, Rishton, Koson, Bop (Pop), Asht, Avval, Andukon (Andijon), Xuqand (Qo'qon) kabi 40 ta shahar hamda jome masjidli qishloqni sanab o'tadi. Muqaddasiy va boshqa arab geograflarining asarlarida nomlari hozirgacha saqlanib qolgan toponimlar tilga olingan: Zomin, Jizzax, Sobot, Xovos, Kurkat, Samg'ar, Xo'jand va boshqalar. Bu kabi ma'lumotlar Vatanimiz toponimiyasining qadimiy ekanligini ko'rsatadi. Axsikat, Samarqand, Farg'ona, Choch (Toshkent) kabi nomlar VIII asrga oid sug'd hujjatlarida va undan ham oldin, Andigon (Andijon), Zomin, Isfara, Ishtixon, Karma-na, Kesh (Shahrisabz), Marg'inon (Marg'ilon), Miyonqol, Miyonrudon («Ikki suv orasi») – Norin bilan Qoradaryo oralig'i, Narpay, Naxshab (Qarshi), Parak (Chirchiq), Barsket (Parkent), Biskat (Piskent), Biskom (Piskom), Pishag'ar, Bob (Pop), Rishton, Sobot, Soyliq, Tavovis, Ushrushona, Farg'ona, Forob, Xotunkat, Jadg'al (Chotqol), Chag'oniyon (Surxondaryo vodiysi), Chinachkat-Jinanjkat (Chinoz), Shovdor, Qalqonqud, Quva, Qurshob (Xurshob), Xuqand (Qo'qon), G'ijdivon, Xuzor (G'uzor), Hazorasp kabi nomlar XI asrlar manbalarida – arab geograflarining asarlarida, «Hudud al-olam»da, Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da tilga olingan.

XIII asrda ijod qilgan Yoqut (Yoqut ibn Abdulloh ar-Rumi al-Hamaviy) «Mu'jam al-buldon» nomli ko'p jildli lug'atida geografiyaga oid barcha ma'lumolarni jamlab katta toponimik meros qoldirgan. Yoqut Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonning ma'lum va mashhur Buxoro, Samarqand, Ishtixon, Zomin, Naxshab (Nasaf-Qarshi), Farg'ona, Uzkand (Yuzkand-O'zgant), Axsikat, Huqand (Qo'qon), Xo'jand, O'sh, Dabusiya, Shosh (Toshkent), Ushrushona, Farob, Termiz, Asfijob-Isfijob kabi shahar va qishloqlari haqida mukammal ma'lumot qoldirgan. Yoqut geografik nomlarni hozirgi ilmiy til bilan aytganda topoformantlarga qarab tasnif qilgan. Masalan, obod so'ziga kelganda shuni aytish kerakki, deydi Yoqut, bu unsur shaharlar, qishloqlar va viloyatlar nomlari tarkibida ko'p uchraydi: Asadobod, Rustamobod, Husnobod kabi. Asad kishining ismi, obod esa, forscha «aholi punkti» degan ma'noni bildiradi, demak, Asadobod «Asad shahri yoki qishlog'i» demakdir. Umuman olganda, arab geograf-lari asarlarida respublikamiz toponimiyasi haqida ko'plab ma'lumot top-sa bo'ladi. Turkiy tarixiy va lisoniy manbalardan toponimika uchun eng ahamiyatlilari sifatida Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» va Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarlarini alohida tilga olish mumkin. «Devonu lug'otit turk»ning toponimika fani uchun ahami-yati shundaki, asarda 200ga yaqin turkiy toponimlar (Olayig'och, Bada-lart, Qargalik), ko'plab etnonimlar – o'sha vaqtdagi turkiy qabilalarning nomlari (yag'ma, chigil, sug'dak «sug'diylar») va ularning geografiyasi, bir necha o'nlab qadimiy turkiy ismlar (Bektur, Arslontegin, Turumtoy), ko'plab geografik atamalar (art, dovon, yozi-yozi «dasht»), baliq «shahar»), shuningdek o'simlik va hayvonlarning qadimiy turkiy nomlari (avya-behi, so'kso'k-«saksovul», qazin-qayin, yag'an-fil, qoz-g'oz, chabaq-mayda baliq keltirilgan. «Devonu lug'otit turk»ning uchta jildida keltirilgan boy toponimik materiallar joy nomlarining etimologiyasini tadqiq qilishda, toponimlarning qadimiy fonetik shakllarini aniqlashda o'ta qimmatli manba-lar bo'lib xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida tarix, etnog-rafiya, geografiyaga oid qimmatli ma'lumotlardan tashqari, toponimika sohasida ham boy materiallar keltirilgan. «Boburnoma»ning bu boradagi ahamiyati shundaki, undan toponimlarning qadimiy shakllarini bilib olish mumkin: Dizak- Jizzax, Ko'hak-Zarafshon, Sayxun, Xo'jand suyi yoki

Sir suyi-Sirdaryo, Chir- Chirchiq va hokazo. Bobur tilga olgan ko'plab geografik atamalar toponimlarning kelib chiqishini aniqlashda va o'zbekcha ilmiy terminologiyani ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega, masalan: band-to'g'on yoki «bekat», jazoir-orol, jangal-o'rmon, qo'l-daryo tarmog'i, tangi-tor dara quruq qo'l yoki suvsiz qo'l-soylik, parcha tog'-qoldiq tog', tagob-o'zan, tuz-tekislik, to'qay-daryo muyulishi, ushoq tog'lar-past tog'lar, yayloq-yaylov, obgir-botqoqlik, ko'tal-dovon, qasaba-shaharcha, pushta-tepalik, qo'ruq-qo'riqxon, uchma-tik yonbag'ir, yoz-bahor, yozidala, obshor-sharshara va boshqalar. Keyingi ikki asr davomidagi tarixiy, lingvistik, geografik asarlardan O'zbekiston toponimikasiga oid ko'plab materiallar topish mumkin. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston toponimikasiga oid dastlabki asarlardan biri vengriyalik olim Arminiy Vamberining Markaziy Osiyoga maxfiy sayohati mahsuli bo'lmish «Markaziy Osiyoning geografik nomlari» (nemis tilida) deb atalgan asaridir. Asarning lug'at qismida 600 ga yaqin geografik nom va atama alifbo tartibida berilgan. Bu esa, o'sha davr uchun katta yutuq edi. Biroq geografik nomlar izohlarida xatoliklar uchraydi. Masalan, Jizzax- «issiq», Andijon- ont, qasam va jon, jonday inoqlik, Sariosiyo – «sariq tegirmon», Sirdaryo- «jildirab oqadigan» degan ma'noni bildiradi deb yozgan. Rus sharqshunolaridan N.V.Xanikov, L.N.Sobolyev, N.F.Sitnyakovskiy, V.L.Vyatkin asarlarida bir qancha ma'lumotlar O'zbekiston toponimikasiga bag'ishlangan. Masalan, N.V.Xanikovning «Buxoro xonligi tasviri» asarida o'sha davrda iste'molda bo'lgan otaliq, qo'rchi, tunqotar, shig'ovul kabi ko'plab ijtimoiy-siyosiy atamalar tilga olinganki, ular hozirgi vaqtda bir qancha toponimlarning ma'nosini tushunib olish uchun kalit bo'lib xizmat qiladi. Kitobda 92 o'zbek qavmlarining dastlabki ro'yxati keltirilgan. L.N.Sobolevning «zarafshon okrugi haqida geografik va statistik ma'lumotlar» kitobida Zarafshon vodiysidagi qishloq, shaharlarning ro'yxati berilgan. Unda qishloqning qaysi ariqdan suv ichishi va aholisining qaysi qabila yoki urug' vakillari ekanligi ham aytib o'tilgan. Chor armiyasining ofitseri N.F.Sitnyakovskiyning Zarafshon vodiysiga bag'ishlangan tarixiy-geografik asarida Narshaxiyning «Buxoro tarixi»da (X asr) tilga olingan ko'pgina ariqlar hamon o'sha eski nomlari bilan atalishi qayd etilgan. Kitobiga Zarafshon vodiysidagi bir necha yuz ariq, shahar va qishloq nomlarining ro'yxati ilova qilingan. Bu esa toponimika fani uchun qimmatli boy tarixiy-geogra-

fik material bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning tarixiy geografiyasini, jumladan toponimiyasini o'rganishda inqilobdan oldin va sovet davrida ijod qilgan tarixchilar orasida V.L. Vyatkin alohida o'rin tutadi. Olimning Samarqand va Toshkent viloyatlariga bag'ishlangan va vaqf hujjatlari asosida yozilgan tarixiy-geografik asarlarida ko'pgina toponimlarning kelib chiqishi haqida so'z boradi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida ijod qilgan rus sharqshunoslari orasida Markaziy Osiyoning, jumladan O'zbekistonning tarixiy geografiyasini va toponimikasini o'rganishda akademik V.V. Bartold ijodi alohida o'rin tutadi. Bartold asarlarida O'zbekistondagi yuzlab tarixiy geografik nomlar tilga olingan, bir qancha toponimlarning etimologiyasi keltirilgan, olim, masalan, Bag'dod shahri (Iroq) nomini «Xudo in'omi» deb izohlagan. Chunki, qadimgi eroniy tillarda, jumladan sug'd tilida bog (fag-bag) «xudo», «yaratuvchi» degan ma'noni ham bildirgan. Birgina shu misol vaqt o'tishi bilan atamalarning ma'nosi o'zgarib turishini ko'rsatadi. Yana bir misol, ilk o'rta asrlarda dehqon (dehigon) deganda «zamindor», «katta yer-mulkka ega bo'lgan boy» tushunilgan. V.V. Bartold asarlarining 9 jildli har birida Berun, Vaqf, Varg', Vixara, Diz, Qarshi, Rabod, Rabot, Rustaq, To'rtko'l, Chorsu, Shahrison, Hisor, O'rchin kabi yuzlab qadimiy geografik, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy atamalar tilga olingan va imkon qadar izohlangan. O'zbekiston toponimiyasini tadqiq qilish bilan shug'ullanadigan har bir mutaxassis M.S. Andreyev, S.P. Tolstov, Ya.G'. G'ulomov, B.A. Ahmedov, A.R. Muhammadjonov, M.E. Masson, O.D. Chexovich, A.A. Semenov, O.A. Suxaryeva kabi olimlarning tarixiy-geografik asarlaridan toponimlarning ma'nosi, kelib chiqishi haqida talay materiallar topadi. O'zbekiston toponimiyasini o'rganishda geografiklar ham katta hissa qo'shganlar. Professor N.G. Malliskiyning ayrim atamalar to'g'risidagi maqolasi, xususan Toshkentning mahallalari va mavzolari nomlari haqidagi asari toponimika uchun qimmatli materiallardir. O'zbekiston toponimika faninig va geografik atamashunoslikning rivojlanishida professor H.H. Hasanovning xizmatlari katta. Olimning «Geografik nomlar imlosi» (1962), «Markaziy Osiyo joy nomlari tarixidan» (1965), «Geografik nomlar siri» (1985), «Yer tili» (1977), «Geografiya atamaları lug'ati» (1966), «Markaziy Osiyolik geograf va sayyohlar» (1964), «Sayyoh olimlar» (1981) kabi asarlarida, ko'plab-

risolalari va maqolalarida Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda joy nomlarini o'rganishga qadimdan ahamiyat berib kelinganni qayd qilingan. Ayrim toponimlarning etimologiyasi aniqlangan. Olim tarixiy, geografik nomlarni izohladi, dunyodagi ko'plab nomlarning hozirgi o'zbek tilida yozilishi (transkripsiyasi) qonuniyatlarini ishlab chiqdi, eski o'zbek geografik terminologiyasini zamonaviy, ilmiy terminologiya asosida qayta ishladi: Masalan, uqiyonus-okean, ota-orol, yonartog'-vulkan, ko'rfaz-qo'ltiq, jug'rofiya-geografiya kabi. Tilshunos toponimistlardan professorlar T. Nafasov, Z. Do'simov, dotsent N. Oxunov O'zbekistonda toponimikaning rivojlanishiga, toponimlarning nominasion (nomlanish) qonunlarini ochib berishga salmoqli hissa qo'shdi va ko'plab joy nomlarining etimologiyasini aniqlab berdilar. O'zbekiston toponimika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri T. Nafasov O'zbekistonda birinchi bo'lib toponimikadan nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Keyinchalik sohaga oid bir qancha risola, maqolalar chop etdi. Uning «O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati»da asosan Janubiy O'zbekistondagi mikrotoponimlar etimologiyasi yoritilgan. Shu bilan birga mintaqadagi Boysun, Kesh, Chag'oniyon, Qarshi kabi ba'zi tarixni toponimlarga ham etimologik izoh berilgan. Z. Do'simov Xorazm toponimiyasini o'rganib joy nomlarining tarixi va etimologiyasi, ularning lingvistik xususiyatlari, modellari va tiplarini aniqlash sohasida ishladi. «Xorazm toponimlari» monografiyasida (1985) Xorazm toponimlarining shakllanishi va ularning taraqqiyot bosqichlarini tadqiq qildi.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. O'zingiz tug'ilib o'sgan yurtinigiz toponimlaridan ro'yxat tuzing va izohlashga harakat qiling.
2. Toponimlarni hosil qiluvchi formant (muqim so'zlar yoki gramatik qo'shimcha)lar haqida ma'lumotlar to'plang.
3. O'zbekistonning qadimgi o'rta asr va yangi davr shaharlari nomlarini izohlang.
4. Jahon toponimiyasidan qiziqarli misollar topib, izoh bering.

1.8. Tarixiy atamashunoslik

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Tarixiy onomastika mazmun-mohiyati, metodologiyasi, tarixiy atamalarning tasnifi, izohi va sharhi, ishlatilish davri kabilarni ilmiy asoslarda tushuntirish.

Tayanch so'z va iboralar: *onomastika, onomatika, onomatologiya, astronimika, zoonimika, karonimika, kosmonomika, xrematonimika, teonimika, pragmatonimika, toponimika, ergonimika, emporonimlar, etnonimika, arxontologiya.*

Tarixiy atamashunoslik fani tarix fanining qadimgi davridan to hozirgi kungacha bo'lgan davr oraliqidagi tarixiy atamalarni o'z ichiga oladi. Tarixiy atamalarning ma'nosi yillar o'tishi bilan o'tmishning ma'lum davriga xos holda o'zgargani tez-tez kuzatib turilgan. Atamalarni maxsus fan terminologiya (atamashunoslik) o'rganadi. Ularning tarixga bog'liq tomonlarini esa tarixiy atamashunoslik (yoki tarix atamashunosligi) o'rganadi. Turli mamlakatlarga jamiyat va Sivilizatsiyalar rivojining turli bosqichlarida kishilik jamiyat hayotining yangi yoki, o'zgaruvchan bo'lsa shu mintaqa yoki mamlakatta xos tildagi atamalar shunchalik ko'p tarqalgan. Keyinchalik ular xalqaro atamalarga aylanib borgan. Hozir (ba'zan o'tmishda ham) ularni turli mamlakatlarda ma'lum bir yoki aynan bir xil hodisalarni anglatuvchi atamalar sifatida qo'llashmoqdaki, ular xalqaro leksikaga kiritilgan.

Atama so'zi (termin-terminus) – marza, chegara so'zlaridan olingan. Qadimgi Rimda Termin xudosi bo'lib, u marzali toshda turgan. Yupiter ibodatxonasida ya'ni Kapitoliyda saqlangan. Zamonaviy ma'noda atama – so'z yoki so'z, birikmasi bo'lib, ijtimoiy – siyosiy hayotdagi, fan, texnika va san'atdagi biror bir ma'noni, tushunchani anglatadi. Oddiy so'zlardan farq qilib atamalar, o'zining aniq semantik chegaralariga ega. Atamalar hamma vaqt ham o'z ma'nosini anglatavermaydi. Har qanday ilmiy va texnik sohada ko'p miqdordagi omonim – atamalar va sinonim – atamalar mavjud. Bu esa, ma'lum ma'noda noqulayliklar tug'diradi. Shuning uchun ham fan va texnikadagi atamalarning tartiblash ishlari bu yo'ldagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Ijtimoiy – siyosiy, ilmiy va texnik atamalar hozirgi kunda bir tildan boshqa tilga o'tib xalqaro lek-

sik fond tarkibiga kirmoqda. Atamalar ulkan ilmiy ahamiyatga ega. Tabiat va jamiyatdagi mavjud hodisani o'rganish uchun uning aniq nomini bilish talab qilinadi. Bunda atama tushunchani izozhlabgina qolmay, uni bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardan farqlaydi. Tarixiy atamalarning asosiy manbalariga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo antik falsafaning rivojlanishi bilan (Aristoteldan boshlab) ilk bor falsafiy atamalar yunon tilida paydo bo'lishiga e'tibor berishimiz kerak. Keyinroq, lotin tilida ijod qilgan Terentsiy Varron, Sitseron, Kvintilman va boshqalarning xizmati bilan V asrda atamashunoslik to'la shakllanadi (Martsian Kapella va Boetsiy esdaliklarida). Keyinroq, atamashunoslik roman, german, slavyan va boshqa tillariga ko'chdi. Islom dini tarqalgan mamlakatlarda hunarmandchilikning o'sishi, san'at, savdo aloqalari va fanning rivojlanishi bilan san'at, savdo, ximiya, matematika, astronomiya, geografiyaga oid atamalarning arab tilida ko'chishini ta'minlandi. Bular keyinroq hind-Yevropa tillariga ko'chdi (Masalan, tara, tarif, al'kogol, alizarin, azimut, nodir, musson). Tarif – olinadigan yoki to'lanadigan haq-baholar ko'rsatkichi, baho. Imtiyozli tarif, pochta tarifi, tarif jadvali.

Alizarin – ruyan o'simligi ildizidan olinadigan yoki sun'iy yo'l bilan tayyorlanadigan bo'yoq modda. Alkogol – molekullari tarkibiga kislorod va vodorod atomlari guruhi kiritadigan birikmalar, spirtlar.

Uyg'onish davri (XIV–XVI asrlar)da ilmiy va falsafiy dunyo-qarashning o'sishi, iqtisodning yuksalishi avval lotin, keyin yunon tilidagi atamalarning ko'payishiga olib keldi. Lotin tili o'rta asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlari uchun ilm va maorif sohasida xalqaro til bo'lib o'z ahamiyatini to XVII–XVIII asrlargacha saqlab keldi. Hozirda meditsina, kimyo biologiya, zoologiya, botanika, geologiya, paleontologiya, matematika, fizika, falsafa, ijtimoiy-tarixiy fanlar, siyosat, san'at va texnikada lotin va yunon tilining leksik elementlari saqlanib qolgan. Uyg'onish davridagi Italiya san'ati Yevropaning boshqa hududlariga ital'yan tilining yoyilishiga olib keldi. Ital'yan atamashunogligidagi musiqa, teatr, me'morchilik, san'at, dengiz va harbiy san'at, bank ishida atamalar boshqa tillarga ko'chdi (Masalan, soprano, kantilena, batal'on, soldat, sal'do va boshqalar). XVII–XVIII asrdagi xalqaro leksikaga golland tilidagi dengiz va kemasozlik atamalari kirib keldi (ver'f, dok va hokazo). Bu esa, o'sha davrda Gollandiyaning dengiz va kemasozlik-

da mashhur bo'lganidan dalolat beradi. Harbiy atamalar frantsuzchadan (mina, garnizon, sapyor), nemischadan (shtab, lager, plan) inglizchadan (miting, lider, import, eksport, sport, boks) kabi so'zlar kirib keldi. XX asrda texnik so'zlardan blyuming, kryoking, tank kabi so'zlar kirib keldi. Oktabr to'ntarishidan so'ng kolhoz, sovxoz, bol'shevik, sovet kabi yangi ruscha atamalar kirib keldi. Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston ulkan tarixiy o'tmishga ega. O'lkamiz ushbu tarixni o'z ajdodlari qo'li bilan uzoq ming yilliklar davomida yaratdiki, bu esa uning insoniyatning paydo bo'lib o'z sivilizatsiyaviy hudud barpo etganidan dalolat beradi. Markaziy Osiyoning ilk davlatlarida tarixiy atamalar og'zaki nutqning shakllanishi hamda Qadimgi Xorazm, Sug'd, Baqtriya hamda turkiy tilning kelib chiqishi bilan shakllandi. Markaziy Osiyo hududida tarixiy atamalarning shakllanishida forsiy (Eron) atamalar ham ta'sir etgan. Bundan tashqari VIII–IX asrlarda arab tilidan o'zlashgan atamalar, garchi ular Markaziy Osiyo atamashunosligida yetakchi, aniqlovchi o'rin egallamagan bo'lsa ham keng qo'llanib kelingan. Ba'zi atamalarning paydo bo'lishi Markaziy Osiyoga XVI–XVII asrlarda ko'chmanchi o'zbeklarning kirib kelishi bilan bog'liqdir. Avvalo Markaziy Osiyo hududida qadimgi davrlardagi atamalarga to'xtalsak. Mil. avv. IX–VIII asrlarda O'zbekiston hududida ilk temir asriga o'tish boshlangan. Temirning xo'jalikda keng qo'llanishi natijasida hunarmandchilik, savdo taraqqiy etib, ilk shaharlar, davlatlar vujudga kelgan. Davlatlar vujudga kelishi mil. avv. VII–VI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda O'zbekiston hududida sug'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massaget kabi elatlar yashaganlar. Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida dehqonchilik bilan shug'ullangan ko'plab aholi istiqomat qilgan. Yozma manbalarda bu hudud Sug'da («Avesto»da), Sug'uda (Behustun yozuvlarida), Arrian, Kurtsiy Ruf, Strabon asarlarida Sug'diyona deb nomlangan. Bu hududda yashagan aholi sug'diylar deb atalgan. Ularning o'z yozuvlari hamda tili ham mavjud bo'lgan. Amudaryoning quyi oqimida yashagan o'troq dehqon elatlari xorazmliklarning yurti Xvariazm («Avesto»da), Xvarizmish (Behustun yozuvlarida), Xorasmiya (Arrian, Strabon) asarlarida yozib qoldirilgan. Sug'diylarning eng yaqin qo'shnilari baqtriyaliklar bo'lib, ularning yurti Surxon vodiysi, Afg'onistonning shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan. Yozma manbalarda u Baxdi

(«Avesto»da), Baqtrish (Behustun yozuvlarida) deb nomlangan. Yunon-rim mualliflarining asarlarida Baqtriana yoki Baqtriya deb atalgan.

Massagetlar–Kaspiyorti va Orol dengizi yaqinida va Sirdaryoning quyi oqimida mil. avv. VI–IV asrlarda yashagan qabilalar guruhining umumiy nomi. Massagetlar haqida fanda har xil qarashlar mavjud. Ayrim olimlarning fikricha, Massagetlar nomi «muso» – «baliq» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, baliqxoʻrlar maʼnosini bildiradi. Keyingi tekshirishlar natijasida massagetlarning mae, saka va ta soʻzlaridan iborat boʻlganligi va saklarning katta uyushmasi degan maʼnoni bildirishi aniqlangan. Yunon tarixchisi Gerodotning taʼriflashicha, massagetlar piyoda va otda jang qilganlar, otlarning koʻk-raklariga sovut kiydirganlar. Massagetlar oʻz podshosi Toʻmaris boshchiligida eron bosqinchilariga qarshi kurashganlar. Mil. avv. VI asrda ular oʻz yerlarini boshqa qabilalar hujumidan himoya qilish maqsadida harbiy qabila ittifoqiga birlashganlar. Saklar – miloddan avvalgi I ming yillik va milodning boshlarida Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonning shimoliy-sharqiy hududlarida yashagan chorvador qabilalar. Qadimgi fors manbalarida saklar uch guruhga boʻlinganligi koʻrsatilgan:

- 1) saka – xaumovarka;
- 2) saka – tigraxauda;
- 3) saka – tiaytaradarayya.

Saklar forslar armiyasi tarkibida yunon-fors urushlarida qatnashgan. Aleksandr Makedoniyalik, soʻngra salavkiylar oʻzlarining Markaziy Osiyodagi mulklariga xavf solgan saklarga qarshi kurash olib borganligi manbalarda qayd qilingan. Mil. avv. II asr oʻrtalarida saklar boshqa koʻchmanchi qabilalar bilan birga Parfiya podsholigi yerlariga bostirib kirganlar. Ammo, ular qattiq qarshilikka uchrab Darangʻiyonga siqib chiqarilgan. Saklar Darangʻiyonada oʻtroq joylashganligi uchun unga Sakiston, yaʼni Saklar mamlakati deb nom berilgan.

Day-mil. av. V–IV asrlarda Sirdaryoning quyi oqimlari atrofida yashagan sak (shak) qabilalaridan ayrim manbalarda ularning daxlar, toxarlar deb ham atashgan. Spitamen Aleksandrga qarshi kurashish uchun oxirgi marotaba day qabilasidan qoʻshin toʻplagan. Mil. av. IV asr oxiri – III asr boshlarida Sirdaryoning oʻrta va quyi oqimida yashagan saklarning

Qang' davlati vujudga keldi. Keyinchalik daylarning Qang' davlatiga kirgan qavmlar ittifoqi siqib kirishga majbur bo'lishgan. Mil. av. gi 250 yilda daylar mahalliy Baqtriya aholisi bilan birgalikda Baqtriyani salavkiylardan ajratib oldilar va yangi davlatda asos soldilar. Shundan so'ng bu o'lkaning nomi Toxariston deb atala boshlagan. Markaziy Osiyodagi davlat birlashmalari shakllanmasdan oldingi davr harbiy demokratiya – davlatga o'tish davrining boshqaruv shakli bo'lib, uni harbiy qabila boshliqlari boshqar-ganlar «Avesto» jamiyatining asosini katta patriarxal oila tashkil etgan. U «nmana» deb atalgan. Shunday bir necha urug' jamoasi vis deb atal-gan. Varzana deb esa, hududiy qo'shnichilik jamoasining, qabilalar jamoa-si esa – zantuni tashkil qilgan. Yuqoridagi qabilalarning barchasi etnik jamoani tili, urf-odati, diniy e'tiqodi jihatdan uyushgan kishilar guruhini tashkil etgan.

Satrap – viloyat boshlig'i bo'lib, u cheklanmagan vakolatlarga ega edi. Mil. avv. IV asrning oxirlarida Markaziy Osiyoga Makedoniyalik Aleksand ning yurishi boshlanadi. Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlari-ning harbiy san'ati yuqori darajada bo'lgan. Xanjar «akg'inak» atalgan, jangovor bolta «sagiris» deb nomlangan. Maroqanda – Samarqandning yunoncha nomi. Mil. av. gi VII–VI asrlarda Maroqanda o'rnida mudo-faa devorlar bilan o'ralgan qishloq bo'lgan. Yunon tarixchilari Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf, Strabonning ma'lumotlariga ko'ra mil. avv. 329 yili-da Makedoniyalik Aleksandr Sug'diyona poytaxti Maroqandni zabt etib, vayron qilgan, so'ngra o'zining harbiy garnizoni uchun qal'ani qayta tiklagan. Sug'diylar Spitamen boshchiligida bu bosqinchilarga qarshi kurashgan, qo'zg'olon bostirilgach, makedoniyaliklar Maroqandni yana vayron qilishni buyurgan. Maroqand keyinchalik Semizkent, Samarqand nomini olgan.

Yuechji – ulkan ko'chmanchi qabila bo'lib, eramizdan avvalgi II asr o'rtalarida Tyan'shan tog'lari G'arbiydan Dun'xuandan sharqqa tomon Labnor ko'ligacha bo'lgan hududda, hozirgi Xitoyning Gan'su provint-siyasi hududlariga to'g'ri keladi. Yuechjilar haqida ma'lumotlar. Qadim-gi Xitoy yozma manbalari (Ban Gu, Sima Szyan')da uchraydi. Yuechji-lar Kushon podsholigi tizimida katta rol uynagan. etnik tarkibi haligacha o'rganilmagan (Sharqiy eronliklar, hindo-yevropaliklar, turklar). Yuech-jilar tili Baqtriya shaharlaridan va qabilalarining nomlaridan bo'lak saq-

lanib qolmagan. etnik qiyofalari Holchayondagi skulpturalarda, tangalarda va boshqa yodgorliklarda saqlanib qolgan.

Qang'li-turkiy qabilalar uyushmasi Orxun-Enasoy yozuvlarida «kanxaras» deb atalgan, xitoy manbalarida Qang' davlati Qang'yuy deb atalgan. Qang'lilar mil. avv. III asr oxirlarida Sirdaryo bo'ylarida yirik Qang' davlatini tuzganlar poytaxti – Qang'dez bo'lib, mil. av. III asrda asos solingan. Xitoy tarixchilari bu shaharni Bityan deb atashgan. X asr oxirlarida ularning katta bir qismi shimoliy-g'arbga siljib, emba va Ural (Yoyiq) daryolari oralig'ida joylashgan. XI asrda ularning ko'pchiligi Kichik Osiyo, Bolgariya va Vengriya yerlariga o'tib mahalliy aholiga, ayrim guruhlar esa Volga bo'ylariga kelib boshqird, tatar xalqlariga qo'shib kelgan. XI asrning oxiri- XII asrning boshlarida Qang'lilarning katta guruhi Sirdaryo bo'ylariga qaytib kelganlar. O'rta asrlarda qang'lilar Markaziy Osiyo davlatlarining ichki siyosatida faol ishtirok etganlar. Qang'lilar yarim o'troq holda yashab dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Ular bir necha urug'larga bo'linishgan Jumladan, sariq-qang'li, qora-Qang'li, qizil-Qang'li, bobo-Qang'li, olmish-qang'li, bo'ka-qang'li va hokazo. Chokar – Markaziy Osiyoda ilk feodalizm davrida feodallarga qarashli bo'lgan qurollangan yigitlar guruhi.

Ixshid – Sug'd hokimlarining nasabi, unvoni. Tarixiy ma'lumotlarga Sug'd arab halifaligi tomonidan istilo qilingunga qadar bu erda 13 ixshid hukmronlik qilib turgan. Bo'dun- chorvador aholi, qora bo'dun – qora xalq. Ilk O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlarining o'rnatilishi bilan ilk o'rta asr shaharlari vujudga kela boshladi. Bu davrda ayrim markaziy shaharlarining tashqi devorlariga tutashgan joylarda hunarmandchilik mavzeleri paydo bo'ladi. Atrofi devor bilan o'ralmagan bu istehkomsiz mavzellar manbalarda «rabot» nomi bilan eslatiladi. Keyinchalik, rabotlar ham devor bilan o'rab olinadi. Rabotlarda hunarmandchilik mahallalaridan tashqari savdogarlar, o'zga yurtlardan kelgan musofirlar uchun karvonsaroy, bozor, ibodatxona va daxmalar qad ko'taradi.

Shunday qilib, shaharlar yonboshida rabodlarning qad ko'tarishi bilan ilk o'rta asrlarda ular uch qisimli bo'lib qoladi. Uning podshoh qasri joylashgan qismi ark, ichki shahar, shahriston deb yuritiladi. Shaharning uchala qismi ham alohida – alohida devorlar bilan o'rab olinadi. Ularning

bir nechta darvozalari bo'lgan. Manbalarda ta'rif etilishicha, VIII asrda Buxoro besh qismidan iborat bo'lib, u besh qator devorlar xalqasi bilan o'ralgan edi. Shahar devorlari bo'ylab oqib o'tgan anhor xandaq vazifasini bajargan. Ilk o'rta asrlarda shahar va qishloq aholisi naf deyilgan. Ijtimoiy jihatdan u bir nechta tabaqaga bo'lingan. Mulkdorlar ozod, shahar hunarmandlari ozodkor, ziroatkorlar kashovar, xizmatkorlar korikor, mut'e qo'shchilar kadivar, qul va cho'rilar: erkaklar bantak va ayollar do'ya deb yuritilgan. Aslzoda- ozodlar tabaqasiga podshoh, mahalliy hukmdorlar va feodal dehqonlar kirgan. Bulardan tashqari, Sug'dda ibodatxonalar va ularning tasarrufida mulk va yerlar bo'lgan ibodatxonlar vag'n, uning bosh ruhoniy mulozimi, ya'ni kohini vag'npat deb yuritilgan. Kohinlar tasarrufidagi yerlar esa, vag'nze deb atalgan. O'rta asrlar tushunchasini mazmunan boyitgan feodalizm – kishilik jamiyati taraqqiyotida V asr oxiridan va XVII asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Feodalizm o'z taraqqiyoti yo'lida uch bosqichni bosib o'tdi. Feodalizm genezisi (V asr oxiridan XI asrgacha), rivojlangan feodalizm (XI–XV asrlar), so'nggi feodalizm (XVI asr va XVII asrning birinchi yarmi). Jahonning ayrim mintaqalarida feodal munosabatlari saqlanibgina qolmay, balki uning hukmron mavqei keyingi davrlarda ham davom etdi va endi uning mazmuni (kishilik jamiyati tarixi masshtabida) uning o'sib borayotgan darajasi bilan emas, balki maydonga kelayotgan va tobora mustahkamlanib borayotgan kapitalistik munosabatlarning darajasi bilan belgilanadigan bo'lib qolgan edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy mavzudagi atamalar

Obrok – feodal yer rentasining ikki formasini ya'ni mahsulot (natura obrogi) va pul (pul obrogi) shakllarini bildirgan atama. Bu ikkala shakldagi obrok ham dehqon xo'jaligida ishlab chiqariladigai qo'shimcha mahsulotning (yoki uning pul ekvivalentining) feodal tomonidan o'zlashtirilishini bildiradi.

Al'menda – germanlarda o'rta asrlarda qishloq jamoalarining a'zolari umumiy foydalanadigan yer-mulklari (o'tloqlar, o'rmonzorlar, xaydaladigan erlar). Al'menda – mulklari qishloq jamoalari asoratga solinganidan keyin ham saqlanib qoldi. XI–XIII asrlarda Al'menda ancha

qisqardi, chunki aholining o'sishi va boshqa sabablarga ko'ra Al'menda hisobiga yerlar bo'lib berildi. Bundan tashqari feodal Al'mendani yakka o'zi boshqarishga, uni o'z domeniga qo'shib olishga intildi. Krepostnoylik qishloqlariga tovar-pul munosabatlari kirib kelishi bilan Al'mendaning ahamiyati oshadi, u shiddatli sinfiy kurash ob'ektiga aylanadi Al'menda uchun kurash XIV–XVI asrlarda barcha dehqon qo'zg'olonlarida katta rol o'ynaydi. Kapitalistik munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi al'mendadan foydalanishda tub burilishni keltirib chiqardi. Angliya lordlari uni uz mulkiga aylantirdilar, G'arbiy Yevropaning boshqa mamlakatlari Al'menda bo'lib yuborildi, bunda feodal – pomeschik uning katta qismini qo'lg'a kiritib qoldi.

Benefitsiy – G'arbiy Yevropada ilk o'rta asr davrida saroyda, ma'muriy organlarda ko'pincha harbiy sohada muayyan xizmat qilish formasi. Shu sababli odatda benefitsiy deganda yerga harbiy (ritsarlik) xizmatini o'tash sharti bilan egalik qilish tushuniladi (bu prekariydai farqli o'laroq, asosan, dehqonchilik tipidagi yer egaligi edi). Benefitsiy umrbod beriladi. Yer olgan kishining belgilangan shartlari bajarmasligi yer egasining benefetsiyini bekor qilishga sabab bo'lardi. Yer olgan kishi vafot etganida benefitsiy yoki yangi shartnoma asosida vorisga o'tkazilardi yoki ilgarigi yer egasiga qaytarib berilardi. Benefitsiyning tarqalishi Franklar davlatidagi agrar tuzumda VIII asrda ro'y bergan o'zgarishning ifodalaridan biri bo'ldi. Mulknini tamomili in'om qilish o'rni «benefitsiy» sifatida umrbod foydalanish uchun sovg'a qilish egalladi. Benefitsiyning vujudga kelishi franklar jamiyatining ijtimoiy strukturasi katta ta'sir ko'rsatdi. Benefitsiyning harbiy qatlami vujudga kelib, u yerga eglik qilish jihatidan qirol hokimiyatiga bog'langan holda yangi ijtimoiy zahirani yaratdi. Benefitsiy qirollargina emas, balki boshqa yirik feodallar ham berardilar. Natijada ayrim feodallar o'rtasida yerga egalik huquqi sohasida aloqalar vujudga keldi. Shu tarzda benefitsiy franklar davlatining mustahkamlanishiga xizmat qildi. Ammo, feodallashish jarayonida benefitsiy uz mulklarini merosga aylantirishga tobora ko'proq intiladilar, bo'nga birinchi galda yirik yer egalari muyassar bo'ldi. XI–XII asrlarda benefitsiyning umrbod beriladigan in'omdan merosga qoldiriladigan feodal mulkiga – feodga aylanishi feodallashish jarayonining muhim tomonlaridan biri bo'ldi. Ilgari qirol bilan chambarchas bog'langan benefitsiy egalari tobora mustaqil bo'la borib, ularning ko'pla-

ri tamomila erkin bo'lib olishdi. Yirik benefitsariylar qioldan qudratliroq bo'lib qoldilar, bu esa qirol hokimiyatining zaiflashuviga va davlatning bo'linib ketishiga sabab bo'ldi. Karl Martell boshlagan hamda uning o'g'li Pipin va nabirasi Buyuk Karl davom ettirgan agrar to'ntarishning natijasi ana shunday bo'ldi. Benefitsiyga Rusda «milost» (ehson), keyinchalik pomest'e, Vizantiyada – proniya, arab davlatlarida iqto, Hindistonda- jagir atamalari taxminan muvofiq keladi. Katolik cherkovida benefitsiy – cherkov lavozimini va u bilan bog'liq bo'lgan daromadlarni bildiradi.

Gayda – Angliyada ilk o'rta asr davrida bir oilaga tegishli jamoa yeri. Yerning o'rtacha hajmi 120 akr haydalgan yerni tashkil qiladi (1 akr – 0,4 gektarga teng). Haydalgan yer bilan bir qatorda gaydaga yaylov erlari ham kirardi.

Ganza – XIV–XVI asrlarda (rasman 1669 yilgacha) Lyubek boshchiligida bo'lgan shimoliy nemis shaharlarining savdo ittifoqi ganzadir. XI-XII asrdagi nemis savdogarlarining vorisi sifatida vujudga keldi. Nemis savdogarlari Shimoliy va Sharqiy Yevropa savdagorlar nisbatan zaif bo'lgan sharoitda nemislarning slavyan mamlakatlarining mustamlakaga aylantirish sohasidagi muvaffaqiyatlardan foydalanib va nemis ritsarlik ordenlarining harbiy kuchlariga olgan edilar. XIII asrning boshlarida Shimoliy nemis shaharlarining ayrimguruhlari, boshqa mamlakatlarda savdo imtiyozlarini qo'lga kiritdilar va u yerda (avvalo Golland, Visbi shahrida) o'z nazoratlarini asosladilar, bu yerdan nemis savdogarlari Novgorodga kirib keldilar. XIII asrning ikkinchi yarmida Shimoliy va Boltiq dengizlari o'rtasida qo'ltiq bo'ylab o'tadigan yo'lni himoya qilish va birgalikda pul chiqarish uchun Lyubek, Gamburg, Lyunenburg, Shtral'zund va boshqalar o'rtasida bitim tuzildi. 1356 yili «nemis Ganzasi» degan nomni olgan va 70 shaharni birlashtirgan ittifoq 1367 yilda shaharlarning birinchi umumiy s'ezdida uzil-kesil shakllandi. Ganza shaharlarida iqtisodiy hayotning negizi asosan savdoda bo'lib, hokimiyat savdogarlar patriksasi qo'lga o'tgan edi. Ittifoq chet ellar bilan savdoni monopolizatsiya qilibgina qolmay, patriksiyalar hukmronligini ham saklar edi. Ganza mustaqil siyosiy organizmga aylanib, Germaniya imperiyasining tarkibiy qismlaridan bo'lib qoldi. Uning qudrati Daniya bilan urushda (1367–1370) namoyon bo'ldi, bu urush Ganzaning to'la g'alabasi bilan tugallandi. Bu – Ganzaning eng ravnaq topgan davri bo'ldi. Uning tanazzuli XV asr o'rtalarida boshlandi.

Ganza shaharlarida cex hunarmandlarining qo‘zg‘olonlari ko‘tarildi. Ganza ning ayrim a‘zolari o‘rtasida raqobat kuchayib, bu narsa Germaniyadagi mustahkamlanib olgan hududiy knyazlarga Ganza shaharlarini buy sundirishga imkon berdi, natijada turli viloyatlardagi Ganza shaharlari o‘rtasida aloqa zaiflashib qoldi. Angliya va Niderlandiyada sanoat va savdoning o‘sishi ularga Ganzada ustunlik qilish imkonini yaratdi. XV asr oxirlarida markazlashgan Rus davlati tarkib topayotgan davrda Ivan III Novgorodni Moskvaga qo‘shib olgandan keyin (1478) Ganza savdogarlari shahardan haydab chiqarildi. Amerikaning va Hindistonga savdo yo‘lining ochilishi, jahon savdosi markazlarining Atlantika okeaniga ko‘chishi Ganzaga uzilkesil zarba berdi. Ganza shaharlarining oxirgi s‘ezdi 1669 yilda bo‘ldi.

Sherif – frank davlatida graf qanday funktsiyalarni (harbiy, sud, ma‘muriy-politsiyachilik) ado etgan bo‘lsa, Angliyada shunday funktsiyalarni ado etuvchi mansab. Sherif grafliklarning boshida turgan. Qadimgi aslzodalar nasabi bo‘lgan – el‘dermen bilan bir darajada bo‘lib qoladi.

Shlyaxta -Polshada dvoryanlik. Dastlab shlyaxta – bu ritsarlik, oliy feodallarning quyi guruhi (yirik oliy feodallar – majnovladlardan farq qiladigan). XIV–XVI asrlarda shlyaxtaning sosloviya sifatida shakllanish jarayonida oliy feodallarning quyi tabaqasi shlyaxtalari uning tarkibiga kirmay qoldi. Lekin, uning tarkibiga magnatlar (oliy feodallarning Yuqori tabaqasi) kiritilgan edi XVI–XVIII asrlarda Pol’sha-Litva davlatlarida -Rech’-pospolita shlyaxta respublikasining davlat tuzumi qaror topadi. XVIII asrda Pol’shaning bo‘linishidan so‘ng shlyaxta qoidaga ko‘ra rus dvoryanlari bilan tenglashtiriladi. Rech’-pospolitada, ayniqsa, Pol’shaning Avstriyaga o‘tgan qismida shlyaxtaning oliy unvoni (graf, baron va boshqalar)ni olish keng yoyiladi.

Paj – O‘rta asr Yevropasida aslzoda senyorlar, yirik feodallarga xizmat qiluvchi dvoryan yigit, mahram.

Paladin – O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada podsho saroyidagi amaldor, to‘ra.

Magnatlar – G‘arbiy Yevropada, ayniqsa, feodal-krepostnoy Pol’shasi va Vengriyadagi yirik feodallarning nomi.

Patariya – XI asrda Shimoliy Italiyada, ayniqsa, Milanda shahar aholisining kambag‘allashib ketgan tabaqasining xalq harakati. Pataraiya

Shimoliy Italiya shaharlarida kommunalarning tashkil bo'lishiga yordam qildi.

Perlar – Frantsiya va Angliyada oliy aristokratlar namoyandalarining unvoni. O'rta asrlarda kelib chiqqan, qirol hokimiyatining kuchayishi bilan perlarning ahamiyati pasayib ketdi, perlar unvoni Fransiyada 1789 yilda bekor qilindi. Angliyada perlar unvoni saqlanib qoldi. Buni meros qilib olgan shaxslar lordlar palatasida qatnashish huquqiga ega bo'ldilar.

Diniy mavzudagi tarixiy atamalar

IV–VI asrlarda German xalqlarining buyuk ko'chishida g'oyat muhim rol o'ynadi, bu ko'chish natijasida G'arbiy Rim imperiyasi hududida varvarlar qirolliklari tashkil topdi. I–II asrlarda paydo bo'lgan Xristian dini uchta asosiy tarmoqqa bo'linib ketdi: Pravoslav, Katolik va Protestan diniy mazhablari. 1054 yilda Xristian cherkovi Sharqiy (provoslav) va G'arbiy (katolik) cherkoviga bo'lindi.

Pravoslav dini – asosan greklarda, bolqon slyavanlarida, ruminlarda tarqalgan va Rossiyada chor samoderjaviyasi davrida davlat dini bo'lib hisoblangan. Xristian dini asoslari IV–XI asrlar o'rtasida Vizantiyada rivojlandi. (Pravoslav cherkovining grek-Sharqiy nomi ham shundan kelib chiqqan.)

Katolik dini-yoki Rim katolik cherkovi asosan janubi -G'arbiy va Markaziy Yevropa hududida, Markaziy va Janubiy Afrika aholisi o'rtasida tarqalgan. Xristian dini mazhablaridan biri katolik dinining markazi Rim cherkov boshlig'i esa, Rim episkopi, yerdagi papadir. Katolik dini XI asrga kelib mustaqil diniy tashkilot sifatida shakllandi, Katolik dini o'zining o'rta asrlar tarixida ommani ezish, xurofot tarqatish, dunyoviy bilim sohiblarini quvg'inga solish (Galileyni badkor qilish, J. Brunoni gulxanda yondirish) quroli bo'lib xizmat qilib keldi.

Papalik ital'yan savdo respublikasi bilan ittifoqlikda salb yurishlariga rahbarlik qildi. Katta pul zaxiralariga ega bo'lgan rim-katolik cherkovi (ayniqsa monastirlar) o'rta asrlarda yirik sudxo'rlarga aylanib ketishdi. O'rta asrlardaek bir qator mazhablarga kirib borgan va keyin rim katolik cherkoviga qarshi karatilgan xaraqatlar ayrim Shimoliy va G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan katolik dinini siqib chiqarishga olib keldi. Cherkov

bu ommaviy xarakatlarga qarshi ayovsiz reaksiya bilan javob berdi. Katolik cherkovi XIII asrda frantsiskanlar va domtsnikanlarni hamda XVII asrda esa – qattiq «harbiy» intizom asosida tashkil etilgan iezutlar ordeni kabi monarxlarning kurashchan ordenlarini ishga solib, barcha kuchlarni kurashga safarbar etdi.

Kardinal – katolik chekovining oliy mansabdori. Kardinallar majlisi – konklav papani saylaydi.

Kostel – katolik cherkovining nomi.

Bulla – muhr bosilgan davlat va cherkov aktlarini tantanali shaklda e’lon qilishning G’arbiy Yevropadagi eskicha nomi. Bu nom hozir ham papa hokimiyatidan chiqadigan tantanali aktlarga nisbatan qo’llaniladi.

Nuntsiy – papa elchisi. Bir qator mamlakatlarda nuntsiy diplomatik korpusning boshlig’i hisoblanardi.

Protestantizm – XVI asrdagi reformatsiya natijasida Rim – katolik cherkovidan ajralib chiqqan lyuteranlik, kal’vinizm kabi xristian diniy ta’limotining umumiy nomi. Protetantlar deb dastlab Shpeyerda (1528) chakirilgan german imperiyasi seymi a’zolarining reformatsiya harakatiga qarshi kurash haqidagi ko’pchilikning harakatiga qarshi norozilik bilan chiqqan (protest) ozchilik qismini atashgan edi. Protestantlar Austurdagi (1530) reyxstagda Martin Lyuter tomonidan tuzib chiqilgan yangi liniy ta’limot asosini taqdim etdilar. Keyinroq, reformatsiyaning hamma tarafdorlari Protestantlar deb ataladigan bo’ldi. Shvetsariyada, Frantsiya va Pol’shada Svingli va Kalvin tarafdori yoki reformatorlar ham Protestantlar deb atalgan. AQSH, Angliya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda XVI–XVII asrlarda protestantizm negizida vujudga kelgan baptistlar, menonitlar, kvakilar va sho’nga o’xshash juda ko’p sektalar mavjuddir.

Indul’gentsiya – o’rta asrlarda katolik cherkovi ish praktikasida qo’llanilgan pul barobarida yoki cherkov oldida ko’rsatilgan xizmatlari uchun ayb va gunohlarini kechirish va cherkov jazosidan ozod etilganligi haqida beriladigan yorliq. Indul’gentsiya berish bilan uni sharm-hayosizlarcha sotish xalq ommasining g’azabini keltirdi va bu hol reformatsiya o’qtazishga qaratilgan harakatning kelib chiqishiga asosiy sabablardan biri bo’ldi.

Inkvizitsiya–katolik cherkovida XII asrdan to XIX asrgacha mavjud bo’lgan bid’atchilar ishi yuzasidan ish quruvchi maxsus cherkov sudi. Bu bid’atchilar va antifekdalar xalq harakati qatnashchilarini sud, tergov qi-

lish va jazolash muassasasi sifatida tashkil etilgan. Inkvizitsiya har qanday erkin fikr qiluvchilarga, cherkov va u himoya qilayotgan feodal tuzumning har qanday oppozitsiyasiga qarshi ayovsiz ravishda kurash olib bordi. XV asrning oxirlaridan boshlab faqat bid'atchilarga va yaxudiy'larga ham qarshi qaratilgan davlat qirollik muassasasiga aylandi. Inkvizitsiya, ayniqsa, Ispaniyada xalqqa haddan tashqari jabr o'tkazgan.

Abbat – (bosh ruhoni) boshchiligidagi katolik monastiri. Cherkovning yuqori boshqarish organlari-episkopga yoki papaga buysunadi, abbatga boshqa monastirlar qaram bo'lishi mumkin. Abbat G'arbiy Yevropada VI asrda vujudga kelib, o'rta asrlarda diniy sohadagina emas, balki iqtisodiy va siyosiy hayotda ham muhim rol o'ynadi. U qaram dehqonlarni shafqatsiz ekspluatatsiya qilgan. Abbat o'z tasarrufidagi qishloqlar, yer-suvlar, o'rmonzorlar bilan birga feodal mulki (sen'or hisoblanib), feodal jamiyati tashkilotining mustaqil tarkibiy qismi edi. Reformatsiya davridan boshlab, o'zining ilgarigi ahamiyatini yo'qotgan bo'lsada, katolik mamlakatlarida saqlanib qolgan.

Mitropolit – mamlakatning barcha ierarxlari o'rtasida bosh o'rinda turadigan ayrim episkoplarning oliy diniy unvoni. Hozirgi paytda pravoslav cherkovida ayrim episkoplarning faxriy unvoni.

Priorlar – katolik cherkovidagi ayrim monastirlarning nozirlari.

Pastor – protestant ruhoniysi.

Rekonkista – VIII–XV asrlarda Pirenei yarim oroli xalqlarining arablar va barbarlar tomonidan bosib olingan hududlarini jang orqali qaytarib olishi.

Episkop – xristian cherkovlarida yuqori lavozimli ruhoni. Dastlabki xristian jamoalarida episkop jamoaning boy va e'tiborli kishilaridan saylanardi. Cherkovning xazinachisi bo'lardi. Keyinroq, u oliy martabali ruhoniyga aylandi. Pravoslav cherkovida episkop davlat hokimiyati tomonidan tayinlana boshladi.

Klermon yig'ilishi – 1095 yil noyabrida papa Urban II tomonidan Klermon shahrida chaqirilgan cherkov yig'ilishi. Bu yig'ilishda cherkov yerlari va boyliklarni egallab olish uchun turk – musulmonlarga qarshi yurish tashkil etishi haqida qaror qilingan edi.

Salib yurishlari –G'arbiy Yevropa feodallarining 1096–1270 yillarda katolik cherkovi tashabbusi bilan Falastindagi xristian Avliyolarini musul-

monlar dini hukmronligidan ozod qilish uchun olib borilgan bosqinchilik yurishlari.

Sholastika – oʻrta asrlarda feodal jamiyatning diniy mafkraviy falsafasining umumiy nomi, sholastika xristian dini aqidalariga asoslangan.

Puritanlar – Angliyada XVI asrning ikkinchi yarmida kelgan anglichan cherkovini katolitsizm qoldiqlaridan tozalashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan diniy harakatning qatnashchilari. Puritanlarning diniy gʻoyalari kalʼvinizmning kuchli taʼsiri ostida shakllandi. Puritanlarning sinfiy negizi:

- 1) boy savdo burjuaziyasi;
- 2) burjualashgan yer egalari (yangi dvoryanlar) tashkil etdi,

Gadoylik ordenlari – katolik monarxlari ordenlari. Papalikning faol yordamida kambaralchilikni targʻib qilish va aʼzolarining taqvodorlik bilan hayot kechirishini namuna qilish orqali tez-tez tarqalib borayotgan eretiklikni bartaraf etish mumkin degan maqsad bilan XIII asrning birinchi yarmida tashkil etilgan edi. Gadoylik ordeni monarxlari uz nizomiga muvofiq shaxsiy mol-mulkka, uy-joyga ega boʻlmas va sadaqa orqaligina kun kechirar edilar. Kambagʻallikda yashash ahdigga hamma vaqt ham rioya qilinavermas edi. Gadoylik ordeni hozirgi kunda ham mavjud, ammo ular faqat nomigagina «gadoylik qiluvchilar» xolos. 1964 yilda gadoylik qiluvchilarning ordenining barcha koʻrinishlarida 79.133 kishi bor edi.

Anafema – cherkovdan haydash va laʼnatlash, Anafema-xristianlar cherkovi oʻrta asrlar mobaynida va yangi davrda baʼzi ijtimoiy tafakkurga qarshi kurash uchun qoʻllangan ijtimoiy va diniy terror quolidir. Masalan, Rim papalari 1846 yildayok kommunistik fikrlarni anafema qildilar, soʻngra buni bir necha bor tasdiqladilar. Rossiyada provoslaviya cherkovi dehqon qoʻzgʻolonlarining yoʻlboshchilari Bolotnikov, Razin, Pugachyovni anafema qildi.

Messa – katolik lituriyasi (xristianlarning ertalab yoki peshin chogi cherkovda qiladigan ibodati).

Monarxomaxlar – XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asr boshlarida Gʻarbiy Yevropada qirol absolyutizmiga qarshi chiqqan yozuvchi pulitsistlar. Monarxomaxlar podsho hokimiyatining ilohiy yoʻl bilan kelib chiqqanligini inkor etganlar va suverenitet xalqqa tegishli boʻlib va u shartnoma boʻyicha hokimiyatni monarx ixtiyoriga beradi va u

shartnomani buzgan taqdirda uni taxtdan ag'darib tashlashi yoki uni hatto o'ldirish hukmiga ham ega deyishar edi. Monarxomaxlar «xalq deb xalq ommasini emas, balki yo burjuaziyani, yoki dvoryanlarni tushunishar edi».

Monaxlik – ko'pchilik dinlarda ruhoniylarning alohida bir ko'rinishi. Monaxlik qiluvchilar, ya'ni monaxlar o'zlarining oldiga asketik maxsus cheklashlar, jumladan, oila qurmaslikka o'xshash cheklashlar qo'yadi, Monaxlik hamisha oliy cherkov ierarxiyasining buyuk tayanchi bo'lgan. Cherkov va davlat homiyligi monaxlikning rivoj topishiga va monastirlik jamoasi -dastlab erlar, keyinchalik xotin-qizlar, hatto aralash monastirlarning kelib chiqishiga olib keldi. Yirik monastirlar abbatlik deb ataladigan bo'ldi. Monastirlar cherkovga feodal tuzumidan ancha ta'sirchan kuchga ega bo'lgan qattiq intizom o'rnatilgan apparat, uyushgan kuchlarni berdi. Feodal jamiyatning hukmron sinfi tomonidan qo'llab-quvvatlangan monastirlarning ta'siri va boyligini oshirishga, ularning qo'llarida katta yer mulklari va krepostnoylarning to'planib qolishga yordam berdi. Ular Rossiyada shunday Sergiyevlarning daromadi XVII asr boshlariga kelib butun Moskva davlatining barcha daromadini uchdan bir qismini tashkil etgan. XVIII asrda esa, 400 monaxga 625 ming krepostnoy dehqon to'g'ri kelar edi. G'arbiy Yevropa o'rta asrlar cherkovi monahlikni rivojlanishini har taraflama rag'batlantirar va papa abslyutizmning tarafdorlari sifatida chindan monahlik ordenlarining jumladan, frantsiskanlar va dominikanlar ordenining kelib chiqishiga har taraflama imkon bergan edi. Reformatsiya davrida ayrim manlatatlarda burjuaziya yoki knyaz', hokimiyati protestantizm bilan birlashib monahlikni yo'q qilib yubordi, monastir' erlari va mulklarni musodara qildi. Kontrrformatsiya tiklashda katta rol o'ynaydi.

Moriskilar – arablar Ispaniyadan quvib chiqarilgandan so'ng Ispaniyada qolib ketgan va xristianlikni majburan qabul qilgan, ammo yashirin ravishda islom diniga siginib yuradigan arab aholisining bir qismi. Ular doimo oqsuyaklar va cherkov hokimiyati nazoratida bo'lishar, inkvizitsiya ta'qib qilib turar edi. 1609–1610 yillarda moriskilar Ispaniyadan quvib yuboriladi. Ularning ko'pchiligi Shimoliy Afrikaga kelib joylashadi. Bu Ispaniya iqtisodiga katta zarba bo'lib tushgan edi.

Siyosiy-harbiy mavzuga oid atamalar

Munitsipiylar – Rim imperiyasidagi o'zini o'zi boshqaradigan shahar okrugi. Xalq, majlisi, shahar senata va a'zolari dekurionlar yoki kuriollar deb ataladigan shahar kuriyasi. Munitsipiylarning organlari bo'lib hisoblangan.

Kopun – Skandinaviya xalqlarida dastlab harbiy yo'l boshchi, feodalizm rivojlangandan so'ng esa podsho.

Korteslar – feodal Ispaniyasi va Portugaliyada soslovieli vakillar majlisi. Korteslar degan nom birinchi marta 1137 yil Kastiliyada uchragan. Ispan korteslari ham G'arbning barcha soslovieli vakillar muassasasi kabi hamma aholining manfaatlarini emas, balki faqat dvoryanlar, ruhoniylar manfaatini ifoda etgan. Shaharlar vakillik qilish huquqini ancha kech oldi. Korteslar davlat hayotiga doir barcha muhim ishlarni o'z qo'llariga olganlar va qirollarning qattiq nazorati ostida tutganlar Absolyutizmning rivojlanishi bilan korteslar batamom barbod bo'lgan.

Korrexidorlar – Ispaniya va uning mustamlakalaridagi ma'muriy va sud lavozimi. XIII asrda Avstriyada ta'sis etilgan.

Korsarlar – urush vaqtida hukumat ijozati bilan dushmanning savdo kemasini bosib olgan, xususi dengizchilar.

Ministeriallar – o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada qirol hamda ruhoniy va oqsuyak feodallarning xo'jalikva ma'muriy xizmatlarini ado etuvchi xizmatkorlar.

Marka – 1) German territorial yoki qishloq jamoasi. Jamoa dehqonchiligida yerlarga ishlov berish individual tartibda olib borilgan: hovli qo'rg'onlari xususi mulkka ajratib berilgan: qolgan yerlar esa hovli-joylarga qarab taqsimlab olingan, chetdan yoki devor bilan o'rab olingan, uni buzish esa jarima to'latishi bilan jazolangan. Bunday tarmoqlarga: haydaladigan yerlar, uzumzorlar, ba'zan o'tloq va o'rmonlar kirgan;

2) O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada maxsus harbiy va ma'muriy buklarga ajratilgan bo'lib, markgraflik uz maydoni jihatidan graflikda anchagina katta bo'lib, markgraflik boshida turgan graflar ko'pincha harbiy boshliqlardan bo'lgan. Chunki ular bu chegara viloyatlarning mudofaasi haqida ham qayg'urishlari kerak edi.

Ritsarlik – oʻrta asr Gʻarbiy Yevropasida harbiy yer egaligi sosloviesi. Feodal munosabatlari shakllana borgan sari ritsarlar alohida soslovie sifatida ajralib chiqq boshladi. Uning vujudga kelishi arablar, vengerlar va normanlar hujumidan mudofaa qilish zarurati turilishi tufayli tezlashgan edi. Otlq armiyani tashkil etgan ritsarlikning asosiy sotsial vazifasi eksploatatsiya qilinayotgan dehdonlarning itoatda saqlashga qaratilgan edi. Ritsarlar oʻzlarining senʻorlari boʻlgan ancha yirik feodallardan ularning armiyasida otliq harbiy xizmatni ado etish sharti evaziga olgan pomestʻelarini idora qilar edilar. Ritsarlar XIII asrga kelib harbiy tashkilot xarakterini oldi. Ritsarlar salib yurishlarida faol ishtirok etdilar va bu yurishlar davomida bir qator diniy ritsarlik ordenlari taʻsis etildi. Oʻt otuvchi qurollariing paydo boʻlishn tufayli ogʻir qurollangan ritsar otliq armiyalari oʻz ahamiyatini yoʻqota boshladi

Gertsog – dastavval Qadimiy germanlar qabila zodagonlari saylaydigan harbiy boshliq, ilk oʻrta asr davrida Gʻarbiy Yevropada-qabila knyazi, feodal tarqoqligi davrida -katta hudud egasi. Oʻrta asr oxirlarida va yangi davrda gertsog-Gʻarbiy Yevropada dvoryanlik unvonlaridan biri.

Gyozlar – XVI asrlardagi Niderlandiya burjua revolyutsiyasi davomida:

1) mamlakat erkinligi va din erkinligini Ispaniyadan «qonuniy vositalar» yordamida himoya qilish maqsadida Niderlandiyada 1565 yil tashkil topgan ittifoq aʻzolarining nomi;

2) Niderlandiyaga hukmronlik qiluvchi ispanlarga qarshi quruqlikda (oʻrmon geelari) va dengizda (dengiz gyozlari) kurash olib borgan xalq qoʻzgʻolonchilari – partizanlarning nomi. Dengiz gyozlari katta rol oʻynab, ispan kemalariga hujum qildilar va Ispaniya bilan Niderlandiya oʻrtasidagi dengiz aloqalarini deyarli tamomila toʻxtatishga erishdilar. 1572 yil 1 apredda dengiz gyozlarining Gollandiya orollaridan biriga borib, Bril shahrini egallashlari Shimoliy Niderlandiyaning yangi qoʻzgʻoloniga sabab boʻldi. bu qoʻzgʻolon Ispaniya zulmidan ozod boʻlish bilan tugallandi.

Jakeriya – 1358 yil Frantsiyada dehqonlarning feodallarga qarshi qoʻzgʻoloni. U oʻz nomini «Jakbanom» («Oliy-Jak») lakabidan olgan. Frantsuz feodallari dehqonlarni ana shunday deb atardilar. Oʻsha davrdagi boshqa dehqon harakatlari singari Jakeriyaning asosiy sabablari pul xoʻjaligining rivojlanishi va shu tufayli mehnatkashlar ommasini eksploatatsiya

qilishning kuchayishi bo'lgan. Frantsuz dehqonlari 1347–1353 yillardagi vabo oqibatlaridan hamda Yuz yillik urush olib kelgan umumiy vayronagarchilikdan nihoyatda azob chekar edilar. Bu quzg'olon 1358 yil ko'klamida Pikardiyada boshlanib, butun Shampanni qamrab oldi va Parijgacha etib keldi. Bu qo'zg'olon et'ven Marsel' boshchiligidagi. Parij qo'zg'oloni bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. Jakeriya qo'zg'oloniga Gil'om Kal' boshchilik qilgan dehqonlar harakati uyushmagan holda edi. Dehqonlar qo'zg'olonidan cho'chigan uning sinfiy dushmanlari – feodallar jipslashib, qo'zg'olonni tezda bostirdilar. qishloq aholisi ommaviy qirg'in qilindi. Ammo katta Jakeriya bostirilganidan keyin ham Frantsiyada Yuz yillik urush mobaynida dehqonlar yana 2 marta qo'zg'olon ko'tardilar. Jakeriya so'zi dehqonlar stixiyali qo'zg'olonlarini ifodalovchi so'z bo'lib qoldi.

Sezarepatizm – bir odam qo'lida ikkita oliy hokimiyat: dunyoviy (imperatorlik) va cherkov (papalik) hokimiyatning birlashuvi.

To'sib olish (g'ov tutish) – pomeshchiklar – yer egalari tomonidan dehqonlarning jamoa yerlarini bosib olish protsessi. Bu jarayon feodal qishloqlarga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi bilan bog'likdir. To'sib olishning klassik mamlakati Angliya edi.

Angliyada to'sib olishning boshlanishi XV asrning oxiriga to'g'ri keladi. Bozorda jun narxining oshuvi kunchilikni rivojlantirishga, haydaladigan erlarni ham yaylovga aylantirishga olib keladi va bu hol o'rab olishning kuchayishi uchun bir turtki bo'ldi. To'sib olish orqali yerlarni bosib olishda pomeshchiklar va Angliya qishloqlarining to'q tabaqalari ishtirok etdilar. O'rab olish XVI asrdayoq qishloqlarning kuchli ravishda tabaqalashuviga va kamaralashuv, yersizlanishiga olib keldi. XVIII asrga kelib o'rab olish katta miqyoslarda olib borildi va dehqonlarning oilaviy ravishda yerdan ayrilib qolishga olib keldi. Dehqonlar ommasi To'sib olishga kuchli qarshilik ko'rsatdilar. To'sib olish bir necha bor dehqonlar qo'zg'oloniga olib keldi. To'sib olish Angliyada dehqonlar sinfining batamom bo'linib ketishi va yollanma ishchilar juda katta sinfning vujudga kelishiga olib keldi.

Uniya (lot. – birlashma) – monarxiya davlatining bitta monarx hokimiyati ostida birlashuv formasi. Uniya ko'pincha nomustahkam xarakterda bo'lar, umumiy monarx hokimiyati esa nominal darajada bo'lar edi. Ayrim hollarda bitilgan shaxsiy uniyalar keyinchalik mustahkam birlashuvlarga

yoki davlatning to'la ravishda bir-biriga qo'shib ketishiga olib kelgan edi. Cherkovlar bo'linib ketganidan keyin Rim papaligida provoslav cherkovining bot rol uynashini saqlab qolgan holda, ammo ibodat qilish va marosimlarni o'tqazish ona tilida olib borish sharti bilan provoslav cherkovini katolik cherkovi bilan birlashtirish uchun cherkov uniyalari tuzishga urinishlar ham bo'lgan

Anklav (fr. *enclave* lot. *inclavare* dan – qulflab olish) – davlat hududining yoki davlatlar territoriyasi bilan har tomondan o'rab olingan qismi. Masalan, Leseto davlati JAR hududidagi anklav hisoblanadi. Agar bu qismni boshqa davlat hududi to'la o'rab olmagan bo'lsa va u dengizga tutashsa, bunda ayrim anklav haqida so'z yuritish mumkin

Anneksiya (lot. *annexio* – qo'shib olish) – bir davlatning hududining (yoki uning bir qismining) boshqa davlat tomonidan zo'rlik bilan bosib olinishi, qo'shib olinishi. Xalqaro uyushmaning foydalanuvida bo'lgan yerlarning (ochiq dengiz, uning tubi, antartika va boshqalar) bosib olish ham anneksiya deb karaladi. Anneksiya hozirgi xalqaro huquqni qo'pol buzishdir.

Imigratsiya (lot. *immigrans* dan – joylashgan) – boshqa davlatlar grajdanlarining (immigrantlarning) biron mamlakatta vaqtincha yoki doimiy yashash uchun kelishi. Immigratsiyaga asosan siyosiy va iqtisodiy vajlar sabab bo'ladi. Dunyoning immigrantlar boradigan ko'p mamlakatlarida maxsus immigrantlik kvotalari joriy etilgan. Ana shu kvotalar doirasida chet el grajdanlarining har yilgi oqimi tartibga solib turiladi.

Kazus belli (lot. *casus belli* – aynan urushga barona) urush holati vujudga kelishi uchun bevosita rasmiy sabab. Kazus bellini urushga sabab sifatida urushning keltirib chiqargan xaqiqiy sabablardan farq qilish kerak. Masalan Saraevoda Avstriya ertsgerstsofi Ferdinandning o'ldirilishi 1914–1918 yillardagi Birinchi jahon urushi uchun Kazus belli bo'lgan edi. Urushning haqiqiy sababi imperialistik davlatlarning dunyoni qayta taqsimlash uchun kurashi bo'lgan edi.

Kapitulyatsiya (lot. *capitulatio*, *capitulare* dan – kelishish) – 1) mudofaa qilinayotgan ob'ektni dushmanga topshirish yoki qo'shinning asr tushishi. Kapitulyatsiya odatda kapitulyatsiya bo'lgan davlat zimmasiga siyosiy, iqtisodiy, harbiy va hokazo majburiyatlar yuklash bilan birga qo'shib olib boriladi;

2) So‘zsiz kapitulyatsiya – to‘la maglubiyatga uchragan dushmanning erdagi, dengizdagi va havodagi kuchlarini qolib davlatlar tomonidan unga quyilgan shartlar asosida asirga tushishi va keyinchalik quroqsizlantirilishi. Gitlerchilar Germaniyasining va militaristik Yaponiyaning 1945 yildagi maglubiyati kapitulyatsiyaga so‘zsiz taslim bo‘ladi.

Kart-Blansh (fr. *carte blanche*) – biror shaxs imzo chekib, boshqa shaxsga uni o‘zi istagan mazmunda to‘ldirish huquqi berilgan toza blank. Cheklanmagan vakolat.

Moratoriy (lot. *moratorius* dan-ushtab turuvchi) – ichki yoki tashqi majburiyatlarini bajarilishini uzaytirish. Moratoriy muayyan muddatga yoki alohida holatlar amal qilgan uchun o‘rnatiladi. Moratoriy majburiyatlarigagina taaluqli, qisman maxsus bo‘lishi mumkin. Bank moratoriy – moratoriy turlaridan biri bo‘lib, bunda kredit beradigan muassasalar hukumatning buyro‘ti bilan ma‘lum vaqtga yopib quyiladi. Masalan, Amerika dollarining 1971–1973 yillardagi deval‘vatsiyasi vaqtida G‘arbiy Yevropadagi asosiy valyuta bozorlari bir necha marta yopib qo‘yiladi. Yadro portlatuvchilari moratoriysi moratoriyning asosiy turidir.

Neytralizm – boshqa davlatlar va bir guruh davlatlar bilan o‘zining munosabatida betaraflikni asosiy printsip qilib e‘lon qilgan davlat siyosati (Shveysariya, Turkmaniston).

Neokolonializm – imperialistik davlatlar va monopoliyalarning imperializmning mustamlakachilik sistemasi barbod bulayotgan sharoitda mustamlaka qaramligidan ozod bo‘lgan mamlakatlar ustidan yangi, ancha tadbirli usullar bilan o‘z hukmronligini saqlab qolish va bu mamlakatlar xalqlarini ekspluatatsiya qilishga qaratilgan mustamlakachilik siyosati. Neokolonializm Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan mamlakatlarning haqiqiy mustaqillik (omon harakatiga, bu mamlakatlarda chet el monopoliyalari mulkining natsionalizatsiya qilinishiga iqtisodning davlat sektoriga aylanishiga sotsialistik orientatsiya yo‘liga o‘tishga va sotsialistik mamlakatlar bilan hamkorlikni metodlari rivojlanaetgan mamlakatlarga iqtisodiy va siyosiy shartlar asosida «yordam» berishni, teng huquqli bo‘lmagan shartnomalar va bitimlar tuzishni, bu mamlakatlarni imperialistik davlatlar homiyligida turli blok va ittifoqlarga tortishni, mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tib olgan mamlakatlarning ichki ishiga aralashish, qo‘g‘irchoq rejimlar tuzishni o‘z ichiga oladi.

Repatriatsiya (lot. repatriate – vatanga qaytish) – urush yoki emigratsiya natijasida o‘z mamlakatidan tashqarida qolgan harbiy asirlarni va grajdan shaxslarni vataniga qaytarish.

Repressali (lot. reprehendere – to‘xtatib turish, to‘xtatish, tanbeh berish) – xalqaro munosabatlarda biror davlat tomonidan o‘zining huquqlarini boshqa davlat buzganligiga javoban, ana shu davlatni o‘zi qabul qilgan tadbirlarni bekor qilishga majbur qilish maqsadida qilingan tadbir yoki harakat.

Ratifikatsiya (lot. ratus – tasdiqlangan va fasere dan qilmoq) – ahdlashuvchi davlatlarning muxtor vakillari tomonidan tuzilgan xalqaro shartnoma yoki bitimning olib davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanishi. Ratifikatsiya shartnomaga yuridik kuch beradi.

Prolongatsiya (fr. prolongation, lot. Prolongare – cho‘zish, uzaytirish) – biron shartnoma, bitimning amal qilish muddatini cho‘zish.

Denonsatsiya (fr. denoncer – e‘lon qilish, bekor qilmoq) – denonsatsiya qilish- bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga o‘zlari o‘rtasida tuzilgan shartnoma yoki bitimning bekor qilinganligi to‘g‘risida xabar qilish.

Iqtisodiy mavzudagi tarixiy atamalar

Restitutsiya (lot. restitutio – tiklash) (xalqaro huquqda) – urushayotgan davlat tomonidan dushman hududidan g‘ayri qonuniy ravishda bosib olingan va olib chiqib ketilgan mulkni qaytarib berish. Restitutsiya tartibi tinchlik axdi yoki boshqa huquqiy aktlar bilan belgilanadi.

Kontsessiya (lot concessio – yon berish) – Davlatga tegishli tabiiy boyliklar, korxonalar va boshqa ob‘ektlarni xorijiy davlatlarga, kompaniyalar va ayrim shaxslarga ma‘lum muddatga foydalanishga berish.

Shop-styuardlar – Angliyadagi fabrikalarda tsex yetakchilari, korxonalarda ishchilar tomonidan saylanadigan vakillar. Turmush darajasini yuksaltirish uchun ommaviy ishchilar harakatining tashkilotchilari. Shop-styuardlarning xarakatlaritred – yunionlarnikidan ko‘ra keskinroq edi.

Depressiya (lot. depiessio – tushkunlik) – ortiqcha ishlab chiqarish inqirozidan so‘ng ro‘y beradigan iqtisodiy turgunlik, tovarlarga talab kamligi, ommaviy ishsizlik bilan tavsiflanadigan davr.

Konsortsiyum (lot. consortium – qatnashuv, uyushma) -bir necha bank yoki sanoat kompaniyalarining qarzni birgalikda joylashtirish yoki umumiy qimmat turuvchi loyixani birgalikda amalga oshirish maqsadida vaqtinchalik kelishuv.

Embargo (isp, embargo – hibsga olish) – biror mamlakatdan mahsulotlar, valyuta olib chiqib ketishni yoki biror mamlakatta mahsulotlar, valyuta olib kirishni ta'qiqlab qo'yish, shuningdek, ajnabiy davlatga tegishli bo'lgan kemalar, yuklar va boshqa mulklarni ushlab turish. Urush vaqtida embargodan dushman davlatlarga qarshi iqtisodiy sanksiya uchun foydalaniladi. Tinchlik vaqtida davlatlar turli mamlakatlarga iqtisodiy va moliyaviy tazyiq o'tqazish uchun embargodan foydalanadilar.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Tarixiy onomastika nimani o'ganadi?
2. Tarixiy onomastika qanday qimlarga bo'linadi?
3. O'rganilayotgan mintaqaga xos tarixiy atamalar lug'atini tuzing!
4. Ushbu fan doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar (tarixshunoslik).

1.9. Tarixiy metrologiya

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ibtidoy davrlardan boshlab o'lchov miqdoriy tushunchalarga bo'lgan ehtiyoj tufayli turli o'lchov birliklarini paydo bo'lishini tarixiy ijtimoiy iqtisodiy zarurat sifatida tushuntirish o'lchov birliklarining tasnifini o'rgatish tarix shakllardan xabardor qilish, yangi zamon metrik tizim bilan qiyosan tushuntirish hamda tarix fani uchun metrologiyaning ahamiyatini ko'rsatish.

Tayanch so'z va iboralar: nazariy va amaliy metrologiya, Karl Gaus, etalon, adno, tanob, jarib, akr, granula, boqillo, mann, botmon, jav, bosh, ag'ra, angusht, gaz, gandum, dang, yog'och, ziro', kuror, lincha, milya, misqol, sanoch, tirsak, farsax, chaqirim, qintor, yukcha.

Davlatchiligimizning tashkil topishi va ravnaqi tarixi bevosita uning ichki va tashqi faoliyati orqali tavsiflanadi. Metrologik tizim ham shu jumladan, davlatchilikning muhim atributlaridan sanaladi. Metrologik tizimdagi o'lchov birikmalarining paydo bo'lish davri va foydalanish qo'llash tur-

licha bo'lgan. Ularning paydo bo'lishlari mahalliy va o'zlashtirma asosga ega bo'lgan. Negaki turli bosqinlar va savdo aloqalari natijasida ko'plab o'lchov birliklari o'zlashtirilib, turmush tarzlariga moslashtirilgan va keng muomalada qo'llanilgan. Metrologik tizimni tadqiq etishda juda ko'p anglihmovchiliklarga duch kelish mumkin. Bunga biz bir nechta sabablarni ko'rsatishimiz mumkin. Quyida ularni keltirib o'tamiz:

1. O'lchov birliklarida territorial (hududiy) chegaralanish;
2. Bir turdagi o'lchov birliklarning turlicha nomlanishi;
3. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning bir biriga zid ekanligi¹.

Mazkur holatlarida biz manbalarni chuqur tahlil etib, ma'lumotlarni taqqoslash orqali masalaning yechimini topgan bo'lamiz. Bu esa barcha anglashilmovchiliklarga yakun yasasa, maqsadimizga muvofiq bo'lar edi.

Metrologik tizim sohasida ko'rlab mahalliy, g'arb va sharq olimlari ilmiy izlanish olib borganlar. Shu kabi olim tadqiqotchilar qatoriga nemis olimi V. Xins., Ye.A. Dovidovich., M.S. Andreyev, V.A. Vyatkin, K. Ignatov, shuningdek M.A. Abduraimov, B.I. Iskandarov, B. Kazbekov, A. Sh. Zohidov kabi olimlarni keltirishimiz mumkin. Ko'p hollarda manbalarda keltirilgan o'lchov tizimiga oid ma'lumotlar olimlar tomonidan tahlilliy tarjimasiz qoldirilgan. Bundanda salbiyroq holat ma'lumotlardagi o'lchov birliklarining noto'g'ri qo'llanilishidan yuzaga keladi. V. Xins Sharq metrologiyasiga oid juda qulay qo'llanma shaklini kashf etdi. Bu qo'llanmada o'lchov birliklari alifbo tartibida tuzilgan. Bundan tashqari bu olim mazkur qo'llanma uchun turli hudud va davrlarga oid o'lchov birliklarining haqiqiy o'lchamini to'plashga muvafaq bo'ldi. Ammo sharq metrologiyasi sohasidagi bu qimmatli ma'lumotni Markaziy Osiyoni tadqiq etuvchi mutaxassilarga nafi ko'p tegmas edi. Negaki bu ma'lumotnomada Markaziy Osiyo metrologik tizimiga aloqador muhim ma'lumotlar ilova tarzida biriktirildi².

Metrologiyaga oid ma'lumotlar turli manbalarda tarqoq, bir-biriga zid ravishda uchraydi. Aksariyat hollarda maxsus tahlilni talab etadi.

¹ Давидович Е.А. Материалы по метрологик средневековой Средней Азии. М. 1970 г. -С. 77

² Хинц В. Мусульманские меры и веса с переводом в метрическую систему перевод с немецкого Ю.Э. Брегель. Москва 1970 г.

V. Xins kitobiga ilova tarzida o'rtta asr Markaziy Osiyoning o'lchov va og'irlik tizimiga oid Ye.A. Dovidovichning ilmiy ishi nashr etilgan. Bu tadqiqot ham mazkur reja asosida yozilgan. Ammo tadqiqotda keltirilgan ma'lumotlar Xansga qaraganda aniqroq ifodalangan. Insoniyat tarixi – tabiat va hayot haqiqatidagi oddiy tasavvurlardan, chetlangan ehtiyojlardan murakkab ma'naviy faoliyat darajasigacha o'sish jarayonini o'z ichiga oladi. Insoniyat rivojining ilk bosqichida tarixiy metrologik tasavvurlar insonning ibtidoiy tafakkur hosilasi hamda sababi tarzida ko'zga tashlanadi.

Insoniyat tabiat, jamiyat va koinot haqida bilim va tajriba to'plashi orqali uning atrof muhitiga moslashuvi va yashash tarzi osonlasha borgan. Insoniyat ma'naviy yuksalishdagi eng buyuk nuqtalaridan biri – uni tabiat va odomzod hayotdagi o'zaro uyg'unlik va mutanosiblikning mavjudligini idrok etish, tabiat inson va dunyoning tartibli yaratilishi haqidagi tushuncha bo'ldi. Tasavvur tushunchani yetaklagan, tushunchani esa tasavvurga yetakchi bo'lgan deb qarashimiz mumkin. Qadimdan miqdor, o'lchov, tasavvur kabilarga bo'lgan ehtiyoj insoniyat tomonidan metrologik tizimga asos solishga sabab bo'ladi. Tun ketidan kunning kelishi, daryolarning yuqoridan pastga oqishi, issiq bilan sovuqning farqi kabilarni idrok etish qanchalik zarur bo'lsa, kundalik turmushda foydalanadigan ashyolar, iste'mol mahsulotlarning miqdor, o'lchov birliklarini aniqlash shunchalik muhim bo'lgan. Insoniyat tarixi – bu inson tafakkuri va tasavvurning kengayishi va chuqurlashishi tarixidir. Metrologiya tarixining yetakchi atributi. Jamiyat rivojlanishi bilan bu soha ham murakkablasha bordi. Bu soha o'ziga xos qonuniyatlar asosida taraqqiy etib, fanda muhim o'rin egalladi. Metrologik tizim o'zining boshlang'ich davrida juda primitiv ko'rinishga ega bo'lgan. Bora bora davr taraqqiyoti, insoniyat rivojining ortishi natijasida sodda miqdoriy tasavvurlar o'rnini sanoq sistemasidagi butun va qoldiqli sonlarni o'zida mujassamlashtirilgan maxsus atamalar egallay boshladi. Iqtisodiyotda, aniqrog'i tovar-pul munosabatlarida, tashqi savdo aloqalarida bu sohaning takomillashuvi zarur ahamiyat kasb etgan.

Ibtidoiy davrda odamlar dunyoni chuqur bilishdan avval uni «ko'rishni», «idrok etishni» afzal bilganlar. Ko'rgan narsalarni (atrofdagi barcha ularni o'rab turgan muxit, hayvonot) taqqoslash, chamalash orqali farq

qilganlar.¹ Tariximizning siyosiy va iqtisodiy sohalariga tegishli bo'lgan, manbalardan keltirilgan ma'lumotlarni o'rganish, tahlil etishda metrologiya fani ulkan ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo xalqlarining daslabki metrologik tasavvurlariga oid ba'zi muhim ma'lumotlar zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avestoda» keltirilgan. Ma'lumki, zardushtiylik – dunyoviy dinlar orasida eng qadimgisi bo'lib, insoniyat taraqqiyotiga bevosita va bilvosita juda katta ta'sir ko'rsatgan. Bu manbada primitiv tasavvurlar bilan bir qatorda o'lchov birliklari ham keltirilgan. Mitra qasidasi (10 mit, Mehr mit), ikkinchi bo'lim yettinchi bandeda quyidagilar keltiriladi:

*Biz Mitraga topinamiz,
Yaylovlari had – hududsizdir.
Haqiqatdir uning ko'zlari,
Ming quloqli, adl qomati,
Ming ming nigoh sohibidir u,
Qudratlidir bo'y basti o'ktam,
Uyqusizdir halovatsizdir,
Kengliklaroning parvardigori.*

Bu keltirilgan she'riy matnda mablag'li ma'lumot aks etgan bo'lsa, ularning metrologik tasavvurlarga ega bo'lganligiga amin bo'lamiz. Majoziy, mifologik talqinlarida ham metrologik ma'lumot uchraydi. Manbada «Vasiy» nomli asotiriy balig'ga quyidagicha ta'sif beriladi: «Vasiy Farog' Kart daryosida yashar emish». «Ellik sadvarlik» sifati (ellik eshikli) bilan qo'llanilgan. Biroq bu sifatdan nima ko'zlangan noma'lum. Ayrim tadqiqotchilar Vasiy balig'ining ellikta qanoti bor deganlar. «Bundagin»da (12 bo'lim, 5-7 bandlarda) keltirilishcha: «Ellik satvaronli Vasiy Farog' Kart daryosining o'rtasida yashaydi. Uning uzunligi shu qadarki, bir odam boimdodan namoz-shomga qadar yugursa-da, uni bosib o'tolmaydi».

Manbada ilohiy timsollar tavsifida metrologik ma'lumot uchraydi.

«Shundan so'ng zamon olov va suvni yaratdi. Ular bir-biriga qo'shilgach, Urmuzd paydo bo'ldi. Zamon yaratuvchi va yaratilishga kirishgan Xudovand bo'ldi. Urmuzd yorug', pok, xushbo'y, ezgu amalli va barcha

¹ «Авесто». Асқар Маҳкам таржимаси. –Т.: «Шарк» 2001 й. – Б. 370.

yaxshiliklarga qodir edi. Urmuzd quyi «96 ming farsang» uzunlikka boqdi. «Farsang» yoki farsax o'rtasrlarda Markaziy Osiyoda keng istifodada bo'lgan o'lchov atamasi. Manbalarda metrologik tizimida yil, kun, oy kabilariga qiyoslangan masofa o'lchov birliklari ham keltiriladi. Chegarasiz, poyonsiz Zarondan to'qqiz ming yillik hudud – chegaraga ega bo'lgan Zarvon yaraldi.» Manbada aniq o'lchov birliklari ham mavjud. Astriys – asosan, yo'l uzunligi o'lchovi bo'lib, otchopar maydonining uzunligi andozasida o'lchanadi. Qadimgi sharqda yo'l uzunligi o'lchovlari otchopar maydonlarining hajmiga nisbatan olingan. Ma'lum bo'ladiki, aspriys o'lchovining muayyan bir andozasi bor. Chunonchi, «Vandidod» kitobining 2-fargard, 25-bandida Ahura Mazda Jamga farmon beradi: «Odamlar va jonivorlar uchun har birining to'rtta tomoni ham aspriys uzunligida bo'lgan var qur».

«Vandidod» ning pahlaviycha sharhida varlarning uzunligi ikki hosar, ya'ni ikki farsang deyiladi. Shu o'rinda «Var» – yer osti manzili bo'lib, Ahura Mazdaning ko'rsatmasi bilan Jam odamlari va hayvonlar uchun bino qilgan yer osti manzili. Shundan xulosa qilish mumkinki, aspriys ikki farsang uzunligidagi yer. Ehtimol ikki farsang kenglikda. Ammo, hosar o'lchovi birligi uchun muayyan bir andaza yo'q.

Manbada numizmatikaga oid ma'lumot ham mavjud.

Aspirina – bir dirham.

«To'q ochga nisbatan bir aspirina, bir qo'y, bir odamchalik afzallikka ega.»

Manbada uzunlik o'lchov birliklarini anglatuvchi atamalar mavjud.

Vyatatasiy – o'n ikki barmoq hajmidagi uzunlik o'lchovi.

Frrasniy – o'n to'rt barmoq hajmidagi uzunlik o'lchovi.

Frabozu – bilak hajmidagi uzunlik o'lchovi.

Vaybozu – miqdori tugal ma'lum bo'lmagan uzunlik o'lchovi. Ba'zilar bir gaz desalar, ba'zilar o'n odim deyishadi.

Yana bir o'lchov birligi: «Jamiyki yaxshilar va yomonlar chiynavand-pun ko'prigidan o'tadilar. Bu ko'prik yashavandlar (solih bandalar) uchun to'qqiz nayza barobarida kengaysa, gunohlari uchun tig' uchidek o'tkir va ingichka bo'lib qoladi».

Kamonchi Orshning Ro'yon tog'idan Sharqqa-Farg'onaga tamon otilgan o'qi olti ming farsang masofaga teng bo'lgan.

«Qasamnoma» kitobida yozilishicha moʻbadlar moʻbadi Pod Mehrosipand Ozar «Avesto» kitobi, mazdaparastlar dinining haqligini isbotlash maqsadida koʻksiga eritilgan qoʻrgʻoshin qoʻyshlariga ijozat beradi. Pod Mehrosipand Ozarning koʻksiga toʻqqiz «man» qaynagan qoʻrgʻoshinni qoʻyadilar. Bu sinovning nomi «vari nayrang» («Rivoyat» kitobi Bombay 1922 yil) «Man» oʻrta asrlarda Sharta Osiyoda keng foydalanilgan. Misqol asosida kashf etilgan boʻlib, uning bir necha turlari manbalarda saqlanib qolgan. «Yondirilgan olov» sinovi varvardan boʻlib, «Shohnoma» dolstonida pok Siyovushning ikki xirmon olov oʻrtasidan beshikast oʻtib ketishi aynan ana shu marosimdan guvohlik beradi. Hirmon qanchalik hududni egallaganligi bizga nomaʼlum. «Zardusht iloha Chistani olqishlaydi va undan Rangha daryosi tublaridagi soch tolasidek nozik mavjlarni ham «ming odam boʻyi» balandlikdan olguvchi Kara baligʻi koʻzlaridagi qudratni soʻraydi.» Ibtidoiy sodda metrologik tizimda odam boʻyidan ham oʻlchov birligi sifatida foydalanishgan. «Avesto» dan boʻlak boshqa yozma manbalarda ham metrologik tizimga oid maʼlumotlar qayd etiladi. Ana shunday manbalardan biri Toshkent yaqinida Mugʻ togʻi tepasidagi qadimgi qasr xarobasidan topilgan sugʻd hujjatlaridir. Mugʻ togʻi sugʻd arxivi deb yaratiluvchi bu majmua VII asr oxiri VIII asr boshlarida bitilib, 80ga yaqin noyob hujjatni oʻz ichiga oladi. Ular Sugʻd podshohligiga tobe Pang hokimligi (Pantikent) saroyi hamda turli viloyat hokimlari va amaldor aʼyonlarga tegishli hujjatlar yigʻindisidan iborat. Bu majmua orasida yer harid qilish haqidagi sugʻdcha hujjat boʻlib unda «yarim boʻltak asksok» yerni sotish matni joy olgan. «Yarim boʻltak»ning miqdori nomaʼlum. «Asksok» yer qanday yer turkimiga taaluqli ekanligi ham hozirgacha nomaʼlum. Tegirmon ijarasi haqida hujjatda: «1 yil uchun 460 kafch un (toʻgʻriligi) tekshirilgan kafchlardan bersin». Satri uchraydi. Bitimda ikkinchi tamon boʻlgan Molyon Dopotshir har uch tegirmonning haqi sifatida bir yilda 460 kafch unni podsho Devashtich Yodaxiyatak oʻgʻliga toʻplashi lozim boʻlgan. Bu miqdor un kafch oʻlchov birligi don uchun 8 kg deb hisoblanaganda 3680 kgni tashkil etadi, deb qabul qilingan. Ijara haqi oy sari toʻrlab borilgan. Bu masala ham hujjatda bayon etilgan talab qatorida taʼkidlangan. A-16 hujjatda «bir budgʻurta may» kalomi uchraydi. Shu oʻrinda «budgʻurtak» soʻz biror turdagi idish maʼnosi-

ni ifodalagan deysh mumkin. Shunda «bir budg'urta may» ya'ni, idish bo'yicha bir miqdor haqida gap borayotgani oydinlashadi¹.

V-9 (Rust hokimi Afarunning xati).

Bu hujjat draxm nomi bilan yuritilgan sug'd tangalarning sarfi to'g'risidagi xarajatnoma-ro'yxatidir. Ma'lumki, draxma pul birligi sifatida kumushga asoslangan. 1 draxma Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq misqoliga yaqin og'irlik birlik bo'lib, 4-4,5 gr.gacha kumush vaznidadir. Keyinchalik pul birligida alohida tanga og'irligi sifatida shu miqdor olinadigan bo'lgach, draxma pul hisobi birligi ma'nosini ham ifodalashga xizmat qila boshlagan. Hujjatda muhim detallardan biri «XIII draxma ikki sigir uchun berilgani» haqidagi tarixiy ekonomik ma'lumotdir. Ilk o'rta asrlarda Sug'diyonada bir sigir narxi 6-6,5 draxma bo'lgani qiziqarli faktidir.

A-5 charimga bitilgan 27 qatorli sug'dcha hujjat. Unda Panch-Panjikent saroyida xizmat qilgan a'yonlar, turli lavozimdagi kishilar, hatto podsho yoki hokim uchun qilingan pul sarqlari ro'yxati aks etgan. Bu hujjatda biz Pnch saroyidagi amallar ro'yxatiga tegishli, ilk o'rta asrlarda Sug'd pul muomalasi, iqtisodiy ahvolga aloqador ma'lumotlarni bilishimiz mumkin. Bundan tashqari hujjatda ko'pgina shaxslarning ismlari saqlangan. Sug'd onomastikasini o'rganida bular qimmatli manbadir. «Draxm» so'zi Sug'd kumush tangasiga nisbatan qo'lanilgan. Sug'd podshosi Turgan nomidan zarb etilgan kumush draxmlardan ikki nusxasigina va bir necha Buxoro zarbiga tegishli draxlargina topilgan xolos. «Draxm» so'zi qadimiy o'lchov birligi nomidan kelib chiqqan. Sharqda misqol nomi bilan ma'lum bo'lgan 4 gramdan ortiqroq og'irlik birligiga yaqin deb tushuniladi. Mug' tekstlaridan draxm pul birligiga bir necha o'rinda tilga olinadi. Sug'dcha nigoh guvoohnomasida ham draxm pul birligi haqida ma'lumot uchraydi: «Kelajakda agar Uttakin (kuyov) Chatanning ruxsatisiz boshqa xotin olsa, yoki cho'ri va shunga o'xshash ayolni olsa, bordi-yu bu hol Chataga noma'qul bo'lsa, u holda er bo'lmish Uttakin Chataga (kelinga) 30 draxm dinoriy yaxshi saqlangan toza (kumush) pul beradi. Shundan keyin bunday xotinni (Chatani) na xotin sifatida, na cho'ri sifatida saqlamasin, uni qo'yib

¹ Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. Тошкент 1992 йил. 26-бет.

yuborsin». Kuyovning kelin qarindoshlari oldida bayon etgan majburiyatlarini orasida ham bu bir uchraydi:

«Agar Chata men bilan qolishni istamasa yoki uni oʻzini qoʻyib yuborsam, uni senga (Cher Vaxzanak oʻgʻliga) va sening oʻgʻillaringga hamda urugʻ-ujutingga sogʻlom, ziyon-zahmatsiz yetkazib beraman, topshiraman. Agar uni ziyon-zahmatsiz yetkazib bermasam u holda 100 dinoriy draxm, kumush muomalada amal qilishi tasdiqlangan xilidan, yaxshi saqlangan (toza sifatli) pul qarz boʻlaman, (qarzni) uzaman va senga toʻlayman. Shu pulni senga toʻlamasam, u holda 10 draxmiga 2 draxmdan penya toʻlash evaziga qarz sifatida saqlayman».

Bundan kelib chiqadiki, draxm maʼlum davr mobaynida ogʻirlik oʻlchov birligi sifatida amalda qoʻllanilgan. Keyinchalik esa pul birligi vazivasini egallagan. Oʻrta asr adabiyotining yirik namoyondalarining asarlarida ham metrologikga taaluqli maʼlumotlar uchraydi. Masalan: Oʻzbek mumtoz adabiyotining buyuk vakili Alisher Navoiy sanalib, uning ijodi mumtoz adabiyotning eng yuksak bosqichidir. Shoirning avlodlarga qoldirgan eng buyuk asarlaridan biri «Xamsa» edi. Navoiy «Xamsa»si (1483–1485) xalqimizning XV asrdagi maʼnaviy taraqqiyoti koʻzgusi boʻlib, unda oʻsha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlarini, din-diyonat, ahloq-odob haqidagi qarashlar oʻz aksini topadi.

«Farhod va Shirin» dostoni «Xamsa» ning ikkinchi dostoni hisoblanadi. Dostonda shunday jumalalar bor:

«Vale ul chashma to bu qasri ofat,
Topibdir 12 yigʻoch chogʻliq masofat»

«Yigʻoch» – taxminan 1200 metr ga yaqin masofa boʻlib, Misrada keltirilayotgan 12 yigʻoch 14400 metr ga, bu esa 14,4 km. ga teng boʻlgan. Yigʻoch uzunlik birligi farsang, sang, tosh va b. sifatida ifodalanib, u qatʼiy 1200 qadamga teng deb olingan (soʻngi oʻrta asrlarda). Ammo, A.L.Kunning Xorazm oʻlchovlariga bagʻishlangan qaydlarida keltirilishi-cha yigʻochlar bir-biridan farq qilgan. Bunda kelib chiqadiki, yoki qadamlar aniq oʻlchanmagan yoki ular oʻlchashi turlicha boʻlgan. Dostonda yil hisobiga doir maʼlumot ham mavjud.

«Agar «yuz qarn» uzrayin boʻloli,
Netib bir kunlik uzring qololi»

«Qarn» – 30 yilni bildiradigan yil hisobi.

O'rta asr o'z mumtoz adabiyotining yana bir yirik namoyondalaridan biri bu Zahiriddin Muhammad Boburdir. O'z hayotini benihoya samimiy hikoya qilib beruvchi «Boburnoma» (Vahoe') dek muhtasham obidani yaratdi. Bu asar nasriy uslubda yozilib, unda Bobur bosib o'tgan yo'l, bo'lib o'tgan voqealar, yo'l davomida uchragan aholi yashash joylariga aloqador geografik, etnografik, iqtisodiy, siyosiy, tarixiy ma'lumotlarni bayon etadi. Quyida ulardan misollar keltiramiz:

Samarqand tasvirida: «Ko'hak suvi shimolidan oqar. Samarqanddin ikki kurux bo'lg'ay.» Keltirilgan «kurux» o'lchov birligi – 4000 gaz (0,71 metrlik) uzunlik o'lchoviga teng. Gaz va zar atamalari o'rta asr Markaziy Osiyoda sinonimlar sifatida qo'llanilib uch turga bo'lingan:

1. Cho'zilgan qo'l uchidan yelkagacha, ko'krak o'rtasigacha, ikkinchi yelkagacha o'lchangan. Tog'li viloyatlarga xos o'lchov birligi.

2. Qo'l o'lchamiga asoslanadi. Aniqrog'i barmoq o'lchamiga. Markaziy Osiyoda iste'foda bo'lgan qat'iy gaz 24 ta o'lchov barmog'iga teng sanalgan.

3. Musht o'lchamiga asoslangan aniqlov tizimi. ¹

Yana bir o'lka tasviri.

«Darg'am suyi Samarqandning janubiy aqar,

Samarqanddin bir «shar'iy» bo'lg'oy». Bir «shar'iy» – 5,6 kmga teng masofa o'lchovi.

Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan «yig'och» o'lchovi birligi Bobur asarlarida ham uchraydi. unga ko'ra Buxoro va Samarqand oralig'idagi masofa 25 yig'ochga teng bo'lgan. Bu o'lcham mahalliy boshqa «yig'och»lar miqdorini inkor etadi. Bu o'lchamni amaliyotda o'lchab ko'rilganda 8 chaqirimga teng bo'lgan yig'och, undan ham katta masofaga teng bo'lishi mumkin ekan. Sug'd yozma yodgorlik majmuasidagi «Tegirmon ij-rasi haqidagi hujjat» ga quyidagilarni ilova qilmoqchimiz. Bu hujjatda «kavch» og'irlik o'lchov birligi keltirilgan. «Kaf» birligidan o'rta asrlarda keng foydalanilgan. Bu birlik sochma mahsulotlar o'lchov birligi bo'lib, G'arbiy Pomirning o'rta asrga oid yuridik hujjatlarida tez-tez uchraydi.

¹ Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. –М.:1970 г. –С. 111

Uning o'lashi etnografik ma'lumotlarga asoslanadi. Xuvada kafch = 6 rastayga taxminan 24,57 kg.ga teng. Shug'nondagi «kafch» ning o'lchami bu ma'lumotga zid va turlicha. A.K. Pisachik ma'lumotida 24 yoki 36 kg atrofida, M.S. Andreyevga ko'ra – 16 kg, I.I. Zarubin – 20 kg atrofida. Xalq og'zaki ijodi so'z san'atining bir turi hisoblanadi. Chunki ular og'zaki yaratilib, xuddi shu tariqa xalq orasida tarqaladi. Ya'ni ijodiy jarayon yaratuvchilik va ijrochilik jarayoni va unda ko'pchilikning ishtirok etishi xalq og'zaki poetik ijodi asarlarining asosiy xususiyati hisoblanadi. «Xalq og'zaki» ijodi atamasi o'rnida «folklor» temini ham qo'llaniladi. Qo'shiq, maqol, topishmoq, afsona, rivoyat, latifa, ertak, doston, askiya, og'zaki drama kabilar xalq og'zaki ijodining (fallyorning) asosiy janrlari hisoblanadi. Bular orasida dostonlar asosiy o'rin tutadi. Falklyorshunoslar tomonidan o'zbek xalq baxshilarining ma'lumotlari asosida 150 dan ortiq (variantlar bilan 400 dan ortiq) dostonlar yozib olingan. Ularning ko'pchiligi alohida-alohida kitoblar sifatida nashr etilgan. Bu dostonlar quyidagi turlarga bo'linadi.

1. Qahramonlik dostonlari: Alpomish, Yodgor.

2. Jangnoma: «Yusuf bilan Ahmad», «Alibek bilan Bolibek», «Xoldorxon» va boshqalar.

3. Romantik dostonlar: «Murodxon», «Rustamxon», «Kuntug'ilishi», «Go'ro'g'li» turkumi.

4. Tarixiy dostonlar: «Edega», «Shayboniyxon», «Oychinor», va boshqalar.

5. Kitobiy dostonlar: «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin», «Zavarxon».

Bular orasida eng mashhuri «Alpomish» dostoni sanalib, tarixiy mi-fologik asosga egadir. Bu dostonda metrologik tizimga oid ba'zi muhim ma'lumotlar keltiriladi. «Shunda 7 yoshga kirgan Hakimbek Altinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt «botmon» birichdan bo'lgan parli yoyni qo'liga ushlab ko'tarib otdi.» «Botmon» (man) o'lchov birligidan o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda keng foydalanilgan. Uning turlari bir nechta bo'lib, hududlardagi o'lchami turlicha edi. Obrazlar tasvirida ham metrologik atamalar uchragan: Surxayl kampirning yetti o'g'li (Qammoq muzofotida) bor edi. Yettovi ham nomdor alp edi. kattasi Ko'kaldosh der edi. Keyingilari Ko'kamon, Ko'kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa,

Qo'quloq bo'lib kenjasi Qorjon der edi. Ul alplar qanday alp.¹ Yeyandoz, mergan alp. Har qaysisi «to'qson batmon» temirdan sovut kiygan. Shul vaqtda Barchin ham barkamol, bo'yi yetgan, har yag'rini 15 qarich keladi. Bu yerda botmon va qarich atamalari keltirilgan. «Qarich» atamasi «vajab» bilan sinonim tarzda ishlatilgan. Bu o'lchov birligi keng ochilgan kaftning bosh barmoqdan jimjiloqqaga bo'lga masofaga teng. Markaziy Osiyoning tog'li va tekisli hududlarida kundalik turmushda va qurulishda foydalanilgan. Oybarchinga qalpoq alplaridan sovchi kelganda ulardan o'zini himoya qilishini so'rab Alpomish maktub yo'llaydi. Oybarchin yuborgan xatni olib ketgan xizmatkorlarga otlar qorsoqday qotgan, to'qson kecha kunduz yo'l tortgan.

Bu misralarda masofa kun bilan o'lchangan. Alpomishga Barchinning xatini yetkazgan Qaldirg'ochga Alpomish «Yayov boramizmi esa?»deganida Qordirg'och: «90 to'qay yilqing bor. Yayov borib, mingani oyoq-ulov topmay yotibsanmi?»deb javob beradi. Yilqining soni maydon ya'ni, yilqi boqiladigan ekinli to'qayga qarab belgilangan. Ammo uning o'lchami aniq keltirilmagan. Barchin o'ziga qo'ygan sovchilarga o'zining shartini aytdi: «Har kishning o'z ko'ngli o'zida qoladi. Mening to'rt shartim bor, shul to'rt shartimni qilgan kishiga tegaman. Poyga qilaman, otini o'zdirganga tegaman «Qirq kunlik yo'l» Boboxonning orasi, Boboxon tog'idan poyga qilaman. Kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman, yoy toltirishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman. Ming qadamdan tanga pulni urgan mergonga tegaman».

Bu misralarda ham masofa kun bilan o'lchangan «Qadam» o'lchovi qurilishida, yer o'lchashda, kanal o'lchashda ishlatilgan. Bu atama yuridik hujjatlarda ham uchraydi. U qat'iy 12000 qadam bir farsahga teng bo'lgan.

Shartlardan biri ot poygasi bo'lgan. Bu poygada ishtirok etayotgan Qorajonga shunday ta'rif beriladi: «Taqimida 500 botmon kaitagi». Bu albatta, mubolag'ali tasvirlash. Poygada Bachibor barcha otlarda farqli edi. «Boychibor barcha otlarni ortda qoldirib, 40 ming qadam o'tib ketadi.» Kurashda ishtirok etgan qalmoq polvonlariga quyidagicha ta'rif beriladi: «besh yuz quloch arqon yetmas beliga, 90 molning terisidan

¹ Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. М.: 1970. –С. 170

lavushi», nashavand qalmoqlar tarifi esa o'zgacha «490 quloch qo'lda xassasi». Yuqorida keltirilgan «quloch» birligi 2,5 arminga taxminan 177-178 an ga teng bo'lgan. Buxoroda 1838 yil mato o'lchashda ishlatilgan va u 2 alchin, yoki 450 ingliz dyuymiga tenglashgan 142,24 sm. dostonlardan tashqari xalq og'zaki ijodiyotining boshqa ko'rinishlarida, xususan, ertaklarda ham uchrashi mumkin. Masalan: Uch og'ayni botirlar, Muhibil tosh otar, Bunyod va Gulobod, Pahlavon Erkenja va boshqalar.

«Uch og'ayni botirlar»da botmon quloch, qadam kabi o'lchov birliklari uchraydi. «Muhibil tosh otar»o'tkir cho'tlovchi sangandoz bo'lgan. Ertaklarda ko'pincha qadam, farsah, yig'och kabilarning uchratishimiz mumkin. «Pahlavon Erkenja»da devni laqillatgan botir yerning falon gaz kindigini (yoki uch quloch) yerdan sug'urib beradi.aslida u pahlavon yashirib qo'yg'an oddiy arqon edi.

Shundan kelib chiqadiki, xalqimiz tarixiga oid yozma va og'zaki manbalarning istalganida metrologik sohalarga oid ma'lumotlar qayd etilgan. Uni tadqiq etish orqali o'sha davrga xos bo'lgan kundalik turmushdagi yoki boshqa jabhalardagi ma'lumotlarga bir qadar bo'lsada oydinlik kirita olamiz. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy metrologik tizimi – murakkab va kam o'rganilgan soha sanaladi. Yaqin o'tmishda olimlar tomonidan tariximizning barcha atributlari jiddiy o'rganildi, ammo metrologik tizimga yetarli ahamiyat berilmadi. Ko'p hollarda manbalarda keltirilgan, metrologik tizimlarga oid bo'lgan aniq ma'lumotlar tahliliy tarjimalarsiz qoldirilgan.¹ Bu holat ko'plab birliklarning hududiy chegaralanishida anglanilmovchiliklar tug'dirgan. Metrologik tizimning hududiy chegaralanishidagi farqi va ishlatilish ko'lamini turlicha bo'lgan. Markaziy Osiyo metrologiyasi haqidagi ma'lumotlar mahalliy manbalarda sochma ma'lumot tarzida berilib, ular ko'p hollarda bir-birlarini inkor etganlar. Bu esa mutaxassislardan maxsus tahliliy yondashuvni talab etadi.

Mazkur holatlarda biz manbalarni chuqur tahlil etib, ma'lumotlarni taqqoslash orqali masalaning yechilishini topgan bo'lamiz. Ko'p hollarda

¹ Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. М.: 1970.

manbalarda keltirilgan o'lchov tizimiga oid ma'lumotlar loimlar tomondan tahliliy tarjimalarsiz qoldirilgan. Bundanda salbiyroq holat o'lchov birliklarining noto'g'ri qo'llanilishida yuzagan keladi. Ajdodlarimizning metrologiyaga doir qarashlari tarixiy rivojlanishning ilk bosqichlarida juda sodda, mubolag'ali va qiyosiy bo'lgan. Birorta hayratomuz jismning kattaligini tasvirlashda: tog'day, osmonday, dengizdek, bepayon, hududsiz, yakunsiz kabi birikmalardan foydalanishgan.

Bora bora insoniyat rivoji bilan metrologik tizim ham rivojlandi. O'lchov sohasi bir necha turlarga: og'irlik, hajm, uzunlik, maydon (yuza, masofa) kabilarga bo'lindi. Bu o'lchov turlariga oid ko'plab atamalar kashf qilindi va muomolada keng qo'llanildi. Bu o'lchov atamalar o'zlarining kashf bo'lishi tarixiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Mahalliy

2. O'zlashtirma (sun'iy ravishda qo'shni xalqlardan muomalaga kiritilgan). Bu holat ko'pincha Rossiya bosqinidan keyingi davrlarda uchraydi: alchin-arshin (rus o'lchov birligi), verst, funt, dyuyn.

II. 1. Masofa birliklari.

«Ag'ri» – bu atama Xorazmda tanobning 1/320 ni ifodalashda ishlatilgan. Qirq ag'ri (40 ag'ri) – 118 tanob.

«Ambun» – og'irlik o'lchov birligi, Sharqiy Buxoroda yuzaki aniqlashda ishlatilgan.

«Dong» – atama o'rta asr manbalarida tanobning 1/6ni va jaribni ifodalashda keng qo'llanilgan.

«Jarib» – Markaziy Osiyo hududida jarib va tanob bir xil o'lchamda bo'lib 3600 kv. gaz ga teng bo'lgan.

«Dunimsir» – Og'irlik o'lchov birligi bo'lib, yer maydonini ifodalashda ham qo'llanilgan.

«Kafch» – Og'irlik o'lchov birligi. Sharqiy Buxoroning tog'li hududlarida yer maydonini o'lchashda ishlatilgan.¹

«Man» – O'rta asrlarda ekin maydonlarini o'lchashda keng qo'llanilgan. Yuridik hujjatlarda (XIV–XIX asrlar) keltirilishicha yer o'lchamlari turlicha bo'lganidek, ularga mos ravishda turli man o'lchamlaridan foydalanilgan.

¹ *Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений. М. –С. 267*

«Taboq» – Sochma mahsulot o'lov birligi bo'lib, ekin maydonlarini o'lchashda ham foydalanilgan. Xingov havzasida taboq 0,044-0,045 ga ekin maydoniga teng bo'lgan¹.

«Tanob» – Ko'plab ma'lumotlarga ko'ra $60 \times 60 = 3600$ kv. Gaz ga teng bo'lgan. Gaz turlicha foydalanilgani bois tanob o'lchami har xil bo'lgan. Tanob haqida manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning bir-biriga zidligini yana bir sababi, bir viloyatning o'zida o'lchanadigan tanobning mavjudligi edi. Tanob haqidagi muhim ma'lumotlar XIX asr manbalarida qayd etilgan. Quyida keng muomalada bo'lgan tanoblarni keltiramiz.

Tanob = 1707.0938 kv.m. hisob kitoblarga ko'ra uning asosini 68.86 sm gaz tashkil etadi. Ammmo XIX asrning II yarmiga kelib bu talab muomalada kam uchraydi.

Tanob = 1820.9 kv.m. yoki diyatining $1/6 = 1820.83$ kv.m. ko'plab maydonlarda qayd etilgan. Bu tanobning asosini 71.12 sm.li uzunlik o'lchovi tashkil etilgan. Tanob 60×60 kv alchinli maydon teng bo'lgan.

Tanob = 2845.1562 kv.m. bu tanob haqida ham ko'plab manbalarda ma'lumot keltirib o'tiladi. Uning asosini 88.9 sm.li gaz tashkil etgan. Bu mahalliy va keng tarqalgan uzunlik birligi bo'lib, shubhasiz tanob ham mahalliy va yetarli daraja qadimiy tarixga ega. Tanob = 2731.35 kv m. Uning asosini 87.1 sm uzunlik birligi tashkil etilgan. Aynan tanobning shu turi Zaravshon vodiysida (Samarqand va Buxoroni qo'shgan holda), Qashqadaryo va Surxandaryoda juda keng tarqalgan. Tanobning unchalik ko'p bo'lmagan miqdorda qisqartirilishi rus maydon o'lchovlariga tanob qismlarini butun sonlarda hisoblashda muammo keltirib chiqarmas edi.

Tanob = 3277.62 kv m. Bu tanob asosini 96 smda gaz tashkil etadi. Bu gaz haqida ma'lumot qayd etilmagan. Bu tanob muomalada bo'lgan Qashqadaryo vohasidagi gaz o'lchov birliklari haqida umuman manbalar, ma'lumotlar uchramaydi.

Tanob = 4097.025 kv m. Uning asosini 106.68 sm gaz tashkil etgan. Bu gaz mashhur bo'lib, Buxoro xonligi va Xorazmda keng muomalada bo'lgan.

Xorazm tanobi tomonlari 60 gazga teng kvadrat hisoblangan. (3600–kv. gaz). U yarim tanob, chorak tanob (ba'zida unsir deb atalgan), nim

¹ Рахимов М.Р. Земляделие таджиков бассейна р. Хингоу. С.: 1957.

chorak (40 ag'ri), 16 qismga (20 ag'ri) bo'lingan. Bu maydon 0,375 desyatina = 4097.025 kv m.ga teng bo'lgan.

Samarqandda (Javdar tuman) jarib tanob 4097.025 kv m.ga teng bo'lgan. 1927 yilda tartibga keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra Buxoro, Samarqand va umuman Zaravshon vodiysida tanob 2731.35 kv m.ga teng bo'lgan. Bu hududlarda turli o'lchamdagi tanoblar mavjud bo'lgan. Bunga sabab uning asosini tashkil etgan gazlarning turlicha bo'lagani edi¹. Ammo turli tanoblar qiymatlar muvozanatlashtirilib, eng ma'qul va foydalanishga loyiq talab qayd etilgan. Bu tanob 1927 yilgacha Ho'jandning ayrim hududlarida o'zgarishsiz saqlangan. U 2845.1562 kv.m.ga teng bo'lgan.(tamonlari 88.9 sm 60 gaz kvadrat maydon) 1927 yilgi ma'lumotlarga ko'ra Farg'onaning katta qismida 1820.9 kv.m.ga teng tanobdan foydalanilgan. Birinchi tanob 71.12 sm.li arshin (alchin) ga asoslangan edi. Alchin qiymati aniq bo'lganidan uni tanobga asos qilishini ma'qul ko'rishgan. Keng tarqalgan tanob miqdori 1820.9 kv.m.yoki 1/6 desyatina = 1820.83 kv.m.ga teng bo'lgan.

1870 yilda Sirdaryo viloyati o'z tarkibiga Toshkent va Quramni, Ho'jand, Jizzax, Chimkent, Avliyo ota, Perovskiyuezdlarni birlashtirgan. Bu hududlarning barchasida tanob 1/6 desyatina = 1820.83 kv.m.ga teng bo'lib, 71.12 sm.li arshinda asoslangan edi.

1927 yilgi ma'lumotlarga ko'ra Qashqadaryo okrugida tanobning turlari bir nechta bo'lgan. Chiroqchida 1820.9 kv.m.ga teng tanob, Shahrisabz va Yakkabog'da 3277.62 kv.m., Koson, Beshkent, G'uzorda 27.31,35 kv.m.ga teng bo'lgan. Yakkabog' tumanning lolmi yerlaridagi tanob 3095.53 kv.m.ga teng bo'lgan. Tengi Xorazmda tanob = 3641.8 kv.m.ga teng bo'lgan. Surxandaryoda 2731.35 kv.m.ga teng tanob muomalada bo'lgan.

«Uqor» – G 'arbiy Pomirda bu atama orqali ma'lum miqdordagi bug'doy eqiladigan yer maydoni ifodalangan. Qachonki 2,5 katta por (luppor) eqiladigan bo'lsa, maydon lup-undr deb atalgan. U 2 ta kichik undr va 4 ta xidgorga bo'lingan.

¹ Ханьков Н. Описание Бухарского ханства, с. 113., Е.А. Давидович, Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. М.: 1970г. с. 129

«Xarvor» – «Eshak yuki». Markaziy Osiyoda tekislik va tog'lik tumanlarida qayd etilgan og'irlik o'lchov birligi bo'lib, yer maydonlarini o'lchashda foydalanilgan.

«Chak» – U turli joylarda turlicha bo'lgan. Kosonsoyda (Farg'ona) 432 (18 x 24) kv.gaz = 1 asba kaimasi 12 kabza (110–112 sm). Bundan kelib chiqdiki Koson chaki = 350 kv.m.ga teng.

«Choryak» – Markaziy Osiyoda keng tarqalgan og'irlik o'lchov birligi. Shuningdek, yer maydonini o'lchashda ham foydalanilgan. Uning o'lchami turlicha bo'lgan.

II.2. Og'irlik birliklari va hajm birliklari

«Ambun» -Sochma mahsulot o'lchov birligi. O'rta asrlar G'arbiy Pomir hududlarining huquqiy hujjatlarida tez-tez uchrab turgan. Etnografik ma'lumotlar asosida uning klomi belgilangan. Xufa va Rushanda «ambun» 24 «rastoy»ga teng bo'lgan. Rossiya bosqinigacha «ambuna» 78-79 kg atrofida, bosqindan so'ng esa 98.28 kgga teng bo'lgan. Shug'nonda esa 144 kgga teng bo'lgan.

«Ag'ri» – XIX asrda Xorazm va uning shaharlarida qo'llanilgan, 62.5 g teng bo'lgan og'irlik birligi. Ag'ir Buxoroning 12.5 misqoliga (5,0 g) teng, mahalliy Xorazm birligida esa – 13 misqol (4.53 g dan) va 80 arpos (0,045 g) ga teng.

«G'aribak» – Markaziy Osiyoning qator shahar va viloyatlari (Samarqand, O'rta tepa, Shahrisabz va b.) da XIX asr manbalariga ko'ra yirik «mayin» tizimdagi eng kichik birliklardan biri bo'lgan. etnografik ma'lumotlarga ko'ra, g'aribak Dashti Jumada (Panj vodiysi) 500 gr.ga, Obi Garshda esa 2,536 kg.ga teng bo'lgan. Bu birlik Kuldbdan o'zlash-tirilgan.

«Chitcha» – XIX asr Toshkent mann tizimida chitcha uning 1/1024 qismini tashkil etgan. Toshkent jomi = 10,5 pud. 171,995 kg. Shunga ko'ra 1 chitcha = 168 g.

«Dong» -Bu atama har qanday og'irlikning 1/6ni ifodalashda ishlatiladi. (Shuning bilan uzunlik va yuzaga ham) Buxoroda 4,8 misqol 0,8 dongga teng Xorazmda XIV–XIX asrda 4,53-4,55 g ~ 0,76 g dongga teng bo'lgan.

«Daxsir» – Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda daxsir (10 sir) man tizimidagi birlik sifatida qayd etilib, uning ¼ qismini tashkil etgan.

Ayrim hududlarda (Masalan: Farg'ona, Ho'jand) daxsir XIX asrda mann tizimida qayd etilmagan.

«Ellik paysa» – Ellik paysa – 50 paysa. Bu atama Qo'qonda XIX asrda «nimxurdom» deb atalgan.

«Istar» -So'nggi o'rta asrlarda Buxoroda istar 4,8 g dan 4,5 misqolga teng bo'lgan. Istar ratl va mann tizimini uzviy tashkil etib, bu yerda ancha oldin paydo bo'lgan.

«Yosirak» – XIX asr manbalariga ko'ra yosirak 16 pudni man tizimi-ning mayda og'irlik birligi sanalgan. Uning 1/1024 qismini tashkil etgan. 16 pud = 262,088 kg bo'lsa, yosirak = 256 g ga teng bo'lgan. Etnografik ma'lumotga ko'ra Dashti Juma (Panj viloyati) da = 1,25 kg.ga, Obi Garjda esa – 5,072 kg ga teng bo'lgan. Birlik Kulobdan o'zlashtirilgan.

«Qadoq» – «Qadoq» XIX asrda Samarqandda va Katta Qo'rg'onda 1 funt ~ 409,512 g ga tenglashgan. Etnografik ma'lumotlarda esa Dashti Juma (Panj viloyati) da qadoq 317 g, Obigarm (Qora tegin) da 634 g ga tengligi keltiriladi.

«Qop» – Sochma mahsulot og'irlik birligi . XIX asrda shimoliy sharqiy hududlarda qop = 4 pud atroflarida qayd etiladi. (65–66 kg ga yaqin) Kulobda 2 karra og'irroq ya'ni, 8 pud, Babjuonda 6 pud, 16 funt.

«Katta dunimsir» – XIX asrga kelib Markaziy Osiyoning qator shaharlarida 16 pudli mann (botmon) muomaladan chiqqa boshladi. Dunimsir (1/16 manga teng) 1 pudga teng bo'lib, kattta dunimsir nomini olib muamolada davom etdi.

Man (Botmon) – Movaraunaxr hududida bu birlik 40 sirdan tashkil topgan. Oraliq birliklar esa dunimsir keyinchalik choryak bo'lgan. Mandan Xiva, Xazorast, Taashauz, Shovot, Kat va boshqa shaharlargacha foydalanilgan. Mann = misqol = 4,53 gr Xonqa, urganch, Kungiro, Beshariq, Shuraxona, Shobbozda mon ikki barobar og'ir bo'lgan (40 kg.)¹ .

«Tekin botmon» 47 funt atrofida bo'lib, Shimoliy Eron va Uzboy (Amudaryoning qadimiy irmoqlaridan) oralig'ida yashovchi turkmanlar tomonidan foydalanilgan. Bu Xorazm va Buxoroda majud bo'lgan mon bilan bir xil bo'lganligi ehtimoldan holi emas.

¹ Давидович Е.А. История монетного дела, Средней Азии XVII–XVIII вв (Золотые исеребрянные монеты Джанидов), Душанбе, 1964. 307–311.

Buxoroda so'nggi o'rta asrlarda monning 5 ta turi mavjud bo'lgan. Ular quyidagi tizimda bo'linganlar: mann = 40 siram = 16 dunimsir; dunimsir = 4 choryak; choryak = 2 nimchoryak = 4 nimga; nimga = 2 nim-nimga; nimcha = 4 sanga 1671 yil Moskvada elchi bo'lib kelgan Buxoro elchisi mulla Farrux bergan ma'lumotlarga ko'ra Buxoroda batmon = 1,5 pudga teng (24 kg dan ortiq).

Buxoroda shariat mani haqida XIV asr va XVIII asr oxirlaridagi manbalarida qayd etilgan. Bu man 180 misqolga teng bo'lgan. Bundan kelib chiqib 1 man $4,8 \times 180 = 864$ g ga teng bo'lgan.

XVI asr vaqfnomasida Buxoroda qo'llanilgan og'irlik birligi sifatida «moni toqi» yoki «non bosangchi toqi» keltiriladi. Bu man 5 shariat maniga teng bo'lgan 1 shariat man ~ 864 g, manni toqi $\sim 4,32$ kg. XVIII asrda Qarshida batmon 10 funtga (4 kg atrofida) teng bo'lgan. Bu Buxoro mani toqisiga juda yaqin.

Toshkent monn rus manbalarida (XIX asr) botmon nomi bilan keltiriladi. Bu birlik 10 yoki 10,5 pudga (171,99 kg) ga teng bo'lgan. Avliyo otada man (botmon) XIX asrda 12 pudga teng bo'lgan.

Misqol – XIV asrda Xorazm misqol 4,55 g ga teng bo'lgan. XIX asrda mahalliy misqol 4,53 g ga teng qilib qayd etilgan. Bundan kelib chiqadiki misqol XIV – XIX asrlar davomida muomalada bo'lgan.

So'nggi o'rta asrlarda Buxoroda 2 xil misqol: biri 4,8 (98 jou) va ikkinchisi 5,0 g (100 jov) ga teng bo'lgan. 4,8 misqol qimmatbaho metal, tosh, buyumlarni o'lchashda foydalanilgan. 50 g li misqol mustaqil birlik sifatida foydalanilmagan. Qo'qon xonligida misqol $409,512:90 = 4,55$ g ga teng bo'lgan. Farg'onada XIX asrda misqol 100 arpa ga bo'lingan. «Mut» – Sochma mahsulot o'lchov birligi. Xuvada taxminan 500 g ga teng olinadi.

«Noxud» – Odatda $1/24$ misqolga teng bo'lgan. Buxoroda XVI- XIX asrda noxud = 0,2 g bo'lib $1/24$ misqolda 4,8 g ni va $1/25$ misqolda 5,0 g tashkil etgan.

«Nimdong» – XV- XIX asrlarda Markaziy Osiyoda istefodada bo'lgan majus atamasi, $1/2$ nimdong = $1/12$ misqol. Aynan shu misqol va mazmunida tanga yozuvlari va yozma manbalari keltirilgan. Masalan: mis tangalaridagi (914/1508-09 y) yozuvlarida nimdong = $1/2$ misqolga teng bo'lib, bu

4,8 g ni tashkil etadi¹. Dong kabi birlik atamolari og'irlikning 1/12 qismini ifodalashda keng qo'llanilgan (shuningdek uzunlik va yuzaga ham).

«Nimsang» – Ba'zi qoldiqsiz man tizimidagi og'irlik o'lchov birligi bo'lib, ½ songga teng bo'lgan.

«Nimxurd» – Turli qoldiqsiz man tizimidagi og'irlik o'lchov birligi. Bu birliklar bilan parallel ravishda nimcha termini ham ishlatilgan. Nimxurd O'rtatepa Samarqand, Buxoroda 16 pudli qoldiqsiz man tizimida ¼ choryak (1/256 man) vazifasida keladi. Shuningdek, Jizaxning 8 pudli man sistemasida ham (1,25 funt, = 512 g).

Buxoroning 8 pudli man tizimida 312,5 funtda o'xshash birlik sifatida nimcha ishlatilgan. Arg'ona va Xo'jand qoldiqsiz yirik birliklar tizimida boshqa o'rinni egallagan. Ho'jandda (shuningdek Ko'stako'z qishlog'ida) va Qo'qonda nimxo'rd ¼ choksa va 1/64 choryakni tashkil etdi. XIX asrda Qo'qon va Ho'jandda choryaklar turlicha bo'lgani kabi, nimxurdning ham salmog'i turlicha edi. Ho'jandda 256 g (10 paysa) bo'lsa, Qo'qonda 5 karra ko'p 1,278 kg (50 paysa) edi.

«Nimcha» – Nimcha va nimxurd atamalarining ma'nolari bir xil bo'lib, «yarim» ma'nosini anglatadi. Shu boisdan bu ikki atama paraellel ravishda ishlatilgan.

«Nimchoryak» – Markaziy Osiyodagi ko'plab qoldiqsiz man tizimdagi og'irlik birligi bo'lib, ½ choryakka teng.

«Paysa» – Bu birlik Farg'ona, shu jumladan Ho'jandda nihoyat darajada qo'llanilgan. Ho'jandda 1 paysa 1/40 choksaga, choksa esa – 1/16 choryak 1 pudga teng bo'lgan. 1 paysa = 25,6 g Qo'qonda paysa – 1/200 choksa, so'ngisi – 1/16 choryakka teng bo'lib, choryak miqdori 162 dan to 180 gacha bo'lgan ingliz savdo funtlariga o'zgartirilgan.

«Por» – Sochma mahsulot og'irlik birligi. Vaxan va Imkashimda (Panj yuqorisida) «lup-por» (katta por) don og'irligida taxminan 16 kg li pudga teng bo'lgan. Katta por 2 ta o'rta va 4 ta kichik porga bo'linadi (12 qalpoqdan ~ 48 hovuch bug'doy).

«Pud» – 16,38 kgdagi rus og'irlik birligi bo'lib, Markaziy Osiyoda mustaqil birlik sifatida Rossiya bosqiniga qadar ishlatila boshlagan.

¹ Давидович Е.А. История монетного дела, Средней Азии XVII–XVIII вв (Золотые исеребрянные монеты Джанидов), Душанбе, 1964. 304-305.

«Rastay» – Sochma mahsulot o‘lchov birligi. Etnografik ma‘lumotlarga ko‘ra Xufada ruslargacha rastay 8 funtga teng bo‘lgan. Keyinchalik uni sun‘iy ravishda 10 funtga tenglashtirishgan. Bundan maqsad rus pudini 4 rastayga tenglashtirish bo‘lgan. Bunday rastay 4 kg 8 mutda (mut \approx 500 g) sanalgan. Zulm- rastay («zo min rastay») soliqlarni oshirish maqsadida sun‘iy ravishda 12 mutga ko‘tarilgan birlik¹.

«Ratl» – Markaziy Osiyoda mon don keng ko‘lamdan foydalanilgan. Ammo, shuning bilan birga ratl = am uchrab turgan. XIV asrda ratl 330 dirhamga teng bo‘lgan. Bundan kelib chiqadiki XIV asrda ratl = 1,38 x 330 = 455,4 g ga teng bo‘ladi.

«Sa» – XVII asrda Buxoroda bu birlik 90 misqolli 8 ratmga (720 misqol) teng bo‘lgan. 4,8 g misqolda 1 sa = 3,456 kg. Bu birlik 180 misqolli man qat‘iy og‘irlik birligi guruhiga kiradi.

«Sang» – «Vazn», «tarozi toshi» (shuningdek tosh) ma‘nolarini anglatadi. Sharqiy Buxoroning tog‘li va tog‘ oldi hududlarida sang qoldiqsiz man sistemasida turlicha hisoblangan. Kulobda sang 5 kg, Dashti Jumada (Panj vodiysi) 5 kg, Obi Garj – 5,072 kg.

«Sir» – Movoraunaxr viloyatlarida bu birlik keng istefodada bo‘lgan. Butun o‘rta asr davomida sir 1/40 man (batmon) sifatida qo‘llanilgan. Bu birlik Buxoro, Samarqand va boshqa ularga birikuvchi mayda shaharlarda qoldiqsiz turli man (batmon) tizimida qayd etilgan.

«Sogu»- Shug‘nonda 0,5 kafcha (0,5 pud = taxminan 8 kg) ga teng bo‘lgan.

«Tabaq» – Sochma mahsulot o‘lchov birligi (lagan). Qarateginda tabaq 12 rus funtiga (taxminan 4,9 kg) teng bo‘lib, u 1/32 botmonni tashkil etgan.² Sochma mahsulotlarni o‘lchashda tabaqning ikki turi «kichik va katta» tabaqlar ishlatilgan. Kichik tabaq – 3 toqi (qalpoq) 1,300-1,330 kg dan. Katta tabaq 9 taki (11,7-12 kg); 12 taki (15,6-16 kg); 16 toqi (20,8-21,3 kg); 20 toqi (26-26,6 kg). Katta taboq yerdan olinadiga natural soliq to‘lov vaqtida ishlatilgan.

¹ Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии., М.: –1970 г. 101.

² Рахимов М.Р. Земледение таджиков бассейна р. Хингоу, 172–174.

«Toqi» – Sochma mahsulot o'lchov birligi. Xingou va Qorateginda 1,30-1,33 kg, Hufada 2 kg (4 mut), Rushanda ham 2 kg (5 mut) atrofida, Yozg'ulanda 2,5 kg (5 guriv).

«Tassu», «tassuj» – Bu birlik $\frac{1}{4}$ dong ga teng bo'lgan. Buxoro misqomidagi tassuj 4,8 g da 0,2 ga teng. Ammo so'nggi o'rta asrlarda bu miqdorni anglatish uchun naxud atamasi ishlatilgan.

«Tafsin» – Shug'ionda suyuqlik o'lchov birligi bo'lib, taxminan 2 kg ga teng bo'lgan.

«Uyuq», «viloq» – Yuk tashidigan otning og'irligi. Xufada ambunga yoki 24 rastayoga tenglashtirilgan. Bundan kelib chiqadiki Rossiya bosqiniga qadar taxminan 76,8 kg, keyinroq esa 96 kg atrofida. Shug'nonda taxminan 64 kg atrofida bo'lgan.

«Unsir» – XIX asrda Xorazmda unsir (10 sir) $\frac{1}{4}$ Xorazm maniga (bu esa o'z o'rnida 5,0 g li 1000 Buxoro misqomiga yoki $\frac{1}{4}$ Xorazmning 4,53 g li misqomiga) teng bo'lgan. Mustaqil birlik sifatida ishlatilgan.

«Uchnimxurd» – Farg'onada mahur bo'lgan. Qo'qon va qator shaharlarda uchnimxurd 150 paysaga (8,5 funt = 3,48 kg) teng bo'lgan. Shuning bilan birga 4,5 pudli choryak tizimida ($\frac{3}{4}$ chaksa, chaksa – $\frac{1}{16}$ choryak) birlik bo'lgan. O'rta Tepada uchnimxurd O'ratepa choryakining $\frac{3}{4}$ qismini tashkil etgan (3,071 kg).

«Funt» – 409,512 g rus og'irlik birligi. Foydalanish muddati rus bosqinidan so'ng qayd etilgan.

«Xamb» – Sochma mahsulot og'irlik birligi.

«Chaksa» – Farg'onada keng istifodada bo'lgan og'irlik birligi. XIX asr manbalariga ko'ra chaksa choryak $\frac{1}{16}$ ni tashkil etgan. Hujandda chaksa = 2,5 funt = 1,024 kg.

«Choryak» – Buxoro, Samarqand, sharqda O'ra Tapa va Tokentgacha bo'lgan shaharlarning rivojlangan o'lchov tizimida choryak $\frac{1}{4}$ dunimsirga va $\frac{1}{64}$ manga kiritilgan. XIX asr boshlariga kelib Buxoro va Samarqandda 16 pud li eng yirik man istifodada chiqqan.

«Shoir» – bu $\frac{1}{4}$ tassun, $\frac{1}{96}$ misqol. Istalgan o'lcham (uzunlik, og'irlik va b.) ning kasr qilishni ifodalashda ishlatilgan. XIV asrda Xorazmda pul tizimida hisob birligi sifatida foydalanilgan.

«Shira» – 4 pudli shira XIX asr o'rtalarida Toshkentda qayd etilgan.

«Shanik» – Fargʻonadagi XIX asrda ogʻirlik oʻlchov birligi boʻlib, $\frac{1}{4}$ choryakka teng.

«Shuturvor» – XVII – XIX asr manbalari tahliliga koʻra Buxoro shuturvori 10 mom (2,5.6 kgli) ga teng boʻlgan. XVII asrda Xorazmda bu birlik xorvarga nisbatan 1,5 baravar ogʻirroq boʻlganligi qayd etilgan. Buxoro va Xorazm shuturvorlarini qiyoslaydigan boʻlsak, qayd etilgan Xorazm shuturvor birligining sifati 16 pudga yaqin yoki teng (taxminan 262 kg) boʻlgan.

Hajm oʻlchovi birliklari.

«Gaz», «gazdon» – Hajm oʻlchovi birligi boʻlib, Xufada 310-325 kub. sm. ga teng boʻlgan yogʻ oʻlchovida qoʻllanilgan. Sochma mahsulotlar oʻlchovida ishlatilgan.

«Gʻiola» – Hajm oʻlchovi birligi boʻlib, Xufada yogʻ gʻaziga teng oʻlchov sifatida Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida ham ishlatilgan. Odatda savdodan koʻra kundalik turmushda juda keng qoʻllanilgan.

«Savray» – Hajm oʻlchovi birligi boʻlib, XIX asrda Xufada 5 gazga (310-325 kub.sm.) teng boʻlgan (1,5 l koʻproq) 1550-1625 kub. sm.keyinroq esa 6 gazga, 2 l dan kamroq (1860-1950 kub.sm.).¹

II.3. Uzunlik birliklari.

Boshqa ogʻirlik birliklari kabi uzunlik birligi etnografik jihatlar bilan bogʻliq boʻlgan. Bundan tashqari foydalanishi qoʻlashi, salmogʻi ham turlicha boʻlgan. Ularni quyida keltirib oʻtamiz.

«Alchin» – Bu 71.12 sm.li rus arshini. Xorazm va boshqa shaharlarda bu birlik rus istelosiga qadar ishlatila boshlagan. Ammo, Xingou havzasida alchida rus arshini emas, aksincha koʻrsatkich barmoqdan tirsakkacha boʻlgan oraliq tushunilgan (45-50 sm.).²

«Angusht» – Barmoq maʼnosini bildirib, qatlangan oʻrta barmoq boʻgʻin kengligiga teng. XVIII asrda Buxoro va oʻlchov birligi qatʼiyan 6 dona bugʻdoy donining yonma-yon qoʻyilgan holati uzunligiga teng boʻlgan (shuningdek, har bir don kengligi ishchi otining 6 dona yomiga teng boʻlgan). Angusht mustaqil birlik sifatida qoʻllanilgan. Angushtar soni gaz oʻlchovini aniqlagan. Ammo angushtning oʻrta oʻlchovi oʻzgarib

¹ Давидович Е.А. История монетного дела, 304.

² Рахимов М.Р. Земледение таджиков бассейна Хингоу. 177.

turgan. Sababi gaz amaliyotda musht bilan o'Ichangan, bu esa 4 angusht va 3 angushtga teng keluvchi buklammaga bosh barmoqqa teng edi. Bu ikkilanishlarni keltirib chiqargan (2,18-2,28 sm.).

«Vajab» – Uzunlik o'Ichov birligi, kaftdagi barcha barmoqlarning keng yozilgan ravishda o'Ichanaadi. Kundalik turmushda, tog'li hududlardagi qurilish ishlarida qo'llanilgan.

«Viyov» («qadam») – Uzunlik o'Ichovi, Ro'shanda qadamga teng bo'lgan.

«Gaz» – Gaz va zar atamaları Markaziy Osiyo hududlarida tajnisi tarzda ishlatilgan. Sharqiy manbalarda (shuningdek yuridik hujjatlarda) ikkila termin ham qo'llanilgan. Gaz o'Ichovini 3 tizimda aniqlangan:

1. Cho'zilgan qo'lning barmoq uchidan shu qo'l yelkasigacha, ko'krak o'rtasigacha, ikkinchi yelkagacha oraliq masofa.

2. Barmoq o'Ichoviga tayangan aniq tizim.

3. Musht o'Ichoviga tayangan.

Xorazmda gaz 12 ingliz dyuymiga teng bo'lgan (30.48 sm.). Gaz uchun bu juda kichik o'Ichov, bu yerda anglashilmovchilik bo'lishi ham mumkin (aniqrog'i manbalarda J. Hanway, An historical account, vol. I, r.351).¹ Xorazmda XIX asrda gaz ning 2 turi mashhur bo'lgan: biri yer maydonlarini o'Ichashda, ikkinchisi gazlama, matolarni o'Ichashda qo'llanilgan. Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni jamlab aytish mumkinki yer o'Ichovida Xorazmda gaz – 106,107 sm ga, mato o'Ichovida 61 smga teng bo'lgan.

XIX asrda «shox gazi» nomi ostidagi o'Ichov birligi muomalada bo'lib, 15 arshinga teng bo'lgan (106,68 sm). XVI asrda Samarqandda gazi muqassar (qisqartirilgan gaz) mashhur bo'lgan. U bilan mato va boshqa mahsulotlar, shuningdek yer maydoni ham o'Ichangan. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra Sharqiy Buxoroda quyidagi gazlar ishlatilgan:

1. Chub gaz – ko'krak oralig'idan barmoqqacha bo'lgan masofa. Xingou havzasida 84-88 sm, Xuvada va Yozg'ulamda 83 sm, Shug'nonda – quyuch yarmi.

2. Gilim gaz Xuvadagi asosiy gaz bo'lib 275-268 sm ga teng bo'lgan.

¹ Давидович Е.А., Материалы по метрологии средневековой Средней Азии., М.: –1970 г. 111.

3. Yelka kengligida cho‘zilgan qo‘lning barmoq sunggidan to ikkinchi yelkagacha bo‘lgan oraliq. Odatda Chub gaz deb atashadi, Ro‘shanda qultada gazak (eng katta gaz) deb atashadi.

4. Chap yelkadan cho‘zilgan chap qo‘l barmoqlari uchigacha bo‘lgan masofa (69-71,5 sm) Xufada Nikolaev arshini deb nomlangan. Bundan kelib chiqadiki, bu o‘lchov ruslar istelosidan keyin kelgan.

5. Xingou havzasidagi to‘quvchilar gazi – ikki qulochgacha teng. To‘quvchilar tomonidan tayyor matolarni o‘lchashda ishlatilgan.

6. Shuvda gazak (kichik yoki mayda gaz) yoki nim chub gaz Ro‘shonda foydalanilgan, ammo uning o‘lchovi haqida manbalarda ma‘lumot keltirilmagan.

«Gerex» – Uzunlik birligi, Xorazm va Buxoroda qayd etilgan. Eron va Afg‘oniston o‘xshashligi asosida aytish mumkin, u $1/16$ gazaga teng bo‘lgan. XIX asrlarda ehtimol $1/16$ yirik gaz Xorazm va Buxoroda 106-107 smga teng bo‘lgan bo‘lsa kerak. Natijada gerex = 6,625-6,69 smga teng.

«Dong» – Atama $1/6$ gaz yoki zarni ifodalashda ishlatilgan. O‘rta asr yuridik hujjatlarida shu ma‘noda qayd etilgan. Shuningdek nimdong – dong yarmi ($1/12$ gaz/zar); dongu nim – dong va dong yarmi ($1/6 + 1/12 = 3/12$ gaz/zar) kabi atamalar ham ishlatilgan¹.

«Qabza» – To‘rt barmoq kengligi, qo‘lning musht holatida bukilib arqon yoki tayoqni tutib turgani. Gazni o‘lchashda foydalanadigan amaliy o‘lchov birligi.

«Qadam» – Bu uzunlik o‘lchovi qurilishda, yer va kanalarni o‘lchashda foydalanilgan. U hattoki yuridik hujjatlarda ham uchraydi. Farsaxning qat‘iy o‘lchami – 12000 qadam bo‘lgan.

«Qori» – Bu atama gazning sinonimi sifatida yirik o‘lchov birliklarida qo‘llanilgan. Xorazmda XVIII asrda qori bir gerex 2 rus arshiniga teng bo‘lgan. Eronda gerex – $1/16$ zar 104 sm da = 6,5 sm ga teng bo‘lgan. Qobulda esa 2.531 ingliz dyuym (6.43 sm). Ulkan ehtimol bilan aytish mumkin Xorazmda gerez = $1/16$ Xorazm gazi (106-107 sm) \approx 6.7 sm. Natijada qori = 148.94 sm. Buxoroda ba‘zi turdagi matolarni o‘lchashda ishlatilgan qori 4,5 rus arshiniga (320,04 sm) teng bo‘lgan. Farg‘onada qo-

¹ Рахимов М.Р., Земледение таджиков бассейна р. Хингоу, 1957 г., 175.

ring 2 turi «Qulocht qori» va «Uzun qori» mavjud bo'lib, paxta va ipak matolarini o'lchashda ishlatilgan. Bu birlik $2 \frac{1}{4}$ arshin + 1 vershak (4,4 sm) \approx 164,45 smga teng bo'lgan. Kalta qori xomsurp o'lchashda ishlatilib, arshindan 3 vershakka kichik bo'lgan (57,79 sm) «Qarich» va «vjab» foydalanishi bir xil.

«Quloch» – Yelka kegligi bilan oldinga cho'zilgan qo'llar barmoqlarining oralig'idagi masofa. Rus qulochi 2,5 arshinga (177-178 sm) teng bo'lgan. XIX asrda Buxoroda quloch (mato o'lchovida) 2 alchin yoki 56 ingliz dyuym (142,24 sm) ga teng bo'lgan. Farg'onada esa quloch 2,5 shoriat gaziga (167,5 sm) yoki Farg'onaning ikki qurilish gaziga (166-170 sm) tenglashtirilgan. Sharqiy Buxoroning tog'li rayonlarida dala maydonlarini va gazlamalarni o'lchashda ishlatilgan.

«Sera» – O'lchov birligi. Farg'onada ko'rsatkich barmoq va jimjiloqning yoyilgan ravishda turgan holatidagi oraliq masofa. Agar ko'rsatkich barmoq olinsa, o'rta barmoq va jimjiloq o'rtasidagi masofa kichikna sera deb atalgan. Nomsiz barmoq va va jimjiloq oralig'ini chet qo'lga keldi deyshgan.

«Suyam» – Farg'onada bosh barmoq va ko'rsatkich barmoq oralig'idagi masofa (18 sm). Bu birlik kundalik turmushda va qurilishda keng qo'llanilgan.

«Tassuj» – Bu atama $\frac{1}{24}$ gazni ifodalashda ishlatilgan.

«Farsax» – Masofa o'lchov birligi bo'lib, farsang, sang, tosh va yig'och deb ham atalgan. Bu birlikning qat'iy o'lchami – 12000 qadam. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xorazmning XIX asrga oid manbalarda farsax 8 verst (chaqirim – 1,06 km) teng deb hisoblangan.

«Xabba» – Markaziy Osiyo va sharqning boshqa davlatlarida bu atama $\frac{1}{96}$ gazni ifodalashda ishlatilgan. Tarixnavislikda metrologiya fani yetakchi o'rinni egallaydi. Biz tanlagan mavzu davlatchilik tariximizni yoritishda muhim ahamiyatga egadir. Metrologik tarixiy tizimni o'rganish orqali xalqimiz o'tmishining ichki va hayotiga oid muhim jabhalarini tadqiq etgan bo'lamiz. Davlatchiligimizning tashkil topishi va ravnaqi tarixi bevosita uning ichki va tashqi faoliyati orqali tavsiflanadi. Metrologik tizim ham shu jumladan, tarix fanining muhim atributlaridan sanaladi. Metrologik tizimdagi o'lchov birliklarning paydo bo'lish davri va foydalanish darajasi turlicha bo'lgan.

Bu mavzuning o'ziga xos e'tiborli jihatlari juda ko'p. Shularda biri, ma'lum bir o'lchov birligiga bo'lgan atamaning boshqa bir shu o'lchov birligiga tegishli bo'lgan atama bilan sinonim tarzda ifodalanilishi edi. Masalan: farsang-farsax-sang-tosh-yig'och, yoki tutam-qubza-o'rta bo'g'in-musht, qarich-vajab, asba-angusht – barmoq – asba'i kamma, chuvol-qol, gaz-gazdon kabilardir. Ularning istefodada qo'llashi va rivojlanishi davri turlicha bo'lgan. Bu birliklar hududlarga sohalarga qarab bir biridan tamoman farq qilgan. Yozma manbalarida keltirilishicha qarab ularning foydalanish darajasini belgilashimiz mumkin. Masalan: Zahiriddin Muhammad Bobur davrida yig'och, farsax atamalari, shuningdek she'riy ham ko'p uchraydi. Sinonilik foydalanishdan tashqari boshqa bir holatlar ham mavjudki, ular yozma tarixiy manbalarni tahlil etishda biroz qiyinchilik keltirib chiqaradi. Ular:

1. O'lchov birliklarida territorial (hududiy) chegaralanish.
2. O'lchovning bir turiga oid bo'lgan birlikning boshqa o'lchov turida ham ifodalanishi; maslan: «Dong» atamasi barcha o'lchovlarda (og'irlik, hajm, uzunlik, maydon) qo'llanilgan.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning bir-birlariga zid ekanligi.

Bu holatlarda biz manbalarni har tomonlama o'rganish, ma'lumotlarni taqqoslash orqali masalaga oydinlik kiritgan bo'lamiz.

Metrologiya fanida ko'plab mahalliy, g'arb va sharq olimlari faol ijod olib borganlar. Bu olimlarning ilmiy me'rosi tahsinga loyiq. Shu kabi tadqiqotchilardan nemis olimi V.Xins., Ye.A. Davidovich., M.S. Andreyev., V.A., Vyatkin., K. Ignatev shuningdek M.A. Abduraimov., B.I. Iskandarov., B. Kazbekov., P.Sh. Zohidov kabi olimlarni keltirishimiz mumkin. Xulosamizni bayon etadigan bo'lsak, metrologiya fani garchi o'rganilgan soha bo'lsada ammo unga yechim bo'lgan, manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning barchasi ham tahlil etilmagan. Ba'zi manbalar tarjima qilingan, ammo unda uchragan metrologik birikmalar tarjima qilinmagan va tahlildan chekinish holatlari mavjud.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Metrologiyaning yordamchi tarix fani sifatidagi vazifalari, predmeti.
2. Metrologiya-o'lchamlar haqidagi ta'limot.
3. Tarixiy metrologiyaning paydo bo'lishi va rivojlanishi

4. Metrologiyaning manbalari.
5. Metrologiya manbalarni o'rganish metodikasi.
6. Qadimgi Markaziy Osiyoda o'lchov birliklari.
7. Uzunlik o'lchov birliklari
8. Yuza, sath o'lchov birliklari
9. Sig'im, hajm o'lchov birliklari.

1.10. Tarixiy xronologiya

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Talabalarga tarixning zamon tushunchasi bilan bog'liq hodisa ekanligini, shu munosabat bilan vaqt hisobi tajribalarini, astronomik vaqt va hisoblash asosida paydo bo'ladigan vaqt tushunchalarining o'zaro munosabatini, taqvim va uning turli usullarini, voqea-hodisalarning vaqtga munosabatini aniqlash yo'llarini tushuntirish, turli hisoblar o'rtasida biridan ikkinchisini chiqarish yo'llarini o'rgatish.

Tayanch so'z va iboralar: *xronologiya, davr tushunchasi, asosiy xronologik birliklar, kalendarlar, shamsiy va qamariy yil hisobi, sohibqiron, qarn, burj, davron tushunchalarining mohiyati, yil hisoblarining kelib chiqish, era, xora, asr, yil, daqiqa, klepsird, suv soatlari, sekunda, yulian, grigoryan kalendarlari, kabisa, musulmon taqvimi, muchal hisobi, Ashoka, Yazdigird eralari, astronomik yil hisobi.*

Vaqt hisobi tarixni bilishning asosidir. Tarix voqe'liklarining muayyan tizimi sifatidan vaqtdan tashqarida bo'lishi mumkin emas (Faqat alloh islomiy aqidaga ko'ra vaqtdan tashqari, u azal, u hozir va u abaddir). Yaralmish borliq vaqtdan tashqari emas ekan, uzoq-yaqin o'tmishning u yoki bu voqeasini vaqt bilan bog'lash shartdir. Bas, shunday ekan, hisobni nimadandir va qanday qilibdir boshlash ehtiyoji doimo odamzod uchun muhim bo'lib kelgan. Insonning xotirasi o'tmishni saqlash, undan kelajak uchun ibrat topishga moil bo'lib kelgan. Hozir ham, zamonamiz qanchalik taraqqiy topganiga qaramay, tarixga murojaat qilish tabiiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy zaruriyatligicha qolmoqda. Vaqt esa, ortga qaytarib bo'lmaydigan hodisa. Tarix g'ildiragi ham to'xtashni bilmaydi. Vaqt inson hukmida emas. Yo'qotilgan vaqt – yo'qotilgan baxtdir. Hayotning insonga bergan eng buyuk darsi vaqtning har bir lahzasidan ezgulik yo'lida aql-

idrok bilan unumli va maqsadli foydalanishga bo'lgan abadiy da'vatdir. Umar hayyomdan ta'sirlanib shunday degim keldi:

*Falakdan quloqqa yetishdi nido:
Ne yerdan kelgandir bul hukmi qazo?
Charxning hukmi gar bo'lsaydi menda
Odamni jannatdan etmasdim judo.*

Hamonki, xronologiya vaqt hisobi haqidagi insoniyat to'plagan bilimlarni umumlashtirar ekan, uning hisob me'yorlari, vaqt cheksizligida belgilanuvchi «nuqta»lari, hisoblash atamalari va ularning mohiyatiga kirish tabiiy talabga aylanadi. Aks holda vaqt hisobining «tutqichlari» dan tutmagan bo'lamiz. Oqibatda esa, bilishimiz lozim bo'lgan voqea-hdisalarning vaqt chizig'idagi o'rmini, unga bog'liq shart-sharoitlarning uzviylikini anglashimiz qiyin bo'ladi. Shunday qilib, vaqt hisobi uchun qo'llanib kelayotgan atamalar va ularning ma'nolari haqida to'xtalsak.

Xronologiya tarixiy fanlarning rivojlanishi natijasida vaqtning o'rganadigan fan sifatida XVI asrda vujudga keldi. Xronologiya ilm sifatida Bobil, Misr, Yunoniston va Rimda shakllandi. O'rta asrlarda xronologiyaning rivojlanishiga Markaziy Osiyolik olimlar ham o'z hissalarini ko'shdilar. Abu Rayhon Beruniyning «Al-osor al-boqiya ani-l-holiya» (O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar), «Qonuni Mas'udiy» asarlarida xronologiya faniga oid ko'plab ma'lumotlar berilgan. Umar Hayyom kalendari esa mukamallik jihatidan Grigoriy kalendaridan ham ustun turadi. 1935 yilda Oliy o'quv yurtlarida tarix fakultetlari ochilgandan keyin boshqa tarixning yordamchi fanlari qatorida talabalarga xronologiya fani ham o'qitila boshlandi. Xronologiya – yordamchi tarix fanlaridan biri bo'lib, u vaqt to'g'risidagi fandır. Xronologiya so'zi yunoncha so'z bo'lib, «xronos» – vaqt, «logos» – fan, ya'ni vaqtning o'rganish haqidagi fan deganidir. Xronologiya vaqtlarni o'rganish, hisoblash haqidagi fan sifatida ikki qismga bo'lindi, bular astronomik (matematik) xronologiya va tarixiy xronologiyadir. Astronomik xronologiyaning vazifasi –osmon jismlarining siljishi to'g'risidagi aniq astronomik davrlarning vaqtini aytib berishdir. Tarixiy xronologiya tarixiy taraqqiyot davomida vaqtning hisoblash sistemasini o'rganadi, ularning o'zaro bog'likligini, vaqtlarni bir hisob sistemasidan ikkinchisiga

aylantirish uslublarini ishlab chiqadi. Tarixiy xronologiya yuqoridagi hisoblash sistemasidan tarixiy vaqtlarni hisoblashda amalda foydalanadi va tarixiy manbalardagi sanalarning aniqligini tarixiy tahlil qiladi. Insoniyatning xo‘jalik hayotidagi ehtiyoji vaqtni hisoblash zaruratini yuzaga keltirdi. Qadimda vaqtni hisoblashda tabiatning doimiy takrorlanib turuvchi hodisasi bo‘lgan sutka, kun, tun, oy fazalarining o‘zgarishi, yerning yillik aylanma harakatidan foydalanilgan. Asta-sekin vaqtni aniq hisoblashga bo‘lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Buning uchun osmon jismlar harakatini, umuman astronomiyani bilish zarur edi. Bundan tashqari yana bir vazifani, kun, oy, yillar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash zarurati ham tug‘ildi. Buning uchun esa matematik hisob-kitobni puxta bilish lozim edi.

Xronologiya bilim sohasi rivojlanishiga Qadimgi Yunoniston va Rim olimlari Erot Kalipp, Gipparx, Varron, Ptolomeylar katta hissa qo‘shganlar. Gipparx – (milodgacha 190-125 yillar) birinchi bo‘lib Oyning o‘lchamini va undan Ergacha bo‘lgan masofani aniqlagan. U shaxsiy kuzatuvlari natijasida Quyosh yilining uzunligini deyarli aniq hisoblab chiqqan (xato 6 daqiqa). Olim o‘sha davr uchun ulkan hisoblangan 850 ta yulduzlarning holati katalogini tuzgan edi. Klavdiy Ptolemey – mashhur «Almagest» asari muallifi. Asar o‘rta asrlargacha astronomiyaga oid asarlarning sarasi hisoblangan. Shuningdek, Ptolemey sakkiz kitobdan iborat «Geografiya» asarining muallifi hamdir. U kartografik proeksiyalar nazariyasini ham yaratgan. Uning «Podshohlarning xronologik jadvali» asari xronologiyaga oid muhim manba hisoblanadi.

Mark Terensiy Varron (milodgacha 116–27 yillar xronologiya fanining rivojiga katta hissa qo‘shgan. U qomusiy olim bo‘lib olti yuzga yaqin asarlar muallifidir. Terensiy Varron asarlarining aksariyati xronologiyaga bag‘ishlangan. VII asr oxiri – VIII asrning birinchi choragida yashagan ingliz monaxi, solnomachi Beda Dostopochtenniy xronologiyaga oid «Dunyoning olti yoshi» nomli asar muallifidir. Uning asarida xristian erasining asoslari haqida ma’lumot beriladi. Yevropada xronologiya fanining vujudga kelishi va taraqqiyoti. XVI asrda fransuz olimi J. Skaliger tarixiy xronologiyada tizimlashtirishni amalga oshirdi. U yulian uslubidagi solnomalar tahririni ishlab chiqadi. 1583 yilda J.Skaliger «Vaqtni hisoblash yuzasidan yangi tadqiqot» nomli asarini e’lon qiladi. 1582 yilda italyan olimlari A. Liliya va I. Danti yangi kalendarni tuzib chiqadi. Bu

kalendari tarixda Grigoriy kalendari nomi bilan shuhrat qozonadi. XVII asrda fransuz monaxi D. Petavi ham vaqtni hisoblash yuzasidan tadqiqotlar olib boradi. XVIII asrda Rossiya olimlari ham xronologiya faniga oid tadqiqotlar olib borgan. «Rossiya tarixi» kitobining birinchi jildida V.N. Tatishev yozgan maxsus bir bob «Yilning boshida vaqtni hisoblash» deb nomlanadi. Bu davrda M.V. Lomonosov, M.M. Sherbatov, I.N. Boltin va A.L. Shleser Xronologiya bilan jiddiy shug'ullandilar. XVIII asrga kelib, Yevropada xronologiya mustaqil tarixiy fanga aylandi. Bunga qator angliyalik matematik va astronomlar o'z hissasini ko'shdilar. XVIII asr o'rtalarida lord Chesterfieldning tashabbusi bilan mamlakatda Grigoriy kalendari qabul qilindi. 1825-1826 yillarda nemis astronomi X.L. Ideler tomonidan yozilgan ikki jildlik «Matematik va texnik xronologiya», L. Brossening «Xronologiya texnikasiga doir» (SPb., 1868), F.Kaltenbrunnerning «Grigoriy kalendari islohoti tarixidan» (Vena., 1876), O.E.Gartmannning «Rim kalendari» (Leypsig., 1882), Ya.I. Makdonaldning «Xronologiya va kalendar» (London., 1897) asarlari xronologiya fanining taraqqiyotida asosiy o'rinni egalladi.

XIX asr boshlarida Rossiyada tarixning yordamchi fani sifatida xronologiyaning ahamiyati yanada yuksaldi. «Rossiya davlati tarixi» kitobining birinchi jildida N.M.Karamzin Qadimgi Rusda yil hisobi to'g'risida ma'lumot beradi. XIX ning birinchi yarmida V.Shteyngel va K.Trominlar yilnoma kalendar masalasini tadqiq qiladi. P.V.Xavskiy Rusda yilnomalar tarixiga oid tadqiqotlar va Yulian kalendarini Griigoriy kalendariga taqqoslashga doir xronologik jadvallarni tuzadi. 1850 yilda, D.M. Pervoshikovning «pravoslav cherkovida qabul qilingan vaqgni hisoblash qoidasi» nomli kitobi nashr qilindi. XIX asr oxirlarida D.I. Prozovskiy nasroniylikkacha bo'lgan davrda slavyan – rus vaqt hisobi va Qadimgi Rusda soatni hisoblash asoslarini ishlab chikdi. XX asrga kelib, xronologiya tarixning asosiy yordamchi fanlaridan biriga aylanadi. Bu davrda Quyosh, Oy-quyosh kalendarlariga doir tadqiqotlar yuzaga keladi. 1906–1914 yillarda nemis olimi. GinSel uch jilddan iborat «Matematik va texnik xronologiya» nomli kitobini yozadi. Zamonaviy xronologiyaning rivojlantirishida E.Meyer (1904), R.Parker (1950) (Misr kalendarlari), M.M. Underxil (1921) hindlarda xronologiya fani, M. Maler yaxudiy kalendarlari, S.G.Morley (1954) mayya xalqlarida vaqt hisobi, X. Mitsman «Rim xro-

nologiyasi» (1957), E. Bikeran «Qadimgi dunyo xronologiyasi» (1966), R. Noygebauer, A.E. Shtamp, V. Grumel kabi tadqiqotchilarning xronologiya uslublari va nazariyasiga oid tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etdi.

XIX asr oxirlarida Rossiyada yulian kalendarini isloh qilish bo'yicha maxsus komissiya tuziladi. Unga mashhur olim D.I. Mendeleyev boshchilik qiladi. XX asr boshlarida xronologiya faniga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. N.V. Stepanov «Yangi uslub va provoslav pasxas» (1907) kitobida yangi kalendarga o'tish zaruratini takidlaydi. Olim tomondan 1909-1915 yillarda rus solnomalari kalendari, Qadimgi Rus yil hisobi, mart va sentabr ultramart uslublari o'rganiladi va tadqiqotlar jamlanib, 1917 yilda «Kalendar-xronologiya ma'lumotnomasi» nashr qilinadi. 1918 yilda Rossiyada Grigoriy kalendari qabul qilinadi. Natijada yangi kalendar sistemasiga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. I.F. Polak «Kalendarining o'zgarishi» (1918) va «Vaqt va kalendar» (1928), O.A. Doblash-Rojdestvenskiy «Insonlar qanday qilib yilni hisoblashni o'rganadilar» (1922), N.I. Idelson «Kalendar tarixi» M. Mate, N. Sholkolarning «Hozirgi, o'tmish-dagi va kelajakdagi kalendarlar» (1931) kabi asarlari o'sha izlanishlar mevasidir. 1938 yilda V.K. Nikolskiyning «Bizning yil hisobimizning paydo bo'lishi», 1941 yilda L. Klimovichning «Bayramlar va islom ro'zolari» nomli kitoblari nashr qilinadi. N.G. Berejkovning «XV asrgacha bo'lgan rus solnomalari xronologiyasi» nomli maqolasi va «Rus solnomalari xronologiyasi» (M., 1963) nomli monografiyalari xronologiya faniga oid muhim taqiqotlardan biridir. Muallif rus solnomalarida mart, sentyabr va ultramart uslublari berilganligini isbotlaydi va rus solnomalari xronologiyasini o'rganishning uslublari ishlab chiqadi. 1954-1956 yillarda BMTda yanada mukammal va barcha xalqlar uchun yagona bo'lgan yangi kalendarni o'rganish masalasi muhokama qilinadi. Natijada bir qator mamlakatlarda kalendarlarning astronomik asosi va yilni hisoblashning yangi uslublari oid ilmiy tadqiqotlar yuzaga keladi. Jumladan, G.D. Mamedbeyli (1961), I.A. Orbeli (1961) musulmon yil hisobi, M.R. Raximov tojiklarda yil hisobi (1957) va G. Mcherlidzellar Qadimgi gruzin yil hisobi bo'yicha tadqiqotlar olib boradilar.

Markaziy Osiyo olimlarning xronologiya rivojlanishiga qo'shgan his-sasi. Urta asrlarda xronologiya yanada rivojlanib bordi. Xronologiya rivojiga Markaziy Osiyolik olimlar, Ahmad al-Farg'oniy (797-865), Abu Ray-

hon Beruniy (973-1048), Umar Hayyom (1048-1131) va Mirzo Ulug'bek (1394-1449) katta hissa qo'shdi. Ahmad al-Farg'oniy ilmi-hay'at (falakiyotshunoslik-astronomiya, riyoziyot-matematika) va jo'g'rofiya (geografiya) fanlari bilan shug'ullandi hamda qator ilmiy asarlar yozib qoldirdi. Ahmad al-Farg'oniy al-Ma'mun topshirig'iga binoan Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va ularni aniqlash, yangicha «zij» yaratish ishlariga rahbarlik qildi. Ahmad al-Farg'oniyning «Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum» (Samoviy harakatlar va umumiy ilmi kitobi) asari astronomik asar hisoblanadi. Bu asar astronomiya asoslari haqidagi kitob nomi bilan ma'lum bo'lib, 1145-1175 yillardan Evropada lotin tiliga tarjima etilgan. Olim «Alfraganus» nomi bilan Garbda shuhrat topadi. Uning mazkur asaridan asrlar davomida Yevropa universitetlarida asosiy darslik sifatida foydalanilgan, chunki bu kitob zamonasining astronomiya haqidagi eng muhim zarur bo'lgan bilimlarini o'z ichiga olgan edi. Ahmad al-Farg'oniyning «Erdagi ma'lum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi hodisalar haqida» asari ham mashhur. Asarda Ernish yumaloqligi, bir xil osmon yoritkichlarining turli vaqtda ko'tarilishi, tutilishi va bu tutilishlar har bir joyda turlicha ko'rinish, masofalar o'zgarishi bilan ularning ko'rinishi ham o'zgarishi haqida qimmatli mulohazalar bildiriladi.

Abu Rayhon Beruniy Sharqning yorqin va ulug' siymolaridan biri hisoblanadi. Uning «Al osor al-boqiya ani-l-qurun al-holiya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»), («Xronologiya»), «Qonuni Mas'udiy» asarlarida xronologiya faniga oid ko'plab ma'lumotlar berilgan. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarda arab, eron, sug'd, xorazm, yunon kalendari hamda asosiy vaqt birliklari, turli vaqt tartiblari haqida batafsil ma'lumot bergan. Olim har bir xalqning o'z tarixi borligini ta'kidlar ekan, ularning nafaqat tarixi, balki vaqt hisobi hamda kalendarlari ham bir-biridan farq qilinishni ta'kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy «Movarounnaxr otashparastlari, ya'ni Xorazm va Sug'd aholisi ishlatadigan oylarni» bayon etadi. Movarounnahrliklarning kalendaridagi oylarining soni va yilning uzunligiga ko'ra eronliklar kalendariga o'xshashi, faqat oylarning boshlanishi orasida farq borligini ko'rsatib o'tadi. Abu Rayhon Beruniy xorazmliklar kalendaridagi va kunlarining nomlarini ham keltirib o'tadi. Xorazmliklar «isfandorajiy» (o'n ikkinchi) oyining oxiriga qo'shiladigan

ortiqcha besh kunning birinchisini o'yning birinchi kuni nomi bilan atab, qolgan kunlarga ham birin-ketin kelgan kunlarning nomlarini berishlari aniqlaganini ta'kidlaydi. «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridan turkiy xalqlar o'n ikki hayvon nomi bilan ataluvchi muchal kalendari va ularning nomlari haqida ham ma'lumot olish mumkin. Qolaversa, eronliklarning kalendaridagi o'n ikkita oy nomini ham shu asarda uchratish mumkin. Eronliklar tuzgan kalendarida har bir oy 30 kundan hisoblanib, qo'shimcha 5 kun o'n ikki oy oxiriga ko'shilgan. Abu Rayhon Beruniyning ko'rsatishicha, bu 5 kun Qadimgi eron tilida «panji», «andargox» deb atalgan. Keyinchalik bu nom arabchalashib, «andarjob» o'zgartiriltan. Bu besh kun «o'g'irlangan kun», deb ham atalgan, ular biror oy kunlari hisoblanmagan. Eronliklar ularni «obonmoh» bilan «ozarmoh» o'rtasiga qo'yib, har bir oy kunlariga berilgan nomlarda boshqa nomlar bilan ataganlar. Eron kalendarida bir yil uch yuz oltmish besh kun bo'lgan. Ular chorak kunlar bir oy bo'lmaguncha hisobga olmaganlar. Bu bir yuz yigirma yilda bir marta bo'lgan shunda ortiqcha o'yni yil oylari qatoriga qo'shganlar va u o'n uchinchi oy bo'lgan. O'sha yilni kabisa yil deb, ortiqcha oy kunlarini boshqa oylar nomlar bilan ataganlar. Abu Rayhon Beruniyning ma'lumot berishicha, ular dastlab haftadan foydalanmaganlar. Olim bu haqida shunday ma'lumot beradi: «Dastlab haftalarni ishlatgan g'arb tomon aholisi, ayniqsa, Shom va uning tevaragida yashovchilar bo'lganlar. Bunga sabab, u tomonda payg'ambarlar yuzaga chiqib, Tavrotda aytilganidek, birinchi hafta va bu haftada olam paydo bo'lganidan xabar berganlar. Keyin bu odat ulardan boshqa millatlarga tarqalgan».

Beruniy Misr kalendariga ham to'xtalib o'tib, kalendaridagi eski va yangi oy nomlarini o'z asarida ta'kidlab o'tadi. Misrliklar qo'shimcha besh kunni «abag'amno» (kichik oy), kabisali yilni esa «anknaqt» (alomat) deb ataganlar. Qo'shimcha kun so'nggi «musriy» oyining oxiriga qo'shilgan. Beruniy «Shom mamlakati» (Suriya) kalendaridagi o'n ikki oy nomlari va to'rt yilda bir marta beshinchi (shubat) oyga bir kun qo'shib hisoblashlari haqida yozadi. Bu manbaga ko'ra «Shom mamlakati» kalendaridagi oy nomlari keng tarqalgan, hatto arablar ham «dala ishlariga tegishli vaqtlarni» shu oylar bilan belgilar ekan. Abu Rayhon Beruniy «Qonuni Mas'udiy» asarida Qadimgi arab kalendaridagi o'n ikkita oy nomini keltiradi, lekin ularning faqat ikkitasining lug'aviy ma'nosini berib o'tadi.

«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»da zamonaviy arab kalendari-dagi o'n ikkita oy va yetti hafta kunining nomi va o'z ta'riflari ham keltiriladi. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, arablar yahudiylardan yilga qo'shimcha oy qo'shishni o'rganganlar va bu oyni «ayyom an-nasi» deb ataganlar. Abu Rayhon Beruniy o'z asarida milodiy yil hisobiga ham to'xtalib o'tadi. U mazkur kalendarni «rumiy kalendari» deb ataydi va kalendarga birinchi marta kabisa yilini Yuliy Sezar kiritgan, deb yozadi. Olim milodiy yil hisobini Qadimgi xalqlarning qator yil hisoblari bilan qiyoslaydi. «Qonuni Ma'sudiy» asarining ikkinchi kitobi xronologiya masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda «Qadimgi xalqlaridan qolgan yodgorliklar» asarida ko'rilgan masalalar to'ldirilib, davom ettiriladi. Asarda Eron, Bobil, Rum podshohi va arab xalifalari hukmronlik qilgan yillarining xronologik jadvallari keltirilib, ularning nomlari yunoncha transkripsiyada berilgan. Shuningdek, mazkur asarda insoniyat tomonidan qo'llanilgan eralar, jumladan, Yazdigard, Iskandar, Filipp, «Buxtunassar» (Nabonassar) erasini aniqlash masalalari xususida ham so'z boradi. Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston» asarida bu o'lkada yashovchi xalqlarning urf-odatlari, geografiyasi va u bog'lik astronomiyasi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, olim burjlar, oy fazalarining o'zgarishi, hind eralari, Oy va Quyosh kalendarlari va oltmish yillik Yupiter davriyligi nomlarini keltirib o'tgan.

Umar Hayyom Sharqning eng yirik rasadxonalaridan bo'lgan Isfahon rasadxonasini 1076 yili Umar Hayyomning iltimosiga ko'ra Malikshoh qurdirgan edi. Olim bu rasadxonada olib borilgan ko'p yillik kuzatishlari natijasida, o'zining «Malikshoh ziji» asarini yozadi. Umar Hayyom xronologiya faniga qo'shgan katta hissasi kalendar islohotiga tegishlidir. Malikshoh Umar Hayyomga yil boshi Navro'z bahorgi teng kunlik bilan mos tushadigan yangi kalendar topshiradi. Umar Hayyom bu davrda qo'llanib kelingan mashhur Yulian kalendarining xatosi 128 yilda bir kunga teng ekanligi va bu xatoni takrorlamaslik uchun yangi kalendarning yillarini yangi kombinaSiyada tuzishni taklif qiladi. Yangi kalendar loyahasiga ko'ra, har o'ttiz uch yillik davrning dastlabki yigirma sakkiz yilida kabisa yillari xuddi kalendaridek yetti kabisa yildan, sakkizinchi kabisa yili esa odatdagidek uch yildan so'ng emas, to'rt yildan so'ng beshinchi yili qabul qilinadigan bo'ldi. Natijada, Umar Hayyom kalendarning yil uzunligi 365 sutka 5 soat 49 minut 5,5 soniyaga teng bo'ldi. Ayni vaqtda Umar

Hayyom kalendarining xatoligi aniqlangan bo'lib, u 19,5 soniyani tashkil etdi. Bu kalendaridagi xatolik 4500 yildagina bir sutkani tashkil qiladi demakdir. Mazkur natija kalendar kanchalik mukammal tuzilganligidan dalolat beradi. Umar Hayyom kalendari Malikshoh tomonidan 1079-yil (hijriy kamariy 471 yil)da qabul qilindi. Umar Hayyom kalendari Eronda XIX asrning o'rtalariga qadar qo'llanilgan. Bu kalendar Umar Xayyom kalendari deyilishi bilan barga Malikshoh sharafiga «Jaloliy kalendari» deb ham yuritilgan. Uning xronologiya faniga oid yana bir mashhur asari «Navro'znoma»dir. Asarda Quyosh kalendari tarixi batafsil bayon qilindi. Navro'z kunining qanday belgilangani, qanday nishonlangani to'g'risida ma'lumotlar hamda oy nomlarining lug'aviy ma'nosini ham beradi.

Mirzo Ulug'bek «Ziji Ko'ragoniy» asarida vaqtni hisoblash masalalariga to'xtalib o'tgan. Olim yil kitobining sharq xalqlari qabul qilgan usullarini bayon etib, «yunon, malikiy, xitoy va uyg'ur eralari» hamda ular orasidagi farq, mazkur eralardagi bayram kunlari to'g'risida batafsil ma'lumot beradi. Hijriy-qamariy kalendaridagi arab davriyligi, yil boshi va oy madhallarini aniqlash jadvallarini va formulalarini ko'rsatib o'tadi. Yevropada Mirzo Ulug'bek va Nasridsin Tusiyning yulduzlar jadvali katalogi 1648 yilda Oksford universiteti astronomi Jon Grivas tomonidan nashrga tayyorlangan. 1650 yilda Mirzo Ulug'bek asarlarining xronologiyaga oid ma'lumotlari, Sharq xalqlarida yil hisobi, kalendarlarga doir qismlari nashr etiladi. Mirzo Ulug'bekning yulduzlar katalogi 1665 yilda Tomas Xayd tomonidan lotin va fors tillarida nashr qilinadi. 1853 yivda Mirzo Ulug'bekning bu jadvallarga bergan to'liq muqaddimasini Sedillot tarjimasini bilan nashr etilgan.

Xronologiya kalendarlarning rivojlanishi va o'zgarishi bilan chambarchas bog'liqdir. Kalendar so'zi lotincha «kalendarium» so'zidan olingan bo'lib, qarz kitobi ma'nosini anglatadi. Bu so'z shu narsa bilan bog'likki, qadimgi Rimda qarzdorlar kam qarz foizlarini o'yning birinchi kunida to'laganlar. Hozirgi paytda kalendar bu turli mamlakatlarda vaqt hisobi sistemasi bo'lib, uning asosida tabiatning davriy hodisalari, osmon jismlari harakatlari, vaqt oraliqlarining hisobi olib boriladi. Kalendarni o'rganish tarix fanining vazifasiga kiradi. Tarix fani esa, bu o'rinda xronologiya faniga murojaat qiladi. Xronologiya turli hodisalar va hujjat sanalarini tuzishdan iborat vazifani bajaradi. Xronologiyada kalendar turlari, ular-

ning paydo bo'lishi bilan bog'liq jarayonlar, va miqdoriy ko'rinishlaridan; Qadimgi Sharq davlatlariga xos kalendarlar; ularning ham shakllanish taraqqiyot bosqichlari va shular bilan birga Qadimgi Yunoniston hamda Rimga xos kalendarlar tarixi ularning o'zlariga xos xususiyatlari o'rganiladi. Vaqtning eng muhim xususiyatlaridan biri, uning bir tomonlama, ya'ni olg'a, kelajak tomonga yurishidir. Matematiklar ta'biri bilan aytganda, manfiy vaqt bo'lishi mumkin ham emas. Vaqtning o'lchash uchun soniya, daqiqa, soat, sutka, hafta, oy va yil birliklari qabul qilingan. Olingan va butun dunyo mamlakatlarida bir xil qabul qilingan. Aniq vaqtning asosiy manbai astronomik kuzatishlardir. Maxsus asboblarda yulduzlarni kuzatib, aniq vaqtning (soniyaning mingdan bir ulushlari aniqligida) topiladi.

Hafta va uning turlari. Vaqt – tabiatdagi davriy hodisaga, Yerning o'z o'qi atrofida aylanish davriga nisbatan hisoblanadigan o'lchov birligidir. O'rta asr solnomachisi Dostopochtenniy, «yilning uzunligini – tabiat, oyni uzunligini – an'analar, haftaning uzunligini belgilaydi», – deb yozgan edi. Vaqtning sun'iy birligi bo'lgan haftalar, qadimda uch, besh va yetti kundan iborat bo'lgan. Bobil va Shumer matnlarida yetti kunlik hafta mavjudligi haqida ma'lumotlar berilgan. Etti kushshk hafta vaqt o'lchovi sifatida Sharqda Bobilda ishlatilgan. Rimda ham dastlab sakkiz kunlik hafta bo'lib, unga A harfidan N harfigacha bo'lgan nomlar berilgan. Rimda imperator Avgust davrida (miloddan avvalgi 63-milodning 14) etga kunlik hafta keng tarqalgan. Yetti kunlik hafta yaxudiydardan misrliklarga, ulardan rimliklarga va so'ngra G 'arbiy Yevropaga tarqalgan. Bobilliklar yettini «qutlug' son» deb hisoblaganlar. Bu sig'inish o'sha davrda ma'lum bo'lgan beshta «sayyora» – «planeta» yoki «daydib yuruvchilar» va ular qatoriga qo'shib hisoblangan Oy va Quyosh bilan bog'liq bo'lgan. Ular Er atrofida yetti sayyora – Oy, Merkuriy, Venera, Quyosh, Mars, Yupiter va Saturn aylanadi, deb hisoblaganlar. Haftalarga sayyoralarning nomi berilgan. Bu nomlarni rimliklardan so'ngra, G 'arbiy Yevropa xalqlari ham qo'llashgan. Lotincha, fransuzcha va inglizchada ularning ko'rinishlarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

Hafta kunlarining nomlanishining astronomik ifodasi

Oy (dushanba)

Mars (seshanba)

Merkuriy (chorshanba)

Yupiter (payshanba)

Venera (juma)

Saturn (shanba)

Quyosh (yakshanba)

Qadimda sayyoralarning nomi soatlarga ham berilgan. Bir haftada 168 soat (24x7) bo'lgan. Shanbaning birinchi soatini (shuningdek, 8, 15, 22 soatlarini) 23 soatini Yupiter, 24 soatini Mars boshqargan. Yetti kunlik hafta G'arbda imperator Avgust davrida keng tarqaldi. Miloddan avvalgi 321 yilda Konstantin «Hamma fuqarolar Quyosh kuni dam olsin»,- deb farmon berdi.

Slavyanlarda ham yetti kunlik hafta bo'lib yakshanba «nedeley», ya'ni «hech narsa qilma», «ishlamaydigan kun» – deyilgan. Dushanba – «ponedelnik» – «nedeley»dan keyingi kun, vtornik seshanba) – «nedeli»dan so'nggi ikkinchi, sreda (chorshanba) – nedeli (haftaning o'rtasi), «chetverg», «pyatnisa» – to'rtinchi va beshinchi kun deb ataladi. «Subbota» – sabbat (shabat) – ya'ni dam olish so'zidan olingan. Qadimgi Rusda zamonaviy yakshanba XVI asrgacha «nedeli» deb atalgan. Hafta so'zining o'rnida esa «sedmisa» ishlatilgan.

Qadimgi Skandinaviya xalqlarida shanba – kidagzyau-hammom kuni degan ma'noni bildirgan. Bu shvedlarda (lorsdau va lagsdau) ham saqlanib qolgan. Ba'zi xalqlarda eston, latish, arab, yunon va xitoyliklarda hafta nomlari tartib raqami bo'yicha atalgan. Haftalarni raqamlash Qadimgi Bobilda ham mavjud bo'lgan. Masalan: Saturn kuni baxtsiz hisoblangan bois, shu kuni ular biror bir ish bilan shug'ullanishmagan shabat – osudalik nomini olgan. Shu nom keyinchalik arab va slavyan tillarida ham ishlatilgan. Ba'zi xalqlarda haftalarning tartib raqami boshqacharoq qo'yilgan. Masalan, gruzin tilida beshta shanba mavjud. Haqiqiy shanba – «shabati»dan tashqari yana, ikkinchi shanba (orshabati) – ya'ni dushanba, uchinchi shanba (samshabati seshanba, to'rtinchi shanba (otxshabati) – chorshanba, beshinchi shanba (xutshabati) payshanba, juma – paraskevi va yakshanba – kriva deb ataladi. Forschada ham hafta nomlarida «shanba, so'zi olti marta takrorlanadi. Yakshanba – birinchi shanba, dushanba – ik-

kinchi shanba, seshanba-uchinchi shanba, chorshanba – to‘rtinchi shanba va payshanba-beshinchi shanba tarzida. Juma – muqaddas kun hisoblana- di. Haftalarning forscha nomlari Kavkaz Osiyo xalqlari tomonidan ham ishlatiladi. Ozarbayjon tilida «bozor» – yakshanba, turkchada ham yak- shanba – «pazar», «Pazartesi» – bozordan keyingi kun deb ataladi. Ang- liyada vaqtlar shanba haftaning oxirgi kuni hisoblangan. Galfrid Mon- mutskiy asarlaridan bunga bir talay misol topishimiz mumkin. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, turli nomlarda va shakllardagi haftalardan foydalanilgan. Sutka va uning dastlabki shakllari. Yer sharining o‘z o‘qi atrofida bir marta aylanib chiqishi uchun ketgan vaqt sutka deb ataladi. Sutka – vaqtning dastlabki o‘lchov birligidir. Sutkaning 24 dan bir bo‘lagi bir soat, soatning 60 dan bir bo‘lagi daqiqa, daqiqaning 60 dan biri so- niya deyiladi. Yer o‘z o‘qi atrofida notekis aylanishi ma‘lum, ammo bu notekislik kichik bo‘lib, 100 yilda soniyashgeg mingdan bir ulushi bilan o‘lchanadi. Qadimda kecha va kunduzning almashishidan vaqt o‘lchovi me‘yori sifatida foydalanishgan. Qadimda yunoncha «etega» – sutka so‘zi ikki ma‘noda qo‘llanilgan:

- 1) Quyosh chiqishidan Quyosh botishigacha bo‘lgan vaqt oralig‘i;
- 2) Quyosh chiqishidan keyingi Quyosh chiqishigacha bo‘lgan vaqt oralig‘i.

Lotincha «dies» – sutka so‘zi ham shu ma‘noni bildirgan. Qadimgi Yunoniston, Rim, Bobilda va Misrda sutka ertalabdan, Markaziy Osiyoda kechqurundan boshlab hisoblangan. Oy kalendaridan foydalangan afinalik- lar, germanlar, iudeylarda ham sutka-kun kechqurundan boshlangan. Zar- dushtiylar esa, Quyoshning chiqishi bilan yangi kun boshlanadi deb hisoblas- hgan. Sutkalarini dastlab misrliklar soatlarga bo‘lganlar. Milloddan avvalgi yilida Misr kohinlari sutkani 24 soatga bo‘lishgan: Ular soatni kunduz, 2 soatni g‘ira-shira pay., 12 soatni kechasi hisoblashgan. Bobilda ham bir sutkaning 12 soati kechasi hisoblangan. Geradotning ta‘kidlashicha, yu- nonlar bobilliklarning shu sistemasidan foydalanishgan. Gerodotning yo- zishicha, miloddan avvalgi VI ahamoniylar hukmdori Doro skiflarga yuris- hi davrida qo‘riqchilariga vaqtni hisoblash uchun tugilgan arqon, tashlab ketadi. Ular har kuni bitta tugunni yechganlar. Qolgan tugunlarning soni shohning qaytishiga necha kun borligini bildirgan. Ahamoniylar hukmdor- ligi davrida vaqtni hisoblashning bundan ham mukammalroq usuli mavjud

bo'lgan, lekin oddiy ko'riqchi askarlar yuqoridagi usuldan foydalanishgan. Yerning yulduzlarga nisbatan bir marta aylanib chiqish davri sutkasiga va Quyoshga nisbatan aylanish davri Quyosh sutkasiga bo'linadi. Yulduz sutkasi uzunligi bahorgi teng kunlik nuqtasidan ikkita ketma-ket yuqori (yoki pastki) kulminasiyalari orasidagi vaqtga teng. Yulduz sutkasi haqiqiy (presessiya va nutaSiya hisobga olinsa) yulduz sutkalariga ajraladi. Bahorgi teng kunlik sutkasi nuqtasining pretession harakati ta'sirida o'rtacha yulduz sutkasi Yerning o'z o'qi atrofida haqiqiy aylanish davridan 0,0084 soniyaga qisqa. Kundalik hayotimizda asosan o'rtacha quyosh vaqtidan foydalanamiz. O'rtacha Quyosh – ekvator bo'ylab tropik yil ichida bir marta tekis aylanib chiqadigan hayoliy nuqtadir. O'rtacha Quyosh markazining yuqori kulminatsiya payti o'rtacha tushlik payti deyiladi. O'rtacha Quyosh vaqti shu paytdan boshlanadi. O'rtacha Quyosh markazining pastki kulminatsiya payti yarim tun deb fuqaro vaqti shu paytdan (soat 24.00) hisoblanadi va kalendarda kun o'zgaradi. Astronomiyada 1925 yilgacha kun hisobi tush paytida o'zgarar, ya'ni yangi kun kunduzi soat 12 dan boshlanar edi. 1925 yildan boshlab astronomiyada ham fuqaro vaqtidan foydalanilmoqda.

Dastlabki soatlar. Soat – bu xalqaro birliklar tizimiga kirmaydigan vaqt o'lchov birligi, qiymati 60 daqiqa yoki 3600 soniyaga teng vaqt oralig'i va vaqtni o'lchash uchun ishlatilgan asbobdir. Yunoncha «hogo», inglizcha «hour» soat so'zi dastlab «vaqt oralig'i, davr» kabi ma'nolarni bildirgan. Miloddan avvalgi IV asrlarda yunonchada soat atamasi paydo bo'lgan. Odamlar vaqtni o'lchashga qadimdan harakat qilib kelishgan. Ular Quyosh, Oy harakatlanishini va boshqa tabiat hodisalarning muayyan vaqtlarda takrorlanib turishini sezganlar va ulardan vaqtni o'lchashda foydalan-ganlar. Yunon olimi Ptolemey (mil. avv. I asr) sutkani soat, daqiqa soniyaga bo'lgan. Vaqtni juda aniq o'lchash uchun maxsus astronomik kuzatishlar o'tkazilgan. Bu kuzatishlar samarasi o'larok dastlab quyosh soati, keyinchalik suv va qum soatlari paydo bo'ldi. Ksenofontning ta'kidlashicha, soat kunduzi quyoshga, kechasi yulduzlarga hamda odam soyasining uzunligiga qarab soat aniqlangan. Miloddan avvalgi 1800 yilda Misr kohinlari kechasi bo'ladigan ibodatlarda yulduz soatlaridan foydalanishgan. Quyosh va suv soatlarining paydo bo'lishi soatni yanada aniqroq bilish imkonini berdi. Misrda miloddan avvalgi 1600 yillarda suv soatlari, va 1450 yillar-

da Quyosh soatlaridan foydalanishgan. Birinchi quyosh soati, ya'ni skafis bobillik Beros tomonidan miloddan avvalgi III asrda quriladi. Dastlabki yunon Quyosh soatlari miloddan av. 550 yillarda Miletlik Anaksimandr tomonidan yaratilgan. Rimda miloddan avvalgi 293 yildan boshlab quyosh soatlaridan foydalana boshlangan. Osiyo xalqlarida esa, qadimda qum soatlari keng tarqalgan. Bu soatlar uzun bo'lmagan vaqt oralig'ini hisoblashga mo'ljallangan. Hozirda tibbiyotda qum soatlaridan foydalaniladi. Xitoyda olov soatlaridan foydalanishgan. Unda maxsus shamlar ishlatilgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikda suv soatlari – klepsidralar keng tarqaldi. Mazkur soatlar, aniq va qulay bo'lmasa-da, ma'lum bir qatlamdagi odamlarning ehtiyojini qondirgan. O'rta Osiyoda XV asrning birinchi yarmida Mirzo Ulug'bek Samarqandda 50 metrlik Quyosh soatini bunyod etgan. Jamiyatdagi taraqqiyot natijasida aniq va qulay soatlarga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keldi. Mexanik soatlar bu davrga yangilik bo'lib kirdi. 578 yillardagi Vizantiya manbalarida mexanik (g'ildirakli) soatlar tilga olinadi. XI–XP kelib, Evropada mexanik (g'ildirakli) soatlar keng tarqaldi. Bunday soatlar, odatda, ratusha minoralariga o'rnatilgan. G'ildirakli soatlarning kamchiligi ularning ulkanligi va aniq emasligida edi. Rossiyada bunday soatlar dastlab 1404 Kremlga o'rnatiladi. 1706 yilda Pyotr I buyrug'i bilan bu soat o'rmini Golland kuranti egallaydi. XVI asrda g'ildirakli soatlar o'rmini yangi soatlar egallaydi. 1640 yilda Galiley tomonidan mayatnikli soatlar loyihasi ishlab chiqiladi. Ushbu soat uning vafotidan keyin 1675 yilda Xristian Gyugens tomonidan yasaladi. Xristian Gyugens cho'ntak soatiga balansir spiral tizimini (hozirgi soatlarning asosiy mexanizmini) kiritdi va soatning aniq yurishi ancha yaxshilandi. I.P. Kulibin XVIII asrda tovuq tuxumidek keladigan murakkab mexanizmli mexanik soat yasadi. U har soatda bong urardi. Rossiyada birinchi zangli soat 1404 yilda Moskvada Blagoveshensk sobori yaqinida o'rnatilgan. Uni vizantiyalik Monax Lazar Serbin yasagan. XIX asrga kelib qo'l soatlari paydo bo'ldi. Bunday soatlar cho'ntak soatidan farq qilmasdi. Ularda qo'shimcha qismlar, kalendar ko'rsatgichi, soniyaamer, o'z-o'zidan burash mexanizmi ham bor edi. Dastlabki elektr soat Rossiyada 1840 yilda yaratildi. XX asrda elektr-mexanik, elektron-kvars, molekulyar, atom soatlari yaratildi. Toshkentda 1947 yilda qurilgan Toshkent kuranti minorasiga to'rt Siferblatli zangli elektr soat o'rnatilgan. Energiya manbaiga ko'ra soatlar

atom, mexanik, molekulyar va elektr, tebranish tizimi mayatnikli, balansirli va kamertonli xillarga bo‘linadi.

Kalendarlar va ularning turlari. (Tropik yil va kalendar yili, Quyosh kalendar, Oy kalendar, Oy – quyosh kalendar) Biz tanishib o‘tgan vaqt birligi sutka katta davrlarni o‘lchash uchun kichiklik qiladi – Katta davrlarni o‘lchash uchun sutkani ishlatadigan bo‘lsak, juda katta sonlarni ifodalashga to‘g‘ri keladi. Vaqt birligi sutkani 10 baravar kattalashtirib ishlatish mumkin. Lekin qadim zamonlardan beri insoniyat katta vaqt oraliq‘ini o‘lchash uchun sutkadan tashqari hafta, oy va yildan foydalanib kelganlar. Vaqtning katta oraliqlari o‘lchash birligi tabiiy birlik – yil deb yerning quyosh atrofida bir marta to‘la aylanib chiqish davri qabul qilingan. Ammo yil sutkalar bilan butun son orqali ifodalanmaydi, ya‘ni sutka va yil karrali emas.

Quyosh o‘zining ko‘rinma harakati bo‘yicha bahorgi teng kunlik nuqtasi Yerdan ikki marta ketma-ket o‘tishi uchun ketgan vaqt tropik yil deb ataladi. Uning davomiyligi 365 sutka 5soat 48 minut 46 sekundga yoki 365,242195 o‘rtacha sutkaga teng. Tropik yilning 365 sutkadan ortiq kasr qismi yil olib borishda ko‘p noqulayliklarga sabab bo‘ladi. Kundalik hayotimizda ishlatiladigan yil hisobi kalendar. yili deb ataladi. Kalendar atamasi lotincha *calendarium* – «qarz daftari» degan ma‘noni anglatadi. Qadimda Rimda qarzdorlar oyning birinchi kuni qarzlarning foizlarini to‘laganlar va bu «kalendar»ga qayd qilib borilgan. Tabiatdagi aniq bo‘lgan vaqt hisobi birliklari sutka, oy yil qadimdan ma‘lum bo‘lib qadimgi kalendarlarning asosini tashkil etgan. Biz kalendar deb shunday vaqt hisobi sistemasini aytamiz-ki, uning asosida osmon yoritqichlari harakatiga bog‘liq tabiatning davriy hodisalari yotadi. Bunday sistemani yaratish birinchi bo‘lib ilk neolit davrida sodir bo‘ldi. Bu ishlab chiqarish xo‘jalik shakllarining paydo bo‘lishiga bog‘liq edi. Dehqonchilik va chorvachilik fasliy tabiat hodisalari bilan bog‘liq edi. Insoniyat tomonidan qo‘llanib kelingan kalendarlarni ikki asosiy guruhga bo‘lishimiz mumkin. Bular Quyosh va Oy hisoblaridagi kalendarlardir. Shundan kelib chiqib, kalendarlarni uch guruhga bo‘lishimiz mumkin.

- 1) Quyosh kalendar;
- 2) Oy kalendar;
- 3) Oy-quyosh kalendar.

Quyosh kalendarida tropik yoshning uzunligi asos qilib olinadi. Quyosh kalendarining uzunligi tropik yilning uzunligiga mumkin qadar yaqin bo'lishi kerak. Agar kalendar yili tropik yildan qisqaroq bo'lsa, biz o'lcayotgan vaqt oralig'ida ortiqcha vaqt qoladi. Masalan: yil Qadimgi Misrdagidek 365 sutka deb olingan, u tropik yildan deyarli 6 soat qisqa bo'lganligidan, 4 yildan so'ng quyosh bilan bahorgi teng kunlik nuqtasining birlashishi 21 martga emas, balki 22 martga, yana 4 yildan so'ng 23 martga to'g'ri kelar edi. Shunday qilib, kalendar yili tropik yildan qisqa bo'lsa, yil fasllari kalendar yilining keyingi kunlariga surila boradi. Bunday surilish bir necha avlod hayoti davomida sezilarli xatoga olib kelardi, ya'ni 60 yilda fasllar 15 sutkaga, 120 yilda bir oyga kech qolgan bo'lardi, 720 yilda esa hatto olti oyga yetib, martda kuz, sentyabrda bahor bo'lardi. Agar kalendar yilini 366 sutka deb olsak, u holda bir sutka emas, balki uch sutka xatoga yo'l qo'yilardi va teng kunlik nuqtasi Quyosh bilan 21 martda emas, 18 yana to'rt yildan so'ng 15 martda to'g'ri kelgan bo'lar edi.

Yuliy Sezar Misr quyosh kalendarini o'rganib chiqadi va Rim Quyosh kalendarini yangi Quyosh kalendarini bilan o'zgartiradi. Dastlabki Misr quyosh kalendarini miloddan avvalgi 3 ming yillikda yaratiladi. Misr astronomlari eng yorqin yulduz bo'lgan Siriusning geliakik ko'rinishi, dar-yosidagi toshqin vaqtiga to'g'ri kelishini aniqlagan. Bu ikki hodisa esa bahorgi teng kunlik davriga to'g'ri kelgan. Misr kalendarida bir yilning uzunligi 365 sutkaga teng bo'lgan. Bir yil esa o'n ikkita 30 kunlik oylarga va qo'shimcha yana besh kundan iborat bo'lgan. Har to'rt yilda bir sutka xatolik vujudga kelardi. Mazkur Misr kalendarini bir necha asrlar davomida ishlatib kelingan. Mazkur kalendarini isloh qilishga bir necha bor urinib ko'rishgan.

Miloddan avvalgi 238 yilda Ptolemeylar sulolasidan bo'lgan Everget kalendar islohatini o'tkazadi. U har 4 yilda yilning oxirgi kundan so'ng xudolar kunini nishonlanadigan yana bir sutka qo'shishga farmon beradi. Bu hozirgi kun atamasi bilan aytadigan bo'lsak, kabisa yilidir. Lekin, bu islohot amalga oshmay qoladi. Faqatgina Yuliy Sezarning tashabbusi bilan amalga oshadi. Quyosh kalendarini Misrning yerli xalqi-koptlarda yaxshi saqlanib qolgan. Koptlar Misrdan tashqari, Sudan, Iordaniya, Turkiya, Iroq, Isroil va Efiopiya ham yashashadi.

Yulian kalendarining asoschisi Aleksandriyalik astronom Sozigendir. Mazkur kalendarida yilning uzunligi 365,25 sutkaga teng bo'ladi. Unda har to'rt yilning 3 yili 365, to'rtinchi yili esa 366 kunga kabisa yili qilib qabul qilinadi. Lekin Yulian kalendar tropik yildan 0,0078 sutka (11 daqiqa 23,9 soniya) uzun edi. Natijada, har 128 yilda bu xatolik bir sutkani kilardi. XVI asrga kelib, Yulian kalendar bo'yicha bahorgi teng kunlik 21 martga emas, balka 11 martga to'g'ri kelib qoldi. Yulian kalendaridagi xatoliklarni ko'pgina olimlar, jumladan, Mirzo Ulug'bek ham ta'kidlagan¹. Yulian kalendaridagi xatolikni tuzatish maqsadida 1582 yilda Rim papasi Grigoriy XIII boshchiligida kalendar islohoti o'tkaziladi. Natijada, yangi bugungi kunda dunyoda ishlatib kelinayotgan Grigoriy kalendar tuziladi. Grigoriy kalendarining uzunligi 365.242500 sutkaga tengdir. Grigoriy kalendar tropik yildan 0.000304 sutkaga farq qiladi. Bu 3300 yilda bir sutkani tashkil qiladi.

Tarixda Grigoriy kalendaridan ham aniqroq kalendarlar mavjud bo'lgan. Shunday kalendarlardan biri 1079 yilda shoir, astronom olim Umar Hayyom tomonidan tuzilgan. Umar Hayyom kalendar, Eron shohi Malikshoh tomonidan 1079 yilning 16 martida (bu davrda Yulian kalendar bo'yicha bahorgi teng kunlik shu kunga to'g'ri kelardi) yoki hijriy oy kalendar bo'yicha 471 yilning ramazonida qabul qilindi. Bu kalendar Umar Hayyom kalendar deyilishi bilan birga, ko'pincha Malikshoh sharafiga Jaloliy kalendar deb ham yuritilgan.

Umar Hayyom kalendarida kabisa yillari hisobi Yulian kalendaridan farq qiladi. Unda 28 yil ichida Yulian kalendaridagidek har to'rtinchi yili, keyingisi o'ttiz ikkinchi yilda emas, balki besh yil o'tkazib o'ttiz uchinchi yilda qo'shiladi. Demak, Yulian kalendar bo'yicha 32 yilda sakkizta kabisa yili bo'lsa, Umar Hayyom kalendarida 33 yilda sakkizta kabisa yili bo'ladi, ya'ni:

$$365-25 + 366-8 = 12053 \text{ sutka}$$

$$12053:33 - 365.2424 \text{ sutka}$$

Bu esa, tropik yildan 0.0002 sutka ortiq, xolos. Demak, Umar Hayyom kalendarida 4500 yildan ortiq vaqtda bir sutka xato kelib chiqqa-

¹ Цибульский В.В. Календари и хронология стран мира. -М.: Просвещения. 1982. с. 54.

di. Umar Hayyom kalendari Eronda XIX asrning o'rtalarigacha qo'llanilgan. Oy kalendari. Quyosh harakatini kuzatishdan ko'ra, Oyni kuzatish osonroq. Shuning uchun Oy harakatiga asoslangan vaqt o'lchovi Quyosh harakatiga asoslangan vaqt o'lchovidan avvalroq ko'llana boshlagan. Oyni ko'rish shakllari kun sayin o'zgarib turadi. Qadimdan insonlar Oyni shakllarining o'zgarib turishiga nazar solganlar. Oyni yer atrofidagi harakatlanishi davrida Quyoshga nisbatan egallaydigan vaziyatlari Oy fazalari deyiladi. Oy o'zidan nur chiqarmaydi, uni Quyosh nuri yoki, Quyosh nurining qaytayotgan qismi yoritishi mumkin, shu tufayli Oyni fazoda Quyoshga va Yerga nisbatan qanday holatda turishiga ko'ra, u Erdan qaralganda turli shaklda ko'rinadi. Har oyda Oy taxminan Er bilan Quyosh orasidan o'tadi va Yerga o'zining qorong'i tomoni bilan turadi. Bunga astronomik yangi oy deyiladi. Bir-ikki kundan so'ng Quyosh botgach, osmonning g'arbiy qismida Oy ingichka o'roq shaklida ko'rinadi, bu xalq tilida hilol yoki yangi oy (vizual yangi oy) deyiladi. Bunda Oyni qolgan qismini Er o'zining kunduzgi yarim sharidan qaytgan nurlari bilan xira kulrang ravishda yoritib turadi. Yetti kundan keyin Yerdan Oyga va Quyoshga tomon yo'nalishlari orasidagi burchak 90 ga teng bo'ladi, bunda u yarim «kulcha» ko'rinib, Oyni bu fazasi birinchi chorak deyiladi. Taxminan 14-15 kunlik Oy Quyoshga qarama-qarshi turib, uning quyosh bilan yoritilgan yarim sferasi to'raligicha Yerga qaraydi. Oyni bu fazasi to'linoy deb ataladi. Bunda Oyni to'la yorug' doira shaklida ko'rish mumkin. Keyingi kunlarda Oyni g'arbiy tomoni «yemirila borib», 22-sutkada faqat qabariq tomoni sharqqa qaragan yarim doira shaklida ko'rinadi. Buni Oyni oxirgi chorak fazasi deyiladi.

29,5 sutkadan so'ng Oy yana astronomik yangi oy fazasida bo'ladi. Ikki ketma-ket kelgan yangi oy orasida o'tgan vaqt Oyni sinodik davri deyilib 29 sutka 12 soat 44 minut 2,28 soniyaga teng. Siderik oy – Oyni yulduzlarga nisbatan ikki ketma-ket kelgan bir xil vaziyati orasida o'tgan vaqt bo'lib, u 27 sutka 7 soat 43 minut 11,51 soniyaga teng. Oy atamasini biz ikki ma'noda ishlatamiz. Bosh harf bilan yoziladigan Oy – bu Yer sayyorasining tabiiy yo'ldoshi samoviy jismdir. Kichik harf bilan yoziladigan vaqt oralig'i o'lchovi, yuqorida aytganimiz sinodik oydir. Oy kalendari to'liq va to'liq bo'lmagan oylarga bo'linadi. To'liq oylar 30 kundan, to'liq bo'lmagan oylar 29 kundan iborat bo'lgan. Toq oylar 30, juft oylar

29 sutka qilib belgilangan. Oy kalendarida yilning davomiyligi 354.36706 sutkaga teng.

Oy kalendarida bir yil 354 sutka qilib ($29.5 \cdot 12 = 354$) olingan. Oy kalendarini musulmon olamining yil hisobiga asos qilib olingan. U milodiy 622 yilning 16 iyul juma kunidan boshlab hisoblanadi. Hijriy yil hisobi o'z navbatida hijriy-qamariy (Oy) hijriy-shamsiy yiliga bo'linadi. Oy kalendarida ham Quyosh kalendaridagi kabi yillarini hisoblashda ba'zi muammolarga duch kelinadi. Oy kalendarining o'ziga xos jihati uning juda aniqligidadir. Lekin Oy kalendarining «kamchiligi» u fasllarga mos tushmaydi.

Oy-quyosh kalendarini. Dehqonchilik xo'jaligining rivojlanishi natijasida ekish, hosilni yig'ishtirib olish uchun aniq vaqt hisobi zarur ediki, bu narsa Oy fazalarining o'zgarishi va Quyoshning harakati bilan bog'liq edi. Shuning uchun ham oy-quyosh kalendarlari tuzila boshlandi. Oy-quyosh kalendarining tuzilishi Oy va Quyosh kalendarlariga qaraganda anchagina murakkabdir. Hozirgi kunga kelib, Quyosh kalendarini jahonda xalqaro kalendar sifatida tan olingan.

Yunoniston kalendarlari. Qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida Oy-quyosh kalendarini tuzildi. Bu davrda har bir polis o'z kalendarini ishlab chiqadi. Ular bir-biriga mos kelsa-da, har bir kalendarining afzallik tomonlari bor edi. Ular bir yilni har biri Yangi Oy bilan boshlanadigan o'n ikki oyga bo'lib chiqdi. Kalendarini fasllarga moslashtirish uchun qo'shimcha o'n uchinchi oy ham joriy qilingan.

Yunonistonning turli shaharlarida oylarning o'z nomlari bo'lsa-da, Afina kalendaridagi oy nomlari birmuncha keng tarqaldi. Ular:

Gekatombeon (iyul)	7. Gamelion (yanvar)
Metageytnion (avgust)	8. Antesterion (fevral)
Boedromion (sentabr)	9. Elafebolion (mart)
Pianepsion (oktabr)	10. Yu.Munixon (aprel)
Memakterion (noyabr)	11. I.Fargelion (may)
Poseydeon (dekabr)	12. Skiroforion (iyun)

Yil Quyoshning yozgi tik turish davridan (gekatombeon – iyul) boshlangan. Embolistik oylar ikkinchi poseydonga, ba'zida ikkinchi skiroforionga ko'shilgan. Embolistik yillarning tartibini oktaetarida egallagan,

ya'ni har sakkiz yilning uchinchi, beshinchi, sakkizinchi yillari kabisa yili hisoblangan.

Miloddan avvalgi 432 yilda olimpiada o'yinlarining 86-yilligiga bag'ishlangan tantanalarda Afinaning markaziga parapegma (yozuv, kalendar ma'nosini beradi) o'rnatiladi. Unda oylarning kunlari ko'rsatib turilgan. Yunon kalendarini rivojlantirishda Kalipp va Gipparxlar katta rol o'ynagan. Qadimgi Yunonistonda miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarigacha voqealarni yozishda hukmron shaxslarning nomidan foydalanilgan. Afinada yil hisobi kalendar uchun ma'lum bo'lgan epoinmlar-ijroiya hokimiyat (arxontlar) ning rahbarlari ismi bilan belgilangan. Miloddan avvalgi IV asrda olimpiada asosidagi umum ellin yil hisobi keng tarqaldi.

Miloddan avvalgi 776 yildan boshlab to'rt yilda bir marta bo'lib o'tadigan sport o'yinlari xalq tantanalaridan biriga aylandi. Olimpiya o'yinlari yangi yil boshlanishiga qarab belgilangan, chunki kalendar sistemasidagi xatolar tufayli olimpiadaning aniq vaqti belgilanmagan edi. Olimpiya o'yinlarining vaqtini jarchilar har bir shahar xalqiga e'lon qilgan. Olimpiya yil hisobi Qadimgi yunonlar hayotiga shunchalik chuqur kirib keldiki, ular o'z erasining boshlanishini Miloddan avvalgi 766 yil birinchi iyul qilib belgiladi, chunki ayni shu kuni birinchi Olimpiya o'yinlari bo'lib o'tgan edi.

Olimpiya yil hisobi birinchi bo'lib, miloddan avvalgi 264 yilda qadimgi yunon tarixchisi Time tomonidan qo'llanildi va bu hisob VII asrcha davom etadi. 394 yili imperator Feodosiy I Olimpiya o'yinlarini bekor qiladi. Shunday bo'lsa-da, Olimpiya yil hisobi darhol yo'q bo'lib ketmadi. Olimpiya yil hisobida tartib raqami va to'rt yilning tartib raqamidan foydalanilgan, masalan: yunonlar va forslar o'rtasida bo'lib o'tgan Salamin jangi 75,1 (ya'ni 75 olimpiadaning birinchi yili) bo'lib o'tgan. Yunon kalendarini yil hisobini zamonaviy yil hisobiga aylantirish juda qiyin, chunki, turli yunon shaharlarida turli xildagi yangi yil har xil vaqtda boshlangan kalendarlardan foydalanilgan. Yunonlarda ilk kalendar qachon va kim tomonidan yaratilganligi ma'lum emas. Miken va Konek tekstlarida saqlanib qolgan ba'zi oy nomlarini o'qishning iloji bo'lmagan. Ularda oy hisobi mavjud bo'lib, yangi oylarning kelishi bayram bilan kutib olingan. Dastlab yunonlar oylar nomlarini va yilda necha oy borligini hisob-

lamaganlar. Miloddan avvalgi VII asrda Yunonistondagi polislardan biri Delfada kalendarlar reformasi o'tkazilgan degan ma'lumotlar mavjud. Bu Delfalik Frakul ijodida uchrab, undagi oy nomlari bayramlar nomi bilan bog'liq holda ko'rsatilgan. Yunon polisleri oy – quyosh kalendarlaridan foydalanganlar. Afina va Delfada yil hisobi yangi o'nyning chiqishi bilan boshlangan. Sparta, Rados, Krit va Miletida kuzdagi teng kunlikdan yil boshlangan. Yunonlarda oylarning nomlanishi alohida e'tiborli bayramlar va aynan fasllar almashinuvi bilan bog'liq bo'lgan. Yunonlarda qishloq xo'jaligi ishlari ham yulduzlarni kuzatuv asosida olib borilgan. Bunda yil boshi bo'lib yozgi quyosh tushishi iyundan olib borilgan. Ularda 7 kunlik hafta bo'lmagan, ular hafta deganda vaqt hisoblash birligini tushunishmagan. Milodgacha VI–V asrlarda Attikada oktaedriklar sistemasi mavjud bo'lib, sakkiz yil uy embolinistik yilda o'tgan. Shuning uchun yillar orasidagi farqlar har sakkiz yilda uch kunni tashkil qilgan. Bu yunonlarga xos vaqt hisoblash tizimi ularda kalendarining shakllanishi uchun aniq xulosaga kelish imkonini bergan. Afmaliklarda kalendar 12 oydan iborat bo'lgan. Oylarning qachon boshlanishi belgilanmagan. Bu kalendar boshqa yunon polislaridagi kalendarlarga nisbatan ancha mashhur bo'lgan. Undagi oylar 29 yoki 30 kundan iborat bo'lib, yil 354 sutkani tashkil qilgan. Afinada yilning boshlanishi gekatabeon oii iyul – avgustga to'g'ri kelgan. Afinada yilni to'g'rilash uchun ikkinchi Poseydon oyi 29-30 sutkali oy kiritilgan edi. Milodgacha 432 yilda Afmalik astronom Metan 235 oy yili oylarini 19 quyosh yiliga teng deb, 19 yillik Sikl 7 embolistik yil degan g'oyani olib chiqdi. Bu Metan Sikli nomini oldi. U aniqligi bilan ajralib turardi. Afinada voqealarni hisoblash mansabdor – arxontlar nomi bilan olib borilardi. Bu Metan Siklida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, bu haqiqatga yaqinedi. Milodgacha IV asrdan boshlab umumellin yil hisobi boshlandi. Olimpiya o'yinlari har to'rt yilda bir marta o'tkazilgan. Yillar har to'rt yilgi olimpiada o'yinlari bo'yicha hisoblangan. Rasmiy kalendarlar quyosh kalendarini rad qilgan, bu esa dehqonlarga noqulayliklar tugdirgan. Shuning uchun dehqonlar yuqorida aytib o'tganimizdek, qishloq xo'jalik kalendaridan foydalanganlar. Bu ma'lumotlar bizga milodgacha bo'lgan VIII asr yozuvchisi Gesiod asarlarida uchraydi.

Qadimgi Rim kalendarining tuzilishi sanasi to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. Bizga ma'lumi shuki, Rimning afsonaviy asoschisi va

hukmroni Romul (miloddan avvalgi VIII asrning o'rtalari) davrida oy kalendaridan foydalanganlar. Kalendar bir yil 10 oy, jami 304 kundan iborat bo'lgan. Oylar tartib raqamlari (birinchi, ikkinchi,... o'ninchi) bilan nomlangan. To'rt oy 31 kundan (1, 3, 5, 8 oylar) va olti oy 30 kundan iborat bo'lgan. Yil bahorgi tengkunlikdan boshlangan. «Romul yilini» astronomik yilga tenglashtirish maqsadida 10 oyning oxiriga qo'shimcha kunlarni qo'shganlar. Miloddan avvalgi VIII asrning oxirlariga kelib to'rtta kalendar oylariga nom berildi. Iilning birinchi oyi «Marius», ikkinchi oy «aprilis», uchinchi oy «mayus», turtinchi oy «yunius» deb ataldi. Mazkur kalendar sinodik oy yiliga mos kelmasdi, lekin u Quyosh kalenar sinodik oy yiliga mos kelmasdi, lekin u Quyosh kalendari ham emasdi. Miloddan avvalgi VII asrda kalendar islohoti o'tkaziladi. Bu islohotni yarim afsonaviy shaxs Rim podshosi Numa Pompiliy boshladi. U bir yilda kunlarning sonini 355 ga, oylarning sonini 12 ga yetkazdi. Numa Pompiliy islohati natijasida qo'shimcha yangi ikki oy paydo bo'lib yanuarus va februaris nomini oldi. Kalendarida 7 oy 29, 4 oy 31, bitta oy «februarius» 23 sutkadan iborat bo'ldi. «Februarius» oyiga har yili 5 kun qo'shiladigan bo'ldi. Islohotlar natijasida «Numa yili» astronomik bir oy yilidan bir sutka ortik, tropik yildan esa 10,5 sutka qisqa edi. Shuningdek, bu davrga kelib yana bir necha oylarga nom berildi. Kalendarida yil bahorgi tengkunlik davridan boshlanardi.

Rim kalendaridagi birinchi oy Martius – ilgari chorvachilik va dehqonchilik, keyinchalik esa urush xudosi Marsga atab qo'yilgan. Ikkinchi oy – aprilis – lotincha «arepge» – «namoyon bo'lmoq», «ochmoq» ma'nolarini bildiradi. Bu oyda hamma daraxt va o'simliklar ochilib gullay boshlagan. Uchinchi oy Mayus – xudo Merkuriyning onasi Yer ma'budasi Maya nomi sharafiga. To'rtinchi oy Yunius – Yupiterning rafiqasi, osmon ma'budasi, ayollarning himoyachisi Yunona sharafiga qo'yilgan. Keyingi oltita oy kalendardagi tartib raqami bilan atalib, Kvintilis – «lotincha» – beshinchi, sekstilis – oltinchi, september – yettinchi, oktober – sakkizinchi, november – to'qqizinchi, desember – o'ninchi degan ma'nolarni bildiradi. O'n birinchi oy yanuaris deb atalib, ikki yuzli xudo Yanus nomiga qo'yilgan. Un ikkinchi oy februarius – yer osti podshosi februs nomiga qo'yilgan. Shuningdek, «geshape» so'zi «tozalanmoq», «poklanmoq» degan ma'nolarni bildiradi. Yilning oxirida ular

poklanish marosimini o'tkazganlar. Fevral oyi oxiriga qo'shimcha kunlarni qo'shgan (masalan fevral 23+5).

Miloddan avvalgi VI asrda rimliklar mazkur oy kalendarini Oy-quyosh kalendariga aylantirishga urinib ko'rdilar. Buning uchun ular interkalya-Siya sistemasidan (qo'shimcha oylarni qo'shish) foydalandilar. Qadimgi Rim kalendariga har ikki yilda 20 kunlik qo'shimcha oyni joriy qildilar. Bu oy «Marsedonius»-marsedoniy oyi nomini oldi. Juft raqamlarni baxtsizlik ramzi hisoblangan rimliklar marsedoniy oyini 23-24 «februarius»ning o'rtasiga joylashtirdilar. Mazkur islohotdan so'ng kalendar yili 365 kunni (355+ 355+ 20): $2 = 365$ tashkil qildi va ularning yili ham Misr «daydi» yiliga teng bo'lib qoldi (Tropik yildan chorak sutka qisqa edi).

Rim imperatori Yuliy Sezar miloddan avvalgi 46 yilda kalendar islohotini o'tkazdi. Yuliy Sezar ungacha Misrda bo'lganida mahalliy kalendar uni qiziqtirib qo'ygandi. Yangi kalendarni tuzishda Aleksandriyalik astronom Sozigen faol qatnashadi. Kalendar islohotchilari oldiga Misr «daydi kalendar»ni tuzatib, so'ngra uni qabul qilish vazifasi qo'yilgan edi. Sozigen tuzgan bu kalendar Yulian kalendar (Yuliy Sezar sharafiga) nomi bilan tarixga kiradi. Yulian kalendarida yilning boshi, yilning davomiyligi va qo'shimcha kunlarga alohida e'tibor berildi. Yulian kalendarida yilning birinchi oyi sifatida yanvar qabul qilindi. Miloddan avvalgi 153 yildan boshlab Rim konsullari yanvarda o'z xizmat vazifasini boshlardi. Yangi kalendarida eski kalendaridagi oylar nomi saqlanib qoldi. Bular: yanuaris, februaris, martius, aprilis, mayus, yunius, kvintilis, sekstilis, september, oktober, november, desemberdir. Kalendarida toq oylar (6 ta) 31 kundan (yanuaris, martius, mayus, kvintilis, september, november) juft oylar (fevraldan tashqari) 30 kundan (aprilis, yunius, sekstilis, oktober, desember) fevral 29, (30) kundan qilib belgilandi. Yulian kalendar soddaligi bilan ancha qulay, ikki voqea oralig'idagi uzoq davrda o'tgan sutkalar sonini topish ham ancha oson edi. Yilning uzunligi 365,25 sutkaga teng bo'lib to'rt yillik sikl joriy qilindi. To'rt yildan uch yili 365 kun (oddiy yil) to'rtinchi yili esa 366 kun (kabisa yil)dan iborat edi. Miloddan avvalgi 44 yilda senat Yuliy Sezarning xotirasiga (vafot etgan yili) Kvintilis oyi (Yuliy Sezar shu oyda tug'ilgan)ning nomini Yulius oyi deb o'zgartirdi. Miloddan avvalgi 8 yilda imperator Avgust ham islohotini o'tkazadi. Chunki bu davrda (Sezarning vafotidan keyin) Rimdagi kalendar bo'yicha mas'ul

kohinlar kollegiyasi yilni hisoblashda xatolikka yo‘l qo‘yib kelmoqda edi. Ular ham to‘rtinchi yilni emas, balki uchinchi yilni kabisa yili qilib hisoblaydilar. Natijada kalendar yili tropik yildan ancha orqada qolib ketdi (Yulian kalendar o‘zi tropik yildan 11 minut 14 soniya uzun). Avgust islohoti natijasida kohinlar yo‘l ko‘ygan xato tuzatildi. Natijada, milodning 4 yili 1 martidan boshlab, Yulian kalendar oldingi holatiga qaytarildi. Rim senati tomonidan imperator Avgustning g‘alabalari va kalendarini tuzatishdagi xizmatlari uchun «sekstilus» oyiga «Augustus» nomini beradilar²¹. Sekstilus oyi 30 kundan iborat edi. Rimda juft son baxtsiz raqam sanalgani va imperator nomi berilgan oy boshqalardan qisqa bo‘lmasligi kerak deb hisoblab, u oyga yana bir kun qo‘shdilar (fevral oydan bir kun olindi). Natijada uchta oy (yulius, augustus, september) ketma-ket 31 kundan bo‘lib qoldi. Shuning uchun yilning oxiridagi to‘rtga oyni o‘zgartirdilar. September va november 30 (ilgari 31) kundan, oktober, desember oylari singari 30) kundan bo‘ladigan bo‘ldi. Bu o‘zgarish Yulian kalendarining belgilangan tashqi strukturasi (toq oylar 31, juft oylar 30 kundan bo‘ladi degan) o‘zgartirib yubordi.

Bu davrda Rimda yetti kunlik hafta qabul qilindi. Rimga hafta tushunchasi Sharqdan I asrda kirib kelgan bo‘lsa, faqatgina IV asrga kelib qabul qilindi. Sharqiy Rim (Vizantiya) imperiyasida ham Yulian kalendaridan foydalanilgan. Yulian kalendar keyinchalik zamonaviy kalendarini tuzishda asos bo‘ldi. Miloddan avvalgi 44-yilda Yuliy Sezarga suiqasd qilib o‘ldirilganidan keyin kalendarida yana o‘zgarishlar ro‘y berdi. Kvintilis oyi Yuliy Sezar sharafiga Yulius (ya‘ni iyul oyi) deb o‘zgartirildi. Keyinroq senatning qaroriga ko‘ra Sekstilis oyining nomini «Muqaddas kishi» unvoniga sazovor bo‘lgan inson Oktavian Avgust nomiga «Avgust» deb o‘zgartirdi. Hisobda qulay bo‘lgani uchun bu oyga bir kunni Febriarusdan olib berishdi. Boshqa ba‘zi oylarning sutkalari ham o‘zgartirildi. Yangi kalendar xristian cherkovi tomonidan Nikeya saborida 325 yilda qabul qi-

¹ Ba‘zi senat a‘zolari oylarga boshqa Rim imperatorlari nomlarini ham harakat qilib ko‘rgan. Imperator Tiberiya (14–37), nomiga senat september oyini-Tiberius. Avrelia Kommoda (176–192) nomiga yana sentabr oyi- Kommodus, oktoberni – Domisian (81–96) sharafiga-Domisian deb atashga harakat qilganlar. Lekin, bu nomlar o‘sha davrdayoq qabul qilinmagan.

lingan. Bu kalendarda yillar ham kabisa yili hisoblanadi. Masalan: Oxiri nol bilan tugagan yil kabisa bo'lgan: 1900, 1919, 1945, 1956 yillar ichida kabisa yili 1900 yilga to'g'ri kelgan. 1956-yil ham kabisa yili bo'lgan.

Yulian kalendaridagi kamchiliklar va Grigorian kalendari. 325-yilda Nikey soborida Yulian kalendari yagona xristian kalendari sifatida qabul qilindi va ular 21 martni bahorgi teng kunlik kuniga mos keltirdik deb, o'yladilar. Xristianlarda diniy pasxa bayramini o'tkazishda buning ahamiyati katta edi. Ular bir necha asrdan so'ng haqiqiy bahorgi teng kunlik nuqtasi kalendarga to'g'ri kelmay qolganligini sezib qoldilar. XVI asrni ikkinchi yarmiga kelib, bu farq 10 kunga yetdi, ya'ni bahorgi teng kunlik nuqtasi 21 mart emas, 11 martga to'g'ri kelib qoldi. Bu cherkovni tashvis-hga solib qo'ydi, ya'ni pasxa bayrami borgan sari yozga surila boshladi bu esa Nikey sobori qaroriga zid edi. Pasxa bayrami 21 martdan keyingi to'lin oydan so'ng birinchi yakshanbada nishonlashi kerak edi. Yulian. kalendaridagi kamchiliklarni 1324 yilda vizantiyalik olim Nikifor Grigora aniqladi va bunga imperator Andronika S diqqatini qaratdi. Lekin imperator kalendarni isloh qilishga ruxsat bermadi. Yulian kalendaridagi kamchiliklarni XVI asrning birinchi yarmida Vizantiyada yashovchi olim—Matvey Vlastar ham ta'kidladi. 1373 yilda Vizantiyalik olim Isaak Argir kalendarini isloh qilish zarurligini asoslab berdi. Yulian kalendarini qaytadan isloh qilish zaruratini katolik cherkovi vakillari ham ta'kidladilar. Bu fikrni Kliment VI ham qo'llab-quvvatladi. 1414 yilning martida kardinal Per d'Ali tashabbusi bilan kalendar masalasi muhokama kilindi. 1437 yilda bu masala Bazzel soborida ko'rib chiqildi. Unda uyg'onish davrining faylasuf olimi Nikolay Kuzanskiy (1401—1464) o'zining loyihasi bilan tanishtiradi. 1457 yili papa Sikst VI kalendarni isloh qilish va pasxa hisobini to'g'rilashga tayyorgarlikni boshlab yuboradi. Shu maqsadda papa Rimga yetakchi nemis astronomi va matematigi Regiomont (1436—1476)ni taklif qildi. Lekin olimning bevaqt o'limi tufayli papa bu ishni keyinga surishga majbur bo'ladi. XVI asrda kalendar masalasi bilan Lyuteran (1512—1517) va Triden (1545—1563) soborlari shug'ullanadi. 1514 yilda Lyuteran sobori kalendar islohot bo'yicha maxsus komissiya tuzadi va Yevropada mashhur bo'lgan astronom Nikolay Kopernik (1473—1543)ni Rimga taklif qiladi. Nikolay Kopernik o'sha davrda tropik yilining uzunligi aniqlanmagan uchun komissiya tarkibida ishtirok etishdan bosh tortadi.

XVI asr o'rtalariga kelib, kalendarni isloh qilish masalasi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. 1582 yilda Rim papasi Grigoriy XSH maxsus komissiya tuzdi, uning tarkibida Balon universiteti professori astronom va matematik Ignatij Danti (1536–1586) ham bor edi. Bu komissiyaga yangi kalendar loyihagini tuzish vazifasi topshiriladi. Komissiya taqdim etilgan barcha kalendar loyihalarini ko'rib chiqib, italiyalik matematik va shifokor Aloiziy Luiji Lilio (1520–1576) loyihagini ma'qul topdi. Luiji Lilio Perudji shahridagi universitetda medisinadan dars bergan. Ushbu kalendar loyihagini uning o'limidan so'ng ukasi Antonio Luiji nashr qiladi. Kalendar loyihasi papa Grigoriy XSH tomonidan qabul qilinadi va kunni 10 kun oldinga surishga farmon beradi. Qabul qilingan loyihadagi tuzatishlar quyidagicha edi:

1) 1582 yil 4 oktabr payshanba kunining ertasi 5 oktyabr emas, balki 15 oktyabr juma kuni hisoblanadi. Bu bilan yuqoridagi 10 sutka xato tuzatilib, bahorgi teng kunlik 21 martga to'g'ri keldi.

2) Kelgusida yana shunday xato yig'ilmasligi uchun 400 yilda 3 sutka kam hisoblanishi kerak, buning uchun Yulian kalendarida 400 yilda 100 ta kabisa yili o'rniga 97 ta kabisa yili hisoblanadi. Yulian kalendarida asrni ifodalaydigan raqamlarning to'rtga bo'linmaydiganlari kabisa yili emas, balki oddiy yil hisoblashga qaror qilindi. Masalan: 1600, 1700, 1800, 1900, 2000, 2100, 2200, 2300, 2400 yillar Yulian kalendarida kabisa yillari, yangi hisob Grigoriy kalendarida esa faqat 1600, 2000, 2400 yillari kabisa yillari, qolganlari oddiy yil, chunki 17, 18, 29, 21, 22, 23 sonlari to'rtga bo'linganda qoldiq qoladi. Grigoriy kalendarida yilning davomiyligi 365,242500 sutkani tashkil etib, tropik yilga qaraganda har yili 26 116 eoniyaga ortib boradi va salkam 3300 yilda bu bir kunni tashkil qiladi. Grigoriy kalendaridagi xatoning qiymatini aniqlash uchun dastlab kalendar yilining uzunligini aniqlashimiz kerak bo'ladi. Har 400 yilning 303 yili 365 kundan 97 yili esa 366 kundan iborat. Demak, to'rt asrda

$$303 \cdot 365 + 97 \cdot 366 = 110595 + 35502 = 146097$$

uni 400 ga bo'lamiz.

$$146097 : 400 = 365.242500$$

Demak, Grigoriy kalendari tropik yildan 0.000305 sutka ortiq. Bu esa 3280 yildagi xato bir sutka demakdir. Grigoriy kalendarini yanada aniq qilish mumkin. Buning uchun 4000 yilda bir marta kabisa yili kamaytiri-

ladi. Natijada 4000 yilda 1.22 sutka farq paydo bo'ladi. Grigoriy kalenda-
rida Yulian kalendariga nisbatan kabisa yillarini hisoblash murakkab. Har
ikkala vaqt oralig'idagi farqni hisoblashga kelsak, isloh qilingan vaqtida
farq 10 sutka bo'lsa, 1700 yilning 29 fevralidan boshlab, bu farq 11 sut-
ka bo'ladi, 1800 yilning 29 fevralidan boshlab esa 12 sutka, 1900 yil-
ning 29 fevralidan boshlab, 13 sutkaga etdi. 2000 yilda har ikkala hisobda
ham kabisa yili bo'lganligidan 13 sutka farq 2100 yilning 29 fevraligacha
o'zgaray qoladi, undan so'ng 14 sutka bo'ladi. 1973 yilda butun dunyo-
da Kopernikning 500 yillik yubileyi nishonlandi. Uning eski hisob bo'y-
icha 1473 yil 19 fevralda tug'ilgani ma'lum. Lekin bizning bugungi kunda
Grigoriy kalendarini ishlatayotganimiz tufayli uni shu hisobga aylantirish
zarur. Buni qanday hisoblaymiz? XVI asrda ikki kalendar orasidagi farq
10 kun bo'lgan va bugungacha davom etgan. Bunda 325 yilda Nikey sobo-
rida Yulian kalendarining qabul qilinganda bahorgi teng kunlik 21 martga
to'g'ri kelganligini ham unutmasligimiz kerak. Ikki kalendar o'rtasidagi
farqni 1 mart 1700 yildan quyidagi jadvaldan bilishimiz mumkin. Grigori-
an kalendarining qulaylik tomonlariga e'tibor qaratsak unda asosan yillar
bir sistemaga tushirilib ular bo'yicha yuz yilliklar kiritildi.

1852 yil kalendar loyihasi qabul qilinganidan so'ng dastlabki vaqtning
o'zida uni Grigorian kalendar nomi bilan Fransiya, Italiya, Ispaniya, Ja-
nubiy Niderlandiya, Portugaliyada, Lyuksemburgda XV asrning 80-yilla-
ri Polshada, Shvesariya, Chexiya, Avstriya, Vengriyaning katolik Kanton
(viloyat)larida, 1610 yilda Polsha ta'siri ostida Prussiyada qabul kilindi.
Protestant davlatlar Grigorian kalendarini uzoq yillar davomida qabul qil-
may keldilar, ammo undagi aniqlik, qulayliklar tufayli keyinchalik ko'pgi-
na davlatlarning tan oldilar. Ular Daniya, Norvegiya, Germaniyada 1700
yilda joriy etildi. Shimoliy Niderlandiya 1707 yil, Angliyada 1752 yilda,
Shvetsiya va Finlyandiyada 1753 yil qabul kilindi. Imperator Iosif Shning
dekreti bilan 1776 yilda Germaniyaning so'nggi protestant yerlarida ham,
1812 yilda esa Shvetsariyada qabul qilindi. 1873 yildan boshlab Osiyo
mamlakatlari ham Grigorian kalendarini qabul qila boshladilar. Dastlab
1873 yilda Yaponiya, 1911 yilda Xitoy Grigorian kalendarini qabul qil-
di. Diniy farqlar tufayli Bolkonda ushbu kalendarning qabul qilinishi bi-
roz kechikdi. 1916 yilga kelib Bolgariyada, 1919 yilda Ruminiyada va
Serbiyada joriy kilindi. RSFSR sovnarkomining 1918 yil 28 yanvardagi

dekreti bilan Rossiyada qabul qilindi. (dekretga muvofiq 1918 yil yil 31 yanvardan so'ng 1 fevral deb emas, balki 1918 yil 14 fevral deb belgilandi). 1924 yildan buyon Grigorian kalendari Yunonistonda, 1927 yildan Turkiyada, 1928 yildan buyon esa Misrda qo'llanilmoqda.

Ko'pgina davlatlarda qabul qilingan zamonaviy quyosh kalendarlari Qadimgi Rim vaqt hisobiga kiradi. Birinchi Rim kalendari Rimga asos solingan miloddan avvalgi VIII asrdan boshlangan. Yil kunlari 304 sutkadan iborat bo'lgan, 10 ta oy mavjud bo'lgan. Yil boshi 1-martdan boshlangan. Iil nomlari tartib sonlardan olingan bo'lib, faqat miloddan avvalgi VIII asrda ulardan 4 tasi individual nom olgan. Yilning birinchi oyi Martius, ya'ni urush xudosi Mars nomidan olingan. Ikkinchi oy aprilis, lotin tilidan olingan, uchinchi oy ma'buda Mayya nomiga, to'rtinchi oy ma'buda Yunona sharafiga ko'yilgan. Qolgan oylarni nomida tartib sonlar nomi saqlangan:

Kvintilis – beshinchi, Sekstilis – oltinchi, September – yettinchi, Oktouber – sakkizinchi, November – to'qqizinchi, Destember – o'ninchi, Mart, may, kvintilis va oktouber 31 kundan iborat, qolgan oylar 30 kundan iborat. Miloddan avvalgi VII asrda kalendar islohoti o'tkazildi. Bu islohot Rimning yarim afsonaviy shohi Numa Pompiliy nomi bilan bog'liqdir. Kalendar oy – quyosh kalendari bo'lib qoldi. Ikkita yangi oy yanvarius – ikki yuzli xudo Yanus sharafiga qo'yilgan. Yanusni eshik xudosi ham deyishardi. Chunki eshik ikki tomonli bo'lib, birisi yangi yilni kutib olsa, ikkinchisi eski yilni kuzatib qolardi. Shundan boshlab yil boshi yanvar oyi hisoblangan. Ikkinchi oy Februs sharafiga qo'yilgan. Shu ikki oy hisobiga yil 365 kunga uzaytirildi:

Martius-31 kun	September-29 kun
Aprilis-29 kun	Oktouber-31 kun
Mayus-31	November-29 kun
Yunius-29 kun	Destember-29 kun
Kvintilis-31 kun	Yanuarus-29 kun
Sekstilis-29 kun	Febriarus-235kun

355 kundan iborat yil, quyosh yilidan har yili 10-11 sutkaga orqada qolardi. Kelishuv asosida 2 yilda 1 marta to'ldiruv sifatida Mersedonius

oyi kiritildi, u 22-25 sutkadan iborat edi. Mil. avv. 46 yilda Rimning diktatori va konsuli yangi kalendar chiqara boshlaydi. U yangi yilga 90 kun qo'shdi. Yangi kalendarini ishlab chiqarishda Sozigen boshliq Aleksandriya astronomlari ishtirok etdilar. Zamonaviy kalendarlardagi oylar miqdorining turlicha ekanligi (28, 29, 30, 31 kunlar hisobida), yil kvartallarining farqlari (90, 91, 92 kundan iborat bo'lishi) uning noaniqligini yaqqol namoyon qiladi. Shu boisdan XIX asrdan boshlab turli davlatlarda kalendar islohotlari bo'yicha loyihalar ishlab chiqila boshlandi. Ushbu jadvaldan ikki kalendar orasidagi farq 19 fevral 1473 yilda 9 sutkani tashkil qilganligini bilishimiz mumkin. Demak, Kopernikning 500 yiligini 28 fevral 1973 yilda nishonlangan.

Grigoriy kalendarining umumevropa kalendari sifatida qabul qilinishi. Grigoriy kalendari dastlab katoliklar hukmronlik qilgan davlatlarda qabul qilindi. Lyuteran va provoslavlilar bu kalendariga ancha vaqtgacha qarshilik qildi. Bir qator mamlakatlarda qiyinchiliklar bilan bu kalendar qabul qilindi. Tarixda 1584 yilda Rigada Polsha qiroli Stefan Batoriyanning farmoniga qarshi bo'lgan «kalendar tartibsizliklari» bo'lib o'tdi. Latishlar yangi kalendariga qarshi bir necha yil kurashdilar. Kurash 1589 yilda qo'zg'olon rahbarlari Gize va Brinkenlar osib o'ldirilgandan keyingina to'xtadi. Grigoriy kalendari Angliyada 1751 yilda qabul qilindi. Ular yilning boshini 25 martdan 1 yanvarga ko'chirdilar va o'sha yili Angliyada bir yil 282 kunni tashkil etdi. Angliyada kalendar islohotini o'tkazishda tashabbuskor bo'lgan lord Chesterfieldga qarata xalq «bizning uch oyimizni qaytar» shiori ostida namoyishlar o'tkazgan edi.

Zardushtiylik kalendari. Eron, O'rta Osiyo yerlarida zardushtiylik dini shakllangach, Navro'zga bu dinga xos urf-odat va an'analar kirib, uni diniy bayram sifatida o'tkazish odatga aylangan. O'sha davrda zardushtiylik ideologiyasiga mos keladigan kalendar ijod qilishgan, uning oxirgi islohoti sosoniylar sulolasidan bo'lgan Yazdigird davrida amalga oshirilganligi uchun Yazdigard kalendari deb nomlangan. Bu kalendar 365 kunlik quyosh (shamsiya) kalendari bo'lib, uning 12 oyi 30 kundan 360 kun bo'lgan, qolgan 5 kuni hech bir oyga kirmagan, bu 5 kun 21-martda kiradigan yangi yil oldidan alohida hisoblangan va bu kunlarda navro'z oldidan ibodat qilishgan va tayyorgarlik ko'rishgan. Yazdigard kalendaridagi oy nomlari

uning zardushtiylik ideologiyasi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib turadi. Bu oylarning qadimiy Avestodagi va hozirgi nomlarini keltiramiz.

Fravashi (hozirgi nomi Farvardin) – butun mavjudotning ruhi-xudo Axuramazdaning sifatlaridan biri.

Ashi Vaxishta (hozirgi nomi Ordibehesht chinakam) taqvodorlik.

Xarvatot (hozirgi nomi Xo'rdod) – butunlik va salomatlik xudosi.

Tishtriya (hozirgi nomi Tir) – Sirius yulduzi-zardushtiyalar bunga ham sig'inganlar.

Ameretot (hozirgi nomi Mo'rdod) – abadiylik.

Xshatra-varya (hozirgi nomi Shahrevar) – oliy hokimiyat.

Mitra (hozirgi nomi Mehr) – yorug'lik, ahd va osmon xudosi.

Apu (hozirgi nomi Obon) – suv hudosi.

Odar (hozirgi nomi Ozar) – olov hudosi.

Dotush (hozirgi nomi Dey) – yaratuvchi.

Vohu Manoh (hozirgi nomi Baxmon) – yaxshi fikr.

Spenti Omoti (hozirgi nomi Esfand) taqvodorlik asosiy aqidalardan biri.

Hozir jahonda zardushtiyalar 130 mingga yaqin bo'lib asosan, Eron, Pokiston va Hindistonda yashaydi. Barcha islomlashtirilgan hududlarga islom an'anasi bo'yicha 354 kunlik hijriy qamariy yil hisobi amalga kiritiladi, islom urf-odatlarini va an'analari ana shu kalendar bo'yicha ado etiladi. Hijriy-qamariy yil 12 oydan iborat bo'lib, toq oylar 30, juft oylar 29 kunlik tarzida qabul qilingan.

Navro'z 365 kunlik quyosh kalendari bo'yicha kiradigan yangi yilning 1 kuni sifatida bayram qilinadi. Bu kalendar Malik shoh (1072–1092 yillar) davrida kiritilgan, uning oylari yulduz turkumlari nomi bilan atalgani uchun u «burjiy» kalendar deb nomlangan. Quyosh kalendari oylarining nomlari, ularning lug'aviy ma'nosi va milodiy kalendar oy-kunlariga mosligi jadvali. Markaziy Osiyo va Eron xalqlari qo'llagan eng qadimgi yil hisobidir. Zardusht yil hisobi Quyosh yiliga asoslangan bo'lib, 12 oydan iborat. Har bir oy 30 kun, yana qo'shimcha besh kun bor. Bu besh kun alohida oy hisoblanadi. Bu besh kun sakkizinchi oydan keyin qo'yilgan bo'lib, shunda to'qqizinchi oyning boshlanishi Navro'zga to'g'ri kelgan. Taqvimdagi 12 oyning nomi Avestodagi ma'budalarning nomiga borib taqaladi. Oy nomlaridan tashqari oy tarkibiga kirgan kunlar(30 kun)ning

ham alohida nomlari bor. Avestoning milodiy VI asrda sosoniylar davrida tuzilgan matnida oylar va kunlarning to'liq nomi ro'yxati keltirilgan. Biroq ba'zi kalendar atamaları Avestoning eng azaliy qismlari deb hisoblanuvchi miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda tarkib topgan. Gotlar da ham uchraydi. Olimlarning taxmin qilishicha bu taqvim sharhiy Eron va Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlarida tuzilgan. Dastlab, G'arbiy Eronda Ahamoniylar davrida rasmiy davlat taqvimi sifatida qabul qilingan (ilmiy adabiyotlarda Qadimgi Eron yil hisobi deb atalishining sababi ham shu).

Abu Rayhon Beruniy o'zining «Xronologiya» asarida miloddan avvalgi 441 yilni zardusht yil hisobi shu yildan boshlangan deb ko'rsatadi. Zardusht kalendari 365 kun, har biri 30 kundan tuzilgan 12 oy va yana 5 kundan iborat, to'rt yilda yana bir kun orttirilgan. Demak, har to'rt yilda (kabisa yilida) o'n ikkinchi oyning oxiriga 5 kun emas, 6 kun qo'shilgan. O'ttiz kunga atab qo'yilgan mazkur nomlar yilning o'n ikki oyidagi hamma kunlarga taalluqli bo'lgan. Zardusht yil hisobi milodiy 632 yilgacha ko'llanib keldi. 632 yilda sosoniy shohlardan Yazdgird Sh zardushtiylik taqvimini isloh qiladi.

Abu Rayhon Beruniy Sug'd oylar to'g'risida ham ma'lumot beradi. Ularda o'n ikkita oy bo'lib, ularning har biri o'ttiz kundan hisoblangan. Sug'diylar har bir kunni alohida nom bilan ataganlar. Kunlarning nomlarini Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida ta'kidlab o'tgan.

Xorazm kalendari. Qadimgi Xorazmda Quyosh kalendariga asoslangan yil hisobidan foydalanilgan. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Xorazm yil hisobi Markaziy Osiyodagi eng Qadimgi yil hisoblaridan biri hisoblangan. Xorazm kalendarida bir yil 12 oyga bo'lingan va har bir oy 30 kundan iborat bo'lgan. Qo'shimcha 5 kun yil oxirida o'n ikkinchi oyga qo'shilgan va bir yil 365 kunni tashkil ettan. Har yili qoldiq sifatida ortib qoladigan chorak kunga Xorazm kalendarida e'tibor berilmagan. Yangi yil bahorgi tengkunlikdan boshlangan. Oy nomlari Abu Rayhon Beruniy asarida ikki xil to'liq va qisqartirilgan shakllarda keltiriladi. Oylarning to'liq nomi juda uzun bo'lib, ko'pchilik tovushlarni undosh harflar tashkil qiladi. Beruniy Xorazm kalendari oy nomlarining to'liq va qisqartirilgan shaklini quyidagicha keltiradi:

Xorazm kalendaridagi oylar nomlarining qisqartirilgan shakli

- | | |
|----------------|-------------------|
| 1. Novsorjiy. | 7. Avmriy. |
| 2. Ardst. | 8. Enox. |
| 3. Xrvdod. | 9. Arv. |
| 4. Jiriy. | 10. Rimjd. |
| 5. Xmidod. | 11. Arshmn. |
| 6. Axshrivriy. | 12. Isfandorajiy. |

Abu Rayhon Beruniy oylarining to'liq nomini bergan bo'lsa-da, ammo kundalik ish yuritishda va ma'muriy hujjatlarda oylarning yuqorida keltirilgan qisqa shaklidan foydalanilgan. IV–VIII asr qadimgi xorazm yozuvi hujjatlarida va XII–XIV asr arab-xorazm yozuvi manbalarida oy nomlari yuqoridagi shakllarda qo'llanadi. O'n ikkinchi oyga qo'shiladigan 5 kunning maxsus nomi bo'lmagan. Yil oylari kunlariga ortiqcha kunlarni ko'shish, ya'ni yilni kabisali qilish kalendar tarixida muhim masala bo'lgan. Beruniy Xorazmda kabisali yilga o'tish masalasiga ham to'xtalib o'tib, ular ortiqcha besh kunni oxirgi oyga ko'shganliklari to'grisida ma'lumot beradi. Xorazmliklar bilan sug'diylar yil boshini belgilash uchun ortiqcha kunlarni ko'shishda bir xil amal qilganlar. Xorazm kalendarida ham oyning har bir kuni (30 kuni) alohida nom bilan yuritilgan. Beruniy Xorazm kalendaridagi oy kunlarining nomini ham berib o'tadi. (Ushbu ma'lumot Z.Rahmonqulovanning «Xronologiya» nomli o'quv qo'llanmasidan olindi¹.)

Musulmon kalendar. Musulmon oylari, hafta nomlari. (Hijriy-kamariy yil hisobi, Hijriy-shamsiy yil hisobi). Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Kavkaz davlatlari islomlashtirilgach, zardo'shtiylik kalendaridan foydalanishmagan. Bunga faqat zardushtiylar amal qilganlar.

Islom dini vaqtini hisoblashga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Islomdan avval arablar Oy kalendaridan foydalanganlar. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, arablar yahudiylardan yilga qo'shimcha oylar qo'shishni o'rganganlar va u oyni «ayam an-nasi» deb ataganlar. Bundan biz arablarning Oy-quyosh kalendaridan foydalanganligini bilishimiz mumkin. Arab kalendarida 12 oy bo'lib, ular quyidagicha atalgan.

¹ *Rahmonqulova* 3. Xronologiya. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, –T.: 2006. 88-89-6.

1) Muharram – «ta'qirlangan», «man etilgan», «muqaddas» ma'nolarini beradi. Muharramda johiliyat davrida urush Harom qilingan. Bu holat ettinchi (rajab), – o'n birinchi (zulqa'da) va o'n ikkinchi (zulhijja) oylariga ham tegishli bo'lgan.

2) Safar – «sariq», «za'faron» degan ma'noni beradi. Bu oyda arablar halok qiluvchi yara toshar edi. Insonlarga bu kasallik yetganida yuzlari sarg'ayib ketardi. Shu sababli bu oyni safar «sariq» deb nomladi. Shuningdek, boshqa bir farazga ko'ra, safar oyida arablar «safariya» nomli guruh bilan birgalikda oziq-ovqat qidirganliklari uchun bu oyga shunday nom berilgan.

3) Rabi ul-avval. «Rabi» so'zi arab tilida «bahor» ma'nosini beradi. Ammo Qadimgi arablar «rabi» so'zini «kuz» ma'nosida ham ko'llaganlar. Ushbu oy kuz faslida kelgani uchun «birinchi kuz» ma'nosini anglatgan.

4) Rabi us-soniy – «ikkinchi kuz»..

5) Jumodu-l-avval, Jumodu-s-soniy – bu ikki oy qish kunlariga, sovuq qattiq bo'lib, suv muzlagan paytini anglatuvchiga arabcha so'zidan olingan bo'lib, «qotib qolmoq», muzlamoq ma'nosini beradi.

7) Rajab – arablar bu oyni ulug'laydilar, yana bu oyni «kar oyi» ham deb nomlaydilar, chunki bu oyda urush ovozi eshitmasdilar.

8) Sha'bon – «tashaaba» so'zidan olingan bo'lib, «tarqalmoq» ma'nosini beradi.

9) Ramazon – «yondirmoq», «jazirama oy» ma'nolarini anglatadi. Bu oy yozning eng issiq paytiga to'g'ri kelgani uchun shunday atalgan.

10) Shavvol – «ko'tarilmoq», «olib bormoq», «ko'chirmoq» ma'nolarini beradi. Arab qabilalari bu oyda o'z joylaridan ko'chib ketardi, shuning uchun shavvol deb nomlangan.

11) Zulqa'da – «o'tirmoq», «uyda qolmoq» ma'nolarini anglatadi. Bu oyda urushlar bo'lmaydi.

12) Zulhijja – «haj» so'zidan olinib, «haj qilish» ma'nosini beradi. Arablar bu oyda haj qilganlar.

Bu oylarning nomlarining qo'yilishi haqida birmuncha sabablar bayon qilingan. Ulardan biri shuki, muharram «muqaddas oylar» jumlasidan bo'lgani uchun ular shu nom bilan atalgan. Safar oyida arablar «Safariya» nomli guruh bilan birgalikda oziq-ovqat qidirishganlari uchun bu oyga shunday nom berganlar. Ikkala rabi oylarida o'simlik-

lar gullagan, ketma-ket shabnam va yomg'ir yoqqani uchun ular shunday ataladi. Bu biz «harif» (kuz) deb ataydigan fasl tabiatiga tegishlidir. Qadimgi arablar uni «rabi» (bahor) deb atadilar. Ikkala jumoda oyida suv yaxlaganidan ularga bu nom berilgan. Rajab oyida urish bo'lmay, tinchlik bo'lganidan arablar bu oyda safarga chiqqanlar. Shabonda arab qabilalari tarqalganlari sababli shunday ataladi. Ramazon oyi deyishga sabab bu oyda issiqning kuchliligidan toshlar ham kuyadi. Shavvol deb atalishiga bu oyda issiq ketib, harorat pasayadi. Zulqa'da oyida arablar hamisha uylarida bo'lganlaridan bunga shunday nom berilgan. Zulhijjada arablar haj qilganlaridan shunday atalgan. Arablar oylarini johiliyat davrida ham hozir musulmonlar ishlatayotganlaridek ishlatganlar, ularning haj marosimlari yilning to'rt faslida aylanavergan. Keyin ular teri, ko'n, meva va boshqalardan iborat mollari yetilgan vaqtda haj qilishni va bu marosimni bir holatda eng yaxshi va farovonchilik vaqtda ado etishni ko'zda tutib, o'z ko'shnilari bo'lgan yahudiylardan yilni kabisali qilishni o'rgandilar. Islomgacha bo'lgan davrda arablar Oy-quyosh kalendaridan foydalanganligini ba'zi oy nomlaridan bilishimiz mumkin. Islom dini paydo bo'lgan, diniy va dunyoviy ishlarni yuritish uchun yangi kalendar zarur edi. Bu masala xalifa Umar davri (634-644)da hal qilinadi. O'sha davrda faqatgina yillar voqealar nomlari bilan atalar, tartib raqami bilan yuritilmagan edi. Arablar o'rtasida xat, hujjatlarga sana qo'yish odati bo'lmagan. Bir kuni bir kishi xalifa Umar huzurlariga kelib sha'bon oyida to'lanishi kerak bo'lgan qarz haqidagi hujjatni ko'rsatdi. Shunda halifa Umar «bu hujjat qaysi sha'bonga tegishli? O'tgan yilgi sha'bongami yoki bu yilgi sha'bongami?» deb so'raydi. Bunday vaziyatga Jazira viloyatining voliyi Abu Muso ham duch keladi. Unga ikkita buyruq yozib beriladi. Bu buyruqlarning biri ikkinchisiga sira to'g'ri kelmas, boshqa-boshqa edi. Ularning qaysi biri oldin, qaysi biri keyin yozilganini anikday olmagan Abu Muso halifa Umarga murojaat qiladi. Chunki har ikki buyruqda ham sana yo'q edi. Bu masalani hal qilish uchun xalifa Umar Mashvarat o'tkazadi. Mashvarat oy hisobi bo'yicha kalendar tuzishni ma'qul topadi. Ular yangi kalendar da o'sha vaqtgacha qo'llanilib kelingan qamariy oy nomlarini saqlab qolishni lozim ko'radilar. Bu oylar arablar o'rtasida juda mashhur edi. Mashvaratdagilar kalendar boshi – era boshini qaysi vaqtdan hisoblashga oid turli fikrlarni o'rtat-

ga tashladilar. Ba'zilar payg'ambarning tug'ilgan kunidan desa, ba'zilar payg'ambarlikning kelishidan hisoblashni taklif qildi. Ali ibn Abu Tolib islom kalendarini payg'ambarning Makkadan Madinaga hijratlaridan boshlashni taklif etdilar. Bu taklif ma'qullandi. Payg'ambarning Makkadan Madinaga hijrat qilib yetib borgan vaqtlari rabi ul-avval oyidan 11 kecha o'tganda dushanba kuni bo'lgan edi. Bu milodiy hisob bilan 622 yilning 23 sentabr kuniga muvofiq keladi. Mazkur mashvarat hijratdan 17 yil keyin muharram oyining birinchi kuni (milodiy 638 yil 23 yanvar) bo'lgan edi. Hijrat esa yuqorida aytilganidek, rabi'ul avval oyining o'n birinchi kunida, ya'ni hijriy-qamariy sananing uchinchi oyida bo'lib o'tgan. Vaholanki, arablarda avvaldan yil boshi muharram oyining birinchi kunidan hisoblangan. Shu sababli, tarixiy voqealarni hisoblaganda chalkashlik ro'y bermasligi uchun hijrat voqea bo'lgan uchinchi oydan oldingi birinchi va ikkinchi oylar (muharram, safar) ham hijrat yili hisobiga qo'shib olindi va muharram yil boshi bo'lib qoldi. Ya'ni boshqacha qilib aytganda, hijriy hisobning birinchi yilining birinchi kuni muharram bo'lib qoldi. Bu sanani milodiyga aylantirganda 622 yilning 16 iyuliga muvofiq keladi.

Hijriy yilni aniqlash formulasi.

$$\begin{aligned}
 h &= (m - h) + m - h \quad 32 \\
 h &= (2008 - 622) + \frac{2008 - 622}{32} \\
 h &= \frac{1386 + 1386}{32} - 138 \quad 32 \\
 h &= 1386 + 43 \\
 h &= 1429
 \end{aligned}$$

Hijriy-qamariy hisobda bir yil 354 kun bo'ladi. Toq oylar (muharram, rabi ul-avval, jumodu-l-avval, rajab, ramazon, zulqa'da) – 30 kundan, juft oylar (safar, rabi us-soniy (oxir), jumodu-s-soniy, sha'ton, shavvol, zulhijja) – 29 kundan hisoblanadi. Hijriy-qamariy kalendarida kabisa yillari tartibi arab davriyligiga ko'ra hisoblanadi. Unda 30 yilda 11 ta kabisa yili mavjud. Kabisa yilidagi bir kun zulhijja oyi oxiriga qo'shiladi. Hijriy yil milodiy yilga nisbatan qisqaroq (354 yoki 355) bo'lgani bois, yil boshi har yili ma'lum vaqtda kelmaydi. Kelgusi yil oldingi yilga nisbatan 10,

11 yoki 12 kun (yilning oddiy yoki kabisa bo'lishiga qaram) ertaroq keladi. Milodiy hisobda o'ttiz uch yil, hijriy hisobda o'ttiz to'rt yilga barobar bo'ladi.

Islom dini tarqalgan barcha mamlakatlarda hijriy-qamariy yil hisobi diniy kalendar sifatida qabul qilingan. Ro'za, hayit, haj kabi islomiy ibodatlar shu kalendar asosida olib boriladi. Hijriy-qamariy yil hisobi VIII asrdan boshlab islom dini, arab tili va yozuvi bilan birga O'rta Osiyoga kirib keldi. XX asrning birinchi choragiga qadar Markaziy Osiyo yil hisobidan foydalandilar.

Hijriy-shamsiy yil hisobi. Hijriy-shamsiy yil Quyosh (shams)ning bir yillik harakatiga asoslangan. Milodiy 1079 yidda Saljukiylar sultoni Jaloliddin Malikshoh Yazdigird yil hisobini isloh qilish to'g'risida buyruk beradi. Kalendar islohoti maxsus tuzilgan hay'at tomonidan o'rganib chiqiladi. Unga shoir va olim Umar Hayyom (1040-1123) rahbarlik qiladi. Yangi kalendar yilning boshlanishi bahorgi tengkunlikka to'g'ri kelishi kerak edi. Chunki o'sha vaqtda yangi yilning boshlanishi bahorgi teng kunlikdan deyarli bir hafta uzoqlanib, 14-16 martga to'g'ri kelib qolgan edi. Agar yangi yil 20,21 va 22-martdan boshlansa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Umar Hayyom boshchiligidagi hay'at yangi yilni bahorgi tengkunlikdan boshlaydi va buning uchun kabisa yili tanlab olinadi. Bu kalendar ham Yazdigird yil hisobidagi kabi bir yil 12 oyga bo'linadi va har bir oy 30 kundan iborat bo'ladi. Bu kalendar Yazdigird kalendaridan farqli o'laroq kabisa yiliga 6 kun ham qo'shilgan. Kalendar har 33 yil bir davr (Sikl) hisoblangan. Unda har o'ttiz uch yilda sakkiz marta kabisa yili kelgan. Bunda kabisa kuni yetti marta to'rtinchi yil oxiriga, sakkizinchi kabisa kuni esa beshinchi kabisa yili oxiriga qo'shilgan. Bu kalendar xijratning birinchi yili (622 yil) dan boshlab hisoblanadi. Kalendarning tadbiiq etilgan kuni hijriy 471 yil 10 ramazon, (Yazdigir hisobi bo'yicha 448 yil 19 fevraldin) milodiy 1079 yil 16 martga to'g'ri keladi. Ushbu sana hijriy-shamsiy hisobi bo'yicha 458 yilning birinchi boshlanish kuni – bahorgi tengkunlik kuni (Navro'z) bo'ldi. Bu kalendar saljuqiylar sultoni Jaloliddin Malikshoh nomi bilan Jaloliy kalendari deb nom oldi. Umar Hayyom kalendari dunyoda bugungi kungacha yaratilgan mukammal kalendarlardan biri hisoblanadi. Unda xatolik bir sutkaga yetish uchun 4500 yil kerak bo'ladi. Bu esa kalendarning aniqlik darajasi qancha-

lik yuqori ekanligini ko'rsatadi. Jaloliy (Umar Hayyom) kalendari XIX asr o'rtalarigacha Eronda qo'llanildi. Keyinroq hijriy-shamsiy kalendari isloh etilib, oylarning kun miqdori burj oylarining kun miqдорiga to'g'rilanadi. Shu vaqtdan boshlab hijriy-shamsiy kalendarida Qadimgi Eron oylarining nomi ham qo'llanila boshlandi. Ularning tartibi quyidagicha:

- | | |
|------------------------------|--------------------------|
| 1. Farvardin-hamal (qo'y) | 7. Mexr -mezon |
| 2. Ordibexisht-savr (xo'kiz) | 8. Obon -aqrab (chayon) |
| 3. Xurdod-javzo (egizak) | 9. Ozar-qavs (yoy) 76 |
| 4. Tir-saraton (qisqichbaqa) | 10. Day -jadi (echki) |
| 5. Murdod-asad(arslon) | 11. Baxman-dalv (qovg'a) |
| 6. Shahrivar-sunbula | 12. Isfand-xut (baliq) |

1925 yilning 21 martida Eronda yangi Quyosh hijriy kalendari joriy etildi. Bu kalendarning erasi hijriy, ya'ni 622 yilning bahorgi tengkunligidan boshlanib, oddiy va kabisa yillarining uzunliklari 365 (366) kundan har yilning 12 oyidan dastlabki olti oyi 31 kundan, keyingi beshtasi esa 30 kundan va oxirgi o'n ikkinchi oyi oddiy yillari 29, kabisa yillari esa, 30 kundan edi. Ayni vaqtda Eronshshg rasmiy kalendari hisoblangan bu kalendarida oylar, Qadimgi Yazdigard Sh kalendaridagi oylar nomi bilan ataladi. Ushbu kalendarida kunlar sonining yuqoridagidek taqsimlanishi tasodifiy bo'lmay, Quyoshning yillik ko'rinma harakatini o'ziga aks ettiradi.

Afg'oniston rasmiy kalendari ham hijriy-shamsiy kalendar bo'lib, uning asosida 1911 yili Eron bilan bir vaqtda qabul qilingan «Burjiy kalendar» yotadi. Bu kalendarida oylarning nomi zodiak yulduz turkumlarining nomlari bilan hamal, savr, javzo, saraton, asad, sumbula, mezon, aqrab, qavs, jaddi, dalv va hut deb yuritilib, ularda kunlarning soni 29, 30, 31 va ba'zan hatto 32 kun bo'lardi. Shuning uchun ham bu kalendar noqulay edi. Natijada, 1958 yilga kelib (hijriy-shamsiy yil bo'yicha 1337 yili), afg'on kalendari ma'lum darajada Eronning hijriy-shamsiy kalendariga yaqinlashtirildi. Bu uchun 32 kunlik javzo oyi kunlarining soni 31ga tushirilib, o'ninchi oy – jaddi oddiy yillari 29 kunga, kabisa yillari esa 30 kunga teng bo'ladigan qilib qayta isloh qilindi. Natijada uning dastlabki olti oyi (hamal, savr, javzo, saraton, asad, sumbula) Eron kalendaridagi kabi 31 kundan qilinib, keyingi jaddidan boshqa besh oyi (mezon, aqrab, qavs, dalv va hut) 30 kundan qilib belgilandi. Eron va Afg'on kalendarlari

bo'yicha sanalar to'la mos kelgani holda oddiy yillarida oxirgi ikki oy dalv va hut bir-biridan bir kunga farq qiladi. Agar Grigoriy kalendarining ma'lum sanasiga tog'ri keladigan hijriy-shamsiy yilini topish zarur bo'lsa, u holda Grigoriy kalendar yilidan 622 ni (sana 21 martdan oldingi kunga to'g'ri kelsa) yoki 621 ni (agar sana 21 martdan keyingi kunga to'g'ri kelsa) ayirish kerak. Masalan, 1990 yilning 15 fevrali hijriy-shamsiy kalendarida qaysi yiliga to'g'ri kelishini topish uchun 1990 dan 622 ni ayirish kerak bo'ladi, chunki 15 fevral 21 martdan oldin keladi. Demak, 1990 yil hijriy-shamsiy 1368 yilga to'g'ri kelar ekan. Hijriy-shamsiy kalendar yilning muayyan vaqtida bahorning birinchi kuni (navro'z)da boshlangani uchun fasllar, iqlim, ob-havo va tabiatda yuz beradigan davriy hodisalarni kuzatib borishda juda qulay. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi bilan bog'liq barcha ishlarni olib borishda undan foydalaniladi. Davr. Eng katta tarixiy vaqt tushunchasi bo'lib, turli ma'no kesmalarida qo'llaniladi. Masalan, ibtidoiy davr. Insoniyat tarixining quyi, ilk bosqichini anglatadi. U davrda odamzodning bosqichini ajdodlari ilk shakllanish va dastlabki uyushish jarayonlariga kirishganlar. Tiriklik uchun kurash, yovvoyi tabiatdan o'z ulushini ko'plashib undirish zaruriyati hamda tabiat ofatlaridan, vaxshiy hayvonlar hujumlaridan birgalashib jon saqlash ehtiyoji ularni birlashtirgan. Bu birlik quyi (poda, to'da) shakllaridan asta-sekin qarindoshlik, o'zaro qon-tomirdoshlik birliklariga tomon, urug'chilik sari rivojlangan. Ona urug'i, ota urug'i bosqichlariga ko'chgan. Ota urug'i davri jamiyat taraqqiyotining ibtidoiylik bosqichidan mulkiy, ijtimoiy ta'baqalanish tomonga yetaklagan. Bronza asri oxirlariga kelib, jamiyat ijtimoiy-siyosiy boshqarilish institutlarini paydo qilgan. Demak, miloddan avvalgi X-IX asrlar ibtidoiy davrning poyoni bo'lib, tarix sifat jihatdan, ijtimoiy taraqqiyot jihatdan yangi davrga qadam qo'ygan. Bu davrning nomi qadimgi dunyo, qadimiyat deb atalishi ham mumkin. Davr tushunchasi shundan boshlab keng va turli ma'no qirralarini ifoda eta boshlaydi. Masalan, antik davr tushunchasi dunyo tarixining yunon-rim qadimiyatidan boshlab, milodiy IV asriga qadar vaqtni ko'zda tutadi. Sharq (Markaziy Osiyo) uchun antik davr Makedoniyalik Aleksand yurishlaridan boshlab milodiy III-IV asrlargacha demakdir. Biroq bu davrning ichki bo'laklari ham borki, buni Markaziy Osiyoda paydo bo'lib, jahon tarixida muhim o'rin tutgan davlatlar bilan bog'liq holda kushonlar davri, qadi-

miy xorazmshohlar davri, eftaliylar davri kabilarga shartli ravishda bo'lib qaraladi. Davr tushunchasining turli ma'no yoyilmalari ko'p hollarda tarixiy sifat o'zgarishlarini ifodalaydi. Masalan, islom davri, temuriylar davri, shayboniylar davri kabilarki, bunda sulolaviy siyosiy o'zgarishlar ham hisobga olingandek bo'ladi. Davr tushunchasida ruscha «epoxa» ma'nosi ham borki, bu kesmada ushbu atama katta siyosiy, mafkuraviy o'zgarishlarni ifoda etadi. Rossiyada Romanovlar davri, Turkistonda mustamlaka davri, sovet mustabid davri, nihoyat, mustaqillik davri. Davr tushunchasi madaniy ma'naviy yangilanish bosqichlariga nisbatan ham amal qiladi: uyg'onish davri (sharq uyg'onish davri, g'arbda renessans davri), «madaniy inqilob» davri va boshqalar. Davr tushunchasining bir xususiyati alohida ta'kidlanmog'i lozimki, bu ham bo'lsa, nisbiy ma'noga uning aniq yillar chegarasiga sig'masligidir. Sulolaviy davrlar biroz bundan mustasno. Xronologiyada eng yirik tushunchalardan yana biri era deb yuritiladi. Lotinchada era «boshlang'ich nuqta», «ayrim olingan son» ma'nosiga ega bo'lib, biror davomiy yil ketma-ketligining boshlanishini bildiradi. Bundan tashqari era tushunchasi o'zidan boshlanuvchi yillar majmuini yaxlit bir butunlik qilib, ifodalashi ham mumkin. Ya'ni, era yil hisobining o'zi hamdir: olimpiya erasi, xristian erasi, musulmon erasi kabilar.

Era ba'zan shu qadar katta vaqt tushunchasiga aylanadiki, bu qatorga kosmik era, astronomik era, geologik era kabilarni kiritish mumkin. Hatto era so'zini XIX asrda K. Marks, F. Engels kabi o'z davrining nazariyotchilari g'oyaviy-siyosiy ma'noda kommunistik era shaklida qo'llaganlar. Ularning bu hayoliy g'oyalari jahon tarixini sotsialistik burilishlarga, hayoliy «kommunistik jamiyat qurish» kabi puch siyosiy amaliyotlar yo'liga solib yuborgani bugun tarix bo'lib ortda qoldi. Era tarixan chindan ham bo'lib o'tgan katta ahamiyatga ega bo'lgan biror voqea asosida, o'sha voqeani hisob boshi qilish an'nasidan tug'iladi. Jumladan, olimpiya erasi miloddan avvalgi 776 yilda qadimgi Gresiyada Olimp tog'i etaklarida o'tkazilgan sport o'yinlaridan boshlangan. Har to'rt yil bir olimpiya yili hisoblangan. 776–772 yillar I olimpiya yili, 772–768 II olimpiya yili va hokazo. Bu o'yinlar miloddan avvalgi 753 yilda to'xtab qolgach, amaliyotdan olimpiya yil hisobi ham asta-sekin chiqib keta boshlagan. Nihoyat olimpiya o'yinlari 1896 yilda yangilanishi munosabati bilan o'yinlarning qishki va yozgi turlari har to'rt yilda bo'lib

o'tishda davom etmoqda. Lekin, olimpiya erasi yil hisobi tiklanmadi. O'rniga olimpiya o'yinlarining raqam ifodasi yuritilmoqda. 28-olimpiyada o'yinlari Pekinda 2008 yil yozda o'tkazildi. Lotin erasi Rim shahriga asos solinishi bilan bog'liq miloddan avvalgi 753 yildan boshlangan (Rem-Romul, Tibr daryosining ikki qirg'og'ida Rim shahriga asos solganlari to'g'risidagi rivoyat bunga asos bo'lgan). Hindistonda seka yoki Ashoka erasi, Kushonlar davridagi Kanishka erasi – 78 – milodiy yildan hisob olgan. Xorazmda xorazmshoh erasini V.A. Livshits milodiy 10–20 yillardan boshlangan deb hisoblaydi. Afrig' sulolasining yillar hisobini Beruniy milodiy 304–305 yillardan deb ko'rsatgani holda siyovushiytlar tarixini miloddan avvalgi 1280 yildan boshlaydi. Bu g'isobga asos qilib Siyovushning Turonga kelishi voqeasini ko'rsatadi. Bu rivoyatlar ostida xorazmlilar (xorasmiylar)ning Quyi Amudaryoga migratsiyasi aks etgan, degan yangi ilmiy xulosalar ham mavjud.

Xristian erasi tushunchasi Iso alayhissalomning Bibi Maryamdan tug'ilgani tarixi bilan bog'liq. Bu sana hozirgi jahon yil hisobining asosida 2009 yildan buyon davom etmoqda. Hijriy yil hisobi, musulmon erasi Muhammad s.a.v.ning Makkadan Madinaga xijratidan – milodiy 622 yil 16 iyul kundan boshlanib, bu hisob bo'yicha 1430 yilda turibmiz. Markaziy Osiyoda islomdan avvalgi davrlarda bir qator xususiy eralar ham amal qilgan. Masalan, Kanishka erasi – 78-milodiy yildan boshlangan; Yazdigird erasi (uni Xusrav erasi ham deyilgan) 632 –milodiy yildan hisoblangan; Tarxun – Sug'd podshosining erasi milodiy 700–710 yillar orasida amal qilgan; Devashtich erasi 708–722 yillar orasida amal qilgan va hokazo. Eralar hisobidagi milod (milodiy) kabi sifatlar «tug'ilish» ma'nosiga ega bo'lib, Iso a. s.ning tug'ilishini ko'zda tutadi. Era tushunchasining keng talqinlaridan biri astronomik eralardir. Bunga ko'ra, tarixlar xosiyatli yoki xosiyatsiz astronomik eralarga ham bo'lib tasavvur etib kelingan. Ya'ni, masalan, Hut (baliq) erasi samodagi baliq burjiga tegishli davr bo'lib, milodiy 1 yildan 2000 yilgacha davom etgan. 2000 yildan boshlab dalv (qovg'a) erasiga kirdik. Bu era Hutdan Dalvga o'tish bosqichi – 1950- 2025 yil o'tgach, milodiy 4000 yilgacha davom etadi. Astronomik eralar ketma-ketligi quyidagicha bo'lgan. Avvalo astronomik era tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu demak, bahorgi teng kunlik (21 martdan 22 martga o'tish) qaysi burjga to'g'ri kelishni

anglatadi, ya'ni hamal burjidan boshlangan bu hisob 26000 (aniqrog'i 25920) yil davom etadi. Hisob 12 burj bo'ylab teng kunliklar tushishi qaytib hamal burjiga tushgunicha shuncha yil o'tadi. Bu vaqt doirasi lotincha protsessiya deb ataladi. Shunday qilib, Savr (sigir) davri miloddan avvalgi 4300 yildan 2200 yilgacha davom etgan; hamal erasi (qo'yi) 2200 miloddan avvalgi 150 yilgacha; Hut erasi (baliq) miloddan avvalgi 150 yildan 1950 yilgacha (o'tish davri bilan birga 2000 yilgacha) davom etgan. Hozir dalv erasiga kirdik va bu era 1950–2025 yillarda hutdan dalvga o'tish bosqichi (bu hisobni mashhur Nosradamus – bashoratchi ko'rsatgan) bilan birga 4000 yilgacha davom etadi. Bu davr umumiy «Buyuk turg'unlik» davri bo'ladi deyilgan. Dunyo turli silkinishlardan holi bo'lib osoyishtalik boshlanadi, deb bashorat qilingan.

Astronomik eralar, bularga berilgan izohlar ilmiy jihatdan o'jiz, zero, ular ko'proq insoniyatning asriy tajribalari, kuzatuvlarini umumlashtiradi va bashoratga aylantiradi. Vaqt hisobining asosiy birliklari qatorida asr tushunchasi yil hisoblarining yuz yilliklarini ajratishdan kelib chiqqan. Asr so'zidan katta davriy tushunchalar uchun foydalanish hol-larida ko'chma ma'no aks etadi va asr so'zi davr so'zini almashtirgan bo'ladi: Bronza asri, temir asri. Asl ma'no esa, 100 yillik demakdir. Milodiy asrlar hisobda 21 asr boshidan 8-yil hisobida turibdi. Miloddan avvalgi asrlar tarixining sanasi yoki davri ma'lumlarining eng qadimgisidan boshlab yuqoridan pastga sanaladi. Masalan, miloddan avvalgi V–IV ming yillik, I ming yillik, miloddan avvalgi X–IX asr va b. Xuddi shu kabi miloddan avvalgi yillar ham yuqoridan pastga sanaladi: 776–775, ... 150–100...50, ...1 yil 1-yildan 2009 gacha pastdan yuqoriga sanoq yuritiladi. Yillar asr ichida hisoblanganda «falon asrning falon yili» kabi birikmalar ham ishlatiladi.

Yil 365 kundan iborat muddat bo'lib, Yerning quyosh atrofida bir mar-ta aylanib o'tish yo'lidan hosil bo'lgan vaqt birligidir. Bunday yil «qu-yosh yili» deb ataladi. Uning aniq uzunligi 365 sutka, 2 soatu 4 minut, 25 sekundga teng. Boshqacha qilib aytganda, 365–2425 kun. 365 butun yuznan 25ga ya'ni, 365 kundan chorak kunga yaqindir. Yil hisobi astrono-miyada «yulduz yili» nomi bilan aniq asboblar yordamida 365, 2564 kun, tropik yil 365, 2422 kun, kalendar yil, taqvimiy hisob (grigorian hisobiga ko'ra) – 365, 3425, qamariy hisobda 354, 3671 kunga teng. Demak yil

hisobining to'rt usuli bo'lib, ular o'rtasida o'zaro nisbiy farqlar mavjud: 365, 2564-365, 2422 = 365,0142. Bu demak 14 minutu 2 sekund farqdir.

Yilning quyoshi ekliptikasi (yillik og'ishidagi maksimal nuqtalar orasidagi harakati) bo'yicha teng kunligi va ikki maksimal «uzoqlashuv» nuqtalari bor. Bular fasl almashuvlarining asosiga to'g'ri keladi: 21 mart, 21 iyun, 21 sentabr, 21 dekabr kunlaridagi sutkalar. Bahoriy teng kunlik bahor fasli, yozgi uzun kun yoz chillasini boshi, saraton, kuzgi teng kunlik sumbula, qishki qisqa kun chilla boshi deb hisoblanadi. Bizning gallaktika koinotning quyosh tizimi nomi bilan yurtuluvchi bir bo'lagidir. Yerning gallaktikadagi o'rni quyosh sistemasining quyosh atrofida aylanib turuvchi sayyorasi sifatida bir yilda bir marta to'liq doira yasaydi. Lekin Yer Quyosh tizimi bilan birgalikda koinotning markazi tevaragida 176 million yilda to'liq bir marta aylanib chiqadi. Nisbiylik nazariyasi deb ataluvchi ilmiy hisob-kitoblarga ko'ra, (A. Eynshteyn) yerning bir asri koinotning 2592000 yiliga teng ekan. Bir yil shuning 100 ga bo'liniga – 25920 yilga, bir oy shunga muvofiq, 12 ga bo'linganiga, ya'ni 2160 yilga, bir kechakunduz (24 soat) esa, 72 yilga teng. Demak koinotning uzoq nuqtasida bir kun turgan odam yerning 72 yilini yashagan bilan barobar. Bu kabi cheksizlik va nisbiylik umumiy harakat qonuniyatiga egaligi, ajab bir holki, buning ma'nosiga yetishning o'zi amri mahol. Bu qudrat Allohning ixtiyoridadir.

Yilning hijriy hisobida quyosh ekliptikasiga ko'ra va oyning sinodik harakatini kuzatish orqali joriy hisoblar amal qilib kelgan. Har ikki hisob ham 21-22 martga o'tar kechasidan boshlangan. Biroq, 12 oy shamsiy hisobda ham, qamariyda ham 353-355 kunga teng bo'lib, haqiqiy astronomik yoki tropik yildan 11-12 kunga farq qilgan. Natijada 19 yillik sikl ichida bu farq to'g'rilab borilgan. Ya'ni, 12 oylik yillar 12 ta, 13 oylik (383-385 kunlik) yillar soni 7 ta bo'lgan. Bu taqvimning tarixi uzun. Undan yaxudiyalar foydalanishgan. Yil boshi Nisan oyidan, hozirgi taqvimning sentyabr, oktyabr oylariga bo'linib turuvchi oydan hisoblangan. Bundan tashqari, islom dunyosida 622 yilning 21-22 martidan hisoblanuvchi shamsiy yil ham amal qilib kelmoqda. Uni saljuqiy hukumdor Malikshoh amalga kiritishga farmon bergan. Unda yil 365-366 kundan iborat.

Shamsiy musulmon yili oylarining ro'yxati quyidagicha:

Hamal	→ Olov uning unsuri, Mirrix hamda Pluton sayyorlari unga homiy hisoblanadi. Muddati 21 martdan 20 aprelgacha.
Savr	→ Yerning unsuriga xos, Zuhro yulduzi himoyatida 21 aprel– 21 may.
Javzo	→ Havo unsuriga xos. Atorud, ya'ni Merkuriy sayyorasi himoyasida.
Saraton	→ Suv unsuriga xos. Oy uning homiysi
Asad	→ Bunga ham olov unsuri xos. Quyosh himoyatda.
Sunbula	→ Yozga xos. Merkuriy himoyatida. Atorud
Mezon	→ Havo unsuridan. Zuhro yulduzi himoyatida
Aqrab (chayon)	→ Suv. Pluton va Mirri soyasida.
Qavs	→ Olov. Mushtariy (Yuriter), Neptun himoyasida.
Jady (Uloq-echki)	→ Er. Zuhal (Saturn), Uran.
Dalv	→ Havo. Uran va Zuhal himoyasida.
Xut	→ Suv. Neptun va Yupiter himoyasida. 20.02. – 20.03 gacha. 21 mart Navro'z, Hamal oyining boshi

Ushbu tartibga mos ravishda arabcha va Chig'aioyi turkiy taqvim oy nomlarining ro'yxati quyidagicha (354 kunlik yil):

Muxarram	→ Ashur oyi	→ 30 kun
Safar	→ Safar oyi	→ 29 kun
Rabbi al-avval	→ Mavlud oyi	→ 30 kun
Rabbi us-soniy	→ Rabbi' us-soniy	→ 29 kun
Jumod ap-avval	→ Jumod ap-avval	→ 30 kun
Jumod us-soniy	→ Jumod us-soniy	→ 29 kun
Rajab	→ Rajab (Rejab)	→ 30 kun
Sha'bon	→ Barot oyi	→ 29 kun
Ramazon	→ Ro'za oyi	→ 30 kun
Shavval	→ Xayit oyi	→ 29 kun
Zul-Qa'da	→ Ora oyi (Or oyi)	→ 30 kun
Zul-hijja	→ Qurbon oyi	→ 29 kun
		354 kun.

Rumo (Vizantiya) taqvim an'asida Quyosh yili asos bo'lgan. Sham-siy 365 kunlik arabiy taqvim bilan bir xil hisob yuritilgan.

Arabiy		Rumo (Vizantiya)	Hozirgi		
Muxarram	→	Mart	Mart	→	31
Safar	→	Bisan	Aprel	→	30
Rabbi al-avval	→	Mays	May	→	31
Rabbi us-soniy	→	Xaziyron	Iyun	→	30
Jumod ap-avval	→	Tammuz	Iyul	→	31
Jumod us-soniy	→	Og'stus	Avgust	→	31
Rajab	→	Aylul	Sentabr	→	30
Sha'bon	→	1- Tishriyn (avval)	Oktabr	→	31
Ramazon	→	2-Tishriyn (soniy)	Noyabr	→	30
Shavval	→	Qonuni avval	Dekabr	→	31
Zul-Qa'da	→	Qonuni soniy	Yanvar	→	31
Zul-Xijja	→	Shubat	Fevral	→	28/29

Muchal va muchal hisoblash.

Qarn – 1) hayvon shohi.

2) asr (Navoiy 30 yil hisobila ishlatadi), uzoq muddat (ko'pligi qurun)

Oiron – 1) yaqinlashish; birlashish

2) ikki sayyora yulduzining bir burjda to'qnashuvi; Qiron oylamak.

Davr –1) aylanma, tevarak

2) aylanish

3) zamon, vaqt

4) qabot

Davri sipehr – maj. Taqdir (ayn. osmon aylanishi)

Davr topmoq – aylanmoq

Davri tasalsul – uzluksiz aylanma; uzilmas zanjir; zanjir xalqalari

Davri falak – osmon aylanishi

Davri qamar – oyning aylanishi, oy gardishi

Davri mustajal – maj. Dunyo

Davron, Davaron – aylanish, gardish;

davron gard – davrlar kechiruvchi,

davron uyi – maj. Olam, dunyo

Sohibqiron – Amir Temurning laqabi, munajjimlar ikki sharafli sayyora: Zuhra (Venera) va Mushtariy (Yupiter) o‘z harakatida bir-biriga yaqinlashgan holatini «Qiron burji» deb ataganlar, shu vaqtda tug‘ilgan bolaga esa kelajagi baxtli bo‘lishi haqida fol ko‘rganlar. Amir Temur tug‘ilgan vaqtda mazkur ikki sayyora qiron burjida bo‘lganligiga ko‘ra, unga «sohib qiron» («Qiron egasi») deb laqab berilgan.

Mavzu bo‘yicha savol va topshiriqlar:

1. Tarixiy xronologiyaning maqsad va vazifalarini.
2. Xronologiyaning tarixiy ilmiy fan sifatida paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
3. Vaqtni hisoblashning ibtidoiy formalari.
4. Birinchi kalendarlar.
5. Qadimgi misr kalendarlari.
6. Rim kalendarlari.
7. Yulian kalendarlari.
8. Grigoryan kalendarlari.
9. Yangi yulian kalendarlari.
10. Umar Hayom kalendarlari.
11. Qadimgi yahudiy kalendarlari.
12. Musulmon kalendarlari.
13. Muchal haqida tushuncha bering.
14. Qadimgi slavyan kalendarlari.
15. Rossiyada Xristian yil hisobining joriy etilishi.
16. Markaziy Osiyoda vaqt hisoblari tarixi haqida.
17. Markaziy Osiyo xronologiyasining hozirgi ahvoli.
18. Butun dunyo kalendarlarining hozirgi ahvoli.

1.11. Sfragistika. Muhr va uning tarixi

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Muhr belgilari qadimiy ildizlari, ibtidoiy davrlardan boshlab o‘zlikni anglash davridan boshlab, urug‘-qabila nishonlari, shular asosida davlatchilik boshlangan paytda yuzaga kelgan barqaror davlat ramzlari haqida ma’lumotlar berish, xususiyl nishonlar asosida yuzaga kelgan muhrlar, ularning ijtimoiyl ahamiyati tasdiqlovchi va isbotlovchi xossalarini tushuntirish, muhrlarning materiallari, yasalish texnologiyalari haqida ma’lumot berish. Muhr va ma’naviyat, muhr va san’at chiziqlaridagi munosabat haqida tafsilotlar berish.

Tayanch soʻz va iboralar: *sfragistika (muhrshunoslik), sigillologiya, muhrkanlik, bulla, muhr shakllari, epigrafik maʼlumotlar, tasvirlar, ijtimoiy maʼmuriy mavqelar guvohligi, gemma, osma muhrlar, bosma muhrlar, kartush, legitimlik, shtempel, Gustav Shlyumberge, inkan, surguch, Sulaymon muhri, kao, plombo, inskript, ensiklika, sirkulyar, tomos, elzivirlar, piskatorlar, Aldo uyi, tugʻro, gʻolim muhrlar, Vima Kadfiz muhri, xanko, imzo, intaliyalar, kameyalar, gliptika, gravyura, fatvo, pintader, gerb, pentagramma.*

Sfragistika tarix fanining muhrlar bilan shugʻillanuvchi yordamchi sohasidir. Yunoncha sfragis (σφραγίς) — «muhr» soʻzidan ilmiy sohaning nomi yasalgan. Muhr soʻzi keng maʼnoda qattiq material yuzasida oʻyib tushirilgan belgi yoki yozuvli shtamp (nishon)lar, matrisalar va ularning oltin, kumush qalay, moʻm, surguchlar, loydan yasalgan boʻllalar yuzasiga bosib tushirilgan izlariga nisbatan qoʻllanadi. Yaʼni muhr va turli nishon belgilarining qoliplari, nishonlarning oʻzlari hamda ularning turli buyumlar sirtiga bosib tushirilgan akslari sfragistika uchun oʻrganish obʻekti boʻladi.

Muhrlar yozuv yaratilgan dastlabki davrlardan boshlab qadimgi She-merda u yoki bu hujjatning asl (haqqoniy) ekanini tasdiqlash maqsadida ishlatilgan. Ilk muhrlar silindr shaklida boʻlgan. Ularning sirtida tasvirlar va yozuvlar oʻyilgan boʻlib (boʻrtma tarzda) loydan yasalgan mixxat taxtachalaridagi matn ostiga yumalatib iz tushirish usulidav qoʻllangan. Muhrlarning shakli oʻzgara borib, antik harbdagi turli shakllardagi usuk-muhirlar paydo boʻlgan. Baʼzi uzuk-muhrlar doirasi boʻylab tushirilgan belgilarni hujjat ostida yumalatib bosilgan. Baʼzilar esa, barmoqqa taqilgan uzuk doirasiga yopishtirib qoʻndirilgan toshlarga oʻyib tushirilgan yoki boʻrtma tasvirlar boʻlib, hujjatlarni tasdiqlash uchun ularni barmoqda turgan holda bosilgan. Bunday muhrlarning shakllari uchburchak, doira, toʻrtburchak, toʻgʻri toʻrtburchak boʻlishi mumkin edi. Muhrlardan iztushirish uchun rang boʻyoq-mastikadan, moʻmdan, qiziltuproq (oxra) loyidan foydalanilgan.

¹ Muhr soʻzi zardushtiylilik davrida maʼbud Mitraning shartnoma, bitimlar ijrosi ustidan nozirlik vazifasidan paydo boʻlgan. Mitra talaffuzi muhr soʻzida davom etmoqda.

O'rta asr Yevropada, shu jumladan Rusda hamda Vizantiyada osma muhrlardan keng foydalanilgan. Bunday muhrlar hujjatga tizimcha yordamida bog'lab (osib) qo'yilgan oltin, kumush quyma yombillarga, qo'rg'oshin, mo'm, surguch kabilarga bosib tushirilgan. Bunday usul ayniqsa, o'ram ko'rinishidagi hujjatlarda belbog' qilib o'ralgan tizimchalarga quyma shaklda bog'langan mug'r izlari ko'rinishida ko'p uchraydi. Ilk o'rta asrlarda sug'd yozma yodgorliklarida ishlatilgan muhrlar qizil (oxra) tuproqdan qorilgan loyni xat o'ramini bog'lagan tizimchaning uchlarini bosib turadigan qilib yopishtirib, hali loy qotib ulgurmasdan unga muhr bosib tushirilgan. Mug' tog'i sug'd hujjatlaridagi mug'rlar surati beriladi.

Yevropada hozirgacha davom etib kelayotgan muhr shakli XIV–XV asrlarda paydo bo'lgan. Sharqda, xususan, Markaziy Osiyoda uzuk-muhrlar o'rta asrlarning so'ngi bosqichlarigacha davom etdi. Yog'och, metall kabi materillardan yasalgan shaklan hozirgi zamon mug'rlari Markaziy Osiyoda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida paydo bo'ldi. Markaziy Osiyoda eng qadimiy muhrlar bronza asriga oid. Ular ilk (proto) shaharlarda, xususan, ilk sug'orma dehqonchilik madaniyati mintaqalarida Marg'iyona, Baqtriya, Sug'd kabilarda ko'plab topilgan.

Sopolli madaniyati yodgorliklaridan topilgan mug'rlarning tasvirlari jadvali beriladi. Ko'ziga o'yib tushirilgan tasvirlari bor uzuklar gemmalar deyiladi. Markaziy Osiyo yodgorliklaridan ko'plab gemmalar ham topilgan. Qarshi yaqinidagi Xontepadan topilgan gemmada filbon boshqarib borayotan fil ustida palankin uzra o'tirgan erkak tasviri bor. Gemmaning doiraviy yuzasi chekkasida bayankak so'zi bitilgan. Farishta Ashi palankinda o'tirgan kishining ortidan uchib kelib qo'lidagi tojni uning boshi tomon uzatib turgan holda tasvirlangan. Bu ramziy ifoda Qarshi vohasida hukm surgan hokimiyat egasining davlatga egaligi ilohiylashganligini ko'rsatgan. O'zbekiston hududlarida muhrkanlik hunarining rivoji bronza va ilk temir asrlaridan davlatchilik munosabatlari bilan barobar rivojlanib kelgan. Antik davrda muhr masalasi muhalliy hududiy davlat tuzilmalarining siyosiy mavjudligi ifodasi bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Xorazmning Burgut qala yodgorligidan topilgan muhrlarda hokimiyat ramzini qo'lda tutgan otliq tasviri yetakchi o'rinda. Muhrlarning turli namunalarida tasvirlarning xili ko'payadi. Jumladan, ularda xayoliy (fantastik) hayvonlar (qanotli ot), mushuksimon hayvon, ohu yoki jayron tas-

virlari uchraydi. Bargsimon shaklli muhrlarda ba'zan chin ma'noda barg tasviri bo'lsa, ba'zan sxematik tarzda ishlangan ot tasviri bor. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida davlatchilik asoslaridagi o'zgarishlar, xususan, islom davri bilan bog'liq holda yuzaga kelgan sharoit muhrlarning tuzilishi, mazmuni, vazifasi doirasini ham o'zgartirdi. Hukmdor muhri, turli davlat lavozimlari, diniy rahnamolik, huquqiy xizmat doiralari o'z muhrlariga ega bo'la boshladi. Firdavsiyning «Shohnoma»sida muhrning ahamiyati bunday ta'kidlanadi: «Shoh dedi-ki, barcha narsadan qimmat narsa bu – qilich, muhr, taxt va tojdir»

Sfragistika (muhrshunoslik) – atama yunoncha – sfragis – «muhr» so'zidan olingan lotin tilida sigillografiya deb ataladi. Sigillum so'zi ham «muhr» demakdir. Sfragistika muhrlar va ularning qoliplari (matri-Sa) hamda muhrlardan bosib qoldirilgan izlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga sfragistika muhr uchun ishlatilgan materiallarni ham tadqiq qiladi. Sfragistika faoliyat sohasi sifatida diplomatika sohasi doirasidan ajralib chiqqan chunki dastlab hujjatlarning haqqoniyligini muhrlar bilan asoslash bunga sabab bo'lgan. Ommaviy ravishda arxeologik tadqiqotlarning kengayib borishi asnosida ko'plab qadimiy muhrlar va ularning izlari tushilgan ashyolar topilishi bir tomondan hujjatlarning o'zi bilan ikkinchi tomondan ularda saqlangan muhrlar bilan shug'ullanish ehtiyojini paydo qilgan. Yaqin Sharq (G'arbiy Osiyo) Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo mintaqalari olib borilgan arxeologik izlanishlar bir necha turdagi muhrlar topilishiga olib keldi. Ayniqsa, Silindir (g'o'lin) ko'rinishdagi muhrlar ko'p uchraydi. Antik davr yodgorliklaridan qalqonsimon muhrlar Vizantiya va o'rta asr Evropa mamlakatlarida osma ko'rinishdagi metall muhrlar ko'plab topilgan. Ushbu muhrlardan bosib tushirilgan izlar ponasimon hujjatlar arxivlarida turli xil turmush buyumlari sirtida saqlangan. Shu kabi topilmalar ko'payib borgani sari olimlar diplomatika sohasidan sfragistikani ajratish zarur deb hisobladilar. Natijada bu soha arxeologik madaniyatlar doirasida o'ziga xos muhrlar majmu'larini tasnif qilish imkonini berdi. Bu ishning davomida muhrlar xronologiyasi va tipologik taqsimoti ham hal qilib borildi. Muhrlar u yoki bu davlatning ichki va tashqi munosabatlarini o'rganishda ahamiyat kasb etuvchi maxsus manbushunoslik ob'ektiga aylandi. Sfragistika sohasi bilan jahon miqyosida ko'plab olimlar shug'ullanib kelishadi. N.P.Lixachyov rus sfragisti-

kasining yetakchi tadqiqotchisi. N.P.Lixachyov maktabining davomchilaridan Shoduar S.I., mashhur hisoblanadi. FranSuz olimi Gustav Shlyuberji Afg'oniston va O'rta Sharq mintaqasi bilan bog'liq holda Vizantiya imperiyasi muhrlari tarixi bilan samarali ish olib borgan. O'zbekistonda bu sohada muayyan ishlar bajarilgan. Ahmadali Asqarov bronzo davri muhrlari, R.Sulaymonov Erqo'rg'on va Xontepa muhrlari, Irfan To'xtiev Temuriylar davri numizmatikasi va sfragistikasi, Shovosil Ziyodov so'nggi o'rta asrlar xonliklar davri muhrlari va ularning egaligi haqida tadqiqotlar qilgan. Ilxom Bekmirzayev Toshkent qozilik arxivi hujjatlari muhrlari tarixi bilan shug'ullangan.

Bulla – lotincha «muhr» ma'nosini ifodalab, o'rta asrlarda Rim papalarining hujjatlarining aynan o'zi. Ularga qo'rg'oshindan ba'zi hoatlarda hatto oltindan quyma shakldagi osma muhrlar birlashtirilgan. Ana shu muhr bosilgan ashyo, qavariq bulladir. Keyinchalik bulla so'zining ma'nosi ko'chib, Rim papasi hujjati ma'nosini ifodalaydigan bo'ldi. Tarixda shu kabi bullalar turli hukmdorlar nomidan ham manzillarga jo'natib turilgan. Masalan, G'arbiy Evropa va Vizantiya hukmdorlarining o'rta asrlar va uyg'onish davrlarida yuborgan oltin bullalari ma'lum. Vizantiya imperatorlarining farmonlari ham oltin bullalar shaklida amal qilgan. Ularga imperator o'z qo'zli bilan to'q qizil siyoh bilan bir necha so'z yozish va imzo qo'yish odati bo'lgan. Vizantiya imperatorlarining hujjatlarini xrisovullar deb atashgan. Osma muhrlar bulla ko'rinishida ipak tizimcha ustidan bosilgan. Bordi-yu bulla ichidan o'tqizilgan tizimcha tortilsa, hujjat noqonuniy buzib ochilgan hisoblangan.

Shu kabi xrisovullar qonunlar va hujjatlar majmui sifatida yig'ib nashr ham qilingan. 1136, 1212, 1213, 1214, 1222, 1126 va 1242 yillarga oid Innokentiy II (Rim papasi), imperator Fridrix II, qirol Andrey, Venger qirolu Bela IV kabilarning oltin bullari nom bilan ma'lum.

Tug'ro –o'rta asr sultonlari, xalifalar, xonlar, amirlarning shaxsiy belgilari hisoblanadi. Tug'rolarda mazkur martaba egalarining ismlari va unvonlari arab xatining eng go'zal shakllari bilan yozilgan bo'ladi. Ba'zan tug'rolardagi yozuv qatorlari bir-biriga kirishtirilib, shikasta usulida joylashtirilgan bo'ladi. Tug'rodagi yozuvlar arabchadan tashqari, fors, turkiy tillarda bo'lgan. Tug'rolarda aks etadigan murakkab yozuv shakllari ularni soxtalashtirishning oldi olishni ko'zda tutgan. Tug'ro ana'anasi qadimiy

bo'lib, dastlab bo'yoqqa botirilgan barmoq, kaft bosish ana'asidan boshlangan. Shu sababli tug'rolar kaftga o'xshatish rasm bo'lgan.

Shtamp: — qo'lda yasalgan muhr sifatidagi ashyo, nemis tilida bu so'z muhr ma'nosiga ega. Shtamp turli xil materiallardan tayyorlangan. Shtamp yuzasiga bo'yoq surtib voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotlar, turli xildagi hujjatlar haqqoniyligini asoslash uchun tasdiqlovchi belgi sifatida bosilgan. Shtamp tushilgan material loy, metall, mum, surguch, teri, qog'oz va hatto undan tayyorlangan xamir yuzasida ham bo'lishi mumkin. Shtamplar shakllari turlicha: to'g'ri to'rtburchak, uchburchak, tuxumsimon, ko'p qirrali va boshqa shakllarda bo'lishi mumkin. Tarixiy shtamplar Xarappa Sivilizatsiyasi yodgorliklarida ko'plab uchraydi. Shtampning materiallari tosh, yog'och, shisha, metall, sopol va boshqalar bo'lishi mumkin. Shtamp asosi (idishi) «osnastki» deb atalib, ular qo'lda yasalgan va avtomatik turlarga ajratiladi. Metaldan yasalgan osnastkalar «plombirlar» deb ataladi. Bular eshiklarni, seyflarni, metall shkafarni, banklarning omborxonalarini, turli xil sig'imli idishlarni mastikadan (yo plamtilindan) tayyorlangan qorishma ustiga bosib tushirilib, ularning yopig'lig'i belgilab qo'yiladi.

Silindirlik (g'o'lin) muhrlar ilk Sivilizatsiya davrlarida Mesopotamiya va Misrda amal qilgan. G'o'lin sirtiga o'yma tasvirlar tushirilib muhrlanishi lozim bo'lgan hujjat ustiga loy yoki, surguch material yopishtirib, uning ustida yumalatish orqali muhrning izi tushirilgan. Qadimgi Misr fir'avnlari yuzasiga naqshlar tushirilgan g'ildiraksimon muhrdan foydalanishgan. Janubiy Arabistonda ximiyarlar davriga oid muhrdagi o'yma tasvirlar teskari tushirilgan. Ulardan iz tushirish uchun yumalatganda tasvirlar o'ng bo'lib ko'ringan. Ml. avv III ming yillik boshlaridan to o'rta asrlarga qadar Egey orollarida hamda Gretsiyaning qit'a qismida turli xil muhrlar ishlatilgan. Ilk Minoy davrida muhrlar toshning yumshoq turlaridan va fil suyaklaridan tayyorlangan. O'rta minoy erasida muhrlardagi tasvirlarning ma'nolari tobora murakkablashib bordi. Bronzo davrida yuqqa yumaloq muhrlar va g'ildiraksimon muhrlar paydo bo'lgan. Arxaik va klassik ellin davrlarida ham shu tipdagi muhrlar amal qilgan. Qimmatbaho toshlar va metall yuzasiga nozik o'yma tasvirlar tushirilgan intaliylar rasm bo'ldi. Ular ham o'z o'rnida muhr sifatida ishlatilgan. Intaliy so'zi — italyancha — o'yma naqshli buyum ma'nosini ifodalaydi. Bu kabi buyumlarni no-

yob badiiy hodisa sifatida kolleksiya qilish odati paydo bo'lgan. To'ng'ich Pliniy bergan xabarga ko'ra, podsho Mitridat VI shu kabi intaliylarning yirik kolleksiyasiga ega bo'lgan. Bu kolleksiya Rim imperatori Pompey qo'liga tushgan va Rim ibodatxonasiga topshirilgan. Intaliylarni yig'ish odati XIX asrgacha davom etdi.

Initaliya – qimmatbaho toshlarga teskari uulda o'yib tushirilgan nozik tasvirlar demakdir. Bu gemmalarning bir turi hisoblanib, zargarlik buyumalari sifatida qadrlaydi. Qimmatbaho toshlardagi o'yma tasvirlar initaliya deyilgani holda ayni shu kabi toshlarda bo'rtma shaklga tushirilgan tasvir kameyalar deyiladi. Har xil turdagi bu ashyolardan muhr sifatida foydalanilgan.

Gliptika – qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumalari ko'zlarida tasvirlangan nozik o'yma bezak, portret siymolar yoki hayvonlar tasvirlari qadimgi san'at turi. Uzoq Sharq mamlakatlarida yozuv paydo bo'lganidan buyon ishlatib kelinadigan shaxsiy muhrlar an'anasi mavjud. Xitoyda bu kabi muhrlar inchjan deyilgan. Uning dodjan, ingam kabi nomlari ham bor. Yaponiyada shaxsiy muhrlar inkan yoki xanko deyilgan va bu an'ana hozirgacha ma'lum. Qo'l bilan qo'yiladigan imzo o'miga shaxsni ko'rsatuvchi xususiy muhr bosish odati mavjud. Shu sababli, Sharqiy Osiyo muhrlarida shaxs ismlari qayd etiladi. Ba'zan shaxs ismi va unga bag'ishlangan she'rlar ham uchraydi. Bir xil muhrlarda muhr egasining hayotiy shiori yozilgan bo'ladi. Shunday shaxsiy muhrlar hatto rasmiy hujjatlarda ham mavjud. Uzoq Sharq mamlakatlari bilan doimiy tus olgan savdo munosabatlari vakillari g'arb mamlakatlaridan bo'lishidan qat'iy nazar mahalliy an'anaga muvofiq ismlari tushirilgan muhrlardan foydalanishadi. Uzoq Sharq muhrlari qattiq materiallardan tayyorlanadi. Yog'och, dengiz shishasi, nefrit (qora tosh) kabi materiallar qadrlanadi. Xitoyda kao (xuaya) so'zlari shaxsiy muhr ma'nosini ifodalagan. Xususan kao so'zi «gul» va «imzo» kabi ikki qismga bo'linadi. Xitoyda kao tipidagi imzo-muhrlar Tan sulolasi (618–907) davrida paydo bo'lgan. Yaponiyada shu kabi muhrlar Xeyyan davrida keng tarqalgan. Edo davrida nisbatan kaolardan foydalanish kamaysa ham siyosat doirasida va mashhur odamlar an'anasida davom etgan. Muhrlar uchun moyli qizil siyoh ishlatilgan. Sharqona muhrlarni tayyorlashda yozuvning xusnixat shakllarini biluvchi hattotlar san'atidan foydalanishgan.

Muhrlarda aks etgan yozuvlar shu darajada murakkablashadiki, ularni o'qib aniqlash qiyin bo'ladi. Bundan maqsad muhr yozuvlarini soxtalash-tirishga qarshi kurashishdir. Uzuk muhrlar – (persten-pechat (barmoq)) bular g'ildiraksimon shaklda ishlanib, ularga zodagon xonadonlarning gerblari tushirilgan yoki shu xonadonlarning nomi inisial shaklda (qisqartirilgan) yozilgan. Bunday muhrlar tasdiqlov yoki buzishni ta'qiqlash maqsadlarida surguchlar hamda mumlar ustidan bosilgan. Ruxoniylar ishlatgan muhrlar cherkovlar tomonidan turli manzillarga yuboriladigan diniy fatvolar, ko'rsatmalar va hokazolarni tasdiqlash uchun ishlatilishiga Rim papasi Nikolay I davrida joriy etilgan. 813 yil episkoplarning muhrlari joriy etilgan. Episkoplar xatlariga nojo'ya qiziqishni oldini olish uchun xat ustidan surguchlanib muhr bosilgan. Surguch tagidan tizimcha o'tkazilgan. Uzuk muhrlarga qimmatbaho toshlar o'rnatilgan bo'ladi. Bu kabi uzuklar uzoq tarixdan boshlab ma'lum. Ular egalarining ijtimoiy mavqeyini ko'rsatgan. Hozirda bunday muhrlar ahamiyatini yo'qotgan.

Ksilografiya – yunon tilidan «ksilon»-daraxt va «grafo» – yozaman so'zlaridan tashkil topgan. Ksilografiya – matbaa ishiga xos kashfiyot hisoblanadi. Ksilogrammalar yozuv belgilarining yog'ochdan yo'nib yasalgan shakllaridir. Bunday ksilogrammalar ko'p miqdorda tayyorlanib, kerakli matn doirasida ulardan qanchasi lozim bo'lsa, shunchasi terilib, qatorlar ip o'rab qotirilgan. Ayni shu usul bilan ksilografik (yog'och harflar termasi) muhrlar ham tayyorlangan. Xitoy yozma manbalarida dastlabki ksilografik bosma matnlar VI asrga borib taqaladi. 868 yilga oid ksilografik matn Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Bu mant usta Van Chi tomonidan yog'och taxtada o'yib tayyorlangan, u «O'tgan ajdodlarni xotirlash kitobi» deb ataladi.

Muhr izlari rangli eritma surguch yuzasida saqlangani sababli bu eritma haqida ma'lumot berish joizdir. Qizg'ish, jigarrang tusdagi tog' jinsidan tayyorlangan eritma surguch deb ataladi. Bu eritma muhr bilan ehtiyotlanadigan ashyo yuzasiga quyilib, uning ustidan muhr bosilgan. Bu usul hozirgacha turli xil jo'natmalarni nojo'ya ochilishidan ehtiyotlash uchun foydalanib kelinmoqda.

Tarixiy muhrlarning yana bir mashhur turi Sulaymon muhri deb ataladi. Bu muhr shakli ikki teng tomomli uchburchakning ustma-ust qo'yilishidan (olti burchak) paydo bo'ladi. Bu shakl ba'zan Dovud yulduzi (te-

mirchi edilar) deb ham ataladi. Dovud yulduzi Sulaymon payg‘ambarning uzuk muhrida aks ettirilgani sababli Sulaymon muhri nomini olgan. Rivo-yatlarga qaraganda ayni shu uzuk sehrli tarzda Sulaymonga insu-jinsning tilini bilish imkonini bergan ekan. Shu uzuk yordamida Sulaymon alayhi-salom 72 devni ularning son-sanoqsiz lashkarlari bilan birga misdan yasalgan sandiqda saqlab turar ekan. Muhr Sulaymon payg‘ambarga janglarda g‘alaba keltirib, uni omon saqlagan ekan.

Muhrlarni amalda ishlatish bilan bog‘liq yana bir an’anani eslash lozim. Bular plombalar deb ataladi. Plobalar bir marotaba ishlatishga mo‘ljallab tayorlangan indikasiya belgilari hisoblanadi. Alohida asralishi lozim bo‘lgan, nojo‘ya ochilishidan ehtiyotlanadigan narsalar plombalana-di. Uning buzilishi tajovuz ro‘y berganini ko‘rsatadi. Plombalarning qayta ishlatiladigan shakllari ham bor. Ular bir necha elementlar va qavatlardan iborat bo‘lib, ishlatilgan qatlamlari olib tashlanib, qolgan qatlami qayta ishlatiladi. Plombalardan foydalanish Qadimgi Mesopotamiya, Gretsi-ya va Rim imperiyalari davridan ma‘lum. Bu an‘ana Markaziy Osiyoda ham ma‘lum edi. Masalan, sug‘d podsholarining hujjatlari o‘ram shakl-larda tizimcha bilan bog‘lanib, ustidan surguch loy bosilgan, loyga esa buzib ochilmaslik sharti bilan muhr bosilgan. Shunday muhrlardan biri Mug‘ tog‘i sug‘d arxivining V-8 raqamli hujjatida saqlangan. Unda tog‘da ho‘kizi (zebu) tasviri va «g‘iroy mithr» (loydan yasalgan) so‘zi yozilgan: Ikskript— so‘ngi lotin davriga xos so‘z bo‘lib, bitik, yozuv ma‘nosiga ega bo‘lib, Biror sovg‘a sifatida taqdim qilinayotgan biror ashyo yuzasiga qo‘l bilan yozilgan xotiro bitiki – demakdir.

Turli xildagi muhrlar o‘rta asrlarda ensiklika, Sirkulyar, kartush sin-gari nomlar bilan talauqchi hujjatlarda bizgacha yetib kelgan. Shu sabab-li muhrlar munosabati bilan ular aks etgan yozma yodgorliklar turlarini ham bilish taqozo etiladi. Evropada bir qator taniqli nashriyot egalari bo‘lgan. XVII asrda Gollandiya noshirlari oilasi Elziverlar deb atalgan. Ular chiqargan kitoblarda globus, burgut va donishmandlik daraxti tasvir-langan. Piskatorlar – noshirlar oilasi bo‘lib, ularning faoliyatida grvyuralar nashr qilish va kartografiya yetakchi o‘rin tutgan. Alda uyi – 1494 yilda Venetsiyada xususiy bosmaxona ochgan Ald Manusiy nomi bilan bog‘liq tushuncha. Bosmaxona XVI asrgacha ishlab turgan. Ushbu bosmaxonada chop etilgan kitoblar aldinlar deb ataladi. Bularga alohida e‘tibor berilishi

kitoblarning nafisligi, shriftlarning orastaligi hisoblanadi. Aldinlar oʻrta asr kitobatida noyob narsalar (shedevr) hioblangan. Gravyor – narsalarning ustiga esdaliklar yozish bilan shugʻullanadi. Muhrdorlik oʻrta asrlarda eng ulugʻ mansablardan biri boʻlgan. Jumladan, Alisher Navoiy Xusayn Boyqaro davrida muhrdor boʻlan. Buxoro xonligi va amirligi bosqichlarida ham muhrdorlik vazifasi boʻlib, xususan, XIX asrda bu vazifa amirning eng birinchi yordamchisi qushbegi zimmasida boʻlgan. Qushbegi poytaxt «gebnatori, ark komentanti, davlat muhrini asrovchi, xazinaning nazoratchisi» deb koʻrsatiladi XIX asr rus diplomatlarining kundaliklarida (P. Shubinskiy, P. I. Demezov). V. V. Krestovskiy qushbegi haqida «amirning shaxsiy muhrini saqlovchi» deb koʻrsatadi. Bu muhr davlat muhri hisoblangan. Buxoro amirligi davrida sulola boshliqlariga, ularning oʻgʻillariga, muftiyarga, qozilarga, raislarga, beklarga (mahalliy maʼmurlarga) tegishli muhrlar boʻlgan. Davlat muhrlari hamda yuqori mansabli amaldorlarning muhrlari kumushdan yasalgan. Turli quyi lavozimlarga va xususiy shaxslarga tegishli muhrlar misdan, serdolik, nefrit, togʻ billuri kabi yarim qimmatbaho toshlardan oʻyilgan. Amirning shaxsiy muhrlari bargsimon shaklida boʻlib, ularning yuzasida amirning ismi, unvonlari, san (raqamda berilgan shaklda) tushirilgan. Oʻrta kartush atrofida mayda arabiy xat bilan duo-tilak jumalari oʻyib tushirilgan. Muhimi shuki, muhr yozuvlari va barcha bezaklar teskari tushirilgan. Masalan, Amir Muzaffar ismi oʻnglab yozilsa رفاظه رېما boʻladi. Muhr xat yuzasiga bosilganda yozuvi oʻng boʻlib tushadi. Yoki yozuvi oʻng tushganda ضاآة «qozi» boʻladi va hokazo.

Qozilarga tegishli muhrlarning doiraviy kesmasidagi yuzasida oʻrta qismi kvadrat maydoncha qilib ajratilgan. Buni kartush deyiladi. Kartushda qozi, uning unvonlari shajarasi koʻrsatilgan teskari yozuv joylashgan. Kartush ikki qatorli (baʼzan bir qatorli) boʻrtiq chiziq ichiga olingan. Chiziq toʻlqinsimon boʻlishi ham mumkin. Kartushdagi yozuvda baʼzan qozining oʻqigan madrasasi haqida maʼlumot ham uchraydi. Kartush atrofida doiraviy joylashtirilgan yozuv qatori odatda Qurʼon oyatlari, Ollohning sifatlari kabilar boʻlgan. Muhr doirasining cheti turli naqshlar bilan, yozuv qatorlaridagʻ oraliqlari nafis navdalar, gullar bilan bezatilgan. Turli darajadagi amaldorlarning muhrlarida amal-mansablar, ismlar kartushda, atrofida esa mayda yozuv bilan qurʼoniy soʻzlar oʻqiladi. Muhrlar asosan doirasimon padrak boʻlib, oʻrtasidagi kartushlari toʻgʻri toʻrt burchak, oval,

kvadrat, bargsimon shakllarda uchraydi. Amallar, unvonlar bek, xoja, rais va boshqalardan iborat. Kartushi yo‘q muhrlarning «ishchi» yuzasi (ya‘ni bosilganda aksi tushadigan yuzasi) oval, olti burchak, to‘g‘ri to‘rt burchak shakllarda uchraydi. «Muhri piri dastgir» nomli muhrda kartush doiraviy. Muhr maydonining katta qismini egallagan yozuvda mashhur so‘fiy olim, piri murshid Abd ul-Qodir Jiloniyning ismi, unvonlari va sanasi ko‘rsatilgan. Buxoro muhrlari orasida qog‘oz pulga uning nominalini anglatuvchi yozuvli klishe-muhr sifatida ishlatilganlari ham bor. Bunday muhrning «ishchi» yuzasi kungirador qirralarga ega. Buxoro amirligi davriga oid ko‘plab xususiy (ayrim shaxslarga tegishli) muhrlar ma‘lum. Ularning kartushlari bo‘lmaydi. Yuzasida shaxs ismi, ba‘zan sana bitilgan. Ularda lavozim, martaba, maqom kabi qo‘shimcha ma‘lumotlar ham uchraydi. Xususiy muhrlarning shakllari turlicha. Sakkiz burchak, olti burchakli, ellipssimon to‘rt burchak, to‘g‘ri to‘rt burchak va hokazo. Ba‘zi xususiy muhrlar chekasi bo‘ylab naqshin bezakli ham bo‘lgan. Qozi Badriddinga mansub muhrlar doira, to‘g‘ri to‘rtburchak va oval shaklida hamda ichidagi yozuvlar ham turli shaklda uchraydi.




1-surat. № 16, 364°.



2 surat. № 148, 1°.



3-surat



4-surat

1-surat: *Qozi Mulla Mir Badriddin sudur ibn qoziu-l-quzzot qozi Mulla MirSadriddin.*

2-surat: *Qoziu-l-quzzot Mullo Mir Badriddin ibn qoziu-l-quzzot qozi Mullo Mir Sadriddin. 1307/1889-1890 y.*

3-surat: *Mulla Mir Badriddin sudur rayis ibn qoziu-l-quzzot Mulla MirSadriddin. 1309/1891-92 y.*

4-surat: *Qozi MullaMulla Mir Badriddin sudur. 1295/1878-79 y.*

Qozi Burhoniddinga oid muhrlar ham turli shakllarda uchraydi.



5-surat.



6-surat

5-surat: *Qozi Mulla Mir Burhoniddin sudur ibn qoziu-l-quzzot qozi Mulla MirBadriddin 1327/1909 y.*

6-surat: *Mulla Mir Burhonidin rais sudur ibn qoziu-l-quzzot Mulla MirBadriddin 1318/1900-1901 y.*

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Sfragistikaning amaliy san'at, geraldika, numizmatika, epigrafika, onomas-tika, davlatchilik tizimi, etno-madaniy, etno-siyosiy munosabatlar, diniy tasavvur-lar va ma'naviy dumyoqarash tizimlari kabi sohalar tarixini o'rganishdagi manba-viy ahamiyati.

2. Muhrlarning paydo bo'lishi tarixi, shakllari, maqsad va vazifalariga ko'ra tasnifi.

3. Muhrlarda aks etgan yozuvlar, ularning o'qilish imkoniyati (paleografik tavsilotlari).

4. Markaziy Osiyoda muhrlar tarixi umumiy manzarasining xronologik tartib-dagi tafsiloti. Muhrlardagi tasvirlar ularning tarixiy talqini masalalari.

1.12. Geraldika

O'quv mashg'ulotining maqsadi: Geraldika tarixidan ma'lumot berish. Siyosiy davlat ramziga aylanish davrining tarixiy shart-sharoitini tushuntirish. Mintaqa tarixiga oid geraldik nishonlar tizimi bilan tanishtirish. Yevropa va Rossiya gerblari tarixidan ma'lumot berish.

Tayanch so'z va iboralar: *geraldika, tug'ro, tamg'a, nishon, geroldlar, xonadon gerblari, davlat gerblari, garb qalqonlar, armoristlar, burelet, venes, otaliq, deviz, grifon, garpiya, birshox, lavr barglari, skipetr, brizur.*

«Geraldika» atamasi bir nechta ma'nolarga ega, shulardan biri «jarchi», emblematikaning sohasi hisoblanadi. Gerb huquqiy asosga ega hodisa hisoblanadi. Gerb yasovchilar lotincha «armoristlar» deyilgan. Soha XI asrda shakllangan 1 va -1salb yurishlari davrida paydo bo'ldi. 1120–1150 yillar oraliq'ida ilk bora gerb belgilari qo'llanilgan. Gerblar janglarda qo'shinni ajratish uchun ishlatilgan. 1671 yilda «Haqqoniy geraldika soni va gerblarning kelib chiqishi» nomli kitob bitilgan. «Geraldika» atamasi bir nechta ma'nolarga ega. Dastlab eng qisqa ta'rif bilan cheklanamiz: geraldika – bu gerblar va ular haqidagi bilimlar tizimidir. Tarixchi, xususan medievist, tadqiqotlar vaqtida doimo gerblarning tavsifi yoki tasvirlariga duch keladi. Gerb yoki uning alohida unsurlarining tasviri moddiy madaniyatning turli predmetlarida uchrashi mumkin: bu qo'lyozmalar va kitoblar, tangalar va muhrlar, qurol-aslahalar, asbob-anjomlar, kiyim-kechaklar, me'morchilik yodgorliklari va boshqalardir. Biroq, gerb va geraldik materialga duch kelganda, yechimi ba'zida juda murakkab bo'lgan masalalar paydo bo'ladi. Geraldika bilan tanish bo'lmagan tarixchi uchun gerb topishmoqligicha qolmoqda. Hattoki gerb yoki uning tavsifini to'g'ri o'qish qobiliyatiga ega bo'lgan holda, u ko'pincha gerbdagi butun ma'lumotni to'g'ri baholay olmaydi. Masalan, nima uchun gerb u yoki bu predmetda joylashtirilgan, u boshqa gerblar bilan qanday mutanosiblikda, u o'sha davrda sodir bo'lgan voqealarda qanday rol o'ynagan va hokazo. Geraldik jihatdan ifodalangan ko'rsatmalar u uchun butunlay noma'lumligicha qolmoqda. Shunday qilib, tarixchining geraldika bilan tanishish zaruriyati, eng avvalo, manbaning ma'lumot berishini oshirishdagi ehtiyoj bilan bog'liq. Moddiy madaniyat

yodgorliklari bilan bevosita ishlaydigan tarixchi uchun aytaylik, muzeyda san'atshunos uchun geraldika materialning xronologik, mintaqaviy, ba'zida esa shaxsiy atributsiyasiga ham beqiyos yordam berishi mumkin. Bu geraldika bilimlarini qo'llash sohasi to'g'risidagi ilk, an'anaviy tasavvurdir. Ammo bu predmet diplomatik, sfragrastik, numizmatik va boshqa tadqiqotlarda nafaqat yordamchi fan sifatida, balki boshqa geraldik ma'lumotlar hisobini talab qilgan, shu darajada ixtisoslashgan, hattoki geraldik ma'lumotlar bilan ishlash mahoratiga ega bo'lmagan tadqiqotchi voz kechishi mumkin bo'lgan mavzular ustidan ishlashda zarurdir. Gap shundaki, gerblar tarixiy bilimlarning ko'pgina bo'limlari bo'yicha manba bo'lib hisoblanadi (garchi, o'ziga xos). Shunday qilib, geraldika ittifoqlar, hududiy bahslar, sulola nikohlarini qayd etgan holda, siyosiy tarix, hukmron sinf muhitidagi demografik jarayonlar va boshqalar bo'yicha boy material beradi. Nafaqat siyosiy va ijtimoiy tarix sohasida, balki ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya tarixi sohasida, davrning psixologik atmosferasini tiklashda geraldik materiallar jalb qilinishi mumkin. Masalan, yilnomalarda, siyosiy asarlarda, o'rta asrlar adabiyotida ko'pincha gerblarning tavsiflari uchraydi. Ba'zida ular muhim mazmunli va badiiy ahamiyatga ega. Biroq gerblarga, yoxud u yoki bu gerbga davr mentaliteti yoki turli ijtimoiy qatlamlar mentaliteti uchun xos bo'lgan jihat sifatida bo'lgan munosabatlar tahlili geraldika bilimlarisiz murakkabdir.

Geraldikani tarixiy bilishning har qanday jarayoni sifatida o'rganish cheksizdir, biroq u o'z asosi bilan geraldikaning rivojlanishi tarixi bilan; gerb unsurlarining tahlili va tizimlashtirilishi bilan shug'ullanadigan nazariy yoki rasmiy geraldika bilan; geraldika atamashunosligi bilan; ayrim mamlakatlarda geraldikaning ba'zi xususiyatlari bilan majburiy tanishishni ko'zda tutadi.

Geraldika bilan dastlabki tanishishning maqsadi – gerbni o'qish imkoniyatiga ega bo'lish, uni tasniflash va uning biror-bir qiziqarli va muhim xususiyatlarini qayd etish, uni xrologik jihatdan aniqlashdir. Gerbshunoslikning zamonaviy holati va bizning kutubxonalarimizda geraldika bo'yicha ma'lumot adabiyotining kamligi holatida gerbni darhol va to'liq belgilash mahorati geraldikaga ixtisoslashgan inson uchun jiddiy, ba'zida bajarib bo'lmaydigan va ehtimol, majburiy bo'lmagan vazifadan iboratdir. Fikrimizcha, geraldik axborotni tarixiy tadqiqot konteksti va muvofiq

ravishda o'rganilayotgan tarixiy davr kontekstiga kiritish mahorati muhim va qiziqarliroqdir. Shu munosabat bilan geraldik ma'lumotnomalarning faqat almashtirilishini anglatgan aniq ma'lumotlarning boy materialini bayon etish emas, balki o'rta asrlar jamiyatida geraldika va uning faoliyat yuritishi hamda gerbni o'qish uslubiyoti bo'yicha umumiy mazmundagi ma'lumotlarni bayon etish geraldika bo'yicha bo'limning asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Geraldika mavjudligining dastlabki asrlari o'z tadqiqotchilarini kuyatayotgan topishmoq va hal etilmagan masalalarga to'la bo'lgan. Hozirgi vaqtga qadar gerb genezisiga tegishli bo'lgan ko'plab muammolar bo'yicha yakuniy aniqlik mavjud emas. Bu nimani gerb deb hisoblash mezonlariga, uning paydo bo'lish vaqtiga, gerbli qalqon shaklidagi o'ziga xos timsollarning shakllanish mexanizmiga taalluqlidir. Gerblarning paydo bo'lish sabablari to'g'risida tamoman turli fikrlar mavjud. Nihoyat, yaqindagina jamiyatda faoliyat yuritayotgan geraldik tizimning ko'p sonli alohida gerblardan shakllantirish muammosi qo'yildi, biroq u o'z yechimini topishiga hali ancha bor. Geraldikaning paydo bo'lish vaqti haqida so'z yuritilganda, albatta quyidagilarni nazarda tutish lozim: birinchidan, biror-bir tasvirga ega bo'lgan qalqondan identifikatsiya vositasi sifatida foydalanish antik davridayoq o'z an'anasiga ega bo'lgan, ikkinchidan, gerblarga nasl-nasab, feodalgacha bo'lgan timsolli emblemalarning aksariyat qismi kirgan. Bu ikkala holat geraldikani juda qadimiy deb atash uchun asos bo'lmaydi, chunki bu hodisalar o'rtasida tashqi o'xshashlikdan tashqari hech qanday aloqa kuzatilmaydi. Bunday aloqani qidirib topishga bo'lgan intilishlar gerbni rasmiy belgilar bo'yicha baholashning natijasi bo'lib hisoblanadi. Biroq, bizning fikrimizcha, rasmga ega bo'lgan qalqon tasvirining o'zi – bu hali so'zning to'liq ma'nosidagi gerb emas. Zamondoshning ongida uning ortida ular orqali ifodalangan muayyan ijtimoiy, huquqiy munosabatlar tizimi turganligi natijasidagina bunday holatga aylanadi. Agarda bu bo'lmasa, u holda gerb oddiy timsol bo'lib qolaveradi. O'rta asrdagi geraldiklar gerb manbalarini qadimgi davrdan izlashgan. Gerbovniklarda ular tomonidan yaratilgan Odam ato va Gerakl, Aleksandr Makedoniyalik va qirol Artur, Iso Navin va sehrgarlar va boshqalarning gerblarini uchratish mumkin. Mazkur gerblarning kashf etilishi o'rta asrlardagi fikr yuritishning ikkita

mashhur o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq: birinchisi – vaqtni idrok etishning tarixiy emasligi va ikkinchisi, birinchisidan kelib chiqqan holda, mazkur davr munosabati va tushunchalar tizimining avvalgi davrlarga nisbatan qo'llanilishi. Shu bilan birga bunday gerblarni mavjudligi geraldikaning o'rta asrlar ongidagi ulkan roli, biror-bir obro'li insonning gerbsiz bo'la olmasligi to'g'risidagi tasavvurlarning keng tarqalganligi haqida dalolat beradi¹. Gerblarning paydo bo'lishining u yoki bu darajadagi aniq sanasi haqidagi masala uning mohiyati va paydo bo'lish sabablarini aniqlash bilan bog'liqdir. Agarda tasviriy tomondan ketadigan bo'lsak, gerbni aniqlash mezoni sifatida unda (yoki emblemada) qalqonning mavjudligini olsak, u holda gerbni qalqonni eslatuvchi rasmga ega bo'lgan dastlabki muhrlarda ko'rishimiz mumkin. So'zsiz, sfragistik yodgorliklar geraldika bilan nafaqat kechki paytda, ya'ni muhrda egasining gerbi ko'rsatilgan paytda emas, balki geraldika paydo bo'lish davridayoq bog'liq bo'lgan. Ammo yagona va tarqoq yodgorliklar asosida shaxsiy muhrda qalqonni paydo bo'lish davri gerbning paydo bo'lish yoki shakllanish davri sifatida baholanishi haqida gapirish uchun imkoniyat bermaydi, albatta, alohida holatlarda bu bir paytning o'zida xam bo'lishi mumkin. Bundan o'laroq ularning shakllanish yo'llari har doim ham bir xil bo'lmaydi. Ba'zida biz muhrlar keyinchalik gerb bo'lganini kuzatishimiz mumkin, ba'zida esa bu jarayon kuzatilmaydi. Muhrda ma'lum tasvir bo'lganida uning egasi umuman boshqa turdagi gerbdan foydalanishi mumkin edi. Masalan, sfragistikada Yevropa qirol va senyorlarning muhrida otda ketayotgan riser ma'lum, shu bilan birga qirol va senyorlarning gerbida uni kuzatmaymiz. An'anaviy ravishda geraldika XI asrning oxirida paydo bo'ladi deb hisoblanadi, ammo bu haqda ma'lum darajadagi ehtiyotkorlik bilan gapirish lozim, chunki shu davrning guvohliklari juda kam va aniq emas. Ingliz gerbshunosligida Angliyaga gerblarni Vilgelm Bosqinchi tomonidan olib kirilganligi haqidagi afsona XX asrning birinchi choragidayoq rad etilgan. Gastingsdagi 1066 yildagi jangda biron-bir raqibda gerblar bo'lmagan. 1080 yildagi Bayening mashhur gilamida gerblarga o'xshash

¹ **Emblemalar** – xronologik va xududiy jihatdan kengroq tarqalgan hodisadir. Bu hodisani – o'rganish tarix, san'atshunoslik, psixologiya fanlari tutashgan joyida vujudga kelgan maxsus emblematika fanining predmetidir.

qalqondagi tasvirlar ma'lum. Ammo ulardan biron-biri Angliya zabt etilganidan so'ng normand risarlari ajdodlarining gerbida kuzatilmaydi; bundan tashqari tadqiqotchilar fikricha qalqondagi turli rasmlarda, gillamda bitta askar tasviri berilgan. Keyinroq, XII asrda, Anna Komnina Iskandariyaga kelgan fransuz risarlarini tasvirlaganida ular tekis bir xil rangdagi qalqonga ega ekanliklarini yozgan. Shunday qilib XI asrni geraldika rivojlanishining yopiq davri sifatida baholash mumkin, chunki aynan shu paytda uchragan gerb yodgorliklari asosan muhrlarda namoyon etilgan. Geraldikani rivojlanishi va uni tizim sifatida shakllanishi haqida faqatgina XII asrdan boshlab fikr yuritish mumkin. Bu sfragistik material, maqbaralarda gerblarni mavjudligi bilan tasdiqlanadi; gerblarning izchilligi / vorisligi ham aynan shu davrdan kuzatiladi. Masalan, Joffrua d'Anju va ingliz qirol Genrix I qizining nikohi paytida qirol o'z kuyovining bo'yniga oltin sherli qalqonni osib qo'yadi. Xuddi shu qalqonni biz Joffrua maqbarasidagi 1151 yilga mansub bo'lgan emalda ham ko'ramiz. Uning katta bastardi, Vilyam Uzun qilich ham xuddi shu gerbdan foydalangan, uning tasviri Solsberidagi maqbarasida saqlanib qolgan. XII asrning o'rtasiga Djilbert, Xertford grafining muhri ham mansubdir, u 3 shevrongan iborat bo'lib, uni keyinchalik avlodlarining gerbi sifatida ko'rish mumkin.

XIII asrning boshidan bizga ma'lum bo'lgan gerblarning soni ahamiyatli darajada oshadi. Ular barcha yirik zodagon uylar tomonidan ishlatilgan boshlaydi. Aftidan avvaliga faqatgina qalqonda bo'lgan gerblar tasviri keyinchalik risarlarning ustki kiyimi, otlarning julida (yopinchiq) paydo bo'ldi.

Uzoq vaqt davomida geraldika tarqalishining yopiq pardali risarlik dubulg'asining hamma yerda joriy etilishi bilan bevosita aloqasi haqida fikr mavjud edi. Bu esa jangda raqiblarni farqlab olishga to'sqinlik qilishi lozim edi. Aynan shu jangchi shaxsini belgilab beruvchi bir narsani qalqonga qo'shilishiga sabab bo'ldi. Bu nazariyaning varianti sifatida Yevropada risarlik turnirlar keng tarqalganligi sababli, gerblarni keng qo'llanilganligi to'g'risida taxmin mavjud. Gerblarni arablardan salib yurishlari paytda o'zlashtirilganligi haqida fikr ham mavjud. Gerblarning paydo bo'lishini XXI asrda Yevropa tamadduni rivojlanishining umumiy xarakteri bilan bog'lashga bo'lgan harakatlar sermahsuldir.

Darhaqiqat, geraldika jangchini jangda va turnirda tanib olishga bo'lgan haqiqiy talabni qondirishi mumkin edi. U qo'shnlarni boshqarishda ko'mak sifatida xizmat qilishi mumkin edi, chunki bayroqdagi rasmlar ko'pincha gerblar bilan bir xil edi, undan raqib qo'shnlari haqida ma'lumot olishda foydalanilgan. Biroq, bunday tor va xususiy vazifalar geraldika kabi murakkab tizimning paydo bo'lishiga sabab bo'lmagan bo'lsa kerak, chunki dastlabki normann dubulg'alarida ham jangchini tanish qiyin bo'lgan. Risarlarning shaxsiy emblemalari bu bilan bog'liq edi, biroq gerbni emblema bilan bog'lash mutlaqo noto'g'ri. Gerbning yopiq dubulg'a paydo bo'lishi natijasida vujudga kelganligi haqidagi fikrni geraldika jamiyatda gerbning ko'plab unsurlari chiqqan harbiy, risar doirasidan kengroq doirada foydalanganligi inkor etadi. Ularning xarakterini o'rganib chiqamiz. Dastlab gerb tasvirlarini tanlash, birinchidan, erkin, ikkinchidan bir xil bo'lmagan. Aftidan biror-bir asl emblema, an'anaviy yoki sevimli tasvir mavjud bo'lgan hollarda, u mazkur avlod vakillari tomonidan ularning gerb qalqoniga joylashtirilgan. Bunday emblema ega bo'lmaganlarda, gerbda ramziy ma'noni topish qiyin bo'lgan gorizontal yoki vertikal chiziqlar kabi oddiy belgilar ishlatilganligiga zid bo'lmaydi. Va nihoyat, ba'zi bir jismlar jangovar qalqon ishlanmasining naqshinkor xususiyatlari bilan bog'liq. Gerb turli ma'nolar qatorida bo'lgan unsurlarni yagona kontekstda qayta ishlab, o'zida mujassamlashtira oldi va birlashtirdi: bir tomondan, eski nasl-nasab yoki butun o'rta asrlar uchun umumiy bo'lgan emblema va timsollar; boshqa tomondan, shakl nuqtai nazaridan ularni birlashtirgan risarlik va harbiy hayot va ong unsurlari; uchinchi tomondan, geraldika mavjudligining dastlabki bosqichi uchun katta qiyinchilik bilan rekonstruksiya qilinadigan, biroq uni aynan gerb qiladigan, mazmun va ma'noga to'yintiradigan jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy-huquqiy tasavvurlardir. Aftidan, XI asrdagi hukmron sinfning birlashishi va ierarxialanishi bilan kuzatilgan o'rta asr jamiyatidagi ijtimoiy jarayonlarini rivojlanishi geraldikaning paydo bo'lishi va uning tizim sifatida shakllanishining asosiy sabablaridan biriga aylandi. Gerblar egasining o'rnini – qatlami, nasl-nasabi, kasb-hunari, yerga egalik qilish huquqini ta'minlovchi, himoya vazifasi bilan hayotiy bog'liq bo'lgan tomonlarini – jamiyatning, keyinchalik esa hukmron sinf ichidagi ijtimoiy stratifikatsiyadagi o'rnini aniq belgilab berishga qaratilgan edi.

Shunday qilib, amaliy ehtiyojlardan kelib chiqqan gerb tasvir – timsol o'zining keyingi rivojlanishida shakllanayotgan feodal sinfning ijtimoiy xarakterining boshqa, yanada keng talablariga javob bera boshladi. Geraldika muayyan jihatdan feodalizmning ushbu bosqichiga o'xshash bo'lgan, o'z navbatida, yer munosabatlari tizimiga yaqin bo'lgan qaram aloqalar tizimining ifodasiga aylandi. Aftidan, gerbga egalik qilish dastlab jamiyatda muayyan funksiyalarni bajarish huquqining belgisi bo'lgan. Shu bilan birga geraldika o'rta asrlarda fikr yuritishning haqiqiy munosabatlarni bilvosita ifodalash va ularni timsoliy shaklda namoyon qilishga intilish bilan o'ziga xosligining ifodasi bo'lib hisoblangan. Gerbning o'rta asrlardagi voqelikning turli jihatlarini o'z ichiga olish va jonli tarzda tasvirlash qobiliyati gerbni ijtimoiy identifikatsiyalashning haddan tashqari oddiy va qo'llaniladigan vositasiga, geraldika tizimini esa – ijtimoiy munosabatlarni ifoda etish, baholash va qaysidir jihatdar tartibga solishning universal va deyarli qulay vositasiga aylantirdi.

O'rta asrlar geraldikasining aniqligi va oddiyligi uning deyarli butun G'arbiy Yevropaning feodallari orasida tezda tarqalishiga imkon berdi. Feodal senor gerbi o'zida aks ettirgan ma'no-mazmun ijtimoiy jihatdan shunday nufuzga ega ediki, gerblar tez muddat ichida feodal jamiyatda o'z maqega ko'ra biror-bir suverenitet, feodal erkinlikning biror-bir ulushiga da'vogarlik qilgan yoki da'vogarlik qilishi mumkin bo'lganlarga havas qilish predmetiga aylandi. Bu jarayon, ayniqsa, ham dunyoviy, ham ma'naviy bilimlar, cherkov tashkilotlar va boshqa shaxslar kabi gerblarning mo'l-ko'lligi mavjud bo'lgan XIII–XIV asrlarda kuchaydi. Bu vaqtda shaharlar va alohida shahar korporatsiyalarining gerblari paydo bo'la boshladi. Gerb o'rta asrlar jamiyatida, shak-shubhasiz, faoliyat yuritish va idrok qilishning muhim huquqiy jihatiga ega bo'lgan. U ham huquqiy amaliyot ob'ekti, yuridik nizolarni hal qilishdagi dalil-isbot bo'lishi mumkin edi. Yevropada mashhur bo'lgan italiyalik huquqshunos Brtollo di Sassoferatoning gerblarga bo'lgan qiziqishi ham buni yaqqol isbotlaydi, gerblar uning amaliyotida egalik qilish belgilari sifatida ishirok etadi; gerbning egasi da'volik qilgan yerlarning geraldik belgilari, timsollarining qo'shilishi; va o'xshash gerblarga nisbatan nizolar ham buni isbotlaydi.

Ta'kidlash joizki, bunday (nizoli) holatlar umuman olganda kam qayd etilgan. Ulardan biri – 1300 yilda germaniyalik va italiyalik risarlar o'rta-

sidagi nizo bo'lib, bu haqda Bartolo traktatida so'z yuritiladi. Nisbatan mashhur hodisa, birdaniga uch nafar ingliz risarlari – Skroup, Grosvenor va Karminou – bitta gerb: oltin tasmali ko'k rangdagi qalqonga da'vogarlik qilgan. XIV asr shunga o'xshash boshqa dalillarni ham biladi, biroq ish sudgacha yetib bormagan. Gerblarning mos tushishi sabablari bo'yicha yuzaga keladigan nizolarning kamligi hayratlanarli holat emas. O'rta asr odamlari gerblarga nisbatan a'lo darajadagi xotiraga ega, biroq o'xshash jismlar tez-tez uchrab turadi. Qayd etish joizki, garchi ehtimoli bo'lsa-da, gerblardagi tasvirlarning bir-biriga juda ham o'xshash bo'lishi kamdan-kam hollarda kuzatilgan. Biroq asosli sabab shundaki, ushbu feodal davlatchilik tuzumining tashqarisida o'xshash gerbning paydo bo'lishi ahamiyatga ega bo'lmagan, yoki o'rta asrlarda gerblarning kodifikatsiyasi, u ham har doim to'liq bo'lmagan, bir davlat doirasida sodir bo'lgan. Ko'pincha bular muayyan bir hodisaga, masalan, yirik turnirga bag'ishlab yaratilgan gerbli mulozimlar yoki gerbovniklardir. Turnir marosimi juda mashhurdir. «Gerblar yarmarkasi» deb nomlanadigan gerb ekspertizasi uning muhim qismini tashkil qilgan. Rus gerbshunosi Yu.V.Arsenev uni qalqonlar ko'rgazmasi sifatida yoritgan, biroq, afsuski, bu na ikonografik material, na narrativ manbalar bilan tasdiqlangan. XIV–XV asrlardagi nemis va fransuz miniatyuralarini muhokama qilgan holda, aytish mumkinki, gerb ekspertizasiga qurolbardorlar tomonidan risarlik turniri dubulg'alari taqdim etilgan bo'lib, bu dubulg'alar dubulg'a timsollari va dublg'aning pastki qismida g'erbli qalqonning kichik tasviri bilan bezatilgan. Ekspertiza dubulg'alar va ularning turnir qoidalariga muvofiqligi, shuningdek turnir ishtirokchilarining shaxsiy identifikatsiyasi va qalloblar, xususan bayramga noqonuniy kirib olgan shaharliklarni aniqlash maqsadida o'tkazilgan. Bu holatda aybi fosh qilinganlarning qurol-aslahasi majburiyatiga ham qurolbardorlar tomonidan taqdim etiladigan dubulg'alarni tekshirish, ham gerblarni identifikatsiya qilish hisoblangan gerb sudlari foydasiga musodara qilingan.

Ritsar geraldik tasvirni faqat dubulg'asi va qalqonida olib yurmagan. Asta-sekin ular qurol-yarog'lar va boshqa harbiy aslaha-anjomlari va unga tegishli bo'lgan mulklarga joylashtirila boshlandi. Kiyim-kechaklar, to'shaklardagi choyshablar, pardalar, idish-tovoqlar va qadahlardagi gerblar saqlanib qolgan. Gerblar bosma naqsh tushirilgan g'illoflar va

muqovalar, o'choqlar, devorlar, mebellarni bezatib turgan. Shisha-oynalarning tarqalishi bilan ular vitraj texnikasidagi derazalar va shisha-oyna naqshlarida paydo bo'ldi. Gerb dafn etish marosimining majburiy atributi bo'lgan: o'lim to'shagi atrofida marhumning kichik gerbli qalqonlari bilan bezatilgan shamlar qo'yilgan; u ko'pincha gerbli kotta bilan kiyingan yoki uning geraldik jismlari solib tikilgan matoda dafn qilingan; motam marosimida gerb bilan bezatilgan katafalk gerbli qalqonga birlashtirilgan shamlarni tutib olgan rohiblar tomonidan kuzatilgan; toshli sarkofag devoridagi gerbning tasviri ko'pgina hollarda XIII–XIV asrlarda oqsuyaklarning qabrlarida uchraydi. Gerblar o'rta asrlardagi inson hayotidan holatdan holatga paydo bo'lmagan. Aksincha, ular doimiylik matosiga kiritilgan. Gerblarning doimiy uchrab turishi o'ziga xoslik, noodatiylikning tez-tez takrorlanishini emas, balki gerbning ijtimoiy amaliyotda foydalanishning almashtirib bo'lmashligi va majburiylikni, ijtimoiy muomala jarayonining «geraldizatsiya»sini ifodalaydi. Gerbsiz vassal qasamyod qilish tartiboti aql bovar qilmaydigan holdir; koronatsiya marosimi – bu taxt vassallari gerblarining ko'pligi va birligini namoyish etishdir. Gerb so'zsiz shaxsdan avval bo'lib, ma'lum vaziyatlarda shaxsni to'liq o'rnini egallaydi. Bu afzallik shu bilan bog'liqki, o'rta asr ongida korporativlik, shak-shubhasiz, individuallikdan qadrliroqdir, va ushbu holatda, gerb avloddan-avlodga o'tadigan va ijtimoiy mansublikning ifodasi bo'lib hisoblansa, geraldika umumiylikning qisman namoyon bo'lishidir. XIV asrda Angliya va Fransiya o'rtasidagi nizo vaqtida fransuz qirolining vassallari syuzerenlarga ularning oldilarida gerb kottalarida hisoblangan holda, o'zlarining vafodorliklari va o'z yerlariga bo'lgan sodiqliklarini namoyish etadilar. 1381 yilda lissabonliklarning bu vaqtda Portugaliya poytaxtida bo'lgan ingliz qo'shinlarining zulmiga qarshi shikoyatlariga javoban, graf Kembridj uylarga uning gerbini – alvon maydondagi oq lochin osib qo'yishga buyruq berdi; biroq, bu shaharliklarning noroziligiga sabab bo'ldi, chunki, himoyaning kafolatlanganligiga qaramasdan, bu o'rta asrlardagi lissabonliklar tomonidan grafning ularni bo'ysunishga talab qilishi sifatida baholangan. Yaqqol va namunali misol sifatida «gerb jazosi» deb nomlangan holatni keltiramiz. Tegishli jazoga loyiq bo'lgan nojo'ya hatti-harakatlar yoki jinoyatlarni sodir etgan risar qarshisidagi ustunga boshi bilan pastga aylanib qolgan gerbli qalqoni osilgan joyda taxtasupaga chiqdi. Gerb qirol jazoga

hukm etilgan kishiga hukmni o'qidi. Xor unga jo'r bo'ldi. Har bir Psalomdan keyin gerold risarning qurol-yarog'lari va aslaha-anjomlarini badnom qildi: dastlab dubulg'asi, keyin gerbli kattasi, keyin tasmasi, qilichi, shporlari va, nihoyat, hukm etilgan kishining gerold bolg'a bilan parchalagan gerbi (qalqoni). So'nggi psalomdan so'ng geroldning yordamchisi tomondan yaqin cherkovdan olib kelingan issiq suv hukm etilgan kishining boshiga quyib yuboriladi, shundan so'ng mahbus qirollik sudi yoki prevo qo'liga topshiriladi.

Jamoa oldida teskari qilingan gerb uni obro'sizlantiruvchi qora bo'yoq bilan bo'yalishi mumkin edi. Shundan so'ng gerb qirolli yoki geroldlar hukm etilgan kishining farzandlari va avlod-ajdodlarini gerbni olib yurish va turnirlardan namoyon bo'lish huquqidan mahrum bo'lganliklarini e'lon qilganlar. Ish faqat gerbning ommaviy to'ntarilishi bilan cheklaniishi mumkin edi: qo'rqqoqlik, kurash maydonidan qochish ana shunday jazoga tortilgan. Bu gerbni sindirishdan farqli ravishda, vaqtinchalik jazo bo'lgan. Nojo'ya hatti-harakatlarning bir qismi gerbning rasmidagi turli xil o'zgarishlar bilan jazolanishi mumkin edi. Bu jazolar amalda qancha qo'llanilganligini muhokama qilish qiyin, chunki kam shon-shuhrat qo'shadigan ushbu gerblar turining bizgacha yetish kelish imkoniyati oddiy gerblarga qaraganda ancha kam. Shunday bo'lishiga qaramasdan, yondashuvning yaqqol differentsiatsiyalashganligi bilan voqelikning huquqiy jihatlariga geraldik munosabat bildirishning yetarlicha keng spektrini taxmin qilish mumkin.

Shunga o'xshash holatlarni ko'plab misol qilib keltirish mumkin. Oqibatda ular kundalik ijtimoiy hayotning xronologiyasini tashkil etadi. O'rta asrlardagi inson o'zi gerblarga ega bo'lmasdan har joyda va doimo duch keladi. Shaharlikka uning shahri, sexi va senorining gerbi ma'lum bo'lgan. Cherkovga kirishda uning nazari mehrobgga yetib borishidan oldin, u gerblar bilan bezatilgan tosh maqbaralarni ko'rgan. Ko'zlarini yuqoriga qaratganda, u sobor devorlarida donatorlar va senorlarning gerblarini ko'rgan. Uning oyoqlari ostida cherkovning poliga geraldik tasvirlarga ega bo'lgan plitkalar qo'yilgan bo'lishi mumkin. Shahar ko'chalarida gerblar unga minoralar, darvozalar, uylar devorlaridan qarab turgan.

Geroldlar. Gerblardan foydalanishning ommaviyligi hayotda geraldika bilan maxsus shug'ullanadigan shaxslarga bo'lgan ehtiyojni keltirib

chiqardi. Ular turnir marosimlari, diplomatik munosabatlardan xabardor bo'lgan, senorlarning vakillari bo'lib ishtirok etgan geroldlar bo'lgan.

Geroldlar institutining tashkil topishi, ehtimol, XII asrga to'g'ri keladi; uning paydo bo'lgan vaqti to'g'risidagi aniq ma'lumotlar bizda hozircha mavjud emas. Ularning risarlik turnirlarini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan faoliyati nisbatan ma'lum bo'lib, bu haqda yuqorida so'z yuritilgan edi. Gerb ekspertizasidan tashqari, gerold majburiyatiga gerbni blazonirlash, ya'ni turnir oldidan uning e'lon qilishi va qisqacha yoritilishi kirgan. Shuningdek, geroldlar turnirlarning reglamentidan xabardor bo'lganlar, ularning yordamchilari musobaqalar vaqtida barcha zarur signallarni berib turishgan. Shunday qilib, gerolddan xotiraning professional jihatidan yaxshiligi holatida uning majburiyatlarini bajarish uchun geraldika, genealogiyani tushunishi, avlodan-avlodga o'tadigan o'zaro munosabatlaridagi o'zgarishlar to'g'risida bilishi talab qilinadi.

Ularning faoliyatining bu tomoni ko'p jihatdan geraldikaga bog'liqdir. Biroq, bundan tashqari kundalik harbiy amaliyotda jang kuni e'lon qilish; jang maydonidagi halok bo'lganlar va yaralanganlarni tanish; asirlarni ayirboshlash tartibini qat'iy belgilash vazifalari geroldning majburiyatiga kirgan; biz uning jinoyatchiga jazo berishdagi rolini ko'rib chiqqan edik. Ushbu funksiyalarning barchasi turli martabadagi geroldlar o'rtasida taqsimlangan. Geroldlar asta-sekin parlamentyorlarning ham vazifalarini o'z zimmalariga ola boshladilar. Shu munosabat bilan ular daxlsizlikdan foydalanishgan, garchi ularning diplomatik amaliyotida mustasnolar ham bo'lgan. Masalan, 1429 yilda Janna d'Ark Parijni qamal qilgan inglizlarga o'zining ikki nafar geroldini yuborgan vaqtda, ulardan biri qonun va urf-odatlariga qaramasdan qo'lga olingan edi va faqat bir oy o'tgach barcha asirdagi inglizlarni yer bilan yakson qilish xavfi ostida ozod etilgan. Diplomatik qoidalarning shak-shubhasiz buzilishi, boshqa tomondan, 1475 yilda fransuz qiroli Lyudovik XI ingliz qo'shinlari Fransiyaga o'tkazilgan vaqtda Eduard IV ga gerold sifatida o'zining xizmatchisini yuborgan holatda sodir bo'lgan. Gerold katta vakolatlar va katta imtiyozlarga ega bo'lgan. Biroq, bundan tashqari, u ham gerbning timsoli va hatto uning egasining o'rinbosari timsoli bo'lgan. Shuning uchun geroldni haqorat qilish uning senorini haqorat qilish sifatida baholangan. Gerold bo'lish oson bo'lmagan. Masalan,

Fransiyada gerold unvoniga ega bo'lish uchun «Nomzodlik muddati» 7 yilni tashkil etgan, bu esa hunarmandchilik sohasidagi yordamchi ishchi yoki risarlik muhitidagi qurolbardorning maqomiga butunlay mos tushadi. Nomzod ushbu muddat davomida geroldning yordamchisi bo'lib kelgan va senor uning boshiga vino quyadigan va u qasamyod qabul qilgan, «geroldni cho'qintirish» deb nomlangan maxsus marosimdan so'nggina geroldga aylangan. Fransiyada qirol geroldlarining soni 30 tani tashkil etgan. Ulardan birinchisi, tantanali assambleyada bosh geroldlar tomonidan saylanadigan gerold Monjua-San-Deni deb atalgan va gerb qirol bo'lib hisoblangan. U qirol saroyiga yaqin bo'lgan. Qolganlari nominal ravishda ma'muriy bo'linmalardan xabardor bo'lganlar. Geroldlar instituti G'arbiy Yevropada har joyda tarqalgan. Angliyada geroldlar funksiyasi ularning fransuz hamkasblarining funksiyalariga o'xshash bo'lgan. Dastlabki gerb qirollari bu yerda XIII asrda qayd etilgan. Richard III qirolligi davrida hozirgi vaqtda Gerblar kollegiyasi sifatida ma'lum bo'lgan qirollikdagi gerbga oid vakolatli shaxslarning korporatsiyasi yaratilgan. Uni gerb qirol boshqargan, qolgan geroldlar ingliz qirolligining turli hududlariga aloqador bo'lganlar. Feodal separatizm davrida xususiy shaxslar geroldlari ham mavjud bo'lgan. Ular kiyimlarida o'z lavozimining belgisi sifatida senorlarining gerblarini olib yurishgan. Genrix VII hukmronligi davrida Angliyada xususiy geroldlarning amal qilishi yo'qqa chiqa boshladi va Tyudorlar davrida ularning eng so'nggilari yo'q bo'lib ketdi.

Shotlandiya geraldikasi geroldlar institutini XIV asrdan boshlab kamroq darajada biladi. Irlandiyada gerb qirol lavozimi 1553 yilda ta'sis etilgan. Dastlabki vaqtlarda geroldlar o'z faoliyatida gerblar bilan tikilgan, cotte d'armes deb ataladigan tor ko'ylak kiyishgan. Keyinchalik, XIV asrdan boshlab tabard – gerblarning tasvirlariga ega bo'lgan, yengsiz tikilgan kiyim ularning an'anaviy kiyimiga aylandi. U Fransiyada tillarang liliyalarga ega, bo'lgan binafsharang duxobadan tikilgan. Geroldlar kasbining mavjud bo'lishi «jonli» geraldikaning mavjudligi, gerblarning ta'rifi, tashkil qilinishi, shuningdek sharhlab berish bilan juda yaqin bog'langan. Geraldikaning so'nishi bilan geroldlar kasbi ham o'zining ahamiyatini yo'qotadi. Angliyada geroldlar kollegiyasi haligacha saqlanib qolgan; u ingliz zodagonlari avlodlari gerblariga meroslik

qilish, egallash va tashkil qilishni boshqaradi. Fransiyada ular o'z funksiyalarini Lyudovik XIII hukmronligi davrida yo'qotadi va 1789 yilgi inqilobga qadar sud amaldorlari sifatida o'z mavjudligini saqlab qoladilar.

Geroldlar institutini rasmiylashtirish sifatida kollegiyalarning tashkil etilishi uning gullab-yashnashining yuqori nuqtasi va shu bilan birga tanazzulning boshlanishini ifodalagan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, gerbga egalik qilish nufuzi saqlanib qolgan, XVI–XVII asrlarga xos bo'lgan ommaviy anobllashtirish faol gerb ijodkorligi va yangi gerblarning paydo bo'lishini hayotga tabiiq etdi. Shu bilan bir vaqtda ushbu jarayon gerbning «inflyatsiyasi»ga hamda parallel ravishda uning voqeligiga sabab bo'lgan o'rta asrlardagi ma'no-mazmuni va maqsadining so'nishi bilan unutilishiga yordam beradi. Shunday qilib, G'arbiy Yevropa geraldikasi – o'ziga xos shaklda feodalizmning G'arbiy Yevropa turiga xos bo'lgan va faqat o'rta asrlardagi davr uchun xarakterli bo'lgan jamoat ongini ifodalaydigan hodisa ekanligini qayd etishga asoslar bor. «Geraldika» atamasi qat'iy ma'noda XII–XVII asrlardagina qo'llanilishi va rasm bo'lishi mumkin. U bu vaqt uchun barcha gerblar va ularga aloqador bo'lgan belgi va predmetlarning yig'indisi, shuningdek geraldik materialni o'rganish va anglab yetishni ifodalaydi. XVII asrda geraldika tizimiga sabab bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot xususiyatlarining barham topishi bilan gerblar yo'qolib ketmadi, biroq ularning ma'no-mazmunini to'ldirgan va ijtimoiy turmushning qolgan unsurlari bilan avvalgi munosabatini yo'qotdi. Gerblarga bo'lgan qiziqish kamaymadi, aksincha, asta-sekin yanada ilmiy xarakter kasb eta boshladi. XVII asrdan so'ng mavjud bo'lgan yoki qaytadan paydo bo'lgan gerblar ham o'rta asrlar geraldikasidan, ham bizning muhokama qilish doiramizdan tashqaridadir. XVII asrdan so'ng geraldikani o'rganadigan fanni va ushbu mavzu bo'yicha adabiyotni belgilash uchun biz asosan «gerbshunoslik» atamasidan foydalanamiz. Qabr ustidagi toshlarda, cherkov tug'larida, cherkovlar va uylar va boshqa me'morchilik binolari devorlaridagi gerblarning tasviri ko'pchilikni tashkil etadi. Nihoyat, nafaqat gerbning tasviri, balki ko'pgina hollarda gerb va geroldlar harakat qilgan holatlarni tasvirlagan miniatyuralar o'ziga xos qimmatga ega. Gerbshunoslikda qalqonning hududlarini lo-

tin harflari yoki raqamlar bilan belgilash qabul qilingan. Harflar bilan belgilash tizimi bir nechta tashkil etadi. Bundan tashqari, raqamli tizim muomala qilishda yanada oddiyroq va qulayroqdir. Quyida gerbli qalqonni ajratishning yanada oqilona variantini keltiramiz.

1. Yuqori qism (Chef).
2. Yuqori o'ng kanton (Canton dextre du Chef).
3. Yuqori chap kanton (Canton senestre du Chef).
4. Markaz (Coeur, abime).
5. O'ng tomon (Flanc dextre).
6. Chap tomon (Flanc senestre).
7. Pastki o'ng kanton (Canton dextre de Pointe).
8. Pastki qism (Pointe).
9. Pastki chap kanton (Canton senestre de Pointe).

Qo'shimcha qilib aytganda, yuqori o'ng kanton, yuqori qism, yuqori chap kanton birgalikda qalqonning yuqori uchdan bir qismini tashkil etgan holda, ba'zan «yuqori qism» deb ataladi. Qalqonning pastki uchdan bir qismi butunligicha «pastki qism» deb ataladi. Qalqonning o'ng uchdan bir qismining barchasi – yuqori o'ng kanton, o'ng tomon va pastki o'ng kanton o'ng yon tomon, unga qarama-qarshi bo'lgan tomon yoki uchdan bir qism –chap yon tomon deb ataladi. Shunday qilib, agar quyidagicha aytilgan bo'lsa: yuqori qismida oltin xochga ega bo'lgan havo rang -bu havo rang qalqondagi 1-hududda oltin xoch joylashganligini ifodalaydi; gerbni butunligicha o'qish qoidalari to'g'risida quyida ko'rishimiz mumkin. Gerbli qalqonning tomonlari kuzatuvchi tomonidan emas, balki qalqonni tutib turuvchi risar nuqtai nazaridan aniqlanadi. Shuning uchun, gerb bizga – gerbovnikni kuzatuvchilar yoki o'quvchilarga qaratilgan vaqtda, bizning ko'zimizga chap bo'lib ko'ringan tomon o'ng (dextre) tomon, o'ng tomon esa – chap (senestre) tomon bo'lib hisoblanadi. Ular shunday nomlarga ega.

Bunda gerbdagi va uning kompozitsiyasidagi barcha harakatlar ham o'ngga intilgan, tasvir ham o'ng tomonga qaratilgan bo'ladi (ya'ni kuzatuvchi uchun chap tomonga). O'rta asrlardagi ong uchun tutib yuriladigan qalqon va undagi tasvir orqa tomoni bilan raqibga qarshi harakat qilishiga yo'l qo'yilmagan. Shuning uchun gerbdagi shunga o'xshash tasvir yoki qalbaki, yoki jiddiy e'tibor va izohni talab qiladigan kamdan-kam uchray-

digan hodisadir, yoki biz zamonaviy nashr bilan ish ko'rayotgan bo'lsak, u holda bu ko'zguli tasvir deb nomlanadigan poligrafik nuqson yoki xato bo'lishi mumkin. Umuman olganda, gerbning o'ng (geraldik o'ng) tomoni va yuqori qismi azizroq hisoblanadi. Bu jismlarni joylashtirishda hisobga olinadi. Ayniqsa, bu quyida so'z yuritiladigan gerblarning o'rnini bosishda muhimdir.

Qalqonning gerb maydoni turli, bir nechta yo'nalishlarga keltiriladigan bo'linishga ega: qalqonni ko'ndalangiga bo'ladigan gorizontal; uni uzunasiga bo'ladigan vertikal; qiya (diagonal) va ularning birikmasi. Chiziqlar to'g'ri yoki imkon darajasida egilgan bo'lishi mumkin. Gerbshunoslik geraldik grafikani bir tizimga keltirish imkoniyatlari va usullarini topish maqsadida qalqonning bo'linishiga jiddiy e'tibor qaratgan. Shunday qilib, masalan, vertikal yoki gorizontal ravishda bo'lingan qalqonda ranglar nisbati teng bo'lsa, u holda buni bo'linish deb hisoblash taklif etilgan, ammo u buzilgan bo'lsa, u holda bo'linish to'g'risida emas, balki kesim yoki gerbli jismlar (pieces honorables) haqida so'z yuritish lozim. Ta'kidlash joizki, bu juda rasmiy yondashuvdir. Amaliy jihatdan qalqonni gerbli jismlarning tashqi ko'rinishidagina kelib chiqqan holda bo'linishi qismlarga ajratish juda murakkabdir.

Geraldika tomonidan geraldik tasvirlarning alohida qatoriga ajratilgan gerb figuralar keng tarqalgan fikrga ko'ra qadimiy gerblarga xosdir. Shunday nuqtai nazar mavjud bo'lgan ediki, unga ko'ra gerblar ko'rsatilgan qahramonliklar va boshqalarning shartli belgilari bo'lgan (masalan, shevron oyoqdagi jarohatni ifodalagan), biroq XIX asrdagi gerbshunoslik yaqqol zamonaviylashtirish sifatida bundan voz kechdi. Qalqon va gerbli jismlarning bo'linishi variantlari o'ttizdan ortiqni tashkil etadi. Ularning ruscha nomlari birmuncha muhim ekanligini qayd etish maqsadga muvofiqdir. Ular yetarli darajada shartli va har doim ham bardoshli bo'lmagan eng so'nggi kashfiyot bo'lib hisoblanadi, chunki ushbu atamalarda geraldik jihatdan yoritilgan o'rta asrlardagi biror-bir material mavjud emas. G'arbiy Yevropadagi geraldik manba, odatda, imkon darajasida qisqa va aniqdir va ko'pincha mazmunini yo'qotmagan holda, ekvivalent bo'lgan ruscha atamalarga tarjima qilinmaydi. Bu o'rta asrlar tarixchisi uchun u ishlayotgan mate-

rialga o'sha mintaqaning milliy geraldik atamashunosligiga murojaat qilishi maqsadga muvofiq ekanligini bildiradi.

Jadvallar va qo'llanmalarda gerbli jismlar va gerb maydoni bo'linishining an'anaviy jihatdan «normal» tasvirlari beriladi. Ularning bunday ko'rinishi gerbga tavsif berishda ko'zda tutiladi. Biror-bir tafovutlar, ushbu «me'yor»dan cheklanishlar, masalan, jismlarni qalqonlarning noan'anaviy joylariga joylashtirish, kesimlar va boshqalar mavjud bo'lgan holatdagina, gerblarning yana batafsil tavsifi beriladi. Gerbli jismlarning o'lchamlari ham turlicha bo'lishi mumkin, keyinchalik gerbshunoslik ularga o'z nomini berdi, biroq o'rta asrlar geraldikasi har doim ham buni farqlamagan. Gerbli jism odatda deyarli butun qalqonni egallashi lozim, biroq bu badiiy uslubga ham bog'liqdir. Gerblarda uchraydigan hayvonlar odatda o'zining tabiiy ko'rinishi va rangida tasvirlanadi. Maxsus geraldik ranglar va tasvirlarga ega bo'lgan she'r, qoplon, burgutlar bundan mustasno. Ularning barchasi o'ng tomonga qaratilgan. She'rlar ikki dumli, burgutlar esa, ikki boshli va hatto uch boshli bo'lishlari mumkin. Ushbu jismlarning simbiози ham uchraydi. Tasvirlarning noodatiyligi – ikki boshli burgut, qanotli she'r va boshqalar, shuningdek, tirnoqlari, tishlari yulib olingan, chopib tashlangan hayvon va h.k. – har doim qayd etiladi. Gerblardagi o'simliklar ko'pincha o'zining tabiiy ko'rinishida tasvirlanadi, lilyalar bundan mustasno, biroq ma'lum uslubga keltirilganlari ham uchraydi. Gerb tasvirlari orasida, shuningdek, quyosh, oy, yulduzlar bo'lishi mumkin. Aslini olganda, gerblarda deyarli har qanday predmet yoki hayvonning tasviri ham paydo bo'lishi mumkin. Qalqonda bir nechta bir turdagi jismlar-tangalar, xalqalar, qozonlar joylashadigan bo'lsa, u holda ularning joylashishi uchburchakli qalqonning konturlarini takrorlaydi. Gerbdagi jism ko'pincha gerb maydonida o'zining joylashishiga qarab tavsiflanadi: agar qalqon maydonining markazida to'g'ri turgan holatdan og'ishlar kuzatiladigan bo'lsa, u holda bu noodatiy hisoblanadi va ko'rsatiladi. Qalqon bir nechta maydonga bo'linishi mumkin. Shunda ularda tasvirlanadigan predmetlarning mutanosibliги shu bilan aniqlanadiki, ko'pgina xususiy gerblarning har bir maydoni – bu alohida gerbdir. Ko'pgina xususiy gerblar, shakshubhasiz, so'nggi paydo bo'lgan gerblardir. XVII–XVIII asrlarda nemis knyazliklarining gerblari, ayniqsa, ko'payib ketgan. Dastlabki namunalar ko'pincha juda oddiy va sodda bo'ladi. Geraldik tasvirlarda ma'lum da-

rajada muayyan ranglar to'plamidan foydalaniladi. Geraldikada u ranglar¹, metallar va qoplamalarga bo'linadi. Afsuski, bizga faqat muhrlar yoki ularning ottisklari orqali ma'lum bo'lgan gerblarga nisbatan ranglar to'g'risida gapirish o'rinli emas. Rangli tasvirni, umuman olganda, hamma joyda ham uchratib bo'lmaydi. Gerbning tasviri tushiriladigan yuza fakturasi har doim ham uning ranglarda amalga oshirilishiga imkon bermagan. Bularga qurol-yarog'lar va aslahalardagi tasvirlar kiradi, unda o'rta asrlarda metallni badiiy qayta ishlashning yetarli darajadagi yuqori texnikasiga qaramasdan, ranglar gammasi juda cheklangan va ko'proq o'yma naqshlar qo'llanilgan. Dastlabki gerbovniklar butunlay bo'yalmagan bo'lsa, gerb maydonlarining rangi katta harflar yoki qisqartmalar bilan belgilangan. (A. -oltin, a., arg – kumush, G – alvon, fransuzcha gueles va boshqalar), odatda, o'rta asrlardagi butun Yevropa uchun umumiy bo'lgan fransuzcha geraldik atamalardan foydalangan holda. Geraldik ranglarni qayd etishning harfli tizimidan tashqari, boshqa tizimlari ham mavjud bo'lgan, masalan astrologik belgilar yordamida qayd etish. Kitob chop etilishining boshlanishi bilan gerblarning tipografik tasviri ham paydo bo'ldi, biroq bu gerbli tasvirlarni qo'lda tayyorlash amaliyotining yo'qolishini ifodalamaydi. Hatto, XVI asrning boshlarida Dyurer buyurtma bo'yicha rangli gerblarni chizgan. Gerbni oq-qora tasvirdagi rangda belgilashga da'vat etilgan shtrixlash tizimi yaratila boshlandi. Biroq bu tizimlar bir-biriga juda ham ziddir. XIX asrdagi gerbshunoslikda hozirgi vaqtda ham gerblar tasviri amaliyotida, ham ilmiy nashrlarda qo'llanilayotgan geraldik ranglarni shtrixli belgilashning barqaror tizimi paydo bo'ldi. Gerbli ranglar va metallarning shartli belgilari: 1. Oltin, 2. Kumush, 3. Alvon, 4. Havo rang, 5. Qora, 6. Yashil, 7. To'q qizil.

Geraldika qoidalariga binoan gerblarda ranglarning cheklangan soni qo'llanilishi mumkin: alvon, to'q qizil, havo rang, yashil, qora va to'q sariq. Geraldik metallar deb atalgan metallar faqat ikkita bo'lishi mumkin:

¹ Ular rus gerbshunosligida fransuz atamasining tarjimasi bo'lib, emallar yoki finiftlar deb atalgan. Bizning inqilobga qadar bo'lgan gerbshunosligimizning mahalliy geraldik atamashunosligini yaratishga bo'lgan hatti-harakatlarga qiziquvchilar uchun bizning ajoyib gerbshunosimiz Yu.V. Arsenevning asarlariga murojaat qilishlari maqsadga muvofiqdir.

oltin va kumush. Shuningdek, maydon qoplamasining ikkita asosiy turi mavjud: shartli ravishda tasvirlangan olmaxon va oqsichqon mo'ynalari (haqiqiy gerbli qalqonlarda ular haqiqiy mo'yna bilan qoplanishi mumkin). Grafik tasvirdagi mo'yna qoplamalari joylashish va ranglarning turli variantlarida uchraydi. Oqsichqon mo'ynali qoplama, odatda, oq-qora mo'ynadan iborat bo'ladi, lekin oq-qizil va boshqa variantlari ham mavjud. So'nggi rasmiy geraldika ranglarni geraldik va tabiiy ranglarga ajratadi. Yuqorida sanab o'tilgan ranglar geraldik ranglarga kiradi. Gerbli qalqonning maydoni ham, unda alohida joylashgan gerbli jismlar ham ular bilan bo'yalishi mumkin. o'zining tabiiy ko'rinishida gerb maydonida joylashtirilgan predmetlar – mavrning boshi, insonning qo'li, to'ng'izning boshi -gerbli jismlar bo'lib hisoblanmaydi va o'zining tabiiy rangida tasvirlanadi. Umuman olganda, bu o'rta asrlar mentaliteti uchun xos bo'lganidek, geraldik ranglar o'zining ichki ierarxiyasiga ega bo'lgan. Bartolo traktati bo'yicha oltin (metallar ichida), qizil rang (ranglar ichida) ulug'vorroq hisoblansa, qora rang esa pastroq hisoblangan, va bu ifodalana-yotgan ierarxiyaga javob bergan. Biroq, ranglarning bu tizimdagi holati ularning ramziy ma'nosi kabi vaqt o'tishi bilan o'zgargan.

Bunda qalqon gerbning asosiy qismi bo'lib hisoblansa, gerbning boshqa unsurlari ham muhim ma'noviy va axborot mazmuniga ega. Dubulg'a –gerbning o'ziga xos unsuri bo'li hisoblanadi. U shu holicha ko'pgina hollarda shaxsiy risarlik geraldikasida qo'llanilgan. Odatda, u ruhoniylar, ayollar, konfessional, shahar gerblarida, korporativ gerblarda mavjud bo'lmagan. Biroq, XVI asrning oxirlarida risarlik dubulg'asidan sex gerblarida foydalanish holatlari ham ma'lumdur. Dubulg'alarning turlari juda ham xilma-xildir. Odatda ular kuzatuvchiga yoki o'ng geraldik tomonga qaratilgan bo'ladi. Cherkov binolari ichidagi gerb tasvirlari haqida alohida aytib o'tish lozim, bunda dubulg'a yopiq tomoni bilan mehrobga qaratilgan bo'lgan. Dubulg'a qalqon kabi gerb tasvirining bunday majburiy unsuri bo'lib hisoblanmaydi. Gerb tasvirlari sonining kamligi kamdan-kam hollarda aynan bir gerbning bir nechta tasvirlarini taqqoslab ko'rish imkonini beradi. Bu aynan bir gerbdagi dubulg'aning o'zgargan yoki o'zgarmanligi yoki uning shakli gerbning mavjud bo'lish davrida o'zgarishsiz saqlanganligi to'g'risida ma'nodosh xulosalar chiqarishga imkon bermagan. Dubulg'a timsoli ham gerbning bunday qo'shimcha unsurlariga kira-

di. U shaxsiy indentifikatsiyaning yana bir vositasidan iborat, chunki hatto yaqin qarindosh bo'lgan va, ehtimol, bir xildagi gerbli qalqonli gerblarga ega bo'lgan shaxslar ham turli dubulg'ali timsollarga ega bo'ladilar. Dubulg'ali timsol qalqondagi tasvirni takrorlashi mumkin, qalqon maydoni yoki uning rangli jismlari bilan umumiylikka ega bo'lishi mumkin, balki u bilan yaqqol bog'liq bo'lmasligi mumkin. Gerbning dubulg'ali timsollari juda ham xilma-xildir: hayvonlar va insonlar, butunlay yoki ularning alohida qismlari (qanotlari, shoxlari, qo'llari), turli xil predmetlar (hatto bolta va arra), perolar, o'simliklar va boshqalar.

Rasmiy geraldika kliriklarning gerbi yoki ayollarning gerblarida dubulg'ali timsolning mavjudligi to'g'risida so'z yuritmaydi. Biroq, o'rta asrlardagi bosma materiallarga ko'ra buning buzilishi ma'lum bo'lgan: Norich yepiskopi, Genri Dispenser muhrida gerbning tasviriga ega bo'lib, unda dubulg'aning o'rnida mitra, dubulg'ali timsolning o'rnida esa – mitraning yuqorisida joylashgan grifning boshi bo'lgan. Odatda gerbli qalqon ustida bitta dubulg'a joylashadi. Biroq, o'rta asrlarning so'nggidagi geraldika bitta qalqonda ikkita muhim gerblarni birlashtirgan holda, bitta qalqon ustida ikkita dubulg'aning paydo bo'lishiga misollar keltiradi. XVII-XVIII asrlardagi gerblar orasida, ayniqsa nemis yerlaridagi gerblarda, qalqon ustidagi dubulg'alarning soni o'n va undan oshadi, biroq har bir dubulg'aning o'z dubulg'ali timsoli saqlanib qoladi.

Gerbning qo'shimcha unsuri – namet deb nomlanuvchi buyumdir, u odatda dubulg'aning yuqori qismidan tushgan ikki rangli matoning tasviridir, bu matolarning rangi odatda dubulg'a emblemasi yoki qalqoni rangida bo'lgan. Nametning vujudga kelishi to'g'risida ko'p sonli gipotezalarning mavjudligi holatida ushbu masala bo'yicha yakuniy fikrga kelinmagan. Ko'pincha gerbning tasvirida dubulg'a bo'lsa ham, namet mavjud bo'lmaydi. Shunday qilib, XIV asrdagi Syurix gerbovnigi qalqonning ustiga nametning emas, balki dubulg'a va dubulg'a timsolining tasvirini beradi. XV va undan keyingi asrlarda namet yanada hurpaydi, uning tasviri esa – yanada hashamatli bo'ldi. Geraldikaning gullab-yashnashi davrida unvonli zodagonlarga tegishlilikni ifodalaydigan ko'p sonli tojlar gerblarda paydo bo'ladi. Ularning ierarxik funksiyasi, ayniqsa, yaqqol ko'rinib turadi. Qalqonni tutib turuvchilar ham to'liq gerbga ega bo'lishlari mumkin. Qalqonni tutib turuvchi jismlar orasida har qanday tirik yoki afsonaviy

zotlar uchrashi mumkin: insonlar (Monako knyazligi gerbidagi rohiblar), hayvonlar (italyan naslidagi Orsini gerbidagi ayiqlar), drakonlar (XV asrda Portugaliya qirolining gerbida). Ular ko'pincha ikkita, biroq bitta ham bo'lishi mumkin (Ispaniya qirollarining burguti; fransuz qirollarining gerbida turli vaqtda ikkita, yoki bitta farishta bo'lgan). Qalqonni tutib turuvchilarning soni ikkita bo'lganda, ular turlicha bo'lishi ham mumkin (Shotlandiya qo'shilganidan keyingi ingliz qirollarining gerbi – Angliya sheri va Shotlandiya yakkashoxi). Shimoliy va Markaziy Yevropada qalqonni tutib turuvchilar orasida sherlar juda keng tarqalgan. Ba'zan qalqonni tutib turuvchilar qalqon maydonida bo'lgan jismlarga o'xshash geraldik belgilar bilan bezatilgan bo'lishi mumkin.

Yu.V. Arsenevning fikriga ko'ra, qalqonni tutib turuvchilar turnir amaliyotidan boshlab paydo bo'lgan. Ular XIV asrdan boshlab gerblarda uchraydi. Qalqonni tutib turuvchilarni tanlab olishning ma'lum bir qoidalari hatto rasmiy geraldikada ham bo'lmagan. Bu, ehtimol, gerbning nafaqat mavjud bo'lishi miqyoslarida, balki bitta gerb egasining hayoti davomida oson o'zgartiriladigan qismidir, chunki u egasining qadr-qimmatini va unvoni bilan bog'liq bo'lmagan. Gerbning boshqa qo'shimcha elementlari ham mavjud bo'lgan, biroq ular qisman kechroq paydo bo'lib, qo'llashning nisbatan tor sohasiga ega bo'lgan. Shiorlar haqida batafsil to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Shiorlar, odatda, gerbli qalqondan alohida ravishda, ko'pincha uning ostida, tasmada yoki tablichkada joylashtirilgan, biroq shiorlarning qalqonning ostida yoki uning atrofini o'rab turgan tasmada joylashish misollari ma'lum bo'lgan. Ko'pgina shiorlar so'zlar bilan ifodalangan bo'ladi-bular hikmatlar yoki alohida so'zlardir. Hikmatli so'zlar umumma'lum bo'lishi, va aksincha, faqat gerbning egalariga tushunarli bo'lishi, nasl-nasab yoki oilaviy tarixning epizodlariga yoki nasl-nasab vakillarining o'ziga xos xususiyatlari, nihoyat, gerb egasining shaxsiy xususiyatlariga aloqador shifrlangan ma'noga ega bo'lishi mumkin. Shiorlar gerb egasining nomidan hosila bo'lgan. O'z bayrog'i ostida jangga kirish huquqi bo'lgan senyorlar ega bo'lgan jangovor xitoblar ham shior bo'lishi mumkin. Shunday qilib, Gotfrid Bulonskiyning jangovor xitobi – «Xudo shunday bo'lishini xohlaydi» – shior sifatida uning gerbiga kiritilgan; fransuz qirolining gerbiga «Monjua» – kiritilgan. So'zlar-

ning boshlang'ich katta harflaridan tashkil topgan qisqartma-shiorlar ham, biroq kamdan-kam hollarda uchraydi.

Pireney yarim oroli mamlakatlarining gerblarida gerbli qalqonlardan ajratilmagan, balki bevosita uning maydonida, yon tomonlar va diagonal-lar bo'yicha, o'zining o'xshash shiorlari mohiyati bo'yicha joylashgan yozuvlar uchraydi. Ko'pincha ular boshlang'ich so'zlar yoki katolik duolarining satrlaridan iborat bo'lgan. Umuman shiorlarning tili qat'iy tartibga solinmagan. Dastlabki shiorlar ko'pincha lotin yoki fransuz tilida ifodalangan. Asta-skinlik bilan milliy tillardagi shiorlar ham paydo bo'la boshladi. Ingliz geraldikasining o'ziga xos xususiyati bo'lib, unda bedj deb ataladigan, ba'zida o'ziga xos shiorlar sifatida talqin qilinadigan qo'shimcha tasvirlarning bo'lishidir. Fikrimizga ko'ra, bu unsurlarni bir xil deb hisoblash mumkin emas, chunki bedj og'zaki shiorlardan qadimiyroq bo'lib, ular bilan bir paytda amaliyotda bo'lib, bedj shaxs yoki sulolaning emblemasi sifatida idrok etilgan. Bir qator hozirgi zamon ingliz tadqiqotchilarining ta'kidlashlaricha, bedj hatto gerbga nisbatan kengroq qo'llanilgan. XIV-XV asrlarda u kiyimlarda taqib yurilgan, devorlar, xizmatkorlarning livreyalari va boshqalarda aks ettirilgan. U shunchalik yaxshi mashhur bo'lganki, hatto egasining ismini almashtira olgan. Bu tasvirlardan eng mashhurlari – oq atirgul, qizil atirgul, oq bug'u, oqqush, ko'k to'ng'izdir. Ularning gerb maydonidagi tasvir bilan nisbati hozircha o'rganilmagan va kam darajada ma'lumdir. Shuni qayd etishimiz joizki, garchi bu sof inglizcha xususiyat bo'lib hisoblansa-da, boshqa mamlakatlar geraldikasida ham qiyosiy misollarni topish mumkin. Masalan, XV asrda ispan qirolligi gerbida qalqonning ostida katolik qirollari Fernando va Izabellaning inisiallari sifatida qaraladigan bir tutam kamon o'qi (flechas) va sirtmoq (yugo) tasvirlangan. Bu vaqtda ular ma'noviy mazmunga ega bo'lgan. Gerbning ayrim qo'shimcha unsurlari gerb egasining oilaviy-nasliy munosabatlar tuzilmasidagi holatini qayd etish uchun joriy etilgan. Gerbda titlo (lambel) yoki hoshiya (bordure) kabi jismlarning mavjud bo'lishi mazkur gerbning egasi oilaning kichik a'zolariga tegishli ekanligini ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Balkaning butunlay yoki markaziy qismining mavjudligi gerb egasining bastard ekanligidan guvohlik berishi mumkin. Qayd etishning ushbu qoidalari va boshqa tizimlaridan chekinishining ko'pgina hollari mavjudligini ham hisobga olish lozim.

Dastlab gerblar umuman na qonuniy, na tashkiliy, na tasviriy jihatdan qat'iy tartibga solinmagan. Vaqt va amaliyot nisbatan muvaffaqiyatli shakllarini tanlab oladi. Nafaqat yorqin va sezilarli, balki oddiy, oson yodda qoladigan tasvirlarning ularga aylanganligi bejiz emas. Biroq, variantlar imkoniyatlari cheklangan bo'lishiga qaramasdan, aytish joizki, geraldika keng tarqalganidan so'ng ikki asr mobaynida ularni tartibga solish ehtiyoji yuzaga kelmadi, yoki bir xil gerblar tufayli yuzaga kelgan nizolar u yoki bu jihatdan oson hal qilinadigan bo'ldi, hamda geraldika tizimi o'zining boshqa funksiyalarini bajarishning uddasidan chiqdi. Ko'p vaqt o'tmasdan, geraldikani nazariy darajada anglab yetishga harakatlar bo'ldi. Bu asosan gerbni yaratish va o'qish bo'ysungan umumiy qonun-qoidalarni topish maqsadida geraldik tasvirlarni tizimlashtirish va yoritishga bo'lgan hatti-harakatlarni anglatgan. Geraldikaning amaliy ehtiyojlarining natijalari – eng kam izohlarga ega bo'lgan gerblarni qayd etgan gerbovniklar geraldikani anglab yetishning birinchi shakliga aylandi. Gerbning huquqiy jihatlariga – unga egalik qilish huquqlari, uni yaratishning qonuniyligi va to'g'riligiga daxldor bo'lgan traktatlar keyingi shakliga aylandi. Bu bosqichda geraldika gerbshunoslikka aylandi, natijada u amaliy, «jonli» geraldikada yuzaga kelgan qoidalarni rasmiylashtirishga harakat qildi. Shundan geraldik qonunlar, ularning ma'lum shartliligi paydo bo'ldi.

Geraldika qonunlari – bu gerbli tasvirlarning qonuniyligidir, shuning uchun ular bilan tanishish zarur. So'nggi geraldistlar va gerbshunoslarning deyarli barchasining fikrlari shu narsada bir-biriga mos tushmoqdaki, geraldika qonunlari – qat'iy qonunlar bo'lib, bu mustasnolar bo'lmaydi degani emas. Katta qismi geraldikaning kodlashtirilishidan oldingi vaqt bilan aniqlanadigan «noto'g'ri» gerblar bunday mustasnalarga taalluqli bo'ladi. Gerb maydonida metalning metalga, rangning rangga, qoplamaning qoplamaga joylashtirishning taqiqlanishi geraldikaning eng umumiy, eng tarqalgan qonuni bo'lib hisoblanadi. Bu qalqonning kumush maydonida oltindan qilingan geraldikning jismning bo'lmasligini anglatadi. Ko'p sonli xususiy gerbning har bir tarkibiy qismi odatda mustaqil gerb sifatida qaralishi sababli, bu qonun faqat har bir qismga, aytaylik, to'rtidan bir qismiga, alohida tegishlidir. Geraldik jismlarning qo'shimcha qismlari (xalqa va boshqalar) ushbu qonunning amal qilishidan istisno qilinadi. Dastlabki turdagi gerblarga nasl-nasabning kichik ajdodini belgilash uchun unsur-

lar qo'shilganda, bundan tasvirlar ham ushbu qonunning ta'sir doirasidan tashqarida bo'ladi. Geraldikaning qoidalari va qonuniyligiga shu holat tegishli, agar qalqonda bir nechta predmetlar yoki bir maydonda bir nechta jismlar mavjud bo'lsa, u holda ular o'zgarishsiz takrorlanganda, ular har doim bitta rangga ega bo'ladi.

Bir nechta gerblarni bitta qalqonda joylashtirish qoidalari, albatta, ularni har birining qadr-qimmatiga muvofiq joylashtirilishini talab qiladi. Yanada «sazovor» bo'lgan gerblar qalqon maydonida yuqori va boshqalarga qaraganda o'ngroqda joylashishi lozim. Qalqonning markazida tasvirlangan kichik qalqonlarga «sig'dirilgan» gerblar asosiy gerblar yoki yangi o'zlashtirilgan yerlar yoki qadr-qimmatlarning gerblari bo'lishi mumkin. Gerblarga tavsif berish va ularni o'qishning muayyan qoidalari va ketma-ketligi mavjud. Gerblarni o'qishda asosiy e'tibor qalqonga qalqonga qaratilishi lozim. Eng avvalo, qalqonning bo'linishiga baho berish zarur (vertikal, gorizontal, to'rt qismga bo'lingan va h.k.). Agar gerbning tavsifi haqida so'z yuritilayotgan bo'lsa, u holda qalqonning bo'linishi to'g'risida birinchi navbatda so'z yuritiladi. So'ngra quyidagi unsurlar ketma-ket ko'rib chiqiladi: asosiy qalqonning markazida joylashgan maydon yoki qalqon, qalqonning yuqori, o'ng, chap, pastki qismlari.

Agar qalqon bitta yoki ikkita chiziqlar bilan bo'lingan bo'lsa, u holda uning tavsifi qismlarning soni ko'rsatilmagan holda faqat ikkita yoki uchta rangni o'z ichiga oladi. Agar gerbda qismlar soni ikki yoki uchtdan ko'p bo'lib, ranglar esa, avvalgidek, ikkita bo'lsa, qismlarning soni, albatta, tilga olinishi lozim: dastlab yuqori yoki o'ng qismlarning rangi ko'rsatiladi. Geraldik jismga tavsif berishda dastlab uning turi, keyin rangi aytiladi. Dastlab vertikal ravishda bo'lingan qalqonning o'ng qismida, gorizontal bo'lingan qalqonda esa yuqori qismida joylashgan jism ko'rib chiqiladi. Agar qalqonda gerbli jismlar ko'p bo'lsa, u holda asosiy jismlardan boshlanadi. Yuqori va o'ng qismlarda joylashgan jismlarga tavsif berilganidan so'ng, pastki va chap tomondagi jismlarga o'tiladi. Shunday qilib, asosiy qoida quyidagicha: gerbli qalqon yuqoridan pastga va chapdan o'ngga qarab tavsif beriladi va o'qiladi. Qalqondan so'ng gerbning yuqori qismini qarab chiqishga o'tiladi: qisqa tavsifga ega bo'lgan dubulg'a (yangi, eski, toj kiydirilgan; uning qalqonga nisbatan joylashishi); rangi qayd etilgan dubulg'ali namet; dubulg'ali timsol. Keyinchalik qalqonni tutib turuvchi-

lar, qalqonning tashqarisida joylashtirilgan faxriy unvon belgilari; orden belgilari, gerbli mantiyalar ko'rsatiladi. Eng oxirida shior tilga olinadi. Shiorning mavjudligi yoki mavjud emasligi, uning tili – lotin yoki boshqa, masalan ingliz geraldikasida tez-tez qo'shllaniladigan fransuz tili, – diqqat-e'tibor markazida bo'lishi lozim. Gerbni manbalarda, gerbshunoslikda va ma'lumotnomalarda tavsiflash tartibi ham, umuman olganda, gerbni o'qishning bunday tartibiga mos keladi. Bu muhimdir, chunki geraldika amatashunosligi va tavsif berishning qisqa va aniqligi ba'zan gerbning tasviri mavjud bo'lmaganda qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin.

Gerbli qalqonning tashqarisida joylashgan uning ikkinchi darajali unsurlarini sinchkovlik bilan tahlil qilish lozim. Ular ko'proq ma'lumot berishi mumkin. Qalqon ham, dubulg'a ham gerbning asosiy unsurlari bo'lib, uning muqaddas, o'zgarmas qismi bo'lib hisoblanadi. Qalqonning shakli, gerb qismlarining tashqarisida bo'lgan umumiy ko'rinishi esa yanada «so'zlashuvchan» bo'lishi mumkin, chunki ular ko'p jihatdan uslublar o'zgarishining, shaxsiy didlarning ta'siriga duchor bo'ladi. Ba'zida ular gerb tasvirining sanasini ham aniqlashi mumkin. Qalqondan tashqarida joylashgan orden belgilari va faxriy unvon belgilarini vaqt o'tishi bilan orden yoki unvonning paydo bo'lishi bilan aniqlashga intilish lozim. Gerblar bilan ishlashda ehtiyotkorlik va batafsillik doimo talab qilinadi, chunki faqatgina e'tiborlilik va tajriba biz uchun o'rta asr geroldi uchun oson bo'lgan narsani yanada osonlashtiradi. Gerbni o'qish yoki unga tavsif berishga o'tishda o'ziga berishi lozim bo'lgan dastlabki savollardan biri quyidagicha: ko'rilayotgan gerb gerblarning qaysi turiga tegishli? Gerblarni turlarga ajratish harakatlari eng dastlabki gerbshunoslik ishlarida boshlangan. Dastlab ular nisbatan oddiy tuzilmalardan iborat bo'lsa, u holda XIX asrning oxiriga kelib, gerbshunoslikda to'plangan ma'lumotning hajmi bo'yicha gerblarni turkumlarga ajratish tizimi yanada batafsil va yanada aniq bo'la boshladi. Uni bunga turkumlarga ajratishning turli mezonlarini bitta umumiylikka birlashtirish harakatlari duchor qiladi. Gezi tasnifi bunday yondashuvning yaqqol misoli bo'lib xizmat qiladi. Gerbning tashqi ko'rinishidan kelib chiqadigan tasniflarning samarador bo'lishi dargumon (ularda tasvirlangan predmetlar, geraldik «xatolar»ga ega bo'lgan gerblar, «ochiq» gerblarda tasvirlangan gerb maydonlarining ko'pligiga va boshqa shu kabi holatlarga bog'liq holda). Gerblarning turkumlarga ajratilishiga

bir nechta holatlardan yondashish mumkin. Masalan, gerblarni ularning kimga tegishli ekanligi nuqtai nazaridan tasniflash mumkin. Bu qatorda, eng avvalo, nisbatan qadimgi – shaxsiy risarlik gerblari, oliy tabaqa va-killarining gerblarini ajratib ko‘rsatish lozim. Vaqt o‘tishi bilan bu shaxsiy gerblar nasl-nasab gerblariga o‘zgardi. Unvonli shaxslar, feodal senorlar sifatida ishtirok etadigan ruhoniylarning gerblari, ayollar gerblari ularning xususiy qismi bo‘ladi.

Davlat gerblariga o‘zgarish tendensiyasini belgilab beradigan unvonli shaxslarning oliy qatlamining shaxsiy gerblari (gersoglik, qirollik) alohida tarixiy viloyatlar gerblari, shuningdek shahar gerblarining yirik gerblari kiradigan hududiy gerblarni birlashtiradigan tasnif bo‘limining boshida turadi. Ularning barchasi nafaqat rasmiy hududiy jihati bo‘yicha, balki, eng avvalo, gerbli tasvirlarning mohiyatan to‘lishi bilan shaxsiy gerblardan farq qiladigan jihatlarga ega bo‘lganligi uchun ushbu guruhga kiradi. Shahar geraldikasi, oliy qatlam geraldikasining odatlari va shakllarini o‘zlashtirgan holda, beixtiyor ularni boshqa mazmun bilan to‘ldirdi, chunki risarlik geraldikasi har doim har qanday ijtimoiy darajada shaxsiy bo‘lgan, shahar geraldikasi esa shahar o‘z gerbi yoki o‘z senorining gerbidan foydalanganligiga qaramasdan unday bo‘lmagan. Bu nuqtai nazardan, shahar gerbining orqasida har doim shahar obshchinasi, ushbu manzilgohning to‘la huquqli yashovchilari hamjamiyati turganligi uchun, shahar gerbi korporativ va hududiy gerblarning guruhlari o‘rtasidagi oraliq holatni egallaydi. Shahar gerblari kelib chiqishining umumiy manbasi mavjud emas; lekin shaharliklarning gerbga egalik qilishga bo‘lgan intilishlarini alohida ta’kidlash joiz. Ba’zi guruhlarni shahar gerblarining ichida ham ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular ham tasviriy xususiyatlar, ham bu xususiyatlarga sabab bo‘lgan shahar markazlarining xarakteri bilan bog‘liq bo‘lgan. Shunday qilib, port-shaharlar, va dengiz va daryo gerblari, biroq u yoki bu jihatdan uzoq dengiz savdosi bilan bog‘liq bo‘lgan gerblarni ajratish mumkin. Ularning gerblari ko‘pincha timsolli ravishda umumiy va ular uchun xos bo‘lgan ular qudratining manbasi va ularning o‘ziga xos suverenitetga intilishlari asosini ifodalaydi – savdo kemasi, shahar patrisiati va umuman o‘rta asrlardagi savdogarlar toifasi qudratining fundamenti; kemanding tasviri ko‘p sonli muhrlar va Lissabon, Parij, ganzey shaharlari va boshqa shu kabilarning gerblari bo‘yicha mashhur. Ular tasvirlarning

turlari bo'yicha bir-biriga juda ham o'xshaydi. Shahar gerblarining boshqa turi – shahar mustaqilligining jonli ifodasi sifatida shahar devorlarining tasviriga ega bo'lgan gerblardir; shahar devorlarining roli o'rta asrlardagi insonning ongida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan manzilgohni qayd etish uchun yaxshi ma'lumdir. Senor hududida paydo bo'lgan bir qator shaharlar o'z gerbi sifatida uning gerbini butunlay yoki qisman qabul qilganlar. Gerbning mazkur turdagi moslashuvi varianti qarama-qarshi belgiga ega qirol gerbi geraldik figurasini shahar gerbida mavjudligidir. Shuningdek, korporativ gerblarning keng guruhi ham mavjud. Bu sex gerblari, harbiy ordenlarning gerblari, diniy (alohida monastirlar, ittifoqlar), universitet gerblaridir. Bir qator jihatlar ularni shahar gerblari bilan yaqinlashtiradi. Shu bilan bir vaqtda korporativ gerblarni shaxsiy gerblar bilan taqqoslash mumkin, yoki ulardan har birining ortida feodal senor turgan, korporativ gerblar bilan bo'lgan holatdagina senor kollektiv bo'ladi. Shak-shubhasiz, gerblarni tasniflash va turkumlarga ajratishning boshqa yondashuvlari ham bo'lishi mumkin. Masalan, gerbning uning egasida paydo bo'lish uslubiga ko'ra: gerb senor tomonidan taqdim etilgan, azaldan nasl-nasabga tegishli bo'lishi mumkin. Gap shundaki, tasnif ish uchun qulay bo'lishi va tadqiqotda qo'yilgan maqsadlarga javob berishi lozim. Shuningdek, vaqtinchalik gerblar kabi geraldik shakllarni ham ta'kidlash lozim. Ularga to'y gerblari, siyosiy ittifoqlarning gerblari, boshqa yerlarga da'vo qilish gerblari va boshqalar kiradi. Paydo bo'lish vaqtiga ko'ra dastlabki gerblar sifatida shaxsiy, risarlik gerblarini e'tirof etish lozim. Ular, ehtimol, ko'p jihatdan butun geraldik tizimning jihatlarini o'zida mujassam etgan. Shuning uchun ular, ko'rinib turganidek, ular bilan boshqa gerblarni taqqoslash uchun butunlay sanoq boshi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ruhoniyning shaxsiy dunyoviy gerbining qalqoni ruhoniy gerbining asosi bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib, Chezari Bordja gerbida papa kalitlari bilan bir qatorda protonotariy sifatida Valensiya nasabidagi Borxa gerbi – hoshiyali qalqon va oltin maydondagi qizil buqa joylashtirilgan. Agar ruhoniyning to'liq gerbi haqida so'z yuritiladigan bo'lsa, u holda dubulg'a mavjud bo'lmaydi, uning o'rniga esa mitra yoki klirikning bosh kiyimi tasvirlanadi, uning yon tomonlarida nametning o'rnida popukli bog'ichlar osilib turadi. Ushbu so'nggi unsurlarning qo'llanilishi XIV asrda Italiyada paydo bo'ldi va XV asrda umumiy unsurga aylandi. Dastlab ular qizil va qora

ranglarda bo'lgan, bunda qizil rangdan asosiy gerblarda foydalanilgan. XV asrdan so'ng bog'ichlar tasvirida yepiskoplar va arxiepiskoplar martabalarini belgilash uchun yashil rang paydo bo'ldi, qora rang esa past martabali kliriklarga tegishli bo'ldi. Popuklar soni o'zgarishi mumkin bo'lgan va faqat XIX asrda qat'iy belgilandi. Ba'zida qalqonning orqasida yepiskoplarning burama hassasi joylashgan. O'rta asrlar ayoli o'zining feodal erkinligi va mustaqilligiga bo'lgan huquqiga qarab gerbga egalik qilish huquqiga ega bo'lgan. Shunday qilib, Anna Bretonskaya gersoginya sifatida, shak-shubhasiz, unga egalik qilgan. Ayollar nikohga qadar, odatda, otalarining gerblaridagi tasvirlardan, biroq ba'zan romb ko'rinishidagi yoki boshqa shakldagi qalqondan foydalanganlar. Burgundiyada qizlar turmushga chiqishlariga qadar gerbda uzunasiga bo'lingan qalqondan foydalanishlari lozim bo'lgan, uning chap yarmida qizning nasl-nasabi gerbi, o'ng tomoni esa bo'sh qolgan, bu joyda kelajakda qizning bo'lg'usi turmush o'rtog'ining gerbi joylashtiriladi. Gatererning hisoblashicha, ilgari gerbning yuqori qismida erning gerbi, pastki qismida esa xotinning gerbi joylashtirilgan, va faqat XVIII asrdan boshlab bu holatda gerbning uzunasiga bo'linishi paydo bo'ldi. Biroq bunga rozilik bildirish murakkabdir, chunki Anna Bretonskiyning nikoh gerbi o'rta asrlar davrida ham bunday imkoniyatning mavjudligini ko'rsatadi. Ba'zi hollarda nikohdagi gerblar shunday birlashtirilganki, xotin qalqonining chap yarmi er gerbining o'ng yarmi bilan birlashtirilgan. Tasvir xarakteri sababli buning iloji bo'lmaganda, gerblarni birlashtirishning boshqa shakllari qo'llanilgan. Er-xotin gerblari zich yoki bog'liq bo'lgan ikkita qalqonlarda ham tasvirlangan bo'lishi mumkin edi. Ikki marta turmushga chiqqan ayol ikki erining qalqonlari o'rtasida otasining qalqoni tasvirini joylashtirishi mumkin bo'lgan. Xotinning gerbini (Klinton xonim) uning to'rt nafar turmush o'rtoqlarining gerblari o'rtasida joylashtirish misoli mavjud.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Geraldik nishonlarning genetik asoslarini qanday tushuntirasiz?
2. *Geraldik nishonlarning davlatchilik tarixi bilan bog'liq izohlarini bering*
Markaziy Osiyo numizmatikasi materiallarida aks etgan geraldik belgilar haqida ma'lumotlar bering va elektron taqtimot to'plangan.

II BO'LIM.

YANGI YORDAMCHI TARIXIY FANLAR

2.1. Yordamchi tarixiy fanlarning yangi sohalari

O'quv mashg'otining maqsadi: Yordamchi tarixiy fanlarning yangi sohalari va ularning ob'ekti haqida talabalarga ma'lumotlar berish, ularda bilim va ko'nikma hosil qilish.

Tayanch so'z va iboralar: *Berestologiya, tarixiy informatika, dendroxronologiya, veksillologiya, prosopografiya, filokartiya, kodikalogiya, faleristika, antroponimika, bonistika, tarixiy psixologiya*

Yordamchi tarixiy fanlarning yangi sohalaridan biri shubhasiz kodikologiyadir. Kodikologiya – bu atama lotincha, kodosis-kitob, logos-fan degan ma'noni bildiradi. Kodikologiya yordamchi tarix fanlarining maxsus sohasi bo'lib, uning o'rganish ob'ekti kitobdan iborat. Bu atamani 1949 yilda faransuz olim Alfons Den taklif qilgan. Kodikologiya sohasining asosiy vazifasi – kitob va uning paydo bo'lish tarixi, taqdiri, kitoblaning yig'ilish tarixi, madaniy tarixiy jarayonlarda qo'lyozma va turli xildagi nashr kitoblarining tarixiy-madaniy jarayonlardagi o'rnini aniqlashdan iborat. Bundan tashqari kitoblarni tavsiflash hamda ularning katologlarini tuzish ham kodikologiyaning vazifasi hisoblanadi.

Kodikologiya kitobning moddiy asoslarini ham o'rganadi, ya'ni ,charm, papirus, qog'oz, mato va boshqa kitob uchun ishlatilgan materillar ham tadqiqot ob'ektidir. Qog'oz masalasiga kelganda kodikologiya bu materialning tarkibini, qog'oz tarikibiga singdirilgan ishlab chiqarish belgilarini, ya'ni abribahor (filegran)larni ham o'rganadi. Filegranlar belgilari qog'oz ishlab chiqaruvchi uchtaxonalarning xususiy belgilari hisoblanadi. Shu kabi abribahor belgilarining qog'ozda paydo bo'lishidan boshlab, to ular yo'qolib yo yangilanguniga qadar vaqt oralig'i qog'oz ishlab chiqarish tarixini ko'rsatuvchi ma'lumotlar manbasi hisoblanadi.

Kodikologiya kitob muqavazosligi, bezaklari, kitobda ishlatilgan yozuvning grafik shakllari va uslublari ayrim olingan shaxslarning qo'lyozma usullari kabi tashqi alomatlarini ham hiobga oladi. Masalaning bu yo'nalishi paleografiya bilan uyg'un keladi. Kodikologiyaning yana bir muhim vazifalaridan biri kitob ishlab chiqarish bilan shug'ullangan kasb egalariining ijtimoy halotini, jumladan kotiblar, ularning jamiyatda tutgan o'rni, shaxsi, kasbiy malakasi singari ma'luotlar bilan ham qiziqadi. Kodikologiya qo'lyozma yoki boshqa turdagi kitoblar tarkibiga kirgan asarlarni aniqlash bilan ham shug'ullanadi. Kitob matnining asli yoki ko'chirmalarini aniqlaydi. Kodikologik tadqiqotlarning arxeografik faoliyat bilan ham bog'liq jihati ham bor, ya'ni kodikologlar jamiyat ichra kitoblarni izlab topish, ularni maxsus kitobxonalarda yig'ib tavsiflash, katologlashtirish ishlarini amalga oshiradi. Kodikologik-arxeografik ekspedisiyalar davomida topilgan kitoblar egalari maxsus fondlarga topshirmagan taqdirda, o'sha kitoblarning tavsif va ta'rifini yozib olgan holda ma'lumotlarini kodikologik umumlashtirilgan hisobotlarga kiritib boradi. Kodikologiya bibliografiya, manbashunoslik, tekstologiya, adabiyotshunoslik va boshqa yordamchi sohalar bilan hamkorlikda ish olib boradi. O'zbekistonda kodikologiya sohasi O'zFA sobiq qo'lyozmalar institutida va hozir amaldagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, O'zbekiston Milliy kutubxonasida va boshqa markazlashgan kutubxoanalarda olib borilmoqda. Bu sohada Qavomiddin Munirov, Mahmud Hasaniy, Muhammadjon Hakimov, Qosimxon Boboxonov, Erkin Oxunjonov singari olimlar xizmatini qayd etish lozim. Erkin Oxunjonov kodikologiya sohasining nazariyotchi mutaxassislaridan biridir. Turkmanistonda Olmos Yozverdiev butun ijodini kodikologiyaga bag'ishlagan.

Berestologiya – bu yordmchi tarix sohasi maxsus soha hisoblanib, daraxt po'stlog'iga yozilgan yozma yodgorliklarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Beresta so'zi – oq qayin po'stlog'i degan ma'noni bildiradi. Bu materialdan yozuv tarixida keng foydalanilgan, hattoki O'zbekistonning janubidagi antik davr yodgorliklarida ham beresta daraxt po'stlog'ida yozilgan yodgorliklar ma'lum (E. Rtveladze). Berestadan yozuv materiali sifatida Novgorod, Pskov knyazliklarida hamda qadimgi rusning boshqa viloyatlarida foydalanishgan. Shu munosabat bilan Novgorod, Pskov beresta hujjatlari katta turkumlarda o'qib o'rganilib, nashrlar qilingan.

Berestaga bitilgan hujjatlar asosan qo'lyozma yodgorliklar hisoblanib, arxeologik qazishmalar jarayonida topiladi. Berestaga yozish o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ham bosib o'tgan. Bu yo'l pergament yoki qog'ozga yozish usulidan farq qilgan, ya'ni beresta daraxt po'stlog'i, qog'oz yoki pergament singari yoylib turish xususiyatiga ega emas. Yozilgan beresta qurish jarayonida naychalar shakliga kirib qoladi. Shu sababli ulardagi yozuv, o'chmay saqlanib qoladi.

Beresta hujjatlari ijtimoiy hamda oldi-berdi muomala munosabatlarni aks ettiradi. Bu xususiyat tarixiy manbashunoslik nuqtai nazardan yangi imkoniyatlarni ochadi. Berestalar bilan ishlash metodi o'ziga xos. Ular tarixiy manbalar bo'lish bilan bir qatorda til taraqqiyotining muayyan bosqichini aks ettiradi, filologik tadqiqotlar uchun ham ob'ekt hisoblanadi. Berestashunoslik tadqiqotlarning natijalari sohalararo universal xususiyatga ega. Umuman berestalogiya tarixiy manbashunoslik uchun muhim soha hisoblanib, hozirgi zamon manbashunosligida alohida o'ringa ega.

Bonistika – bu yordamchi tarix sohasi muomaladan chiqib ketgan pul birliklari va pul qiymati vazifasini o'tovchi qog'oz belgilar tadqiqoti bilan shug'ullanadi. Bonistika qog'ozda ifodalangan pul birliklarining jahon miqyosidagi tarixini, sitemali ravishda o'rganadi. Bonistika bir tamondan iqtisodiy jarayonlarni, ikkinchi tomondan esa siyosiy munosabatlarni o'rganishga yordam beradi. Ma'lumki, ekvivalent qiymat ma'nosida shartli qog'oz beligilaridan foydalanish tajribasi o'rta asrlarda bir qator mamlakatlarda ishlatilgan, Jumladan, Xitoyda chingiziylardan Xulagu davrida qog'oz pul joriy etish tajribasi amalga oshirilgan. Qog'oz pul birliklarini kolleksiya qilish va ular bilan savdo qilish faoliyati ham bonistika deb ataladi. Tarixda bonistika bilan shug'ullanish Xitoy bilan bog'liq hisoblanadi. Biroq, qog'oz pullarni yig'ish bonistik harakati 1940 yillardan boshlangan deb hisoblanadi. Ayniqsa, 1970 yillarda bu soha maxsus kasb yo'nalishi darajasiga yetdi. Eskiliklarni yig'ishning maxsus sohasiga aylandi. Qo'shma Shtatlarda, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarda bonistik katologlar nashrlari paydo bo'ldi. Bu hol bonistikaning rasmiy sohaga aylanganini ko'rsatadi. 1961 yilda «Xalqaro banknotlar uyushmasi» paydo bo'ldi, bu uyushma bonistlar faoliyatini muvofiqlashtirib turadi. Hozirgi kunda 10 minglab bonistlar uyushma a'zosisdir. Har uch oyda bonistlar o'zlarining ilmiy jurnalini chiqarib turadi. Bonistikaning tashabbuskori Albert

Pik bo'lib, dastlabki bonistik kataloglarning muallifi. Bu bonist, bonistika-ning ahamiyati va ilmiy maqsadlarini tushuntirib bergan. Albert Pik dunyo qog'oz pullarining standart katalogining ham muallifidir. Katalog uch jilddan iborat kitob holdida nashrdan chiqqan. Jahon miqyosidagi qog'oz pullarning namunalari ushbu katalogga kiritilgan. Bonistika bu (fransuzcha-»bonistiques») so'zidan olingan bo'lib – «qog'oz pullar degan ma'noni anglatadi. Bu tushuncha XX asrning boshlarida paydo bo'lgan va Numizmatika fanining chambarchas bir bo'lagiga aylandi. Qog'oz pullardagi yozuvlarni ham aynan «bonistika» o'rganadi. Dunyodagi eng qadimgi birinchi qog'oz pullar Xitoyda paydo bo'lganligi tarixdan bizga ma'lum. Biroq dunyoda qog'oz pullarni muntazam o'rganish 1940 yildan boshlandi. Bonistika mustaqil tarmoq sifatida ajralib chiqishi 1970 yilda yuz berdi va bu sohada tub burilish bo'ldi. Shu bilan birga bonistikani rivojlantirishda AQSH, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarning o'rni beqiyosdir.

Pullar 3 xususiyatga bo'linadi.

1-xususiyati : pul hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim harid vositasi.

2-xususiyati: pulni ayrim hududlarda boylik timsoli sifatida qarashar ekan.

3-xususiyati: pulni ba'zi hududlarda mehnatni qiymat shaklida o'lchab beradigan vosita sifati kabi xususiyatlarga bo'lishgan.

Pullar hamma vaqt ham qog'oz va metall ko'rinishida bo'lavermagan. Insoniyat tarixida pul sifatida quyidagilardan foydalanishgan: oltin, kumush, turli mahsulotlar, hayvonlar va hatto odamlarni ham ayirboshlashgan. Masalan XX asrgacha Xitoy va Birmada pul sifatida tuz, ipak va plita shaklidagi choydan, qadimiy Meksikada kakao no'xotlaridan, Janubiy-Sharqiy Osiyodan opiydan foydalanishgan. Qadimgi asteklar hayvonlarning suyaklarini pul o'rnida qo'llashgan, Nigeriya, Sudan va boshqa ba'zi mamlakatlarda esa «kauri» dengiz chig'anoqlarini qo'llashgan. Sharqiy slavyanlar arablar bilan savdo-sotiqalarda suvsar mo'ynasidan foydalanishgan. Qadimgi Gretsiyada risoladagidek pullar muomalada bo'lganiga qaramay Spartada pul sifatida atayin qo'pol va o'xshovsiz temir xivchindan foydalanilgan, sababi shuki, kamroq o'g'rilik qilishi va kamroq pora berishi uchun o'ylab topilgandi. Bundan tashqari spartaliklarning boylikka intilmasliklari uchun ham o'ylab topilgan bir siyosat deb qarashimiz mumkin.

Faleristika – yordamchi tarix sohasi bo‘lib, ordenlar, medallar va barcha turdagi ko‘krak nishonlarni yig‘ish va ularni tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. Faleristika hurmat belgilari, yubileyar munosabatalari bilan chiqarilgan medallar, o‘quv muassalarni tugatganligi haqidagi nishonlarni ham yig‘ib o‘rganadi. Faleristika ushbu turli-tuman nishon belgilarining paydo bo‘lish tarixi va ularning materialini ham o‘rganadi. Nishonlardagi ramziy belgilarning ma‘nosini aniqlaydi. Faleristika ko‘p jihatdan ijtimoiy-siyosiy voqealarning moddiy ifodalari asosida ish yuritadi. Faleristika— so‘zi yunon tilidan o‘tib bizgacha kelgan, ma‘nosi «harbiy darajalarni farqlashga xizmat qiluvchi belgilar va bezaklar» demakdir. Aksari bu toifa bezaklar metall asosida yaratiladi. Masalan, legionerlarining xizmatlari darajasida beriladigan turli taqinchoq belgilari, faleralar deb atalgan rus tiliga bu atama mukofotshunoslik bo‘yicha mutaxassis R.V. Sheyn tomonidan joriy etilgan va bu mutaxassis faleristikani numizmatikaning singlisi deb atagan. Bugungi kunda yurtimizda mustaqillik davri mukofot nishonlari «O‘zbekiston Qahramoni», «Amir Temur» «Buyuk xizmatlari uchun», «Do‘stlik», «Jasorat» ordenlari, «Shuhrat», «Mehnat shuhrati» medallari va boshqa turli ko‘krak nishonlari faleristika ob‘ektlari sifatida tarix manbalari bo‘lishi mumkin.

Veksellologiya – yordamchi tarix sohasi bo‘lib, bayroqlar, tug‘lar, alamlar, vimpellar (avliyo valiylarning tayoqqa ilingan bayrog‘i, so‘fiylarning bayroqchalari)ni o‘rganadi. Veksellologiya – bayroq ma‘nosini ifodalab, Rim legionlarining bayrag‘i nomdan olingan. 1960 yillardan boshlab Amerika va Yevropa davlatlari veksellologiyaga qiziqish kuchayib bordi. Bu sohani yoritish uchun bir qancha maxsus vaqtli nashrlar yuzaga keldi. Masalan, Chexiyada «Veksellologiya», Amerikada «Flag bulletin», Angliyada «Flags master» nashr etila boshladi. Amerikalik Uitni Smit ismli veksellolog nashr etgan kitoblar juda mashhur. Bular bir qancha yevropa tillariga tarjimalar qilingan. Sohibqiron Amir Temurga pirlari Mir Sayyib Baraka topshirgan bayroq, musulmon dunyosining turli bayroqlari, jahon miqyosidagi barcha davlatlarning bayroqlari, siyosiy xaritalarga ilova qilinadigan bayroqlar shular jumlasidan. Turk dunyoning tarixiy bayroqlari.

Emblematika – yordamchi tarix fani bo‘lib, emblema yunoncha so‘z bo‘lib, «bo‘rtma tasvir yo qadam usuldagi tasvir» ma‘nosini ifodalaydi. Ushbu fan ramziy, shartli tasviriy materiallarni o‘rganish bilan shug‘ul-

lanadi. Bu shunchaki tasvir ifodalari emas, muayyan shartli ma'no ifodalovchi bo'rtma tasvirlar va plastik shakllardan iborat bo'lib, ular maxsus tizimli ravishda o'rganishni talab qiluvchi sohaga aylangan. Emblematika atamasi bezak ma'nosini ifodalaydi, ayniqsa bu bezaklar inkrustatsiya (qadama usul) bilan yaratilgan hollarda emblematika metodi qo'llanadi. Keyinchalik emblematika inkrustatsiya qilingan bezaklardan tashqari bo'rtma tasvirlarni ham qamrab oladigan bo'ldi. Keyingi paytlarda turli ishlab chiqarish sohasining belgilari hisoblanmish logotiplar ham emblematika sohasining predmetga aylandi. Savdo belgilari, ishlab-chiqaruvchi korxonaga belgisi, brend belgilari emblematika tomonidan o'rganiladi. Logotip atamasi yunoncha logos «so'z», tipos «iz» (otpechatok) ma'nosini ifodalab, o'zi ifodalagan so'zni ko'rsatuvchi predmet hisoblanadi. Emblematika sohasi vesellologiya, gerldika kabi sohalar bilan hamkorlikda ish ko'radi.

Qadimgi Yunonistonda hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi hamda savdo ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar e'tiborga loyiqdir. Ularda aks etgan har bir shakl va belgilar tasvirlangan. Keyinchalik o'rta asrlar Yevropasida sexlar tashkil topib, qalqon shaklidagi o'z ramzlariga ega bo'lganlar. Bu belgilar asta sekin davlat ramzlari sifatida foydalanila boshlaganlar. Emblematika bu ramzlarni kelib chiqishi va ularning rivojlanishi bugungi kundagi tutgan o'rni shuningdek, ularning ma'nosini va tasvirlarini izohlashda ishlatiladi. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki emblematika va geraldika fanlari bir –biriga yaqin fan hisoblanadi. Emblematika o'z navbatida biror bir sohani ramzi bo'lib qolmasdan balki uni reklamasi ham hisoblanadi.

Filokartiya – yordamchi tarix sohasi sifatida otkritka kartochkalari o'rganish bilan shug'ullanadi. Ularda tarixiy voqea-hodisalar aks etгани uchun muhim ahamiyatga ega. Filakartiya atamasi yunoncha «fileo» sevish, karte «kartochka» demakdir. Filokartistlar pochta kartalari, tabrik kartochkalari singari narsalarni to'plash, tizimga solish va tadqiq ishlari bilan shug'ullanadilar. Eng birinchi ochiq kartochka (otkritka) 1869 yilda pochta orqali jo'natilgan. 1875 yilda esa, «Jahon pochталari ittifoqi» tashkiloti o'z a'zolari bo'lgan mamlakatlarga 231,5 mln dona ochiq xatlar jo'natgan. Dastlab filokartiya tomoshabop tasvirlar, etnografik lavhalar tasvirlangan kartochkalarni yig'ishdan boshlangan. Bular, turli mintaqa xalqlarini yer yuzasi tabiati, xalqlarning turmush tarzi, madaniyati bilan oshno qilishga mo'ljallangan. Filokartiya tasviriy san'atning mashhur na-

«Xarvor» – «Eshak yuki». Markaziy Osiyoda tekislik va tog'lik **tu-**manlarida qayd etilgan og'irlik o'lchov birligi bo'lib, yer maydonlarini o'lchashda foydalanilgan.

«Chak» – U turli joylarda turlicha bo'lgan. Kosonsoyda (Farg'ona) 432 (18 x 24) kv.gaz = 1 asba kaimasi 12 kabza (110–112 sm). Bundan kelib chiqdiki Koson chaki = 350 kv.m.ga teng.

«Choryak» – Markaziy Osiyoda keng tarqalgan og'irlik o'lchov birligi. Shuningdek, yer maydonini o'lchashda ham foydalanilgan. Uning o'lchami turlicha bo'lgan.

II.2. Og'irlik birliklari va hajm birliklari

«Ambun» -Sochma mahsulot o'lchov birligi. O'rta asrlar G'arbiy **Po-**mir hududlarining huquqiy hujjatlarida tez-tez uchrab turgan. Etnografik ma'lumotlar asosida uning klomi belgilangan. Xufa va Rushanda «ambun» 24 «rastoy»ga teng bo'lgan. Rossiya bosqinigacha «ambuna» 78-79 kg atrofida, bosqindan so'ng esa 98.28 kgga teng bo'lgan. Shug'nonda esa 144 kgga teng bo'lgan.

«Ag'ri» – XIX asrda Xorazm va uning shaharlarida qo'llanilgan, 62.5 g teng bo'lgan og'irlik birligi. Ag'ir Buxoroning 12.5 misqoliga (5,0 g) teng, mahalliy Xorazm birligida esa – 13 misqol (4.53 g dan) va 80 arpos (0,045 g) ga teng.

«G'aribak» – Markaziy Osiyoning qator shahar va viloyatlari (Samarqand, O'rta tepa, Shahrisabz va b.) da XIX asr manbalariga ko'ra yirik «mayin» tizimdagi eng kichik birliklardan biri bo'lgan. etnografik ma'lumotlarga ko'ra, g'aribak Dashti Jumada (Panj vodiysi) 500 gr.ga, Obi Garshda esa 2,536 kg.ga teng bo'lgan. Bu birlik Kuldbdan o'zlash-tirilgan.

«Chitcha» – XIX asr Toshkent mann tizimida chitcha uning 1/1024 qismini tashkil etgan. Toshkent jomi = 10,5 pud. 171,995 kg. Shunga ko'ra 1 chitcha = 168 g.

«Dong» -Bu atama har qanday og'irlikning 1/6ni ifodalashda ishlatiladi. (Shuning bilan uzunlik va yuzaga ham) Buxoroda 4,8 misqol 0,8 dongga teng Xorazmda XIV–XIX asrda 4,53-4,55 g ~ 0,76 g dongga teng bo'lgan.

«Daxsir» – Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda daxsir (10 sir) man tizimidagi birlik sifatida qayd etilib, uning ¼ qismini tashkil etgan.

riq kiyimlilar, Eronda qizilboshlar, Yevropada kamezollar harakati, tizimli armiyalarning xos kiyimlari va pog'onalashgan farqlantiruvchi kiyimlari shular jumlasidan. Shu jumladan grajdanlik xizmat uniformalari, ya'mi davlat xizmatchilarining maxsus kiyimlari ham shu soha vakillari tomondan o'rganiladi.

Arxontologiya – yordamchi tarix fani bo'lib, jamiyatdagi lavozimlar tarixi bilan shug'ullanadi. Davlat lavozimlari, ijtimoiy sohalar lavozimlari, harbiy, diniy, ma'muriy lavozimlar va ularning vazifasini ifodalaydi. Shunday qilib arxontologiya lavozimlarning joriy etilish xronologiyasi, lavozimlarning almashish ketma-ketligi, lavozim egalarining kelib chiqishi, biografiyasi va boshqa ma'lumotlarni tizimli ravishda o'rganadi.

Arxontologiya ishida hukmdorlarning nomlarini, sulolalar nomlarini, yilnomalarga asos qilish odati tarixda ko'p uchraydi. Rim konsullari, Xitoy imperatorlari va ularning sulolalari, Angliya monarxlari, Yaponiya imperatorlari, Sug'd podsholarining eralari va ularning lavozim darajalari bilan bog'liq yil hisoblari shular jumlasidandir. Arxontologiyaning shu tarzda maksimal darajada aniq ma'lumotlar asosida tuzgan xronologiya jadvallari ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manbaga aylanadi. Siyosiy-ijtimoiy tarkibiy tuzilmalar, davlat hokimiyati, xalqaro tashkilotlar, diniy institutlar, xo'jalik tizimi lavozimlari tarixini o'rganuvchi yordamchi tarix ilmiy sohasi. Sohaning ob'ekti lavozimlardagi shaxslar, ularning almashinuv xronologiyasi, lavozim egalarining biografiyasi, shaxsiyati bilan bog'liq turli ma'lumotlar, yilnomachilik an'alarida lavozim egalari ismlaridan foydalanish keng tarqalgan. Qadimgi yunonlar, rimliklar, uzoq sharq xalqlari, o'rta asr Evropa xronologiyasi va boshqalarda podsholik muddatlari, qirollar va imperatorlar nomlari orqali yuritib kelingan. Markaziy Osiyo arxontologiyasi misollarini «Shajarai Xorazmshohiy», «Tarixi mang'ituya», «Ubaydullanoma» kabilarda ko'rish mumkin.

Masalan: dodhoh, devonbegi, qutvol, berux, qapig', amir ul-umaro, eltabar, shad, bakovul, yasovul, udaychi, dasturxonchi, jarchi, mirob, shotir.

Arxeoastronomiya – yordamchi tarix sohasi bo'lib, yunoncha «arxe» qadimgi, boshlang'ich davri, «astron» yulduz, nomos «qonun» degan so'zlarni ifodalaydi. Bu soha XX asrning 2-yarmida shakllangan fan sohasidir. Bu soha qadimgi odamlarning astronomik tasavvurlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Arxeologiya bilan hamkorlikda arxeoastronomiya qazishmalardan topilgan moddiy yodgorliklarda aks etgan astronomik belgi-

lar ma'nolarini o'rganadi. Bu sohaning ikkinchi tarmog'i etnoastronomiya deb ataladi. Bu soha qadimgi xalqlarining kosmologik va kosmogonik tasavvurlarini o'rganadi. Bu o'rinda kosmologiya – koinotshunoslik ma'nosiga ega. Kosmogoniya esa, olamning yaralishi haqidagi tasavvurlardir. Masalan, «Avesto»da, «olam bo'shliq edi, so'ngra ezgu va yovuz narsalar yaraldi va qorishib ketdi, xaos bo'ldi. Undan ezgulik dunyosi ajraldi va yovuzlik bilan yuzma-yuz keldi.» Olamning istiqboli yovuzlikning istiqboli, ezgulikning g'olib kelishidan iborat utopib qarashdir. Abadiy «oltin asr» tushunchasi insoniyat erishishi lozim darajadir. Arxeoastronomiya mazkur tasavvurlarni xalq og'zaki ijodidan ham qidiradi.

Arxeoastronomiya paleoastronomiya sohasi bilan hamkorlik qiladi. Paleoastronomiya – qadimgi astronomik hodisalar bilan shug'ullanadi, astronomik hodisalarning yerda va jamiyat hayotiga ta'sirini o'rganadi. Ushbu fan sohasi tarix fanlari, din tarixi, etnologiya, tilshunoslik, qadimiyat iqlimshunosligi (paleoklimatologiya) sohalarining ma'lumotlarini boyitadi.

Arxeoastronomiya aslida bo'lingan, yani qadimiy arxeologik qadimiy folklor va etnografik ma'lumotlar va qadimiy rasmlarni o'rganish bilan kosmologik va falakkiyotga oid fikr aniqlash, yodgorliklarni va qadimiy asarlar, ularning astranomik ahamiyatini o'rgangan. Arxeoastronomiya, o'z navbatida, qadimgi astronomik voqealarni o'rganadigan paleoastronomiyaning kengroq qismlaridan biridir, arxeoastronomiya olingan natijalar sifatida arxeologiya va astronomiya, din tarixi, etnologiya, tilshunoslik, paleoklimatologiyalar bilan bog'liq. Arxeoastronomiyaning asoschisi ingliz astronomi J.Hawkins hisoblanadi u Megalit observatoriyasi orqali Stounhengni o'rgangan. Shimoliy g'arbiy Yevropada bunday ob'ektlar ko'p. Ular bir necha tosh doiralari (cromlechs)lardan iborat bo'lgan. Karnak yaqinidagi (Fransiya) kompleks Stounheng bilan juda o'xshash. Xuddi shunday qadimiy astronomik tuzilmalar Oq Iyus daryosi vodiysida (Xakasiya) va Metzmir (Yerevan) yaqinidan topilgan. Stounheng-Uiltshir, Angilyadagi megalitik haykali. U 130 kilometr Londondan janubi-g'arbda joylashgan. U dunyodagi eng mashhur arxeologik ob'ektlardan biri hisoblanadi. Stounheng 1986 yildan buyon UNESCO Butunjahon merosiga kiritilgan.

Nekropolistika – yordamchi tarix sohasi sifatida asosan qabristonlar bilan shug'ullanadi. Mozorlarning tavsifi, qabrlarning tuzilishi, ularning

saqlanish holati kabilar sohaning ob'ektidir. Arxeologiya nekropolistika qadimiy qabrlarni ochib, ularning tarkibiy tuzilishini, unda yotgan mayitlarning suyak qoldiqlari, dafn usullari, mayitlarni hamroh qilib qo'yilgan ashyolar kabi masalalarni o'rganadi. Qabrlar va qabristonlarning tasnifini qiladi: qabr qo'rg'onlar, chohsimon qabrlar, katakombalar, ayvonli lahad qabrlar, yog'oq srub qabrlari (yo'nilgan yog'ochlar), choh tubida tokchali qabrlar va hokazolar. Katakomba (uzoqdan gumbaz, ammo mayit yo'q, yo'lak va ichkarida mayit joylashtirish). O'zbekistonda ko'plab nekropollar qazib o'rganilgan. Mezdahkan ossuariy nekropoli (Xorazm), Jarqo'ton-Bo'ston nekropoli (Surxondaryo), Darg'om orti Sazag'on qo'rg'on qabrlari, Jizzax-Zamin qo'rg'on-qabrlari (mayitning ustini katta do'ng qilish holati), Dashli kopleksi qabrlari va boshqalar. Nekropolistika yuqoridagilar singari boshqa sohalar bilan aloqadordir.

Stavrografiya – Xristian dinining asosiy ramzi hisoblanmish yog'ochdan yasalgan krest (xoch) va undagi tasvirlar, ramziy belgilar tarixi bilan shunullanadigan yordamchi tarix ilmiy-amaliy sohasi. Rossiyaning 19 asr boshlarida yashab ijod qilgan olimlari va ruhoniylari asos solishgan. Rus tilida bu fan sohasi – Ikonografiya kresta deb ataladi. Stavrografiyaning shakllanishi va rivojida Arximendr, Makariy (Mirolyubov), Kiev ruhoni akademiyasi professori I.I. Malishevskiy, slavist filologlar S. Palmov, M.I. Speranskiy, arxeolog graf A.S. Uvarov, Sankt-Peterburg universiteti professori I.A. Shlyapkin, Sankt-Peterburg diniy akademiyasi professori N.V. Pokrovskiy, avliyo Ioann Kronshtatskiy, kolleksioner er-xotin B.I. Xanenkolar alohida xizmat qilishgan. XX asrga kelganda stavrografiya yordamchi tarix mustaqil sohasi sifatida to'la shakllandi. Stavrografiya ilohiyot yo'nalishi uchun hamda tarixiy manbashunoslik uchun xizmat qiladigan fanga aylandi. Hayotbaxsh xochning cherkov rivoyatlari va xoch bilan bog'liq turli mo'jizalar tarixi ruhoniyot yuzasidan o'rganilgan. Manbashunoslik jihatdan esa cherkov arxeologiyasi, epigrafika, etnografiya, madaniyat tarixi va ikonografiya sohalarini uchun manba ma'lumotlarini yetishtirib beradi.

Stavrografiya fan sifatida XIX asrda rus olimi va rohibi Krest Xristov tomonidan ilm olamiga olib kirdi. Bu fan yordamchi tarixiy fanlarning bir sohasi hisoblanib unda asosan xristian dinidagi diniy belgilari va ikonalar o'rganiladi.

XX asrning boshlarida stravrografiya tarix faning yordamchi tarmog'ı sifatida o'rganila boshlandi va ikki asosiy tarmog'ga bo'lindi:

1. Ilohiy yo'nalish (cherkov rivoyatlari va afsonalarini o'rganadi)
2. Tarixiy yo'nalish

1917-yildagi inqilob tufayli cherkovning davlatdan ajratilishi sababli stravragrafiya bo'lgan e'tibor tezda o'zgardi, ya'ni fanga intilish anchagina sekinlashdi. Keyinchalik XX asr oxiriga kelib fanga yana qiziqish paydo bo'ldi. Buning asosiy sababi bu fan o'rganadigan narsalar tarixning qaysidir jihatlarini ochib berishda qo'shayotgan hissassi nihoyatda katta ekanligi ma'lum bo'ldi.

Ikona-bu asosan tasvirlarni o'z ichiga oladi ularda asosan Iso payg'ambar va Bibi Maryam (Madonna) tasvirlari tushirilgan holatda bezatiladi. Ular asosan cherkovlarda ko'pincha Vitraj shaklida ko'plab saqlanib qolgan.

Medalerika – turli xil tarixiy va hozirgi zamon ko'krak nishonlari, medallar tarixini o'rganadigan fan sohasidir. Bu soha medal yasash hunarmandchiligi, medalda aks etuvchi san'at masalalarini ham o'rganadi. Medallarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Medalerika san'ati tarixda tanga paydo bo'lishi bilan birga miloddan avvalgi VIII-VII asrlardan boshlangan. Medallarning joriy etilishi, ular bilan mukofotlash munosabati bilan bog'liq voqea-hodisalarni tadqiq etadi. Mukofotlangan shaxslarning faoliyati, jamiyat hayotidagi o'rni tadqiq etadi. Medal yasovchi ustalarning faoliyatini, texnik va san'at tomonidan baholaydi. Medalerika an'anaga ko'ra numizmtika sohasi bilan birga qaralar edi. XX asr o'rtalarida bu soha mustaqil yordami tarix fanlari qatoriga kiritildi. Rossiyada medalerika Yu.A. Barshteyn, K.V. Golenko, Yu.L. Danilenko, Ye.S. Smirnova, A.V. Shaten, A.S. Shkurko kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi. Medalerika sohasiga mutaxassis tayyorlash masalasi muammo bo'lib qolmoqda. Bu sohaga maxsus o'qitadigan muassasa yo'q. O'zbekistonda ham ahvol shunday. Maxsus zarbxonada tangalar, turli xil jetonlar, orden va medallar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan, biroq, soha mutaxassislariga ehtiyoj katta. Medal so'zi fransuzcha «medaille», italyan-cha «medaglia» so'zidan olingan bo'lib, ifoda etilgan «nishon» ma'nosini ifodalaydi. Medallar plastinka (parrak), yumaloq, tuxumsimon va boshqa shakllarda yasalgan. Ularning bir tomonida, ba'zan ikki tomon yuzasida tasvirlar tushirilgan. Medal ko'pqirra shaklda bo'lsa, bu «plaketka» de-

yiladi. Medallar mukofot, badiiy, muhim sanalar munosabati bilan chiqarilgan turlarga ajratiladi. XVII asrdan medal zarb qilish davlat nazoratiga olingan, yurtimizda ham medalerika davlat nazoratiga olingan.

Medalerikani biz numizmatikani bir tarmog' i sifatida bilishimiz mumkin. Medalirikani tarixiga nazar soladigan bolsak, dastlab mill avv VII asrda qadimgi Rimda ilk tangalar zarb qilingandan boshlab bu sohaga tamal toshlari qo'yilgan desak bo'ladi. Dastlab shimoiy Italiyada medalga o'xshash figuralar paydo bolgan, lekin ular hech qanday qiymatga ega bo'lma-gan. Shunday qilib 1390-yilda Paudi shahri egallanadi, usta Franchesko Karrari yodgorlik sifatida dastlabki medalni tayyorlaydi. XVI asrdan boshlab medallar maxsus shaklga ega bo'ldi. XVI–XVII asrlardan boshlab Niderlandiya, Angliya va qator Germaniya knyazliklarida shakl berilgan medallar tayyorlana boshlandi. Butun XVIII asr mobaynida medallar tarixiy yodgorlik vazifasini o'tay boshladi. Keyinchalik medalarni qirollar, knyazlar tomonidan mukofot sifatida taqdim etila boshlndi. Rus va ukrain medalsozlik san'ati Kiyev Rusida dastlab X asrda paydo bo'ldi. 1469-yilda Buyuk knyaz Ivan III Qozon xonligi o'rdasi bilan bo'lgan kurashda ko'rsatgan mardligi va jasorati uchun o'zining rasmi tushirilgan maxsus oltin tangani mukofot sifatida qomondonlarini taqdirladi.1605 yil Moskvada chiqarilgan buyrug'a ko'ra Sandomirlik yoki Krakovlik medalsoz ustalar tomonidan muxrlanadigan medallar tayyorlangan.

Harbiy medallar kelib chiqish tarixi taqdim etish usullari, ularni ahamiyatini o'rganuvchi medalerikani bir tarmog' i bo'lib bu bo'lim – *faleris-tika* deb ataladi.

Tarixiy informatika – tarix fani va ta'limini axborotlashtirish jara-yoni qonuniyatlarini o'rganuvchi bilimlar sohasidir. Tarixiy informatika asosida barcha turdagi tarixiy manbalarining elektron versiyalarini yaratish uchun zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlar majmuasi yotadi. Tarixiy informatikaning nazariy asosini zamonaviy axborot kontseptsiyasi bilan ij-timoiy informatika va nazariy manbashunoslik tashkil etadi. Tarixiy infor-matika mazmunini aniqlashtirish uchun bu sohadagi bilimlarni 3 qismga ajratish mumkin. Ular:

1. Metonazariya
2. «O'rta darajadagi» nazariyalar
3. Mikro nazariyalar

Metonazariya axborot nazariy tushunchasining tarixiy tadqiqot masalalariga qo'llanilishi masalalari bilan shug'ullanadi. Axborot tushunchasi nuqtai nazaridan yondashuvchi 1-tadqiqotlar D. Kovalchenko tomonidan olib borilgan. Metanazariyaning boshqa aspekti 1948-yilda amerikalik K.Shennon tomonidan «Axborot miqdori» matematik tushunchasini kiritib asos solingan axborot nazariyasidir. Tarixiy informatikaning o'rta darajadagi nazariyalari sifatida tarixiy manbalar modellarini manbaga yo'naltirilgan tizimlarini qurish printsiplarini ko'rsatish mumkin. Tarixiy informatika mikronazariyalariga konkret manbalar tahlili algoritmlarni kiritish mumkin.

Tarixiy informatika mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash masalasi juda muhimdir. Gap shundaki, injener uchun bilimlarning 50 % eskirishi vaqti 5 yil, kimyogar uchun 4 yil, Tarixiy informatika mutaxassisi uchun 3 yilni tashkil etadi. Shuning uchun Angliyada tarixiy informatika bo'yicha mutaxassis tayorlashga kirishildi. O'tgan asrning 80–90 yillarida bilimlarning barcha jarayoniga kirib kelgan axborotlashtirish jarayoni tarix fanini chetlab o'tmadi. Tarixchilar kompyuterlardan foydalanibgina qolmay, tezlik bilan rivojlanayotgan dasturiy va texnik vositalar ularni tarixiy tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan vositaga aylantirdi. Bu esa tarixchi faoliyatida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlarini yaratdi.

Tarixiy geografiya XVI asrda alohida fan sifatida shakllandi. Uning fan sifatida shakllanishiga XV–XVI asrlardagi ikki yirik tarixiy voqea turtki bo'lgan:

1. Uyg'onish davri Renessansi
2. Buyuk geografik kashfiyotlar

Uyg'onish davrida ziyoli odamlarning qadimgi davrga, tarixga, geografiyaga bo'lgan qiziqishi ortdi. Buyuk geografik kashfiyotlarni (XV asr boshlari – XVI asr)ni amalga oshishiga asos bo'lib geografik bilimlar xizmat qildi. Odamlar, sayyohlar, tarixchilarning qadimgi davr geografiyasiga qiziqishi yanada kuchaydi.

Dastlabki, yirik asari bilan tarixiy geografiyaga asos solgan, qadimgi dunyoning 1-atlasini yaratgan flamand geografi A.Orteliy (XVI asr) bo'lib, u o'zining xaritasida har bir xaritaga qisqacha matn yozgan. U 1-bo'lib geografiyaga, «tarixchining ko'zi» bilan qaradi va «tarixiy geografiya» terminini fanga kiritdi. Biroq Orteliy kadimgi davr mualliflari geofafiyaning qanday yoritgan bo'lsalar, shundayligicha qabul qilgan, ularga tanqidiy

yondashmagan. Orteliy asaridagi kamchiliklar XVII asrda Gollandiyaning Len Den Universiteti professori F.Klyuverning tarixiy geografiyadan yaratgan «Qadimgi Italiya» va «Qadimgi Germaniya» nomli asarida tuzatilgan. Tarixiy geografiyaning rivojiga hissa koʻshgan fransuz geograflaridan J.B.D'Anvil boʻlib, u qadimgi davr geografiyasi bilan birga, oʻrta asrlar geografiyasini ham yoritgan.

XIX asrning 2-yarmidan boshlab, tarixiy va geografik asarlarning kengayishi tufayli, ijtimoiy-iqtisodiy tarixni rivojlanishi bilan tarixiy geografiyaning mazmuni ham kengaya boshlaydi. XIX asrda ruskulardan tarixiy geografiyaga asos solgan geograflar V.N. Tatshsev, I.N. Boltin, N.P. Barkovlardir. XX asr boshlarida bu fan Peterburg arxeologik institutida, Moskva universitetida oʻqitilgan. Tarixiy kartografiya fanining rivojida rus olimlari M. Tixomirov, V.K. Yasunskiy, I.A. Golubsov va boshqalar xizmat qilganlar.

Tarixiy kartografiya – ilmiy sohasining vazifasiga tarixiy karta va atlaslarni tuzish, ularni ishlab chiqish metodlarini oʻrganish kiradi. Tarixiy kartografiya tarix fanini oʻrganish va oʻqitishda katga ahamiyatga ega boʻlib, tarixiy kartalarni monografiya, kitoblar, oʻquv qoʻllanma, darslik va maqolalarda foydalanadilar. Tarixiy kartalarda mavzu va voqea-hodisalar, jarayonlarning mazmuni, davlatning chegaralari va boshqalar beriladi. Tarixiy kartalarning bir necha turlari bor: tarixiy iqtisodiy, tarixiy etnografik, arxeologik, tarixiy-siyosiy, harbiy-tarixiy, tarixiy-madaniy. Oʻquv tarixiy kartalari esa – oʻrta, oʻrta maxsus va oliy taʼlimda foydalanaladi. Kartalar hech qachon eskirmaydi. Eskirganlari ham oʻz qadrini yoʻqotmaydi. Ammo oʻsha davr tarixiga arxeologik izlanishlar yoki boshqa yozma manbalarning topilishi bilan yangi oʻzgarishlar kiritilishi mumkin boʻlsa-da, baribir oʻtgan davr tarixshunosligi haqida ham maʼlumot berish vazifasini oʻtaydi. Ularga qarab tanqidiy fikrni rivojlantirish ham mumkin.

Tarixiy-kartalarni yaratish kartografiyaning asosiy vazifasiga kirsam ham doimo tarixiy geografiya bilan chambarchas bogʻliqlikda rivojlanadi. 1579 yilda A.Orteliy geografik atlasga tarixiy kartalarni qoʻshdi. 1603 yilda esa fransuz kartografi J.B.D.Anvil tomonidan qadimiy davrdan to oʻzining davrigacha bir necha boʻlimli tarixiy kartalar paydo boʻldi. Orteliy va Anvil kartalarida turli mif va afsonalardan, Bibliyadan olingan syujetlar, turli xalqparning joylashuvi, chegaralar, harbiy harakatlar, turli sayohatlarning yoʻnalishlari va voqea-hodisalar boʻlgan geografik hududlari aks ettirildi.

XX asrda Jahonda harbiy va iqtisodiy kartalarni detallari bilan yaratilishi ularga ilmiy yondashuvni yanada kuchaytirdi. L.G. Beskrovskiy tomonidan 1946 yili rus harbiy tarixiga bag'ishlangan «Atlas kart i sxem po russkoy voennoy istorii» nomli atlas yaratilgan bo'lib, u Kiev rusidagi harbiy harakatlaradan to 1904–1905 yildagi Yapon urushi, Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan harbiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Yana tarixiy kartografiyada xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish tarmoqlarini aks ettirishga bag'ishlangan kartalar ham yaratilgan. Bu sohada rus kartografiyasi katta ilmiy yutuqlarga erishgan. Mustaqillik yillarida o'rta va o'rta maxsus ta'lim uchun mo'ljallangan O'zbekistonning qadimgi davrdan mustaqillik yillarigacha bo'lgan davri aks etgan tematik kartalar yaratilgan. Ammo oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim uchun tematik kartalar yaratilmagan. Ularning kattalashtirilgan shakllari yaratilmagan. Ularni yaratish hozirgi kundagi kartografiyaning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Genealogiya yunon tilidan olinib «avlodnoma», «nasabnoma» ma'no-larini anglatadi. Genealogiya fani qadimiy fanlardan hisoblanadi. Hamma vaqt va hamma zamonlarda u bu xonadondagi shaxsning genealogiyasi ko'pchilikni qiziqtirgan. Sharqda genealogiya arab tilida «shajara» deb tarjima qilingan va shu nom bilan mashhur bo'lgan. Qadim zamonlardan boshlab, hamma davru zamonlarda yuz bergan har xil voqealar, dehqonlar va qullar qo'zg'oloni, islohotlar, o'zaro urushlar, va h... voqealarda ham shajaralarning roli katta bo'lgan. Yevropa davlatlarida nikohdan oldin bo'lg'usi kelin yoki kuyov xonadoni shajarasi, albatta o'rganilgan. Ikkala xonadonning jamiyatda tutgan mavqeyi, shajaralari qadimiy va obro'li deb topilgandagina bu xonadonlarda nikoh bog'lanishi mumkin edi. Shuning uchun ham nikoh va qarindoshlik rishtalarini bog'lashdan oldin har bir oila o'zining nafaqat jamiyatda tutgan o'rni balki shajarasini ham yana bir karra yodga olishiga to'g'ri kelar edi. Shajara (arabcha... – daraxt), genealogiya – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmui. Uni tarix fanining bir tarmog'i- genealogiya fani o'rganadi. Podshoxlar, hukumdorlar, afsonaviy qahramonlarning nasl-nasabiga qiziqish qadim zamonlardayoq bo'lgan, lekin o'rta asrlarda shajara imtiyozli tabaqalarning paydo bo'lishi va ularning avlod-ajdodlarini rasmiylashtirishga qiziqishning kuchayishi bilan alohida kasb etgan. Bu o'z navbatida XV asrdan boshlab shajara o'rtasidagi nikoh aloqalari haqida guvohlik beruvchilarning paydo bo'lishga olib kelgan. Shu davrlardan urug' yoki

bir-biriga yaqin bir necha urug' a'zolarining nasl-nasab daftarlari tuzila boshladi.

Psixoistoriya – bu insonlarning o'zlarining tarixlarida ish harakatlarini bajarishdagi ruhiy intilishlarini o'rganadigan fan. Bu fan ilmiy fan hisoblanib urushdan keying yillarda Loyd Demos tomonidan fanga kiritilgan. L. Demosning aynan shu nomli kitobida Zigmun Freyding bir nechta fikrlarini ilgari suradi va bolalarga munosabatni turli xil davrlarga ajratib o'rganadi. Deymos bir-biriga qo'shilgan bu fanning sohalarini bir-biridan ajratib ko'rsatadi:

1. Bolalik tarixi
2. Psixobiografiya
3. Guruhlar psixoistoriyasi
4. Bolalik tarixi quyidagi savollarni o'rgatadi:
5. Bolalar qay holatda ulg'ayishgan?
6. Oila qanday qurilgan?
7. Odatlar nimaga va qanday o'zgargan?
8. Bolalarning jamiyatdagi o'rni.
9. Bolalarga munosabat ularni qanday chorlashgan.

Kliometrika – iqtisodiy tarixni o'rganishda amal qiladigan yordamchi tarix sohasidir. Bu soha tarix tadqiqotlarida iqtisodiyot tarixi metodlaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Kengroq ma'noda kliometrika matematik usullar bilan tarix tadqiqotlari metodlarini birgalikda qo'llaydi. Boshqacha aytganda bu usulni «kvantativ tarix» deb atash mumkin. 1960 yillarda kliometrika yordamchi tarix sohasi bo'lib yuzaga keldi. Bu atama «Journal of Economic History» nomli ilmiy jurnalda o'sha yilda paydo bo'ldi. 1993 yilda mazkur jurnal muharrirlari Duglas Nort, Robert Fogel kliometrika sohasidagi turkum ishlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lishgan.

Mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. «Stavrografiya» yordamchi tarix sohasi nimani o'ganadi?
2. «Medalerika» yordamchi tarix sohasi nimani o'ganadi?
3. «Nekropolistika» yordamchi tarix sohasi nimani o'ganadi?
4. «Arxontologiya» yordamchi tarix sohasi nimani o'ganadi?
5. «Filumeniya» yordamchi tarix sohasi nimani o'ganadi?

Mustaqil ta'lim topshiriqlari

1. Paleografiya sohasining predmeti vazifalari va ahamiyati
2. Markaziy Osiyoning eng qadimgi tangalari
3. Markaziy Osiyoda Yunon-Boxtar davri tangalari
4. Kushonlar davri numizmatikasi
5. Xorazmda Afrig'iylar davri numizmatikasi
6. Qadimgi Parfiya tangalari
7. Ilk o'rta asr Sug'd markaziy va mahalliy pul emissiyalari
8. Choch va Farg'ona numizmatikasi
9. Buyuk ipak yo'li va numizmatikasi
10. Islom davri Markaziy Osiyo numizmatikasi
11. Numizmatika va siyosiy tarix
12. Numizmatika va iqtisodiy munosabatlar tarixi
13. Epigrafik yodgorliklarning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati
14. Sfragistika va geraldika materiallarining tarixiy tahlili va ahamiyati
15. Berestologiya
16. Tarixiy informatika
17. Dendroxronologiya
18. Veksillologiya
19. Prosopografiya
20. Filokartiya
21. Kodikalogiya
22. Faleristika
23. Antroponimika
24. Bonistika
25. Tarixiy psixologiya
26. Qadimgi misr kalendari
27. Yulian kalendari
28. Grigoryan kalendari
29. Umar Hayom kalendari
30. Qadimgi yahudiy kalendari
31. Musulmon kalendarlari
32. Qadimgi slavyan kalendarlari
33. Markaziy Osiyoda vaqt hisoblari tarixi haqida

GLOSSARIY:

Akr – (ingl. acre, fr. acre, lot. ager, kelt. acre – maydon) – yer o'lchov birligi bo'lib, Britan davlatlarida muomalada jumladan, Angliya, AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa davlatlar. 1 akr = 4840 kvadrat yard = 4046,86 m². Akr Angliyada yer o'lchov birligi sifatida 899 kvadrat sajenga teng. Lekin, Fransiyada 1 akr har xil o'lmachga ega, Germaniyada 1 akr = 1126,5 kvadrat sajenni ifodalaydi.

Arpa doni – (fors. Donai jav, arab. sha'ira) – og'irlik o'lchovi. Ming dona arpa og'irligi 40,9510 – 40.9514 gramm bo'lgani uchun, 1 dona arpaning og'irligi o'rtacha 0.0409512 gramm deb olingan. Shunda misqol = 100 A.d. = 4.0912 gramm bo'lgan. Hozirda 1 arpa doni 0.048 dan 0.052 gramga teng deb qabul qilinmoqda. Uzunlik o'lchovi sifatida 1 A.d. = 1/6 barmoq = 6 ishchi ot yoliga teng. Agar 1 barmoq 2.18 – 2.28 santimetrga teng bo'lsa, u holda, 1 arpa doni = 0.36 – 0.38 santimetr.

Angusht – (fors. barmoq) – qadimgi uzunlik birligi; Markaziy Osiyo xalqlari orasida qo'llanilgan; aynan barmoqning o'zi.

Aruzza (arab. – guruch doni) – dinorning 1/240 bo'lagiga teng og'irlik, 0.0186 gramm (agarda dinor o'z og'irligi, ya'ni 4.464 grammga teng bo'lma). Aruzza «guruch doni» (donai birinj) deb ham ataladi.

Ag'ra (turk.) – og'irlik va yuza o'lchov birligi. Xivada qo'llanilgan. XIX asrda Xorazmda 1 ag'ra 58.89 gramm bo'lgan, zero, Xorazmning 1 misqoli 4.54 gramm. Shunda 1 ag'ra = 13 misqol = 13x 4.53 = 58.89 gramm. Yuza o'lchovi birligi sifatida 1 ag'ra tanobning 320 bo'lagidan bir bo'lagiga teng. Ba'zan 40 ag'ra tanobning 8 dan bir bo'lagiga teng kelgan. Agar 1 gaz = 71 santimetr bo'yicha hisoblangan tanob qiymati 1814,76 m² ni olsak, unda 1A. = 1/320 tanob = 1/320 1814.76 = 5.671125 m² = 5.671 m² Agarda 40 A. = 1/8 tanob = 1/8x 1814.76 = 226.845 m². Bu holda 1A. = 5.671 m² chiqadi.

Bab, nab – (arab.) – Qadimgi Sharq xalqlarida ishlatilgan uzunlik o'lchov birligi, 3,99 metrga teng.

Baladiy ziro' (arab. az-zira al-baladiy) – 58,26 (57,57) santimetrga teng uzunlik o'lchovi.

Ba' (arab.) – qiymati 1,995 metrdan 2 metrgacha uzunlik o'lchovi (Misrda 3 metrga teng).

Bahor (fors) – og'irlik o'lchovi sifatida kichigi 229 kilogramga, kattasi 422 kilogramga teng. 207,4 kilogramli turi ham bor. MakQadimgia 1 B. 183,7 kilogrammga, Janubiy Eronda 218 kilogramga teng.

Bezmen (rus.) – Rossiyada XVI–XVII asrlarda og'irlik o'lchov birligi, 2.5 funtga teng. 1 B. = 1/16 pud = 1,022 kilogramm.

Berkoves (rus.) – rus og'irlik o'lchov birligi, 10 pudga (163,8 kilogramm) teng bo'lgan.

Birema (yunon. birema) – antik davrda Oʻrta yer dengizi havzasida keng tarqalgan ikki qator eshkakli harbiy kema. Uzunligi 30-38 metr, suv sigʻimi 60-100 tonna boʻlgan. Finikiya, yunonlar va rimliklarda juda ommaviy edi.

Bolish (turk.) – 1) moʻgʻullar va qisman turklar orasida (XIII–XIV asrlar) muomalada boʻlgan tilla va kumush pul. Baʼzi manbalarda 75 dinorga, baʼzilarida 300 dinorga teng deb koʻrsatiladi. Vazni 150-600 misqol boʻlgan; 2) Moʻgʻullar davlatida pul birligi oʻrnida yurgan oltin yoki kumush yombi. Chigʻatoy davrida (XIII asr) 1 bolish 300 dinorga, baʼzi hollarda 500 misqolga teng boʻlgan.

Botmon, mann (arab.) – ogʻirlik oʻlchov birligi. Yaqin va Oʻrta Sharq mamlakatlari (Arabiston, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Hindiston)da, shuningdek, Markaziy Osiyoda qoʻllanilgan. Shariatga koʻra, botmon (manni shariy) asosan 0.832 kilogramni tashkil qilgan, lekin turli mamlakatlar va turli davrlarda uning mezoni har xil boʻlgan. Markaziy Osiyoda ham botmonning vazni oʻzgarib turgan. Masalan: XIX asrda Xorazmda botmon 20.16 kilogramdan 40.95 kilogramgacha, Buxoro va Samarqandda asosan 8 pud (131.044 kilogramm), Fargʻonada 8-10 pud (131.044–163.805 kilogramm) boʻlgan. Bu oʻlchov paxta va mevalarni oʻlchashda qoʻllanilgan.

1884 yil maʼlumotlariga koʻra, Qoʻqonda 1 botmon 10 pudga, yaʼni 163.805 kilogrammga teng boʻlib, donlarni oʻlchashda qoʻllanilgan. Toshkent va Chimkentda 1 botmon 10.5 pud (175, 995 kilogramm) boʻlgan. Markaziy Osiyoning koʻp joylarida botmon yer sathini oʻlchash birligi sifatida qoʻllanilib, 1 botmon yer deganda 1B. don eqiladigan maydon tushunilgan. Masalan, Samarqandda 1B. (8 pud) bugʻdoy 1.63881 ga yerga sepilganligi sababi, shunday kattalikdagi yer bir B. deb atalgan. Hozirgi vaqtda botmon taxminan bir gektarga teng sath oʻlchov birligi hisoblanadi. Baʼzi Sharq mamlakatlarida botmondan ogʻirlik oʻlchov birligi sifatida foydalaniladi.

Boqillo – qadimgi oʻlchov birligi. Baʼzi adabiyotlar (masalan, Ibn Sinoning «Tib qonunlari»)da berilishicha, 3 xil qiymatga ega boʻlgan: a) 1B. yunoniy 1.416 gramm; b) 1B. iskandarony 2.124 gramm; v) 1B. misriy 2.823 gramga teng boʻlgan. Baʼzi adabiyotlar (masalan, Davidovich Ye.A. Materiali po metrologii srednevekovoy Sredney Azii)ga koʻra, 1B. 2.34 gramm boʻlgan.

Bugʻdoy doni – qadimgi ogʻirlik oʻlchovi, qiymat jihatdan «arpa doni»ga teng, yaʼni oʻrtacha 1 bugʻdoy doni 0.0409512 gramm boʻlgan. Baʼzi adabiyotlarda qiymati 0.048 yoki 0.05 gramm deb ham qabul qilingan. Boshqacha nomi gandum.

Veksha (rus.) – Qadimgi Rusning IX–XIII asrlardagi eng kichik pul birligi. Ilk bor «Muvaqqat yillar qissasi»da tilga olingan. 1/6 kunaga teng boʻlgan. Kumush V. 1/3 gramm atrofida vaznga ega edi.

Vol (hind.) – Qadimgi hind ogʻirlik oʻlchov birligi; ratsh, tula oʻlchov birliklari bilan quyidagicha bogʻlangan: 1 V. = 3 ratsh = 1/32 tula = 0.3766 gramm.

Gaz (fors. gazdan – tishlamoq soʻzidan olingan deb taxmin qilinadi) – 1) uzunlik va masofani oʻlchash uchun moʻljallangan qadimgi oʻlchov birligi; arshin. Markaziy Osiyo, shu jumladan, Oʻzbekistonning baʼzi joylarida zar deb ham yuritilgan. Qiymati 0.71 metr deb qabul qilingan. Gaz 3 xil usulda aniqlan-ga: 1-usulda uzatilgan qoʻlning barmoqlari uchidan yelkagacha boʻlgan masofa (70-50 santimetr, birinchisi); koʻkrakning oʻrtasigacha boʻlgan masofa (80-90 santimetr, ikkinchisi); to ikkinchi yelkagacha boʻlgan masofa (105-110 santimetr, uchinchisi). 2-usulda G.ning oʻlchami 1 barmoq, 6 arpa doni (1 arpa doni 6 ishchi yoliga teng) orqali aniqlanadi; 2) azaldan xalq orasida qoʻllanib kelingan, uzunlik jihatidan 0.71 metrga teng boʻlgan arshin yoki olchin kabi uzunlik oʻlchov vosi-tasi – reyka; 3) Oʻzbekistonning baʼzi joylarida G. hajm oʻlchov birligi. Masalan: G. bilan moy hajmi oʻlchangan.

Gandum (fors. – bugʻdoy) – forslarning qadimgi oʻlchov birligi: aynan bugʻdoy donining oʻzginasi. Qiymat jihatdan arpa doni qiymati (0.048 gramm) ga teng.

Garnes (pol. garniec) – sochiladigan mahsulotlar uchun rus oʻlchov birligi, 1/8 chorakka (3.2798 litr) teng boʻlgan.

Giriy (fors.) – qadimgi oʻlchov birligi; qiymati bir kecha-kunduzning 60dan bir boʻlagiga teng, yaʼni 1 G. = 0.4 soat = 24 daqiqa = 1440 sekund. Sharq xalqlari tomonidan qoʻllanilgan.

Gran (lot. granum – don) – 1) oʻlchovlarning metrik tizimi kiringunga qadar rus dorixona amaliyotida qoʻllanilgan ogʻirlik birligi. 1G. – 62.209 milligramm; 2) ingliz oʻlchov tizimida savdo, dorixona va qimmatbaho toshlar hamda metal-larni oʻlchashda qoʻllaniladigan ogʻirlik birligi. 1 G. – 64.08 milligramm.

Grivenka (rus.) – XI–XVII asrlarda rus ogʻirlik oʻlchov birligi. Katta G. 2 ki-chik G.ga 96 zolotnikka (409.51 g) teng boʻlgan. XVII asr oxirlarida funt almash-tirilgan.

Grivna (rus.) – Qadimgi Rusda pul va ogʻirlik birligi. ½ funtlik kumush yombisi (XII asr). XV asrda rubl tomonidan siqib chiqarilgan. XVI asrdan pul-hisob birligi, 10 tiyinga teng boʻlgan.

Grosh (pol. grosz, nem. Groschen, lot. denarius grossus – ogʻir tanga soʻzi-dan) – turli mamlakatlarda turli davrlarda zarb etilgan tanga. 1172 yili Genuyada 1.46 gramlik kumushdan soʻqilgan. Keyinchalik G. Florenqiyada (1182). Kre-monda, Paduyada, Milanda, Piza va Venesiyada paydo boʻlgan. 1266 yili Fran-siyada – Tur shahrida 4.22 gramlik G. muomalaga chiqarilgan. Soʻnggi Yevro-paning boshqa mamlakatlarida ham (Chexiya, Angliya, Germaniya, Rossiya va h.k.) keng tarqalgan.

Dang (hind.) 1) ogʻirlik oʻlchov yoki pul birligi. Ulugʻbek aka- demiyasining namoyandalardan Gʻiyosiddin Jamshid al-Koshiy oʻzining «Arifmetika kaliti» asa-

rida o'rtasidagi Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining og'irlik o'lchovi hamda pul birligi bo'lgan. Dang tassuj va ashoir atamalaridan kasr sonlarni ifodalashda foydalangan. Bunda dinor 1 ga teng deb olinsa dang 1/6 ga, tassuj 1/24 ga, ashoir 1/96 ga teng bo'lgan. Chunki bir dang oltin bilan o'lchansa 1/6 dinorga, kumush bilan o'lchansa 1/6 dirhamga va ixtiyoriy og'irlikdagi 1/6 misqolga teng. Tassuj dang bilan quyidagicha bog'langan: 1 tassuj 1/4 dang = 1/24 dinor, dirham yoki misqol. 1 ashoir 1/4 tassuj = 1/16 dang = 1/96 dinor, dirham yoki misqol; 2) rus tilidagi «denga» so'zining o'zagi shu dangdan olingan, dastlab u pul birligi bo'lib, 1/2 tiyin yoki 1/16 oltinni bildirgan. Dang ko'pgina adabiyotlarda, masalan, Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi». B.Ahmedovning «Tarixdan saboqlar»ida dong kurinishida ham uchraydi.

Darik – Qadimgi Eron oltin tangasi. Darikning paydo bo'lishini ahamoniylar podshosi Doro I (miloddan avvalgi 522 – 486) nomi bilan bog'laydilar. Bir darik (og'irligi 8.4 gramm) 5.6 gramm og'irlikdagi 20 ta kumush tanga qiymatiga teng bo'lgan. Doro III Kodoman davrida (miloddan avvalgi 336 – 330) ikki hissa og'irlikdagi dariklar (16 gramm) chiqarilgan. Dariklarda keng bichimli sharq kiyimi va kungurali toj kiygan, kamon va nayza ushlab turgan jangchining tasviri tushirilgan. Bunday tangalarning mamlakatimiz hududidan topilishi Markaziy Osiyo bilan Eron o'rtasida qadimdan savdo aloqalari mavjudligini ko'rsatadi.

Dahsar (fors.) – og'irlik o'lchov birligi. Mamlakatimizning ko'p viloyatlarida, ayniqsa, Buxoro va Samarqand viloyatlarida qo'llanib (XIX asr), qiymati 1 mann (ba'zi joylarda 32 kilogramm)ga, ba'zi joylarda 1/4 botmonga, yani 1/4 mannga teng bo'lgan.

Daxyak (fors. o'ndan bir) – 1) Buxoro amirligida vaqf yerlaridan olingan daromadning madrasa mullavachchalariga beriladigan qismi. Davlat yerlariga qo'shib olingan vaqf yerlaridan ham dahyak ajratilgan. Bunday yerlar «vaqfi dahyak», dahyak oluvchi talabalar dahyakchilar deyilgan. Dahyak olish uchun madrasa talabalari arab tili va shariat qoidalaridan imtihon topshirishlari lozim bo'lgan. Dahyakning 2 karrasi dudahyak yerlari deb atalgan; 2) Xiva xonligida soliq turi. Dahyak chig'ir bilan sug'oriladigan yerlarda hosilning 1/10, ariq bilan sug'oriladigan yerlarda 1/5 qismini tashkil qilardi. Soliq solishdagi bu tafovut chig'ir qurish va dalaga chig'ir bilan suv chiqarishning qiyinchiligiga bog'liq bo'lgan.

Dinor (lot. denarius – 10 dan iborat, 10 dan tuzilgan) – qadimda musulmon mamlakatlarining oltin tangasi. Sharqda VII asrda birinchi bor zarb qilina boshlagan va 2.4 gramm oltindan iborat bo'lgan.

Diram (fors., arab. – dirhamning aynan o'zi) – 1) Buxoro xonligi, Eron va Iroqda og'irlik o'lchov birligi. O'rtacha vazni 3.235 gramga teng bo'lgan kumush tanga; 2) Buxoro xonligi, Eron, Iroq, Afg'oniston va Turkiyada pul birligi.

Dirham, dirham (yunon. drochme) – 1) VII asr oxiri (695) dan XIV asrgacha Osiyoning musulmon mamlakatlarida, Shimoliy Afrika va Ispaniyada muomalada

bo'lgan pul birligi-kumush tanga. XIV asr oxiridan kumush pul «tanga» nomi bilan atala boshladi. Dirham Hindistonda boburiylar davrida XVI asrda ham zarb qilingan; 2) dirham shariatda ham o'z ma'nosiga ega bo'lib, najosat o'lchovida alohida (4.8 gramm), zakot belgilashda alohida (3.365 gramm) og'irlik ma'nosini ifodalaydi.

Dolya (rus.) – 1) rus og'irlik o'lchov birligi. 1/96 zolotnikka (44.43 gramm) teng bo'lgan; 2) Rossiyada 1710–1775 yillarda gyberniya tarkibidagi ma'muriy-hududiy birlik, distriktlarga bo'lingan.

Donak – og'irlik o'lchov birligi. Juda qadimdan qo'llanib kelingan. Mavjud adabiyotlarda donakning donik va danak ko'rinishlari ham uchrab turadi. Donakni ba'zan dong ham deyishadi. Dong donakning arablashtirilgan ko'rinishidir. Buxoroda 1 misqol 4,8 gramm bo'lgani uchun, 1 donak = 1 dong = 0.80 gramm bo'ladi; ^{Xorazm} misqoli (XIV–XV asrlarda) 4,53– 4,55 gramm bo'lgani uchun, 1 donak = 1 dong = 0,755-0,7583 gramm yoki yaxlitlangan holda 0,76 gramga teng kelgan.

Dong (hind.) – 1) dinor yoki dirhamning 1/6 ga teng og'irlik o'lchovi va shu vazndagi aqcha; 2) tarixiy manbalarda uchraydigan va qiymati bo'yicha gazning 1/6 iga tong bo'lgan o'lchov birligi. Agar gaz o'rtacha 71 santimetr bo'lsa, 1 dong 11.83 santimetr bo'ladi. Gazning boshqa o'lchamlari qo'yilsa, dongning qiymati ham o'zgaradi; 3) yuza o'lchov birligi; juda qadimdan Markaziy Osiyoda, asosan, yerning yuza o'lchov birliklari 1/6 tanobni va 1/6 jariblarni belgilashda qo'llanilgan. 1 gaz 71 santimetr deb olinsa, 1 tanob = 1 jarib = 1814.76 m² bo'ladi Bu holda 1 dong = 1/6 tanob = 1/6 jarib = 1814,76 m²/6 = 302.46 m².

Draxma (yunon. drachme) – yunon og'irlik na pul birligi; miloddan avvalgi VI asrdan boshlab kumush tanga shaklida zarb qilingan, dastlabki vazni 4,25 gramm, keyinchalik 4,32 gramm bo'lgan.

Drahmiy – tibbiyotda ko'p qo'llaniladigan og'irlik o'lchov birligi. Beruniy va Ibi Sino o'z asarlarida bu o'lchov birligidai foydalanganilar. Ularning og'irligi 4.25 gramga teng bo'lgan. Bosh ka maibalarda 1 D. yunon D.siga. yaii 3.3105 gramga teng ekani ko'rsatilgan.

Dunimsar (fors.) – 1) og'irlik o'lchov birligi; qiymati 1 manning 1/16 ulushiga teng. Markaziy Osiyoda keng qo'llangan. Og'irlik o'lchov birligi manning ulushli qiymati ishlatilgan va joyiga qarab har xil bo'lgani uchun dunimsarning qiymati ham har xil bo'lgan. Buxoroda 2,5 istor ham dunimsar deb yuritilib, 54 gramga teng bo'lgan (1 D. = 2.5 istor 2,5 – 21.6 gramm = 54 gramm). Buxoroning 25.6 kilogramli mani buyicha 1 dunimsar = 1.6 kilogramm bo'lgan. XIX asrda katta dunimsar katta (16 pudli) manning 1/16 ulushi, ya'ni 16,38 kilogramm.

Yombi (xitoy. «Yuan bao» – boylik to'plashning boshlanishi) – quyma oltin va quyma kumush bo'lagi. Xitoyda birinchi pullar miloddan avvalgi VII asrda

paydo bo'lgan; ular kumushdan emas, balki mis (yoki bronza)dan quyib tayyorlangan. Bu pullarning qiymati juda past bo'lib, bir misqol (3.7 gramm) kumushga 1000, hatto 2000 dona mis (bronza) pul almashtirilgan. Bu pullarning og'irligi yarim pud kelgan, 10-20 ming mis (bronza) pullarni hamyonda emas, balki ot-aravada tashishga majbur bo'lingan. Milodning VII–X asrlariga kelib Buyuk Ipak yo'li bo'ylab xalqaro savdo-sotiq rivojlangan davrda Xitoyda xalqaro valyuta (oltin va kumush) pullar o'rinda quyma yombilardan foydalanilgan. Yombi pul emas, balki yirik savdo-sotiqlarda to'lov va boylik jamg'arish vositasi bo'lgan. Yombilarning vazni bir xil emas, balki 5 gramdan 2000 gramgacha bo'lib savdo muomalasida ularni tarozida tortib olingan. Yombilarning kattalari «Tuya tuyoq» «Ot tuyoq» deb atalgan.

Yog'och – Qadimgi o'lchov birligi; katta masofalardagi yo'l uzunligini o'lchashda qo'llanilgan. Ba'zi adabiyotlarda farsang, sang, tarzida ham uchrab turadi (farsang yog'och bilan, sang esa tosh bilan bir xil bo'lib, yog'ochning 2/3 qismiga teng). Ma'lumotlarga ko'ra, 12 ming qadam 1 yog'och deb qabul qilingan. Agar bir qadam 0.75 metr bo'lsa, u holda, 1 yog'och 9 kilometr ga teng bo'ladi (1 yog'och=12000 qadam = 9 kilometr).

Jav (fors. – arpa) – og'irlik o'lchovi; 0.045 gram ga teng bo'lgan.

Javza (fors.) – Qadimgi og'irlik o'lchovi. Qiymatlari; 1) 1 javza

1 misqol/drahmiy. Agar misqolning 4.25 – 5 gramm ga, drahmiyning 3.3105 – 4.25 gram ga tengligi hisobga olinsa, 1 javza 7 gramm – 0,57 gram ga to'g'ri keladi. Javzaning shoh javzasi ham bor. U 6 misqol/ dirham ga teng. Agar dirham misqolning 7/10 bo'lagiga tengligi hisobga olinsa, unda 1 javza = 6 misqol/ dirham = $6 \times 10/7 = 8,57$ gramm bo'ladi. Ba'zi manbalarda javzaning boshqa qiymatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Masalan, Ibn Sinoning «Tib qonunlari»dagi jadvalda 1 javza = 38,75 gramm, ba'zi 1 javza = 17,0 gramm deb berilgan bo'lsa, boshqa adabiyotlarda 1 J. =29,75 gramm yoki 1J. 25,5 gramm deb keltirilgan.

Jarib (arab.) – 1) yuza, hajm va og'irlik o'lchov birligi: Sharq mamlakatlari-da, jumladan, Markaziy Osiyoda VII asrdan boshlab qo'llanilgan. Yuza o'lchovi birligi, aynan tanobga teng: 1 jarib = 1 tanob = 3600 gaz². Ba'zi adabiyotlarda jarib 1 gaz = 66,5 santimetr buyicha aniqlangan, ya'ni 1 jarib = 1592 m². Jarib ilk o'rta asrlarda 1592 m² (kichik jarib), 5837 m² (katta jarib) bo'lgan. XV asrdan boshlab 960 m². Hozirgi vaqtda Eronda 1 jarib rasman 1 gektar ga teng bo'lsada, jarib taxminan 400 m² dan 1450 m² gacha o'zgarib turuvchi mahalliy turlari ham mavjud: jaribi shohiy 1200 m² ga, jaribi rasmiy 760 m² ga teng. Markaziy Osiyoning huquqiy hujjatlarida jarib bilan tanob bir xil yuza o'lchovni ifoda etgan. Yer o'lchovchi mansabdor jaribkash yoki jaribi amin deb atalgan. 2) og'irlik o'lchov birligi: qiymati ishlatilish vaqi va joyiga qarab har xil bo'lgan. Madinada VII – IX asrlarda 22.825 kilogramm, Eronning turli yerlarida X asrda 32,5 kilogramm-

dan 108,3 kilogramm (138 litr)gacha, XIV asrda esa, 1 jarib 100 kilogramm edi. 3) hajm o'lchov birligi: qiymati ishlatilish joyiga qarab har xil bo'lgan. VII asrda Madinada Umar xalifaligi davrida 1 jarib 3,245 kilogramm bug'doy sig'adigan 4.2125 litr hajmga, Eron va Markaziy Osiyoning turli yerlarida 1 jarib 100 kilogramm bug'doy sig'adigan 130 litr hajmga teng bo'lgan (1 jarib = 130 litr).

Jaribi rasmiy – Qadimgi yuza o'lchov birligi, jaribning bir turi; qiymati 760 m² ga teng.

Jaribi shohiy – Qadimgi yuza o'lchov birligi; jaribning bir turi; qiymati 1200 m² ga teng.

Jaribkash – Qadimda yer o'lchovchi mansabdorlarga nisbatan ishlatilgan ibora.

Jarra (arab.) – Qadimgi og'irlik o'lchov birligi; Sharq mamlakatlarida qo'llanilgan. Qiymati ikki xil bo'lgan: a) 1 jarra = 12240 gramm = 12.240 kilogramm; b) 1 kichik jarra = 2040 gramm = 2.040 kilogramm (Ibm Sinoning «Tib konunlari»da).

Jou – Qadimgi uzunlik va og'irlik o'lchov birligi; tarixiy manbalarda ko'p uchraydi; arpa donining aynam o'zi (o'rtacha 0,04 grammga teng).

Zakot (arab. – tozalanish, sadaqa berish) – mol-mulk daromadidan beriladigan sadaqa, hayr-ehson. Islomning 5 asosiy talablaridan biri. Shariatga muvofiq muayyan boylikka ega katta yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot beruvchi kishining mablag'i o'zi va qaramog'idagilarning zaruriy ehtiyojlaridan ortiqcha bo'lishi lozim. Bu mablag'ga kishining jamg'armasi, do'konda sotiladigan narsalari, sotaman deb olib qo'ygan narsalari, birovga bergan qarzi kiradi. Zakot miqdori mablag'larning 1/40 ulushi (2.5%)ga teng. Zakotni zakot berolmaydigan musulmonlar olishga haqli. Zakot avval qarindoshlar orasidagi muhtojlarga, bunday qarindoshlar bo'lmasa, kambag'al, qarzdor, musofirlarga beriladi. Dehqonlar va chorvadorlardan olinadigan zakot miqdori bir oz boshqacharoq belgilangan.

Ziyod ziro'i (arab, az-zira al-Ziyadiya) – Qadimgi uzunlik o'lchov birligi. Musulmon mamlakatlarining ko'pchiligida qo'llanilgan. Qiymati 66,5 santimetr-ga teng bo'lgan.

Ziro' (arab.) Qadimgi uzunlik o'lchov birligi: ko'pgina Sharq mamlakatlarida qo'llanilgan. Forsiylarning gaziga, turkiylarning qarisiga to'g'ri keladi, o'rtacha qiymati 54.04 santimetr. Ishlatilish joyiga qarab har xil qiymatga ega bo'lgan. Eronda ziro' = 1 gaz bo'lsa, Boburiylar davlatida shoh ziro'i mavjud bo'lib, u 81.28 santimetr-ga teng edi. Akbarshoh 1 ziro'ni 83.31 santimetr deb belgilagan. Agrada 1647 yili rasmiy ravishda 1 ziro' = 81.28 santimetr deb qabul qilingan. Musulmon mamlakatlarida qo'llanilgan ziro'ning yana 48.9 santimetrdan 145.608 santimetrgacha qiymatlarga ega 20 dan ortiq turi mavjud bo'lgan.

Zolotnik (rus.) – Qadimgi rus og'irlik o'lchovi; 1 zlotnik = 1/96 funt – 4 266 gramm.

Ilcha (turk.) – Qadimgi og'irlik o'lchov birligi. XIX asrda Toshkentda 1 ilcha Toshkent botmonining 1/512 qismiga, ya'ni 336 grammga teng bo'lgan. Agar 1 Toshkent botmoni 10.5 pudga teng bo'lsa (1 pud = 16.3805 kilogramm). 1 ilcha = 1/512 Toshkent botmoni = 335.9 – 336 gramm bo'ladi.

Istanbul ziro'i (arab, az-zira al-Islambuliyya) – 68.57 santimetrga teng o'lchov birligi.

Istor (arab.) – Qadimgi og'irlik o'lchov birligi; qiymati 4,5 misqolga teng. Agar 1 misqol = 4,8 gramm bo'lsa, 1 istor = 21.6 gramm, agar 1 misqol = 4.25 gramm bo'lsa, 1 istor = 19.125 gramm bo'ladi. Beruniy va Ibn Sino asarlarida 1 istor = 17 gramm deb berilgan.

Kayl (arab.) – hajm o'lchov birligi. Damashqda 1 kayl g'iroraning 1/12 bo'lagiga, ya'ni 17.04 kilogramm bug'doyga, hajm bo'yicha esa 22,08 litrga teng. Halabda (1 kayl makkuxning 1/16 bo'lagiga, ya'ni 6.56 litrga teng.

Karama (hind.) – og'irlik o'lchovi. 0,743 dan 0,990 gramgacha.

Karax (hind.) – 2 kilometrga teng masofa.

Katta dunimser (fors. du nimseri kalon) – og'irlik o'lchovi birligi, 16,3805 kilogram yoki 40 qadoqqa teng.

Katta mann (fors. manni kalon) – 20 kilogramga teng og'irlik o'lchovi.

Katta panjser (fors. panjseri kalon) – 32.76 kilogramga yoki 80 qadoqqa teng og'irlik o'lchovi.

Kafsan, panji sira (fors.) – Buxoro amirligida xirojdan tashqari amlokdorlar foydasiga har bir botmon (8-12 pud) bug'doydan 1 pud miqdorida olinadigan soliq.

Kaft – (arab.) – bir kaftga sig'arli un, don kabi sochiluvchi narsalar o'lchovi.

Kvadrans (lot. quadrans) – Qadimgi Rimda muomalada bo'lgan mis tanga, ¼ assga (81,86 gramm) teng bo'lgan. Aversida Gerakl surati, reversida kema tumshug'i tasviri tushirilgan.

Kvinariy (lot. qunarius) – Qadimgi Rim davlatida kumush tanga. Miloddan avvalgi 268 – 217 yillarda 10 assga (4,37 gramm), miloddan avvalgi 217 yildan 16 assga (2,18 gramm) teng bo'lgan.

Kepaki, kabakiy – chig'atoylardan Kepakxon ibn Duvaxon (1318 – 1327) chiqargan kumush tanga. Bir dinor kepakiy ikki misqol kumushga yoki olti dirhamga teng bo'lgan. Tarixiy manbalarning ma'lumotiga kura, kepakiy dastlab Buxoro, Balx shaharlarida zarb etilgan. Temuriylar davrida (XV asr) ham pul muomalasida ko'p ishlatilgan Kepakxongacha mo'g'ul davlatlarida pul birligi bolish hisoblangan.

Kile (turk.) – hajm o'lchov birligi. Don-dun o'lchash uchun qo'llanilgan. Turkiyada 1841 yili 1 kile 35,27 litr bo'lgan. Eronda G'ozonxon tomonidan

1300 yili kilening qiymati 10 mann yoki 8,32 kilogramm (11,44 litr) etib belgilangan.

Kichik dunimser (fors. du nimseri xurd) -20 qadoqqa, ya'ni 8.19 kilogramga teng og'irlik o'lchovi.

Kichik panjser (fors. panjseri xurd) – 16.3805 kilogrammga teng og'irlik o'lchovi.

Kichik chorak (fors. choraki xurd) – 2.04756 kilogramga teng og'irlik o'lchovi.

Koloda (rus.) – rus hisob o'lchov birligida «cheksiz»- deb nomlangan raqam. 10 voronga teng bo'lgan (100 mln).

Kongiy (lot. congius) – Qadimgi Rimda hajm o'lchov birligi. 6 sekstariy, 72 siata (3,2832 litrga) teng bo'lgan.

Krona (lot. corona-toj, gulchambar so'zidan) – G'arbiy Yevropa tangalarining umumiy nomi, unga tushirilgan toj tasviri shunday atalgan. Dastlabki krona Fransiyada Filipp IV davrida, 1340 yil zarb egilgan «kuronndor» (couronne d'oro) deb hisoblashadi. U dastlab 5.44 gramm, 1385 yili 4.08 gramm, 1436 yili 3,5 gramm vaznga ega bo'lgan. Fransuz oltin tangalari boshqa mamlakatlar uchun ham namuna vazifasini o'tagan. 1526 yili Angliyaning oltin kronasi, 1537 yili Ispaniyaning oltin eskudosi chiqarilgan. Keyinchalik Niderlandiya (1540 – 1589) va Daniyada (1618 yildan) ham krona muomalaga kiritilgan. 1551 yili Angliyada dastlabki kumush krona zarb etilgan. Angliya kronasi 1971 yilgacha so'qilgan. 1857 yili Nemis tanga ittifoqi tomonidan chiqarilgan tanga ham oltin krona deb atalgan Uning vazni 11.111 gramm bo'lib, tarkibidagi oltin miqdori 10 gramm edi.

Krujka (rus.) – XVI–XVII asrlarda suyuqliklar hajmini o'lchashda ishlatilgan rus o'lchov birligi. 10 charkaga (1,23 litr) teng bo'lgan.

Kumush toshi – Qadimgi og'irlik o'lchov birligi; qiymati 250 misqolga teng. Agar 1 misqol o'rtaicha 4,5 gramm bo'lsa, 1 kumush toshi 1125 grammga teng bo'ladi. 1 kumush toshi = 250 misqol = 1125 gramm = 1.125 kilogramm. Lekin, 1 misqol, aslida, 4.09512 gramm ekanligi hisobga olinsa, 1 kumush toshi = 1023.78 gramm = 1.024 kilogrammga, ya'ni 2.5 qadoqqa teng.

Kuna (rus.) – Qadimgi Rus pul birligi 1/25 grivnaga (X – XI asrlar) va 1/50 grivna-kunaga teng bo'lgan. XIV asr o'rtalari – XV asr boshlarida muomalada bo'lgan.

Kurr (hind.) – hajm o'lchovi birligi. Iroqda 1 kurr 60 qafizga teng. Bag'dodda 1 kurr bug'doy 2900 kilogramm yoki 36 gekolitrga teng bo'lgan. Eronda 1 kurr bug'doy uchun 1015.6 kilogramm, arpa uchun 812.5 kilogramm yoki 12 gekolitga mos keladi.

Kurur (hind.) – yuz lak, yani o'n mln.ga teng son

Kurux (hind.) – 3 kilometruga teng masofa.

Lavx (arab.) – hajm o'Ichovi. Vazn buyicha 400 kilogramm 1 bug'doyga, hajm buyicha 520 litrga teng.

Lak (hind.) – 100 mingga teng bo'lgan son miqdori.

Lepta (yunon. lepton) – Qadimgi Yunonistonda $1/7$ xalqunt, $1/2$ kodrant yoki $1/56$ obolga teng bo'lgan mis (bronz) tanga.

Livr (frans. livre. lot. libra – rim funti) – 1) 1799 yilgacha Fransiya pul birligi. 1 livr = 20 su = 240 denya. Livr boshqa mamlakatlarda, xususan, Buyuk Britaniyada ham muomalada bo'lgan; 2) Fransiyada metrik sistema joriy etilguncha og'irlik o'Ichov birligi (489.5 gramm).

Lingcha (fors.) – sochiluvchan narsalarning hajmini o'Ichash uchun taxminan hajm o'Ichovi. 50 kilogramm bug'doyga teng keladi.

Lot (rus.) – Qadimgi rus og'irlik o'Ichov birligi. 3 zolotnikka (12.8 gramm) teng bo'lgan. XVIII 2-yarmi – XIX asr boshlarida qo'llanilgan.

Luidor (frans. lui d'or – ayni ma'mosi oltin Lui) – fransuz oltin tangasi. 1640-1795 yillarda zarb etilgan. Ilk bor 1640 yili Lyudovik XIII tomonidan chiqarilib, uning sharafiga shunday atalgan. Luidor sof oltindan so'qilgan, vazni 6.751 gramm, diametri 26 millimetr bo'lgan. Keyinchalik tanganing vazni va diametri bir necha bor o'zgargan. Luidorlar Buyuk fransuz inqilobigacha va o'nlik tizim joriy qilingunga qadar zarb etilgan. 1795 yili Fransiyaning asosiy pul birligi frank bo'lib qoldi. 1803 yili luidor o'rniga napoleondor zarb etish yo'lga qo'yildi.

Makkuk (arab.) – og'irlik o'Ichov birligi. Vazni bo'yicha taxminan 5.625 kilogramm donga, hajm buyicha 7.7 litrga teng kelgan. Halabda 1 makkuk 81,2 dan 81,8 kilogramm bug'doyga yoki 105 litrga barobar bo'lgan.

Malik ziro'i (arab. az-zira al malikiyya) – 66,199 santimetr va 66,801 santimetr bo'lgan o'Ichov birligi.

Mann – 1) Qadimgi o'Ichov birligi; qiymati Xorazmda XV asrgacha 3 qadoq, ya'ni 1,255 kilogramm, XVII asrda 10 va 12 qadoqqa teng bo'lgan. XIX asr o'rtalaridan, asosan, 1 mann = 48 qadoq = 480,409512 kilogramm = 19,657 kilogramm bo'lgan. Buxoroda 1671 yili 1 mann 5120 misqol = 25.6 kilogramm bo'lgan. (1 misqol = 5 gramm). Buxoro «katta og'irligi»da 1 mann = 25600 misqol = 128 kilogramm, 1723 yil ma'lumotiga ko'ra, Qarshida 1 mann = 10 qadoq = 4,095 kilogramm. Samarqandda 1 mann 20 kilogrammga teng bo'lgan. Toshkentda mann o'rniga ko'proq botmon ishlatilgan. 1 Toshkent botmoni asosan, 10,5 pudga = 171,995 kilogramm bo'lgan. Hindistonda XIV asrda 1 mann = 12,832 kilogramm, Boburiylar davrida manning bir necha turlari bo'lgan. Shulardan Akbarshoh manni, ya'ni Akbariy manni 25,156 kilogrammga teng. 2) Qadimgi yuza o'Ichovi birligi, mamlakatimiz hududida ekin maydonlarini o'Ichashda qo'llanilgan; qiymatlari ham har xil. Amalda «katta og'irlik mann» guruhi yerni o'Ichashda ko'proq

qo'llanilgan. To'ppi mannidagi donning og'irligi 4,32 kilogramm bo'lgan (XV asr, Buxoro). Demak, to'ppi manni 4,32 kilogramm don ekilgan maydonni ifodalagan. Katta og'irlik manni Samarqandda (XV-XVI asrlar) 20 kilogrammga, Buxoroda (XIX asr) 1 mann = 2 tanob bo'lgan. Xorazmda esa, 1 tanob yerga botmon bug'doy (1 botmon 20 kilogramm) ekilgan.

Marka (nem. Marke – chegara. chegara viloyati) – 1) o'rta asrlarda G 'arbiy Yevropada qo'ni-qo'shni jamoa. Unda haydaladigan yer marka a'zolarining xususiy mulki bo'lib, yaylov, o'rmon va boshqa joylar umumiy mulk hisoblangan. 2) VIII-IX asrlarda Franklar davlatida o'rta asrlarda Germaniyada markgraf boshchiligida mustahkamlangan ma'muriy chegara okrugi. Dastlabki markalar Buyuk Karl tomonidan tuzilgan: Ispan markasi (Shimoliy Ispaniyadagi arablardan himoyalaniş uchun), Breton markasi, Daniya markasi (daniyaliklardan himoyalaniş uchun), Saksoniya markasi (obodritlardan himoyalaniş uchun), Tyuring markasi (sorblardan himoyalaniş uchun), Frankoniya markasi (chexlardan himoyalaniş uchun), Avar markasi (avarlardan himoyalaniş uchun), Pannoniya markasi (moravlardan himoyalaniş uchun), Yuqori Pannoniya markasi, Quyi Pannoniya markasi.

Marozbon – (fors.) – hajm birligi. XII asrda Halabda 1 marozbon makkukning $\frac{1}{4}$ bo'lagiga, ya'ni 26,25 litrga, Mesopotamiyada 1 marozbon vino 1,875 litrga teng bo'lgan.

Mastorun (arab.) – og'irlik o'lchov birligi. Katta mastorun 89.25 gramga, kichigi 25,50 gramga teng bo'lgan.

Maxtum (arab.) – og'irlik va hajm o'lchov birligi. 13 kilogramm bug'doyga, hajm buyicha 17 litrga teng.

Matuta – Qadimgi rimliklarning ayollar xudosi, tug'ruq homiysi. Uning sharafiga iyunda matraliya bayrami o'tkazilgan.

Mil (arab.) – 2,25 dan 3 kilometrgacha bo'lgan masofa.

Milya mil (lot. mille passuum – mingta ikki qadam) – uzunlik o'lchov birligi. Quruqlik mili 1609.34 metrga, dengiz mili 1852 metrga, geografik mil 7420.439 metrga teng.

Misqol (arab.) Qadimgi og'irlik o'lchov birligi, Sharq (arab) mam-lakatlarida qimmatbaho buyumlarning og'irligi misqol bilan o'lchangan. 1 misqol og'irligi 100 dona arpa (yoki bug'doy) doni og'irligiga tenglashtirilgan. Agar bir dona arpa donini qadimda o'rtacha 0.0409512 gramga teng qilib olingani hisobga olinsa, u holda, 1 misqol = 100 arpa doni = 1000.04095122 = 4.09512 gramm bo'ladi. Samarqand (VI – VIII asrlar)da 4.46 gramga, Buxoro (XVI – XIX asrlar)da 4,8 – 5 gramga, Xorazm (XIV asr) va Farg'ona vodiysida 4,55 gramga teng bo'lgan. Misr va Sudanda 1 misqol 4.68 gramm, Suriyada 4,45 gramm. Iroqda 4.46 gramm, Eron (XIV asr)da 4.3 gramga, XIX asr oxiridan esa

4.639 grammga, Hindistonda 4,583 grammga teng bo'lgan. Misqol Yaqin Sharqda hozir ham ishlatiladi.

Moxur (hind.) – Hindistonning oltin tangasi, XVI – XIX asrlar, 1916– 1919 yillarda zarb etilgan. Boburiy Akbar tomonidan 1562 yili ilk bor chiqarilgan.

Moni (hind.) – 12 botmonga teng og'irlik o'lchov birligi. 73.3824 kilogramga teng.

Mudd (arab.) – hajm o'lchov birligi, 1,053 litrga teng.

Mosha (hind.) – 1,0042 grammga teng Hindiston og'irlik o'lchovi.

Moshja (hind.) – 1,98 gramm (4 donak)ga teng og'irlik o'lchovi.

Mursal ziro'i (arab. az-zira al mursala) 875 santimetrga teng uzunlik o'lchovi.

Mut (fors.) – Og'irlik o'lchovi, Xuf vodiysi (Pomir)da 500 grammga teng bo'lgan.

Napoleondor (fran. napoleon d'or – ayni ma'nosi oltin napoleon) – fransuz oltin tangasi. 20 frank qiymatga ega bo'lgan. Napoleon I tomonidan zarb etish yo'lga qo'yilgan. Umumiy og'irligi 6.4516 gramm, tarkibidagi sof oltin miqdori 5.801 gramm. 1803 – 1914 yillarda zarb etilgan.

Nexbet – Qadimgi misrliklarning saltanat hokimiyati ilohasi. oltin va kumush qazib olish homiysi, tug'ruq paytida ayollarga yordam beradi deb ham tushunilgan.

Nimdong (fors. hind.) – 0.400 gramga teng og'irlik o'lchov birligi.

Nimcha (fors.) – 1/56 mannga teng o'lchov birligi.

Nimchorak (fors.) 1 manning 1/128 bo'lagiga teng. 156 gramm.

Nimsang (fors.) – 63,5 gramga teng og'irlik o'lchovi.

Nogata (arab.) naqd-to'la qimmatli tanga) – Qadimgi Rusda pul birligi (X – XV asrlar). XI asrda 1 N. 1/20 grivna va 1.25 kunaga, XII asrdan 1/20 grivna. 2.5 kunaga teng bo'lgan.

Obol (yunon. obelos) – 1) Qadimgi Yunonistonda 0.65 gramga teng bo'lgan og'irlik o'lchov birligi. Shuningdek, 1/6 drahmaga teng kumush, keyinchalik mis tang'a; 2) IX – X asrlarda Vizantiyada 1/2 follisga teng bronza tanga; 3) Fransiyada IX asrda 1/2 denyaga, Filipp IV Chiroyli (1285- 1314) davrida 4 denyaga va Karl IV (1322 – 1328) davrida 7.5 denyaga teng mis tanga. Shuningdek, o'rta asrlarda Gollandiya, Italiya, Ispaniya va Portugaliyada muomalada bo'lgan tanga.

Oltin toshi – qiymati 500 misqolga, ya'ni 2250 gramga teng og'irlik o'lchovi.

Olchin (turk.) – uzunlik o'lchov birligi; arshin va gaz qatlamlari (65 + 112 santimetr)ga teng.

Padam (hind.) – 100 nilga yoki bir kvadrillionga teng hindlarning son miqdori.

Paykal (sug'd. pay – qism va kol – handak) – tarixiy-etnografik atama. Yozma adabiyotlarda dastlab Abu Abdulloh Xorazmiyning «Mafotih ul-ulum» (Ilmlar kaliti) asarida syv o'lchov birligi tarzida qayd qilingan. 1 P. 10 basta, basta esa eni va buyi 1 shair (taxminan 3 santimetr) bo'lgan teshikdan bir kecha-kunduzda o'tadigan suv miqdori, Keyingi davrlarda satx o'lchovi sifatida qo'llanilgan. Masalan: Quyi Qashqadaryoda 50 tanob yoki 12,5 gektar yer 1 P. hisoblangan. Markaziy Osiyoning bir qancha tumanlarida chek yerlarni shirkat (6-9 dehqon xo'jaligi) bo'lib ishlash, yerga jamoa bo'lib egalik qilish shakli mavjud edi. Bunday P.lar Jb. O'zbekistonda XX asrning 1-choragiga qadar amalda bo'lib keldi.

Paqr (hind.) – hindlarning vaqt o'lchovi birligi. Bir kecha-kunduzning sakkizdan biriga teng. Forschada pos ham deyiladi.

Penni (ingl. penny) – Qadimgi ingliz kumush tangasi. XVII asr oxirlaridan P. misdan, 1860 yildan bronzadan zarb qilingan. P. ilk bor Kent qiroli Gibert (764) va Mersiya qiroli Offa (757 – 796) tomonidan zarb ettirilgan. Aversida qirolning surati, reversida bezak berilgan xoch tasviri tushirilgan. Vazni 20–22,5 granni (1.2–1.4 gramm), diametri 17 millimetrga yaqinni, IX asrda 21 millimetрни tashkil etgan. Qirop Edgar (957-975) davrida umumingliz pennisi chiqarilgan.

Pika (frans. pique) – sovuq qurol uzun nayzaning bir turi, 3-5 metrlik yog'ochdan va 12-57 santimetrli uch qirrali yoki to'rt qirrali metall uchlikdan iborat, umumiy og'irligi 3-4 kilogramm. P. piyoda askarlarning otliqlar hujumidan himoyalaniş vositasi edi. Rus otliq qo'shinlarida ham undan foydalanilgan. XV-XX asr boshlarida keng qo'llanilgan. Ilk bor XII asrda tilga olinadi. O'rta asrlarda birinchi bo'lib shotlandlar tomonidan qo'llangan.

Polushka (rus.) – mayda rus chaqasi; XV asrdan kumushdan zarb etilgan. P. 1/2 Moskva va 1/4 Novgorod puliga teng bo'lgan. 1534 yildan P. – Moskva davlatining 1/4 tiyinga teng eng kichik tangasi. 1700 yildan rus pul tizimining eng kichik qiymatli nominali misdan so'qilgan.

Pochka (rus.) – Qadimgi rus og'irlik birligi. Asosan, tanga zarb qilinayotganda uning og'irligini o'lchashda ishlatilgan. XVI asr oxiri – XVII asrlarda P. 1/25 zolotikka teng bo'lgan.

Prerial (frans. prainal. lot prairie – yaylov so'zidan) – Fransuz respublikasi taqvimida (1793 – 1805) 9-oy nomi (20/21 may – 18/19 iyun).

Pyad (slav.) – Qadimgi rus o'lchov birligi, 4 vershka, 1 chorakka, 17.78 santimetrga teng bo'lgan. Dastlab bosh va ko'rsatkich barmoqlar yozilganda uchiga cha bo'lgan masofaga teng edi. XII asrdan ma'lum.

Ratsh (hind.) – hind og'irlik o'lchovi, Moshaning 1/8 ga yoki misqolning 1/40 ga teng bo'lgan. Agar misqol 4.55 gramm bo'lsa, unda 1 R. = 0.11375 gramm.

Rezana (fors.) – Qadimgi Rusda pul birligi. XI asrda 1 R. 1/50 grivnaga. 2/5 nogata. 1/2 kunaga teng bo'lgan. XII asrda kunaga tenglashtirilgan.

Ruzma (arab. – o‘ram. to‘p) – og‘irlik o‘lchovi. Qimmatbaho matolarni tortish uchun qo‘llanilgan. Qiymati 24.375 kilogramga teng. Boshqacha nomi siqt.

Sanoch (turk.) – hajm o‘lchov birligi. 1 sanoch deganda 30 litr hajmdagi suyuqlik tushuniladi.

Sarjin, sajen (slav. sag – qadimgi, odim) – 1) sajen – qadimgi rus uzunlik o‘lchov birligi. Xalqaro metrik o‘lchovlar tizimi kiritilgunga qadar (1918 yil) ishlatilgan. 1 sarjin = 3 gaz = 48 vershok = 2,13360 metr. Yuza o‘lchov birligi – desyatina (2400 sajen²); 2) sarjin – hajm o‘lchov birligi. Juda qadimgidan paxsa devor va palyon o‘tinlarning hajmini o‘lchashda qo‘llanib kelingan. Masalan, bo‘yi uch gaz, eni 0,6 – 0,75 gaz, balandligi bir yarim gaz qilib terilgan palyon o‘tin yoki urilgan paxsa 1 sarjin hisoblanadi.

Sarisa (yunon. sarisa) – Qadimgi Makedoniyada (miloddan avvalgi IV–II asrlar) piyoda qo‘shin qurollari tarkibiga kirgan uzun nayza. Antik davr mualliflari sarisaning uzunligi haqida turli-tuman fikrlarni bildirganlar. Elian Taktik va Polien 14–16 tirsak (6.3 – 7.2 metr), boshqalar (Asklepiy, Arrian) 10–12 tirsak (4,5–5,4 metr) deb ma‘lumot beradi. Demak, sarisaning uzunligi falanganing qaysi safida ishlatilishiga bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa kerak.

Sa’ (arab.) – og‘irlik o‘lchov birligi. XVII asrda Buxoroda 1 sa’ 8 ritl bo‘lgan. 1 ritl = 90 misqol va 1 misqol = 4.8 gramm bo‘lsa, u holda 1 sa’ = 8 ritl = 8x90 = 8x90x 4.8gramm = 3.456 kilogramm bo‘ladi.

Sahfa (arab.) – hajm o‘lchovi. Qiymati 26 litr, 28 litr, 151,4 litr va hokazo bo‘lgan.

Ser (fors.) – og‘irlik o‘lchov birligi. 40 ser 1 botmon bo‘lgan. Semi misqol bilan o‘lchaganda qiymati 152.88 gramm bo‘ladi. Eronda 1935 yildan keyin 1 ser 75 gramga tenglashtirilgan.

Sestersiy (lot. sestertius – ayni ma‘nosi uchdan bir) – Qadimgi Rimda dastlab kumush, so‘ngra rangli metallar aralashmasidan so‘qilgan tanga. Miloddan avvalgi III asrdan zarb etila boshlangan. Mil. av. 268–217 yillarda 2,5 asrga (1.09 gramm), mil av. 217 yildan 4 accga (1.00 gramm) teng bo‘lgan.

Siq1 – 1) Qadimgi Sharqning qator davlatlarida og‘irlik va pul birligi. 2) Qadimgi Forsning mil. av. VI – V asrlardagi, Yahudiyanning mil. av. II asrdagi kumush tangasi.

Soldo (ital. soldo) – italyan davlatlarida XII asr oxiri – XIX asrning 2-yarmigacha mayda chaqa. Nomi Qadimgi Rim tangasi soliddan kelib chiqqan. 1/20 litrga teng kelgan. O‘z navbatida, saldoning o‘zi ham 2 sesino yoki 3 kvatrino yoxud 5 chektezimo yoki 12 denaroga bo‘lgan.

So’ (arab.) – Sharq malakatlarida 3500 gramga yoki 4,2 litrga teng o‘lchov.

Sorx (hind.) – og‘irlik o‘lchovi. Akbarshoh tomonidan Hindistonda joriy qilingan. 1 sorx = 1/8 mosha = 0,125525 gramm. 1 mosha. 8 ratlga tengligi haqida

ma'lumotlar bor. Shunda 1 masha = 8 ratl x 8 x 0.125525 = 1.00042 gramm bo'ladidi. Demak, 1 sorx 1 ratlga tengdir.

Stil (lot. stylus, yunon, stylos – tayoqcha so'zidan) – Qadimda va o'rta asrlarda suyakdan, metall yoki yog'ochdan ishlangan sterjen (uzunligi 8-15 santimetr). Stil bilan mumlangan taxtacha yoki qayin po'stlog'iga yozganlar. Ikkinchi uchi o'chirishga moslashtirilgan.

Sumn (arab. – sakkizdan bir) – sakkizdan bir (1/8), yarim chorak ma'nosi-ni bildiradi. Misrda 1 sumn = 0.258 litr. Ba'zi joylarda 6.318 litrli qiymati ham bo'lgan.

Sunbul (arab.) – hajm o'lchovi, Suriyada qo'llanilgan. Qiymati taxminan 4.16 litrga (vazm buyicha 3,206 kilogramm bug'doyga) teng.

Suyam – katta va ko'rsatkich barmoqlarini eng katta ochganda hosil bo'ladigan masofa bo'lib, taxminan 18-19 santimetrغا teng. Qurilish o'lchovida ishlatilgan.

So'm – Qadimgi atamalardan biri. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida so'm pul solingan qopcha (xalta) ma'nosida qo'llanilgan. XIV asrda Oltin O'rda xonligida og'irlik birligi bo'lib, muayyan og'irlikdagi kumush quyma (yombi)ni ifodalagan.

Tagor (fors.) -1300 yildan Forsda bir uloq ko'taradigan yukka, ya'ni 83.2 kilogramga teng og'irlik o'lchovi. 1 tagorning og'irligi donning turiga qarab har doim 100 mannga teng kelishi kerak.

Tamuna (arab.) – 0.0147 gramga teng kichik og'irlik o'lchovi.

Taniya (hind.) – og'irlik o'lchovi. 1 taniya = 16 moshja = 31.68 gramm. Bunda 1 moshja = 1.98 gramm deb qabul qilingan.

Tanob (arab. –chilvir, arqon) – 1) Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida qo'llanilgan uzunlik o'lchov birligi. XVII asrda qiymati 39.9 metrغا teng bo'lgan; 2) Markaziy Osiyo xonliklarida tomonlari 60 gazdan iborat bo'lgan maydonga teng, ya'ni ekin maydonini o'lchash uchun qo'llanilgan yuza birligi. 1 tanob $60 \cdot 60 \text{ gaz}^2 = 3600 \text{ gaz}^2 = 0.08194 \text{ gektar} = 900 \text{ metr}^2$ (1 gektar = 12 tanob).

Tassuj (arab.) – uzunlik o'lchovi. Gazning 24 dan bir qismiga teng. Eronda og'irlik o'lchov birligi: 1 tassuj = 0.182 gramm bo'lgan. Shuningdek, 1 tassuj 4.8 gramli misqolning 1/24 bo'lagiga teng kelgan. Bunda 1 tassuj = 1/24 misqol = 1/24 h 4.8 = 0.2 gramm. Markaziy Osiyoda tassuj o'rmida no'xat o'lchov birligi ishlatilgan. Masalan, Xorazmda 1 tassuj – 1/4 dirham 1/4 x 1,38 gramm = 0,345 gramm bo'lgan.

Tirsak – Qadimgi uzunlik o'lchov birligi. Uzatilgan qo'l barmoqlarining uchidan tirsagigacha bo'lgan masofa, tirsak kichkina (taxminan 0,5 metr) va katta, ya'ni shoh tirsak (taxminan 81.28 santimetr)larga bo'lingan.

Tong (hind.) – hind og'irlik o'lchovi. 1 tong – 4 mosha = 4/5 misqol. Agarda misqol 4.55 gramga teng deb olinsa, unda 1 tong = 3,64 gramm bo'ladi. Akbars-hoh davrida 1 tong = 20. 9628 gramm bo'lgan.

Triens (lot. triens) – Qadimgi Rim davlatida mis tanga, 1/3 assga (109,15 gramm) teng bo'lgan.

Umar ziro'i (arab. az-zira al-Umariyya) – 72.804 santimetrغا teng uzunlik o'lchov birligi.

Urna (lot. urna) – 1) kuydirilgan jasadning kulini saqlash yoki ko'mish uchun ishlatilgan sopol (kamdan-kam hollarda metall) idish. Ko'pgina xalqlarda eneolit davridan keng tarqalgan; 2) Qadimgi Rimda hajm o'lchov birligi, 4 kongiy, 288 siataga (13,1328 litr) teng bo'lgan.

Uqiya (arab.) – og'irlik o'lchov birligi. Hozirgi vaqtda 1 uqiya = 37,44 gramm. XI asr boshlarida 29,75 gramm bo'lgan.

Farsax, farsang, parsang, porasang (fors.) – Sharqda, jumladan, Markaziy Osiyoda qadimdan ishlatib kelingan masofa o'lchov birligi. Bir farsax 9-12 ming qadamga yoki 6-8 kilometrغا teng bo'lgan. Ayrim manbalarda 5760 metr deyilgan.

Farq (apab.) – Madinada amalda bo'lgan hajm o'lchovi. 1 farq 12.617 l. Iroqda 14.625 kilogramm, hajmda 19 litrغا teng.

Fatil (fors.) – eng kichkina o'lchov birligi. Qiymati arpa doni (jav)ning 492 dan bir bo'lagiga yoki hardal (gorchisa)ning 82 dan bir bo'lagiga tengdir. 1 fatil = $8,622 \times 10^2$ gramm.

Filj (arab.) – hajm o'lchovi birligi. 311 litrغا teng.

Fitr (arab.) – qarich, uzunlik o'lchov birligi. 22,5 santimetrغا teng.

Fuls (arab.) – oltin va kumushdan boshqa ma'danlardan zarb qilingan tanga.

Funduqa (arab. funduq- so'zidan) – Qadimgi og'irlik o'lchovi; qiymati 4,25 gramga teng. Sharq mamlakatlarida qo'llanilgan.

Funt (lot. pondus – og'irlik, vazn) – rus o'lchov birliklari tizimidagi og'irlik o'lchov birligi. 1 funt 1/40 pud, 30 lot, 96 zolotnik, 9216 dolyaga teng bo'lgan.

Fut (ingl. foot) – rus o'lchovlar tizimidagi uzunlik birligi. 1 fut 1/7 sarjin = 12 dyuym = 0.3048 metr; 1918 yili bekor qilingan.

Har dala (arab.) – og'irlik o'lchovi. 0.004 gramm, 0.00071 gramm, 0.000707 gramga teng.

Harnuba (arab.) – og'irlik o'lchovi. 1 qirot 0.195 bo'ladi.

Xon Qari (turk.) – uzunligi 215 santimetrغا teng uzunlik o'lchov birligi.

Xus (arab.) – hajm o'lchovi. Yog' uchun 3,060 kilogramm, sharob uchun 3.400 kilogramm, asal uchun 7,990 kilogrammغا teng.

Xums (arab. beshdan bir) – islom an'anasida musulmon qo'shinlari qo'lga tushirgan o'ljalarning (qad. G'animat) beshdan bir qismi. U avval Muhammad

payg'ambar ixtiyoriga, keyinchalik xalifalar xazinasiga (qadimgi. Bayt ul-mol) ajratilgan, qolgan qismini harbiy boshliqlar o'zlari va lashkarlarga taqsimlaganlar. Xums sifatida to'plangan mablag'larning beshdan bir qismi avval Muhammad alayhissalom va uning avlodlarini ta'minlashga, shuningdek, qo'shinlar harajatlariga sarflangan. Xalifalar va keyingi hukmronlar davrida X. xazinaga tushgan.

Siata (lot. cyathus) – Qadimgi Rimda suyuqlik hajmini o'lchashda ishlatilgan o'lchov birligi, 0,0456 litr.

Chaksa – O'zbekiston hududidagi qadimgi o'lchov birligi. Asosan, pudning 1/3 qismiga teng bo'lgan. O'zbekistonning Namangan, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlarida, Tojikistonning Xo'jand shabri atroflarida hozir ham aholi tomonidan foydalaniladi.

Chaqirim (chaqirmoq so'zidan) – Qadimgi uzunlik o'lchov birligi. Qadimdan Markaziy Osiyoda katta masofalarni o'lchash uchun qo'llanib kelgan. Qiymati 1200 qadamga teng. Agar bir qadam o'rtacha 0,75 metr ekanligi hisobga olinsa, unda 1 Ch. = 1200,75 = 900 metr = 0.9 kilometr ga teng. Biroq, XIX asr oxiridan boshlab chop etilgan adabiyotlarda 1 Ch. 1500 gazga tengligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Bunda gazning 0,71 + 0,72 metr ekanligi hisobga olinsa. 1 Ch. = 1500 (0,71 + 0,72) = 1,065 + 1,08 kilometr. Chor Rossiyasining 1894 yili rus o'lchov birligiga o'tishi to'g'risidagi ko'rsatmasi chiqqan davrgacha 1 Ch. = 0,9 kilometr, undan keyin 1 Ch. = 1,06 + 1.08 kilometr ga teng bo'lgan. Hozirgi vaqtda 1 chaqirim deganda 1 kilometr tushuniladi.

Chek, Chak – yuza o'lchov birligi. 1 chek = 541,9 m².

Chas (rus.) – Rossiyada qadimgi masofa o'lchov birligi, 5 kilometr.

Chorak (fors. – to'rt dan bir) – 1) Markaziy Osiyodagi eski og'irlik o'lchov birligi. Chorak qo'llanilish joyiga qarab har xil qiymatlarga ega bo'lgan. Buxoro, Samarqand va Toshkentda 1 misqol 4,82 gramm bo'lsa, 1 Ch. = 856 misqol = 856-4,8 = 4,1088 kilogramga teng bo'lgan va u katta Ch. deb yuritilgan. Uning yarmi, ya'ni 428 misqol = 428 – 4,8 = 2,0544 kilogramm kichkina chorak deb yuritilgan.

Cho'pgaz (fors.) – uzunlikni o'lchashda o'lchov vositasi. 105-110 santimetr ga teng. Yana gilam gazi (258 – 275 santimetr), ikki quloq uzunlikka teng to'qimachilar gazi va boshqalar ham bo'lgan.

Sha'riy (arab, – uzunlik o'lchov birligi. 2-3 kilometr ga teng.

Shirvoncha (fors.) – 200 mannga teng, ya'ni 166,4 kilogramga teng o'lchov birligi.

Shiutekutli – asteklarda olov va vulqonlar, shuningdek, xonadon xudosi.

Shishek (turk.) – og'irlik o'lchovi birligi. 18,43 kilogramga yoki 21,82 kilogramga teng. 1 shishek chorakning 1/4 bo'lagiga teng bo'lgan.

Shkalik (rus.) – rus o'lchov birligi, suyuqliklar hajmini o'lchashda ishlatilgan. 1/2 charka (0,06 litr) ga teng bo'lgan.

Shtof (nem. Stoff – katta qadah, kosa) – rus o‘lchov birligi, suyuqliklarni o‘lchashda qo‘llanilgan. 10 charka (1,23 l)ga teng bo‘lgan.

Shuturbor (fors.) – 10 mann 256 kilogramga teng. Xorazmda 16 pudga teng bo‘lgan.

Elik (turk.) – uzunlik o‘lchov birligi. Qiymati bilan barmoq kengligi, 2,1 –2,28 santimetrga teng. 1 elik 6 arpa doniga barobar bo‘lgan.

Era (lot. aera – ayni ma‘nosi tub son) – 1) xronologiyada yil hisobi tizimining boshlanish payti, shuningdek, yil hisobi tizimining o‘zi. Masalan, xristian yoki yangi era (bizning era) (Iso Masih tug‘ilgan sanadan yillarni hisoblash), musulmon era, hijriy era (Muhammad alayhissalomning Makkadan Madinaga ko‘chishi (hij- rat)dan, 622 yil); 2) yirik tarixiy davr.

Yuger (lot. jugerium) – Qadimgi Rimda 0,25 gektarga teng bo‘lgan yer o‘lchov birligi.

Yukcha – (turk.) o‘lchov birligi. Toshkentda bir manning 1/256 bo‘lagiga teng. Agar 10,5 pudli mann = 171,995 kilogramm bo‘lsa u holda, 1 yukcha 1/4 chorak = 1/256 mann = 171.995 kilogramm = 0,6718 kilogramm – 671,8 gramm bo‘ladi.

Yusuf ziro‘i (arab. az-zira al-Yusufiyya) – uch xil 52,539 santimetr 48,9 santimetr 49,875 santimetrga teng uzunlik o‘lchovi.

Yad ziro‘i (arab. az-zira al-yad) – qiymati 49,875 santimetrga teng bo‘lgan o‘lchov birligi.

Yambu (turk.) – pul birligi, kumush aqcha. Og‘irligi 1,8 kilogramm bo‘lgan.

Yasirak (fors.) – og‘irlik o‘lchov birligi. Qiymati 16 pudli manning 1/1024 bo‘lagiga teng. Agar yasirak 16 pudli mann = 262,088 kilogramm bo‘yicha aniqlansa, u holda 1 yasirak = 255,94x 256 gramm bo‘ladi.

Yatimat – (fors.) – og‘irlik o‘lchovi. Katta mann ulushi bo‘lib, uning 1/512 bo‘lagiga teng. Qiymati yasirakdan ikki barobar katta.

Unsir (turk.) – yuza o‘lchov birligi. Tanobning to‘rtidan biri, 453,69 m² ga teng.

Qabb. (arab.) – hajm o‘lchovi. U qafizning 1/6 bo‘lagiga teng. Bir qabb 19,47 kilogramm bug‘doyga yoki 25 litr hajmga teng.

Qadus (arab.) – Mag‘ribda qo‘llanilgan hajm o‘lchovi 3,159 litrga teng.

Qayla – og‘irlik o‘lchov birligi. 892,5 gramga teng.

Qamariy Yil – oying Yer atrofida bir aylanib chiqishi hisobidan kelib chiqqan yil hisobi, 354 kun.

Qari (turk.) – uzunlik o‘lchovi. 1 qari 75 santimetr (aslida 1 qari = 6 tutam yoki musht, 1 tutam = 4 elik.)

Qafiz (arab.) – og‘irligi 10,17 kilogramm bo‘lgan. Boshqa joy va turli davrlarda 45 kilogramm bug‘doy (hajmi 60 litr).

Qafch (fors.) – o‘lchov birligi. G‘arbiy Pomirdagi Xuf vodiysida vazni 24,57 kilogramga teng bo‘lgan.

Qintor (arab.) – tilla va boshqa qimmatbaho narsalarni tortish uchun qo‘llaniladigan o‘lchov birligi. 1 K- 100 ritl yoki 100 mann bo‘lgan. Tilla tortganda 1 K- 100 dinor = 42,33 kilogramm tillaga teng kelgan. Urta asrlarda K-ning besh xil turi bo‘lib, 45 kilogramdan 120 kilogramgacha edi.

Qiroat (arab. hM) – islom an‘anasida Qur‘on oyatlarini tajvid qoidalariga rioya qilgan holda, o‘ziga xos oxangda o‘qish. K – b-n tilovatning farqi shundaki, K. ilohiy oyatlar, vaxiyini o‘qishga ham, inson tomonidan bitilgan yozuv va she‘rlarni o‘qishga ham qo‘llanaveradi. Tilovat esa, asosan, vaxiy etilgan oyatlarni o‘qishdir.

Qirot (arab. – og‘irlik o‘lchovi. 1 qirot – 1/20 misqol yoki 1/32 qadahga teng bo‘lgan. Agar 1 qadah 2,062 deb olinsa, u holda, 1 qirot – 1/32 qadah = 0,064 litr.

Qist (arab.) – hajm o‘lchov birligi. Beruniy davrida 10 ritl = 3,4 litrga teng. Ibn Sino esa uch xil qiymati bo‘lgan. Qist haqida ma‘lumot bergan. 1. Qisti antaloqiy – 510 gramm. 2. Qisti rumiy – 566,66 gramm. 3. Qisti asal – 650 gramm. Iroqda esa ikki xil, ya‘ni kichik (1,21875 litr) va katta (2,4375 litr) hajmli qistlar bo‘lgan. Misrda 1 qist- 2.106 litr hajmga ega bo‘lgan.

Qitmir (arab.) – og‘irlik o‘lchov birligi. 0,045 gramga teng.

G‘irbak (arab. fors.) – og‘irlik o‘lchovi. XIX asrda u 1/2048 mann bo‘lgan (mann 16 pud). 1 g‘irbak = 1/2048 mann = 1/2048 x 262,088 = 127,97 = 128 gramm.

G‘aroma (turk.) – qiymati karam og‘irligiga teng, ya‘ni 0.743 gramdan 0.990 gramgacha bo‘lgan.

Hutva (arab.) – uzunlik o‘lchovi birligi. Uch qarichga, ya‘ni 76,5 santimetrغا teng bo‘lgan.

Hufuna (arab.) – og‘irlik o‘lchovi birligi. 17 gramga teng bo‘lgan.

Xronologiya – vaqt birligi, bo‘linishini o‘rganadi, xronos – vaqt, logos – fan.

Birinchi xronologiya haqidagi ma‘lumotnomalar to‘plami – XIX asrning 1-yarmida P.V. Xavskiy Xronologiya jadvalini tuzgan.

Abag‘amno – misrliklar qo‘shimcha besh kunni (kichik oy) deb ataganlar.

Anqnaqt – misrliklar kabisali yilni esa (alomat) deb ataganlar. Musriy- Misrliklar qo‘shimcha kunni so‘nggi oyining oxiriga qo‘shganlar va uni shunday ataganlar.

Kalendar – lotincha kalendarium so‘zidan olingan bo‘lib, qarz kitobi ma‘nosini anglatadi.

Kalendarium – Kalendar atamasi lotincha – qarz daftari degan ma‘noni beradi.

Oy – o‘lchov birligi, hafta vaqt birligi.

Oy kalendarlari – ko‘chmanchi (chorva) xalqlarda paydo bo‘lgan.

Oy – quyosh kalendarlari – O‘troq (dehqonchilik) xalqlar kalendarlari.

Vaqt o‘lchov birliklari – soat, minut, soniyalar.

Oy fazalari – Oyning Yer atrofidagi harakatlanishi davrida Quyoshga nisbatan egallaydigan vaziyatlari.

Safar – sariq, za'faron degan ma'noni beradi. Bu oyda arablarga halok qiluvchi yara toshar edi. Shuningdek, boshqa bir farazga ko'ra, safar oyida arablar «safariya» nomli guruh bilan birgalikda oziq-ovqat qidirganliklari uchun bu oyga shunday nom berilgan.

Rabi ul-avval – Rabi so'zi arab tilida bahor ma'nosini beradi. Ammo, qadimgi arablarrabi so'zinikuz ma'nosida ham qo'llanganlar. Ushbu oy kuz faslida kelgani uchun birinchi kuz ma'nosini anglatgan.

Jumodu-l-avval, Jumodu-s-soniy – bu ikki oy qish kunlariga, sovuq qat-tiq bo'lib, suv muzlagan paytini anglatuvchiga arabcha jamoda so'zidan olingan bo'lib, qotib qolmoq, muzlamoq ma'nosini beradi.

Rajab – arablar bu oyni ulug'laydilar, yana bu oyni kar oyi ham deb nomlaydilar, chunki bular bu oyda urush ovozini eshitmasdilar

Sha'bon – tashaaba so'zidan olingan bo'lib, tarqalmoq ma'nosini beradi. Ramazon – yondirmoq, jazirama oy ma'nolarini anglatadi. Bu oy yozning eng issiq paytiga to'g'ri kelgani uchun shunday atalgan

Shavvol – ko'tarilmoq, olib bormoq, ko'chirmoq ma'nolarini beradi. Arab qabilalari bu oyda o'z joylaridan ko'chib ketardi, shuning uchun shavvol deb nomlangan.

Zulqa'da – o'tirmoq, uyda qolmoq ma'nolarini anglatadi. Bu oyda urushlar bo'lmaydi.

Zulhijja – haj so'zidan olinib, haj qilish ma'nosini beradi. Arablar bu oyda haj qilganlar.

Animalist (lotincha animal hayvon) – hayvonlarni tasvirlovchi rassom.

Kompozisiya (lotincha compositio tuzilish, qurilish) – badiiy asardagi obrazlar va badiiy vositalarning muayyan g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan tartibda joylashishi.

Mensirtir – ibtidoiy tuzumga mansub arxeologik yodgorliklar, yakka va xalqa yoki alleyalar bo'lib joylashgan yirik toshlar.

Ikona – ikonografiya – (grek – tasvirlash)

David – afsonaviy qahramon.

Gattamelatta – shu davrning jangchi qahramoni.

Madonna – Bibi Maryam.

Grafika – sana'tning keng tarqalgan turlaridan biri. Bu sana'tga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mavzuli kompozisiya, kitobga ishlangan turli suratlar, bezak rasmlardir.



Gravyura – grafikaning bir turiga kiradi.

Sfinks – odam boshli, sher tanali afsonaviy hayvon.

Terrakota (italyancha) – pishirilgan loy. Haykaltaroshlik sana'atining ko'rishlaridan hisoblanadi.

ILOVALAR:

«Yordamchi tarixiy fanlar»ga doir arxeologik ashyolar
(intaliya, muhr, kameya, surguch, persten-pechat, gliptika)



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
I. O'zbekiston Respublikasi PREZIDENTI asarlari

1. *Mirziyoyev Sh.M.* Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: «O'zbekiston», 2017.

2. *Mirziyoyev Sh.M.* Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. –T.: «O'zbekiston», 2017.

II. Asosiy adabiyotlar:

1. Yordamchi tarixiy fanlar. O'quv qo'llanma. Tuzuvchi: M.Is'hoqov, –T.: TDSHI, – 2013. –B 160.

2. *Rita Runchock.* Auxiliary sciences of history, Gale Research, Michigan University, 2002. –P. 130.

3. *Bozorov O., Ahmedov R.* va boshqalar, «Yordamchi tarix fanlari», «Farg'o-na nashriyoti» 2015. –B.270.

III. Qo'shimcha adabiyotlar:

3. Авесто. Аскар Маҳкам таржимаси. Т.: «Шарқ» 2001. – Б. 370

4. *Boboyorov G'.* Choch tarixidan lavhalar. Т.: «Yangi nashr», 2010. –168.

4. *Бабаяров Г.* Древнетюркские монеты чачского оазиса (VI–VIII вв. н.э.). –Т.: «Yangi nashr», 2007.

5. *Давидович Е.А.* История монетного дела, Средней Азии XVII–XVIII вв (Золотые и серебряные монеты Джанидов), Душанбе, 1964. 311 с.

6. *Давидович Е.А.* Материалы по метрологии средневековой Средней Азии., М.: –1970. 101 с.

7. *Ishoqov M. Sodiqov Q.* Qadimgi yozma yodgorliklar. –T.: TDSHI, 2000.

8. *Исхоқов М.М.* Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. Древность, раннее средневековье. – Т.: УМЭД. 2008.

9. *Ермолаев И.П.* Историческая хронология, Казан, 1980.

10. *Ismoilov M, A.Sharopov.* Tarix atamallari lug'ati.- Т.: «Akadem», 2013.

10. *Karayev S.* O'zbekiston toponimikasi. – Т.: «Yangi avlod», 2005.

11. *Камалиддин Ш.С.* Древнетюркская топонимия Средней Азии. «Lambert» Берлин, 2006.

12. *Кузнецов и другие.* Монеты Чаганиана. Т., 2002.

13. *Климанов Л.Г.* Византийские отражения в сфрагистике, СПб.: Алетейя, 1999 г. – 249 с.

14. *Левандовский А.П.* В мире геральдики, М.: Вече, 2008. –218 с.

15. *Лихачев Н.П.* Дипломатика. Из лекций по сфрагистике, СПб.: ГТИБ, 2001 г. – 332 с.

16. *Леонтьева Г.А. Шорин П.А. Кобриц Б.В.* Вспомогательные исторические дисциплины, –М. 2002.
17. *Леонтьева Г.А.* Палеография, хронология, археография, геральдика, М. 2006.
18. *Медведев М.Ю.* Геральдика, или истинная наука о гербах, М.: Гербы и флаги, 2008. –144 с.
19. *Мельцин М.* Геральдика, нумизматика, сфрагистика, униформология. Вспомогательные исторические дисциплины, М. 2006.
20. *Пастуро Мишель.* Геральдика, Перевод с французского А.Г.Кавтаскина. – М.: Астрель: Издательство АСТ, 2003. –144 с.
21. *Пидаев Ш.* Тангалар давр кўзгуси, Т., 1984.
22. *Ртвеладзе Э.* Древние и ранне-средневековые монеты историко-культурных областей Узбекистана. Т., 2002.
23. *Ртвеладзе Э.* Нумизматика Центральной Азии, Т., 1990–2005 серия.
24. *Рахмонов Н., Матбоев Б.* Ўзбекистоннинг кўҳна туркий-рун ёзувлари, Т., 2006.
25. *Рахмонқулова З.* Хронология. –Т.: «Voris-Nashriyot» 2013.
26. *Соколова И.В.* Печати византийских императоров, Каталог коллекции. – СПб.: Издательство Государственного Эрмитажа, 2007. –120 с.
27. *Смирнова О.Н.* Сводный каталог согдийских монет, Бронзо. М., 1981
28. *Сагдуллаев А.* Ўрта Осиё ёзувлари, Т., 1990.
29. *Селешников С.И.* История календаря и хронология, – М.: «Наука», 1977.
30. *Тўхтиев И.* Темур ва темурийлар сулоласининг тангалари, Т., 1992.
31. *Фрайер С., Фергюсон Д.* Геральдика. Гербы – Символы – Фигуры, М.: АСТ, Астрель, 2011. -252 с.
32. *Чориев З., Шайдуллаев Ш., Аннаев Т.* Ўзбекистон худудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти, Т., 2007.
33. *Шагалов В.Д., А.В. Кузнецов.* Каталог монет Чача III–VIII вв. – Т.: «Фан». –2006. –328.
34. *Хўжаев А., Хўжаев К.* Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши, Т., 2000.
35. *Низомов А.* ва бошқалар. Топонимика, Т., 2013.
36. *Шер А.Я.* Петроглифы Средней Центральной Азии, М., 1980.
37. *Штайн Вернер.* Хронология Мировой цивилизации, 1-2 том, Мюнхен, 2003.
38. *Улемова П.С.* Введение в историю: Вспомогательные исторические дисциплины, Астана. 2007.
39. *Хинц В.* Мусульманские меры и веса с переводом в метрическую систему перевод с немецкого Ю.Э.Брегель. Москва 1970 г. 77 бет.

Internet saytlari:

40. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi
41. www.ziyouz.uz
42. www.e-tarix.uz
43. www.o‘zlib.kutubxona
44. www.kitob.uz
45. www.historicalbooks.com

MUNDARIJA

So'z boshu	3
------------------	---

I-bo'lim. «Yordamchi tarix fanlari»ning umumiy asoslari

1.1. Yordamchi tarix fanlarining maqsadi, vazifasi va metodologik asoslari	5
1.2. Paleografiya. Fanning mazmuni va mohiyati. Ish usullari	9
1.3. Markaziy Osiyo paleografiyasi.....	29
1.4. Epigrafika. Tarixiy ahamiyati, maqsadi va vazifalari	40
1.5. Numizmatika. Fanning predmeti, maqsadi va vazifalari	62
1.6. Markaziy Osiyo tarixiga doir numizmatik materiallar.....	79
1.7. Tarixiy toponimika. Fanning predmeti, maqsadi, vazifalari	102
1.8. Tarixiy atamashunoslik.....	116
1.9. Tarixiy metrologiya	137
1.10. Tarixiy xronologiya	163
1.11. Sfragistika. Muhr va uning tarixi	207
1.12. Geraldika.....	219

II bo'lim. Yangi yordamchi tarixiy fanlar

2.1. Yordamchi tarixiy fanlarning yangi sohalari.....	246
Mustaqil ta'lim topshuruqlari	262
Glossariy:	263
Ilovalar	283
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	284

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Mirsodiq Mirsultanovich Is'hoqov
Iso Baysoatovich Xudaynazarov

YORDAMCHI
TARIXIY FANLAR

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent – «NOSHIR» – 2019

Muharrir N. Norova
Rassom-dizayner Sh. Odilov
Texnik muharrir D. Safayeva
Musahhih S. Safayeva
Kompyuterda tayyorlovchi G. Qulnazarova

Nashriyot litsenziyasi AI № 254, 31.12.2014-y.
Bosishga 2019-yil 16-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 60x84^{1/16}. «Ofset» qog'ozi. «Times New Roman» garniturası.
Ofset qog'jzi. Ofset usulida chop etildi. Shartli bosma tabog'i 18,0.
Nashr tabog'i 18,0. Adadi 400 nusxa. Buyurtma № 40.

«NOSHIR» QK nashriyoti, 100020, Toshkent sh., Langar ko'chasi, 78.

«NOSHIR» O'zbekiston-Germaniya qo'shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi,
100020, Toshkent sh., Langar ko'chasi, 78.

M. IS'HOQOV, I. XUDAYNAZAROV

YORDAMCHI TARIXIY FANLAR



ISBN 978-9943-5485-9-6



9 789943 548596